O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HARBIY XAVFSIZLIK VA MUDOFAA UNIVERSITETI

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA HARBIY ALOQA INSTITUTI

“YUKSAK MA’NAVIY SALOHIYAT, VA HARBIY JANGOVAR QUDRAT MILLIY ARMIYAMIZNING ASOSI”
mavzusidagi Respublika ilmiy–uslubiy konferensiyasi



MAQOLALAR TO‘PLAMI

UO’K № 159.99: 159.91-99

26 sentabr 2025 yil



Konferensiya tashkiliy qo‘mitasining
T A R K I B I:

Harbiy unvoni, F.I.O.	Lavozimi
general-mayor Qarshiev H. A.	O‘R Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
general-mayor Shermatov F.O.	O‘R HX va MU boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari
polkovnik Mamadaliev U.O.	O‘R Mudofaa vazirligi harbiy kadrlarni tayyorlash boshqarmasi boshlig‘i
polkovnik Qodirov A.R	O‘R HX va MU boshlig‘ining ilmiy va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari - tadqiqotlar instituti boshlig‘i
podpolkovnik Raximov B.N.	Rais, O‘R HX VA MU AKT va HAI boshlig‘i, DSc, professor
kapitan To‘raev B.Z.	Rais o‘rinbosari, O‘R HX VA MU AKT va HAI boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha), DSc, professor
podpolkovnik Murodov F.A.	O‘R HX va MU AKT va HAI boshlig‘ining o‘rinbosari-shtab boshlig‘i, PhD
podpolkovnik Shermatov F.T.	O‘R HX VA MU AKT va HAI boshlig‘ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, DSc, dotsent
kapitan Turapov Sh.A.	O‘R HX va MU AKT va HAI kafedra boshlig‘i, DSc, professor
polkovnik Nurmatov T.Sh.	O‘R HX va MU AKT va HAI malaka oshirish markazi boshlig‘i, dotsent
QK xizmatchisi Muxitdinov X.A.	O‘R HX va MU AKT va HAI ilmiy - tadqiqotlar laboratoriyasi yetakchi ilmiy xodimi, i.f.n., professor
QK xizmatchisi Nazarov A.M.	O‘R HX va MU AKT va HAI ilmiy - tadqiqot laboratoriyasi yetakchi ilmiy xodimi, t.f.d., professor
QK xizmatchisi Sultanov D.I.	O‘R HX va MU AKT va HAI ilmiy – tadqiqot laboratoriyasi yetakchi ilmiy xodimi, h.f.d., katta ilmiy xodim
QK xizmatchisi Qurbonov Sh.K.	O‘R HX va MU AKT va HAI ilmiy - tadqiqot laboratoriyasi katta ilmiy xodimi, t.f.n., dotsent
polkovnik Mirjalolov O.A.	O‘R HX va MU AKT va HAI kafedra boshlig‘i, PhD, dotsent
kapitan Yusupov B.K.	O‘R HX va MU AKT va HAI kafedra boshlig‘i, PhD, professor
podpolkovnik Tursunov Q.M.	O‘R HX va MU AKT va HAI kafedra boshlig‘i, PhD, dotsent
podpolkovnik Nishanov I.P.	O‘R HX va MU AKT va HAI kafedra boshlig‘i, PhD, dotsent
podpolkovnik Nurmetov B.S.	O‘R MV AKT va AHI kafedra boshlig‘i, PhD, dotsent
podpolkovnik Umarov G‘.A.	O‘R HX va MU AKT va HAI kafedra boshlig‘i, PhD, dotsent
podpolkovnik Bahromov F.B.	O‘R HX va MU AKT va HAI oliy ta’limdan keyingi ta’lim bo‘limi boshlig‘i, h.f.n., dotsent

Harbiy unvoni, F.I.O.	Lavozimi
kapitan Boboyev N.T.	O‘R HX va MU AKT va HAI ilmiy - tadqiqot laboratoriyasi boshlig‘i, PhD
podpolkovnik Tursunov T.M.	O‘R HX va MU AKT va HAI kafedra boshlig‘i
mayor Ko‘zibekov N.S.	O‘R HX va MU AKT va HAI o‘quv bo‘limi boshlig‘i
podpolkovnik Saidjanov F.M.	O‘R HX va MU AKT va HAI sikl boshlig‘i, dotsent
podpolkovnik Madraximov T.X.	O‘R HX va MU AKT va HAI malaka oshirish markazi katta o‘qituvchisi
kapitan Maxmudov Sh.T.	O‘R HX va MU AKT va HAI malaka oshirish markazi katta o‘qituvchisi
QK xizmatchisi Pardayev X.S	O‘R HX va MU AKT va HAI malaka oshirish markazi dotsenti, PhD, dotsent
QK xizmatchisi Abdigapirov A.A	O‘R HX va MU AKT va HAI malaka oshirish markazi dotsenti, t.f.n., dotsent
QK xizmatchisi Alayev S.R	O‘R HX va MU AKT va HAI malaka oshirish markazi dotsenti
QK xizmatchisi Mirzaolimov A.Q	O‘R HX va MU AKT va HAI malaka oshirish markazi katta o‘qituvchisi
QK xizmatchisi Otakulov A.S	O‘R HX va MU AKT va HAI malaka oshirish markazi katta o‘qituvchisi

Muassis:

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universiteti Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Manzil:
100084, O‘zbekiston, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Quyoshli qo‘rg‘oni 176 h/sh.
Telefon: *(71)502-71-08, (71)502-71-12;*
e-mail: *harbiyinstitut176@mail.ru*

Bosishga ruxsat etildi:
Qog‘oz bichimi 60x84 1/8
Bosma tabog‘i 15,5. Adadi 2 nusxa
Buyurtma raqami №195 “Harbiy instituti bosmaxonasi”da chop etildi
O‘zbekiston, Toshkent viloyati,
Zangiota tumani
Quyoshli qo‘rg‘oni 176 h/sh.

© «O‘R HX va MU AKT va HAI» 2025

MUNDARIJA

I-SHO‘BA

1.	**PhD, dotsent MIRASHIROVA N. A., PhD ASHURMATOV M.K.** Professional psixolog faoliyatida irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi……	9
2.	**dotsent ALLAYAROV D.U., PhD, dotsent MIRJALOLOV O.A.** Milliy armiyada ma’naviy salohiyatni kuchaytirish: tarixiy meros va zamonaviy harbiy psixologiya uyg‘unligi.....	14
3.	**dotsent SAYDJANOV F.M.** Chet el davlatlarining oliy harbiy ta’lim muassasalarida tarbiya va kasbiy javobgarlikni shakllantirish xususiyatlari (*Buyuk britaniya, Germaniya, Isroil, AQSH, Fransiya misolida*).....	18
4.	**dotsent IDIEV E.I.** Shaxsiy tarkibning jangovar ruhini oshirishda komandirning o‘rni va roli.....	25
5.	**OTOKULOV A.S., DAVLETBAYEV D.YE.** Harbiy xizmatchilarning vatan oldidagi shaxsiy mas’uliyati ma’naviy-axloqiy fazilatlarini yanada boyitish omili.....	30
6.	**MAXMUDOV SH.T.** Strategik axborot infratuzilmasida tarmoq monitoringini avtomatlashtirishdagi mavjud muammolar tahlili……	36
7.	**UMARALIYEV B.N.** Harbiy xizmatchilarning moslashuv davridagi ruhiy holati.....	42
8.	**QORABOEV A.I.** Axborot-psixologik qarshi kurashning qo‘shinlar jangovar ruhiga ta’siri.....	51
9.	**TEMIROV S. Sh.** Pedagogical methods of combating the influence of negative information.....	61
10.	**RAVSHANOV A.R.** Harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlashda jangovar va milliy ruhning ahamiyati.....	65
11.	**ABDUMO‘MINOV Q. K.** Harbiy xizmatchilarning boshqaruvchanlik ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash	70
12.	**ABDUMO‘MINOV Q. K.** Yosh ofitserlarda boshqaruv madaniyatini shakllanishining psixologik asoslari.....	78
13.	**SAYDJANOVA K. D.** Bo‘lajak pedagoglarda o‘z-o‘zini boshqarish ma’daniyatini shakllantirish tizimi.....	83
14.	**SAYDJANOVA K. D.** Innovatsiya – zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida.....	88
15.	**AKBARALIYEVA A.T.** Bo’lajak psixologlarning intelektual moslashuvchanlik va adaptiv o’qish ko’nikmalarini rivojlantirish……	91
16.	**QO‘CHQOROV S. A., MAHMUDXONOV S. A.** Harbiy yetakchilik: serjant or lavozimining strategik va psixologik ahamiyati…….....	95
17.	**KARIMJANOVA Y. U., SHOYUSUFOVA M. K.** Harbiy xizmatchilarda milliy va jangovor ruhni rivojlantirishning psixologik asoslari.....	103

18.	**MIRYUSUPOV M.M.** Bo‘lajak kadrlarning kasbiy sifatlari va ularning psixologik boshqaruvchanligni takomillashtirish yo‘llari.....	**108**
19.	**AXMEDOV SH. A.** Psixolingvistikaning fan sifatida rivojlanishining psixometodologik determinantlari……...	**116**
20.	**MIRSIDIKOVA A. M.** Harbiy xizmatchilardagi stresslar psixoprofilaktikasining shakllari, usullari va vositalari……..	**123**
21.	**VALIYEV A. A.** Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish: pedagogik va psixologik muammolar.....	**127**
22.	**TILLOYEV U. U.** Ta`lim muassasalarida tarbiya jarayoni samaradorlogining asosiy psixologik shart sharoitlari.....	**130**
23.	**XOLIQOV I. R.** Harbiy xizmatchilarda milliy va jangovar ruhni rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari.....	**135**
24.	**YO‘LDOSHEV J.X.** Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda ijtimoiy motiv masalasining tadqiq etilganligi.....	**137**
25.	**YO‘LDOSHEV J.X., TUYCHIYEVA S.M.** Qobiliyat va uning harbiy xizmatchi taraqqiyotidagi o‘rni.....	**141**
26.	**dotsent SAYDJANOV F. M.** “Yuksak ma’naviy salohiyat va harbiy jangovar qudrat milliy armiyamizning asosi”.....	**144**
27.	**dotsent SAYDJANOV F. M.** Harbiy xizmatchilarni jangovar navbatchilikga tayyorlashning empirik tahlili.....	**147**
II-SHO‘BA		
28.	**RAXIMOV Sh. M.** Millat fidoyilari xotirasi yuksak jangovar shaylik garovi.....	**160**
29.	**PhD, dotsent, PARDAYEV X. S.** Milliy harbiy tarixni o‘rganish yuksak jangovar shaylik timsoli……..	**171**
30.	**dotsent XOLMATOV N.M.** Axborot urushlari davrida tarixiy xotira va ma’naviy-ruhiy tarbiya: milliy armiyaning jangovar salohiyatini mustahkamlash yo‘llari…….....	**179**
31.	**dotsent XUDAYAROV A. Sh.** Harbiy yoshlarning ma‘naviy-ruhiy tarbiyasida jadidlar merosining ahamiyati…….....	**184**
32.	**SORIYEV X. YA.** Amir Temurning harbiy strategik va jang san’ati merosidan harbiy ta’limda foydalanish uslublari…….....	**191**
33.	**OSTONOV Z. Z.** Buyuk sarkarda ajdodlarimiz jasoratining yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati: jaloliddin manguberdi misolida……	**196**
34.	**dotsent NAZAROV T.T., ABDIRASHIDOV U.M.** Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bobur asarlarining ahamiyati……..	**204**

35.	**PRIMOVA M.M.** Oiladagi ma’naviy-ruhiy tarbiya yuksak jangovar shaylik garovi	**207**
36.	**RAHIMOVA G.A., O‘TKUROVA M.B.** Oila-milliy qadriyatlar va ma’naviyat maskanidir……	**210**
37.	**YO‘LDOSHEV J.A.** Tarixdagi xorijiy olimlarining motivatsiya muammolarini o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlari.....	**214**
38.	**p.f.n., dotsent SARIBAYEVA U.A.** Gender asimmetriyaning ijtimoiy-psixologik talqini asosida ma’naviy-ruhiy tarbiyani rivojlantirish.....	**217**
	III-SHO‘BA	
39.	**h.f.d., professor ABDURAYIMOV S.S., KUZIBEKOV N.Sh.** Ta’limning dual shakli algoritmini ishlab chiqish va qo‘shinlarning taktik qo‘mondonligi yo‘nalishida qo‘llashni asoslash……...	**223**
40.	**p.f.d. (DSc), dotsent SHERMATOV F.T.** Harbiy kadrlarni tayyorlashda axborot xurujining o‘ziga xos xususiyatlari.....	**229**
41.	**PhD, dotsent PARDAYEV X. S.** Bugungi tahlikali vaziyatlarda harbiy radioaloqa operatorlarini tayyorlash tamoyillari.....	**235**
42.	**t.f.n., dotsent QURBANOV Sh.K., dotsent ABDUSATTAROV Q.M.** Ilmiy kadrlarni tayyorlashda ilmiy loyihalarni ahamiyati…….....	**240**
43.	**PhD ДАВЛАТОВ У. Р., АБЗАЛОВ Д.Р., ХАЛМАТОВ И.М.** Совершенствование подготовки военных радиотелеграфистов с использованием технологий искусственного интеллекта…….....	**243**
44.	**ТАЛИПОВ О. О.** Противодействие мошенничеству: изучение международного и национального опыта……	**250**
45.	**dotsent KAMBOROV K.N., PhD, dotsent MIRJALOLOV O.A.** Harbiy bilim yurtlarida ta’limni rivojlantirishda test topshiriqlarini to‘g‘ri shakllantirish va uning o‘rni.…….....	**254**
46.	**PhD, dotsent UZOQOV A.M., NARZULLAYEV M.Z.** Ofitser-o‘qituvchilar bilimi, ko‘nikmasi va malakalarini tekshirish va baholashning zaruriy ahamiyati.....	**259**
47.	**dotsent MAMARAUFOV O.A.** Malakali ofitser kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish…….....	**263**
48.	**dotsent XUDAYAROV A. Sh.** Harbiy xizmatchilar ta’limi jarayonining asosiy qismlari va ta’limi prinsiplari.....	**268**
49.	**dotsent YAKUBOV X.U.** Radioelektron kurash mutaxassislarini tayyorlashda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash istiqbollari.....	**276**
50.	**dotsent ABIDOV A.A.** Tahlikali holatlarda harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta o’qitishning o’ziga xos xususiyatlari.....	**283**
51.	**dotsent TOJIYEV X.X.** Bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishda ta’lim texnologiyalarining o‘rni.	**288**

52.	**MADRAXIMOV T.X., MIRZAOLIMOV A.Q.** Harbiy oliy ta’lim muassasalarida taxsil oluvchilarni o‘qitishda rag‘batlantirish usullari.....	**294**
53.	**MAXMUDOV Sh.T., ALAYEV S.P.** Bugungi tahlikali vaziyatlarda harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning o‘ziga xos jihatlari *(Rossiya – Ukraina urushi misolida)*.....	**302**
54.	**MURODOVA Y.T.** Bo‘lajak ofitser kadrlarning harbiy-kasbiy tayyorgarligi sifatini ta‘minlash jarayonining mazmun-mohiyati va tarkibiy xususiyatlari…….	**307**
55.	**AXMEDOVA M.D.** Malaka oshirish tizimi pedagogik faoliyatida kasbiy kompetentsiyaning o‘rni va roli.....	**310**
56.	**ТАЛИПОВ О. О.** SOC как инструмент укрепления информационной безопасности и кибербезопасности банков и платёжных систем…….	**314**
57.	**DADILOV B.A.** Zamonaviy kriptografik algoritmlar: tahlil, qo‘llanilishi va post-kvant davri muammolari.....	**318**
	IV-SHO‘BA	
58.	**p.f.n., professor BEKNAZAROV A.P., p.f.n. XOLMATOV P.T., GANIYEVA N.S.** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asarlarida milliy tarbiya masalalarining yoritilishi.....	**326**
59.	**t.f.n. JABBOROV A.X, p.f.n., professor BEKNAZAROV A. A.** Yoshlarda ma’naviy- axloqiy dunyoqarashni shakllantirishning maqsad va vazifalari.	**333**
60.	**p.f.n. XOLMATOV P.X., p.f.n. professor BEKNAZAROV A.A.** Yoshlarimizni “milliy tarbiya” asosida tarbiyalashning pedagogik va psixologik asoslari..	**337**
61.	**p.f.n. XOLMATOV P.X., ABDURASULOVA D.A., p.f.n., professor BEKNAZAROV A.A.** Milliy tarbiya mazmuni va uni yoshlarimizda shakllantirish masalalari……..	**344**
62.	**dotsent ALLAYAROV D.U.** Xalqaro xavf-xatarlar sharoitida yoshlarni vatan himoyasiga safarbar etishning ma’naviy va ijtimoiy asoslari ……	**346**
63.	**ДЖУРАЕВ Р.З.** Проблемы мобилизованности молодежи в республике узбекистан и меры по их решению.....	**350**
64.	**dotsent SOLIYEV A.B.** Mamlakat yoshlarining vatan himoyasi uchun safarbar etishda mavjud muammolar va ularning yechimlari.....	**357**
65.	**TADJIBAEV Z.A.** Lokal urushlarda aloqa bo‘linmalarining jangovar vazifalarni bajarishidagi ruhiy holati bo‘yicha mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.....	**362**
66.	**KUZIBEKOV N.SH., ESHIMOV J.R.** Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – mamlakat mudofaa salohiyatining tayanchidir.....	**366**
67.	**RAXIMOV U.M.** Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, umuminsoniy va axloqiy qadriyatlar.....	**373**
68.	**BOZOROV A.A.** Talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish.....	**376**

69.	**YO‘LDOSHEVA H. N.** Internet tarmoqlarning talaba yoshlar rivojlanishiga ta’sirining psixologik xususiyatlari……..	**380**
70.	**NABIYEV S. A.** Yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini tarbiyalash va uning ta‘lim – tarbiya jarayonidagi ahamiyati.....	**384**
71.	**dotsent XAYDAROV M.X.** O‘quvchi yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi……..	**388**
72.	**YO‘LDOSHEV J. A., SAYFIYEVA S. O.** Yuqori sinf o‘quvchilarida liderlikning psixologik xususiyatlari……	**394**
73.	**XIKMATOV A.I., QANDOV Z.N.** Yoshlarni vatan himoyasiga tayyorgarligini rivojlantirishda “vatanparvarlik” tushunchasi va uning mohiyati……	**398**
74.	**PhD UMAROV G’.J.** Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi psixologik muammo sifatida……	**402**
75.	**PhD UMAROV G’.J.** Talaba yoshlardagi liderlik xususiyatlarini kiberni himoyalashda foydalanish……	**406**
76.	**INXONOVA A.A.** Yoshlarni vatan himoyasiga safarbar etishda notiqliklikning ahamiyati…….	**409**

I -SHO‘BA

HARBIY XIZMATCHILARDA MILLIY VA JANGOVAR RUHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK JIHATLARI

PROFESSIONAL PSIXOLOG FAOLIYATIDA IRODAVIY SIFATLARNING NAMOYON BO‘LISHI

PhD, dotsent Mirashirova N. A.,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti

PhD, Ashurmatov M.K.
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kasbiy faoliyatda irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi, mazkur jarayonning professional psixolog faoliyatiga ta’siri va irodaviy sifatlarni o‘rganishning empirik tadqiqotlari natijalari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: professional psixolog, kasbiy faoliyat, irodaviy sifatlar, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, jur’atlilik, mustaqillik, matonatlilik, qat’iylik, g‘ayratlilik, e’tiborlilik, maqsadga intiluvchanlik.

Аннотация. *В данной статье анализируются проявление волевых качеств в профессиональной деятельности, влияние данного процесса на деятельность профессионального психолога и результаты эмпирических исследований изучения волевых качеств.*

Ключевые слова: профессиональный психолог, профессиональная деятельность, волевые качества, ответственность, инициативность, смелость, самостоятельность, настойчивость, решительность, энтузиазм, внимательность, целеустремленность.

Zamonaviy dunyoda professional psixologiyasi nafaqat psixologik, balki siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, makroiqtisodiy, ekologik va hayotning boshqa jihatlarini o‘z ichiga oladi. Bu bizni har bir jihatni ijtimoiy va kasbiy kenglik murakkab tasvirining o‘ziga xos proeksiyasi sifatida tadqiq qilish uchun ko‘p tarmoqli yondashuvga jalb qilish zarurligiga olib keladi. Biroq, zamonaviy professional psixologiyasida bu barcha jihatlar munosabatlarning yagona sabab tizimi elementlari bilan o‘zaro bog‘liqdir, shuning uchun professionalni adekvat tadqiq qilish – tizimli yondashuv nuqtai nazaridan transdissiplinar tarzda ko‘rib chiqishni talab etadi [1].

Insonning o‘z kasbiga bo‘lgan sadoqatini namoyon etishi o‘sha kasbda o‘z kelajagini ko‘ra olishi bilan bog‘liqdir. S.L.Rubinshteyn ta’kidlaganidek, har qanday faoliyatning maqsadi – bu kelajakdagi kasbiy faoliyatni ongli ravishda oldindan bilishdir [2].

Tadqiqot maqsadi. shaxsning irodaviy sifatlarini o‘rganish va uning professional psixolog faoliyatiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Professional psixolog faoliyatning o‘ziga xosligi har qanday vaziyatda turli vazifalarni to‘laqonli bajarish bilan birga ulardan qiyin va cheklangan sharoitda chidamlilik, sobitqadamlik, jur’atlilik, tashabbusorlik kabi bir

qator qobiliyatlarni talab etadi. Bu esa psixologning irodaviy harakatlari bilan bog‘liq. Psixologiyada shaxs irodaviy sifatlarini o‘rganishning turli usullari qo‘llaniladi.

Professor A.I.Rasulov tomonidan yurtimizda amalga oshirilgan dissertatsion tadqiqotlarda qo‘llanilgan metodikalar bo‘yicha o‘tkazilgan tahlilda shaxsning motivatsiya, emotsiya va irodaviy sohalarini sohalarini tadqiq qilish metodikalari (20,33 %) ko‘p marotaba qo‘llanilganligi qayd etilgan [3].

Shulardan biri M.V.Chumakovning “Shaxsning irodaviy sifatlari” so‘rovnomasi hisoblanib, ushbu so‘rovnomadan M.B.Narzullayeva, G.I.Sattarova, J.D.Ramazonov, F.T.Egamberdiyev, G.O.Tulyaganova, A.E.Turaxonov, o‘z tadqiqotlarida irodaviy sifatlarni aniqlash maqsadida foydalanishgan [4].

M.V. Chumakovning “Shaxsning irodaviy sifatlari” so‘rovnomasi [5] professor E.G‘.G‘oziyev tomonidan modifikatsiya qilingan bo‘lib, so‘rovnomaning mohiyati, uning prinsipi, tuzilishiga binoan semantik o‘xshashlikka ega bo‘lgan atamalar (sifatlar, fazilatlar)ga asoslanib, shaxsning irodaviy sifatlarini muayyan shkalalarga ajratish mumkin. Har bir irodaviy sifat o‘z navbatida salbiy va ijobiy qutblarga birlashtirilgan:

1. Mas’uliyatlilik: a) mas’uliyatli, intizomli; b) mas’uliyatsiz, ishonchsiz, pala-partish; Ushbu shkala bo‘yicha yuqori ballar mas’uliyatli, majburiyatni xis qiladigan. Qoidaga ko‘ra ular intizomli va o‘z vazifalarini qunt bilan bajaradilar. Past ballar sinaluvchilarning ishonchsiz va pala-partish ekanligini ifodalaydi. Ular o‘zlariga majbariyatlarni olmaydilar hayotga yengil qaraydilar va kam tashvishlanadilar.

2. Tashabbuskorlik: a) yetakchi, ishbilarmon, kuchli, tashabbusli, g‘ayratli, obro‘li, uzoqni ko‘ruvchanlik; b) sust, betashabbus, loqayd; Yuqori ballar tashabbuskor, liderlik tendensiyalari yuqori bo‘lgan faol odamlarga xos. Ular o‘zgartirish zarur bo‘lgan va innovatsion yondashuv talab qilinadigan vaziyatlarda yaxshi faoliyat olib boradilar. Yuqori ijodkorlik va intellektual qobiliyatlar bilan birgalikda ular juda samarali bo‘lishi mumkin. Passiv sinaluvchilar past ball oladilar. Ularni mavjud vaziyat qoniqtiradi va biror narsani o‘zgartirishga moyil emaslar. Liderlik uchun o‘zlari intilmaydilar. Tez o‘zgaruvchan vaziyatlardan ko‘ra, barqaror holatlarda samarali ishlaydilar.

3. Jur’atlilik (qat’iyatlilik): a) jasoratli, dalil ishonchli, qat’iy; b) juratsiz, ishonchsiz, ikkilanuvchi, shuvhalanuvchi; Yuqori ballar tez va ishonchli qaror qabul qiladigan shaxslarni bildiradi. Ular uzoq vaqt o‘ylab o‘tirmaydilar. Ba’zan qaror qabul qilish tezligi impulsivlikni chaqirishi mumkin. Past ballar qaror qilmaydigan, ishonchsiz, doimiy shubhalanuvchilarga tegishli. Uzoq ikkilanishlardan so‘ng qaror qabul qiladilar va bu yetarlicha barqaror bo‘lmaydi.

4. Mustaqillik: a) mustaqil, erkin; b) nomustaqil, boshqariluvchan, itoatkor bo‘ysunuvchan; Yuqori ballar doimiy psixologik yordamga muxtoj bo‘lmagan, mustaqil qaror qabul qiluvchi, o‘z fikriga guruh a’zolari qo‘shilmagan hollarda ularga qarshi tura

oladigan shaxslarni namoyon etadi. Past ballar unchalik mustaqil bo‘lmagan, takliflarga rozi, guruh fikriga bog‘liqlikni bildiradi.

5. Matonatlilik (sabr-toqatlilik): a) sabr-toqatli, chidamli, aqlli; b) sabrsiz, toqatsiz, shoshqaloq; Yuqori ballar o‘z emotsiyalarini boshqaruvchi, yuklamalarga chidamli, monoton faoliyatni yengishga qodir shaxslarni ifodalaydi. Bunday shaxslar o‘z holatini yaxshi boshqaradilar. Past ballar emotsiyalarni erkin ifodalovchi, qiziq bo‘lmagan ishlarni bajaruvchi va yuklamalarga rozi bo‘luvchi shaxslarga tegishli.

6. Qat’iylik (tirishqoqlik): a) tirishqoq, jasur, shijoatli, intiluvchan; b) quvvatsiz, shijoatsiz, nimjon, yalqov; Yuqori ballarni qat’iyatli, maqsadga erishish yo‘lidagi to‘siqlarni yengib o‘tishga qodir shaxslar qo‘lga kiritadilar. Muvaffaqiyatsizliklar ularni bezovta qilmaydi. Ular o‘z maqsadiga erishish uchun qayta va yana qayta harakat qilishga qodir. Past ballar yumshoq odamlar uchun xosdir. Omadsizlik va muvaffaqiyatsizlik ularni ruhini tushiradi va mavjud to‘siqlar ularni o‘z maqsadidan voz kechishga majbur qiladi.

7. G‘ayratlilik: a) faol, g‘ayratli, serg‘ayrat; b) bequvvat, lanj, nekbinlik, turg‘unlik; Yuqori ballar faollik va quvvatni bildiradi. Bunday shaxslar faol, mehnatsevar va hayotga optimist qaraydilar. Past ballar uncha aktiv bo‘lmagan, tez charchaydigan, o‘zlarini pessimist ko‘rsatadiganlarga beriladi.


8. E’tiborlilik (ziyraklik): a) hushyor, ixcham; b) loqayd, beparvo, fahmsiz, ishonuvchan; Yuqori ballar o‘z diqqatini ixtiyoriy ravishda konsentratsiyalashga qodir shaxslarga tegishli. Ular uncha qiziq bo‘lmagan ishlarda ham uni barqaror ushlab turishadi. Ular uchun xotirjamlik va ishga chuqur sho‘ng‘ish xosdir. Past ballar ixtiyoriy ravishda o‘z diqqatini konsentratsiyalashi qiyin bo‘lgan shaxslarga xosdir. Ular oson chalg‘ishi va diqqatni jamlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

9. Maqsadga intiluvchanlik (sobitqadamlik): a) sobitqadam, qat’iyatli, tirishqoq, shaddatli; b) qat’iyatsiz, ikkilanuvchan, o‘zgaruvchan va hokazo. Yuqori ballar hayotda ongli maqsadlari borligini bildiradi. Qoidaga ko‘ra ular o‘z ishlarini va vaqtlarini rejalashtirib borishadi. Past ballar maqsadlarning aniq emasligi va ularga erishishda qat’iyat yo‘qligini bildiradi. Bunday odamlar o‘zlari nima xoxlayotganligini har doim ham tushunishmaydi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot davomida sinaluvchilarning irodaviy sifatlari shakllanganlik darajasi quyidagicha namoyon bo‘ldi (1-rasmga qarang).

Tahlilga ko‘ra, Ma’suliyatlilik shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 20 %, 2 toifa 17 %, 3 toifa 18 %; *o‘rta* – 1 toifa 78 %, 2 toifa 70 %, 3 toifa 73 %; *past* – 1 toifa 2 %, 2 toifa 13 %, 3 toifa 9 %; sinaluvchilarnini tashkil etdi. Ushbu shkala bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan ishtirokchilar mas’uliyatli, majburiyatni xis qiladigan. Qoidaga ko‘ra ular o‘z vazifalarini qunt bilan bajaradilar. Tadqiqotda bunday ishtirokchilar ko‘p sonli ekanligini aniqladik.

Tashabbuskorlik shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 18 %, 2 toifa 6 %, 3 toifa 3 %; *o‘rta* – 1 toifa 71 %, 2 toifa 72 %, 3 toifa 73 %; *past* – 1 toifa 11 %, 2 toifa 22 %, 3 toifa 24 %; sinaluvchilarni tashkil etdi. Yuqori ballar tashabbuskor, liderlik tendensiyalari yuqori bo‘lgan faol ishtirokchilarga xos bo‘lib, ular o‘zgartirish zarur bo‘lgan va innovatsion yondashuv talab qilinadigan vaziyatlarda yaxshi faoliyat olib boradilar. Sinaluvchilarning 1 toifasida bu narsa yaqqol kuzatildi. Past ball olganlar ham yetarlicha bo‘lib, ularni mavjud vaziyat qoniqtiradi va biror narsani o‘zgartirishga moyil emaslar. Liderlik uchun o‘zlari intilmaydilar. Bundaylar tez o‘zgaruvchan vaziyatlardan ko‘ra, barqaror holatlarda samarali ishlaydilar.



3.1. - rasm. Ishtirokchilarda irodaviy sifatlar shakllanganligining umumiy ko‘rinishi

Jur’atlilik (qat’iyatlilik) shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 10 %, 2 toifa 7 %, 3 toifa 8 %; *o‘rta* – 1 toifa 88 %, 2 toifa 83 %, 3 toifa 87 %; *past* – 1 toifa 2 %, 2 toifa 10 %, 3 toifa 5 %; ni tashkil etdi. Yuqori ballarga ega ishtirokchilar tez va ishonchli qaror qabul qiladigan shaxslarni bildiradi. Ular uzoq vaqt o‘ylab o‘tirmaydilar. Ba’zan qaror qabul qilish tezligi impulsivlikni chaqirishi mumkin. Past ballarni egallaganlar esa qaror qilmaydigan, ishonchsiz, doimiy shubhalanuvchi bo‘lib, ular uzoq ikkilanishlardan so‘ng qaror qabul qiladilar va bu yetarlicha barqaror bo‘lmaydi.

Mustaqillik shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 17 %, 2 toifa 5 %, 3 toifa 4 %; *o‘rta* – 1 toifa 76 %, 2 toifa 82 %, 3 toifa 90 %; *past* – 1 toifa 7 %, 2 toifa 13 %, 3 toifa 6 %; ni tashkil etdi. Yuqori ballar doimiy psixologik yordamga muxtoj bo‘lmagan, mustaqil qaror qabul qiluvchi, o‘z fikriga guruh a’zolari qo‘shilmagan hollarda ularga qarshi tura oladigan shaxslarni namoyon etadi. Olingan natijalar bunday ishtirokchilarning 3 toifasida ko‘pchilikni tashkil etishini ko‘rsatmoqda.

Matonatlilik (sabr-toqatlilik) shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 25 %, 2 toifa 12 %, 3 toifa 13 %; *o‘rta* – 1 toifa 70 %, 2 toifa 75 %, 3 toifa 76 %; *past* – 1 toifa 5%, 2 toifa 13 %, 3 toifa 11 %; ni tashkil etdi. Yuqori ballar egalar o‘z emotsiyalarini boshqaruvchi, yuklamalarga chidamli, monoton faoliyatni yengishga qodir shaxslarni ifodalaydi. Ular o‘z holatini yaxshi boshqaradilar. Bu kabi ishtirokchilar 1 toifada ko‘pchilikni tashkil etadi. Past ballar emotsiyalarni erkin ifodalovchi, qiziq bo‘lmagan ishlarni bajaruvchi va yuklamalarga rozi bo‘luvchi shaxslarga tegishli. Ularga o‘zlarini nazorat qilish yetishmaydi va o‘zini tutib turish qiyin bo‘ladi.

Qat’iylik (tirishqoqlik) shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 12 %, 2 toifa 9 %, 3 toifa 6 %; *o‘rta* – 1 toifa 75 %, 2 toifa 86 %, 3 toifa 90 %; *past* – 1 toifa 3%, 2 toifa 5 %, 3 toifa 4 %; ni tashkil etdi. Yuqori ballarni qat’iyatli, maqsadga erishish yo‘lidagi to‘siqlarni yengib o‘tishga qodir sinaluvchilar qo‘lga kiritdilar. Muvaffaqiyatsizliklar ularni bezovta qilmaydi. Ular o‘z maqsadiga erishish uchun qayta va yana qayta harakat qilishga qodir. Ushbu toifaning aksi bo‘lganlar yumshoq, omadsizlik va muvaffaqiyatsizlik ularni ruhini tushiradi va mavjud to‘siqlar ularni o‘z maqsadidan voz kechishga majbur qiladi.

G‘ayratlilik shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 8 %, 2 toifa 13 %, 3 toifa 13 %; *o‘rta* – 1 toifa 78 %, 2 toifa 75 %, 3 toifa 82 %; *past* – 1 toifa 14 %, 2 toifa 12 %, 3 toifa 5 %; ni tashkil etdi. Yuqori ballar faollik va quvvatni bildiradi. Bundaylar faol, mehnatsevar va hayotga optimist qaraydilar. Past ballar uncha aktiv bo‘lmagan, tez charchaydigan, o‘zlarini pessimist ko‘rsatadiganlarga beriladi.

E’tiborlilik (ziyraklik) shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 22 %, 2 toifa 12 %, 3 toifa 14 %; *o‘rta* – 1 toifa 72 %, 2 toifa 84 %, 3 toifa 83 %; *past* – 1 toifa 6 %, 2 toifa 4 %, 3 toifa 3 %; ni tashkil etdi. Yuqori ballarni qo‘lga kiritganlar o‘z diqqatini ixtiyoriy ravishda konsentratsiyalashga qodir bo‘lib, ular uncha qiziq bo‘lmagan ishlarda ham uni barqaror ushlab trishadi. Ular uchun xotirjamlik va ishga chuqur sho‘ng‘ish xosdir. O‘z navbatida past ballar ham bor bo‘lib, ular ixtiyoriy ravishda o‘z diqqatini konsentratsiyalashi qiyin bo‘lganga xosdir. Ular oson chalg‘ishi va diqqatni jamlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Maqsadga intiluvchanlik (sobitqadamlik) shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 36 %, 2 toifa 11 %, 3 toifa 13 %; *o‘rta* – 1 toifa 60 %, 2 toifa 77 %, 3 toifa 81 %; *past* – 1 toifa 4 %, 2 toifa 12 %, 3 toifa 6 %; ni tashkil etdi. Mazkur holda yuqori ballar hayotda ongli maqsadlari borligini bildiradi. Qoidaga ko‘ra ishtirokchilar orasida 1 toifadagi bundaylar ko‘p sonli bo‘lib, ular o‘z ishlarini va vaqtlarini rejalashtirib borishadi. Past ballar maqsadlarning aniq emasligi va ularga erishishda qat’iyat yo‘qligini bildiradi.

Xulosa. Umuman olganda, sinaluvchilarning irodaviy sifatlarini o‘rganar ekanmiz, umumkasbiy jihatlardan farqli ravishda ularda Jur’atlilik (qat’iyatlilik) va Qat’iylik (tirishqoqlik) sifatlarining ancha rivojlangan ekanligini, E’tiborlilik (ziyraklik) va Ma’suliyatlilik sifatlarining kasbiy faoliyatda qo‘l kelishini hamda Matonatlilik (sabr-

toqatlilik) va Maqsadga intiluvchanlik (sobitqadamlik) kabi irodaviy sifatlar borasida salmoqli ko‘rsatkichlarga ega ekalnligini aniqladik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маркова А.К. Психология профессионализма.-М. Знание, 1996.С.308.
2. Рубинштейн С.Л. Принцип творческой самодеятелности. М.: Эксмо, 2007.
3. Rasulov A.I. Shaxs psixodiagnostikasi metodikalarining ilmiy-amaliy asoslari. Psixologiya fanlari doktori (DSc) diss. 19.00.01.– Toshkent, 2020. B.280.
4. Методики и тесты. Учебное пособие. / Ред. и сост. Рай Городский Д.Я. – Самара: Издательский Дом «БАХРАХ-М», 2006.- С. 549-672.
5. Чумаков М.В. Выделение волевых черт личности на основе семантического сходства. – Ярославль.: Изд-во РПО, 2003. – 162 с.

MILLIY ARMIYADA MA’NAVIY SALOHIYATNI KUCHAYTIRISH: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY HARBIY PSIXOLOGIYA UYG‘UNLIGI

dotsent Allayarov D.U., PhD, dotsent Mirjalolov O.A.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy armiyaning jangovar qudratini mustahkamlashda ma’naviy salohiyatning hal qiluvchi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tarixiy merosdan olingan saboqlar va zamonaviy harbiy psixologiya yondashuvlari uyg‘unligida vatanparvarlik ruhini yuksaltirish masalalari yoritilgan. Harbiy xizmatchilar ongida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ruhiy tayyorgarlikni shakllantirishning ayrim psixologik-pedagogik mexanizmlari ochib berilgan. Maqolada, shuningdek, zamonaviy global xavf-xatarlar sharoitida milliy armiyaning ma’naviy barqarorligini ta’minlashga oid ilmiy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *milliy armiya, ma’naviy salohiyat, tarixiy meros, vatanparvarlik, harbiy psixologiya, ruhiy tayyorgarlik, milliy qadriyatlar, jangovar qudrat.*

Аннотация. *В статье научно анализируется важнейшая роль духовного потенциала в укреплении боевой мощи национальной армии. В сочетании исторического наследия и современных подходов к военной психологии рассматриваются вопросы воспитания духа патриотизма. Раскрываются некоторые психолого-педагогические механизмы формирования национальных ценностей, исторической памяти и духовной готовности военнослужащих. Также в статье излагаются научные предложения и рекомендации по*

обеспечению духовной устойчивости национальной армии в условиях современных глобальных угроз.

Ключевые слова: *национальная армия, духовный потенциал, историческое наследие, патриотизм, военная психология, психологическая подготовка, национальные ценности, боевая мощь.*

Mamlakat xavfsizligi va barqaror taraqqiyoti, avvalo, kuchli milliy armiyaga tayanadi. Harbiy qudratni belgilovchi omillar orasida moddiy-texnik ta’minot bilan bir qatorda ma’naviy salohiyat ham muhim o‘rin tutadi. Chunki jangovar shaylikning asosi askar va ofitserlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi, milliy qadriyatlar asosida shakllangan dunyoqarash va ruhiy tayyorgarligiga chambarchas bog‘liqdir.

Tarixiy merosimizda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk sarkardalarning harbiy muvaffaqiyatlari ularning ma’naviy-ruhiy kuchiga tayanib amalga oshirilgani qayd etiladi. Bugungi kunda ham milliy armiyamiz safida xizmat qilayotgan yoshlarning jangovar ruhini ko‘tarishda tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy sharoitda harbiy psixologik yondashuvlar, ruhiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari va psixologik treninglar orqali askarlarning bardoshliligi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va stressni yengib o‘tish malakalari shakllantirilmoqda.

Ushbu maqolada milliy armiyada ma’naviy salohiyatni kuchaytirishning tarixiy va zamonaviy jihatlari, ularning uyg‘unligi hamda amaliy natijalari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Tarixiy meros – milliy armiyaning ma’naviy tayanch manbai

Har qanday millatning kuch-qudrati, avvalo, uning o‘z tarixini bilishi va undan saboq chiqarishi bilan belgilanadi. O‘zbek xalqi asrlar davomida yurt himoyasi, ozodlik va erkinlik uchun kurashib kelgan. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Shiroq kabi buyuk sarkardalar jang maydonida nafaqat strategik mahoratlari, balki ruhiy bardoshliligi, vatanparvarlik va fidoyiligi bilan ham yuksak marralarni egallagan.

Tarixiy manbalarda jangchilarning ruhiy tayyorgarligi ularning g‘alabasida hal qiluvchi omil bo‘lgani qayd etiladi. Masalan, Amir Temur tuzuklarida har bir askarning intizomi, qat’iyati va ma’naviy kuchi harbiy g‘alabani ta’minlovchi eng muhim shartlardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. U jangchilar ruhiyatini mustahkamlash uchun ularga adolatli mukofot va jazolar berib, ruhiy barqarorlikni ta’minlashga intilgan. Shu bois Amir Temur davridagi qo‘shinlar nafaqat qurollar, balki qat’iyat va ruhiy tayyorgarligi bilan ham ajralib turgan. Jaloliddin Manguberdi misolida ham harbiy psixologiyaning kuchli ta’sirini ko‘ramiz. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, u 1221- yilda Chingizxon qo‘shinlariga qarshi jangda o‘z askarlarining ruhiyatini ko‘tarish uchun qo‘rquvni yengib o‘tish, vatanga sadoqat va g‘urur hissini ustuvor qo‘ygan. Bu ruhiy tayyorgarlik unga ancha katta dushman kuchiga qarshi muvaffaqiyat

qozonishga yordam bergan. Tarixiy meros shuni ko‘rsatadiki, harbiy psixologiya tushunchasi Sharqda, xususan Markaziy Osiyoda juda erta shakllangan. Bu nafaqat jang maydonida, balki askarlarni tayyorlash va tarbiyalash jarayonida ham muhim rol o‘ynagan.

Bugungi milliy armiyamizda ham tarixiy xotira asosida vatanparvarlik ruhini yuksaltirish eng asosiy vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 4- iyundagi “Harbiy-ma’naviy tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3775- son Qarorida ham aynan askarlarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini kuchaytirish vazifasi belgilangan. Bu esa tarixiy merosni zamonaviy talablarga uyg‘unlashtirish yo‘lida muhim qadamlardan biridir.

Harbiy psixologiyaning shakllanishi va rivojlanishi

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida harbiy psixologiya mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. Dunyoda AQSh, Rossiya, Germaniya, Isroil kabi davlatlarda harbiy psixologiya bo‘yicha ilmiy maktablar paydo bo‘ldi. Masalan, AQSh armiyasida harbiy psixologlar askarlarning jangovar stressni yengib o‘tishi, jarohat yoki yo‘qotishlardan so‘ng ruhiy tiklanishini ta’minlashda faol ishtirok etadi. NATO davlatlarida esa harbiy psixologlar jang maydonida “stress menejmenti” dasturlarini qo‘llash bilan mashhur.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy armiyani shakllantirish jarayonida askarlarning ruhiy tayyorgarligi masalasi ham alohida e’tiborga olindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 22- dekabrdagi “2018-2021 yillarda mudofaa sanoatini rivojlantirish konsepsiyasi” hamda 2019- yil 30- iyuldagi “Milliy armiyada harbiy-ma’naviy tarbiya va harbiy psixologiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bu borada muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi tizimlarida maxsus psixologik tayyorgarlik markazlari faoliyat yuritmoqda. Ular askar va xodimlarning stressga chidamliligini oshirish, tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, jamoada psixologik muvozanatni saqlash, favqulodda vaziyatlarda ruhiy turg‘unlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan dasturlar ishlab chiqmoqda.

Shu o‘rinda, Toshkent davlat pedagogika universiteti va boshqa oliy ta’lim muassasalarida “Harbiy psixologiya” yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda, oliy harbiy ta’lim muassasalarida esa “Harbiy psixologiya” alohida fan sifatida o‘quv dasturlariga kiritilib, o‘qitilib kelinmoqda. Shuningdek, harbiy psixolog-mutaxassislar alohida tayyorlanib, tegishli harbiy lavozimlarda xizmat qilishmoqda. Bu ilmiy yondashuv milliy armiyamizda ruhiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy harbiy psixologiya

o‘zbek armiyasida nafaqat jangovar tayyorgarlikning bir qismi, balki milliy xavfsizlikning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Xulosa. Milliy armiyamizda jangovar qudratni mustahkamlash jarayonida psixologik tayyorgarlik va ma’naviy tarbiya o‘zaro uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Tarixiy merosimizda mujassam bo‘lgan vatanparvarlik, jasorat va fidoyilik an’analari zamonaviy sharoitda ham harbiy xizmatchilar ruhiyatini shakllantirishda tayanch omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi globallashuv, axborot urushlari va yangi xavf-xatarlar davrida harbiy xizmatchilarda stressga chidamlilik, tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalari, milliy g‘urur va fidoyilikni uyg‘otish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda qabul qilingan davlat dasturlari, Prezident farmonlari va konseptual hujjatlar Milliy armiyamizni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmiy asoslar shuni ko‘rsatadiki, Milliy armiyamizning jangovar qudratini yuksaltirishda eng samarali yo‘llar sifatida quyidagilarni ham belgilab olishimiz mumkin:

psixologik tayyorgarlik tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan yanada takomillashtirish;

milliy qadriyat va tarixiy xotirani harbiy-ma’naviy tarbiyada keng qo‘llash;

xalqaro tajribani o‘rganib, milliy sharoitga moslashgan metodlarni ishlab chiqish;

harbiy psixologlar faoliyatini kuchaytirish va zamonaviy trening dasturlarini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 25- iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy-ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 30- iyuldagi “Milliy armiyada harbiy-ma’naviy tarbiya va harbiy psixologiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

5. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi ma’lumotlari. – 2023- yilgi tahliliy hisobot.

6. “Temur tuzuklari”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1991.

7. Jaloliddin Manguberdi haqida tarixiy manbalar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2000.

CHET EL DAVLATLARINING OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYA VA KASBIY JAVOBGARLIKNI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI (*BUYUK BRITANIYA, GERMANIYA, ISROIL, AQSH, FRANSIYA MISOLIDA*)

dotsent Saydjanov F.M.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya*. Ushbu maqolada bugungi kunga kelib dolzarb muammolardan biri xorijiy oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy va kasbiy javobgarlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib, ulardagi tarbiya va kasbiy layoqot masalalari kengroq yoritib berilgan, shuningdek rahbarning bo'ysinuvchilarga ta'sir o'tkazish samarasi, muomalada odoblilik, shuningdek muomala jarayonida motivatsiyaga, his-tuyg'uga, shaxsga oid, bilishga taalluqli, boshqaruv xususiyatlari masalalari yoritilgan.*

Kalitli so'zlar: kommunikativ, sub'ekt, motivatsion, emotsional, irodaviy, kognitiv, regulyativ, xatti-harakati, milliy qadriyat, ma'naviyat, ruhiyat me'yori, ta'lim, motivatsiya.

Ushbu maqolada "Sharqiy" harbiy maktablarda o'qitish jihatlarini hisobga olgan holda, Shimoliy Atlantika blokiga (NATO) a'zo mamlakatlarning harbiy tarbiya muassasalari o'rtasida ofitser kadrlarni tayyorlash va kasbiy javobgarlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish mumkin. Ushbu mamlakatlarni tanlashning asosiy sababi shundaki, asosan yaqin xorij mamlakatlarida (Belorusiya, Qozog'iston, Ukraina va boshqalar.), shu jumladan ilgari SSSR tarkibida bo'lganlar, Qurolli kuchlar uchun ofitserlarni tayyorlash tizimi sovet harbiy pedagogikasi tamoyillariga asoslangan yedi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, so'nggi o'n yilliklar davomida ushbu mamlakatlarda ofitserlarni tayyorlashda keskin o'zgarishlar bo'lmagan va u hozirda Rossiya Federatsiyasida mavjud bo'lgan o'quv tizimiga juda o'xshash. Shuning uchun xorijiy mamlakatlarning o'qitilgan harbiy tarbiya muassasalari o'rtasida kasbiy mas'uliyatni shakllantirish xususiyatlari katta qiziqish uyg'otadi deb taxmin qilinadi.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda Shimoliy Atlantika alyansida oliy o'quv yurtlarida tayyorlangan harbiy xizmatchilarni tarbiyalash, axloqiy va psixologik tayyorlash yagona model bo'yicha amalga oshirilmoqda. Biroq, harbiy-siyosiy tashkilotga birlashganiga qaramay, Natoga a'zo mamlakatlar armiyalarida harbiy xizmatchilarni o'qitish masalalari o'z qoidalari bilan tartibga solinadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar (Aqsh, Angliya, Germaniya, Fransiya) Qurolli Kuchlarida ofitserlarni tayyorlash juda ko'p umumiyliklarga ega jahannam, lekin har bir mamlakatda o'z xususiyatlari ham bor, o'z kelib chiqishi va an'analari. Odatda ofitserlarni milliy armiyalarda asosiy lavozimlarni egallashga chaqirilgan shaxslar sifatida tayyorlash uyushgan va maqsadga muvofiqdir. Tizimning o'zida ikkita quyi tizim mavjud: o'zaro bog'liq va asosiy maqsad - professional ofitserni tayyorlashga qaratilgan ta'lim va tarbiya.

Ushbu mamlakatlar armiyalarida bo‘lajak ofitserlarni (kursantlarni) o‘qitish tizimiga quyidagilar kiradi: tarbiyaning maqsad va vazifalari, sub’ektlari, ob’ektlari, mazmuni, tarbiya yo‘nalishlari, tarbiya shakllari, usullari va vositalari; shuningdek natija, o‘quv jarayonini boshqarish va sozlash usullari, mavzusi - ob’ekt munosabatlari, tizim yelementlari o‘rtasidagi tarkibiy aloqalar. Xorijiy armiyalarning harbiy universitetlarida ofitserlarni tayyorlash nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularda "tarbiya" atamasi, qoida tariqasida, qo‘llanilmaydi. Muallif tushunchasida xorijiy manbalardagi " tarbiya "" ma’naviyatni shakllantirish"," tarbiyaot"," ichki yetakchilik", "an’anaviy harbiy qadriyatlar"," siyosiy tarbiya " va boshqalar kabi toifalar bilan talqin qilinadi va belgilanadi.

Asosan, bu mamlakatlar armiyalarida bo‘lajak ofitserlarning tarbiya mazmuni to‘g‘ri keladi. Tarkibning o‘zi tarbiya sohalarini ta’kidlaydi: vatanparvarlik, davlat-huquqiy, harbiy, ma’naviy (diniy), jismoniy, axloqiy va psixologik tayyorgarlik, sog‘lom turmush tarzini tashkil yetish va boshqalar. Farqlar, birinchi navbatda, universitetlarda tarbiya tizimining ayrim tarkibiy yelementlari: tarbiya sub’ektlari, tarbiya ta’sirining shakllari, usullari va vositalari mazmunida namoyon bo‘ladi. Agar umuman olganda, ushbu qo‘shinlarda tarbiya mazmuni bir-biriga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, unda maqsad va vazifalardagi ustuvorliklar sezilarli darajada farq qiladi. Xususiyatlar tarixiy an’analardagi farqlar, qurolli kuchlarning jamiyatdagi o‘rni va roli, belgilangan turmush tarzi, muayyan davlat armiyasini yollash (oliy o‘quv yurtlariga yollash) usuli bilan bog‘liq.

Adabiy manbalar, turli xil hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy armiyalar universitetlarida tarbiya tizimlarining ishlashida umuman tarbiya tizimining tashkiliy rivojlanishini va xususan har bir tarkibiy yelementni kuchaytirish tendensiyalari mavjud [6, 8]. Shunday qilib, Aqsh harbiy tarbiya muassasalarida tarbiya maqsadlarini asoslashda Maslaku va Redvey "harbiy rahbar"ni tayyorlashga talablarni kiritdilar. Aqsh harbiy-havo Kuchlarida ofitserlarni tayyorlashda maqsadlarni belgilashni tahlil qilishda tarbiyaning asosiy maqsadlari aniqlanadi: amerikalik harbiy xizmatchining shaxsini Aqsh fuqarosi - vatanparvari sifatida va doimiy ravishda o‘zini takomillashtirishga intilayotgan professional jangchi sifatida shakllantirish va rivojlantirish. [4, 88-96 betlar]. Maqsad tarbiya tizimidagi yetakchi tizimni tashkil yetuvchi omil hisoblanadi. AQSH Qurolli kuchlarining tarbiyaviy ishlarida harbiy qasamyod va Aqsh Qurolli kuchlarining axloq kodeksida mustahkamlangan harbiy kasbiy fazilatlarni, vatanparvarlik tuyg‘usini, harbiy jamoada axloqiy va axloqiy me’yorlarni shakllantirish va rivojlantirish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Germaniya Qurolli kuchlari universitetlarida maqsadlarni belgilashga biroz boshqacha yondashuv. Klaus fon Rozen tarbiyaning muhim muammolaridan birini ta’rif deb hisoblaydi.

Universitetlarda ta’lim mazmuni tashqi siyosatning maqsadlari bilan belgilanadi (1-jadvalga qarang).

Xorijiy armiya universitetlarida ofitserlarni o‘qitish mazmunining xususiyatlari

Angliya,	Germaniya	Izrail	SShA
Maxsus missiyani targ‘ib qilish, g‘arbiy Yevropada tinchliksevar rol ("demokratiya")	Siyosiy muammolar ongini, qobilivatini, siyosiy baho berishga tayyorligini shakllantirish. ("realizm")	Yeng vaxshilarni tarbiyalash vakillar Yosh yuqori intellektga ega va Isroil davlatining birinchi quruvchilarining ideallariga sodiq, o‘z Vataniga xizmat qilishga tayyor odamlar	Bo‘lajak ofitserlarga o‘z mamlakatining dunyoning buyuk kuchi sifatidagi mas’uliyati haqidagi g‘oyalarni singdirish ("gegemonlik")

Uning maqsadlari [8, pp. 536-541]. Bundan tashqari, muallifning ta’kidlashicha, pedagogik voqelik va harakatlarning uch turi (tarbiya, o‘qitish va tarbiya) maqsad turiga ko‘ra ajralib turadi va bu ularning terminologik farqlanishida muhimdir.

Agar maqsad moddiy (haqiqatan ham) aniqlansa, ya’ni.mavzu, material, texnika, harakat usuliga asoslanib, ular bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat bo‘lgan tarbiya (tayyorgarlik) haqida gapirishadi.

Agar maqsad ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lsa (asosiy harakat doirasidagi aloqa, masalan, do‘stga nisbatan; ijtimoiy tashkilot bilan, masalan, o‘z qismi, Bundesver, davlat bilan aloqa; umuman jamiyat bilan aloqa), unda ular tarbiya haqida gapirishadi. Maqsad-intizom va kuchli irodani tarbiyalash, bu ijtimoiy munosabatlarga asoslanib, kerakli va mazmunli. Biz tinchlik davrida yoki urush davrida kundalik xizmatga shaxsiy ijtimoiy hissani rag‘batlantirish haqida gapiramiz. Qurolli Kuchlardagi tarbiya-tarbiya ishlari chaqiriluvchi bundesverga kelgan bilim va g‘oyalarga asoslanadi. Bu shaxsning rivojlanishiga yordam beradi va uni jamoat ongida mavjud bo‘lgan harbiy xizmatchining idealiga yaqinlashtirishga qaratilgan. Tarbiyaning ham, tarbiyaning ham maqsadi o‘z harakatlarida yuqori mas’uliyat hissi bilan boshqariladigan harbiy xizmatchining shaxsini shakllantirish yekanligi aniq belgilangan. Belgilangan vazifalar nuqtai nazaridan yetakchilik va maxsus tayyorgarlik yetakchi rol o‘ynaydi, shu bilan birga tarbiya va tarbiya maqsadlari hisobga olinadi.

Turli xil axborot manbalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, Fransiya Qurolli kuchlarining tinchlik davrida ofitser kadrlariga bo‘lgan yehtiyojlari harbiy tarbiya va fuqarolik muassasalari tarmog‘i (jami 100 dan ortiq universitetlar) tomonidan ta’minlanadi. Ofitserlarning ishbilarmonlik va kasbiy fazilatlarini shakllantirishga ofitserlarning jismoniy, psixologik, kasbiy va maxsus fazilatlarini aniqlashga imkon beradigan mavjud davriy sertifikatlash tizimi sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday parametrlarga muvofiq sertifikatlash zarur professionallik darajasini va ofitser kadrlarining axloqiy va siyosiy holatini ta’minlashni ta’minlaydi [3].

Sotsiologik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, Fransiyada harbiy martaba obro‘li hisoblanadi, chunki u ijtimoiy barqarorlik va moliyaviy vaziyatning mustahkamligini ta’minlaydi [1, p. 1012]. Proteksionizm, qarindoshlik va ijtimoiy maqomning

afzalliklaridan foydalanish kabi salbiy hodisalar ofitserlarning xizmat o‘tashiga ma’lum ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillar, shuningdek, ofitserlarning kasbiy va shaxsiy javobgarligini, qaror qabul qilish va ular uchun javobgar bo‘lish qobiliyatini shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Harbiy kasbni tavsiflab, de Goll " o‘ziga nisbatan talabchanlik muhim, siz xavfni baholay olishingiz, maqsadga aniqlik kiritishingiz va keyin unga yerishishingiz kerak. Voqealarga ta’sir qilish, ularga o‘z izlarini qo‘yish, ularning oqibatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish" [7, p.64, 96].

Buyuk Britaniya Qurolli kuchlarining ofitserlar korpusi harbiy maktablar bitiruvchilari (kadrlar ofitserlari) hisobidan ham, shartnomalar (qisqa muddatli xizmat) bo‘yicha yollangan fuqarolik universitetlari bitiruvchilari hisobidan ham tuziladi. Ushbu ikki toifaga qo‘shimcha ravishda, Britaniya armiyasida zobitlarning kichik qatlami (taxminan 5%) mavjud bo‘lib, ular oddiy xizmatni boshladilar va keyin belgilangan o‘quv va qayta tayyorlash kurslarini tamomladilar. Ikkinchi toifa, qoida tariqasida, quyi ma’muriy va texnik lavozimlarda qo‘llaniladi [2, 6-7 betlar]. Ofitserlar korpusining yadrosi va uning yeng imtiyozli qismi Dartmut dengiz kolleji bitiruvchilari tomonidan tashkil yetilgan - dengiz floti uchun, Sandxurst harbiy maktabi - quruqlikdagi kuchlar uchun. Ular admirallar va generallarning 95 foizini va katta ofitserlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Kichik ofitserlarda asosan qisqa muddatli xizmat xodimlari ishlaydi (o‘n yilgacha, lekin kamida uch yil Qurolli Kuchlarda va kamida besh yildan keyin zaxirada). Bular asosan shartnomalar bo‘yicha Qurolli kuchlarga qabul qilingan fuqarolik universitetlarining bitiruvchilari (uchuvchilar, muhandislar va texniklar, shifokorlar, advokatlar, ruhoniylar va boshqalar.). Talabalarning harbiy tayyorgarligi yaxshi rag‘batlantiriladi. Imtiyozlar, bepul mashg‘ulotlardan tashqari, kiyim-kechak yetkazib berish, shuningdek, lager to‘lovlari va mashqlar paytida barcha turdagi nafaqalarni o‘z ichiga oladi. Malaka talablariga javob beradigan talabalar bonuslar va grantlarga ega bo‘ladilar. Stajyorlar safida qolish motivatsiyasi talabalarning rasmiy vazifalarini bajarishda shaxsiy javobgarligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [5].

Buyuk Britaniya Qurolli Kuchlarida harbiy jamoa hayotida ishtirok yetish, qo‘mondonlarga tarbiyaviy ishlarda yordam berish maqsadida tashkil yetilgan diniy bo‘linmalarning ta’siri kuchli. Harbiy ruhoniylar xizmatiga turli dindagi ruhoniylar kiradi: hindular, buddistlar, nasroniylik, Islom va sikxlar. Ruhoniylar nafaqat ma’naviy, diniy va axloqiy, balki axloqiy tarbiyada ham qatnashadilar, harbiy xizmatchilarga armiyada yuzaga keladigan stressli vaziyatlarni yengishga yordam beradi.

Isroil maktabdan boshlab aholining barcha qatlamlarini qamrab oladigan armiya kadrlarini tayyorlashning yeng samarali tizimlaridan birini yaratdi.

18 yoshga to‘lgandan so‘ng, ikkala jinsdagi barcha Isroilliklar chaqiruvga tortiladi. Farzandsiz ayollar va 26 yoshgacha turmushga chiqmagan ayollar harbiy xizmat uchun javobgar hisoblanadi. Diniy amrlarga rioya qilgan qizlar majburiy xizmatdan ozod

qilinishi mumkin. Ayollar uchun xizmat muddati ikki yil. Hamma uchun umumiy-bu yosh qiruvchi (tironut) kursining o‘tishi, uning davomiyligi va murakkabligi chaqiriluvchi yuborilgan qo‘shinlar turiga bog‘liq. Barcha harbiy mutaxassisliklar jangovar topshiriqlarni bajarish bilan bog‘liq jangovar va logistika mutaxassisliklariga bo‘linadi. Jangovar bo‘linmalar askarlari uchun jangovar tayyorgarlikning navbatdagi bosqichi bir necha oy davom yetadigan malaka oshirish kursidir. Keyin yeng ko‘p o‘qitilgan jangchilar serjantlar kursini o‘taydilar va faqat serjantlar kursining yeng yaxshi bitiruvchilari ofitser kurslariga yo‘llanma olishlari mumkin. Shunday qilib, ofitser nomzodlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shinlarda o‘tkaziladigan jangovar tayyorgarlikning barcha bosqichlarini bajarishlari shart va uning umumiy davomiyligi bir yildan bir yarim yilgacha yetishi mumkin. Bu vaqt davomida askar mashg‘ulotlarni o‘z harbiy qismlarida xizmat bilan birlashtiradi.

Ofitserlar kurslarida o‘qitish, ularning qisqa muddati tufayli juda intensiv bo‘lib, kursantlardan maksimal ma’naviy va jismoniy kuch talab qiladi. Bunday yuklarni yengishga qodir bo‘lmaganlar darhol kursdan chiqarib yuboriladi. Butun o‘quv tizimi haqiqiy jangovar vazifalarni hal qilish bilan uzviy bog‘liqdir, kursantlar o‘z vaqtlarining katta qismini dalada va mashqlarda o‘tkazadilar, bu yerda olingan nazariy bilimlar darhol mustahkamlanadi. Asosiy ye’tibor qo‘mondonlik bo‘linmalarida bo‘lajak ofitserlarning amaliy ko‘nikmalarini egallashga qaratilgan. Barcha tarbiyaviy ishlar ofitserlarni o‘zlariga Yuklangan jangovar vazifalarni ongli va mas’uliyat bilan bajarishga tayyorlashga qaratilgan. Isroilda bunday harbiy tarbiya tizimi mamlakatning deyarli barcha aholisini qamrab oladi. Ko‘p yillik urushlar va qurolli to‘qnashuvlar davomida u o‘zining samaradorligini isbotladi va boshqa davlatlar qo‘shinlari uchun namuna bo‘ldi. Isroilning harbiy tarbiya tizimi doimiy rivojlanib bormoqda va zamonaviy urush va davlat qurishning o‘zgaruvchan talablariga javob beradi.

Tarbiyaning maqsadlari tarbiyaning ta’rifi, ijtimoiy munosabatlarning yo‘nalishi asosida belgilanadi (2-jadvalga qarang). Ular kutishlarni, boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy-funksional xatti-harakatlar normalarini tasvirlaydi.

Tarbiya maqsadlari har doim aniq harakatlar bilan bog‘liq. Bu yerda ikkinchisi bilim, ko‘nikma va malakalarni, tarbiya komponentlarini shakllantirish orqali olinadi u yerda ijtimoiy-me’yoriy Iroda va bilim, ko‘nikma va malakalarga intizomli munosabatda bo‘lish ham rivojlangan. Shuning uchun tarbiya maqsadlari o‘qitish maqsadlari va uning mazmuniga muvofiq yaratilishi va tanlanishi kerak.

Tarbiya maqsadlarining quyidagi gradatsiyasi o‘rinli ko‘rinadi:

1. Xulq - atvor oldindan taklif qilingan berilgan qiymat tizimi-reaksiya bilan belgilanadi.

2. Qiymat tizimining o‘zi shakllanadi va umumiy qiymat tizimiga kirib boradi, shu bilan xulq - atvorni anglashni belgilaydi.

3. Xulq-atvor o‘ziga xos va o‘zini o‘zi belgilovchi sifatida qabul qilinadigan umumiy qadriyatlar tizimi bilan ifodalanadi.

Jadval 2

Tarbiya maqsadlarini amalga oshirishning asosiy g‘oyalari va dasturlari			
SShA	**Franssiya**	**Germaniya**	**Angliya**
Sivosiy tarbiya. Ma’naviyatni shakllantirish, "Amerika manfaatlariga xizmat qilish" g‘oyasiga mansubligi bilan faxrlanish, jamoaviy ruhi	Armiya "demokratik tarbiya" instituti sifatida. Faol itoatkorlik, natijasi mas’ulivatdir. De Gaudle oficerlary ongida baenot shiori: "Fransiva armivasi uning dahosining sodiq aksidir."	"Ichki boshqaruv"tushunchasi. "Hayotning ma’nosi"ga bag‘ishlangan diniy sinflar mavzusi.Sivosiy tarbiya dasturi. Jamoatchilik bilan faol ish. "An’analar xonalari" asari (asl muzeylar)	Angliya Qurolli kuchlarining tinchliksevar roli. G‘arbiy Yevropa Qurolli kuchlarining" maxsus missivasi". Angliya. Ittifoqchilar bilan hamkorlik. "ingliz havot tarzi" ning oldindan ko‘tarilishi O‘tmish g‘oyasi "Anglivaning buvukligi."Polk ruhi"ning shakllanishi. Oahramon ajdodlarga taqlid qilish. Britaniva harbiy texnikasi" veng vaxshisi". Haqiqiy o‘quv dasturi

Shunday qilib, xorijiy davlatlar qurolli kuchlari ofitserlarining tayyorgarligini tahlil qilish bizga oliy harbiy tarbiya muassasalarida tinglovchilarning kasbiy javobgarligini shakllantirish xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi. NATO mamlakatlari oliy o‘quv yurtlarida tayyorlanayotgan harbiy xizmatchilarni tarbiyalash, o‘qitish va ma’naviy-psixologik tayyorlash asosan milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda yagona model bo‘yicha amalga oshiriladi va universitetlarda ofitserlarni o‘qitish an’analari. Ushbu mamlakatlar ofitserlarini tayyorlash tizimida kasbiy javobgarlikni shakllantirishning umumiy xususiyati yuqori lavozimga tayinlash uchun o‘ziga xos imtihondan o‘tish bo‘lib, uning davomida asosiy baholash mezonlaridan biri kasbiy javobgarlik hisoblanadi.

Shu bilan birga, ofitserlarni tayyorlashda farqlar mavjud. Masalan, Fransiya armiyasida o‘qitish va tarbiyaning kurs ishi tabiati va kelajakdagi ofitserlarni tarbiyalashda fuqarolik mutaxassislarining faol ishtiroki ustunlik qiladi. Britaniya armiyasida tarbiyaviy ta’sirlarga shaxsiy xarakter, ma’naviyatni shakllantirish jarayonini individuallashtirish berilganligi qayd yetilgan. Germaniya armiyasida bo‘lajak ofitserlarning harbiy universitetlarda zamonaviy qurolli to‘qnashuvlar sharoitlariga psixologik moslashuvini joriy yetish amaliyoti o‘ziga xos lahzadir. AQSh armiyasida ofitserlarni tayyorlash ko‘p bosqichli o‘qitish va o‘qitish tizimiga ega. O‘qituvchilar tarkibining (taktik kafedralarning) rotatsiyasi bizni har to‘rt yilda qiziqtiradi, o‘qituvchilar va kursantlarning nisbati 1 dan 9 gacha, shuningdek, harbiy xizmatchilar uchun masofaviy o‘qitish institutining mavjudligi.

Xorijiy armiyalar universitetlarida tarbiya tizimining zamonaviy faoliyati rivojlanish tendensiyalarining barqarorligi bilan ajralib turadi, bu nafaqat harbiy

xizmatchilarni sifatli o‘qitish vazifalarini hal qilish, balki kelajakdagi ofitser kadrlarning kasbiy javobgarligi samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Tizimning o‘zida ikkita quyi tizim mavjud: o‘zaro bog‘liq va asosiy maqsad - professional ofitserni tayyorlashga qaratilgan ta’lim va tarbiya.

Ushbu mamlakatlar armiyalarida bo‘lajak ofitserlarni (kursantlarni) o‘qitish tizimiga quyidagilar kiradi:

tarbiyaning maqsad va vazifalari, sub’ektlari, ob’ektlari, mazmuni, tarbiya yo‘nalishlari, tarbiya shakllari, usullari va vositalari;

o‘quv jarayonini boshqarish va sozlash usullari, mavzusi - ob’ekt munosabatlari, tizim elementlari o‘rtasidagi tarkibiy aloqalarni bog‘lash kiradi.

Ushbu xorijiy armiyalarda ta’lim-tarbiya atamasi qoida tariqasida qo‘llanilmaydi. Xorijiy manbalardagi “ta’lim”, “tarbiya”, “ma’naviyatni shakllantirish”, “tarbiya”, “ichki yetakchilik”, “an’anaviy harbiy qadriyatlar”, “siyosiy tarbiya” va boshqalar kabi toifalar bilan talqin qilinadi.

Xulosa. Harbiy sohadagi xorijiy tajribalar jurnalini Aloqa harbiy instituti professor-o‘qituvchilari tarkibi bilan o‘rganildi va quyidagi takliflar berildi:

1. Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida mavjud bo‘lgan qurollarni takomillashtirish maqsadida, rivojlangan davlatlarning tajribalarini o‘rgangan holda zamonaviy tungi ko‘rish moslamalarini o‘rganib 1 (bir) dona harid qilinib, kelgusida (ishlash mexanizmi)ni, takomillashtirib Qurolli Kuchlarga tadbiq qilish.

2. Mudofaa vazirligidagi harbiy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilari, mutaxassis o‘qchi, merganlarni xorijiy davlatlarga tajriba oshirish va zamonaviy tungi o‘q otish moslamalarni o‘rganish maqsadida xizmat safarlariga borishni rejalashtirish.

3. Kelgusida bulajak ofitserlarni otish tayyorgarligi fanidan bilim va amaliy kunikmalarini takomillashtirish maqsadida, xorijiy davlatlarning harbiy ta’lim professor-o‘qituvchilarning tajribalarini o‘rganish hamda taklif etish bo‘yicha rejalar to‘zish.

4. Xorijiy davlatlardan xarid qilib keltirilgan qurol-aslahalarni imkoniyatlarini o‘rganish maqsadida, Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy qism va muassasalardan mutaxassislar ishtirokida konferensiya, seminarlar o‘tkazish.

Foydalangan adabiyotlar:

1. *Dyakin V.* Vseobщaya voinskaya povinnost vo Fransii // Zarubejnoe voennoe obozrenie. - 1990.- №7. S.10-12.

2. *Merzlikin A.A.* Sistema komplektovaniya voorujennыx sil Velikobritanii: Izd. ZGV. - 1990. S. 6-7.

3. *Pautova A.V.* Obzor materialov fonda NIG ONI po teme: «Soderjanie i organizatsiya moralno-psixologicheskogo obespecheniya deyatelnosti voorujennыx sil zarubejnыx gosudarstv» M: VU, 1996.

4. Sistema vospitaniya VS SShA: sovremennыe tendensii yee razvitiya //Informatsionno-pedagogicheskiy sbornik. - M.: VSSPLI, 1993. - № 4 (7). S.88-96.

5. *Filkov S.* Podgotovka ofitserov zapasa v stranax Zapadnoy Yevropы //Zarubejnoe voennoe obozrenie. -1996. - № 6.

6. AR-350-1. Training. Army training.Wash., 1975;

7. Charles de Gaulle. Le fil de lepee - Paris, PLON. - 1971. - P.64, 96.

8. Von Rosen S. F. Ein Streit- noch immer mit offenem Ausgang. Erziehung in den Streitkraften: Ja oder Nein, wie und mitweichem Ziei? - Versuch eine neuen didaktischen Ansatzes // Truppen praxis. - 1993. - N. 5. S. 536-541.

SHAXSIY TARKIBNING JANGOVAR RUHINI OSHIRISHDA KOMANDIRNING O‘RNI VA ROLI

dotsent Idiev E.I.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Аннотация: *Mazkur maqolada shaxsiy tarkibning jangovar faoliyatida jangovar ruhini oshirishda komandirning o‘rni va rolini muhim masalalari haqida, shuningdek, boshqarish qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirishda bir qator ijtimoiy va psixologik omillar ham o‘z ta’sirini o‘tkazishlari, jangovar faoliyat olib borilayotgan hududning iqlim-geografik omillari o‘ziga xosliklari haqida fikrlar atroflicha nazariy va amaliy misollar tariqasida, hamda harbiy xizmatga moslashuvning o‘zgarib ketgan (patologik) tipi, eng qulay (optimal) tipi hamda noqulay (nooptimal) tiplari ilmiy yondashuvlar asosida psixologik tahlili aniq misollar orqali yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: kasbiy omillar, ijtimoiy-psixologik omillar, iqlim-geografik omillar, havodagi yuqori va past harorat, yuqori yoki past atmosfera bosimi, patologik, optimal, professional.

Qurolli Kuchlarimiz rivojlanishining zamonaviy bosqichi insonning jangovar faoliyat sharoitlarida ishonchli va samarali harakatlanishi masalalariga ahamiyatli e’tibor qaratish bilan xarakterlanadi. Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holati va psixologik barqarorligini mustahkamlash zaruriyati, ularni tayyorgarligi darajasi va vaziyatning har qanday sharoitida qo‘yilgan vazifalarni bajarish qobiliyatini oshirish bo‘yicha shaxsiy tarkibning ta’lim va tarbiyasining barcha tizimida islohotlar o‘tkazilmoqda. Bu sohada harbiy kadrlar faoliyatining ilmiy-psixologik asosi harbiy psixologiyadir.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immuniteti

shakllangan, burchiga sadoqatli, yuqori professional harbiy xizmatchilarni tayyorlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi PQ-3898-sonli Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasi tasdiqlandi [1].

Konsepsiyaning asosiy maqsadi mustaqil, keng dunyoqarash va fikrlashga ega, iymon-e’tiqodi va irodasi mustahkam, ma’naviyatli va fidoyi, ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – Vatan himoyachilarini tarbiyalash, ularning dunyoqarashlarini, mantiqiy, ijodiy va tahliliy fikrlash doirasini kengaytirish, ona Vatan taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Komandir (boshliq) oldinda turgan jang g‘oyasini har bir bo‘ysunuvchisiga yetkazishi kerak. Butun bo‘linma va ularning har biri alohida nima qilishlarini qat’iy bilganlari holdagina, o‘zlarini dadilroq tutadilar. Keyin komandir (boshliq) bo‘ysunuvchilar harakatlarini ular murakkab jangovar vaziyatda ahamiyatsiz psixohissiy zo‘riqishlarga qaramay, o‘zlarini yo‘qotmay, jangovar vazifani bajara olishlari uchun astoydil tayyorlashni tashkillashtirishi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, jangovar vaziyatga tayyorlanish jarayonida komandir (boshliq) harbiy jamoada munosib psixologik atmosfera yaratish haqida g‘amxo‘rlik qilishi kerak. Harbiy xizmatchilarni bo‘lajak jangovar vaziyatga samarali safarbar qilish uchun shunday psixologik fenomendan foydalanish kerakki, bu shaxsning jangovar vaziyatdagi mohirona va fidokorona kayfiyatini ko‘taruvchi jamoa fikri kabi.

Jangovar vazifalar bajarilish bosqichi aniq jangovar harakatlar boshlanishi davridan jangovar vaziyat maqsadiga to‘liq erishishni amalga oshirguncha bo‘lgan vaqtni o‘zichiga oladi. Bunda, ya’ni ushbu bosqichda harbiy xizmatchilar jangovar vaziyatga tayyorgarlik jarayonida shakllantirilgan yo‘l-yo‘riqlarni (ustanovkalarni) va bajarish qoidalarini (algoritmini) bajaribgina qolmay, jangovar vaziyatning boshlanishida, odatda, oldindan ko‘zda tutilmagan to‘siqlar paydo bo‘lishi mumkin. Bunda jangovar vaziyatdagi psixik boshqarish mexanizmlari yangi sifatlarni orttiradi: kelayotgan ma’lumotni qayta ishlashga bo‘lgan talab ko‘p marta oshadi, harbiy xizmatchi jangovar vaziyatdagi o‘zgarishlarni tezda hisobga olishi, jangovar vaziyatgacha qabul qilingan qaror va rejalarni aniqlash [2], mashq qilingan kasbiy harakatlar bajarilish usullariga to‘g‘rilashlar kiritish, o‘sib borayotgan qiyinchiliklarga qaramay, jangovar tirishqoqlikni kuchaytirish kerak.

Komandir (boshliq) jangovar vaziyatning psixojarohatlovchi omillari xuddi o‘zi kabi boshqalarda ham iz qoldirishiga tayyor bo‘lishi kerak. Shunday ekan, harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi va ularni jangovar faoliyatga yuqori faolligini ta’minlash jarayonida harbiy xizmatchilarning zehni, idroki o‘zgarishi uchun real asoslar mavjud.

Jangovar vaziyatda harbiy xizmatchilar jangovar faoliyati samaradorligini faqat o‘z ichiga kasbiy, taktik, psixologik tayyorgarlikni olgan to‘g‘ri jangovar tayyorgarlik vositasida oshirish mumkin. Harbiy xizmatchilarni tayyorlashda ta’lim olish sharoitlarini zirillash, titrash, turli yo‘nalishlardagi tezlik, poroxli gaz va boshqalar).

Ijtimoiy-psixologik omillar – bu joylashuv, ovqatlanish va suv ta’minotining o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq maishiy noqulayliklar, nisbatan sensor yoki informatsion izolyasiya (yolg‘izlanib qolish) uzoq vaqt oila, o‘rganilgan sharoit, hayotdan uzoqda bo‘lish va boshqalar.

Iqlim-geografik omillar - iqlim-geografik omillar - jangovar faoliyat olib borilayotgan hududning iqlim-geografik o‘ziga xosliklari (inson organizmiga havodagi yuqori va past harorat, yuqori yoki past atmosfera bosimi, havoning siyrakligi, yuqori namlik, qum,changlikning ta’siri va boshqalar).

Insonning ekstremal sharoitlarga moslashishi jarayoni o‘ta xilma-xil va shaxsning ko‘pgina ierarxik (bosqichma-bosqich) darajalariga ta’sir qiladi: ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, psixologik, psixojismoniy, jismoniy.

Bu jarayonda harbiy xizmatchilarning real xavf bo‘lishi mumkin bo‘lgan jiddiy kasb faoliyatiga o‘rganish jarayoning o‘ziga xosliklari mavjud. Jumladan, jangovar faoliyat sharoitlariga moslashish jarayoni tez bo‘lib o‘tishi kerak, bunda muvaffaqiyatli moslashish jarayoni ehtimoli juda kam. Bundan tashqari, aksariyat ko‘p holatlarda bu jarayon moslashuvning “sinishi” va moslasha olmaslik rivojlanishi bilan tugaydi. Ekstremal vaziyatlarda harbiy xizmatchilar faoliyatining muvaffaqiyati nafaqat uning moslashuv jarayoni samaradorligi darajasiga, balki shaxsning ma’lum bir vaqt oralig‘ida o‘zining jismoniy holatini aniq (adekvat) boshqarishini saqlab qolishdir.

Jangovar vaziyatlarda kasbiy faoliyat olib boradigan shaxslardagi psixofiziologik holat va axloqiy reaksiyalarning o‘ziga xosliklarini ko‘p yillar davomida o‘rganish, harbiy xizmatchilarning ekstremal vaziyatlarga moslashishi o‘sishining (dinamikasining) aniq qonuniyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Jumladan, uchta asosiy davr namoyon bo‘ldi: moslashuvning boshlang‘ich davri, organizm funksional imkoniyatlari nisbatan me’yorga kelishi davri va yakuniy davr, moslashuvga qarshiliklar namoyon bo‘lishi deb nomalanuvchi davr.

Moslashuvning boshlang‘ich davri – ekstremal faoliyatning noqulay ekologik va ijtimoiy-psixologik omillariga organizm va shaxsning umumiy qayta moslashuvi bilan xarakterlanadi. Bu davr organizm funksional imkoniyatlarining vaqtincha pasayishi, ishga yaroqlilik qobiliyati darajasi bilan kuzatiladi. Bu davr harbiy xizmatchi faoliyatining aniq sharoitlaridan kelib chiqib, bir haftadan 1-1,5 oygacha davom etadi.

Organizm funksional imkoniyatlarining nisbatan bir me’yorga kelish davri – kasbiy faoliyatning yangi o‘zgarishlarga boy, jo‘shqin qolipi (stereotipi) shakllanishi bilan bog‘liq. Jangovar vaziyat noodatiy sharoitlariga moslashuv bu vaqtda asosan

nihoyasiga etadi va boshqaruv tizimlarining nisbatan mustahkam ishlashining yangi darajasi shakllanadi

Moslashuvga qarshilik ko‘rsatish davri – aniq namoyon bo‘ladigan, moslashuvga qarshi buzilishlar va kasbiy ish qobiliyati darajasining xizmat vazifalarini bajarishdan to‘la bosh tortishgacha oshiqcha tushib ketish darajasi.

Moslashuv davrining davomiyligi ko‘pincha asabiy, psixologik zo‘riqishlar darajasiga bog‘liq. Shunday qilib, real hayotga xavf solishi mumkin bo‘lgan vaziyatda kasbiy faoliyatda o‘ta zo‘riqishni keltirib chiqaradigan, harbiy xizmatchilarda aniq namoyon bo‘ladigan moslashuvga qarshi buzilishlarning rivojlanishi ushbu sharoitga kelganiga 3-6 oy bo‘lganlarda kuzatilishi aniqlangan. Bunda moslashuvga qarshi buzilishlar rivojlanishida quyidagi qonuniyatlar aniqlangan: jangovar harakatlar boshlanishida harbiy xizmatchilarda jismoniy va ruhiy-siqilish (asteno-deperessiv) o‘zgarishlari (reaksiyalari) va holatlari, keyinroq esa jangovar harakatlarda ishtirok etish, u holatdan chiqish va bu davr uchun o‘ziga xosligida psixologik rekatsiyalar xarakterlidir. Shunga e’tibor berish kerakki, ekstremal sharoitlarda moslashuvga qarshi buzilishlar xarakteriga nafaqat jangovar zo‘riqish darajasi, balki harbiy xizmatchining dastlabki psixojismoniy holati darajasi, uning individual-psixologik o‘ziga xosliklari ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi: asab-psixologik barqarorlik darajasining yuqoriligi yangi (va ko‘pincha ekstremal) sharoitlarga tez va optimal moslashuviga imkon beradi.

Ko‘p sonli tadqiqotlar asosida ekstremal vaziyatlardagi xulq-atvorning o‘ziga xosligi, shuningdek, harbiy xizmatchilar psixik holati o‘sishining (dinamikasining) tahlili uchta asosiy tipga bo‘lingan: eng qulay (optimal), noqulay (nooptimal), o‘zgarib ketgan (patologik) [3].

Harbiy xizmatga moslashuvning eng qulay (optimal) tipi. Moslashuvning bunday tipidagi harbiy xizmatchilar yetarli darajada asab-psixologik barqarorlikka ega bo‘ladilar (me’yordagi asab-psixologik sog‘lomlikka) va harbiy xizmat davomida ish va jangovar qobiliyatni saqlab qoladilar.

Harbiy xizmatga moslashuvning noqulay (nooptimal) tipi. Ko‘rsatilgan tipga moslashuv harbiy xizmatchilarda alohida asab-psixologik beqarorligi belgilarining mavjudligi. Bunday harbiy xizmatchilarda moslashuvning buzilishi faoliyatning ekstremal sharoiti yoki favqulodda vaziyatlarda yuzaga keladi.

Harbiy xizmatga moslashuvning o‘zgarib ketgan (patologik) tipi. Moslashuvning bunday tipidagi harbiy xizmatchilarda harbiy intizom buzilishi, harbiy-kasbiy faoliyat samaradorligining yuqori darajadagi to‘xtab qolishi ehtimoli namoyon bo‘lishi, birdaniga sog‘likning yomonlashib ketishi kabi asab-psixologik beqarorlikning aniq belgilariga ega bo‘ladilar.

Shunday qilib, harbiy xizmatchining jangovar vaziyatdagi xulq-atvori xarakteri, uning shaxsini individual psixologik xususiyatlarining o‘ziga xosliklariga bog‘liq deb

xulosa chiqarish mumkin. Biroq shaxsiy o‘ziga xosliklardan tashqari uni faoliyatidagi muvaffaqiyat u kasbiy majburiyatlarini bajarayotgan sharoitga ham bog‘liq.

Harbiy xizmatchi psixikasiga jangovar vaziyat salbiy omillari ta’sirini oldini olish ham muxim muammolardan biri hisoblanadi.

Jangovar vaziyat salbiy omillari ta’siriga, shuningdek, ommaviy qirg‘in qurollari bilan bog‘liq qarshi tura olish harbiy xizmatchilardagi yuqori axloqiy-psixologik va jangovar sifatlar, yuqori hissiy-irodaviy barqarorlik mavjudligini ko‘zlaydi. Bu hammasi qo‘yilgan vazifaga muvofiq jangovar xulq-atvorni boshqarish imkonini beradi, jangovar vaziyat sharoitlarida faoliyat mustahkamligini saqlaydi.

Shu bilan birga shuni hisobga olish kerakki, jangovar faollik va jangovar vaziyatda harbiy xizmatchilar harakatining samaradorligiga ijtimoiy omil, jangovar harakatning maqsadi, haqiqatni anglash katta ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun komandir (boshliq) harbiy xizmatchilar o‘rtasida jangovar vaziyat haqiqiy maqsadi haqida tushuntirish ishlari olib borishi lozim.

Shuni alohida qayd etish kerakki, harbiy xizmatchilarning faoliyatning u yoki bu turini bajarishdagi axloqiy-psixologik tayyorgarligi nafaqat makrosharoitlar (masalan, murakkablashayotgan vaziyatga nisbatan mamlakatning rasmiy pozitsiyasi) bilan belgilanadi, balki uning kasbiy tayyorgarlik darajasi, harbiy xizmatchini o‘rab turgan ijtimoiy muhitga ham bog‘liq.

Bevosita ijtimoiy muhit, uning inson ongiga ta’siri haqida gapirganimizda, harbiy xizmatchiga jangovar vaziyatda ayniqsa komandirning (boshliqning) namuna bo‘lishi kuchli ta’sir o‘tkazishini unutmaslik kerak.

Masalan, komandirning (boshliqning) o‘zini tuta olmasligi, irodasizligi o‘z bo‘ysunuvchilari psixik holati va xulq-atvorida g‘oyat salbiy aks etishi mumkin, va balki aksincha, yuqori kasbiy chuqur bilimga egalik, harakatlardagi qat’iyatlilik, o‘zini tuta bilish, ofitserning kuchliligi o‘z bo‘ysunuvchilariga murakkab vaziyatlarda tashabbus, qat’iyatlilik, mardlik, mahoratni namoyon qilishga yordam beradi.

Jangovar vaziyatda harbiy xizmatchi faoliyati muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun, dastlabki jangovar vaziyatning ham ahamiyati bor. Agar birinchi jangovar vaziyat muvaffaqiyatli bo‘lgan bo‘lsa, harbiy xizmatchi jang maydonida muvaffaqiyatni ta’minlovchi harakatlar algoritmini shakllantirib olgan bo‘ladilar. Birinchi jangda harbiy xizmatchi kam (aniq) adekvat harakat qilishi mumkinligini unutmaslik kerak. Albatta yangi kelgan askarga tajribali harbiy xizmatchining yordami va psixologik qo‘llab-quvvatlashi kerak bo‘ladi. Hattoki, birinchi o‘tkazilgan muvaffaqiyatsiz harakatlar holatida ham, jangovar harakatlarda ishtirok etish uchun tajribasi yo‘q harbiy xizmatchilarga ham e’tibor berish kerak, hayrihohlik bildirish kerak. Tajribali harbiy xizmatchining birinchi jangovar vaziyat haqidagi hikoyasi, yangi harbiy xizmatga chaqirilganlarga yordam beradi, uni jangovar vaziyatning keraksiz, ortiqcha

kechinmalaridan saqlaydi, o‘zini tezroq harbiy jamoa a’zosi deb his qilish imkonini beradi [4].

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, jangovar vaziyatda noaniq xulq-atvor bo‘lishiga sabab qo‘rquv yoki cho‘chish. Jangovar vaziyatda dushman bilan to‘qnashganda, minalar, snaryadlar, bombalar portlashi, silkinishlar, yaradorlar va boshqalarda cho‘chish bo‘ladi. Qo‘rquv hissi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xavfni kutish yoki qandaydir harakatga tayyorlanish bilan bog‘liq emas, u insonni to‘satdan qamrab oladi, psixik jarayonlar ishini, umuman faoliyatni to‘xtatib qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O‘zbekiston, 2017.

[2]. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning umumharbiy Nizomlari.- Toshkent: O‘zbekiston, 2013. - 482 b.

[3]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-sonli Qarori// Xalq so‘zi, 2018 yil 6 avgust.

[4]. Военная психология. Учебник. /. А.Г. Маклаков. - Санк- Петербур г: Питер, 2005. - 464 б.

HARBIY XIZMATCHILARNING VATAN OLDIDAGI SHAXSIY MAS’ULIYATI MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI YANADA BOYITISH OMILI

Otokulov A.S.
Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Davletbayev D.Ye.
Galaba bog‘i majmuasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ma’naviy barkamol inson aql bilan fazilat birligiga amal qiladigan inson tushunchasi, ma’naviy-axloqiy fazilat insonning ichki dunyosi va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlaridagi to‘g‘ri, axloqiy va adolatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilganligi, Vatan - kishilarning yashab turgan, ularning avlod-ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joy, hudud, ijtimoiy muhit, mamlakatni anglatishini, sadoqat - insonga xos eng ezgu ma’naviy-axloqiy fazilat ekanligi, O‘zbekistonimizda nishonlanadigan bayramlarimizda milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari aks etganligi, O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchi ekanligi, harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatini yuksaltirish, qo‘shinlarning kundalik faoliyatida tarbiyaviy ishlar tizimida olib borilishi haqida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviyat, ma’naviy-axloqiy fazilat, vatanparvarlik, Vatanga sadoqat, adolat, Vatan, ta’lim-tarbiya, axloq, tarix, bayram, burch, intizom, majburiyat.*

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda insonlar farovon yashaydigan ma’naviyatli, ma’rifatli, madaniyatli jamiyat barpo etishimiz uchun qat’iyat va mas’uliyat bilan yondoshishimizni hayotning o‘zi talab etmoqda.

Ayni paytda bizning jamiyatimiz erishilgan yutuqlarimizga maxliyo bo‘lmasdan, xotirjamlikka berilmasdan, erishayotgan muvaffaqiyatlarga tanqidiy nazar bilan qarash lozim bo‘ladi, shunda oldimizda turgan ma’naviyat bo‘yicha qilishimiz kerak bo‘lgan jamiyatimizning farovon hayotini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan maqsad va bir qator dolzarb vazifalarimiz borligini ko‘rishimiz mumkin.

Inson qaerda dunyoga kelsa ana shu yer uning uchun qadrli Vatan hisoblanadi. Kindik qoni to‘kilgan joy inson uchun hech narsaga alishib bo‘lmaydigan, hamma narsadan ham qimmatli dargohdir. Ota-bobolarimiz, ulug‘ ajdodlarimiz va allomalarimiz ham yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor berib, o‘z yurtlariga muhabbatni ifoda etish borasida ajoyib na’munalar ko‘rsatishgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad al Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy, Abulays Samarqandiy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi buyuk mutafakkirlarimiz o‘zlarining taxalluslarini kindik qonlari to‘kilgan yurt bilan bog‘laganlari, ularning nomini dunyoga ma’lum va mashhur qilganliklari ham bir ibratdir.

Xalqimizning orzu-intilishlari Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi Ikkinchi uyg‘onish davrining buyuk siymolarini uyg‘otdi, ularning asarlari va faoliyatida o‘z talqinini topish odil podsho, adolatli jamiyat, komil inson g‘oyalarida namoyon bo‘ldi [1].

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida yuksak salohiyatli, ilmli insonni tarbiyalash, qonunchilikka rioya qiladigan, fuqarolik burchini ado etadigan, demokratik jamiyat talablariga amal qiladigan barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi turibdi. Ayniqsa, yosh avlodni yuksak madaniyatli va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash milliy taraqqiyotning muhim talabi, ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh vazifasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019- yil 3- maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-son qarorining 1- ilovasi Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining I bobida

tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi deb bayon etilgan.

Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganidek, **“Tarbiya bilan bugun shug‘ullanmasak, ertaga kech bo‘ladi. Yoshlar ma’naviyati bilan bog‘liq ayrim muammolar jahonning ko‘plab mintaqalarida hamon saqlanib qolmoqda**” deb jamiyatimiz e’tiborini yoshlarimiz tarbiyasi va ma’naviyatiga qaratmoqdalar**.** Ma’naviy barkamol inson aql bilan fazilat birligiga amal qiladigan inson tushuniladi. Faqat aqlli va fazilatli kishigina eng yuksak hurmat e’tiborga loyiqdir.

Ma’naviy-axloqiy tushunchaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu insonning ichki dunyosi va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlaridagi to‘g‘ri, axloqiy va adolatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan tushunchadir.

Ma’naviy-axloqiy fazilatlaridan biri Vatanga sadoqat hisoblanadi. Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan tushunchadir.

Vatan tushunchasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Vatan (arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, tug‘ilib o‘sgan joy, ona yurt) – kishilarning yashab turgan, ularning avlod-ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joy, hudud, ijtimoiy muhit, mamlakatni anglatuvchi tushuncha hisoblanadi. Vatan tushunchasi keng va tor ma’noda qo‘llanadi. Keng ma’noda – butun bir xalq, ularning ajdodlari azaldan istiqomat qilib kelgan makon. Tor ma’noda – kishi tug‘ilib o‘sgan uy, mahalla, qishloq. Insonning uyli-joyli, boshpanali bo‘lishi, uning oilasi, bola-chaqasi ham ba’zan Vatan so‘zi orqali ifoda etiladi [2].

Sadoqat (arabcha: do‘stlik; birdamlik; samimiylik) - insonga xos eng ezgu ma’naviy-axloqiy xislat. Sadoqat “samimiylik”, “sodiqlik”, “do‘stlik”, “vafodorlik” so‘zlariga ma’nodosh hisoblanadi. Mashhur fransuz sayyohi Jak If Kusto butun umrini ummon va dengizlar hayoti va undagi sir-sinoatlar, suv ostidagi nabotot va hayvonot dunyosini kashf etishga bag‘ishladi. Uning o‘z ishiga bo‘lgan sadoqatini butun dunyo ahli tomonidan yuksak insoniy fazilat sifatida e’tirof etildi. Navoiyning “Hayrat ul -

abror” dostonida ikki vafodor yorning bir - biriga sadoqati ulug‘lanadi: Har bir jamiyatning mustahkamligi va uning a’zolari orasida o‘zaro ishonch hukm surishi uchun Sadoqat zarurdir. Shuning uchun ham, sadoqat jamiyat tuzilishidagi asosiy qadriyatlardan bo‘lib, halqlarning taraqqiyoti, ramzi hamdir [3].

Inson aqli esa ilm va tajriba orqali boyib boradi. Darhaqiqat, ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas fazilat ekanligi, o‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri Abdulla Avloniy (1878–1934) tomonidan atroflicha asoslab berilgan. “Turkiy guliston yohud axloq” asarida insonlikni belgilovchi do‘stlik, sadoqat, mehnatsevarlik, munislik va boshqa fazilatlar ham ulug‘langan [4].

Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo‘lishi kerak. Shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo‘ladi, vatani, xalqi uchun jonini fido etishga ham o‘zini ayamaydi. Axloq talablari kishilarning fe’l-atvori va faoliyatida o‘z ifodasini topadi, oila, jamoa va jamiyatdagi intizomning muhim omili axloqiy qarashdir, uning vositasida intizom tuyg‘usi shakllangan kishi o‘z xalqi va Vataniga sadoqat bilan xizmat qiladi, har bir ishni o‘z vaqtida sidqidildan bajaradi.

O‘zbekistonimizda nishonlanadigan bayramlarimizda milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari aks etgan. Mustaqillik kuni va Konstitutsiya kuni vatanparvarlik, yurtga sadoqat tuyg‘ularini, Vatan himoyachilari kuni (14 yanvar) mardlik va fidoiylik fazilatlarini tarbiyalashga, o‘qituvchi va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat, insoniy ehtirom va qadr-qimmatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda Ro‘za va Qurbon hayitlari umumilliy bayram sifatida keng nishonlab kelinmoqda. Bu bayram kishilarda iymon-e’tiqod, shukronalik fazilatlarini kamol toptiradi, kelajakka ishonch tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Navro‘z bayrami har yili yurtimizda alohida tantana bilan nishonlanib, yurtdoshlarimiz qalbiga yasharish, yaratuvchanlik, ko‘tarinkilik ruhini olib kiradi. O‘zbekistonimizda xalqaro bayramlar yangi yil, Xalqaro xotin-qizlar kuni va Xalqaro bolalarni himoya qilish kunining (1 iyun) nishonlanishi xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sadoqati ramzi hisoblanadi.

Milliy armiyamizni isloh qilish shaxsiy tarkibning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini doimiy asosda yuksaltirib borishning yangi shakl hamda uslublarini izlash, faol va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda olib borish, ularni qo‘llashning ta’sirli, samarali usullarini amaliyotda mustahkamlashni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir [5]. Milliy armiyamiz saflarida yuqori intellektual salohiyatli, o‘z kasbiga sadoqatli, vatanparvar va fidoyi harbiy xizmatchilarni tarbiyalash

O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik, fidoiylik, o‘z burchiga sadoqat, Vatan va millat taqdiriga daxldorlik, yuksak estetik did va keng dunyoqarash kabi axloqiy fazilatlar va professional ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz va tizimli ravishda amalga oshiriladigan faoliyatga e’tibor qaratiladi.

Harbiy xizmatchilarni shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirish, ularda mustahkam hayotiy pozitsiyani tarbiyalash, dunyoqarashini kengaytirish, kasbiy mahoratini oshirish, tanlagan kasbiga sadoqatini va faxrini oshirish, shuningdek, ularda yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalash kabi talablarni amalga oshirilmoqda.

Harbiy xizmatchilarni O‘zbekiston Respublika Prezidenti - Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoniga, Vatanning mustaqillik timsollariga sadoqat, faol fuqarolik pozitsiyasi va yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning maqsadlari e’tirof etilgan.

Oliy harbiy muassasalar kursantlari va harbiy tayyorgarlik kurslarida tahsil olayotgan talabalarni Vatanga sadoqat, o‘qishga, harbiy burchni bajarishga vijdonan yondashish ruhida tarbiyalash kabi asosiy vazifalarimizdan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Farmon va Qarorlari, Mudofaa Vazirining buyruq va ko‘rsatmalarini harbiy xizmatchilar tomonidan so‘zsiz bajarilishiga, shaxsiy tarkibni Vatanga bo‘lgan sadoqatini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, har qanday sharoitda O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini va hududiy yaxlitligini himoya qila olishga tayyorligini hamda jangovar shayligi va safarbarligini oshirishga qaratishdan iboratdir, bu o‘z navbatida harbiy xizmatchilarning majburiyat va intizom talablariga qat’iy rioya qilishni talab qiladi.

Vatanga qasamyodga sodiq bo‘lish, o‘z xalqiga fidokorona xizmat qilish, O‘zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini mardlarcha va mohirona himoya qilish;

harbiy kasbni egallash, professional ko‘nikmalari va harbiy mahoratini takomillashtirib borish, har qanday vaziyatda Vatanini, O‘zbekiston xalqining tinchligi va osoyishta hayotini himoya qilishga shay turish, davlat, harbiy va xizmat sirlarini sir saqlash;

vatanparvarlikni namoyon qilish, harbiy do‘stlikni qadrlash, millat va elatlar o‘rtasidagi birodarlikni mustahkamlashga ko‘maklashish, ularning milliy urf-odatlari va an’analariga hurmat ko‘rsatish kabi harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlarida aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya qilish, Vatanga qasamyodiga sodiq bo‘lish;

o‘z harbiy burchini mohirlik va jasorat bilan bajarish, harbiy ishni vijdonan

o‘rganish, kasbiy mahoratini oshirish, harbiy va davlat mol-mulkini asrash;

harbiy xizmat qiyinchiliklarini mardonavor yengish, harbiy burchini bajarish uchun o‘z jonini ham ayamaslik;

harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi harbiy nizomlarda belgilangan o‘zaro munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash, harbiy birodarlikni mustahkamlash hamda o‘zaro yordam ko‘rsatish;

komandirlarga (boshliqlarga) va bir-biriga nisbatan o‘zaro hurmat ko‘rsatish, harbiycha salomlashish va xushmuomalalik qoidalariga rioya qilish;

jamoat joylarida o‘zini munosib tutish, nomunosib xatti-harakatlardan o‘zini va boshqalarni tiyish;

komandirga (boshliqqa) huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqiy madaniyatni oshirish, yuksak harbiy intizom va huquqiy tartibotni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish ishlarida ko‘maklashish kabi intizom talablari harbiy ximatchilarda Vatanga sadoqat fazilatini yanada yuksalishiga omil bo‘ladi.

Harbiy xizmatchilarda yuksak axloqiy-ruhiy va jangovar fazilatlarni hamda komandirlariga (boshliqlariga) ongli tarzda bo‘ysunishni shakllantirish;

har bir harbiy xizmatchining o‘z majburiyatlari va harbiy nizomlar talablarini bajarishga shaxsiy mas’uliyati;

harbiy qismda (bo‘linmada) ichki tartibni saqlash va barcha harbiy xizmatchilar tomonidan kun tartibiga (xizmat vaqti reglamentiga) qat’iy rioya qilish;

jangovar (maxsus) tayyorgarlikni puxta tashkil etish va u bilan barcha shaxsiy tarkibni qamrab olish;

komandirlarning (boshliqlarning) o‘z bo‘ysunuvchilariga shaxsiy namuna bo‘lishi, doimiy talabchanligi hamda ularning bajaruvchanligini nazorat qilishi, shuningdek, harbiy xizmatchilarning huquqlari va sha’nini hurmat qilish, ular haqida doimiy qayg‘urish, ishontirish, majburlash, jamoatchilik ta’siri kabi omillarni to‘g‘ri uyg‘unlashtirish va o‘z o‘rnida qo‘llash;

harbiy qismda (bo‘linmada) zarur moddiy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish orqali yuksak harbiy intizomga erishiladi [6].

Xullas, Vatanni himoya qilishga axloqan shaylikni, Qurolli Kuchlarga daxldor ekanligidan faxrlanish va ushbu mas’uliyatni his etish tuyg‘usini shakllantirish va saqlash, harbiy xizmatchilarda harbiy burchni bajarish, Vatanga qasamyod muqaddas ekanligi va unga doimo sodiq qolishni anglab yetish, jasorat, matonat, topqirlik, hushyorlik, harbiy o‘rtoqlik va yordam ko‘rsatish kabi o‘z harbiy burchlarini ado etishlari uchun zarur bo‘lgan sifatlarni rivojlantirish, bu maqsadlarda tarbiyalilik, xizmatga jonkuyarlik bilan yondashish borasidagi shaxsiy namuna Vatanga sadoqat fazilati desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Harbiy qism va muassasalarda doimiy jangovar shaylik va hushyorlik, harbiy jamoalarda sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitni saqlash, mustahkam harbiy intizom va huquq-tartibotga erishishda ma’naviy-axloqiy fazilat muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatini yuksaltirish, qo‘shinlarning kundalik jangovar-xizmat faoliyatida, tarbiyaviy ishlar tizimida olib boriladi. Bunda, avvalo, harbiy xizmatchilarda ular kim uchun va nima uchun o‘z Vatanga sadoqat, harbiy burch va majburiyatlarini bajarayotganliklarini chuqur anglash hissini tarbiyalash, ularda xalqimizning tinch-osoyishta hayoti, davlatimiz suvereniteti va mustaqilligini himoya qilishdek ezgu ishda mustahkam iroda, milliy va jangovar ruh hamda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishdan iborat.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

[1] Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 16- b.

[2] O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A’zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas’ul muharrir) Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent 2021. 106-b.

[3] F.M. Saydjanov. Gumanitar fanlar. Darslik –“AKT va AHI” nashriyoti, Toshkent - 2023 y. 394-b.

[4] O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A’zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas’ul muharrir) Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent 2021. 11-b.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 fevral PF-23-sonli Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 3-bet.

[6] O‘sha manbaa. 7-b.

STRATEGIK AXBOROT INFRATUZILMASIDA TARMOQ MONITORINGINI AVTOMATLASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR TAHLILI

Maxmudov SH.T.
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada muhim axborot infratuzilmasida tarmoq monitoringini avtomatlashtirish jarayonida uchraydigan mavjud muammolar, ularni aniqlash, tahlil qilish hamda samarali yechimlar ishlab chiqish yo‘llari yoritilgan. Unda mavjud nosozliklar, texnik cheklovlar, inson omilining ta'siri va monitoring*

tizimlarini takomillashtirishdagi asosiy to‘siqlar batafsil ko‘rib chiqilgan. Maqola sohada tadqiqot olib boruvchi mutaxassislar va amaliyotchilar uchun metodik tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: *muhim axborot infratuzilmasi, tarmoq monitoringi, avtomatlashtirish, mavjud muammolar, kiberxavfsizlik, tahdidlarni aniqlash, tarmoq xavfsizligi, anomaliyalarni aniqlash, xavf boshqaruvi, tizim samaradorligi*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются существующие проблемы автоматизации сетевого мониторинга в критической информационной инфраструктуре, а также пути их выявления, анализа и разработки эффективных решений. Подробно рассматриваются технические ограничения, влияние человеческого фактора и ключевые барьеры на пути совершенствования мониторинговых систем. Статья предоставляет методические рекомендации для специалистов и практиков, работающих в данной области.*

Ключевые слова: *важная информационная инфраструктура, мониторинг сети, автоматизация, существующие проблемы, кибербезопасность, обнаружение угроз, сетевая безопасность, обнаружение аномалий, управление рисками, эффективность системы*

Tarmoqlarning doimiy ishlashini kuzatish va muammolarni oldindan aniqlash imkoniyati tarmoq monitoringi tizimlarining asosiy vazifalaridan biridir. Monitoring orqali muhim xizmatlarning barqaror ishlashi ta’minlanadi. Har qanday nosozlik yoki ishlashdagi uzilishlar darhol aniqlanib, bartaraf etish choralari ko‘riladi. Tizimdagi kichik o‘zgarishlarni real vaqt rejimida kuzatish orqali katta muammolarni oldini olish mumkin. Tarmoqlarning yuklanish darajasini kuzatib borish va mavjud resurslarni optimallashtirish orqali barqarorlikni oshiriladi. Tizimni o‘z vaqtida kuzatish orqali nosozliklar va uzilishlarni minimallashtirish, bu esa umumiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Barqarorlikni ta’minlash orqali nafaqat infratuzilmaning uzluksiz ishlashi, balki foydalanuvchilarning ishonchi va umumiy tizim samaradorligi ham oshiriladi.

Tarmoqlarga ruxsatsiz kirish yoki zararli faoliyatlarni tezkor aniqlash va bartaraf etish orqali ma’lumotlarning yaxlitligi hamda maxfiyligini ta’minlash tarmoq monitoring qilinishining asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayon monitoring tizimlari tarmoqqa noqonuniy kirish harakatlarini aniqlaydi va tezkor choralar ko‘radi. Bu jarayon foydalanuvchilar identifikatsiyasi va autentifikatsiyasini doimiy nazorat qilishni talab etadi. Zararli dasturlar yoki kiberhujumlarni aniqlash va ularni tarmoqdan o‘chirib tashlash orqali tizim himoyasini ta’minlaydi. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan xavf tahlili vositalarining joriy etilishi bu jarayonni sezilarli

darajada tezlashtiradi. Monitoring orqali axborot oqimining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik va ma’lumotlarning o‘zgartirilmaganligini nazorat qilish amalga oshiriladi. Tizimga faqat ruxsat etilgan foydalanuvchilar kirish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlash uchun monitoring tizimlari kirish nazoratini doimiy ravishda kuzatib boradi. Bu jarayonlar axborot infratuzilmasining xavfsizligini oshirish va kiberhujumlardan himoyalanishni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu usullar tizim samaradorligini oshiradi va foydalanuvchilarning tizimga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Resurslardan oqilona foydalanish va muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish orqali muhim axborot infratuzilmasining samaradorligini oshirish asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Monitoring tizimlari tarmoq resurslarining real vaqt rejimida ishlatilishini nazorat qiladi. Bu resurslarning ortiqcha ishlatilishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularni maksimal samaradorlik bilan boshqarish imkonini beradi. Monitoring tizimlari orqali tarmoqdagi nosozliklarni yoki ortiqcha yuklanishni darhol aniqlanadi hamda ularga tezkor choralar ko‘riladi. Bu tizimning uzluksiz ishlashini ta’minlaydi. Monitoring jarayonini avtomatlashtirish orqali inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni minimallashtirish va operatsion faoliyatni soddalashtirish mumkin.


1 – jadval.

Tarmoq monitoringini avtomatlashtirishda mavjud muammolar

T/R	Muammolar	Ta’sir darajasi (ball)	Yechish qiyinligi (ball)
1.	Ma’lumotlarning katta hajmi	5	5
2.	Yangi tahdidlarni aniqlash	5	5
3.	Tizimning murakkabligi	4	4
4.	Ko‘nikma va tajribaning yetishmasligi	4	5
5.	Xarajatlar	3	4
6.	Maxfiylik va xavfsizlik	4	5
7.	Real vaqt masalalari	4	5
8.	Skalabellik	4	4
9.	Soxta signallar muammosi	3	4

Tarmoqdagi nosozliklar vaqtida aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun zarur vaqtni sezilarli darajada kamaytiradi. Bu ishlab chiqarish jarayonlari uzluksizligini saqlashga yordam beradi. Tarmoqqa yuklanish darajasini doimiy nazorat qilish orqali muvozanatni saqlash va tizimning haddan tashqari yuklanish ortishidan saqlanishga

yordam beradi. Bu jihatlar tarmoq infratuzilmasining samaradorligini oshirish va umumiy operatsion xarajatlarni kamaytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Operatsion samaradorlikni oshirish orqali tizimlarning uzoq muddatli barqarorligi va foydalanuvchilarning ishonchi ta’minlanadi. Tarmoq monitoringini avtomatlashtirish jarayoni samaradorlikni oshirish va xavfsizlikni ta’minlash uchun muhim, ammo ushbu jarayon bir qator muammolar bilan kechadi. Quyida jadvalda bu muammolarning turlari va ularning yechilish jarayonlari baholangan:



1-rasm. Avtomatlashtirilgan tarmoqdagi muammolarning yechilish jarayoni grafigi.

Ma’lumotlarning katta hajmi. Tarmoqlar tomonidan yaratiladigan ma’lumotlar hajmi juda katta va real vaqt rejimida monitoring qilish uchun katta hisoblash resurslarini talab qiladi.

2 – jadval

Tarmoqdagi trafik hajmi va hisoblash resurslari

T/R	Trafik hajmi (GB/s)	Hisoblash resurslari (serverlar)
1.	10	200.0
2.	20	100.0
3.	50	40.0
4.	100	20.0
5.	200	10.0

T (soniya) = 1000 / (trafik hajmi (GB/s) * server tezligi (GB/s))

Yuqoridagi formula tarmoqda ma’lumotlarni qayta ishlash vaqtini hisoblash uchun ishlatiladi. Grafikda trafik hajmining oshishi bilan hisoblash resurslariga bo‘lgan ehtiyojning oshishi ko‘rsatilgan.


Ma’lumotlarning katta hajmini tahlil qilish uchun asosiy parametrlarga e’tibor qaratiladi:

Hajm (volume) - tarmoqlar har sekundda terabayt yoki petabayt ma’lumotlar yaratadi;

Tezlik (velocity) - real vaqt monitoringida ma’lumotlar oqimining tezligi tahlilni murakkablashtiradi;

Turlilik (variety) - ma’lumotlar turli formatda (matn, video, log-fayllar) bo‘lib, ularni bir tizimda boshqarish qiyin;

Aniqlik (veracity) - noto‘g‘ri yoki noto‘liq ma’lumotlar monitoring samaradorligini pasaytiradi;



2-rasm. Trafik hajmi va hisoblash resurslari o‘rtasidagi bog‘liqlik grafigi

3-jadval

Real vaqt monitoring ma’lumotlarining o‘lchamlari

O‘lchov turi	**Ma’lumot turi**	**Miqdor**	**Tahlil qiyinligi darajasi (1-5)**
Log-fayllar	Matnli ma’lumot	10-100 GB/soat	3
Video oqimlari	Media ma’lumotlari	1-10 TB/kun	4
IoT qurilmalari ma’lumoti	Sensorli ma’lumotlar	1-5 TB/kun	5
Tarmoq trafiklari	Oqimli ma’lumotlar	50-100 GB/soat	4

Monitoring tizimining samaradorligi quyidagi formula asosida baholanishi mumkin:

$$E = \frac{D_{pr}}{R_t \text{ x } V_d}$$

Bu yerda:

E - tizim samaradorligi

D_{pr} – to‘g‘ri tahlil qilingan ma’lumot miqdori (GB)


R_t – real vaqt rejimida ma’lumotni qayta ishlash tezligi (GB/soniya)

V_d – ma’lumot hajmi (GB)

Misol: Agar tizim 10 GB ma’lumotni 2 soniyada qayta ishlasa va ma’lumot hajmi 50 GB bo‘lsa:

$$E = \frac{10}{2 \text{ x } 50} = 0{,}1\ (ya'ni\ 10\%\ samaradorlik)$$

Quyidagi grafikda ma’lumot hajmi va monitoring tizimining samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik tasvirlanadi. Ma’lumot hajmi va monitoring tizimining samaradorligi:



3-rasm. Ma’lumot hajmi va monitoring tizimining samaradorligi grafigi

Grafikda ma’lumot hajmi oshgan sari monitoring tizimining samaradorligi pasayishini ko‘rsatadi. Bu holat tizim resurslari va qayta ishlash quvvatining chegaralanganligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stallings, W. Network Security Essentials: Applications and Standards. Pearson Education, 2017.

2. Conti, M. Security and Privacy in Internet of Things (IoT): Models, Algorithms, and Implementations. Springer, 2021.

3. Rouse, M. What is network monitoring? SearchNetworking, TechTarget, 2022.

4. Jo‘rayev M.T. “Tarmoq oqimini monitoring qilish dasturiy tizimi” // *Index Copernicus*, 2024, 1(7), 73–77-betlar. (Index Copernicus)

5. Begbo‘tayev A.E., Yusupov R.M. *Tarmoq texnologiyalari* (o‘quv qo‘llanma). Jizzax davlat pedagogika universiteti, 2021. (Jizzax Pedagogika Universiteti)

6. Ro‘ziyev Y.Z., Abdullayeva B.S. *Mediasavodxonlik va axborot madaniyati* (darslik). Toshkent, 2024. (Renessans Ta'lim Universiteti)

7. Xamrakulov U.Sh., Risqaliyev J.D., Tashmanov Y.B. *Ochiq ma’lumotlarga asoslangan tadqiqotlar: O‘quv qo‘llanma*. Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti, 2024. (ИПКМВД)

8. “Axborot xavfsizligining siyosati” // *Nauchniy impuls*, maqola, 2024. (Научный Импульс)

HARBIY XIZMATCHILARNING MOSLASHUV DAVRIDAGI RUHIY HOLATI

Umaraliyev B.N.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarni turli sharoitlarga moslashuv imkoniyatlari bilan bog‘liq psixoemotsional holati ko‘rib chiqiladi. Salbiy psixoemotsional holatning sabablari va uni tuzatish yo‘llari keltiriladi. Maqsad - harbiy xizmatchilarning moslashuv davridagi psixoemotsional holatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.*

Harbiy xizmatchilarning psixoemotsional holati butun moslashuv jarayoni muvaffaqiyatining ko‘rsatkichi va indikatori hisoblanadi. Uni o‘lchash amaliy maqsadlarda muhim bo‘lib, “Moslashuvchanlik” kabi shaxsiy testlar o‘tkazishdagi singari uzoq vaqt talab etmaydi, shuningdek psixodiagnostik jarayonni amalga oshirishda maxsus tayyorgarlik va qiyinchiliklar tug‘dirmaydi. Empirik tadqiqotning har ikki bosqichida ham yuqori, o‘rta va past ko‘rsatkichli uchta klasterga ajratish natijasida, psixoemotsional holatni tuzatish bo‘yicha psixologik ishlarni sinovdan o‘tkazuvchilarning barcha guruhlari uchun qo‘llash mumkinligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon berdi.

Kalit so‘zlar: *shaxs; harbiy xizmatchilar; ruhiy-hissiy holat; moslashuv; moslashuvchanlik; alohida sharoitlardagi shaxs; faoliyat subyekti; psixologik ish; yashab qolish qobiliyati; stress.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается психоэмоциональное состояние военнослужащих, связанное с их способностью адаптироваться к различным условиям. Приводятся причины негативного психоэмоционального состояния и пути его коррекции. Цель - определение особенностей психоэмоционального состояния военнослужащих в период адаптации.*

Психоэмоциональное состояние военнослужащих является показателем и индикатором успешности всего процесса адаптации. Его измерение важно в практических целях и не требует столь длительного времени, как проведение личностных тестов, таких как "Адаптивность," а также не вызывает необходимости в специальной подготовке и не создает трудностей при проведении психодиагностического процесса. Разделение на три кластера с высокими, средними и низкими показателями на обоих этапах эмпирического исследования позволило сделать вывод о том, что психологическая работа по коррекции психоэмоционального состояния может быть применена ко всем группам испытуемых.

Ключевые слова: *личность; военнослужащие; психоэмоциональное состояние; адаптация; адаптивность; личность в особых условиях; субъект деятельности; психологическая работа; жизнестойкость; стресс.*

Asosiy qoidalar

1. Harbiy xizmatchi shaxsining moslashuvi uning psixoemotsional holati bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, yangi harbiy qismda xizmatning birinchi yili moslashishning eng muhim davri hisoblanadi.

2. Harbiy xizmatchilarning psixoemotsional holati o‘zgartirilishi mumkin, shu sababli shaxsiy tarkib bilan olib boriladigan psixokorreksion tadbirlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Muammoning dolzarbligi, ahamiyati va mohiyati. Harbiy xizmatga moslashish davri faoliyat turi va muhitning, shu jumladan ijtimoiy muhitning keskin o‘zgarishi tufayli o‘ziga xos murakkablik bilan ajralib turadi. Bu davrda shaxs o‘zi uchun yangi sharoitlarda odatiy muhitga qaraganda ta’sir etuvchi omillarga ko‘proq duch keladi.

Shaxsning moslashuvi faoliyat samaradorligini, ruhiy farovonlik va qulaylikni belgilaydi, ijtimoiy munosabatlar xususiyatiga, shaxs a’zo bo‘lgan kichik guruhlarning umumiy ma’naviy-ruhiy muhitiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1]. Shubhasiz, yangi muhit shaxsning moslashuviga yangi talablar qo‘yadi, odatiy dinamik stereotiplarga, xulq-atvor va faoliyatga iz qoldiradi [2], shaxsning hissiy holati va kayfiyatida aks etadi. Shu bilan birga, moslashuvchanlik salohiyatining o‘zi shaxsning maxsus psixologik tadbirlar davomida rivojlantirish mumkin bo‘lgan qobiliyatlarini anglatadi [3]. Aynan shu narsa harbiy xizmatchilarning moslashuv davridagi ruhiy-hissiy holatini o‘rganish mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqot predmeti shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilarning yangi harbiy qismga moslashish davridagi ruhiy-hissiy holatidan iborat.

Tadqiqot muammosi shundaki, moslashuvni o‘rganish psixodiagnostika jarayonida olti oydan kam bo‘lmagan davriylikda (odatda yiliga bir marta) reja asosida amalga oshiriladi, bu esa joriy vaqtda moslashuvning haqiqiy darajasini aniqlash imkonini bermaydi. Shu sababli, ruhiy-hissiy holatni baholash qisqaroq vaqt ichida (masalan, ikki hafta davomida) moslashish jarayonida ruhiy holatda yuz bergan o‘zgarishlarni kuzatish imkonini berishi lozim.

O‘rganilayotgan muammoni tahlil qilish natijalari harbiy xizmatchilarning moslashuv davridagi ruhiy-hissiy holati shaxsiy tarkib bilan o‘tkaziladigan maxsus psixokorreksion tadbirlar jarayonida o‘zgarishi to‘g‘risidagi farazni shakllantirish imkonini berdi.

Maqsad harbiy xizmatchilarning moslashuv davridagi ruhiy-hissiy holati xususiyatlarini va unga psixokorreksion tadbirlarning ta’sirini aniqlashdan iborat.

Muammoning nazariy asoslari va tahlili. Ruhiy-hissiy holat insonning ustun tarzda qanday munosabat bildirishi mumkinligini ko‘rsatadi [4]. His-tuyg‘ular voqelikka munosabatni belgilaydi, insonning kayfiyati va funksional holatida aks etadi. Agar hissiy faollik pasaysa, masalan, his-tuyg‘ular o‘tmaslashsa, asab tizimining

faolligi, shuningdek, umumiy faollik va hayotiyligi ham pasayadi [5]. Kuchaytirilgan emotsional reaksiyalar ham ruhiy faoliyatni izdan chiqaradi va shaxsni samarali harakat qilish qobiliyatidan mahrum etadi. Faqat maqbul darajadagi hissiy qo‘zg‘alish faoliyatga tayyorgarlik va uning samaradorligiga ko‘maklashadi [6].

His-tuyg‘ular subyektiv kechinmalar dunyosi bilan bog‘liq bo‘lib, insonning voqelikni qanday idrok etishini ko‘rsatadi [7]. His-tuyg‘ularning axborot jihati P.V. Simonovning kognitiv his-tuyg‘ular nazariyasida ko‘rib chiqilgan.

Ye. P. Ilinning [8] fikriga ko‘ra, psixoemotsional holatlarga ba’zi xususiyatlar xos: ular ma’lum vaqt oralig‘ida butun ruhiy holatni ifodalaydi, shaxs bilan bog‘liq bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi, ayni paytda o‘zlari shaxs xususiyatlarini shakllantirish va o‘zgartirish uchun “qurilish materiali” vazifasini bajaradi. Psixoemotsional holatlar fonida shaxs xususiyatlari yaqqolroq namoyon bo‘ladi yoki yashirinadi. Masalan, harbiy xizmatchilarning jang oldidan kutish holati ularga odatiy sharoitlarda xos bo‘lmagan ma’lum sezgi va idroklar majmui, xotira va tafakkur tasvirlari, irodaviy faollikning tartibsizligi bilan tavsiflanadi.

G. Ayzenkning [9] fikricha, psixoemotsional holatlar temperament turlari bilan bog‘liq. Masalan, sangviniklar melanxoliklarga qaraganda ko‘proq ko‘tarinki kayfiyatda bo‘ladilar. Qiziq tomoni shundaki, bir xil vaziyat qarama-qarshi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin, bu ayniqsa murakkab sharoitlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Psixoemotsional holatga shaxsga xos bo‘lishi mumkin bo‘lgan barqaror kayfiyat ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, his-tuyg‘ular turli odamlarda turlicha namoyon bo‘ladi va atrofdagilar bilan muloqotda o‘zgaradi [10], jamoaga va muloqot ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘ladi (S. K. Nartova-Bochaver, A. V. Potapova [11]).

Moslashuv jarayonida harbiy xizmatchilar notanish muhitga tushib qolishlari bilan bog‘liq ruhiy-hissiy zo‘riqishni boshdan kechiradilar. Bu muhit haqida ular ilgari tanishlarining hikoyalaridan olingan noaniq va ko‘pincha noto‘g‘ri tasavvurlarga ega bo‘lganlar. Amalda esa, harbiy xizmatchilar o‘zlari muqarrar deb hisoblagan qiyinchiliklardan butunlay boshqacha muammolarga duch kelishlari mumkin. Ko‘pincha harbiy xizmatchilar qiyinchiliklarning sababi o‘zlarida ekanligini anglamaydilar. Ular tashqi ko‘rinishga e’tiborsizlik ko‘rsatib, xizmat vazifalarini istar-istamas, loqaydlik bilan bajarib, vazifalarni boshqalarga yuklab qo‘ymoqdalar. Eng mas’uliyatli harbiy xizmatchilar esa qo‘yilgan vazifani bajara olmaslik, hamkasblarini qiyin ahvolga solish, bevosita komandirning ishonchini oqlay olmaslik qo‘rquvidan zo‘riqishni his qiladilar. Ular chaqiruv bo‘yicha xizmat paytida ham shunday holatni boshdan kechirganlar [12].

Har qanday holatda ham bu qo‘shimcha ruhiy-hissiy zo‘riqishlarga, xavotirga, salbiy kechinmalarga olib keladi. Bu esa harbiy xizmatchilarning umumiy jangovar tayyorgarligi va psixofiziologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [13].

Adaptatsiya ko‘p jihatdan harbiy xizmatchilarning psixofiziologik xususiyatlari, shuningdek, funksional holatlarni o‘z-o‘zini boshqarish darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu salbiy ta’sir etuvchi omillarga barqarorlik va chidamlilikni ta’minlaydi [14]. Moslashuv jarayonini obyektiv ma’lumotlar va shaxsning individual xususiyatlariga asoslanib baholash lozim [15]. Moslashuvning shaxsiy omillari odatda subyektiv omillar qatoriga kiritiladi [16]. Moslashuvning obyektiv-subyektiv omillari go‘yo "chegarada" joylashgan bo‘lib, bir tomondan, ular shaxsni faoliyatga va muhitga tayyorlash bilan bog‘liq, ikkinchi tomondan esa, o‘sha faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari, vaziyat va umumiy holatlar bilan belgilanadi [17].

Adaptatsiyani o‘rganish psixologiya fani mavjudligi davomida murakkab muammo bo‘lib kelgan va uni tadqiq etish yondashuvlari turli tushunchalar va nazariyalar doirasida sezilarli farq qiladi [18]. Moslashuv shaxsning hayotiyligi, atrof-muhitning salbiy omillariga qarshi tura olish qobiliyati va imkoniyatini ta’minlaydi, bu ham psixologiyaning tadqiqot mavzusiga aylangan [19].

Adaptatsiya muammosiga bo‘lgan barcha qiziqishlarga qaramay, qiyinchiliklar davrida, ayniqsa psixoemotsional holatni, o‘z psixologik holatini subyektiv baholash masalasi deyarli e’tibordan chetda qolmoqda. Bu masala xorijiy olimlar orasida qiziqish uyg‘otmoqda [20].

Harbiy xizmatchilarning yangi harbiy qismda xizmatga moslashish davridagi hozirgi psixologik holatini tahlil qilish uchun ikkita metodika - SFK (sog‘liq, faollik, kayfiyat) va UPH (ustun psixologik holat) qo‘llanildi.

SFK va UPH usullari bo‘yicha olingan ballarni shkalada hisoblash variantlari qo‘llanildi (eng yuqori ko‘rsatkich - 10, eng past - 1).

SFK metodikasi bo‘yicha tadqiqotning birinchi bosqichida ma’lumotlarning eng katta tarqoqligi “kayfiyat” shkalasi bo‘yicha kuzatilgani aniqlandi, buni eng yuqori dispersiya - 4,274 ko‘rsatadi. Eng katta o‘xshashlik “sog‘liq” shkalasi bo‘yicha qayd etilgan, bu yerda eng kichik dispersiya - 2,112. Standart xato va standart og‘ish ko‘rsatkichlari ham xuddi shu haqda xulosa chiqarishga imkon beradi. O‘rtacha ko‘rsatkich umuman olganda yaxshi holatni ko‘rsatadi: barcha uchta shkala bo‘yicha 5 dan yuqori ko‘rsatkich aniqlandi (5,58 – “sog‘liq” shkalasi bo‘yicha; 5,88 – “kayfiyat” va 5,90 – “faollik”).

Ikkinchi bosqichda SFK metodikasi bo‘yicha barcha uch shkala ko‘rsatkichlari yaxshilandi. Xususan, “o‘zini his qilish” va “faollik” shkalalarida o‘rtacha ko‘rsatkich taxminan 0,8 ballga, “kayfiyat” shkalasida esa 1,4 ballga oshdi.

Shunday qilib, harbiy xizmatchilarning psixoemotsional holatini tuzatish bo‘yicha olib borilgan ishlar samarali ekanligi aniqlandi, chunki olingan natijalar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar sezilarli darajada oshdi va ma’lumotlarning tarqoqligi kamaydi.

Salbiy psixoemotsional holatlarni tuzatish usullari orasida [22] desensibilizatsiya bilan birga kechadigan relaksatsiya alohida ajralib turadi. Bu usul alohida harbiy xizmatchilar bilan ham, butun guruhlar (bo‘linmalar) bilan ishlashda ham qo‘llanilishi mumkin. Masalan, psixolog har bir harbiy xizmatchi bilan alohida shug‘ullanish o‘rniga, balandlikdan yoki yopiq xonada qolishdan qo‘rqadigan bir nechta harbiy xizmatchilarni birlashtirib ishlaydi. Desensibilizatsiya nafaqat fobiya yoki ishonchsizlik holatlarida, balki boshqa salbiy kechinmalarda ham samarali hisoblanadi.

Relaksatsiyadan tashqari, psixolog xavotirning boshqa ingibitorlarini (mos kelmaydigan reaksiyalar) qo‘llaydi: hazil-mutoyiba, xavfsizlik va qo‘llab-quvvatlash hissini kuchaytirish, muvaffaqiyatni his qilish.

Umuman olganda, desensibilizatsiya uch bosqichga bo‘linadi. Bunda qo‘rquv va xavotir ularga zid bo‘lgan omillar, masalan, relaksatsiya bilan bog‘lanish orqali bartaraf etiladi.

Birinchi bosqichda qiyinchilik tug‘diradigan vaziyatlar aniqlanadi, eng ko‘p tushkunlikka soladiganlari belgilanadi va shaxs uchun ahamiyatiga ko‘ra tartiblanadi. Ikkinchi bosqichda relaksatsiya, uning algoritmi va undan mustaqil foydalanish qoidalari o‘rgatiladi. Uchinchi bosqichda chuqur relaksatsiya holatidagi harbiy xizmatchida salbiy holatlarni yuzaga keltiruvchi vaziyatlar haqida tasavvurlar hosil qilinadi va salbiy holatlar kuchi asta-sekin pasaytiriladi.

Shaxsning kundalik hayotidagi desensibilizatsiya faqat ikki bosqichni o‘z ichiga oladi: salbiy ruhiy-hissiy holatlarni keltirib chiqaradigan vaziyatlarni anglash va tajriba orqali bevosita desensibilizatsiya, ya’ni real vaziyatlarda mashq qilish (psixolog-mutaxassis yordamida hayotda ko‘p marta takrorlash). Bu jarayonda shaxs bunday vaziyatlarga xotirjam munosabatda bo‘lishni o‘rganadi. Harbiy xizmatchilar uchun desensibilizatsiya tartibi boshqacha, chunki ular ko‘p vaqtini xizmatda o‘tkazadi va tashqi aloqalari cheklangan, ayniqsa yopiq garnizonlarda.

“Toshqin” usuli yoki imploziv terapiya eng xavfli usullardan biri hisoblanadi, chunki salbiy ruhiy-hissiy holatlarni keltirib chiqaradigan omillarni namoyish etish kuchli salbiy reaksiyaga sabab bo‘lishi mumkin. Bu usulni faqat tajribali mutaxassislar qo‘llashi lozim. U harbiy xizmatchiga to‘satdan uni o‘ta kuchli xavotirga soladigan manzaralarni ko‘rsatishdan iborat.

Birinchi bosqichda stressli vaziyatlar va rag‘batlar ro‘yxati tuziladi, ularning darajalanishi amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda tasavvur kuchi va hamroh his-tuyg‘ularni ifodalash orqali ularga chidamlilikni rivojlantirish mashqlari o‘tkaziladi. Xavf-xatar sezilmaydigan psixologik xotirjam vaziyatda harbiy xizmatchi o‘zida o‘ta salbiy xotiralarni, hatto ba’zan qo‘rqinchli tushlarga aylangan voqealarni esga oladi. Tashqi qo‘llab-quvvatlash, psixolog-terapevt va boshqa hamkasblarning xotirjamligi

salbiy kechinmalar kuchining asta-sekin pasayishiga yordam beradi. Odatda, bir harbiy xizmatchi salbiy xotiralarning hissiy ta’sirini 10-60 daqiqa ichida bartaraf etishga qodir bo‘ladi.

Murakkabroq hollarda vaqtincha boshqa ish usuliga o‘tiladi (masalan, vaziyatni va uning sabablarini mantiqiy tahlil qilish), so‘ngra vaziyat o‘z keskinligini yo‘qotgani, o‘tmish sifatida idrok etila boshlagani va endi tahdid solmayotgani aniq bo‘lgach, imploziv terapiyaga qaytiladi.

Umuman olganda, desensibilizatsiya “to‘ldirib tashlash” usuliga qaraganda ko‘proq qo‘llaniladi, chunki u kamroq stressli usul bo‘lib, maslahatchidan juda yuqori malaka talab qilmaydi.

Harbiy xizmatchilarning shaxsiy xususiyatlariga mos keladigan usullar individual tartibda qo‘llaniladi.

Harbiy xizmatchilarning ruhiy-hissiy holatini tuzatish bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlardan so‘ng barcha ma’lumot beruvchi shkalalar bo‘yicha ko‘rsatkichlar oshganligi kuzatildi. Bu esa ruhiy-hissiy holatning yaxshilanganidan dalolat beradi. Xususan, “hayotiy vaziyatga faol - sust munosabat”, “xotirjamlik – xavotir”, “hissiy barqarorlik”, “hayotdan umuman qoniqish – qoniqmaslik” shkalalari bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich birdan ko‘proqqa, “ish qobiliyati: yuqori – past” shkalasi bo‘yicha esa bir birlikka oshdi. Javoblarning g‘ayriodiyligi ikki baravardan ko‘proq kamaydi. Bu esa guruh o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan jiddiy chetga chiqishlar haqida so‘zlovchi javoblar ancha kamayganini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning birinchi va ikkinchi bosqichlaridagi natijalar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun klaster tahlili qo‘llaniladi. Klasterlash usuli bo‘yicha har ikkala bosqichda ham eng yaxshi, eng yomon va oraliq (o‘rtacha) natijalarga ega bo‘lgan uchta klaster aniqlandi.

Birinchi klasterga yaxshi ruhiy-hissiy holatga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar kiradi. Ularda javoblarning g‘ayriodiyligi past bo‘lib, bu ularning baholari ongli va o‘zaro muvofiq ekanligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi klaster ruhiy-hissiy holati o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilarni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi klasterga faolligi yetarli bo‘lmagan, emotsional fon darajasi past, ish qobiliyati pasaygan (o‘rtacha 2,59) va shu kabi harbiy xizmatchilar kiritiladi. Ular harbiy xizmatga moslashish davrida psixoemotsional holatini tuzatishga eng ko‘p ehtiyoj sezadilar (1-jadval).


Shu bilan birga, tekshirilganlarning yarmidan kamrog‘i (43,4%) psixoemotsional holatni tashxislash bo‘yicha yetarlicha yuqori (ijobiy) natijalarga ega, ularga tuzatish talab etilmaydi. Shunday bo‘lsa-da, ularning axloqiy-psixologik

barqarorligini mustahkamlash va qulay psixologik holatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida psixologik ta’sir o‘tkaziladi.

1-jadval. Empirik tadqiqotning birinchi bosqichida klaster tahlili natijalari

Metodika shkalalari	Klaster		
	1	2	3
S — salomatlik	0,27	0,71	0,41
A — faollik	0,31	0,24	0,41
N — kayfiyat	0,08	0,59	0,35
Ak — hayotiy vaziyatga faol — passiv munosabat	0,46	0,47	0,47
Rb — ish qobiliyati: yuqori — past	0,15	0,06	0,59
Sp — xotirjamlik — xavotir	0,31	0,82	0,76
Eu — hissiy barqarorlik	0,04	0,59	0,88
Uj — umuman hayotdan qoniqish — qoniqmaslik	0,27	0,06	0,94
Sj — ijtimoiy maqbullik	0,35	0,47	0,35
At — javoblarning g‘ayritabiiylik darajasi	0,23	0,65	0,59

Natijalarni foiz ko‘rinishida 1-rasmda vizual tarzda taqdim etamiz.




1-rasm. Psixologik tuzatishdan oldin harbiy xizmatchilarning klasterlarga taqsimlanishi.

Ikkinchi bosqichda klaster tahlili natijalariga ko‘ra, miqdoriy ma’lumotlarga asoslangan holda har bir klasterdagi harbiy xizmatchilar soni o‘zgardi (2-rasm).

Shunday qilib, psixoemotsional holatni tashxislash bo‘yicha ijobiy natijalarga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilarning ulushi ustunlik qilib, 61,7 foizni tashkil etdi. O‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilarning ulushi 31,7 foizni tashkil etdi va atigi 6,6 foiz harbiy xizmatchilar hamon yetarlicha yaxshi bo‘lmagan psixoemotsional holatni namoyish etdilar.

Shundan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, moslashuv bosqichida psixoemotsional holatni tashxislashda yuqori natijalarga erishgan harbiy xizmatchilar o‘z ko‘rsatkichlarini biroz oshirib ko‘rsatishga moyil bo‘lib, ularning natijalari o‘rtacha statistik ko‘rsatkichlardan farqlanadi.

E’tiborga olish lozimki, korrelyatsiya koeffitsiyentlarining aksariyati p=0,01 da, ya’ni eng yuqori ahamiyatlilik darajasida statistik jihatdan muhim hisoblanadi.



2-rasm. Psixologik tuzatishdan so‘ng harbiy xizmatchilarning klasterlarga taqsimlanishi.

Barcha informativ shkalalar o‘rtasidagi korrelyatsiya ko‘rsatkichlarning o‘zaro yaqinligini aks ettiradi - ular bir-biriga bog‘liq xususiyatlarni o‘lchaydi. Shkalalar o‘rtasidagi muhim korrelyatsion aloqalar shuni ko‘rsatadiki, bir xususiyatni (uning ifodalanishini) o‘zgartirganda, boshqa xususiyatning ham shu yo‘nalishda o‘zgarishini kutish mumkin. Psixoemotsional holatdagi farqlar, shaxsning individual xususiyatlari bilan birgalikda, stressga moslashishdagi xulq-atvor strategiyalarini belgilaydi [23]. Bugungi kunda harbiy xizmatchilar kasbiga qo‘yiladigan talablar o‘zgarmoqda, psixoemotsional stressga moyil bo‘lgan va psixologlarning alohida e’tiborini talab qiladigan yangi mutaxassisliklar paydo bo‘lmoqda. Shu sababli, moslashish jarayoni va joriy o‘zgarishlar, shu jumladan kasbiy deformatsiya bilan bog‘liq holatlarda ham tor, ham keng qamrovli mavzularda yangi tadqiqotlar o‘tkazish zarur. Psixoemotsional barqarorlikni rivojlantirish kelajakda psixologik jarohatlardan saqlanishga, shuningdek, psixotravmalar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli ruhiy kasalliklar xavfini kamaytirishga yordam beradi [24].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dikaya L. G., Juravlev A. L., Zankovskiy A. N. Uzluksiz ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida mutaxassisning moslashuvi va o‘zini namoyon etishini o‘rganishning zamonaviy holati va istiqbollari // Rossiya Fanlar akademiyasi Psixologiya instituti. 2016. 1-jild, 1-son. 7-48-betlar.

2. Zabegalina S. V. Bashorat qilish va moslashuv qobiliyatlari insonning hayotchanlik belgilovchilari sifatida // Inson hayotchanligi: individual, kasbiy va ijtimoiy jihatlar / muharrirlar A. V. Maxnach, L. G. Dikaya. M., 2016. 356-373-betlar.

3. Lukashenko D. V. Moslashuv salohiyati shaxsning qobiliyati sifatida // Inson kapitali. 2015. 10(82)-son. 88-90-betlar.

4. Meshcheryakov B. G., Zinchenko V. P. Katta psixologik lug‘at. Sankt-Peterburg, 2003. 632 bet.

5. Izard K. E. Hissiyotlar psixologiyasi. Sankt-Peterburg, 2012. 464 bet.

6. Stolyarenko A. M. Ekstremal psixopedagogika. Moskva, 2002. 607 bet.

7. Dodonov B. I. Hissiyotlar olamida. Moskva, 1987. 140 bet.

8. Ilin Ye. P. Iroda psixologiyasi. Sankt-Peterburg, 2009. 368 bet.

9. Ayzenk G. Shaxs tuzilishi. Sankt-Peterburg, 1999. 464 bet.

10. Shaxsning ijtimoiy kapitali: monografiya / L. G. Pochebut, A. L. Sventsitskiy, L. V. Mararitsa, T. V. Kazantseva. Moskva, 2014. 250 bet.

11. Nartova-Bochaver S. K., Potapova A. V. Rivojlanish psixologiyasiga kirish: o‘quv qo‘llanma. Moskva, 2005. 216 bet.

12. Sultonmuratov Yu. M., Ovchinnikov A. A., Sultonova A. N., Sicheva T. Yu. Harbiy xizmatchilarning moslashuviga ta’sir etuvchi individual-psixologik xususiyatlari // Sibir psixiatriya va narkologiya xabarnomasi. 2017. № 3(96). 50–56-betlar.

13. Tyurin A. A. Harbiy xizmatchilarning moslashuvi va moslashuv buzilishi psixofiziologik mexanizmlari // MNKO. 2015. № 6–1. 208–214-betlar.

14. Karayani A. G., Karavayev A. F. Jangari pilotsiz uchish apparatlari operatorlari faoliyatining psixologik va psixofiziologik xususiyatlari // Huquqni muhofaza qilish organlarida psixopedagogika. 2021. 26-jild, № 1(84). 6–15-betlar. https://doi.org/10.24411/1999-6241-2021-11001.

15. Teplov V. M. Individual farqlar muammolari. Moskva, 1961. 535 bet.

16. Rean A. A., Kudashev A. R., Baranov A. A. Shaxs moslashuvi psixologiyasi. Tahlil. Nazariya. Amaliyot. Sankt-Peterburg, 2006. 479 bet.

17. Hobfoll S. E. Ijtimoiy va psixologik resurslar hamda moslashuv. Umumiy psixologiya sharhi. 2002. 6(4)-son. 307–324-betlar.

18. Nalchadjyan A. A. Psixologik moslashuv. Moskva, 2010. 368 bet.

19. Maxnach A. V. Insonning hayotga layoqatliligi psixologiya fanida o‘rganish predmeti sifatida // Psixologiya jurnali. 2017. 38-jild, 4-son. 5–16-betlar.

20. Xiaowei G., Feng Z. Affektiv bashoratdagi ta’sir xatoligi: Fokalizmmi yoki kutilmagan moslashuvmi? Psixologiya fani jurnali. 2015.-05- en.cnki.com.cn.

21. Yaroshuk D. V. Harbiy xizmatchilarning ekstremal vaziyatlarda shaxsning hissiy barqarorligi haqidagi tasavvurlarining psixologik xususiyatlari // Oila va shaxs: o‘zaro ta’sir muammolari. 2017. 8-son. 219–230-betlar.

22. Malkina-Pix I. G. Psixosomatika. Amaliy psixolog ma’lumotnomasi. Moskva, 2005. 992 bet.

AXBOROT-PSIXOLOGIK QARSHI KURASHNING QO‘SHINLAR JANGOVAR RUHIGA TA’SIRI

Qoraboev A.I.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa insituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda axborot-psixologik qarshi kurash, uning mazmun moxiyati, dolzarbligi, axborot-psixologik qarshi kurashning qo‘shinlar jangovar ruhiga ta’siri, axborot-psixologik xavfsizlikning shaxsga ta’sir etuvchi vosita va usullari borasida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatish, axborot to‘qnashuvi, Axborot-psixologik xavfsizlik, axborot iste’molchisi, axborot madaniyati.*

Annotation: *This article discusses the current issues of information-psychological counteraction, its content and essence, relevance, the impact of information-psychological counteraction on the combat morale of troops, and the means and methods of information-psychological security affecting individuals.*

Keywords: *psychological influence through information tools, information conflict, information-psychological security, information consumer, information culture.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются актуальные вопросы информационно-психологического противодействия, его содержание и сущность, значимость, влияние информационно-психологического противодействия на боевой дух войск, а также средства и методы информационно-психологической безопасности, влияющие на личность.*

Ключевые слова: *психологическое воздействие с помощью информационных средств, информационный конфликт, информационно-психологическая безопасность, потребитель информации, информационная культура.*

Har bir mamlakat mudofaa va xavfsizligini ta’minlashni o‘z siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb belgilab, uni amalga oshirish uchun mavjud salohiyatlardan maqsadli foydalaniladi. Bunda axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatishdan ham foydalanish ehtimoldan xoli emas. Mudofaaviy faoliyatda mazkur masala taktik va strategik darajalarda amal qilishi mumkin. Uni anglash uchun, axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatishni “Shaxs va ijtimoiy munosabatlar nazariyasi”, “Tahdidlarni aniqlash va javob qaytarish”, “Yumshoq kuch”, “Umumiy xavfsizlik”, “Psixologik xavfsizlik” kabi ta’limotlarga tayaniladi. Axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatishni amalga oshirishda mintaqaviy, etnomadaniy, diniy, siyosiy va iqtisodiy kabi omillardan foydalanish mumkin. Ular, xabarni tayyorlashda, aniqrog‘i xabarni mazmunini belgilashda birlamchi asos hisoblanadi.

Axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatish vazifadorligi jihatidan konsruktiv va destruktiv kabilarga ajratiladi. Uning konstruktiv jihati ko‘proq amaliy ahamiyat kasb etib, bevosita mamlakatning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish samaradorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Fuqarolarga mudofaa ongni shakllantirish maqsadida ijobiy ustanovkalar berish, milliy rivojlanishning asosiy tamoyillarini singdirish, jamiyatda ifodalanishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-madaniy og‘ishlarni siqish (profilaktikasini amalga oshirish) maqsadida turli usul va vositalar orqali olib boriladigan dasturiy tadbirlar majmuasini amalga tadbiq etilishidir.

Axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatish o‘z mafkurasiga ega bo‘lib, aniq bir obyektga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. *Obyekt sifatida,* alohida inson, jamoa (guruh, millat, xalq), davlat tanlanishi mumkin. Ta’sir o‘tkazish maqsadi nuqtai nazaridan axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatish ikki guruhga ajratiladi. Har bir guruh vazifasi va maqsadi jihatidangina emas, balki xarakteri, manfaati, maqsadi va yo‘naltirilganligi jihatidan axborot vositasida ichki psixologik ta’sir ko‘rsatish va axborot vositasida tashqi psixologik ta’sir ko‘rsatishga ajratiadi.

Axborot vositasida ichki psixologik ta’sir ko‘rsatish. Davlat strategiyasini amalga oshirish uchun, jamiyat a’zolariga muhim bo‘lgan tasavvur va ustanovkalarni shakllantirish maqsadida, ijtimoiy faollikni amalga oshirish maqsadida olib boriladi.

Axborot vositasida tashqi psixologik ta’sir ko‘rsatish davlatning tashqi siyosat konsepsiyasi asosida olib borilib, xalqaro siyosiy maydonda mamlakatning imijini ko‘tarishga, turli darajalarda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish uchun zamin yaratishga qaratilgan bo‘ladi.

Axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida internet, radio, televideniye yordamida, film va reklamalar, xabar, maqolalar, ko‘ngilochar dasturlar, intervyu shakllarida, badiiy adabiyotning turli janrlarining namunalarida olib borilishi mumkin.

Axborot vositasida psixologik ta’sir ko‘rsatishning turlari ko‘p bo‘lib, mudofaaviy faoliyatni ta’minlash nuqtai nazari asosida ularning asosiylari sifatida strategik, tezkor va taktik kabi turlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Ular maqsad va vazifalari jihatidan bir-biridan farqlanadi. Xavfsizlik va barqarorlikka xavf soladigan tahdidlar axborot vositasida mamlakat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ma’rifiy, ma’naviy, ekologik, harbiy, ijtimoiy, demografik sohalariga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Shu bois, jamiyatda axborot madaniyatini shakllantirib, uni takomillashtirib borishida xizmat faoliyatini psixologik ta’minlash bo‘yicha faoliyat yuritadigan mutaxassislar-ofitserlar yetakchilik qilishlari lozim. Chunki, axborot madaniyatiga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosi o‘z qadriyatlarining mazmunini, madaniyatining tarixi va ahamiyatini anglay olganligi sababli, uni manfaatlarini individual va guruhiy darajalarda himoya qila oladi. Ma’rifiy jihatdan, “axborot madaniyati nafaqat

xabarlarni saralash, ularni ahamiyatli jihatlarini belgilab olish, sohalarga ajratish, g‘oyasini aniqlash, xabar manbaini topish uchun xizmat qiladi, balki jamiyat manfaatini ta’minlaydi. Ularni axborot madaniyati vazifalari deb atashni lozim topdik.

Bular quyidagilar:

- bilish vazifasi (axborot iste’molchilarining faoliyatini aniqlashga xizmat qiladi);
- tartibga solish vazifasi (jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi);
- tarbiyalash vazifasi (shaxsning intellektual rivojiga yordam berib, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy meyor va qadriyatlarni o‘zlashtirishga, qiziqishlarning yuzaga kelishiga, faoliyat uchun ma’lum ustanovkalarni ishlab chiqishga ko‘maklashadi);
- mafkuraviy vazifasi (dunyoda bo‘layotgan voqea hodisalarni, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotga oid ma’lumotlarni mavjud g‘oyalar manfaatlariga tayanib fuqarolarga yetkazadi);
- xabar yetkazish vazifasi (dunyoda sodir bo‘layotgan voqea hamda hodisalarni insonlar ongiga yetkazadi);
- tashxislash vazifasi (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy voqeliklarni baholashga xizmat qiladi);
- prognostika o‘tkazish vazifasi (inson hayotining va faoliyatining turli yo‘nalishlarini oldindan belgilash, ularning yuzaga kelishi, kechish bosqichlariga oid ma’lumotlarni taqdim etadi) va boshqalar.

Axborot vositasida inson ongiga havola etilayotgan g‘oyalarni uzatish shakllari ortib bormoqda. Badiiy ijod namunalarida bunyodkor va vayronkor g‘oyalarni aks ettirilganligi bunga namunadir va ularning har biri qator vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgandir. Bunda yaratilgan ijod namunasi makonida mavjud mafkuralarning namunalari tarqatilishini ham kuzatish mumkin. Masalan axborot vositasida jamiyatning m’naviy sohasiga tahdid sifatida AQSH, Xitoy, Hindiston va boshqa xorijiy mamlakatlarda eksport uchun ishlab chiqargan filmlarni ko‘rsatib o‘tsak maqsadga muvofiqdir. Ular vositasida nomaqbul xulq namunalari turli mazmunda qahramonlar siymosida targ‘ib etilmoqda. Masalan, “Jismoniy kuch muammoni yechishning muhim uslubi”, “Hamma narsani sotib olish mumkin” kabi g‘oyalar turli syujetlar yordamida tamoshobinlarning e’tiboriga havola etiladi. Bunda oilaviy munosabatlar madaniyati va turli xil ijtimoiy muammolarning yechimidan tortib to ishdagi munosabatlarga qadar (turli xavflarning mavjudligi, qo‘rqish hissini uyg‘otish, uni ifodalanishi, kasbdoshlarga, oila a’zolariga ishonmaslik, har qadamda xiyonatning mavjudligi va shu kabi) masalalar tasvirlanganligini kuzatish mumkin.

Axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash nazaridan salbiy holat, bu vujudga kelgan muammoni “yagona yechim yo‘li”ni singdirish uchun xulq namunasini targ‘ib etishdir. Va, u xulq namunasining tarkibida, maishiy va ijtimoiy meyorlarni buzish, qadriyatlarga putur yetkazish, qonunga amal qilmaslik emotsiyaga ta’sir ko‘rsatish

uchun ranglar bo‘yog‘laridan foydalanib, tamoshobinni idrok maydonini sathini belgilab beradi.

Insoniyat tarixiga nazar solsak, u axborotlashgan jamiyatga qadar bo‘lgan uzoq tarixiy vaqt oralig‘idagi yo‘lni bosib o‘tgan va bu yo‘lda ko‘plab rivojlanish bosqichlaridan o‘tilgan va “Eng qadimgi davr”, “Qadimgi davr”, “O‘rta asrlar”, “Hozirgi zamon” kabi iboralar qo‘llansa-da, hech qachon insoniyatning axborotga nisbatan ehtiyoji kamayib qolmadi. Asrlar o‘tgan sari, axborotning ko‘lami kengayib, sohalar bo‘yicha hajmi ham oshib, uni qiymati va madaniy ahamiyati ortib boraveradi.

Axborot, o‘zining atributiv xususiyatlaridan tashqari, iste’molchi uchun shaxsiy yoki jamoaviy, madaniy ahamiyatga ega bo‘ladi. Garchi axborotning xossalari shartli bo‘lsa-da, uning foydaliligi, qabul qiluvchi subektga ta’sir qilish darajasi bilan belgilanadi. Agarda axborotni qabul qilgan subyekt, axborotda kerakli emosional taassurot va bilimlarni olgan bo‘lsa, qoniqqanlik darajasi ham ortib boradi. Natijada maqsadini to‘g‘ri shakllantirib, maqbul xulq namunasini yuzaga chiqara oladi. Chunki axborot iste’molchisi turli ko‘rinishda obekt bilan samarali munosabatga kirisha oladi. Agarda uzatilayotgan salbiy axborot iste’molchisining ma’naviy dunyosiga taalluqli bo‘lsa, ya’ni axboroning qabul qiluvchi undan emosional qoniqish hosil qilsa, axborotni foydali, deb hisoblashishi mumkin. Axborot, turli sohalar bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi va ular ijtimoiy munosabatlarning kechishini ta’minlaydi. Fikrimizcha, axborot xabarlardan tarkib topib, har bir xabar o‘zida ***uchta psixologik xossani*** ifodalaydi. Bular:

- xabarni o‘zi. U, aniq masalaga (mavzuga) bag‘ishlangan bo‘lib, ko‘pincha diqqatni tortadigan jarayonlarga oid tayyorlanadi. Maqsad, axborot iste’molchisini jarayonni dinamikasidan xabardor etishdan iborat;

- xabarni iste’molchiga zavq baxshida etuvchi tarkibi. Bu tarkib, axborotning mavzusi, aniqrog‘i iste’molchini kutishlari asosida ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin. Bunga misol munajjimlarning bashorati. Bu xabarlarda, burch sohiblarining nimanidir kutishlarini, bir muddat vaqtliroq munajjimlar ko‘rsatma berish usuli bilan belgilab qo‘yadilar. Maqsad, axborot iste’molchisining faoliyatini mazmuniga ta’sir ko‘rsatishdan iborat;

- axborotni ishontiruvchi tarkiblari. Ishontiruvchi tarkib asosan hayotiy misollar bilan turli obrazlarning namunasi misolida uzatiladi. Uzatiladigan xabarning mazmuni, subektni kerakli bo‘lgan g‘oyaga ishonchini uyg‘otib, raqam va dalillar esa ishonch darajasini oshirish uchun vosita sifatida qo‘llaniladi. Maqsad, axborot iste’molchisini ongiga ma’lum g‘oyani singdirishdan iborat. Agarda, g‘oya bunyodkorlikka chorlovchi, yaratuvchanlikka yo‘naltiruvchi bo‘lsa, subektning xulq namunasida moddiy yoki ma’naviy yaratuvchanlik mujassamlashadi. Natijada, ijtimoiy hamkorlikka intilish, turli millat vakillariga xayrixoh munosabatda bo‘lish, boshqa din

va madaniyat namoyondalariga bag‘rikenglik ko‘rsatish, jamiyat va davlat arboblariga ishonch bildirish namunalari turli ko‘rinishlarda ifodalanadi. Agarda, vayronkor g‘oya ifodalangan bo‘lsa, turli ko‘rinishdagi agressiv xulq namunalari ifodalanib, destruktiv “Men”, egosentrizm, separatizm, milliy shovinizm kabi destruktiv xulq namunalari ifodalanib, jamiyat hayotining turli sohalarida muammolar ifodalanadi. Shu sababli, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi ikkita sathda, ochiq va yopiq sathda institusional tarzda ta’minlanadi.

Insonni axborot olishga bo‘lgan ishtiyoqi, uni hayot tarzi va kechinmalaridan qat’iy nazar ortib boraveradi. Bu ishtiyoqni ortib borishi uning ehtiyojlar iyerarxiyasida (pog‘onasida. A.Maslouning ta’limoti bo‘yicha) o‘zini namoyon etish va xavfsizligini ta’minlash kabi ehtiyojlarini qondirish uchun amalga oshiriladigan harakatlari bilan bog‘liqdir. Shu sababli, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash yo‘lida faoliyat yuritadigan mutaxassis, axborot xuruji, axborot kurashi, axborot xavfsizligi kabi konseptlarni (tushunchalarni) mohiyatini anglay olishi lozim.

Demak, har qanday axborot voqeaning vujudga kelishi, kechishi, ishtirokchilarining sonini belgilanishi jihatlari bilan alohida mazmun kasb etadi. Ma’nosi jihatidan , mohiyati, ta’sir etish darajasi, inson va jamiyatga foydali yoki zararliligi jihatlari bo‘yicha kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da’vat etishi uchun qo‘llanilishi mumkin. Axborotni psixologik xavfsizligini ta’minlovichi soha vakillari, aynan yovuzlikka da’vat etuvchi mazmunga ega bo‘lgan axborotlarni turli darajada zararlantira olishlari lozim. Shu tariqa, axborotning psixologik xavfsizligi tushunchasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, axborotning psixologik xavfsizligi deganda, individual, guruhiy (jamoaviy) va ommaviy tarzda inson psixologiyasiga, aniqrog‘i insonni hissiy-irodaviy, aqliy, ehtiyojlari kabi sohalariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalariga, davlatning ichki yoki tashqi faoliyatiga taalluqli bo‘lgan axborotni destruktiv, ya’ni salbiy mazmundagi xossalardan (ta’sir etuvchilardan) himoyalanganlik holatini tushunish lozim.

Ikkinchidan, ***axborotning psixologik xavfsizligi*** – bu bevosita inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali uni o‘z aqidalaridan, ideallaridan, muqaddas e’tiqodidan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrash uchun amalga oshiriladigan faoliyatdir. Demak, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlashga avvalo inson va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarga qarshi yo‘naltirilgan tarkibida buzg‘unchi g‘oyalar va tajovuzkor mafkuralarni mujassam etgan axborotni zararlantirish uchun amalga oshiriladigan harakatdir.

Uchinchidan, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash shaxs, jamiyat va davlat darajasida ta’minlanib, bunda milliy manfaatlarni himoyasini ta’minlash birlamchi asos hisoblanib, axborot-kommunikasiya texnologiyalari vosita hisoblanadi.

To‘rtinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi semantik jihatdan farqlanib, axborot-psixologik xavfsizlik texnik jihat, aniqrog‘i dasturiy vositalar yordamida axborotni jamlash, saqlash, saralash, uzatish jarayonida uni chiqib ketmasligini ta’minlashni nazarda tutadi. Axborotning psixologik xavfsizligi deganda mutaxassis tomonidan axborotning tarkibida salbiy xulq namunasini ifodalashga chorlovchi (da’vat etuvchi) tarkiblarni zararlantirish natijasida vujudga kelgan ijtimoiy-psixologik holat tushuniladi.

Nazariy jihatdan, axborotning xavfsizligi ikki yo‘nalishda:

- axborotning xavfsizligi texnik jihatdan ta’minlanadi;
- axborotning xavfsizligi psixologik jihatdan ta’minlanadi.

Harbiy sohada axborot-texnik va axborot-psixologik xavfsizlikning obyektlari haqida mulohaza yuritishdan oldin masalaga uzviy bog‘liq bo‘lgan axborot to‘qnashuvi haqida to‘xtalib o‘tish joiz.

“Axborot to‘qnashuvi” tushunchasi ilk bor 1967 yili Allen Dalles tomonidan muloqotga kiritilgan. Muallif, bu tushunchani “sovuq urush” davrida ikki qutbli dunyoda AQShni SSSRga qarshi olib borilgan harakatlarida qo‘llagan bo‘lsada, ommaviylashmagan. Ammo amerikalik fizik Tomas Rona (Prezident R.Reygan va Dj.Bush (kattasi) davrida Oq uy va Mudofaa boshqarmasining ilmiy maslahatchisi lavozimida xizmat qilgan davrida, 1976 yilda Boing kompaniyasi uchun tayyorlangan “Qurollar tizimi va axborot to‘qnashuvi” nomli hisobotida qo‘llanilgan. Hisobotda axborot infratuzilmasi AQSH iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanganligi va bir vaqtning o‘zida harbiy vaziyatda ham, tinchlik davrida ham keng qo‘llanilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. U, axborotni harbiy kuchlar tizimining zaif bug‘ini deb ta’riflab, ushbu masalaga barcha davlat miqyosidagi mas’ul kishilarni e’tiborini qaratgan. Shundan beri mazkur tushunchaning ahamiyati va dolzarbligi o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q. Lekin, bu xulosa axborot to‘qnashuv tushunchasi XX asrning ikkinchi yarimida vujudga kelgan degan hukmni chiqarish uchun asos bo‘lolmaydi. Chunki axborot to‘qnashuvi inson paydo bo‘lishi bilan birga vujudga kelgan. Ammo, axborot to‘qnashuvi deb atalmagan. Masalan, urushlar tarixiga nazar solsak, ularning har birida ma’lum ko‘rinishda axborot to‘qnashuvi kuzatiladi. Axborot to‘qnashuvi o‘zining g‘oyasiga ega bo‘lib, aniq bir obyektga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Ularning xarakteri va yo‘naltirilganligini bugungi globallashuv davrining ijtimoiy-siyosiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- ***axborot to‘qnashuvining birinchi bosqichi***. Jang teatr maydoniga kirishishdan oldin raqib (dushman) va uning askarlarini o‘q otar qurollari ishdan chiqqanligi,

sarkardalarini layoqatsizligi, jangchilarni oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlanmaganligi, askarlarni o‘z komandirlariga ishonsizlik bildirilayotganligi turli axborot kanallari bilan yetkazilgan. Axborot kanallari sifatida savdogarlar, qalandar va darvishlar vositasida mish-mishlar tarqatilgan;

- ***axborot to‘qnashuvining ikkinchi bosqichi***. Harbiy – texnika va qurol qurol aslahalarni yaratilishi bilan aloqador. Bu bosqichda harbiy faoliyatda asosan axborot vositasida psixologik kurash olib borilgan. Unda raqib va uning askarlarida o‘z kuchiga ishonchsizlik, shubha tug‘dirish orqali qadriyatlariga putur yetkaziladi. Ishonchsizlik, tanlangan hayot yo‘li, maqsadi va qiziqishlari tufayli azob chekib jismonan nest – nobud bo‘lishi besamar ekanligi ularning ongiga singdirilgan. Buning uchun radio va boshqa nashriy manbalardan foydalanib, maqsad ommaviy manipulyasiyani amalga oshirib, g‘alaba qozonish uchun zamin tayyorlashdan iborat bo‘lgan. Manipulyasiya o‘tkazish o‘z tuzilishiga ega bo‘lib, ta’sir ko‘rsatishni rejalashtirish, manipulyasiya o‘tkaziladigan obyekt haqida axborot jamlash, ta’sir ko‘rsatuvchi manbaga moslashish, ta’sir ko‘rsatish uchun sharoit yaratish va ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Raqibga (obyektga) ta’sir ko‘rsatish Napoleon va Suvorovlar kabi sarkardalarning harbiy amaliyotida ham kuzatilgan. Jumladan, Napoleon qo‘shinida bir kecha-kunduzda 10.000 varaqa chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan ko‘chma bosmaxona bo‘lganligi ma’lum;

- ***axborot to‘qnashuvining uchinchi bosqichi***. Fan va texnika yutuqlarini harbiy faoliyatga tadbiq etishi bilan bog‘liq bo‘lib, harbiy-psixologik manbalarda “biologik” urush nomi bilan ko‘rsatib o‘tilgan. Bu bosqichda, axborot yaratilgan biologik qurollarni texnik tasnifini namoyon etish uchun qo‘llanilib, harbiy boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotganlarning xizmat faoliyatiga va ommaviy ongga ta’sir ko‘rsatib, maqsadi - siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishdan iborat.

- ***axborot to‘qnashuvining to‘rtinchi bosqichi***. Yer osti va yer usti resurslarni cheklanganligi natijasi, ularni qo‘lga kiritish uchun amalga oshiriladigan kurashda, ya’ni gegemonlikka intilish davomida axborot vositasida harbiy – texnik, intellektual, moliyaviy va iqtisodiy ustunlikka ega ekanligini namoyish etish uchun axborotdan foydalanish. Maqsad, turli siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ma’lum manfaatlarni himoyasini ta’minlashdan iborat.

Axborot to‘qnashuvi jarayonida insonni dunyo haqidagi yaxlit tasavvuri, uning kengligi va aniqligi parchalanib yuboriladi. Inson e’tiboriga qarama-qarshi fikrlar majmuasi “havola etiladi”. Bu jarayonni murakkabligi shundan iboratki, inson turli kanallar vositasida uzatilayotgan axborotlar oqimidan aniq (to‘g‘ri) axborotni tanlab olishning iloji yo‘q. Negaki har bir axborot tarkibida kishini boshqarish uchun ma’lum bir komponentlar kiritilgan bo‘ladi, ularning vazifasi kerakli ustanovkani (ko‘rsatmani) shakllantirishdan iboratdir.

Axborot to‘qnashuvi jarayonida uni o‘tkazayotganlar obyektning siyosiy, harbiy va ijtimoiy shayligiga putur yetkazib, o‘zining g‘alabasini ma’naviy-ruhiy jihatdan ta’minlashga erishadi. Shu sababli Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni SH.M.Mirziyoyev “Axborot-kommunikasiya tizimlarining keng qo‘llanishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, bu yaxshi albatta, o‘z navbatida, axborot xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda”[1] - deb, axborot xavfsizligini ta’minlash tizimini doimiy tarzda takomillashtirib borish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatib o‘tgan.

Biroq, ommaviy axborot vositalari (OAV) gazeta, radio, televideniye paydo bo‘lishi bilan, albatta, axborotni yoyish makoni kengaydi, axborot 1000 yil oldingiga qaraganda nafaqat shiddat bilan, balki turli qo‘shimcha vazifalarni bajarilishi bilan “harakat” qilmoqda.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida ko‘pgina davlatlarda mudofaaviy tizimning tizimostisi ko‘rinishida tashkiliy, mafkuraviy to‘qnashuvlar strategiyasi bilan shug‘ullanuvchi tuzilmalar vujudga keldi va ularning asosiy maqsadi jismoniy, texnik, madaniy kabi yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida tanlangan obyektga (hudud, davlat tanlanishi mumkin) oldindan axborot xurujini o‘tkazib, harbiy yurishni muvaffaqiyatli kechishini ta’minlashdan iborat. Masalan, AQShda “Ijtimoiy axborot qumitasi”, Buyuk Britaniyada “Dushman qo‘shini va aholisi orasida tashviqot Boshqarmasi, Fransiyada “Tashviqot xizmati”, Germaniyada “Bosh shtabining maxsus bo‘linmasi” kabilar shular jumlasidandir.

Harbiy nizolar va qurolli to‘qnashuvlarni harakat tarzi (taktika va strategiyasi) o‘zgarganligi sababli, oldin harbiy to‘qnashuvlarda qo‘llaniladigan “axborot-psixologik hujum” texnikasi, iqtisodiy faoliyatda keng qo‘llanila boshladi. Bundan ko‘zlangan maqsad moddiy naf ko‘rishdan, ma’lum bir ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni ta’sir ko‘rsatish doirasini kengaytirishdan (monopoliyaga erishishini ta’minlashdan) iborat. Misol tariqasida Nestle belgisi asosida ishlab chiqarilayotgan chaqaloqlar uchun mo‘ljallangan sutning tarkibi, ona sutining tarkibi bilan “barobar”ligini targ‘ib qiluvchi axborotlar yoki harbiy sanoatda “Kalashnikov konserni” (Rossiya Federatsiyasi, Tula shahri) harbiy qurol va o‘q-dorilar bozorida birinchilikni saqlab qolishi uchun izlanishlar va turli tadbirlarni o‘tkazilishini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Keltirilgan dalillar, axborot to‘qnashuvi (hujumi) olib borish bir nechta maqsadlar asosida olib borilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Muhimlari sifatida harbiy-psixologik nuqtai nazar asosida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tamiz:

[1]Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

- mudofaaviy faoliyatni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan axborot va axborot makonini shartli raqib tomonidan norasmiy qo‘lga kiritish harakatlaridan himoyasini amalga oshirish;

- harbiy tizimni boshqarish uchun qo‘llaniladigan axborotni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilib, aniq iste’molchisiga borib etishini ta’minlash;

- mudofaa va xavfsizlikni ta’minlash uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuasi haqidagi axborotni shartli raqibga tushmasligini va uni amalga oshirish jarayonini himoya qilish;

- siyosiy yetakchilar, jamoat arboblari, ularning shaxsi va faoliyatiga doir faqatgina xizmat doirasida foydalanish uchun qo‘llaniladigan axborotni himoya qilish;

- jamiyatda mudofaaviy ongni shakllantirish uchun qurolli kuchlarni solohiyati, tayyorgarlik darajasi va harbiy-texnik ta’minotga doir axborotlarni ommaviylashtirish;

- mamlakat, mintaqa yoki global sathda qurolli kuchlar imijini shakllantirish uchun axborot tayyorlash va yetkazish;

- mudofaa va xavfsizlikka doir qarorlar tayyorlash jarayoniga ta’sir ko‘rsatib, o‘z maqsadiga erishish kabilar.

Axborot to‘qnashuvi raqibni (iste’molchini) faoliyatiga, qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatib, ta’sir ko‘rsatuvchilarning manfaatiga mos tushadigan xulq namunasi yoki qaror qabul qilishni ta’minlash uchun qo‘llaniladi. bugungi kunda axborot to‘qnashuvini olib borishning asosiy vositasi Ommaviy axborot vositalari va ayniqsa “elektron” ommaviy axborot vositalari: -radio, televideniye va Internet tizimi hisoblanadi. Ularni “harakat maydoni”ni, iste’molchilarni jalb etish qamrovi kengligini inobatga olsak, g‘oyaviy va mafkuraviy kurash vositasi sifatida maqbul ekanligi bilan ajralib turadi. Maqbullik, axborot hujumini uyushtirilgan va olib borilayotgan tomonni manzili, maqsadini belgilash qiyin kechadi. Axborot to‘qnashuvini jarayon sifatida tasavvur etsak, unda vujudga keltirilgan tomonlar ko‘pincha “noaniqligi”cha qolishini ko‘rsatib, kurash olib borish uchun tomonlarni tayyorlangan axboroti tez sur’atlar bilan tarqatishini inobatga olsak, davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqadorligiga ham ta’sir ko‘rsatishini kuzatish qiyin emas. Xizmat faoliyatini psixologik ta’minlash mutaxassisi davlat manfaatlarini inobatga olgan holda, ularni zararlantirish tadbirlarini amalga oshirishi lozim.

Axborot-psixologik xavfsizlikning shaxsga ta’sir etuvchi vosita va usullari aslida ko‘p, lekin an’anaviy ravishda ular uchta asosiy turga bo‘linadi: *davlat yetkazadigan, OAV* va *norasmiy muloqotdagi axborot.* Norasmiy axborot deb, shaxs mahallada, ish joyida, o‘rtoqlaridan, trasport vositalarida, gaplarda eshitgan ma’lumotlarga aytiladi.

Axborot bilan ishlash bir nechta asosiy bug‘inlarni tashkil etadi, ularning ish mexanizmi esa quyidagidan iborat: 1) ma’lumotni qabul qilish, anglab olish va eslab quyish; 2) axborotni anglash va eslab quyish jarayonida materialni qabul qiluvchi

tomonidan uning bilimi va psixologiyasidan kelib chiqqan holda qayta ishlash va yangilangan axborotni shaxs xotirasida saqlash; 3) axborotni tarqatish. Har bir bosqichning o‘z qoidalari bor va ularga rioya qilmagan odam ushbu faoliyatda inqirozga uchrashishi aniq. Axborotni qabul qilish eng oddiy narsa, lekin bu yerda ham, agar eshitish, ko‘rish yoki o‘qib olish uchun yetarli sharoit bo‘lmasa, keng omma ma’lumotni tushunmaydi va eslab ololmaydi. Axborotni anglashga kelsak, auditoriya vakillari turli ijtimoiy qatlamlarga tegishli bo‘lishi tufayli ular barcha axborotni eslab qololmaydi, shuning uchun xorijiy shovvoz jurnalistlar o‘z xabarlarini iloji boricha sodda, qisqa va aniq tarzda uzatishga harakat qiladi, materialning asosiy g‘oyasini esa bir necha marta takrorlaydi. Ular har bir fuqaro eshitgan yangiligini o‘zi yashaydigan sharoitga qiyoslab tushunishini juda yaxshi biladi va uzatiladigan ma’lumotlarni aynan ushbu talabga moslashtirib tarqatadi. Shuning uchun axborot xavfsizligi sohasidagi mutaxassislar yuqorida keltirilgan qonuniyatlarni e’tiborga olib ishlashlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, bugungi axborot xuruji, kiberterrorizm tahdidlari yangi bosqichga ko‘tarilgan davrda harbiy xizmatchilarning milliy va jangovar ruhini yuksaltirish, bu borada yangi mexanizmlarni yaratish hamda milliy mafkuraning tub mohiyatini ular ongiga singdirishning metodologik yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, harbiy xizmatchilarni nafaqat jismoniy, balki ruhiy immunitetini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26-yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. http://.googie.com/search. old.xs.uz/indekx.php/hon. 2018.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasidagi ishlarni sarhisob qilish, yangi vazifalar belgilash /O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik Kengashining navbatdagi yig‘ilishidagi ma’ruzasi. www.gazeta.uz.xavfsizkik-kengashi. 2021.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-son Qarori.

4. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2023 yil 29 iyundagi “Yoshlarni harbiy-Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-267-son qarori.

PEDAGOGICAL METHODS OF COMBATING THE INFLUENCE OF NEGATIVE INFORMATION

Temirov S. Sh.
A senior teacher of USWLU AND IICT AND MS

Annotation: *In the age of rapidly developing digital technologies, the spread of negative information has become one of the pressing problems affecting the psychological and moral development of individuals, especially the younger generation. This article explores pedagogical methods and strategies aimed at minimizing the impact of negative information on students. It emphasizes the role of education, critical thinking, media literacy, and value-based upbringing in counteracting harmful content. The study also offers practical recommendations for teachers and educators to create a positive and secure informational environment in educational institutions.*

Key words: *Negative information, pedagogical methods, media literacy, critical thinking, education, information security, youth development, moral upbringing.*

Annotatsiya: *Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda salbiy axborotning tarqalishi shaxsning, ayniqsa yosh avlodning psixologik va axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ushbu maqolada salbiy axborotning o'quvchilarga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan pedagogik usul va strategiyalar yoritilgan. Ta'limning, tanqidiy fikrlashning, media savodxonlikning va qadriyatlarga asoslangan tarbiyaning zararli kontentga qarshi kurashishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot, shuningdek, ta'lim muassasalarida ijobiy va xavfsiz axborot muhitini yaratish bo'yicha o'qituvchilar va tarbiyachilar uchun amaliy tavsiyalarni taklif etadi.*

Kalit so'zlar: *Salbiy axborot, pedagogik usullar, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, ta'lim, axborot xavfsizligi, yoshlarni rivojlantirish, axloqiy tarbiya*

Introduction

In the digital age, the rapid expansion of information technologies and social media platforms has made access to information easier than ever before. However, this convenience comes with significant challenges, one of which is the widespread dissemination of negative information. Negative information includes content that can harm an individual's psychological well-being, moral values, and social behavior. Such content may involve violence, hate speech, misinformation, cyberbullying, and other harmful materials that affect especially young people who are still developing critical thinking and emotional resilience.

Understanding the relevance of this problem today is crucial because youth are particularly vulnerable to the influence of such information due to their ongoing cognitive and emotional development. Exposure to negative information can lead to various psychological effects, such as increased anxiety, fear, aggression, and even depression. Behaviorally, it may result in withdrawal from social activities, reduced academic performance, and in severe cases, the adoption of harmful habits or aggressive behavior.

The concept of negative information is broad and can be categorized into various types, including harmful news, misleading information, violent content, and inappropriate material for certain age groups. Recognizing these types helps educators, parents, and policymakers develop targeted strategies to mitigate their impact.

Education plays a pivotal role in shaping how young people perceive and respond to the information they encounter. Through educational systems, students can be equipped with critical thinking skills and media literacy, enabling them to analyze and evaluate the content critically rather than accepting it passively. Early intervention is essential to prevent long-term psychological and behavioral consequences. By fostering an environment where children and adolescents learn to discern credible information from harmful content, society can protect their mental health and moral development effectively.

Research and case studies further underline the importance of addressing negative information's effects early on. Studies show that proactive educational approaches significantly reduce the adverse impact and empower youth to navigate the complex information landscape responsibly.

Addressing the spread of negative information and its impact on youth is a pressing issue in today's digital society. It requires the combined efforts of educators, parents, and policymakers to create an educational environment that supports positive development and resilience against harmful influences.

To effectively combat the influence of negative information on youth, educational systems must implement targeted pedagogical approaches that empower students to critically engage with the content they encounter. One of the most important strategies is fostering **critical thinking skills**. By teaching students how to analyze, question, and evaluate information, educators help them move beyond passive consumption and develop the ability to discern reliable sources from misleading or harmful content. Critical thinking forms the foundation for responsible information processing and protects students from manipulation.

Alongside critical thinking, **media and digital literacy education** has become essential in today's world. This approach equips students with the knowledge and skills necessary to understand how media works, recognize bias or false information, and

navigate digital platforms safely and responsibly. Integrating media literacy into the curriculum encourages students to become active and informed participants in the digital age rather than vulnerable recipients of harmful content.

Another key aspect is **promoting ethical and moral values through curricula**. Education should not only focus on intellectual skills but also nurture the development of integrity, empathy, and respect for others. By embedding these values into lessons, schools create a moral compass that guides students in their daily interactions, both online and offline. This value-based education counteracts the corrosive effects of negative information by reinforcing positive behavior and social responsibility.

Moreover, **interactive teaching methods and discussions** play a vital role in addressing negative information. Encouraging open dialogue, debates, and group work allows students to express their thoughts, question ideas, and learn collaboratively. Such active participation helps internalize the lessons on media literacy and ethics, making the learning process more engaging and impactful.

The effectiveness of these pedagogical methods depends heavily on the **role of teachers and educational institutions**. Teachers serve as both guides and role models, demonstrating critical thinking, ethical behavior, and responsible use of information in their own conduct. Their influence shapes the attitudes and habits of students, making them essential agents in fostering a healthy informational environment.

Creating a **safe and positive informational environment** within schools is also crucial. This includes establishing clear policies against bullying, misinformation, and harmful content, as well as providing access to reliable resources and counseling services. A supportive atmosphere encourages students to share their concerns and seek guidance when encountering negative information.

Parental and community involvement strengthens the efforts made by schools. Educators should collaborate with parents and local communities to extend media literacy and ethical education beyond the classroom. Engaging families and communities creates a consistent message and support system that helps youth resist negative influences and develop into well-rounded individuals.

A comprehensive approach combining pedagogical strategies with strong teacher leadership and community participation is essential for combating the impact of negative information on youth. Together, these elements create a resilient educational framework that supports the psychological and moral well-being of students in the digital era.

To effectively mitigate the influence of negative information on students, educators should implement several practical strategies within both formal lessons and extracurricular activities. When planning lessons, teachers are encouraged to incorporate topics that develop critical thinking and media literacy skills. This can be

achieved by designing activities such as analyzing news sources, discussing ethical dilemmas related to information sharing, and encouraging reflective writing on media consumption. Extracurricular activities like debate clubs, media workshops, and digital storytelling projects offer additional opportunities for students to practice these skills in interactive and engaging ways.

Integrating **media literacy** across various subjects is another crucial recommendation. Rather than confining media literacy education to a single class, embedding it in language arts, social studies, science, and even mathematics ensures that students encounter these important skills repeatedly in diverse contexts. This interdisciplinary approach reinforces their ability to critically assess information and strengthens their overall learning experience.

Furthermore, collaboration with **psychologists and IT specialists** enhances the educational response to negative information. Psychologists can provide insights into the psychological impact of harmful content and offer support programs for affected students. IT specialists can assist in teaching safe digital practices, managing online risks, and implementing technological tools to monitor and filter inappropriate content in schools. Such multidisciplinary cooperation creates a more holistic and effective framework for protecting students.

Conclusion

In conclusion, combating the impact of negative information on youth requires a multifaceted pedagogical approach that includes fostering critical thinking, media literacy, and ethical values, supported by interactive teaching methods and a safe learning environment. Teachers play a vital role as guides and role models, while parental and community involvement further strengthens these efforts.

The continuous innovation of pedagogical methods is essential to keep pace with the evolving digital landscape and emerging challenges. Educators must remain adaptable and proactive in integrating new strategies and technologies into their teaching practices.

Looking forward, future research should focus on developing evidence-based interventions, assessing the effectiveness of pedagogical approaches, and exploring the role of emerging technologies in education. By doing so, the educational community can better equip youth to navigate the complex information environment confidently and responsibly, fostering their psychological and moral well-being.

Reference:

1. Hobbs, R. (2010). Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom.

2. Kahne, J., & Bowyer, B. (2017). "Educating for Democracy in a Partisan Age: Confronting the Challenges of Motivated Reasoning and Misinformation." American Educational Research Journal, 54(1), 3–34.

3. Livingstone, S., & Helsper, E. (2007). "Gradations in Digital Inclusion: Children, Young People and the Digital Divide." New Media & Society, 9(4), 671–696.

4. Wineburg, S., & McGrew, S. (2016). "Evaluating Information: The Cornerstone of Civic Online Reasoning." Stanford Digital Repository.

5. UNESCO. (2013). Media and Information Literacy Curriculum for Teachers.

HARBIY XIZMATCHILARNI PSIXOLOGIK TAYYORLASHDA JANGOVAR VA MILLIY RUHNING AHAMIYATI

Ravshanov A.R.

Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi

Annotatsiya:*Mazkur maqolada jangovar va milliy ruhni harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlashda asosiy elementlar ekanligi, ularning ahamiyati nafaqat harbiy vazifalarni bajarishdagi samaradorlikni oshirishda, balki harbiylarning jamoaviylik fidoyilik va Vatanga sadoqatini mustahkamlashda namoyon bo‘lishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlari: *Jangovar, harakat, harbiy xizmatchilar, psixologik holat, axloqiy-ruhiy, psixologik tayyorgarlik, milliy, ruh, motivatsiya, stress, psixologik barqarorlik, vaziyat, stress, trening, shaxsiy tarkib.*

Аннотация: *В данной статье отмечалось, что боевой и национальный дух являются основными элементами психологической подготовки военнослужащих, их значение проявляется не только в повышении эффективности выполнения воинских обязанностей, но и в укреплении коллективной самоотверженности и преданности Родине.*

Ключевые слова: *Боевое, психологическое состояние, морально-психологическая, психологическая подготовка, национальное, дух, мотивационное, стресс, психологическая стабильность, ситуация, стресс, тренинг, личный состав.*

Annotation: *This article noted that fighting and national spirit are the main elements of psychological training of military personnel, their importance is manifested not only in increasing the effectiveness of military duties, but also in strengthening collective dedication and devotion to the Motherland.*

Key words: *Fighting, psychological state, moral and psychological, psychological training, national, spirit, motivational, stress, psychological stability, situation, stress, training, personnel.*

“Harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma’naviy salohiyat O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarur.”

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni

Tarixan qisqa muddatda mamlakatimiz mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, chegaralarimiz daxlsizligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir bo‘lgan milliy armiya shakllantirildi.

Harbiy xizmatchilar ongiga milliy mustaqilligimizni asrash, har qanday tajovuzga qarshi mardonavor kurashish, yurt himoyachisi nomini sharaf bilan oqlashni chuqur singdirish, qolaversa jangovar va milliy ruhni, vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirishni doimiy ravishda olib borishni davr talab qilmoqda.

So‘nggi vaqtlarda jahon va mintaqada sodir bo‘layotgan geosiyosiy qarama-qarshiliklar, qurolli to‘qnashuvlarda harbiy xizmatchilarda jangovar va milliy ruh hamda mafkuraviy immunitet shakllanmagani oqibatida o‘z qurollarini topshirib, dushmanga taslim bo‘lishi hamda jangovar vazifani bajarmaslik holatlari ko‘zatilmoqda.

Jangovar harakatlar maydonida nafaqat qurol-aslaha va harbiy texnikalarning qudrati, zamonaviyligi, balki, harbiy xizmatchilarning professionalligi, axloqiy-ruhiy holati hamda psixologik tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Harbiy xizmatchilar va harbiy guruhlarning axloqiy-ruhiy va psixologik holat darajasi ko‘p jihatdan ularning jangovar harakatlarga tayyorligini, belgilangan vazifalarni bajarish va dushman ustidan g‘alaba qozonish qobiliyatini belgilaydi.

Jangovar harakatlar sharoitida boshqa vaziyatlardan farqli ravishda inson hayotiga bo‘lgan havf va psixoemotsional zo‘riqish o‘zining maksimal, eng yuksak cho‘qqisiga yetadi. Bu vaziyatda harbiy xizmatchilarning ruhiy zo‘riqishlari, yengil hayajondan daxshatli qo‘rquvgacha tebranib turishi mumkin.

Jangovar sharoitlarda har bir harbiy xizmatchining oldida faqatgina ikkita muhim vazifa turadi: tirik qolish va jangovar vazifani bajarish. Aynan qo‘yilgan jangovar vazifani bajarish tirik qolishning yagona yo‘li hisoblanadi.

Harbiy xizmatchining axloqiy-ruhiy va psixologik tayyorgarligi, jangovar ruhiga e’tibor nafaqat bugun, balki o‘tmish tarixda ham eng muhim ahamiyat kasb etgan. Bu borada buyuk ajdodlarimiz va sarkardalarimiz J.Manguberdi, A.Temur va Z.M.Bobur o‘zlarining jangovar strategiyalarida eng avvolo jangchining ta’minoti va ruhiyatiga alohida e’tibor qaratgan.

Harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlash har qanday mamlakat Qurolli Kuchlar salohiyatining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Har bir askarning ruhiy barqarorligi, jangovar va milliy ruhga ega bo‘lishi jangovar harakatlarda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, shaxsiy tarkibni psixologik tayyorlash jarayonida jangovar va milliy ruhni shakllantirish hamda mustahkamlashga alohida e’tibor qaratish zarur.

Harbiy xizmatchilar psixologik tayyorlash jarayonida ularning ongiga jangovar va milliy ruhni birgalikda singdirib borish muhimdir. Bu ikki element bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib bir-birini o‘zaro qo‘llab-quvvatlaydi.

Jangovar harakatlarga shaxsiy tarkibni psixologik tayyorlashda ichki motivatsiya, turli vaziyatlardagi stresslarga *psixologik barqarorlik* va mustaqil ravishda qaror qabul qilishida jangovar va milliy ruhning o‘rni muhim hisoblanadi. Shaxsiy tarkibni o‘z kuchi va maqsadlariga asoslangan jangovar ruh murakkab sharoitlarda jangovar shaylik va samaradorlikni oshiradi, umumiy maqsadlarni anglash bilan bog‘liq milliy ruh esa *jamoaning hamjihatligi* va g‘alabaga bo‘lgan irodasini mustahkamlaydi.

Ichki motivatsiya – jangovar ruh harbiy xizmatchini murakkab va xavfli vaziyatlarda ham qat’iy va samarali harakat qilishga undaydigan ichki motivatsiya asosidir;

psixologik barqarorlik – yuqori jangovar ruh askarning his-tuyg‘ularini nazorat qilishga, fikrlash qobiliyatini saqlashga, xavf-xatarga tez moslashishga va stressli vaziyatlarda vahimaga tushmaslikka yordam beradi;

jangovar shaylikni oshirish – jangovar vazifalarni bajarish samaradorligini oshirish va xatolar sonini kamaytirish orqali bo‘linmaning jangovar shayligi va jangovar barqarorligi bilan bevosita bog‘liq;

umumiy maqsadlarni anglash – kurash olib borilayotgan harbiy xizmatchida umumiy maqsadlarni chuqur anglashni shakllantiradi, bu esa ruhiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismidir;

jamoaning hamjihatligi – millat va umumiy qadriyatlarni anglash harbiy jamoada hamjihatlikni shakllantirishga hamda bo‘linmaning ruhiy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi;

g’alabaga bo‘lgan iroda – shaxsiy tarkibning yuqori jangovar tayyorgarligini ta’minlab, g’alaba qozonish uchun qat’iy irodani kuchaytiradi.

Psixologik tayyorgarlikda yuqoridagi fazilatlarni treninglar, liderlik va qo‘llab-quvvatlash bilan rivojlantirishga hamda charchoqni kamaytirish orqali jangovar barqarorlikni oshirishga yordam beradi.

“Jangovar ruh” tushunchasi dunyoviy psixologiya nuqtai nazaridan tushunarli, tez-tez ishlatiladigan ibora bo’lib, uning ahamiyati obrazlar, shiorlar, predmetlar, kinofilmlar, iboralar syujetlari ko’rinishida namoyon bo’ladi.

Britaniyalik harbiy ruhoniy N. Kouplendning fikricha, "*Jangovar ruh insonning qo'rquvga bo'lgan munosabatidir. Urush davrida odamni yangi qo'rquv to'lqini qamrab oladi: mag'lubiyat, noaniqlik, zarar ko'rish, yarador bo'lish va hokazo*" [1].

Harbiy psixolog A.G. Karayanining fikricha, "*Harbiy psixologiyaning vazifasi qo'rquvni o'zgartirish va uni jangovar psixologik resursga aylantirishdan iborat, chunki aynan qo'rquv tufayli inson haqiqiy jangchiga aylanishi mumkin*" [2].

Jangovar ruh (keng ma'noda) - organizmning o'z maqsadiga erishish yo'lida hayotda tahdid soluvchi salbiy omillar ta'siriga moslashishga tayyorlik holatidir. Tor ma'nodagi jangovar ruh - bu shaxsning stressli vaziyatning ta'sirli jarayonida paydo bo'ladigan qo'rquvga, burch tuyg'usi va fidoyilikka asoslangan qiyinchiliklarga chidash hamda ularni engish qobiliyatida namoyon bo'ladigan ruhiy holatdir. Stressga chidamlilik, iroda kuchi, burch hissi va fidoyilik tayyorlik jangovar ruhning psixologik mazmunidir [3].

Yurtimiz olimlari va psixologlari jangovar ruhga qo'yidagicha ta'rif bergan. Jangovar ruh – harbiy xizmatchilar va bo'linmalarning og'ir va murakkab vaziyatda jismoniy va ruhiy zo'riqishlarni yengib o'tib, jangovar vazifani bajarishga shayligini hamda g'alabaga bo'lgan ishonchini anglatadigan tushuncha [18].

Jangovar ruh jang jarayonidagi stress va xavflarga qarshi immunitet vazifasini bajaradi, ikkinchi tomondan esa birodarlik va jamoaviylik hissini kuchaytirib, harbiy jamoaning birligi va ruhiy barqarorligini ta'minlaydi.

Jangovar ruhni shakllantirish uchun bo'linmalarda *jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari*, qat'iyatlik, sabr-toqat va mas'uliyat hissini uyg'otuvchi *psixologik mashg'ulotlar*, *simulyatsiyalar* hamda *maxsus treninglar* o'tkazilishi kerak. Shuningdek, turli muvaffaqiyatli *harbiy operatsiyalar tarixidan misollar* keltirish, *qahramonlik* va *fidoyilik haqidagi hikoyalar* orqali harbiylar ruhiyatini yuksaltirish mumkin.

Jangovar tayyorgarlik – turli jang shartlariga mos ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlar – bu harbiy xizmatchini stressga, xavfga moslashtiradi, katta bosim ostida ham tez va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Psixologik treninglar – mutaxassislar tomonidan o'tkaziladigan stressni boshqarish, empatiya va muvaffaqiyatga intilishga bag'ishlangan treninglar jangovar ruhni mustahkamlaydi.

Real sodir bo'lgan vaziyatlardan misollar – muvaffaqiyatli harbiy operatsiyalar va qahramonlar to'g'risidagi hikoyalari harbiylarning ruhiy barqarorligini oshiradi hamda ularni yangi vaziyatlarda harakat qilishga undaydi.

Milliy ruh – millatning ichki ruhiy holati, his-tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y-fikrlari, maqsadi va kayfiyatini ifodalovchi tushuncha [4].

Milliy ruh – harbiy xizmatchining o‘z Vataniga sadoqatini, milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmatini va milliy madaniyatga daxldorligini ifodalaydi. Milliy ruhni mustahkamlash orqali harbiy xizmatchilar o‘z vazifalarini faqat harbiy burch sifatida emas, balki Vatanga mehr va fidoyilik namoyishi sifatida ham ko‘radi.

Milliy ruhni shakllantirishda harbiy xizmatchilarga o‘z milliy tarixini, qadriyatlari va urf-odatlarini yaxshi o‘rgatish juda muhim. Shuningdek, milliy madaniyatni himoya qilish va qadrlash hissini uyg‘otuvchi tadbirlar, milliy bayramlar va an’analarni saqlash va targ‘ib qilish harbiy ruhiyatni mustahkamlaydi.

Milliy ruh harbiy xizmatchilarni o‘z Vataniga sadoqatli, uni himoya qilishga tayyor bo‘lgan shaxslarga aylantiradi. Milliy ruh va qadriyatlarga asoslangan ruhiy holat shaxsiy tarkibning ma’naviy kuchini kuchaytirib, uning xizmatiga ma’no kiritib, o‘ziga ishonchni hosil qiladi.

Harbiy xizmatchilarda milliy ruhni shakllanish omillari:

tarixiy bilim va qadriyatlar – harbiy xizmatchilarga tarixni, o‘zbek xalqining qahramonlik an’analari, madaniyati va urf-odatlarini o‘rganishiga va anglashiga yordam beradi;

madaniy va milliy an’analar – milliy bayramlar, madaniy tadbirlar va milliy ramzlar bo‘linmalarda birdamlik hissini uyg‘otadi;

Vatanga sadoqat va mas’uliyat – o‘z vazifasiga faqat xizmat deb qaramasdan, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan qarashga undaydi.

Harbiy psixologlar va mashg‘ulot rahbarlari muntazam jangovar va milliy ruhni o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi mashg‘ulotlar, treninglar va motivatsion suhbatlar orqali harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligini va jangovar harakatlardagi tayyorgarligini mustahkamlashga intilishi zarur.

Shaxsiy tarkibni psixologik tayyorlashda kompleks yondashuv asosida chora-tadbirlarni amalga oshirish samarali bo‘ladi.

Jangovar va milliy ruhni shakllantirish bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni birgalikda harbiy xizmatchilar ongida mustahkamlash ularning ruhiy barqarorligini ta’minlash uchun muhim. Psixologik tayyorlashda bir qator jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

Psixologik ko‘mak va stressni boshqarish – jangovar ruhni mustahkamlashda harbiy xizmatchilarga stress va qo‘rquvni yengish yo‘llarini o‘rgatish, psixologik davolash xizmatlari ishlash muhim.

Motivatsiya va qo‘llab-quvvatlash – harbiy xizmatchilar uchun motivatsion suhbatlar, komandirlar (boshliq) tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimlari ruhiy holatni yaxshilaydi.

Jamoaviylikni rivojlantirish – bo‘linmadagi jamoa a’zolari o‘rtasida ishonch va o‘zaro hurmat muhitini yaratib, bo‘linmalardagi harbiylarning birdamligini oshiradi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish – virtual reallik, trenajerlar va boshqa innovatsion usullar harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligini yuqori darajaga olib chiqadi [6].

Xulosa qilib aytganda harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlash jarayonida jangovar va milliy ruhning shakllanishi va mustahkamlanishi muhim o‘rin tutadi. Ushbu ikki element harbiylarning nafaqat jangovar va ruhiy barqarorlik qobiliyatini oshiradi, balki ularni Vatanga sadoqatli fidoyilarga aylantiradi. Milliy tarix, madaniyat va qadriyatlarga bog‘liq ruhiy tayyorgarlik harbiylarning har qanday og‘ir vaziyatlarda muvaffaqiyatga erishishini ta’minlaydi. Shu sababli, psixologik tayyorlash tizimida jangovar va milliy ruhni o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi kompleks yondashuvni joriy etish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Коупленд Н. Психология и солдат / Пер. с англ. А. Т. Сапронова и В. М. Катеринича. – 2-е изд. – М.: Воениздат, 1991. – 96 с.

2. Психология страха // Материалы конференции психологов силовых структур. – М.: ВУ МО РФ, 2023. – 147 с.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.09.2023- yildagi PQ-371- sonli Qarori bilan tasdiqlangan Konsepsiya – 2023. – 3 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.09.2023- yildagi PQ-371- sonli Qarori bilan tasdiqlangan Konsepsiya – 2023. – 3 b. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi shaxsiy tarkib bilan ishlash boshqarmasi. Stressli vaziyatlarni boshqarish. Uslubiy qo‘llanma. - T.: 2016.

HARBIY XIZMATCHILARNING BOSHQARUVCHANLIK AHAMIYATGA EGA BO‘LGAN XUSUSIYATLARNI ANIQLASH

Abdumo‘minov Q. K.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instiuti

Annotatsiya: *Maqolada harbiy xizmatchilarning kasbiy sifatlarining o‘ziga xos kamchiliklari ko‘rib chiqiladi. Harbiy xizmatning qattiq talablari, intizom va doimiy stress sharoitida harbiy xizmatchilarda paydo bo‘ladigan psixologik, ijtimoiy va kasbiy kamchiliklar tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, bu kamchiliklarni bartaraf etish va harbiy xizmatchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy xizmatchilar, kasbiy kamchiliklar, psixologik stress, intizom, ijodiy yondashuv, rahbarlik qobiliyati, muloqot muammolari, kasbiy rivojlanish.*

Annotation: *The article examines the specific professional shortcomings of military personnel. It analyzes the psychological, social, and professional challenges faced by military personnel under the conditions of strict discipline, constant stress,*

and the high demands of military service. The article also provides recommendations for addressing these shortcomings and supporting the professional development of military personnel.

Keywords: *military personnel, professional shortcomings, psychological stress, discipline, creative approach, leadership skills, communication problems, professional development.*

Аннотация: *В статье рассматриваются специфические профессиональные недостатки военнослужащих. Анализируются психологические, социальные и профессиональные проблемы, возникающие у военнослужащих в условиях строгой дисциплины, постоянного стресса и высоких требований военной службы. В статье также предлагаются рекомендации по устранению этих недостатков и поддержке профессионального развития военнослужащих.*

Ключевые слова: *военнослужащие, профессиональные недостатки, психологический стресс, дисциплина, творческий подход, лидерские качества, проблемы коммуникации, профессиональное развитие.*

Harbiy xizmat – bu nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham qattiq talablarga ega bo‘lgan soha. Harbiy xizmatchilar jamiyatning xavfsizligi va tinchligini ta’minlash uchun o‘z hayotlarini xavf ostiga qo‘yishga tayyor bo‘lishlari kerak. Biroq, harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlari, qattiq intizom va doimiy stress ularning kasbiy sifatlarida ma’lum kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Harbiy xizmatchilar jamiyatning xavfsizligi va tinchligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular qat’iy intizom, yuqori mas’uliyat va fidoyilikni talab qiladigan sharoitda ishlaydi. Biroq, harbiy xizmatning o‘ziga xos talablari va sharoitlari tufayli harbiy xizmatchilarda ma’lum kasbiy kamchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Bu kamchiliklar ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, jamoaviy ish va rahbarlik qobiliyatlarini ham pasaytirishi mumkin. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning kasbiy sifatlarining o‘ziga xos kamchiliklari, ularning sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Ma’lumki, harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatning samaradorligining asosiy shartlaridan biri kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda uning ruhiyati va jismoniy sog‘ligi hamda holati, undagi mavjud sifatlarning bajarayotgan faoliyati talablariga mosligi darajasi tushuniladi. Mashxur rus psixologi K.K.Platonov harbiy xizmatchining kasbiy tayyorligi bu o‘zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko‘rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub’ektiv holatidir - deb ta’kidlaydi. Harbiy xizmatchilarda kasbiy tayyorligi murakkab ko‘p darajali va ko‘rinishli tizimli psixik shaklga ega bo‘lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko‘rinishi asosiy o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilardan kerakli darajada jismoniy sog‘likni kasbiy

faoliyat uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi [1]. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko‘zda tutadi. Harbiy xizmatchilarda kasbiy tayyorgarligida ikkita o‘zaro bogliq bo‘lgan tomonlarni ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Bu o‘zaro bog‘liqliq tomonlar psixologlar M.I.Dyachenko va A.M.Stolyarenkolar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

1. Shaxsning kasbiy faoliyatga salohiyatli tayyorligi - harbiy xizmatchining bu tayyorligi quyidagilardan iborat bo‘ladi: kasbiy faoliyatning psixik asoslari, bilim, ko‘nikma, malakalar kasb uchun muxim hisoblangan, shaxsning sifatlari uning munosabati, mazmun va qadriyatlari, afzalliklari hamda umuman shaxsning zarur bo‘lgan kasbiy imkoniyatlari darajasi;

2. Shaxsning kasbiy faoliyatga bevosita ayni vaqtdagi tayyorligi. Harbiy xizmatchining kasbiy tayyorligining ushbu tomoni tezkorligi, o‘zgaruvchanligi, har qanday xolat va sharoitda aniq masalalarni echish, harbiy xizmatchining ruhiy va jismoniy holati, jamoadagi ma’naviy psixologik muhitga bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Harbiy xizmatchining bevosita psixologik tayyorgarligi dastlabki tayyorgarlikni faollashtirish natijasi sifatida ishtirok etadi. Harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi bevosita ayni vaqtdagi tayyorligining asosi hisoblanadi.

Ko‘rinib turibdiki, harbiy xizmatchining kasbiy tayyorligi unda kasbiy bilimdonlikni kerakli darajasini kasbiy mahoratini hamda o‘zini boshqarish, o‘zini kerakli faoliyatga yo‘naltirishga, imkoniyatlarini xal etishga yo‘naltira bilish qobiliyati mavjudligini nazarda tutadi. Harbiy xizmatchining kasbiy tayyorligining asosiy va eng murakkab tomoni (psixologik tomoni) - Harbiy xizmatchi ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Bu Harbiy xizmatchi psixikasi ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarni xal etishga o‘zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo‘nalganligi darajasidir.[2]

Harbiy xizmatchi ruhiyatining kasbiy tayyorligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: - yo‘naltiruvchi intellektual bilish. Bu tarkibiy qismi harbiy xizmatchi shaxsining bilish soxasini o‘z ichiga oladi: kasbiy idrokini, fikrlashi, tasavvur, xotirasi, diqqatini va ular birgalikda harbiy xizmatchi shaxsning kasbga intellektual tayyorligini tashkil etadi. Harbiy xizmatchining motivatsion tayyorligining asoslari o‘z kasbi harbiy xizmatchiligini tushuna olishi, o‘zida pozitiv munosabatni tarkib toptira olishi, o‘zini baholay olishi, bilish faoliyatiga qiziqishlari hisoblanadi.

Harbiy xizmatchining kasbiy tayyorgarligi yadrosini shaxsning kasbiy yo‘nalganligi va kasbiy mahorati tashkil etadi. Hozirgi zamon harbiy xizmatchisining kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik harbiy xizmatchida odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali o‘zaro yaqin aloqalar, xodimlar va rahbarlar bilan amaliy va shaxsiy o‘zaro

munosabatlarga tayyorligi va bunday o‘zaro munosabatlarni o‘rnata olishga va rivojlantirishga qodirligini ko‘zda tutadi. Shaxsning kommunikativ tayyorligi faqatgina odamning nutqiy madaniyati yetarlicha darajada rivojlanganligida u so‘z va tildan to‘g‘ri foydalanishni bilganidagina mavjud bo‘ladi. Shaxsning nutq madaniyati uning fikrlash madaniyati rivojlaganligining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun harbiy xizmatchining shaxsiy va kasbiy kamol topishini muhim shartlaridan biri uning kasbiy nutqiy madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi.

1. Psixologik bosim va stress

Harbiy xizmatchilar doimiy ravishda yuqori stress sharoitida ishlaydi. Jangovar vaziyatlar, xavfli missiyalar va hayotiy xavflar ularning psixologik holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa quyidagi kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Qaror qabul qilishda sustlik. Doimiy stress va charchoq qarorlar tezligi va sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun, harbiy xizmatchilar xavfli vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilishlari kerak, lekin stress ularning fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Bu esa noto‘g‘ri qarorlarga olib kelishi mumkin.

- Psixologik qattiqlik. Harbiy xizmatchilar hissiy jihatdan yopishib qolishi va shaxsiy munosabatlarda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ular o‘z hissiyotlarini ifodalashda qiynalishlari yoki ularni butunlay yashirishlari mumkin. Bu esa oilaviy munosabatlarda muammolarga olib kelishi mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko‘rsatish, stressni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazish va ularning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash kerak.

2. Intizom va itoatkorlikning haddan tashqari ustuvorligi

Harbiy xizmatda intizom va buyruqlarga bo‘ysunish asosiy talablardan biridir. Biroq, bu quyidagi kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Ijodiy yondashuvning yo‘qolishi. Harbiy xizmatchilar ko‘pincha standart yechimlarga tayanishadi va yangi g‘oyalarni qo‘llashda qiynalishadi. Bu esa yangi vaziyatlarga moslashishda muammolarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, harbiy xizmatchilar an’anaviy usullardan tashqarida yechim topishda qiynalishlari mumkin.[3]

- Shaxsiy fikrni bildirishdan qo‘rqish. Buyruqlarga bo‘ysunish zarurati tufayli harbiy xizmatchilar o‘z fikrlarini ochiq bildirishdan qochishi mumkin. Bu esa jamoada muloqotning zaiflashuviga olib kelishi mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarni ijodiy fikrlashga va yangi yechimlarni qidirishga undash, shuningdek, ularga o‘z fikrlarini erkin bildirish imkoniyatini berish kerak.

3. Kommunikatsiya va jamoada ishlash muammolari

Harbiy xizmatda jamoa ishi muhim rol o‘ynaydi. Biroq, quyidagi kamchiliklar kuzatilishi mumkin:

- Rahbarlik qobiliyatining yetishmasligi. Ba’zi harbiy xizmatchilar guruhni boshqarishda qiynalishadi, chunki ular asosan buyruqlarga amal qilishga o‘rgatilgan. Bu esa ularning rahbarlik qobiliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

- Fuqarolik hayotida muloqot qilish qiyinligi. Harbiy muhitda ishlash odatlaridan tashqarida muloqot qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, harbiy xizmatchilar fuqarolik hayotida odamlar bilan muloqot qilishda qiynalishlari mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarga rahbarlik va muloqot qobiliyatlarini oshirish bo‘yicha treninglar o‘tkazish kerak.

4. Fizik va psixologik charchoq

Harbiy xizmatchilar ko‘pincha qattiq jismoniy mashqlar va uzoq muddatli missiyalarda qatnashadi. Bu esa quyidagi kamchiliklarga olib kelishi mumkin:

- Charchoq va energiya yetishmasligi. Doimiy jismoniy zo‘riqish tufayli harbiy xizmatchilar ishda samaradorlikni yo‘qotishi mumkin. Bu esa ularning kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

- Uyqu muammolari. Stress va jismoniy zo‘riqish uyquning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa ularning sog‘lig‘iga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarga muntazam dam olish vaqti berish, shuningdek, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash kerak.

5. Kasbiy rivojlanishning cheklanganligi

Harbiy xizmatda ko‘pincha aniq ko‘rsatmalar va standartlar mavjud bo‘lgani uchun harbiy xizmatchilarning kasbiy rivojlanishi cheklanishi mumkin:

- Yangiliklarga moslashish qiyinligi. Harbiy xizmatchilar yangi texnologiyalar yoki usullarni o‘rganishda qiynalishlari mumkin. Bu esa ularning kasbiy rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

- Kasbiy ko‘nikmalarning tor doirada rivojlanishi. Harbiy xizmatning o‘ziga xos talablari tufayli harbiy xizmatchilar boshqa sohalarda ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarga yangi ko‘nikmalar o‘rganish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish kerak.[4]

Kasbiy motiv va motivatsiya

Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtai nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda bo‘ziga xos psixologik maktablar vujudga kelgan bo‘lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va kontseptsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g‘oyalar va yo‘nalishlar mujassamlashdi. Hozir ularning ayrimlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Rus va sobiq sovet psixologiyasi namoyandalari K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.N.Myasishev, A.A.Uxtomskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson, V.S.Merlin, L.I.Bojovich, V.I.Selivanov, V.G.Aseev va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ushbu mualliflarning qarashlari oldingi bobda berilganligi uchun ularga qaytatdan to‘xtalishga hojat yo‘qdir. Rus va sobiq sovet psixologiyasi vakillaridan tashqari Evropa va Amerika mamlakatlarida motivatsiyaga oid 30 (o‘ttiz)dan ortiq ilmiy kontseptsiyalar mavjuddir. Ana shu psixologik maktablarning ayrim namoyandalarining tadqiqotlari yuzasidan mulohaza yuritishga harakat qilamiz: interospektiv psixologiya, bixeviorizm, geshtaltpsixologiya, psixoanaliz, strukturaviy psixologiya, assotsianistik psixologiya, empirik psixologiya, analitik psixologiya, gumanistik psixologiya, antropologik psixologiya va hokazolar. Bixeviarizmning asoschisi Dj.Uotson (1878-1938) psixologiya faninig bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb tushunadi. U psixik hodisalardan mutlaqo voz kechib, xulqni ikki shaklga, ya'ni ichki va tashqiga ajratadi, ular o‘zaro javoblar stimuli bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta'kidlab o‘tadi.[5] Bixeviorizm uchun «xulq» asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi chetlab o‘tilgandir. Shunga qaramasdan, ba'zi bixevioristlar, jumladan E.Torndayk, E.Tolmen, K.Xall, D.Xebb kabilar xulq motivatsiyasiga muayyan darajada e'tibor qilganlar. Ular o‘zlarining izlanishlarida xulq motivatsiyasining«quyi darajalari» ni o‘rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaktsiya tezligiga nisbatan namoyon bo‘lish xususiyati, har xil sharoitda motivatsiyaning kuchi to‘g‘risida muayyan qonuniyatlar ochishga intilganlar. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo‘zg‘atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Neobixevioristik nazariyalar yangi qo‘zg‘atuvchilar, drayvalar paydo bo‘lishiga asoslangan bo‘lib, ular insonning organik ehtiyojlarini qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg‘unlashuvi tariqasida tahlil etiladi. Ularning ta’kidlashiga ko‘ra, ikkilamchi qo‘zg‘ovchilar organik qo‘zg‘atuvchilarning go‘yoki qobig‘iga o‘xshaydi, xolos. Vilyam Makdugall (1871-1938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug‘ma instinktlar masalalari bilan mazkur voqelikni bog‘lab tushuntirishga harakat qilgan. Uning fikricha, tug‘ma instinktlar ham insonlarga, ham hayvonlarga bir tekis taalluqli bo‘lib, ular odamlarning motivida oldin 14 ta, keyinchalik esa 18 tagacha «asosiy instinktlar» sifatida hukm surishi mumkin. Umuman olib qaraganda, bixevioristlar uchun bir qator holatlar o‘ziga xoslikka ega:

1. Bixeviorizm motivatsiya modelini topish bilan shug‘ullanib va xulq printsiplarini vujudga keltira borib, hayvon xulqi hamda ularda kashf etilgan xulq

motivatsiyasi qonuniyatlariga asoslanib insonning xulq motivatsiyasi yuzasidan xulosa chiqarishga harakat qiladi.

2. Bixeviorizm insonni biologik mavjudod sifatida qarab, unga biologik jabhada yondashadi, oqibat natijada uning ijtimoiy mohiyati tadqiqot predmetidan chetda qolib ketadi.[6]

3. Bixeviorizm ham insonga, ham hayvonlarga xos bo‘lgan xulqning umumiy printsiplarini topishga intiladi.

4. Bixevioristlar insonni shaxs sifatida taraqqiy etish jarayonini ifodalovchi o‘ziga xosligini yo chetlab o‘tadilar yoki o‘ta sodda tarzda izohlashga moyildirlar.

5. Hayvonlarning xulq motivatsiyasi shakllarini juda sodda tarzda tushuntirishga asosan tadqiqot natijalarini insonning murakkab va boshqa bir sifat bosqichidagi motivatsiyasiga ko‘chirish ishonchli dalillarga ega emas.

6. Inson motivatsiyasini o‘rganishda foydalanilayotgan bixeviorizmning tushunchalari, chunonchi, birlamchi mayllar, organizmni qitiqlovchi tug‘ma ehtiyojlar kabilar odamning motivatsiya doirasi tuzilishi mohiyatini juda yuzaki ocha oladi, xolos. Psixoanalitik kontseptsiyalar negizida motivatsiya ortganlik ravishda inson mayllariga xosdir, degan g‘oya yotadi. Ularning manbai maylni aks ettiruvchi qaysidir organdagi yoki uning qismidagi somatik jarayon tushuntiriladi. Z.Freydning kontseptsiyasida mayllar va instinktlar tushunchalari o‘rtasida hech qanday tafovut yo‘qdir. Ongsizlik ta'limotining asoschisi Z.Freyd xulq motivalari va ehtiyojlari muammosini ishlab chiqayotib, motivatsiyaning manbai instinkt, u tur va individning saqlanish shartidir deb taqdirlaydi. Mazkur holatni muallif individning energetik potentsiyasi sifatida talqin etadi. Eng asosiy masala shuki, Z.Freyd motivatsiya regulyatori va motivatsiya energiyasining irsiy manbai sifatida «u» tushunchasiga qanday ma'no yuklamoqchiq Uningcha, «u»tushunchasining mazmuni tug‘ma va o‘zgarmasdir. Xuddi shu bois mantiq qonunlari va aql darajalari, ko‘rsatkichlari unga hech qanday ahamiyat kasb etmaydi Z.Freyd affektiv, impulsiv shakldagi mutlaqlashgan qo‘zg‘ovchilarni nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas. Ushbu qo‘zg‘atuvchilar (turtkilar) ning impulsivlik, taxminiylikning affektiv mohiyati, notanqiydiylik, ongli va irodaviy nazoratga itoat etishda qiyinchilik kabilarning dinamik xususiyatlarini mutlaqlashtirish bo‘lib, ularning asosida quyi genetik va strukturaviy darajadagi qo‘zg‘atuvchilar yotadi. Z.Freyd ta'kidlab o‘tgan dinamik xususiyatlar va xossalari mohiyatida motivatsiyaning chuqur asosiy manbasini ko‘radi. Uning kontseptsiyasida inson xulqi va harakatining dvigateli jinsiy instinkt hamda uning transformatsiyasi ustuvor o‘rin egallaydi.[7] Odam tabiat tipi xushyorlik, juda xushyorlik, muloqot va faoliyatga yo‘nalganlikning yuqori darajasi, o‘ziga nisbatan yo‘nalganlikni minimal darajasini talab qiladi. Odam-texnika tipiga mansublik esa xushyorlik, juda xushyorlik, faoliyatga yo‘nalganlikning yuqori darajasi, qochishga

moyillikni past darajasi ta’sirida vujudga keladi. Oddiy askarlarda odam-obraz kasbiy tipiga mansublik o‘ziga va faoliyatga yo‘nalganlik hamda qaror qabul qilishdan kechiktirishdan qochish bilan harakterlanadi. Darhaqiqat, texnikalar bilan ishlashda kuzatuvchanlik va sezgirlik kabi xususiyatlarining o‘rni juda katta sanaladi. Serjantlarda odam-obraz kasbiy tipiga mansublik diqqatni uzoq vaqt ushlab turish, eslab qolish, intellektuallik, emotsionallik, kommunikativlik kabi kabi xususiyatlar bilan aloqadorlikda shakllanadi. Odam-odam kasb tipi diqqatni uzoq vaqt jamlash, kuzatuvchanlik, eslab qolish qobiliyati, intellektuallik, nutqiy ravonlik kabi xususiyatlar bilan bog‘lik ekanligi aniqlandi. Odam-biznes kasb tipi eslab qolish, irodaviy sifatlarning yuqori darajasi hamda kommunikativlik kabi xususiyatlar bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, serjantlarda kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlar, xususan, diqqatni uzoq vaqt ushlab turish, kuzatuvchanlik, eslab qolish, sezgirlik, intellektualligi, emotsionalligi, irodalilik, nutqiy ravonligi va kommunikativlikni o‘zlarida tarkib toptirishlari ularda kasbiy tayyorgarlikda ko‘proq muvaffaqiyatga erishishlarini ta’minlashi mumkin. Ayniqsa, serjantlarda kasbiy tayyorgarlik ularning eslab qolish va intellektuallik xususiyati bilan ko‘proq bog‘liq ekanligi kuzatildi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy sifatlarining o‘ziga xos kamchiliklari, asosan, harbiy xizmatning qattiq talablari va sharoitlari bilan bog‘liq. Psixologik stress, intizomning haddan tashqari ustuvorligi, muloqot muammolari va kasbiy rivojlanishning cheklanganligi kabi omillar harbiy xizmatchilarning shaxsiy va kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko‘rsatish, malaka oshirish kurslari tashkil etish va ularning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish ularning kasbiy faoliyatini yanada samarali qilishga yordam beradi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy kamchiliklarini bartaraf etish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun harbiy tizimning samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Shermatov F.T., Harbiy – kasbiy tayyorgarlik psixologiyasi // Monografiya. 2024. 76-93 bet.

[2] Shermatov F.T., Beknazarov A.A. Jangovar stress va uning psixologik oqibatlari. // O‘quv qo‘llanma. 2021. 48-51 bet.

[3] Shermatov F.T., Socio-psychological foundations of the appointment of future officers to leadership positions // American journal of interdisciplinary research

and development volume: 14 | march, 2023 Plano journal ISSN (online): 2771-8948 sjif (2023): 6.959 P.143-149

[4] Shermatov F.T., The New Method and Mechanism for Determining Professional Stresses in the Service of Military Workers International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. ISSN 2364-5369 Volume 8 Issue 9 September 2021 P. 243-246.

[5] F.Shermatov. A.Beknazarov. “Bo‘lajak ofitserlarda liderlik psixologiyasi”. Darslik.– T.: AKT va AHI, 2022.

YOSH OFITSERLARDA BOSHQARUV MADANIYATINI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Abdumo‘minov Q.K.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instiuti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada bo‘lajak ofitserlarda milliy g‘urur, jangovar ruh hamda harbiy vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada takomillashtirish hamda ularni munosib tarbiyalash, ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, uzluksiz harbiy ta’lim tizimida professional boshqaruv organlaridagi harbiy kadrlarini tayyorlashdagi muammolarini tadqiq etishning tanqidiy taxlili asosida tayyorlandi. Maqolada muallifning ko‘p yillar davomida olib borgan ilmiy va amaliy tajribalariga suyangan holda o‘tkazilgan emperik tadqiqot tahlillari natijasidagi fikrlar atroflicha bayon etilib o‘z takliflarni mantiqiy bayon etgan.*

Kalit so‘zlar: *professional kompetensiya, ijtimoiy-psixologik kompetensiya, autopsixologik kompetensiya, kognitiv kompetensiya, lider qobiliyati, baholashning ekspert usullari, o‘rta va quyi bo‘g‘in ofitserlari, kasbiy-professional sifatlar, professional mutaxassislik sifatlar, muloqotmandlik.*

Annotation: *In this scientific article, a critical analysis of the problems of further improvement of national pride, fighting spirit and military patriotism in future officers and their proper education, development of the education system, training of military personnel in professional management bodies in the system of continuous military education. Prepared based on in the article, based on the author’s many years of scientific and practical experience,the opinions as a result of the empiric research analysis are detailed and this proposais are logically presented.*

Key words: *professional competence, social -psychological competence, self-psychological competence, cognitive competence. leadership skills, expert methods of assessment, middle and lower level officers, professional qualities professional specialty qualities, communication*

Аннотация: *В данной научной статье проведен критический анализ проблем дальнейшего повышения национальной гордости, боевого духа и воинского патриотизма у будущих офицеров, и их надлежащего воспитания, развития системы образования, подготовки военнослужащих в профессиональных органах управления в системе непрерывного военного образования. В стати, основанной на многолетнем научно-практическом опыте автора, детализируются мнения, полученные в результате анализа эмпирического исследования, и логично излагаются его предложения.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, социального-психологическая компетентность, самопсихологическая компетентность, когнитивная компетентность возможность адепт, экспертный методы оценки, средний и низкий уровне, профессионально-специальные качества, коммуникабельность*

Jahondagi harbiy-siyosiy vaziyat hamda mintaqalardagi qarama-qarshilik, ziddiyat va nizolar, xalqaro terrorizm xavf-xatarlari tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda, ko‘plab rivojlangan davlatlar armiyalaridagi harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holati, jangovar shayligi va tayyorgarlikni ta’minlash maqsadida harbiy xizmatchilarni zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar hamda harbiy-professional bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirishga asosiy e’tibor berilmoqda. Harbiy xizmatchilarni o‘quv va jangovar faoliyatda yuzaga keladigan ekstremal vaziyatlarda ularning ruhiy barqarorligini ta’minlash bo‘linmalarni moxirona boshqarish hamda o‘zlariga ishonib topshirilgan qurol-aslaha va harbiy texnikalardan samarali foydalanish uchun liderlik xususiyatlari o‘ta muhim omil hisoblanadi.

Shu jihatdan mamlakatimizning Qurolli Kuchlarida kichik bo‘g‘indagi yosh ofitserlarda bo‘linmalarnimoxirona boshqarishda liderlik xususiyatlari dinamikasini psixologik jihatlarini o‘rganish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasiga e’tibor bersak, g‘arb olimlari ishlarida rahbarlik va liderlik masalalari, xususan, komandirning shaxsiy sifatlari, ularning boshqaruv faoliyatidagi o‘rni masalasi, sharq mutafakkirlarining rahbar shaxsi masalalari bo‘yicha qarashlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ayniqsa, har qanday rahbarlikda muhim element hisoblangan liderlik fenomeniga, uning boshqaruv faoliyati bilan hamohang rivojlanib borishiga e’tibor qaratilgan.

Liderlik maxsus ijtimoiy-psixologik fenomen bo‘lib, u individual va guruhiy ijtimoiy-psixologik omillarga bog‘liq. “Lider” so‘zi inglizchada to lead so‘zi bilan ifodalangan bo‘lib, u ergashtirmoq degan ma’noni anglatadi. Demak, lider – bu yetaklovchi, oldinda yuruvchi, degan ma’noni bildiradi. Liderlikka maqsadga erishishga yo‘nalgan guruhiy faollikka ta’sir ko‘rsatish jarayoni sifatida, guruh faoliyatini koordinatsiya qilish va boshqarish bo‘yicha liderning konkret harakatlari

sifatida ham ta’riflashadi. Xulosa qilish mumkinki, liderlik – bu lider, uning izdoshlari va turli xil vaziyat o‘zgaruvchilarining funksiyasi hisoblanadi.

Liderlik fenomenida mavjud quyidagi tarkibiy elementlarni farqlash mumkin, bular: lider, izdoshlar guruhi, liderning faoliyati, guruh va izdoshlar o‘zaro ta’siri sharoitlari.[1]

Liderlikni ilmiy o‘rganish N.Makiavellining 1517 yilda yozilgan “Podshoh” asari bilan boshlangan, deb hisoblanadi.[4] XX asrning birinchi yarmida tadqiqotchilar o‘z e’tiborlarini “buyuklik sifatlariga” qaratib, mashhur siyosiy va davlat liderlari qilgan ishlarni tahlil qilish bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Aqliy va jismoniy qobiliyatlarga qo‘shimcha ravishda o‘z-o‘ziga ishonch, hokimiyatga intilish, muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyoj, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyoji, ustunlikka bo‘lgan ehtiyoj kabi shaxs sifatlari bo‘lishi kerakligi ta’kidlandi. Lider xulq-atvori modellari va liderlik sifatlari “jamlanmasi” vaqt o‘tishi bilan bir necha bor o‘zgardi. F.Kayleyl tomonidan ishlab chiqilgan “Yuksak Odam Nazariyasi”da lider bo‘ladigan odamlar azaldan ularga liderlik pozitsiyasini egallashga yordam beradigan ma’lum bir sifatlar yig‘indisiga ega bo‘ladilar, deb hisoblandi.[2]

O’rganilayotgan muammo yuzasidan mavjud ilmiy adabiyotlar tahlilidan shu narsa ko‘rinadiki, jamiyat rivojlana borgani sari undagi shaxslararo munosabatlar tizimi mukammallasha borishi boshqaruv madaniyatining ham shakllanishiga olib kelgan. Ayniqsa, olimlar tamonidan liderlik, rahbarga qo‘yiladigan talablar, boshqaruv turlari va ularning afzallik tomonlari kabi masalalar bo‘yicha yetarlicha ilmiy qarashlar ishlab chiqilgan va amaliyotda qo‘llash uchun taklif etilgan bo‘lib, bu ilmiy ma’lumotlar maqolamizda tadqiq etilayotgan muommo nuqtai nazardan tahlil etilgan.[3]

Bo‘lajak ofitserlarda boshqaruv ko‘nikmalari shakllanishining o‘ziga xos psixologik jihatlari boshqaruv psixologiyasida rahbar shaxsi va faoliyatini rahbarning boshqaruv jarayoni samaradorligiga, o‘z ijtimoiy rollari va vazifalarini bajarishga sezilarli ta’sir ko‘rsata oladigan psixologik jihatlarini aniqlash nuqtai nazaridan o‘rganganligi va shu jihatdan ham komandirning xizmat faoliyatini samaradorligini oshiruvchi omil nuqtai nazaridan qarab kelinishi alohida ta’kidlangan.

Maqolamizda bo‘lajak ofitserlarda boshqaruvni samarali tashkil etish uchun zarur jihatlar, sifatlar va kompetensiyalarni aniqlashga harakat qildik.

Komandirning xizmat faoliyati juda ko‘p qirrali va u barcha shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilishini talab etadi. Komandir bajaradigan ijtimoiy rollar jamlanmasi ham rang-barang, u ham boshqaruvchi, ham shaxsiy tarkibning tarbiyachisi, ma’lum bir faoliyat sohasida mutaxassis, ekstremal vaziyatlarda nizolar va tortishuvlarda hakam va boshqalar. Uning faoliyati asosan intellektual xarakter kasb

etib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan yakunlanadi. Bularning barchasi boshqaruv faoliyatini o‘rganishni tizimli tashkil etishni taqozo etadi.

Odatda yosh ofitserlar xizmat faoliyatini boshlayotganda aksariyat hollarda odatda bu faoliyatga biron-bir maxsus tayyorgarliksiz kirishadi. Natijada uning boshqaruv sohasidagi bilimlari shaxsiy tajribasi jarayonida shakllanadi. Bu jihatni o‘rganish, aniqlash natijasidagina yosh ofitserning rahbarlikka tayinlashni amalga oshirish orqali boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish mumkin. [4]

Chunki aynan liderlik sifatlariga ega bo‘lgan komandirgina harbiy xizmatchilarni yangi g‘oyalarga undaydi, shaxsiy tarkibda faollik va tashabbuskorlik yuzaga keltiradi, o‘z buysunuvchilariga unga nisbatan ishonch, unga bo‘ysunish yuzaga kelishi tufayli bo‘linmada qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarilishiga erishiladi. Shu jihatlarni hisobga olgan holda biz tadqiqotimizda “Lider” testidan foydalangan holda bo‘lajak ofitserlarda liderlik sifatlarini qay darajada ifodalanganligi, bu sifatlarni rivojlantirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan o‘rgandik. Tadqiqotimizda 90 nafar Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti 5-bosqich kursantlari ishtirok etdi. Olingan natijalar ko‘rsatkichlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan. [5]

1-jadval

Liderlik ifodalanganligi darajalari bo‘yicha bo‘lajak ofitserlardagi ko‘rsatkichlari

Liderlik Ifodalanganligi darajalari	Sust ifodalangan	O’rtacha ifodalangan	Kuchli ifodalangan	Diktatorlik darajasida
Respondentlar soni	17 ta (18%)	62 ta (68%)	18 ta (20%)	2 ta (3%)

Jadvaldagi natijalardan ko‘rinib turganidek, 17 ta sinaluvchida (18 %) liderlik sust ifodalanganligi namoyon bo‘lmoqda. Ushbu 17 ta sinaluvchining o‘ntasi IT mutaxasisligida, uchtasi Axborotlarni kriptografik himoyalash va maxsus aloqa, ikkitasi intellektual tizimlar, bittasi Axborot texnologiyalari va dasturiy injiniring, bittasi Havo xujumidan mudofaa va zenit-raketa qo‘shinlari, ya’ni bo‘lajak komandirlarda qattiq qo‘llik bo‘lishini nazarda tutmaydigan sohalar bo‘lib, kasbiy faoliyat sohasi ham rahbarda liderlik ifodalanganlik darajasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin, degan ehtimolni yuzaga keltiradi.

Yosh ofitserlarning aksariyatida (62 tasi – 68%) liderlik o‘rtacha darajada ifodalanganligi namoyon bo‘lmoqda. Ularda mustaqil komandir yoki boshliq o‘rinbosari bo‘lib ishlashi bilan liderlikning ifodalanganlik darajasi o‘rtasida bog‘liqlik ko‘rinmadi. Bu holat liderlik namoyon bo‘lishi darajasi komandir egallagan lavozim

bilan emas, balki ko‘proq rahbarlikda ishlayotgan muddati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, degan ehtimolni kuchaytiradi.

Sinaluvchilarning 18 tasi (20%)da liderlik kuchli darajada ifodalanganligini ko‘ramiz. Bu holat liderlikning ifodalanish darajasi kasbiy faoliyat bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin, degan farazni ilgari surish imkonini beradi. Chunki bunday ko‘rsatkichni namoyon qilayotgan toifadagi barcha rahbarlarning faoliyati qat’iylikni, harbiy jamoada o‘z so‘zini o‘tkaza olishni, o‘z fikrida qattiq turishni talab qiladi. Bo‘lajak ofitserlarning toifasiga kiruvchi sinaluvchilardan faqat 2 nafari (3%)da diktatorlikka moyillik borligi namoyon bo‘ldi. [5]

Demak, boshqaruv faoliyati davomida bo‘lajak ofitserlarning kompleks o‘rganilishi va natijalardan ularning doimiy xabardor bo‘lib borishlari komandirning o‘z-o‘ziga nisbatan ob’ektiv munosabatda bo‘lishiga olib keladi. Tadqiqotimizda olingan empirik ma’lumotlar va ilmiy natijalar tahliliga asoslangan va ularni umumlashtirgan holda bo‘lajak ofitserlarda boshqaruv ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirishning quyidagi taklif etishimiz mumkin.

Yosh ofitserlarni lavozimlarga tayinlash jarayonida ularni “Lider” testi orqali o‘rganish va natijalarga ko‘ra lavozimga tavsiya etish. Bu jarayon ikki tomonlama bo‘lib, yosh komandirlarni tanlab olib lavozimga tayinlangach, test natijali bilan u tanishtirilishi zarur. Bu yosh ofitserlarga o‘z boshqaruv faoliyatini qay tarzda davom ettirishi kerakligi to‘g‘risida fikrlab o‘z-o‘ziga baho berish imkonini beradi. Ma’lum bir muddat o‘tgach (yarim-bir yil oralig‘ida) tayinlangan yosh rahbarlarni “O‘z cheklanganliklarini tahlil qilish” (“Siz o‘zingiz”) va “O‘z cheklanganliklarini tahlil qilish” (“Ishingiz”) testlari orqali o‘rganish va olingan natijalar tahlili bilan yosh ofitserlarni tanishtirilishi maqsadga muvofiq. Komandir o‘z ustida ishlashni boshlar ekan, albatta ma’lum muddat oralig‘ida u o‘zining liderlik qobiliyatlari rivojlanib borishi dinamikasidan xabardor bo‘lishini ta’minlash maqsadda yosh ofitserlarni “Professional muhim sifatlar “ testi orqali o‘rganish va olingan natijalarni oldingi metodikalar natijalari bilan qiyosiy umumlashtirgan holda yosh ofitserlarga boshqaruv - professional yo‘nalishda “O‘z-o‘zining rahbarlik mahoratini rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda yordamlashish (mutaxassis psixolog yordamida) amalga oshirish lozim.

Keyingi bosqichda yosh rahbarlarning boshqaruv imkoniyatlari “Ekspert baholash metodikasi” orqali o‘rganib boriladi (bu orqali rahbarning o‘z- o‘ziga bo‘lgan munosabatiga ob’ektiv qarashi imkoniyati yaratiladi) va ofitserning olingan natijalar bilan tanishtirib boriladi. Zarur hollarda olingan natijalarga asoslangan holda “O‘z-o‘zining rahbarlik mahoratini rivojlantirish dasturi”ga qo‘shimchalar kiritib boriladi. Bunday kompleks yondashuv yosh ofitserlarning boshqaruvchilik faoliyati davomida uzluksiz amalga oshirilib borilishi maqsadga muvofiq. [5]

Xulosa o‘rnida, liderlik kompetensiya shu nuqtai nazardan shaxs umumiy madaniyatining shunday yo‘nalishiki, unga faqat mutaxassisligiga taalluqli bo‘lgan bilimlardan tashqari, shu bilimlarning hosil bo‘lish yo‘llari va malakalarning takomillashuvini ta’minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo etadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari, ularning mohiyati va kechishini anglash demakdir. Olib borilgan izlanishlar yuqori, o‘rta hamda quyi bo‘g‘in ofitserlarining qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta’sir etuvchi ayrim ijtimoiy-psixologik omillar va unga tegishli ko‘rsatkichlar muzokaralar jarayonining muhim ijtimoiy-psixologik fenomen ekanligini ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Bazarov T.Yu. “Upravleniye personalom”: uchebnik. –M.: Izdatelskiy tsentr “Akademiya”, 2015.

[2] Boymurodov N. “Rahbar psixologiyasi”. T.: “Yangi asr”, 2007.

[3] Karimova V.M. “Psixologiya”: O’quv qo’llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. “O’AJBNT” markazi, 2002.

[4] Makiavelli N. Gosudar. 1990.

[5] F.Shermatov. A.Beknazarov. “Bo‘lajak ofitserlarda liderlik psixologiyasi”. Darslik.– T.: AKT va AHI, 2022.

[6] Qosimova D.S. “Boshqarish nazariyasi”: O’quv qo’llanma. – T.: TDIU, 2007.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH MA’DANIYATINI SHAKLLANTIRISH TIZIMI

Saydjanova K. D.
Toshkent Alfraganus universiteti

Annotatsiya*: Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini har tomonlama rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu shuni anglatadiki, ta'limni loyihalashda, albatta, yondashuv muayyan o‘quvchining shaxsiyatiga emas, balki birinchi navbatda kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan o‘quv maqsadlariga asoslanishi kerak. Tizimli yondashuv tizimning barcha xususiyatlarini o‘z ichiga olishi kerak: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarining o‘zaro bog‘liqligi, yaxlitligi. Ijodiy faoliyatga yondashuv – bu shaxsning jarayon sifatlarini shakllantirishga, o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyat va imkoniyatlarini ochishga, tashabbuskorlikka qaratilgan ta'limdir. Ushbu maqolada, bo‘lajak*

pedagoglarda o‘z-o‘zini boshqarish ma'daniyatni shakllantirish tizimi bo‘yicha fikr va mulohazalar yuritiladi.

***Kalit so‘zlar**: Bo‘lajak pedagoglar, o‘z-o‘zini boshqarish, madaniyatini shakllantirish, bo‘lajak o‘qituvchilar, ijodiy faoliyat, shakllantirish, tizimli yondashuv.*

***Аннотация:** Личностно-ориентированное образование по самой своей природе предполагает всестороннее развитие всех участников образовательного процесса. Это означает, что при проектировании образования, безусловно, подход должен основываться прежде всего на целях обучения, связанных с будущей профессиональной деятельностью, а не на личности конкретного учащегося. Системный подход должен включать в себя все признаки системы: логику процесса, взаимозависимость всех его звеньев, целостность. Подход к творческой деятельности – это воспитание, направленное на формирование процессуальных качеств личности, активизацию и ускорение активности учащегося, раскрытие всех его способностей и потенциала в процессе обучения, инициативы. В данной статье обсуждаются мнения и комментарии по поводу системы формирования культуры самоуправления у будущих педагогов.*

***Ключевые слова:** Будущие педагоги, самоуправление, формирование культуры, будущие учителя, творческая деятельность, формирование, системный подход.*

***Annotation:** Student-centered education, by its very nature, involves the comprehensive development of all participants in the educational process. This means that when designing education, of course, the approach should be based primarily on the learning objectives associated with future professional activities, and not on the personality of a particular student. A systematic approach should include all the features of the system: the logic of the process, the interdependence of all its links, integrity. The approach to creative activity is education aimed at the formation of the procedural qualities of the individual, the activation and acceleration of the student's activity, the disclosure of all his abilities and potential in the learning process, initiatives. This article discusses opinions and comments about the system for the formation of a culture of self-government among future teachers.*

***Key words:** Future teachers, self-government, culture formation, future teachers, creative activity, formation, systematic approach.*

Bo‘lajak pedagoglarni o‘z-o‘zini boshqarish madaniyatini shakllantirishda dialogik yondashuv o‘quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va munosabatlarini qurish zarurligini nazarda tutadi. Natijada shaxsning o‘zini faollashtirish, o‘zini namoyon qilish kabi ijodiy faolligi ortadi. Bo‘lajak pedagoglar o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi demokratiya, tenglik, hamkorlik, faoliyat

maqsadi va mazmunini birgalikda shakllantirish hamda erishilgan natijalarni baholash kabi subyektiv munosabatlarga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydilar. Bu ta'lim mazmunini muammoli taqdim etish asosida o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini tashkil etish usullaridan biridir. Bu jarayon ob'ektiv qarama-qarshiliklar va ularni hal qilish yo'llarini aniqlash, dialektik tafakkurni shakllantirish va ularni amaliyotda ijodiy qo'llashni ta'minlaydi. Axborotni taqdim etishning zamonaviy vositalari va usullaridan foydalanish - o'quv jarayonida yangi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish. O'qitish metodikasi va usullari: ma'ruza (kirish, mavzuli, informatsion, ko'rgazmali (konferentsiya), konferensiya, muammoli masalalarni yechish), muhokama, muammoli uslub, pinbord, aqliy hujum, tezkor savol, savol javob amaliy ishlov berish usullari. Ta'lim shakllari: dialog, polilog, muloqot, hamkorlik va o'zaro ta'limga asoslangan frontal, guruh va guruhli o'qitish.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun o'quv qo'llanmalari: an'anaviy o'quv qo'llanmalaridan tashqari (darslik, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar) - chizmalarni tashkil qiluvchilar, kompyuter va axborot texnologiyalari va aloqa usullari: talabalar bilan tezkor aloqaga asoslangan bevosita o'zaro aloqalardan iborat.[2]

Bo'lajak fan o'qituvchilarining asosiy maqsadi talabalarga fan asoslari bo'yicha chuqur va tizimli bilim berishdir. Olingan bilimlarni o`z hayotiy faoliyatida qo`llash natijasida shakllangan shaxs mehnat va hayotga tayyorlanadi. Bu masalani hal etishda nimani o'rgatish (ta'lim mazmuni) bilan bir qatorda qanday o'rgatish (ta'lim metodlari) masalasi ham juda muhim. Har qanday fanni o'qitish o'quv fanining mazmuniga bog'liq bo'lib, bu fanni o'qitish usullari fanning ichki imkoniyatlarini belgilab beradi. O`qitish metodikasi ham bilish usullari va qonuniyatlari haqidagi ta`limot, ya`ni fan metodologiyasi bilan belgilanadi. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish mavjud an'anaviy o'qitish usullaridan voz kechmagan holda dars samaradorligini oshiradi. Kimyoda asosan kimyoviy reaksiyalarni yozma ravishda o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Kompyuter texnologiyasi bilan bajarilganda vaqtni tejaydi, lekin agar talaba kompyuterni bilmasa yoki dangasa bo'lsa, u kompyuterda kimgadir reaktsiyalarni ko'chirib olishi mumkin.

Qobiliyat, hatto iste'dod ham hamma narsani anglatmaydi. Belgilangan maqsadga erishish, uni o'rganish kerak. Aqldan muntazam foydalanish, bilimingizni kengaytirish, maqsadli hayot kechirish muhimdir. Bu erda ko'p narsa buni qanchalik yaxshi tushunganingizga va bajarganingizga bog'liq: siz topshiriqni o'zingiz bajardingizmi yoki uni do'stingizdan ko'chirib oldingizmi, topshiriqlarni o'zingiz yodladingizmi yoki do'stlaringizning gaplariga, tajribalariga javob berdingizmi. Buni o'zingiz qildingizmi yoki stolda qo'shningiz buni qilayotganini tomosha qildingizmi

[2] Shukurova, H. (2021). Current issues of professional training of future teachers. Innovation in Primary Education. https://history.jspi.uz/index.php/primedu/article/view/823

va hokazo. Bularning ahamiyati yo‘qdek. Ammo ongli mehnatga e’tiborsizlik, aqlingni o‘g‘irlashga olib keladigan qaramlik ana shunda emasmi? Muntazam ishlash sizning bilimingizdagi bo‘shliqqa, uni o‘zlashtirmaslikka olib keladi va bo‘shliqlarni to‘ldirish ko‘pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi, chunki bu juda ko‘p kuch va irodani talab qiladi. Innovatsion ta’lim bunga erishishga intiladi, to‘g‘rirog‘i, o‘quvchini izlanishga majbur qiladi. Buning uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak.[3]

Ikkinchi shart - tartib-intizom. Yaxshi intizom mavjud bo‘lganda, butun diqqat darsning yakuniy maqsadi - materialni o‘zlashtirishga qaratiladi. Dars yuqori sur’atda, yaxshi natijalar bilan o‘tmoqda. O‘qituvchi muntazam ravishda har bir kishi samarali bo‘lishini va ularning chalg‘itmasligini ta'minlaydi. Uy haqida nima deyish mumkin? Bu erda sizning intizomingiz o‘ynaydi. O‘quv ishingizni o‘zingiz rejalashtirasiz, mustaqil ishning samarali usullaridan foydalangan holda topshiriqlarni optimal muddatda bajarasiz. Va nihoyat - mehnatsevarlik. Har qanday ish sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi kerak. O‘qituvchi rahbarligida sinfda va uyda mustaqil ravishda topshiriqlarni tez, aniq va o‘z vaqtida bajarishga harakat qiling. Agar sizda muammo bo‘lsa, o‘qituvchingiz yoki do‘stingiz bilan bog‘lanishingiz mumkin. Agar sizga ko‘rsatilgan mehnatsevarlik, intizomlilik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar xarakteringizning ajralmas qismiga aylansa, bilimingizda bo‘shliqlarga yo‘l qo‘ymaysiz, har kuni mustaqil ravishda tizimli ishlasangiz, ortda qolib ketmaysiz va o‘quv materiallarini sifatli o‘zlashtirish. Biroq bu fazilatlar nafaqat samarali o‘qishga, balki ijtimoiy ishlarni bajarishga, to‘garaklar va boshqa tadbirlarda qatnashishga ham yordam beradi. Mustaqil ish usullarini o‘zlashtirib qisqa muddatda dars tayyorlash mumkin. Har qanday kasbiy faoliyat insondan ma'lum fazilatlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Kelajak pedagogikasining ma’naviy-axloqiy sifatlarini “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmunida quyidagicha ta’riflaydi:

1) o‘qituvchi pedagogik faoliyatga qodir, ijodiy, ishbilarmon, insonparvar;

2) milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tushunadigan va mukammal egallagan, diniy va dunyoviy bilimlardan xabardor, ma’naviy-axloqiy yetuk shaxs sifatida obro‘-e’tiborga ega bo‘lish;

3) pedagogik kasbni mukammal bilish, ya’ni psixologik, pedagogik mahorat va malakalar, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi;

4) bolalarni sevish, ularning ruhiyatini bilish, shuningdek, yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan muloqot qilish;

5) O‘qituvchiga o‘tkirlik, mantiqiy fikrlash, o‘quvchilarga ma’lumotlarni izchil va izchil yetkazish kabi qator talablar qo‘yiladi.

[3] A.A. Shayusupova SR Kamalova “Assessment of skills and competencies” Textbook Tashkent-2012. 243-247-p

Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kasbi bo‘yicha bilimga ega (ta'lim va tarbiya jarayonining mohiyatini, uning maqsad va vazifalarini tushunish; psixologiya asoslarini bilish, yoshlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilish; etnopsixologik bilimlarni bilish; zamonaviy pedagogika va uning metodikasi maktab yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi, o‘z fanini o‘qitish metodikasini bilishi, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi (bolalar jamoasini tashkil eta olishi kerak.[4] Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilar kommunikativ ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak (bolalar bilan shug‘ullanish qobiliyati; bolalar va ota-onalar bilan maqsadli pedagogik munosabatlarni boshqarish; bolalarning jamiyat ichida va jamiyat ichidagi o‘zaro munosabatlarini tartibga solish; bolalar va ota-onalar bilan tashqi muloqot qilish; bilishi kerak). Bo‘lajak o‘qituvchilarning eng muhim xususiyatlari ijodiy fazilatlardir (pedagogik mahoratni oshirishga intilish; o‘quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyati; shaxsga yangicha qarash qobiliyati; pedagogik faoliyatning oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish).

Ta’kidlash joizki, pedagogning kasbiy qiyofasida namoyon bo‘lishi lozim bo‘lgan bu fazilatlar nafaqat o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarida, balki atrofdagilar bilan munosabatlarida ham muhim ahamiyatga ega. Ko‘rinib turibdiki, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahorati nafaqat talab qilinadigan kasbiy bilim darajasi, balki psixologik tayyorgarligi, ta’lim jarayonini o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini boshqarish, kasbiy, ma’naviy, jismoniy va shaxsiy imkoniyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu yechimlarga e'tibor qaratish qobiliyati kabi professional ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Chunki bu malakalar kasb-hunar ta’limining shakllanishida zaruriy hodisa sanaladi.[5]

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratiga qo‘yiladigan talablar nafaqat kasbiy bilimlarning talab darajasida bo‘lishi, balki psixologik tayyorgarligi, ta’lim jarayonini o‘z-o‘zini boshqarishi, o‘z-o‘zini boshqarishi, kasbiy, ma’naviy, jismoniy va shaxsiy imkoniyatlaridan iboratdir. Bo‘lajak pedagoglarda o‘zo‘zini boshqarish ma'daniyatni shakllantirishda oliy ta’lim jarayonida pedagogic texnologiyalar asosida turli mashg‘ulot va seminarlar o‘tib boriladi. Shuningdek, u ko‘rib chiqilayotgan muammoga e'tibor qaratish qobiliyatini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy fazilatlarni shakllantirish pedagogic faoliyat muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri bo‘lib, u maqsadlilik, qat'iyatlilik, tirishqoqlik, kuzatuvchanlik, jumladan, ijtimoiy faollik, jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar va bolalar hayotida faol ishtirok etish kabi fazilatlarni o‘z ichiga oladi. ta'lim muassasasi. Turli tashabbuslarni ilgari surish, ularni hayotga tatbiq etishda shaxsan

[4] Formation of student spirituality. Fozilov.J. Sultonov. Saidov .H. T. “Sharq”. 2000. 122-p
[5] Sultanova G. «Pedagogical skills». Textbook. T., 2005. 209-211-p

o‘rnak bo‘lish, milliy moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yanada boyitishga bevosita hissa qo‘shish qobiliyatini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukurova, H. (2021). Current issues of professional training of future teachers. Innovation in Primary Education.
2. https://history.jspi.uz/index.php/primedu/article/view/823
3. A.A. Shayusupova SR Kamalova “Assessment of skills and competencies” Textbook Tashkent-2012. 243-247-p
4. Formation of student spirituality. Fozilov.J. Sultonov. Saidov .H. T. “Sharq”. 2000. 122-p
5. Azizkhojayeva N. "Pedagogical technology and pedagogical skills". TDPU 2003. 29-32-p
6. Kholikov A. Pedagogical skills. Textbook. Tashkent. "Economics and Finance", 2010. 67-p
7. Sultanova G. «Pedagogical skills». Textbook. T., 2005. 209-211-p

INNOVATSIYA – ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SIFATIDA

Saydjanova K.D.
Toshkent Alfraganus universiteti

Ma’lumki, pedagogikada innovatsiya tushunchasi XX asrning 60-yillarida dastlab, AQSH va G‘arbiy Evropa mamlakatlarida “ta’lim texnologiyasi” tushunchasi sifatida paydo bo‘lgan va e’tirof etilgan.

O‘sha vaqtlardayoq Evropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etilhan. Bu tushunchalarning paydo bo‘lishi va innovatsion ta’lim nazariyasining yaratilishi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu tushunchalar ta’lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga kiritish orkali ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta’minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta’lim jarayonida o‘quvchi-talabaga do‘stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatimizning ustivor vazifalaridandir” [3].

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o‘tgan asrning 80-yillarida pedagogik faoliyat bu – ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar birlashmasi, degan yangi ilmiy yo‘nalish tarkib topdi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, 80-yillarda pedagogik faoliyatni avvaldan puxta ishlab chiqilgan dastur g‘oyalariga muvofiq amalga oshirish va dasturlashtirilgan mustaqil malaka oshirishni tashkil etish tashabbusi ko‘tarildi. Natijada, o‘kituvchilarning masofadan malaka oshirish tizimini yaratish kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi.

Ta’limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma’qul bo‘lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e’tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta’limga yo‘naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o‘rtasidagi qiyinchilik bilan engib o‘tiladigan uzilishlardir. Yana muhimroq sabab esa, ta’limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o‘rtasidagi uzilishdir. O‘qituvchi innovatsion faoliyatning sub’ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo‘llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an’analardagi o‘zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Qurilish vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va tizimida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralarning ilg‘or arxitektura yechimlari va energiya tejovchi texnologiyalar asosida barpo etiladigan hamda jihozlanadigan, xalqaro talablar asosida sifatli ta’lim-tarbiya berish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan “Zamonaviy maktablarni tashkil etish to‘g‘risida” gi taklifni ma’qullash bo‘yicha qarori qabul qilindi [1].

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston respublikasi Prezidentining Farmonida 41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish Milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish. 2022–2026 yillarda 217 ta“Barkamol avlod” bolalar maktabini rivojlantirish bo‘yicha dasturni amalga oshirish, deb ta’kidlab o‘tilgan. Shunday ekan, ushbu dasturning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, ta’lim muassasalari xodimlari o‘z faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etishlari lozim [2].

Innovatsiya (ing. Innovatsion – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, deb ta’riflanadi. Demak, innovatsiya o‘quv jarayoniga yangilik olib kirish, o‘quv jarayonini talaba ehtiyoji, xohishi va istaklariga moslashtirish, o‘quvchi-talabani mustaqil mutolaaga o‘rgatish, bilimlarni tayyor holda berish emas, o‘quvchi-talabalarning bilim olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga harakat qilish demakdir. Innovatsiya – amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat

tizimidir. Bu g‘oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo‘lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas [4].

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi, shuningdek, umuman ta’lim tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsiya – ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natijadir. Demak, innovatsion texnologiyalarning asosiy negizi – bu o‘qituvchi va o‘quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta’lim jarayonini loyihalashdir.

Bugun ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma’qullanmoqda:

- ✓ faoliyat yo‘nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi);
- ✓ kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan);
- ✓ o‘zgarishlar ko‘lamiga ko‘ra (lokal, modulli, tizimli);
- ✓ kelib chiqish manbaiga ko‘ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi – sarflangan mablag‘ yoki kuchdan eng yukori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan yangiliklardan farqli o‘laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o‘zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi. Shu sababli “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari o‘rtasidagi asosiy farqlarni ko‘rsatib o‘tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko‘lami asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar, faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, o‘z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba’zi elementlarini o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo‘lamiz. Agar faoliyat ma’lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa va uning natijasi o‘sha tizim rivojlanishiga yoki uning printsipial o‘zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz.

Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi.Innovatsiyaesa, tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub’ektlari pozitsiyalarini to‘la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo‘nalishlari

ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o‘zi ham yangilanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga har kanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, o‘qituvchi innovatsiya faoliyatiga tayyor bo‘lib, darsga eng so‘ngi yangiliklarni olib kirib, o‘quvchi-talabalarga qiziqarli va uni ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, samaradorlikni kafolatlashi mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston RespublikasiPrezidentining 2019-yilning 26-noyabrdagi “Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4537-sonli qarori

2. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston respublikasi Prezidentining PF 60-sonli Farmoni. 2022 yil 28-yanvar

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Yangi yil arafasida – 2016 yil 30-dekabr kuni “Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili” mavzusida mamlakatimizning etakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashgandagi nutqi

4. N.Atayeva va boshqalar. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari). O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 936 bet.

BO’LAJAK PSIXOLOGLARNING INTELEKTUAL MOSLASHUVCHANLIK VA ADAPTIV O’QISH KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Akbaraliyeva A.T.
Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak psixologlarning intellektual moslashuvchanlik va adaptiv o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Intellektual moslashuvchanlik — bu yangi vaziyatlarga tezda moslasha olish, turli sharoitlarda samarali fikrlash va alternativ yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Adaptiv o‘qish ko‘nikmalari esa o‘quv jarayonida moslashuvchan strategiyalarni qo‘llash, o‘z-o‘zini baholash hamda tajribadan xulosa chiqarish orqali samarali bilim olishni anglatadi. Maqolada ushbu sifatlarni shakllantirish strategiyalari sifatida refleksiya, interfaol metodlar, madaniyatlararo muloqot va o‘z-o‘zini rivojlantirish rejalarining ahamiyati ko‘rsatib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *intelektual,adaptiv, alternativ, mantiq,tafakkur, kabiy rovojlanish, individual, shaxsiy farq*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы развития интеллектуальной гибкости и адаптивных учебных навыков у будущих психологов. Интеллектуальная гибкость трактуется как способность быстро приспосабливаться к новым условиям, эффективно мыслить в различных ситуациях и вырабатывать альтернативные решения. Адаптивные учебные навыки понимаются как умение применять гибкие стратегии в учебном процессе, осуществлять самооценку и извлекать выводы из опыта для более эффективного усвоения знаний. В статье выделены такие стратегии формирования данных качеств, как рефлексия, интерактивные методы, межкультурное общение и разработка планов саморазвития.*

Ключевые слова: *интеллектуальный, адаптивный, альтернативный, логика, мышление, нравственное развитие, индивидуальное, личностное различие*

Hozirgi davrda psixolog kasbi tezkor o‘zgaruvchan ilmiy yutuqlar, texnologiyalar va ijtimoiy talablar bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, bo‘lajak psixologlar faqat mavjud bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, yangi sharoit va talablarni tez o‘zlashtira olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarur. Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Intellektual moslashuvchanlik — bu fikrlash jarayonida turli yondashuvlarga tez moslashish, muammolarni hal qilishda yangicha strategiyalar qo‘llash va o‘z bilimlarini yangilab borish qobiliyati. Turli ilmiy fanlar vakillari tomonidan 20-asrda boshlangan aql-zakovatni o‘rganishga urinishlar bugungi kungacha faol davom etmoqda. Bugungi kunda yagona fan doirasida turli xil ilmiy natijalarni sintez qilish uchun zarur shart-sharoitlar paydo bo‘ldi. „Intellektologiya“ atamasi 2003-yilda siyosiy *konfliktologiyada* ongni manipulyatsiya qilish usuli uchun rasmiy asos yaratishga harakat qilgan A. A. Zinovyev tomonidan kiritilgan. Aql-idrok kontseptsiyasi *mantiq*, *ontologiya* va *gnoseologiyani* bitta umumiy modelga birlashtirish g‘oyasiga asoslangan edi. Biroq, bu model asosan amorf, haddan tashqari tavsiflovchi va tor doiraga ega, bu esa uni intellektni tizimli o‘rganish uchun ishlatishga imkon bermaydi.

Shu bilan birga, tilshunoslikda nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rnatildi va isbotlandi — milliy tillar tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning mentalitetga muvofiqligidan tortib, aql-idrok rivojlanishi va rivojlanishini taqqoslashgacha. muayyan shaxsdagi nutq. 1946-yilda Nikolay Pronko birinchi

marta *psixolingvistika* atamasini ishlatgan. Psixolingvistika tarixidagi asosiy nazariyalardan biri Sapir-Uorf gipotezasi (lingvistik nisbiylik gipotezasi), shuningdek, strukturaviy tilshunoslarning (N. Xomskiy) va psixologlar (L. FROM. Vygotskiy , L. DA. Shcherba). Keyinchalik " *psixlingvistika* " atamasi T. DA. Chernigov. Psixolingvistika mohiyatan aql va lingvistik tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi.

20-asr oxirida keng tarqalgan " kognitiv fanlar " atamasi ko‘plab geterogen yondashuvlarni birlashtirdi. Zamonaviy kognitiv fan psixologiya, falsafa, antropologiya, biologiya, tilshunoslik, sun’iy intellektni o‘rganish kabi sohalarni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, masalan, *kognitiv psixologiya*, *kognitiv lingvistika*, *aql falsafasi* kabi fan sohalari paydo bo‘ldi[1].

Adaptiv o‘qish esa — o‘quv jarayonida o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘z tajribasidan samarali foydalanish va yangiliklarga ochiqlikni anglatadi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. IQ ya’ni aqliy intellekt ratsional fikrlash uchun javobgardir, EQ esa hissiy intellekt, sizning his-tuyg‘ularingizni tanib olish va boshqarish imkonini beradi, ijobiy munosabat va o‘ziga bo‘lgan ishonch uchun PQ pozitiv intellekt javobgardir. Moslashuvchan intellekt esa yuqorida sanab o‘tilgan uchta intellektning xususiyatlarini birlashtiradi, bu ko‘nikmalardan foydalanib, yangi sharoitlarga tez va qulay moslashish imkonini beradi.

Moslashuvchan intellekt bizning hayotiy tajribamiz asosida rivojlangan ko‘nikmalarni birlashtirib, nostandart sharoitlarda darhol to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Moslashuvchan intellekt nafaqat kutilmagan vaziyatlarni tez qo’lga olish, o‘zlashtirish va harakat qilish imkonini beradi, balki salbiy o‘zgarishlarni oldindan ko’ra bilish imkonini ham beradi. Bu qobiliyat asosan menejerlar, strateglar, maxsus xizmat xodimlari uchun zarur. Sababi ular doimo umumiy vaziyatga javob berishlari, rejalar tuzishlari va yangi strategiyalarni ishlab chiqishlari kerak. Robert Sternberg (1985) triarkik intellekt nazariyasida moslashuvchanlikni hayotiy muammolarni samarali hal qilish bilan bog‘laydi[2].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Bo‘lajak psixologlar uchun intellektual moslashuvchanlik va adaptiv o‘qish ko‘nikmalari — kasbiy rivojlanishning ajralmas komponentlaridan hisoblanadi. Psixologik faoliyat turli xil mijozlar, vaziyatlar va muammolar bilan ishlashni talab qiladi. Shu sababli, talaba psixologlar yangi sharoitlarda tez yo‘nalish topa olish, bilim va ko‘nikmalarini vaziyatga mos ravishda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lishlari zarur. Intellektual moslashuvchanlik-bu shaxsning kognitiv moslashish qobiliyatidir, ya’ni o‘z fikrlash jarayonlarini vaziyat talabiga moslashtirish va bir nechta alternativ yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati.

Bo‘lajak psixologlar uchun bu quyidagilarni anglatadi:

• Mijozning individual xususiyatlariga qarab turli psixodiagnostik usullardan foydalanish.

• An’anaviy yondashuv ishlamagan holatda yangi metodlarni tez o‘zlashtirish.

• Madaniy, ijtimoiy va shaxsiy farqlarni hisobga olgan holda maslahat berish. S. C. Scott (2010) intellektual moslashuvchanlikni “ijodiy muammolarni hal qilish va noaniqlik sharoitida samarali fikrlashning asosi” deb ta’riflaydi[3]. Adaptiv o‘qish ko‘nikmalari-bu shaxsning yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida moslashuvchan strategiyalarni qo‘llash malakasidir. Psixolog talabalarda adaptiv o‘qish quyidagi jihatlar orqali rivojlanadi:

• Yangi o‘quv materialini turli usullarda o‘rganish (vizual, eshitish, kinestetik metodlar).

• O‘z-o‘zini baholash va natijaga qarab o‘qish uslubini o‘zgartirish.

• Tajribadan xulosa chiqarib, kelgusi faoliyatga tatbiq etish. P. Pintrich (2000) adaptiv o‘qish strategiyalarini “talabaning motivatsion va kognitiv moslashuvchanligini birlashtiruvchi tizim” deb hisoblaydi[4].

1.Intellektual moslashuvchanlik

• Turli vaziyatlarda fikrlash strategiyasini tez o‘zgartirish qobiliyati.

• Kognitiv qotib qolishdan qochish.

• Ijodiy fikrlash va kritik tahlilni uyg‘unlashtirish.

2. Adaptiv o‘qish ko‘nikmalari

• O‘z-o‘zini o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish.

• O‘rganish jarayonida shaxsiy kuchli va zaif tomonlarni aniqlash.

• Yangi bilimlarni amaliyotga tez tatbiq etish.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytib o’tishimiz mumkinki, Intellektual moslashuvchanlik va adaptiv o‘qish ko‘nikmalari bo‘lajak psixologlarning kasbiy samaradorligi, mijoz bilan individual ishlash qobiliyati hamda turli vaziyatlarga tez moslashish imkoniyatini oshiradi. Bu ikki sifat o‘zaro bog‘liq bo‘lib, psixologning kasbiy yetukligi va raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Shu o’rinda intelektual moslashuvchanlik va adaptiv ko’nikmalarini rivojlantirish strategiyasini aytib o’tishimiz mumkin:

• Refleksiya va tahlil — talabalar o‘z bilim va xatolarini muntazam tahlil qilib borishlari kerak.

• Interfaol metodlar — rolli o‘yinlar, keys-stadi, treninglar orqali moslashuvchanlikni oshirish.

• Turli madaniyat va ijtimoiy guruhlar bilan ishlash — real amaliyot davomida.

• O‘z-o‘zini rivojlantirish rejasi — yangi ko‘nikmalarni muntazam o‘zlashtirish uchun.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Крейдлин, Г. Е.. *Невербальная семиотика: Язык тела и естественный язык*. М.: Новое литературное обозрение, 2002. ISBN 5-86793-194-3.
2. Sternberg, R.J. (1985). Beyond IQ: A Triarchic Theory of Human Intelligence. Cambridge University Press
3. Scott, S. C. (2010). Cognitive Flexibility and Creative Problem Solving. New York: Academic Press.
4. Pintrich, P. R. (2000). The Role of Goal Orientation in Self-Regulated Learning. In M. Boekaerts, P. R. Pintrich, & M. Zeidner (Eds.), Handbook of Self-Regulation. Academic Press.
5. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. New York: Longman.
6. Зимняя, И. А. (2004). Педагогическая психология. Москва: Логос.
7. Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna. Bo‘lajak psixologlarning konsultativ faoliyat malakasini tarkib toptiruvchi kasbiy-shaxsiy sifatlar Pedagogik mahorat 2024-23 b
8. Akbaraliyeva Asilaxon Talabalarda xulq og‘ishini oldini olishning ijtimoiy pedagogikpsixologik shartlari. Ғылым-білім-өнер интеграциясы: перспективалық жобалар.2023-451 b

HARBIY YETAKCHILIK: SERJANT MAYOR LAVOZIMINING STRATEGIK VA PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Qo‘chqorov S. A., Mahmudxonov S. A.
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada harbiy yetakchilikning mohiyati va serjant mayor lavozimining strategik ahamiyati tahlil etiladi. Serjant mayorlar qurolli kuchlardagi o‘rta bo‘g‘in rahbarlari sifatida askarlarning intizomini mustahkamlash, jamoaviy ruhni shakllantirish va harbiy tayyorgarlik jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada harbiy boshqaruvda serjant mayor larning liderlik fazilatlari, ularning qo‘mondonlik va askarlar o‘rtasidagi vositachi sifatidagi o‘rni hamda zamonaviy harbiy texnologiyalar sharoitida bu lavozimning dolzarbligi ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Shuningdek, yetakchilik psixologiyasi va strategik qaror qabul qilish jarayonida serjant mayor larning o‘rni muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *harbiy yetakchilik, serjant mayor, harbiy boshqaruv, intizom, jamoaviy ruh, strategik qaror, liderlik fazilatlari, harbiy psixologiya, zamonaviy harbiy texnologiyalar.*

***Аннотация**: В данной статье анализируется сущность военного лидерства и стратегическая значимость должности старшины. Старшины, являясь руководителями среднего звена в вооружённых силах, играют важную*

роль в укреплении дисциплины среди военнослужащих, формировании командного духа и эффективной организации процессов военной подготовки. В статье с научной точки зрения рассматриваются лидерские качества старшин в военном управлении, их роль в качестве посредников между командованием и личным составом, а также актуальность данной должности в условиях современных военных технологий. Кроме того, обсуждается место старшин в психологии лидерства и процессе стратегического принятия решений.

Ключевые слова*: военное лидерство, старшина, военное управление, дисциплина, командный дух, стратегическое решение, лидерские качества, военная психология, современные военные технологии.*

Abstract: *This article analyzes the essence of military leadership and the strategic significance of the sergeant major position. As mid-level leaders in the armed forces, sergeant majors play a crucial role in strengthening military discipline, fostering team spirit, and effectively organizing military training processes. The study explores, from a scientific perspective, the leadership qualities of sergeant majors in military management, their role as intermediaries between commanders and soldiers, and the relevance of this position in the context of modern military technologies. Additionally, the role of sergeant majors in leadership psychology and strategic decision-making is discussed.*

Keywords: *military leadership, sergeant major, military management, discipline, team spirit, strategic decision, leadership qualities, military psychology, modern military technologies.*

Harbiy tizimda yetakchilik muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, harbiy qismning samarali faoliyat yuritishida yetakchilarning roli katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, serjant mayor lavozimi qurolli kuchlar tizimida askarlar va ofitserlar o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida harbiy intizomni mustahkamlash, shaxsiy tarkibning ruhiy va jismoniy tayyorgarligini oshirish hamda harbiy tayyorgarlik jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy harbiy boshqaruv tizimida yetakchilik nafaqat harbiy texnikani boshqarish, balki inson omilini samarali yo‘naltirish bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Harbiy psixologiya, strategik qaror qabul qilish, stressga chidamlilik va kommunikatsiya kabi jihatlar harbiy yetakchilikning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Serjant mayor lavozimida xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilar nafaqat o‘z bo‘linmasining intizomini saqlash, balki shaxsiy tarkibning ma’naviy-ruhiy holatini nazorat qilish, ularni ruhlantirish va jamoaviy birdamlikni mustahkamlash kabi muhim vazifalarni bajaradilar.

Ushbu maqolada harbiy yetakchilikning nazariy asoslari, serjant mayor lavozimining strategik ahamiyati, yetakchilik fazilatlari hamda zamonaviy harbiy boshqaruvdagi roli ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Shu bilan birga, zamonaviy harbiy texnologiyalar va innovatsiyalarning ushbu lavozimga ta’siri ham muhokama

qilinadi. Mazkur mavzuni yoritish orqali harbiy bo‘linmalardagi boshqaruv samaradorligini oshirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Adabiyotlar tahlili metodologiya.

Harbiy yetakchilik va serjant mayor lavozimining strategik va psixologik ahamiyatini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, harbiy qo‘llanmalar va amaliy tadqiqotlar mavjud. Yetakchilik nazariyalari kontekstida J. Maxwell (2007) tomonidan ilgari surilgan yetakchilikning 21 muhim tamoyili va P. Hersey va K. Blanchard (1982) tomonidan ishlab chiqilgan vaziyatga mos yetakchilik nazariyasi harbiy rahbarlar, xususan, serjant mayor lar uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu nazariyalar rahbarlik uslublari, intizom va motivatsiya tamoyillarini harbiy sharoitlarga moslash imkonini beradi.

Harbiy intizom va yetakchilik tamoyillarini o‘rganishda K. Von Klauzevits (1832) ning "Urush haqida" asari ham diqqatga sazovordir. U urush strategiyasi va boshqaruv tamoyillari haqida fikr yuritib, harbiy rahbarning muhim xususiyatlarini belgilaydi. Zamonaviy harbiy boshqaruvda esa NATO va boshqa ilg‘or armiyalarning tajribalariga asoslangan ilmiy maqolalar va tadqiqotlar yetakchilik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar beradi.

Shuningdek, harbiy psixologiya va jamoani boshqarish bo‘yicha Zimbardo va Milgram (1974, 1995) tadqiqotlari harbiy jamoalarda intizom va yetakchilikning ruhiy omillari haqida qimmatli ma’lumot beradi. Zamonaviy harbiy boshqaruvda sun’iy intellekt va texnologiyalar rolining ortib borishi sababli, D. Kilcullen (2019) tomonidan taklif etilgan "Neyrotarmoq urushlari" konsepsiyasi harbiy boshqaruv va strategik yetakchilikka yangi yondashuvlarni taklif qiladi.

Yuqoridagi manbalar shuni ko‘rsatadiki, harbiy yetakchilik nafaqat amaliy tajribaga, balki ilmiy asoslangan tamoyillarga ham tayanishi lozim.

Ushbu maqolada nazariy va amaliy tahlil usullari qo‘llaniladi. Tadqiqotda quyidagi metodlar asosiy vosita sifatida tanlandi:

1. Tahlil va sintez – harbiy yetakchilik konsepsiyalari, strategik boshqaruv tamoyillari va serjant mayor lar rolini o‘rganish maqsadida ilmiy adabiyotlarni tizimli ravishda tahlil qilish.

2. Taqqoslash usuli – dunyo armiyalaridagi serjant mayor lavozimining vazifalari, intizom va rahbarlik usullarini tahlil qilish orqali milliy armiyadagi yondashuvlarni solishtirish.

3. Empirik tadqiqot usuli – harbiy yetakchilikni kuchaytirish bo‘yicha ilgari o‘tkazilgan amaliy tadqiqotlar va harbiy ta’lim tizimidagi tajribalarni o‘rganish.

4. Psixologik tahlil – serjant mayor larning jamoaga ta’siri, ularning shaxsiy fazilatlari va harbiy xizmatchilar motivatsiyasini o‘rganish.

5. Strukturaviy-funktsional yondashuv – harbiy tizimdagi serjant mayor lavozimining tarkibiy o‘rni va funksional vazifalarini ilmiy asosda tadqiq qilish.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, serjant mayor lavozimi harbiy bo‘linmalardagi intizom, jamoaviy birdamlik va samarali boshqaruv tizimini ta’minlashda muhim strategik ahamiyatga ega. Serjant mayor larning yetakchilik fazilatlari va harbiy boshqaruvdagi roli quyidagi asosiy jihatlar orqali namoyon bo‘ladi:

– Serjant mayorlar harbiy bo‘linmalarning intizomini mustahkamlashda muhim o‘rin egallaydi. Ular askarlarning tayyorgarligi, ruhiy va jismoniy holati hamda harbiy intizomga rioya qilishi ustidan nazorat olib boradi.

– Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kuchli yetakchilik fazilatlariga ega serjant mayor lar joylarda ofitserlar bilan hamkorlikda harbiy bo‘linmalarning samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shadi.

– Serjant mayorlar yosh askarlarning xizmatga moslashish jarayonida ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va ruhiy barqarorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.
– Harbiy psixologiya nuqtayi nazaridan olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tajribali serjant mayor lar shaxsiy tarkibni motivatsiya qilish va stressni boshqarishda samarali yondashuvlarga ega bo‘lishi lozim.

– Serjant mayorlar harbiy bo‘linmalarda ofitserlar va askarlar o‘rtasida vositachi sifatida faoliyat yuritib, tezkor qaror qabul qilish va operativ boshqaruv tizimini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi

– Harbiy boshqaruv tizimidagi vaziyatga mos yetakchilik tamoyiliga ko‘ra, serjant mayor larning muayyan harbiy sharoitga tez moslashishi va askarlarga yetakchilik qilishi katta strategik ahamiyatga ega.

– Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zamonaviy harbiy innovatsiyalar, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning harbiy boshqaruvga joriy etilishi natijasida serjant mayor lar o‘z rahbarlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezmoqda.

– Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy armiyalardagi serjant mayor larning texnologik tayyorgarligi ularning yetakchilik sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

– Harbiy boshqaruv samaradorligini oshirish uchun serjant mayor larning rahbarlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

– Harbiy bo‘linmalarda psixologik tayyorgarlik va motivatsiya metodikalarini kuchaytirish serjant mayor larning samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi.

– Texnologiyalarni boshqarish bo‘yicha maxsus kurslar joriy etish orqali serjant mayor larning zamonaviy harbiy boshqaruv tizimiga integratsiyasini oshirish mumkin.


Muhokama.

Maqola natijalari shuni ko‘rsatdiki, **serjant mayor lavozimi** harbiy tizimda nafaqat askarlar intizomi va boshqaruv samaradorligini ta’minlovchi bo‘g‘in, balki psixologik va strategik jihatdan muhim yetakchilik instituti sifatida ham alohida o‘rin tutadi. Ushbu bo‘limda tadqiqot natijalari ilgari olib borilgan ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalar bilan taqqoslanadi hamda ularning ahamiyati chuqurroq muhokama qilinadi.

Serjant mayor lavozimining asosiy funksiyalari 1-jadval

Funksiya	Tavsif
Yetakchilik va boshqaruv	Askarlar orasida intizom va harbiy qoidalar ijrosini ta’minlash, jamoaviy ruhni shakllantirish.
Harbiy tayyorgarlik	Jismoniy, psixologik va harbiy-taktik mashg’ulotlarni tashkil etish va nazorat qilish.
Psixologik va axloqiy ko’mak	Askarlarning ruhiy barqarorligini saqlash, motivatsiyani oshirish.
Tezkor qaror qabul qilish	Harbiy vaziyatda to‘g‘ri va tezkor strategik qarorlar qabul qilish.
Harbiy texnologiyalarni o’zlashtirish	Zamonaviy qurol-aslahalar, aloqa va boshqaruv texnologiyalarini samarali qo’llash.

Harbiy yetakchilik modelining asosiy tarkibiy qismlari (Diagramma)



Harbiy boshqaruvda **yetakchilik strategiyalari** muhim o‘rin tutadi. Xorijiy armiyalardagi tajribalar, jumladan, **NATO** va **AQSh Qurolli Kuchlari** tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, harbiy intizom va bo‘linmalarning samarali ishlashi uchun o‘rta bo‘g‘in rahbarlarining tayyorgarligi va yetakchilik qobiliyatlari katta ahamiyatga ega.

Xususan, **J. Maxwell** va **Hersey & Blanchard** ning yetakchilik nazariyalari shuni ta'kidlaydiki, samarali rahbar shaxsiy tarkibning motivatsiyasini oshirish va harbiy xizmatni yuqori darajada tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ushbu tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, **serjant mayor larning vaziyatga mos yetakchilik tamoyillarini qo'llashi** harbiy bo'linmalardagi operatsion boshqaruvni yanada samarali qiladi. Tadqiqot davomida olingan natijalarga ko'ra, yetakchilik sifatlari rivojlangan serjant mayor lar jamoaviy birdamlikni shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

Harbiy xizmat sharoitida psixologik barqarorlik muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, **tajribali serjant mayor lar yosh askarlarning harbiy hayotga moslashish jarayonida psixologik ko'mak berishda muhim rol o'ynaydi**. Milgram va Zimbardo kabi olimlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, jamoaviy ruh va rahbarlikning ta'siri individual xatti-harakatlarga bevosita ta'sir qiladi.

Tahlillarga ko'ra, **psixologik bosim va stressga qarshi kurashish metodlari** bo'yicha serjant mayor lar maxsus tayyorgarlikdan o'tishi zarur. Chunki ular nafaqat intizomni ta'minlovchi rahbar, balki askarlar ruhiyati bilan ishlovchi mentor vazifasini ham bajaradi. Shu sababli, **harbiy bo'linmalarda psixologik tayyorgarlik dasturlarining takomillashtirilishi** serjant mayor larning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, **zamonaviy harbiy texnologiyalar harbiy boshqaruvda yangi yetakchilik yondashuvlarini talab qilmoqda**. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va axborot texnologiyalarining rivojlanishi harbiy rahbarlardan yangicha bilim va ko'nikmalarni talab qilmoqda. Masalan, **D. Kilcullen** tomonidan ilgari surilgan **"Neyrotarmoq urushlari"** konsepsiyasiga ko'ra, zamonaviy harbiy operatsiyalarda yetakchilik faqatgina an'anaviy harbiy boshqaruv bilan cheklanmaydi, balki axborot tahlili va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, **harbiy bo'linmalarda serjant mayor larning texnologik savodxonligini oshirish** zamonaviy urush sharoitlariga moslashish va harbiy boshqaruv samaradorligini oshirish uchun zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, harbiy ta'lim tizimida **zamonaviy texnologiyalar bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish** serjant mayor larning yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Harbiy boshqaruvda **tezkor va aniq qaror qabul qilish** serjant mayor larning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, samarali qaror qabul qilish yetakchilik fazilatlariga, tajribaga va mavjud strategik resurslarni to'g'ri taqsimlashga bog'liq. Harbiy amaliyotlarda **"Buyruq va nazorat" tizimi** bilan

birga, zamonaviy "Delegatsion yetakchilik" tamoyillari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Taqqosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, **xorijiy armiyalarda serjant mayor lar strategik boshqaruvning muhim qismi sifatida qaralib, ularga keng vakolatlar beriladi**, bu esa ularning harbiy bo‘linmalar samaradorligiga ta’sirini yanada oshiradi. Tadqiqot davomida, mahalliy harbiy tizimda ham serjant mayor larning strategik qaror qabul qilish vakolatlarini oshirish muhimligi aniqlandi.

Muhokama natijalariga ko‘ra, **harbiy yetakchilikni rivojlantirish, serjant mayor larning psixologik tayyorgarligi va texnologik bilimlarini oshirish** harbiy boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot serjant mayorlavozimining harbiy boshqaruv tizimidagi strategik ahamiyatini, uning yetakchilik tamoyillariga asoslangan vazifalari va zamonaviy harbiy sharoitdagi o‘rnini ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganishga bag‘ishlandi. Olib borilgan tahlillar natijasida serjant mayor lar harbiy bo‘linmalarning samarali faoliyat yuritishida intizomni ta’minlash, jamoani ruhiy va jismoniy tayyorgarlikka yo‘naltirish, tezkor qaror qabul qilish hamda zamonaviy harbiy texnologiyalarni boshqarish kabi muhim funksiyalarni bajarishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, serjant mayor larning yetakchilik qobiliyatlari ularning psixologik tayyorgarligi, strategik fikrlash qobiliyati va zamonaviy harbiy innovatsiyalarga moslashuvchanligi bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, xorijiy armiyalar tajribasi shuni tasdiqlaydiki, samarali harbiy boshqaruv uchun serjant mayor larning motivatsion yetakchilik, tezkor harbiy qaror qabul qilish va operativ boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, harbiy tizimda serjant mayor larning strategik rolini mustahkamlash va ularning yetakchilik ko‘nikmalarini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda islohotlar zarur:

1. Harbiy yetakchilik bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlarini ishlab chiqish – yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish.

2. Psixologik tayyorgarlik va motivatsiya tizimini takomillashtirish – harbiy xizmat davomida stressni boshqarish, jamoaviy birdamlik va ijobiy rahbarlik usullarini targ‘ib qilish.

3. Texnologik innovatsiyalarni harbiy boshqaruvga integratsiya qilish – sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha serjant mayor larning bilim va ko‘nikmalarini oshirish.

4. Serjant mayorlarning strategik qaror qabul qilish jarayonidagi rolini kengaytirish – ularning harbiy operatsiyalardagi yetakchilik vakolatlarini oshirish va tezkor boshqaruvga jalb qilish.

Umuman olganda, serjant mayor larning harbiy boshqaruvdagi o‘rnini mustahkamlash va ularning zamonaviy harbiy muhitga moslashuvchanligini oshirish milliy xavfsizlikni ta’minlash va harbiy tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari harbiy ta’lim tizimi va amaliy boshqaruvda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilmiy va amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»giFarmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi 458-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida»gi Qonuni.

4. Atayeva N., Rasulova F., Soliyeva M., Xasanov S., Umumiy pedagogika // Toshkent – 2012- B.196.

5. Boreham, N. and M. Fischer (2009). The Mutual Shaping of Work, Vocational Competence and Work-Process Knowledge. R. Maclean and D. Wilson (Eds.), International Handbook of Education for the Changing World of Work. Dordrecht: Springer,- P. 1593-1609.

6. Brinkman, B., Westendorp, A.M.B., Wals, A.E.J. and Mulder, M. (2007). Competencies for Rural Development Professionals in the Era of HIV/AIDS. Compare: A journal of comparative education, 37, 4,- P. 493–511.

7. Development and implementing local educational standards / Ed.by Meyers R.ERIC–Clearing House on Assessment and Evaluation,1998.–P.15.

8. Intercultural and digital competence in teacher training from an international perspective: Poland, Portugal, Slovakia, Spain and Russia / P. Yesteban [yet al.] // RELATEC-Revista Latinoamericana de TecnologíaYeducativa. 2015. No. 14 (1). P. 145–157. URL: http://relatec.unex.yes/article/view-File/1855/1199

9. Maxwell, J. C. (2013). *The 21 Irrefutable Laws of Leadership: Follow Them and People Will Follow You.* HarperCollins Leadership.

10. Hersey, P., & Blanchard, K. H. (1996). *Management of Organizational Behavior: Utilizing Human Resources.* Prentice Hall.

11. Kilcullen, D. (2015). *Out of the Mountains: The Coming Age of the Urban Guerrilla*. Oxford University Press.

12. Milgram, S. (1974). *Obedience to Authority: An Experimental View*. Harper & Row.

HARBIY XIZMATCHILARDA MILLIY VA JANGOVOR RUHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Karimjanova Y. U., Shoyusufova M. K.
Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda milliy va jangovor ruhni shakllantirishning psixologik asoslari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etamiz. Milliy va jangovor ruh — bu harbiy xizmatchilarning Vatanga sadoqatli bo'lishi, xizmat burchini yuksak darajada bajarishga intilishi, qat'iyat, iroda va ijtimoiy mas'uliyat kabi shaxsiy sifatlarning uyg'unligi sifatida talqin qilinadi. Maqolada ushbu ruhiy holatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar — ijtimoiy-psixologik muhit, tarbiyaviy ta'sirlar, ichki va tashqi motivatsiya, jamoaviy birdamlik hamda emotsional barqarorlikning roli ochib berildi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va psixologik treninglarning harbiy shaxslar ongida ijobiy ruhiy kayfiyatni shakllantirishdagi o'rni asoslab o'tildi. Maqola so'ngida milliy armiyada ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikni kuchaytirish bo'yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *harbiy xizmatchi, milliy ruh, jangovor ruh, psixologik asoslar, motivatsiya, irodaviy sifatlar, emotsional barqarorlik, ijtimoiy identifikatsiya, vatanparvarlik tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, jamoaviy birdamlik, sadoqat, harbiy psixologiya, stressga chidamlilik.*

Аннотация: *В статье представлены сведения о психологических основах формирования национального и боевого духа военнослужащих. Национальный и боевой дух трактуется как совокупность личностных качеств военнослужащих, таких как преданность Родине, стремление к высокому уровню выполнения своего долга, целеустремленность, воля и социальная ответственность. В статье раскрываются факторы, влияющие на развитие этих психических состояний – социально-психологическая среда, воспитательные воздействия, внутренняя и внешняя мотивация, коллективная солидарность и роль эмоциональной устойчивости. Обосновывается роль национальных ценностей, исторической памяти и психологической подготовки в формировании позитивного ментального настроя военнослужащих. В заключение статьи разработаны психологические рекомендации по усилению духовно-нравственной подготовки в национальной армии.*

Ключевые слова: *военнослужащий, национальный дух, боевой дух, психологические основы, мотивация, сила воли, эмоциональная устойчивость, социальная идентификация, патриотическое воспитание, духовно-*

нравственная подготовка, психологическая подготовка, коллективная солидарность, лояльность, военная психология, стрессоустойчивость.

Abstract: *This article presents information on the psychological foundations of the formation of national and fighting spirit in military personnel. National and fighting spirit is interpreted as a combination of personal qualities of military personnel, such as loyalty to the Motherland, desire to fulfill their duty at a high level, determination, will and social responsibility. The article reveals the factors influencing the development of these mental states - the socio-psychological environment, educational influences, internal and external motivation, collective solidarity and the role of emotional stability. It also substantiates the role of national values, historical memory and psychological training in the formation of a positive mental attitude in the minds of military personnel. At the end of the article, psychological recommendations were developed to strengthen spiritual and moral training in the national army.*

Keywords: *military serviceman, national spirit, fighting spirit, psychological foundations, motivation, willpower, emotional stability, social identification, patriotic education, spiritual and moral preparation, psychological preparation, collective solidarity, loyalty, military psychology, stress resistance.*

Har qanday davlatning mudofaa qudrati nafaqat texnik jihozlar yoki qurollar bilan belgilanadi, balki harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligi, vatanparvarligi va jangovor ruhiga ham bog‘liq. Harbiy xizmatchilarning ma’naviy va jangovor ruhi bevosita ularning shaxsiy motivatsiyasi, irodasi, vatan oldidagi burchi va mas’uliyatini anglash bilan chambarchas bog‘liq. Bu kabi jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi psixologiya bilan uzviy bog‘liqdir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ham aynan “Qurolli Kuchlarimiz kuchi — jangovar qudratda emas, balki yuksak ruhda”, - deb e’tirof etganlar.

Bugungi kunda notinch geosiyosiy vaziyatlar, turli qurolli to‘qnashuvlar, terrorizm va ekstromizm kabi xavf-xatarlar har bir davlatni ziyraklikka mustahkam va ishonchli harbiy salohiyatga ega bo‘lishga undamoqda. Shu bir qatorda harbiylarga faqatgina texnik bilimlar emas, balki ularning ruhiy-psixologik tayyorgarligini ham talab etmoqda. Milliy va jangovor ruhni shakllantirish harbiy psixologiyaning asosiy tadqiqot obekti bo‘lib, bu ruhiy holatlarning shakllanish mexanizmlari, tashqi va ichki motivatsiya, stressga qarshi kurashish usullari ilmiy tahlilni talab qiladi. Harbiy xizmatchilarda psixologik bilimlarni shakllanishi xavfli vaziyatlarda, ekstremal holatlarda o‘zini boshqara olish, muhim qarolar qabul qilish jarayonida ikkilanishlarga uchramaslik, stress, qo‘rquv, vahima kabi holatlarga duch kelmaslikka sabab bo‘ladi. Bundan tashqari harbiylarda ruhiy-ma’naviy tayyorgarlik guruhdagi, komandadagi intizom, fidoyilik, bardoshlilik darajasi yuqori bo‘ladi va ishning samarisi ham ortadi.

Harbiy xizmatchilarda milliy va jangovor ruhni shakllantirish – bu murakkab, ko‘p qirrali psixologik va pedagogik jarayondir. Milliy ruh – bu shaxsning o‘z xalqiga, millatiga, tarixiga va madaniyatiga sadoqatli bo‘lishi, o‘zini shu millatning ajralmas bir qismi deb his etishidir. Bu ruhiy holat harbiy xizmatchining axloqiy mezonlarini, ma’naviy qadriyatlarini va qaror qabul qilishdagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi.

Jangovor ruh esa harbiy shaxsning jangovar vazifalarni bajarishga psixologik tayyorgarligi, vatanparvarlik motivatsiyasi, irodaviy sifatlari, dushmanga qarshi qat’iy harakat qilishga bo‘lgan ichki tayyorligi bilan bog‘liqdir. Harbiy shaxsda jangovor ruhning yuqori darajada bo‘lishi, uning professional kompetensiyalaridan tashqari, ruhiy barqarorlik, stressga bardoshlilik va jamoaviy birdamlikka ham asoslanadi.

Harbiy xizmatchilarda milliy va jangovor ruhni shakllantirish – bu murakkab, ko‘p qirrali psixologik va pedagogik jarayondir. Milliy ruh – bu shaxsning o‘z xalqiga, millatiga, tarixiga va madaniyatiga sadoqatli bo‘lishi, o‘zini shu millatning ajralmas bir qismi deb his etishidir. Bu ruhiy holat harbiy xizmatchining axloqiy mezonlarini, ma’naviy qadriyatlarini va qaror qabul qilishdagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi. Jangovor ruh esa harbiy shaxsning jangovar vazifalarni bajarishga psixologik tayyorgarligi, vatanparvarlik motivatsiyasi, irodaviy sifatlari, dushmanga qarshi qat’iy harakat qilishga bo‘lgan ichki tayyorligi bilan bog‘liqdir.

Harbiy shaxsda jangovor ruhning yuqori darajada bo‘lishi, uning professional kompetensiyalaridan tashqari, ruhiy barqarorlik, stressga bardoshlilik va jamoaviy birdamlikka ham asoslanadi. Milliy va jangovor ruh harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli ishlashi va psixologik barqarorligini ta’minlovchi muhim psixik determinantlar qatoriga kiradi. Bu tushunchalar individual psixologik xususiyatlar, ijtimoiy-psixologik omillar, shuningdek, madaniy-ma’naviy komponentlarning o‘zaro murakkab integratsiyasi orqali shakllanadi va mustahkamlanadi.

Shaxsning harbiy-vatanparvarlik faoliyatidagi ishtirokini shunchaki institutsional majburiyat emas, balki ijtimoiy-psixologik va axloqiy-ruhiy zarurat sifatida qarash — zamonaviy harbiy psixologiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Milliy va jangovor ruhni shakllantirishda shaxsning kognitiv (bilish) tizimi asosiy o‘rin tutadi. Harbiy xizmatchi o‘zining milliy identifikatsiyasini anglash jarayonida tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va vatan oldidagi burch haqida ma’lumotlarni kognitiv jihatdan qabul qiladi, tahlil etadi va ularni ichki e’tiqodga aylantiradi. Bu esa o‘z navbatida ijobiy emotsional fon yaratadi va ichki motivatsiyani rag‘batlantiradi. Motivatsion tizim jihatidan qaralganda, harbiy xizmatchining vatanparvarlik motivi — bu nafaqat shaxsiy ehtiyoj va manfaatlarga asoslangan tashqi rag‘batlar natijasi, balki ijtimoiy ideal va axloqiy tamoyillar bilan uyg‘unlashgan ichki ehtiyojlar mahsulidir.

Yuqori motivatsion fon shaxsning jangovar vaziyatlardagi qat'iyatini, tashabbuskorligini va psixologik barqarorligini belgilaydi.

Harbiy jamoa — bu o'ziga xos ijtimoiy muhit bo'lib, unda har bir a'zo o'zining ijtimoiy rolini bajaradi va guruh ichidagi norma va qadriyatlarga moslashadi. Mazkur guruh ichki iqlimi, jamoaviy birdamlik darajasi, liderlik tizimi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali harbiy xizmatchining milliy va jangovor ruhini shakllantiradi. Guruhiy identifikatsiya jarayonida shaxs o'zini jamoaning ajralmas bo'lagi sifatida idrok etadi, bu esa uni yuqori darajadagi ijtimoiy mas'uliyat va vatanparvarlik faoliyatiga yo'naltiradi. Qahramonlik idealining psixologik funksiyasi shundaki, u harbiy xizmatchida shaxsiy maqsad va harakatlarining oliy ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini anglashga yordam beradi. Bu idealga ergashish, shaxsda "men kimman?", "men nima uchun kurashaman?" degan savollarga aniq javob topish imkonini beradi. Bu esa shaxsning psixologik barqarorligi, irodaviy kuchi va jangovar motivatsiyasini yuqori darajada saqlab turadi.

Harbiy xizmatchilarda milliy va jangovor ruhni shakllantirish va rivojlantirish masalasi ko'plab psixolog, pedagog va harbiy sotsiologlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar psixologik tayyorgarlik, motivatsion omillar, ijtimoiy-guruhiy jarayonlar hamda madaniy-identifikatsion komponentlar asosida olib borilgan. Mamlakatimizning psixolog tadqiqotchisi I. Ibragimov 2020 yili aynan harbiy xizmatchilardagi ruhiy holatlari, ularning ijtimoiy-psixologik portretini tahlil qilgan. Tadqiqotda harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik ongini rivojlantirishda milliy qadriyatlarning o'rni o'rganilgan. Muallif ijtimoiy-psixologik portret tuzish orqali shaxsiy va guruhiy motivlarning ruhiy tayyorgarlikka ta'sirini tahlil qiladi. Natijalarga ko'ra, milliy g'oya asosida olib borilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar jangovar ruhni oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarga to'xtaladigan bo'lsak, tadqiqotchi olim A.Banduraning (1977) "Self-Efficacy" nazariyasiga ko'ra, o'ziga bo'lgan ishonch (self-efficacy) darajasi shaxsning tashabbuskorligi, qat'iyati va stressga bardoshliligini belgilaydi. Bu nazariya harbiy kontekstda — ayniqsa jangovar vaziyatlardagi ruhiy chidamlilikni tushuntirishda qo'llaniladi. Buntash tashqari yana bir qator o'tkazilgan tadqiqotlar quyidagi natijalarni asosli deb hisoblagan. Bular, milliy ong va shaxsiy identitet darajasi yuqori bo'lgan harbiy xizmatchilar jangovar vazifalarni bajarishda ko'proq motivatsiyaga ega bo'ladilar. Ijtimoiy-guruhiy qo'llab-quvvatlash, liderlik sifati va harbiy jamoaning psixologik iqlimi jangovar ruhning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Stressga bardoshlilik va o'ziga bo'lgan ishonch (self-efficacy) jangovar ruhning markaziy psixologik komponentlaridan hisoblanadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tarixiy qahramonlik namunalarini o'rganish, milliy qadriyatlarni singdirish orqali harbiy xizmatchining ruhiy motivatsiyasini oshirish mumkin.

Tavsiya o‘rnida shu aytish lozimki, harbiy xizmatchilarning milliy va jangovor ruhini rivojlantirishda zamonaviy psixologik treninglar va stressga chidamlilik mashg‘ulotlarini tizimli joriy etish zarur. Bunda individual psixodiagnostika natijalariga asoslanib, shaxsiy ehtiyoj va xususiyatlarga moslashtirilgan psixologik yordam ko‘rsatish samaradorligini oshirish mumkin. Milliy qadriyatlar va tarixiy qahramonlik namunalarini targ‘ib qilish orqali harbiy xizmatchilarda milliy ong va vatanparvarlik ruhini mustahkamlash muhimdir. Harbiy jamoalarda ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirish, liderlik kompetensiyalarini oshirish va guruh a’zolari o‘rtasida samarali kommunikatsiyani rivojlantirish lozim. Harbiy psixologlar va rahbarlar uchun milliy va jangovor ruhni rivojlantirish bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish, yangi psixologik metod va texnologiyalarni joriy etish tavsiya etiladi. Bu professional xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilarda milliy va jangovor ruhni rivojlantirish — bu murakkab psixologik va ijtimoiy jarayon bo‘lib, shaxsning kognitiv, emotsional, motivatsion va ijtimoiy komponentlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy ruhiyat va jangovar motivatsiya harbiy xizmatchining professional faoliyatidagi psixologik barqarorlik, xizmatga sadoqat va samaradorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Milliy identitetni mustahkamlash va vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish ijtimoiy-guruhiy muhit, liderlik tizimi va ma’naviy-ma’rifiy ishlar orqali samarali amalga oshiriladi. Jangovar ruhni shakllantirishda esa stressga chidamlilik, o‘ziga bo‘lgan ishonch va irodaviy mustahkamlik asosiy psixologik shartlar hisoblanadi. Shu bilan birga, harbiy jamoaning psixologik iqlimi va rahbarlarning psixologik yetakchilik qobiliyatlari jangovar motivatsiyaning oshishida muhim rol o‘ynaydi. Bu esa o‘z navbatida harbiy xizmatchilarning murakkab va xavfli sharoitlarda samarali harakat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Umuman olganda, milliy va jangovor ruhni rivojlantirish bo‘yicha integrativ psixologik yondashuvlar joriy etilishi, psixologik tayyorgarlik mashg‘ulotlarining takomillashtirilishi va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning innovatsion usullar bilan boyitilishi harbiy xizmat sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 5-martdagi nutqida ta’kidlanganidek, “Milliy ruh kuchli bo‘lsa, iroda, jangovar salohiyat ham yuqori bo‘ladi” (Prezident.uz, 2023).

2. Bandura, A. (1977). *Self-Efficacy: Toward a Unifying Theory of Behavioral Change*. Psychological Review, 84(2), 191–215.

3. Grossman, D. (1996). *On Killing: The Psychological Cost of Learning to Kill in War and Society*. Little, Brown and Company.

4. Ibragimov, I.X. (2020). *Harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.

5. Jo‘rayev, O.T. (2018). *Harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi va stressga bardoshliligi*. Harbiy Psixologiya Jurnali, 12(3), 45-59.

6. Karimov, Sh. (2021). *Milliy identitet va jangovar ruh: Empirik tadqiqot*. Toshkent Harbiy Akademiyasi Ilmiy Axboroti, 9(2), 112-127.

7. Russian Military Psychology Institute. (2019). *Jangovar ruh va psixologik tayyorgarlik masalalari*. Moskva: Harbiy Nashriyot.

8. Zimbardo, P.G., & Boyd, J.N. (2008). *The Time Paradox: The New Psychology of Time That Will Change Your Life*. Free Press.

9. Shirinov, A.R. (2017). *Harbiy xizmatchilarda psixologik barqarorlik va motivatsiya*. Toshkent: Harbiy Akademiya Nashriyoti.

10. Karimov, B. (2019). *Harbiy jamoaning psixologik iqlimi va uning jangovar samaradorlikka ta’siri*. Harbiy Psixologiya Tadqiqotlari, 7(1), 33-48.

11. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi. (2022). *Harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlash bo‘yicha qo‘llanma*. Toshkent.

BO‘LAJAK KADRLARNING KASBIY SIFATLARI VA ULARNING PSIXOLOGIK BOSHQARUVCHANLIGNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Miryusupov M.M.
O‘R Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi

Annotatsiya: *Maqolada harbiy xizmatchilarning kasbiy sifatlarining o‘ziga xos boshqaruvchanliklari ko‘rib chiqiladi. Harbiy xizmatning qattiq talablari, intizom va doimiy stress sharoitida harbiy xizmatchilarda paydo bo‘ladigan psixologik, ijtimoiy va kasbiy kamchiliklar tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, bu kamchiliklarni bartaraf etish va harbiy xizmatchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy xizmatchilar, kasbiy kamchiliklar, psixologik stress, intizom, ijodiy yondashuv, rahbarlik qobiliyati, muloqot muammolari, kasbiy rivojlanish.*

Аннотация: *В статье рассматриваются специфические профессиональные недостатки военнослужащих. Анализируются психологические, социальные и профессиональные проблемы, возникающие у военнослужащих в условиях строгой дисциплины, постоянного стресса и высоких требований военной службы. В статье также предлагаются рекомендации по устранению этих недостатков и поддержке профессионального развития военнослужащих.*

Ключевые слова: *военнослужащие, профессиональные недостатки, психологический стресс, дисциплина, творческий подход, лидерские качества, проблемы коммуникации, профессиональное развитие.*

Harbiy xizmat – bu nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham qattiq talablarga ega bo‘lgan soha. Harbiy xizmatchilar jamiyatning xavfsizligi va tinchligini ta’minlash uchun o‘z hayotlarini xavf ostiga qo‘yishga tayyor bo‘lishlari kerak. Biroq, harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlari, qattiq intizom va doimiy stress ularning kasbiy sifatlarida ma’lum kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Harbiy xizmatchilar jamiyatning xavfsizligi va tinchligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular qat’iy intizom, yuqori mas’uliyat va fidoyilikni talab qiladigan sharoitda ishlaydi. Biroq, harbiy xizmatning o‘ziga xos talablari va sharoitlari tufayli harbiy xizmatchilarda ma’lum kasbiy kamchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Bu kamchiliklar ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, jamoaviy ish va rahbarlik qobiliyatlarini ham pasaytirishi mumkin. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning kasbiy sifatlarining o‘ziga xos kamchiliklari, ularning sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Ma’lumki, harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatning samaradorligining asosiy shartlaridan biri kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda uning ruhiyati va jismoniy sog‘ligi hamda holati, undagi mavjud sifatlarning bajarayotgan faoliyati talablariga mosligi darajasi tushuniladi. Mashxur rus psixologi K.K.Platonov harbiy xizmatchining kasbiy tayyorligi bu o‘zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko‘rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub’ektiv holatidir - deb ta’kidlaydi. Harbiy xizmatchilarda kasbiy tayyorligi murakkab ko‘p darajali va ko‘rinishli tizimli psixik shaklga ega bo‘lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko‘rinishi asosiy o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilardan kerakli darajada jismoniy sog‘likni kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi.[1] Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko‘zda tutadi. Harbiy xizmatchilarda kasbiy tayyorgarligida ikkita o‘zaro bogliq bo‘lgan tomonlarni ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Bu o‘zaro bog‘liqliq tomonlar psixologlar M.I.Dyachenko va A.M.Stolyarenkolar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

1. Shaxsning kasbiy faoliyatga salohiyatli tayyorligi - harbiy xizmatchining bu tayyorligi quyidagilardan iborat bo‘ladi: kasbiy faoliyatning psixik asoslari, bilim, ko‘nikma, malakalar kasb uchun muxim hisoblangan, shaxsning sifatlari uning munosabati, mazmun va qadriyatlari, afzalliklari hamda umuman shaxsning zarur bo‘lgan kasbiy imkoniyatlari darajasi;

2. Shaxsning kasbiy faoliyatga bevosita ayni vaqtdagi tayyorligi. Harbiy xizmatchining kasbiy tayyorligining ushbu tomoni tezkorligi, o‘zgaruvchanligi, har qanday xolat va sharoitda aniq masalalarni echish, harbiy xizmatchining ruhiy va jismoniy holati, jamoadagi ma’naviy psixologik muhitga bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Harbiy xizmatchining bevosita psixologik tayyorgarligi dastlabki tayyorgarlikni faollashtirish natijasi sifatida ishtirok etadi. Harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi bevosita ayni vaqtdagi tayyorligining asosi hisoblanadi.

Ko‘rinib turibdiki, harbiy xizmatchining kasbiy tayyorligi unda kasbiy bilimdonlikni kerakli darajasini kasbiy mahoratini hamda o‘zini boshqarish, o‘zini kerakli faoliyatga yo‘naltirishga, imkoniyatlarini xal etishga yo‘naltira bilish qobiliyati mavjudligini nazarda tutadi. Harbiy xizmatchining kasbiy tayyorligining asosiy va eng murakkab tomoni (psixologik tomoni) - Harbiy xizmatchi ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Bu Harbiy xizmatchi psixikasi ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarni xal etishga o‘zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo‘nalganligi darajasidir.[2]

Harbiy xizmatchi ruhiyatining kasbiy tayyorligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: - yo‘naltiruvchi intellektual bilish. Bu tarkibiy qismi harbiy xizmatchi shaxsining bilish soxasini o‘z ichiga oladi: kasbiy idrokini, fikrlashi, tasavvur, xotirasi, diqqatini va ular birgalikda harbiy xizmatchi shaxsning kasbga intellektual tayyorligini tashkil etadi. Harbiy xizmatchining motivatsion tayyorligining asoslari o‘z kasbi harbiy xizmatchiligini tushuna olishi, o‘zida pozitiv munosabatni tarkib toptira olishi, o‘zini baholay olishi, bilish faoliyatiga qiziqishlari hisoblanadi.

Harbiy xizmatchining kasbiy tayyorgarligi yadrosini shaxsning kasbiy yo‘nalganligi va kasbiy mahorati tashkil etadi. Hozirgi zamon harbiy xizmatchisining kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik harbiy xizmatchida odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali o‘zaro yaqin aloqalar, xodimlar va rahbarlar bilan amaliy va shaxsiy o‘zaro munosabatlarga tayyorligi va bunday o‘zaro munosabatlarni o‘rnata olishga va rivojlantirishga qodirligini ko‘zda tutadi. Shaxsning kommunikativ tayyorligi faqatgina odamning nutqiy madaniyati yetarlicha darajada rivojlanganligida u so‘z va tildan to‘g‘ri foydalanishni bilganidagina mavjud bo‘ladi. Shaxsning nutq madaniyati uning fikrlash madaniyati rivojlaganligining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun harbiy xizmatchining shaxsiy va kasbiy kamol topishini muhim shartlaridan biri uning kasbiy nutqiy madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi.

1. Psixologik bosim va stress

Harbiy xizmatchilar doimiy ravishda yuqori stress sharoitida ishlaydi. Jangovar vaziyatlar, xavfli missiyalar va hayotiy xavflar ularning psixologik holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa quyidagi kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Qaror qabul qilishda sustlik. Doimiy stress va charchoq qarorlar tezligi va sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun, harbiy xizmatchilar xavfli vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilishlari kerak, lekin stress ularning fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Bu esa noto‘g‘ri qarorlarga olib kelishi mumkin.

- Psixologik qattiqlik. Harbiy xizmatchilar hissiy jihatdan yopishib qolishi va shaxsiy munosabatlarda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ular o‘z hissiyotlarini ifodalashda qiynalishlari yoki ularni butunlay yashirishlari mumkin. Bu esa oilaviy munosabatlarda muammolarga olib kelishi mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko‘rsatish, stressni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazish va ularning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash kerak.

2. Intizom va itoatkorlikning haddan tashqari ustuvorligi

Harbiy xizmatda intizom va buyruqlarga bo‘ysunish asosiy talablardan biridir. Biroq, bu quyidagi kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Ijodiy yondashuvning yo‘qolishi. Harbiy xizmatchilar ko‘pincha standart yechimlarga tayanishadi va yangi g‘oyalarni qo‘llashda qiynalishadi. Bu esa yangi vaziyatlarga moslashishda muammolarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, harbiy xizmatchilar an’anaviy usullardan tashqarida yechim topishda qiynalishlari mumkin.[3]

- Shaxsiy fikrni bildirishdan qo‘rqish. Buyruqlarga bo‘ysunish zarurati tufayli harbiy xizmatchilar o‘z fikrlarini ochiq bildirishdan qochishi mumkin. Bu esa jamoada muloqotning zaiflashuviga olib kelishi mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarni ijodiy fikrlashga va yangi yechimlarni qidirishga undash, shuningdek, ularga o‘z fikrlarini erkin bildirish imkoniyatini berish kerak.

3. Kommunikatsiya va jamoada ishlash muammolari

Harbiy xizmatda jamoa ishi muhim rol o‘ynaydi. Biroq, quyidagi kamchiliklar kuzatilishi mumkin:

- Rahbarlik qobiliyatining yetishmasligi. Ba’zi harbiy xizmatchilar guruhni boshqarishda qiynalishadi, chunki ular asosan buyruqlarga amal qilishga o‘rgatilgan. Bu esa ularning rahbarlik qobiliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

- Fuqarolik hayotida muloqot qilish qiyinligi. Harbiy muhitda ishlash odatlaridan tashqarida muloqot qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, harbiy xizmatchilar fuqarolik hayotida odamlar bilan muloqot qilishda qiynalishlari mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarga rahbarlik va muloqot qobiliyatlarini oshirish bo‘yicha treninglar o‘tkazish kerak.

4. Fizik va psixologik charchoq

Harbiy xizmatchilar ko‘pincha qattiq jismoniy mashqlar va uzoq muddatli missiyalarda qatnashadi. Bu esa quyidagi kamchiliklarga olib kelishi mumkin:

- Charchoq va energiya yetishmasligi. Doimiy jismoniy zo‘riqish tufayli harbiy xizmatchilar ishda samaradorlikni yo‘qotishi mumkin. Bu esa ularning kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

- Uyqu muammolari. Stress va jismoniy zo‘riqish uyquning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa ularning sog‘lig‘iga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarga muntazam dam olish vaqti berish, shuningdek, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash kerak.

5. Kasbiy rivojlanishning cheklanganligi

Harbiy xizmatda ko‘pincha aniq ko‘rsatmalar va standartlar mavjud bo‘lgani uchun harbiy xizmatchilarning kasbiy rivojlanishi cheklanishi mumkin:

- Yangiliklarga moslashish qiyinligi. Harbiy xizmatchilar yangi texnologiyalar yoki usullarni o‘rganishda qiynalishlari mumkin. Bu esa ularning kasbiy rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

- Kasbiy ko‘nikmalarning tor doirada rivojlanishi. Harbiy xizmatning o‘ziga xos talablari tufayli harbiy xizmatchilar boshqa sohalarda ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarga yangi ko‘nikmalar o‘rganish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish kerak.[4]

Kasbiy motiv va motivatsiya

Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtai nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda bo‘ziga xos psixologik maktablar vujudga kelgan bo‘lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va kontseptsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g‘oyalar va yo‘nalishlar mujassamlashdi. Hozir ularning ayrimlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Rus va sobiq sovet psixologiyasi namoyandalari K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.N.Myasishev, A.A.Uxtomskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson, V.S.Merlin, L.I.Bojovich, V.I.Selivanov, V.G.Aseev va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ushbu mualliflarning qarashlari oldingi bobda berilganligi uchun ularga qaytatdan to‘xtalishga hojat yo‘qdir. Rus va sobiq sovet psixologiyasi vakillaridan tashqari Evropa va Amerika mamlakatlarida motivatsiyaga oid 30 (o‘ttiz)dan ortiq ilmiy kontseptsiyalar mavjuddir. Ana shu psixologik maktablarning ayrim namoyandalarining tadqiqotlari yuzasidan mulohaza yuritishga harakat qilamiz: interospektiv psixologiya, bixeviorizm, geshtaltpsixologiya, psixoanaliz, strukturaviy psixologiya, assotsianistik psixologiya, empirik psixologiya,

analitik psixologiya, gumanistik psixologiya, antropologik psixologiya va hokazolar. Bixeviarizmning asoschisi Dj.Uotson (1878-1938) psixologiya faninig bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb tushunadi. U psixik hodisalardan mutlaqo voz kechib, xulqni ikki shaklga, ya'ni ichki va tashqiga ajratadi, ular o‘zaro javoblar stimuli bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta'kidlab o‘tadi.[5] Bixeviorizm uchun «xulq» asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi chetlab o‘tilgandir. Shunga qaramasdan, ba'zi bixevioristlar, jumladan E.Torndayk, E.Tolmen, K.Xall, D.Xebb kabilar xulq motivatsiyasiga muayyan darajada e'tibor qilganlar. Ular o‘zlarining izlanishlarida xulq motivatsiyasining«quyi darajalari» ni o‘rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaktsiya tezligiga nisbatan namoyon bo‘lish xususiyati, har xil sharoitda motivatsiyaning kuchi to‘g‘risida muayyan qonuniyatlar ochishga intilganlar. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo‘zg‘atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Neobixevioristik nazariyalar yangi qo‘zg‘atuvchilar, drayvalar paydo bo‘lishiga asoslangan bo‘lib, ular insonning organik ehtiyojlarini qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg‘unlashuvi tariqasida tahlil etiladi. Ularning ta’kidlashiga ko‘ra, ikkilamchi qo‘zg‘ovchilar organik qo‘zg‘atuvchilarning go‘yoki qobig‘iga o‘xshaydi, xolos. Vilyam Makdugall (1871-1938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug‘ma instinktlar masalalari bilan mazkur voqelikni bog‘lab tushuntirishga harakat qilgan. Uning fikricha, tug‘ma instinktlar ham insonlarga, ham hayvonlarga bir tekis taalluqli bo‘lib, ular odamlarning motivida oldin 14 ta, keyinchalik esa 18 tagacha «asosiy instinktlar» sifatida hukm surishi mumkin. Umuman olib qaraganda, bixevioristlar uchun bir qator holatlar o‘ziga xoslikka ega:

1. Bixeviorizm motivatsiya modelini topish bilan shug‘ullanib va xulq printsiplarini vujudga keltira borib, hayvon xulqi hamda ularda kashf etilgan xulq motivatsiyasi qonuniyatlariga asoslanib insonning xulq motivatsiyasi yuzasidan xulosa chiqarishga harakat qiladi.

2. Bixeviorizm insonni biologik mavjudod sifatida qarab, unga biologik jabhada yondashadi, oqibat natijada uning ijtimoiy mohiyati tadqiqot predmetidan chetda qolib ketadi [6].

3. Bixeviorizm ham insonga, ham hayvonlarga xos bo‘lgan xulqning umumiy printsiplarini topishga intiladi.

4. Bixevioristlar insonni shaxs sifatida taraqqiy etish jarayonini ifodalovchi o‘ziga xosligini yo chetlab o‘tadilar yoki o‘ta sodda tarzda izohlashga moyildirlar.

5. Hayvonlarning xulq motivatsiyasi shakllarini juda sodda tarzda tushuntirishga asosan tadqiqot natijalarini insonning murakkab va boshqa bir sifat bosqichidagi motivatsiyasiga ko‘chirish ishonchli dalillarga ega emas.

6. Inson motivatsiyasini o‘rganishda foydalanilayotgan bixeviorizmning tushunchalari, chunonchi, birlamchi mayllar, organizmni qitiqlovchi tug‘ma ehtiyojlar kabilar odamning motivatsiya doirasi tuzilishi mohiyatini juda yuzaki ocha oladi, xolos. Psixoanalitik kontseptsiyalar negizida motivatsiya ortganlik ravishda inson mayllariga xosdir, degan g‘oya yotadi. Ularning manbai maylni aks ettiruvchi qaysidir organdagi yoki uning qismidagi somatik jarayon tushuntiriladi. Z.Freydning kontseptsiyasida mayllar va instinktlar tushunchalari o‘rtasida hech qanday tafovut yo‘qdir. Ongsizlik ta'limotining asoschisi Z.Freyd xulq motivalari va ehtiyojlari muammosini ishlab chiqayotib, motivatsiyaning manbai instinkt, u tur va individning saqlanish shartidir deb taqdirlaydi. Mazkur holatni muallif individning energetik potentsiyasi sifatida talqin etadi. Eng asosiy masala shuki, Z.Freyd motivatsiya regulyatori va motivatsiya energiyasining irsiy manbai sifatida «u» tushunchasiga qanday ma'no yuklamoqchiq Uningcha, «u»tushunchasining mazmuni tug‘ma va o‘zgarmasdir. Xuddi shu bois mantiq qonunlari va aql darajalari, ko‘rsatkichlari unga hech qanday ahamiyat kasb etmaydi Z.Freyd affektiv, impulsiv shakldagi mutlaqlashgan qo‘zg‘ovchilarni nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas. Ushbu qo‘zg‘atuvchilar (turtkilar) ning impulsivlik, taxminiylikning affektiv mohiyati, notanqiydiylik, ongli va irodaviy nazoratga itoat etishda qiyinchilik kabilarning dinamik xususiyatlarini mutlaqlashtirish bo‘lib, ularning asosida quyi genetik va strukturaviy darajadagi qo‘zg‘atuvchilar yotadi. Z.Freyd ta'kidlab o‘tgan dinamik xususiyatlar va xossalari mohiyatida motivatsiyaning chuqur asosiy manbasini ko‘radi. Uning kontseptsiyasida inson xulqi va harakatining dvigateli jinsiy instinkt hamda uning transformatsiyasi ustuvor o‘rin egallaydi.[7] Odam tabiat tipi xushyorlik, juda xushyorlik, muloqot va faoliyatga yo‘nalganlikning yuqori darajasi, o‘ziga nisbatan yo‘nalganlikni minimal darajasini talab qiladi. Odam-texnika tipiga mansublik esa xushyorlik, juda xushyorlik, faoliyatga yo‘nalganlikning yuqori darajasi, qochishga moyillikni past darajasi ta’sirida vujudga keladi. Oddiy askarlarda odam-obraz kasbiy tipiga mansublik o‘ziga va faoliyatga yo‘nalganlik hamda qaror qabul qilishdan kechiktirishdan qochish bilan harakterlanadi. Darhaqiqat, texnikalar bilan ishlashda kuzatuvchanlik va sezgirlik kabi xususiyatlarining o‘rni juda katta sanaladi. Serjantlarda odam-obraz kasbiy tipiga mansublik diqqatni uzoq vaqt ushlab turish, eslab qolish, intellektuallik, emotsionallik, kommunikativlik kabi kabi xususiyatlar bilan aloqadorlikda shakllanadi. Odam-odam kasb tipi diqqatni uzoq vaqt jamlash, kuzatuvchanlik, eslab qolish qobiliyati, intellektuallik, nutqiy ravonlik kabi xususiyatlar bilan bog‘lik ekanligi aniqlandi. Odam-biznes kasb tipi eslab qolish, irodaviy sifatlarning yuqori darajasi hamda kommunikativlik kabi xususiyatlar bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, serjantlarda kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlar, xususan, diqqatni uzoq vaqt ushlab turish, kuzatuvchanlik, eslab qolish, sezgirlik, intellektualligi, emotsionalligi, irodalilik, nutqiy ravonligi va kommunikativlikni o‘zlarida tarkib toptirishlari ularda kasbiy tayyorgarlikda ko‘proq muvaffaqiyatga erishishlarini ta’minlashi mumkin. Ayniqsa, serjantlarda kasbiy tayyorgarlik ularning eslab qolish va intellektuallik xususiyati bilan ko‘proq bog‘liq ekanligi kuzatildi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy sifatlarining o‘ziga xos kamchiliklari, asosan, harbiy xizmatning qattiq talablari va sharoitlari bilan bog‘liq. Psixologik stress, intizomning haddan tashqari ustuvorligi, muloqot muammolari va kasbiy rivojlanishning cheklanganligi kabi omillar harbiy xizmatchilarning shaxsiy va kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko‘rsatish, malaka oshirish kurslari tashkil etish va ularning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish ularning kasbiy faoliyatini yanada samarali qilishga yordam beradi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy kamchiliklarini bartaraf etish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun harbiy tizimning samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Shermatov F.T., Harbiy – kasbiy tayyorgarlik psixologiyasi // Monografiya. 2024. 76-93 bet.

[2] Shermatov F.T., Beknazarov A.A. Jangovar stress va uning psixologik oqibatlari. // O‘quv qo‘llanma. 2021. 48-51 bet.

[3] Shermatov F.T., Socio-psychological foundations of the appointment of future officers to leadership positions // American journal of interdisciplinary research and development volume: 14 | march, 2023 Plano journal ISSN (online): 2771-8948 sjif (2023): 6.959 P.143-149

[4] Shermatov F.T., The New Method and Mechanism for Determining Professional Stresses in the Service of Military Workers International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. ISSN 2364-5369 Volume 8 Issue 9 September 2021 P. 243-246.

[5] F.Shermatov. A.Beknazarov. “Bo‘lajak ofitserlarda liderlik psixologiyasi”. Darslik.– T.: AKT va AHI, 2022.

PSIXOLINGVISTIKANING FAN SIFATIDA RIVOJLANISHINING PSIXOMETODOLOGIK DETERMINANTLARI

Axmedov Sh. A.
Toshkent Amaliy fanlar unverstiti

Annotatsiya: *Ushbu maqilada psixolingvistika tilni inson miyasida qanday qayta ishlash, egallash va ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan qiziqarli tadqiqot sohasi. U odamlarning tilni qanday tushunishi, gapirishi va talqin qilishini tushunish uchun psixologiya va tilshunoslik elementlarini birlashtiradi. Psixolingvistikani o'rganib, siz tilni qayta ishlash sirlarini o'rganasiz va muloqot bizning fikrlarimiz va munosabatlarimizni qanday shakllantirishini o'rganasiz. Psixolingvistikani fan sifatida shakillanishidagi qarashlarni va metodologik asoslarni ham ko'rishimiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Psixolingvistika, nutq, tilning sistem-strukturasi, nutqiy qobiliyat, fenomen, funktsiya*

Psixolingvistikaning asosiy tadqiqot obyekti nutqiy faoliyat subyekti bo'lgan shaxs, til egasidir. Rus tilshunosligida mazkur soha rivojiga katta hissa qo'shgan A.A.Zalevskaya psixolingvistikaning vazifasini ―tilning amal qilinishini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish bo'lishi kerakligini ta'kidlagan edi.

Psixolingvistika (PS) - nutqni shakllantirish jarayonlarini, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirishni til tizimi bilan bog'liq holda o'rganadigan fan (A.A. Leontiev, BES Tilshunoslik).

Psixolingvistika-psixologik va lingvistik jihatlarni o'rganadigan fan insonning nutq faoliyati, foydalanishning ijtimoiy va psixologik jihatlari nutq aloqasi va individual nutq-fikrlash faoliyati jarayonlarida til.

Psixolingvistikani (PL) o'rganish mavzusi, birinchi navbatda, nutq faoliyati o'ziga xos insoniy faoliyat turi, uning psixologik mazmuni, tuzilishi, amalga oshiriladigan turlari (usullari), amalga oshiriladigan shakllari, bajaradigan funktsiyalari. Mahalliy maktab asoschisi ta'kidlaganidek psixolingvistika A. A. Leontyev," psixolingvistika predmeti nutq faoliyati butun va uni kompleks modellashtirish qonuniyatlari hisoblanadi " .

Psixolingvistikani o'rganishning yana bir muhim mavzusi til nutq va individual nutq-fikrlash faoliyatini amalga oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi, nutq aloqasi jarayonlarida tilning asosiy belgilarining funktsiyalari.sixolingvistika A. A. Leontyev," psixolingvistika predmeti nutq faoliyati butun va uni kompleks modellashtirish qonuniyatlari hisoblanadi "

Psixolingvistikani o'rganishning yana bir muhim mavzusi til nutq va individual nutq-fikrlash faoliyatini amalga oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi, nutq aloqasi jarayonlarida tilning asosiy belgilarining funktsiyalari.

"Psixolingvistikada nutq faoliyatining mazmuni, motivi va shakli va nutq so'zida ishlatiladigan tilning tuzilishi va elementlari o'rtasidagi bog'liqlik doimo diqqat markazida bo'ladi"

Va nihoyat, pisixolingvistik tadqiqotining yana bir asosiy mavzusi insondir.

Nutq faoliyatini amalga oshirish usuli sifatida ko'rib chiqilgan nutq (nutq nutq bayonotlarini yaratish va idrok etishning psixofiziologik jarayoni sifatida; har xil turlari va nutq aloqasi shakllari)[6].

Psixolingvistik tadqiqotining bir emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechta fanlarining mavjudligi ilmiy bilimlarning ushbu sohasining o'ziga xos xususiyatlari, psixolingvistika "sintetik", murakkab fan bo'lib, u o'ziga xos va noyob birlashma, insoniyat tsivilizatsiyasining ikkita eng qadimgi fanlari – psixologiya va qisman birlashishi asosida vujudga kelgan.

Nutqni yaratish va idrok etishning psixofiziologik jarayonining asosiy va mustaqil predmeti sifatida ajratish bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning asarlarida uchraydi va bunday yondashuv I. A. Zimniy (1984, 2001 va boshqalar) asarlarida eng to'liq ilmiy asosga ega bo'ldi.

Oxirgi davrdagi asarlaridan birida A. A. Leontyev psixolingvistikaning maqsadi " hosil qilish mexanizmlari va jamiyatdagi nutq faoliyati funktsiyalari va rivojlanishi bilan bog'liq nutqni idrok etish shaxsiyat" Shu munosabat bilan, PL mavzusi "nutqni ishlab chiqarish va nutqni idrok etish jarayonlarining til tuzilishi bilan o'zaro bog'liqligi". O'z navbat, psixolingvistik tadqiqotlar til qobiliyatini tahlil qilishga qaratilgan nutq faoliyatiga, bir tomondan, til tizimiga nisbatan – boshqa. Mahalliy va xorijiy fanlarda psixolingvistikani o'rganish predmetining yagona, umumiy qabul qilingan ta'rifi hali ham mavjud emas; turli yo'nalishlarda va psixolingvistika maktablarida u turli yo'llar bilan aniqlanadi. Shu bilan birga, ba'zi mahalliy tadqiqotchilar va ko'plab oliy maktab o'qituvchilari AA Leontiev tomonidan taklif qilingan psixolingvistika fanining umumlashtirilgan ta'rifidan foydalanadilar: "psixolingvistika predmeti-bu shaxsning nutq faoliyatining tuzilishi va funktsiyalari bilan bog'liqligi, bir tomondan, til inson dunyosining asosiy "shakllantiruvchi" obrazi sifatida-boshqa tomondan".

Psixolingvistika fanining obyektini aniqlashtirishda A.A.Leontev qayd qilgan freym tushunchasini keltirish maqsadga muvofiqdir. Freym u yoki bu obyekt yoxud hodisani tasvirlovchi o’lchovlar tizimini ifodalaydi. Masalan, — Ishlovchining shaxsiy varaqasi o’lchovlari aniq shaklda keltirilganda mazkur shaxsning eng kamida uni ishga qabul qilinishi bilan bog’liq xususiyatlarini tasvirlovchi freym mavjud bo’ladi. Fanda modellashtirilgan aniq hodisalar, odatda, freym tamoyiliga ko’ra tavsiflanadi. Masalan, psixologiyada aksariyat hollarda — faoliyat ishlatiladi.

[6] Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. – М., 2001.

Psixolingvistikadagi turli yo'nalishlar uning obyekti bo'lgan aniq nutq hodisalariga turli freymlarning — prizmasi orqali yondashishadi. Biroq har qanday holatda, nutqqa har qanday metodologik yondashuvda ushbu freymning tuzilishida nutq subyekti, nutq obyekti yoki adresat, motiv yoki ehtiyoj, niyat yoki nutqiy maqsad, nutqiy muloqotning mazmuni va predmeti, lisoniy yoki semiotik vositalar tavsifi e'tiborga olinadi. Xullas, psixolingvistikaning obyekti qanday tushunilishidan qat'iy nazar, har doim nutqiy hodisalar yoki nutqiy vaziyatlar majmuyidan iborat bo‗ladi. Bu obyekt tilshunoslik va boshqa nutqiy faoliyat bilan bog'liq fanlar bilan umumiy hisoblanadi. Psixolingvistikaning predmeti turli – obyektlarning mavhum tizimi yoki ayrim obyektlarning mavhum tizimi hisoblanadi. Psixolingvistika fanining predmetini belgilashda ayrim pisxolingvistlarning qarashlarini keltirish o'rinli bo'ladi.

Amerikalik psixolingvistlarning fikricha, —psixolingvistika so'zlovchilar niyatining mazkur madaniyatda qabul qilingan kodda signallarga aylanishi va bu signallarning tinglovchilar tushunchasiga aylanishi jarayonlarini o'rganadi. Boshqacha aytganda, psixolingvistika kodlash va dekodlash jarayonlarini o'rganadi.

Shunga o'xshash qarashlarni yevropalik psixolingvistlarning tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. Jumladan, P.Fress psixolingvistikani —til orqali taqdim etiladigan bizning ekspressiv va kommunikativ ehtiyojlarimiz va vositalarimiz o'rtasidagi munosabatlar haqidagi fan, - deb izohlagan T Slama Kazaku psixolingvistikaning predmeti xususida — muloqot vaziyatining xabarga ta'siri degan qisqacha xulosaga keladi .

Matnni tahlil qilish bilan emas (an'anaviy tilshunoslikka xos bo'lgan), balki gapiradigan odamni tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan bir qator amaliy vazifalarni nazariy tushunish zarurati bilan paydo bo'ldi:

- nutqni tushunish, yodlash va ishlab chiqarish mexanizmlari,
- nutqni yaratish va tushunishda tilning ishlashi,
- ona tilini o'zlashtirish, tug'ma til mexanizmlari va bolaning til muhitining roli,

Ikkinchi / chet tilini o'qitish, ikki tillilik matnni tahlil qilish bilan emas (an'anaviy tilshunoslikka xos bo'lgan), balki gapiradigan odamni tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan bir qator amaliy vazifalarni nazariy tushunish zarurati bilan paydo bo'ldi:

- nutqni tushunish, yodlash va ishlab chiqarish mexanizmlari,
- nutqni yaratish va tushunishda tilning ishlashi,
- ona tilini o'zlashtirish, tug'ma til mexanizmlari va bolaning til muhitining roli,
- ikkinchi / chet tilini o'qitish, ikki tillilik,

- nutqni tarbiyalash va nutq terapiyasi muammolari
- Markaziy miya nutqining buzilishi klinikasi
- nutq ta'sirining muammolari
- mashinani tarjima qilish va kompyuterga ma'lumot kiritish muammolari

Rus psixolingvistikasi nazariyasining asoschisi A.A. Leontev shunday yozadi:

- Psixolingvistika – til tizimi va lisoniy qobiliyat orasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fan. A.A.Leontev F.de Sossyurning til va nutqni farqlashi xususida to'xtalib, bu farqlash ikki mezondan: til (ijtimoiy) – nutq (individual) va til (abstrakt) - nutq (konkret)dan o'tishini ta'kidlaydi. Bu ikkala qarama-qarshilikni faqat ikki tushuncha doirasida birlashtirish qiyin. Shuning uchun bu yerda uchinchi tushuncha, hatto F. de Sossyurning o'zida ham mavjud bo'lgan —lisoniy qobiliyat tushunchasi kerak bo'ladi. Lisoniy qobiliyat ijtimoiy hodisa bo'lgan tildan farqli o'laroq, har bir individga tegishlidir. Biroq u nutqdan farqli o'laroq, mavhumdir. Lisoniy qobiliyat – individual til, u mavhum ijtimoiy tildan konkret individual nutqqa o'tish imkonini beradigan ko'prik hisoblanadi. Chunki, nutqda darhol bevosita ijtimoiy til emas, balki ongda mavjud bo'lgan uning nusxasi – lisoniy qobiliyat qo'llaniladi. A.A.Leontevning belgilashicha, psixolingvistikaning predmeti ijtimoiy til va individual lisoniy qobiliyat orasidagi o'zaro munosabatdir. U psixolingvistikani yanada kengroq tavsiflab: —Nutqiy faoliyat va uni kompleks modellashtirish qonuniyatlari psixolingvistikaning predmeti hisoblanadi, - deb qayd qiladi. Shuning uchun ayrim adabiyotlarda psixolingvistika termining sinonimi sifatida nutqiy faoliyat nazariyasi termini qo'llaniladi.

A.A.Leontevning ta'kidlashicha, nutqiy faoliyat nazariyasi termini psixolingvistika shug‗ullanadigan masalalar doirasini aniqroq belgilab beradi. Psixolingvistika nutqiy faoliyatni nutq akti mazmuni bilan so'zlovchining maqsad-niyati orasidagi aloqadorlik nuqtayi nazaridan o'rganadigan fan. U nutqni idrok etish, tilni egallash kabi masalalarni o'rganadi. Psixolingvistikaning diqqat markazida individ va kommunikatsiya turadi. Unga ko'ra, so'zlovchi nutqni yuzaga chiqarar ekan, o'zi o'ylagan niyatini ma'lum qoidalar asosida aniq tilning nutq birliklariga uzatadi. Tinglovchi nutqni qabul qilar ekan, nutq ifodalarining tashqi shaklida o'z aksini topgan ma'noni chiqarib oladi.

Charlz Osgudning fikricha, —Psixolingvistika so'zlovchi niyatining muayyan madaniyat kodida (tilida) qabul qilingan signalga aylanishi va bu signallar tinglovchining interpretatsiyasida qaytadan namoyon bo'lishi jarayonlarini o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, psixolingvistika kommunikatsiyaning kodlash va dekodlash jarayonlari bilan shug'ullanadi. Shuni ta'kidlash joizki, psixolingvistikaning tadqiqot predmeti faqat kod (til) strukturasi va signal bo‗lib qolmay, balki matn yaratish va uni tushunish bilan bog‗liq jarayonlar, kishilar

muloqotidagi barcha murakkab omillar hisoblanadi. Inson tilni to‘liq egallash imkoniyatiga ega bo‘lib tug‘iladi. Biroq bu imkoniyatni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Buni qanday yuz berishini tushunish uchun psixolingvistika bolalar nutqining rivojlanishini o‘rganadi. Psixolingvistika, shuningdek, nutqiy faoliyat va uning harakatga kelish jarayonining me‘yordan chiqib ketish sabablarini tadqiq qiladi. Kattalar va bolalar nutqidagi buzilishlarni o‘rganadi. Psixolingvistika ba‘zan til va tafakkurni o‗rganadigan fan sifatida belgilanadi. Psixolingvistikaning asosiy maqsadi insonning so‘zlash va tilni tushunish qobiliyati zamirida yotgan struktura va jarayonlarni aniqlashdir. Psixolingvistlarning kishilar orasidagi o‘zaro til munosabatlari bilan qiziqishlari shart emas. Ular individning ichida kechayotgan hodisalarni tadqiq qilishga harakat qiladi. Psixolingvistikaga qiziqish bildirgan tilshunoslarning maxsus adabiyotlar bilan tanishish jarayonida o‘ziga xos psixik to‘siqlarga duch kelishi tabiiy holdir. Chunki, muayyan ―ilmiy paradigma‖ doirasida ―tarbiyalangan‖ tilshunosning boshqa ―ilmiy paradigma‖ga kirishi, yangi terminologiya, tushunchalar, materiallar va noan‘anaviy vazifalarni qabul qilishi qiyin kechadi. Shunda tilshunos o‘zi uchun qulay bo‗lgan yondashuvdan kelib chiqqan holda shunday xulosaga keladi: ―Psixolingvistika shug‗ullanadigan masalalar juda qiziqarli bo‘lishi mumkin. Lekin bu tilshunoslik emas. Bu o‘rinda psixolingvist L.V.Saxarniy tomonidan qayd qilingan zamonaviy nazariy tilshunoslikning quyidagi ziddiyatini keltirish o‗rinli bo‘ladi: ―Tilshunos tilni kishilarning aloqa qilishi va fikrlash vositasi ekanligini e‘lon qiladi, biroq tilni tadqiq etishda til egalarining umuman keragi bo‘lmaydi. Til strukturasi uni yaratgan, undan foydalanayotgan inson faoliyatidan mustaqil ravishda tasvirlanadi. Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikning ziddiyati shundaki, inson tilini o‗rganayotgan tilshunoslik insonsiz ish ko‘radi.

O‘z davrida mashhur psixolog, nutq bo‘yicha mutaxassis N.I. Jinkin shunday yozgan edi: ―Agar lingvistika va psixologiya aniq tafakkur jarayonini tadqiq etishni rad etsa, ular juda katta yo‗qotishga, ya‘ni inson va uning nutqi tushib qolgan yo‘qotishga uchraydi . Afsuski, bunday yo‘qotishni tilshunoslik tarixida kuzatish mumkin. Binobarin, XX asrning boshida F. de Sossyur(1857-1913) va uning izdoshlari nutqiy faoliyatni ―til va ―nutq, aniq va mavhum, ijtimoiy va individual hodisalarga ajratganda vaziyat murakkablashgan edi . Psixolingvistikaning diqqat markazida inson turadi. Uning eng muhim xususiyati inson omili hisoblanadi. Binobarin, inson nutqni yaratadi va uni idrok qiladi. Psixolingvistika nutqni F. de Sossyur tushunchasidek cheklab o‘rganmaydi. Agar inson omili hisobga olinsa, nutqiy faoliyatdagi til tilshunoslar tasavvuridagidan butunlay boshqacha ―g‘aroyib olam‖ ekanligi ko‘zga tashlanadi. Sossyur va uning izdoshlari tomonidan tuzilgan til modellarida yaxshi ―ishlaydigan‖ til va nutqni farqlash nutqiy faoliyatni

psixolingvistik modellashtirishda jiddiy tahrir talab qiladi. Psixolingvistikaning o‘ziga xos xususiyatlariga inson omilini kiritish – bu muhim, biroq u nutqiy faoliyatga psixolingvistik yondashuvni tavsiflovchi yagona jihat emas. Modomiki, so‘zlovchi va tinglovchi omili kiritilgan ekan, o‘z-o‘zidan vaziyat omili ham kiritilgan sanaladi. Binobarin, kishi qandaydir vaziyatda gapiradi va eshitadi. Buning ustiga shunchaki qandaydir vaziyatda emas, balki belgilangan, aniqlangan vaziyatda gapiradi va eshitadi. Agar til va nutqni klassik qarama-qarshi qo‘yishda barcha vaziyatlar faqat nutqqa taalluqli, tilga esa vaziyatlardan holi, barqaror tizim sifatida qaralgan bo‘lsa, psixolingvistik yondashuvda murakkab va harakatdagi vaziyat omili inson omilidek nafaqat nutqda, shuningdek, tilda ham mavjud bo‘ladi. Nihoyat uchinchi jihat psixolingvistik tadqiqot xususiyatini amalda tushunish mumkin bo‘lgan eksperiment omilidir. Umuman, psixolog ham, tilshunos ham psixolingvistikani o‘rganishga jalb qilingan. Har ikkalasi ham sotsiolog hisoblanadi.

Rus psixolingvistikasi nazariyasining asoschisi A.A. Leontevning ta‘kidlashicha, ―psixolingvistika o‘zining rivojlanishining zamonaviy bosqichida uzviy ravishda psixologik fanlar tizimiga kiradi. Agar A.N.Leontev izidan borgan holda psixologiyani ―individlar hayotini bevosita aks ettiradigan reallikning psixik ifodasining shakllanishi, harakatda bo‗lishi va tuzilishi haqidagi aniq fan‖ (A.N.Leontev, 1977, 12-b.), deb tushuniladigan bo‘lsa, u holda, til va nutqiy faoliyat mazkur psixik ifodaning shakllanishi va harakatda bo‗lishi, kishilar faoliyatini aks ettirish jarayonida ishtirok etadi. Shu sababdan psixolingvistika va psixologiyaning boshqa sohalari kategoriya va tushuncha jihatidan birlashadi. Nutqiy faoliyat tushunchasining o‘zi faoliyat turlariga, uning strukturalari va xususiyatlarining umumpsixologik talqiniga kiradi. Nutqiy faoliyat o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lishi bilan birga, har qanday faoliyatning shakllanishi, harakatda bo‘lishi va tuzilishi singari umumiy qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Shaxsning u yoki bu talqini bevosita psixolingvistikada aks etadi. Biroq psixolingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan ma‘no bevosita psixik ifoda bilan, xususan, dunyo obrazi konsepsiyasi bilan bog‗liq. Bunda psixolingvistika psixologiyaning boshqa sohalari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlardagi tushunchalar va natijalardan shunchaki foydalanib qolmaydi, balki bu sohalarni ular uchun imkonsiz bo‗lgan nazariy va amaliy masalalarni hal qilish orqali to‘ldiradi. Psixolingvistika psixologik fan sifatida umumiy psixologiya, ayniqsa, shaxs psixologiyasi va kognitiv psixologiya bilan chambarchas bog‘liq. Psixolingvistika muloqot bilan bevosita munosabatda bo‘lgani uchun ijtimoiy psixologiya va muloqot psixologiyasi bilan ham aloqada bo‘ladi. Lisoniy qobiliyat va nutqiy faoliyatning shakllanishi va rivojlanishi psixolingvistika doirasida o‘rganilgani uchun u bolalar va kattalar psixologiyasibilan chambarchas bog‗lanadi.Shuningdek, u etnopsixologiya bilan

ham o‘zaro munosabatga kirishadi. Amaliy jihatdan psixolingvistika psixologiyaning barcha amaliy sohalari: pedagogik psixologiya, patopsixologiya, tibbiyot psixologiyasi, neyropsixologiya, psixiatriya, defektologiya, harbiy psixologiya, sud va yuridik psixologiya, siyosiy psixologiya, ommaviy kommunikatsiya psixologiyasi, reklama va targ‗ibot psixologiyasi bilan o‘zaro bog‘liq. Aynan ana shu amaliy vazifalar psixolingvistikani mustaqil fan sifatida shakllanishiga turtki bo‗lgan. Tilshunoslikka tilni muloqot vositasi sifatida o‘rganadigan fan, deb qaraladi. Shunga ko‘ra, uning predmeti aniq belgilanmagan. Ma‘lumki, tilshunoslik obyekti nutqiy faoliyat (nutq aktlari, nutq reaksiyalari) hisoblanadi. Lingvistikaning predmeti kommunikatsiyada qo‗llaniladigan til vositalarining tizimi sanaladi. Psixolingvistikaning predmeti lingvistikanikidan farq qiladi. Psixolingvistikani mazkur belgilar tizimining ishlash jarayoni, xususan, belgilarning yaratilish va qabul qilinish jarayonlari qiziqtiradi. Psixolingvistika nutqiy faoliyat haqidagi fan bo‘lib, uning obyektini u o‘rganadigan induvidual obyektlar majmuyi tashkil qiladi. Lingvistika nutq tuzilishini til qonunlariga ko‘ra o‘rganadi. Psixolingvistika esa nutq hosil qilish, nutqni qabul qilish, shuningdek, ona tili va chet tilini o‘zlashtirish jarayonlariga murojaat qiladi. Hozirgi kunda ko‘p tilshunoslar til faktlarini to‘liq tushunish uchun lingvistika ramkasidan chiqib, individning psixik jarayonlari doirasiga kirish lozimligini tan olishadi. Binobarin, til materiali kishi miyasida tashkil topadi va kerak paytda chiqariladi. Bunday psixik jarayonlar psixolingvistikaning predmeti hisoblanadi. Psixolingvistika tilni psixikaning fenomeni sifatida o‗rganadi. Psixolingvistika qarashicha, so‘zlovchi va tinglovchi, yozuvchi va o‘quvchining ichki dunyosi qanday bo‘lsa, til ham shu darajada mavjud. Shu bois, psixolingvistika faqat matnlargina saqlanib qolgan, bu matn yaratuvchilarining psixik olamlari bo‘lmagan o‘lik tillar (masalan, eski slavyan yoki yunon tillari)ni o‘rganish bilan shug‗ullanmaydi. Psixolingvistika tilni o‘rgangani uchun tilshunoslik fanlariga, tilni alohida aspektda, xususan, psixikaning fenomeni sifatida o‘rgangani uchun esa psixologiya fanlariga aloqador bo‘lgan kompleks fan hisoblanadi. Xullas, psixolingvistika umumiy tilshunoslik bilan chambarchas aloqada bo‗ladi. Bundan tashqari, u sotsiolingvistika, etnolingvistika, amaliy tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi bilan ham o‘zaro bog‗langan. Ma‘lumki, dunyo tilshunosligida matnga dastlab, asosan, semantik va sintaktik nuqtai nazardan yondashilgan. Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan matnni lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendentsiyasi kuchaydi. Unga faqat semantiksintaktik jihatdan bog‘langan gaplar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli, o‘zida muayyan til sohiblarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma

sifatida qarala boshlandi. Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til sohibi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog‘liqdir. Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning ―o‘zida va o‘zi uchun‖ tamoyilini chetga surib, asosiy e‘tiborini shaxs omiliga qaratdi . Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Леонтьев А. А. Язык. Речь. Речевая деятельность. М.: КРАСАНД, 2010. 216 с.

2. Глухов В. П. Основы психолингвистики: учебное пособие для студентов

3. Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. – М., 2001.

4. Павлов И.П. Полное собрание трудов. М.-Л., 1949. Т. 3. С. 337.

5. Шахнарович А.М. Грамматиканинг онтогенезига оид муаммо //

6.Болаларнинг нутқий ва психологиявий ривожланиши. М., 1998. С. 34,29.

6. Гумбольдт В. фон. Тилшунослик бўйича танланган ишлар. М., 1984. С. 29.

7. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. Уч. М., 1997. 287 с.

8. Акбарова З. Мурожаат моҳияти ва унинг ташкил этувчилари. Фил.фан.номз.дисс., Т. 2006.

9. Ахмедов, Ш. А., & Шамсиев, Ў. Б. (2022). специфика психологической подготовки спортсмен-волейболистов. *uzbek scholar journal*, *3*, 79-83.

11. Ahmedov, S. A. Волейбол спорт тури билан шуғулланувчи профессионал спортчиларнинг мусобақаолди тайёргарлигининг ижтимоий-психологик жиҳатлари. *молодой ученый учредители: ооо" издательство молодой ученый"*, (18), 588-590.

HARBIY XIZMATCHILARDAGI STRESSLAR PSIXOPROFILAKTIKASINING SHAKLLARI, USULLARI VA VOSITALARI

Mirsidikova A. M.
Toshkent Amaliy fanlar universiteti “

Annotatsiya. *Ushbu maqolada harbiy xizmatchilar faoliyatidagi stressli holatlarga psixoprofilaktik tayyorlash shakllari, usullari hamda vositalari nazariy tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar*: harbiy hayot, psixologik tayyorgarlik, shaxsiy xususiyatlar, fiziologik ritm, moslashish jarayoni.*

Аннотация. *В данной статье теоретически анализируются формы, методы и средства психопрофилактической подготовки к стрессовым ситуациям у военнослужащих.*

Ключевые слова*: военная жизнь, психологическая подготовка, личностные особенности, физиологический ритм, адаптационный процесс.*

Harbiy xizmatchilarni doimiy psixologik ko‘rikdan o‘tkazib turish sohaning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Armiya haqiqati Qurolli kuchlarsafida xizmatni boshlagan harbiy xizmatchilarning shaxsiy xususiyatlariga alohida talablar qo‘yadi. Bu kommunikativ o‘zaro ta’sirning yangi sifati, maqom va rol pozitsiyasining o‘zgarishi, yaqinlardan ajralib chiqish, fiziologik faoliyat ritmining keskin o‘zgarishi, noaniqlik holati, yaqin kelajakni salbiy idrok etish bilan bog‘liq. Bu natija tufayli ong nazorat va tartibga soluvchi vazifalari oqimining qiyinchilik uchun e’tibor, xotira, fikrlash, harakatlarning qattiqlik, maqsad yo‘qolishi bir zaiflashishiga o‘zini namoyon faoliyatini, tarqoq hissiy fonda pasayishi, salbiy his-tuyg‘ular ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Shu munosabat bilan harbiy xizmatchilarni harbiy xizmatga psixologik tayyorgarlikni shakllantirish jarayonini buzadigan salbiy hissiyotlarni nazoratqilish va zararsizlantirish usullariga tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi zarurligi to‘g‘risida savol tug‘iladi.

Adabiyotlar sharhi. Psixologik tayyorgarlikning hissiy tarkibiy qismi ustuvor vazifalardan biridir. Uning ahamiyati hissiyotlarning xulq-atvorni tartibga solishdagi roli, ularning aqliy bilim jarayonlariga ta’siri, amalga oshiriladigan faoliyatning sifati va samaradorligi, atrof-muhit o‘zgarishiga moslashish bilan belgilanadi. Shuni ta’kidlash mumkinki, ushbu muammoning nazariy rivojlanishi yetarli emas. Insonning faoliyatga psixologik tayyorgarligi bir necha o‘n yillar davomida psixologiya fanining turli sohalarida ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo‘lib kelgan. Zamonaviy ilmiy ishlarda alohida sharoitlarda, xususan, harbiy xizmat sharoitida ekstremal tus olishi mumkin bo‘lgan faoliyatga qiziqish mavjud (V.I.Varvarov, A.D.Glotochkin, M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovich, V.P.Kashirin, M.P. Korobeynikov, P.A.Korchemni, L.N.Kuznesov, T.V.Markelova, A.T.Rostunov, A.M.Stolyarenko, V.V.Sesoev, S.I.Sedin, N.F.Fedenko,V.T. Yusov va boshqalar).

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Harbiy xizmatga psixologik tayyorgarlikning hissiy tarkibiy qismini shakllantirish darajasi yoshlarni to‘ldirish sanasidan boshlab harbiy xizmatning muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi. Yosh askarlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligining hissiy tarkibiy qismini shakllantirish maxsus tadqiqot mavzusi bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlarning harbiy xizmatga moslashishiga ta’sir qiluvchi stress omillarini aniqlashda harbiy xizmat davrida hissiy munosabat usullarini tahlil qilishda moslashtirish, harbiy xizmatga psixologik tayyorgarlikning hissiy tarkibiy qismini shakllantirishning mazmuni, uslubiy va

tashkiliy jihatlarini o‘rganishda, harbiy xizmatning dastlabki bosqichining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda harbiy xizmatchilarda psixologik tayyorgarlikning hissiy tarkibiy qismini shakllantirish usullarini sinab ko‘rishda, kundalik hayot va jangovar tayyorgarlik, eksperiment ishtirokchilarining psixologik, birinchi navbatda yoshga bog‘liq xususiyatlarini aniqlashda, harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligining hissiy tarkibiy qismining yosh askarlarning harbiy xizmatga moslashishi va muvaffaqiyatiga ta’sirini, shuningdek uning shakllanishi va ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishda harbiy xizmatga ta’sir qiluvchi shaxsiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlardan tashkil topgan. Muddatli harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorgarlikning hissiy komponenti tushunchasining mazmunini aniqlashtirish, harbiy mehnatni bajarish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarini aniqlash va asoslash, shuningdek psixologik tayyorgarlikning boshqa tarkibiy qismlari bilan bog‘liqlikdan iborat bo‘lib yosh chaqiriluvchilarni tayyorlash paytida harbiy xizmatga psixologik tayyorgarlikning hissiy tarkibiy qismini inobatga olish talab etiladi. Muddatli harbiy xizmatchilarni, askarlarni harbiy xizmatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish orqali Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish imkoniyati bilan o‘zaro bog‘liqligi bilan belgilanadi. Jumladan: diagnostika, tuzatish, rivojlanish, profilaktika va maslahat ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonini psixologik qo‘llab- quvvatlashning butun tizimi, hissiyotni shakllantirish bo‘yicha psixologik- pedagogik eksperiment tadbirlarini amalga oshirish yosh harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi va ofitserlarning pedagogik mahoratining tarkibiy qismi, yosh harbiy xizmatchilarning hissiy tarkibiy qismini shakllantirish mexanizmini joriy etish imkoniyatidan iborat. Harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi psixologik ishning yo‘nalishi sifatida harbiy xizmatga moslashish va huquqni muhofaza qilish organlarining bo‘linmalari, va harbiy o‘quv muassasalarida harbiy mehnat muvaffaqiyatini oshirishga xizmatqiladi. Yosh askarlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligining hissiy tarkibiy qismini baholash uchun ishlab chiqilgan vositalardan harbiy xizmatchilarning kelajakdagi faoliyatini tashxislash, tahlil qilish va bashorat qilish bo‘yicha kuzatuv ishlarida foydalanish mumkin.

Muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligining hissiy tarkibiy qismini shakllantirish yosh chaqiriluvchilarning o‘quv-mashg‘ulot yig‘inida maxsus tashkil etilgan psixologik- pedagogik tadbirlar paytida amalga oshiriladi. Psixologik tayyorgarlikning hissiy tarkibiy qismini shakllantirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish harbiy xizmatga moslashishga va muvaffaqiyatga ta’sir qiladi.

Psixologik tayyorgarlikning emotsional komponentining shakllanishi quyidagi shaxsiy xususiyatlar ko‘rsatkichlarining oshishiga sabab bo‘ladi: dilkashlik, dominantlik, hulq-atvor normativligi, ishonch, o‘z-o‘zini nazorat qilish, ekstroversiya.

Harbiy xizmatga psixologik tayyorgarlikning hissiy tarkibiy qismini shakllantirish jarayoni harbiy jamoalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu birdamlik, barqarorlik, havola, odamlarning ziddiyatini kamaytirish ko‘rsatkichlarining oshishi Psixologik tayyorgarlik tadqiqot ob’ekti sifatida XX asrning 50-60-yillaridan boshlab talablarning ortib borishi munosabati bilan ko‘rib chiqila boshlandi [2].

Faoliyatga psixologik tayyorlik tuzilishida emotsional komponent turli vaqtlarda ajralib chiqqan. Bir qator olimlar uni belgilab, “hissiy hayajon”, “hissiy sozlanish”, “hissiy barqarorlik”, “mas’uliyat hissi”, “muvaffaqiyatga ishonch”, “ilhom”, “o‘zo‘zini boshqarish” kabi tushunchalardan foydalanishgan. Faoliyatga psixologik tayyorgarlikning hissiy komponenti uning boshqa tarkibiy elementlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yaqinlashib kelayotgan faoliyat uchun tanani umumiy faollashtirishga yordam beradi, uni rag‘batlantiradi, boshqaradi va tartibga soladi, hissiy barqarorlikni, tashqi stressli omillarga immunitetni ta’minlaydi. Harbiy xizmatga psixologik tayyorgarlikning hissiy tarkibiy qismini shakllantirish harbiy xizmatga moslashish muammosi bilan bog‘liq va birinchi navbatda tadqiqot namunasi-yosh aholi o‘quv lagerlarining askarlari bilan shartlangan. So‘nggi yillardagi harbiy psixologlarning tadqiqotlarida (A.I.Aleksandrov, M.I.Dyachenko, L.G‘.Jeleznyak, S.S.Mutsinov, Z.G.Senokosov, N.G‘.Fedenko va boshqalar.), faoliyatga psixologik tayyorlik va moslashish o‘rtasidagi munosabatlar masalalari juda chuqur ishlab chiqilmoqda. Yosh to‘ldirish askarlarining psixologik tayyorgarligining hissiy komponenti ularning harbiy xizmatga samarali moslashishi bilan bog‘liq - bu yosh to‘ldirishni tayyorlashning asosiy vazifasi. Ularning o‘zaro bog‘liqligi “stress”, “xafsizlik”, “xavotir” kabi psixologik kategoriyalari va ularning emotsional komponentlari yordamida harbiy xizmatning ekstremal xarakteri tufayli ochib beriladi. Harbiy xizmatchilar V.I.Lebedev konsepsiyasiga muvofiq yosh chaqiriluvchilarning o‘quv lagerlaridan o‘tayotganda, psixologik tayyorgarlikning hissiy tarkibiy qismini shakllantirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan moslashuvning bir qator bosqichlarini aniqlash mumkin [3]:

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkini muddatli harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatga moslashuvchanligini o‘ziga xos xususiyatlari sifatida harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligining hissiy tarkibiy qismini shakllantirish, yoshlarni ikki yo‘nalishda-jangovar tayyorgarlik va kundalik hayot faoliyati davomida o‘qitish sharoitida psixologik tayyorgarlikning hissiy tarkibiy qismini shakllantirish usullari tavsifi va uning shakllanish ko‘rsatkichlarini alohida ahamiyat kasb etadi. Faoliyatga psixologik tayyorgarlikning hissiy tarkibiy qismini shakllantirishda olimlarpsixologlar insonning hissiy holatlarini boshqarish usullariga e’tibor berishadi, ular aqliy holatlarning umumiy nazariyasi asosida faoliyat yondashuviga asoslangan holda,

tartibga solishning intellektual, ixtiyoriy va fiziologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zagorskaya L.V., Korchagina O.I. Askarning sub'ektivligini shakllantirishda "Rivojlanish psixologiyasi darslari" dasturining roli / Rivojlanayotgan ta'limda ta'lim mazmuni muammolari va ularni hal qilish yo'llari. Perm 2012 yil.

2. Zagorskaya L.V. Adaptiv salohiyat yoshlarning harbiy xizmatga ijtimoiypsixologik moslashuv omili sifatida, Moskva 2014 yil.

3. Джуракулов, Ж. Д., Ахмедов, И. Ю., & Мирмадиев, М. Ш. (2022). диагностика и лечение диафрагмальных грыж в детском возрасте. forcipe, 5(s1), 65.

4. Mirsidikova, A. M. (2024). kommunikativ tolerantlik va uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. Innovative Development in Educational Activities, 3(13), 27-31

TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Valiyev A. A.
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya *Maqolada ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va muammolari yoritiladi. Raqamli ta’lim resurslari o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish, interfaol ishtirok va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, haddan tashqari texnologiyaga bog‘lanish, psixologik charchoq, ijtimoiy aloqalarning kamayishi va ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ham muhokama qilinadi. Maqolada raqamli texnologiyalarni pedagogik va psixologik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha taklif va yechimlar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, ta’lim jarayoni, pedagogika, psixologiya, onlayn ta’lim, interfaol metodlar, mustaqil o‘qish, virtual muhit, texnologiyaga qaramlik, ta’lim samaradorligi.*

Аннотация *В статье рассматриваются преимущества и проблемы использования цифровых технологий в образовательном процессе. Цифровые образовательные ресурсы способствуют развитию у обучающихся самостоятельного обучения, интерактивного участия и творческого мышления. В то же время чрезмерная зависимость от технологий может приводить к психологической усталости, снижению социальных взаимодействий и негативному влиянию на эффективность обучения. В статье*

приводятся предложения и решения по правильному педагогическому и психологическому использованию цифровых технологий в образовании.

Ключевые слова: *цифровые технологии, образовательный процесс, педагогика, психология, онлайн-обучение, интерактивные методы, самостоятельное обучение, виртуальная среда, технологическая зависимость, эффективность образования.*

Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. XXI asr boshidan boshlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, internet tarmog‘ining keng tarqalishi va mobil qurilmalarning ommalashuvi natijasida ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunda o‘quvchilar darslarda nafaqat darslik va daftarlar bilan ishlaydilar, balki elektron platformalar, onlayn darsliklar, virtual laboratoriyalar, interaktiv testlar va multimedia resurslaridan foydalanadilar[2;204]. Bu jarayon bir tomondan ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda mustaqil bilim olish, interfaol ishtirok va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan qator pedagogik va psixologik muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot metodlari sifatida maqolada taqqoslash, ilmiy tahlil, empirik kuzatuv va mavjud tajribalarni qiyoslash yondashuvlari qo‘llanildi. Jahon tajribasida ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ko‘plab ijobiy natijalari qayd etilgan. Masalan, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya va Yevropa mamlakatlarida raqamli ta’lim platformalari o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshirish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘qituvchi–o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham “Elektron darslik”, “Masofaviy ta’lim”, “OneID orqali kirish”, “UzEdu” va boshqa platformalar bosqichma-bosqich joriy etilib, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida qo‘llanilmoqda[1;78].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda bilimlarni yanada samarali o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Interaktiv taqdimotlar, videodarslar, animatsiya va grafik vositalar orqali o‘quv materiali vizual tarzda tushunarli bo‘lib, o‘quvchilarning eslab qolish darajasi ortadi. Shuningdek, virtual laboratoriyalar yordamida fizika, kimyo, biologiya kabi fanlarni amaliy jihatdan o‘rganish imkoniyati kengayadi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarda ilmiy tadqiqotga qiziqish uyg‘otadi va nazariy bilimni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

Biroq natijalarda ayrim salbiy holatlar ham kuzatilmoqda. Haddan tashqari raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda psixologik charchoq, diqqatning tarqoqligi, ko‘rish va eshitish faoliyatida salbiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Psixologlar fikriga ko‘ra, kuniga 3–4 soatdan ortiq vaqtni kompyuter yoki smartfon oldida o‘tkazadigan o‘quvchilarda ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari pasayishi, jismoniy

faollik kamayishi va uyqu rejimining buzilishi kuzatiladi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyaga qaramlik masalasi ham tobora dolzarb bo‘lib bormoqda[3;78]. Bu o‘z navbatida shaxsning psixologik holatiga, ijtimoiylashuv jarayoniga va ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muhokamalar jarayonida shuni aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonida samarali qo‘llash uchun bir qator shart-sharoitlar mavjud. Avvalo, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi yuqori bo‘lishi lozim. Ko‘plab hollarda texnik vositalar mavjud bo‘lsa-da, ularni to‘g‘ri ishlatish bo‘yicha pedagogik va metodik malaka yetishmasligi kuzatiladi. Shu sababli muntazam ravishda o‘qituvchilar uchun seminar-treninglar, master-klasslar tashkil etish zarur. Ikkinchidan, o‘quv dasturlari raqamli ta’lim imkoniyatlariga moslashtirilishi lozim. Aks holda, texnologiyalar faqat tashqi ko‘rinishda qo‘llanilib, mazmunan samaradorlikni ta’minlamaydi[4;209]. Uchinchidan, psixologik jihatdan o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin asosidagi raqamli metodlar samarali bo‘lsa, o‘rta va yuqori sinflarda loyiha va tadqiqot asosidagi onlayn faoliyatlar maqsadga muvofiqdir.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida psixologik muammolarni bartaraf etish uchun bir qator amaliy yechimlar taklif etiladi. Birinchidan, dars vaqti davomida texnologiyalardan foydalanish me’yorini belgilash, o‘quvchilarni jismoniy mashqlar va ko‘z gimnastikasiga jalb qilish muhimdir. Ikkinchidan, o‘quvchilarda texnologiyadan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish lozim. Ular internetdan faqat o‘quv materiallari uchun emas, balki ijodiy faoliyat, ilmiy izlanish va foydali axborot olish uchun foydalanishga o‘rgatilishi kerak. Uchinchidan, ota-onalar nazorati va pedagogik psixologlar bilan hamkorlikda raqamli qaramlikning oldini olish choralarini ko‘rish zarur[5;66].

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular o‘quvchilar bilimini kengaytiradi, ta’limni yanada qiziqarli qiladi, interfaol usullar orqali o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi. Shu bilan birga, ularni noto‘g‘ri yoki ortiqcha qo‘llash psixologik charchoq, ijtimoiy aloqalarning pasayishi va ta’lim samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun raqamli texnologiyalarni pedagogik va psixologik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash, me’yoriy cheklovlarga amal qilish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ota-onalarning hamkorligini kuchaytirish zarur. Faqat shunda raqamli texnologiyalar haqiqiy ta’lim vositasi sifatida xizmat qiladi va kelajak avlodning barkamol shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘raqulov, B. (2019). *Zamonaviy ta’lim metodlari va interfaol usullar*. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.

2. Karimova, V. (2022). *Psixologiya va pedagogikada innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti.

3. Prensky, M. (2001). Digital natives, digital immigrants. *On the Horizon, 9*(5), 1–6. https://doi.org/10.1108/10748120110424816

4. Selwyn, N. (2016). *Education and technology: Key issues and debates*. London: Bloomsbury Publishing.

5. Bates, A. W. (2019). *Teaching in a digital age: Guidelines for designing teaching and learning*. Vancouver: Tony Bates Associates Ltd.

TA`LIM MUASSASALARIDA TARBIYA JARAYONI SAMARADORLOGINING ASOSIY PSIXOLOGIK SHART SHAROITLARI

Tilloyev U. U.
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijtimoiy resurslaring eng asosiy indikatorlaridan va shaxs xulq-atvorining asosi hisoblangan tarbiya va uning sifat, xususiyat va fazilatlarini shakllantirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar*: sifat, xususiyat, fazilat, axloq, tarbiya, g‘oya, mafkura, yondashuv, ijtimoiy-psixologik omil, tahdid, illat*

Аннотация: *В данной статье теоретически и практически исследуется образование, считающееся одним из основных показателей социальных ресурсов и основой поведения личности, формирование его качества, характеристик и качеств.*

Ключовые слова: *качество, особенность, качество, нравственность, воспитание, идея, идеология, подход, социально-психологический фактор, угроза, порок.*

Tarixga nazar solsak, yer yuzida inson paydo bo‘libdiki, o‘z og’irini yengillatish uchun tinimsiz izlanadi, o‘qiydi, o‘rganadi va nimalarnidir yaratadi. Aynan shu harakat tufayli inson psixikasi doim taraqqiyot etib boradi. Qolaversa shu yo‘l bilan ham o‘zi yuksalib boradi, ham o‘z bilganlarini o‘zgalarga o‘rgatish orqali insoniyat tamaddunining yuksalishiga o‘z hissasini qo‘shib boradi. Barcha xalqlarda, ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi vorislik ta’minlanadi. Yana tarixga nazar solsak, ilk muloqot va munosabatga kirishish va avlodlarga meroslarni qoldirish, ya’ni ijtimoiy xotirotdagi ijtimoiy bilimlarni shakllanish yo‘lidagi qadimiy belgi-rasmlar orqali o‘z fikrini

ifodalagan kromonyon odami bilan hozirgi fan-texnika samarasi bo‘lgan internet orqali axborot almashishgacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyot buning yaqqol isbotidir. Bu yutuqlarning zamirida shak-shubhasiz inson uning intilishlari, qiziqishlari, shuningdek, u bilan birga birga bo‘lgan atrofidagi kishilarning qo‘llab-quvvatlashi, yaqinlarining ishonchi muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda inson, uning bilimi, so‘g’ligi ishchanligi, malakasi kabilar inson kapitali deyilsa, uning atrofidagi yaqinlari bilan munosabati, hamkorligi, ishonch, umumiy qiziqishlar oqibatida yuzaga keluvchi ijobiy munosabatlar va samara, o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash kabilar ijtimoiy capital va inson resurslarini ning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Biz tadqiqotimizda ta’limning globallashuvida inson resurslarini birlashtirish, ya’ni ta’lim samaradorligidagi eng asosiy omillardan biri bo‘lgan tarbiya masalasiga to‘xtalmoqchimiz. Bugungi yangi davr, globallashuv davri, ta’lim samaradorligini oshirishda inson omili, inson kapitali va inson resurslarini tadqiq qilishda, har tomonlama yondashuvlar mavjud. Biz mazkur masalada ta’limni rivojlantirishda ijobiy inson resurslaridan biri hisoblangan tarbiya masalasini ko‘rib chiqmoqchimiz. Mazkur resurs barcha millatlarni kelajagi va taraqqiyoti uchun eng dolzarb inson resurslaridan biri hisoblanadi[1]. Aynan mazkur tarbiya resursini atroflicha tadqiq qilmasdan turib uni rivojlantirish mushkul kechadi. Butun dunyoda vertualishish kuchayib, mutatsiyalashib borayotgan bir vaqtda isonlardagi tarbiya resursini o‘rganish va uning zamonaviy indikatorlarini aniqlab, amaliyotga tatbiq etish eng ustuvor masalardan biri bo‘lishi kerak. Bugungi zamon va makon shaxsning eng asosiy resurslaridan biri bo‘lgan tarbiya masalasiga, yangicha talablarni qo‘yayotgani biz soha vakllarini doim diqqat markazimizda bo‘lishiligi lozim. Zero, shiddati vertualashish jarayoni kuchaytgan bir davrda ta’lim-tarbiya masalasiga aniq, ilmiy asoslanga, qat’iy talablar bilan yondashish juda muhim pedagogik-psixologik omillardan biri hisoblanadi[2]. Tadqiqotlarimiz globallashuv davrida shaxsning ijtimoiy voqelikka ijtimoiylashuvidagi eng aossiy resurslaridan biri bo‘lgan tarbiya masalasi ham shaxsning kamoloti, ham ta’limni rivojlantirish uchun eng asosiy maslalardan biridir. Hozirgi kunda barcha xalqlar uchun ham barkamol shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish masalasi har qachongidanda muhim ahamiyatga egaligi bizga ma’lum. Sababi, globallashuv jaddalashgan sari odamlarda marginalizm (ijtimoiy begonalashuv, ijtimoy yakkalanish), e’tiborsizlik, loqaydlik, beparvolik, ishtiyoqsizlik kabi xususiyatlar ortib bormoqda. Mazkur holat sotsiumning ijtimoiy-ma’naviy muhitini beqarorlashuvini yuzaga keltiradi. Shu sabali bugungi kunda yoshlarda asosiy resurslardan biri bo‘lgan tarbiya masalasini ijtimoiy-psixologik omillari va barkamol shaxs tarbiyasidagi asosiy yo‘nalishlarni belgilab olish, ularning ustuvor indikatorlarini ishlab chiqish juda zarur hisoblanadi. Yoshlarda tarbiyaning ijobiy fazilatlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik-omillarida ularning aniq belgilab olingan

ma’naviy-axloqiy sifatlar va fazilatlarini ma’naviy indikator sifatida tahlili qilish juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa tarbiya isharidagi profilaktika ishlarini maqsadli va manzilli tashkil qilishdagi psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq masalalarni ham o‘z ichiga oladi. Jumladan, bu yo‘nalishda dastlab tarbiyaviy maqsadni belgilash bosqichida tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishga mas’ul shaxsning vazifasi ta’lim muassasasi jamoasi imkoniyatlarini yagona g‘oyaga yo‘naltirish, mavjud pedagogik-psixologik shartsharoitlardan unumli foydalanish chora-tadbirlarini belgilash, tarbiyalanuvchilarning muayyan ta’sir tizimini qabul qilishga tayyorgarlik darajasiga tashhis qo‘yishdan iboratdir. XXI asrda tarbiyaning idealistik, pragmatik, realistik, antropotsentristik, erkin tarbiya, gumanistik va texnokratik modellariga amal qilinmoqda. Mazkur tizimni amalga oshirishda ushbu modellarning ijobiy jihatlari milliy tarbiya xususiyatlari bilan uyg‘unlashtiriladi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o‘rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat insonlarda Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar ularning ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigitqizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda. Xar bir xalq o‘zining yoshlarida tarbiya va milliy tarbiya resurslariga alohida e’tibor qaratadi. Biz tadqotimizda yoshlarda asosiy ijobiy resurslardan biri bo‘lgan milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari tadqiq qilishda milliy tarbiyaning manbalarini o‘rganish muhim jarayondir deb hisoblaymiz. Bizningcha, milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir. «Millat», «milliylik», «milliy g‘urur», «milliy odob», «millatlararo muloqat madaniyati» tushunchalarining o‘zagini arabcha «mil» so‘zi tashkil qiladi. Bu so‘z arabchada «o‘zak», «’tub mohiyat», «negiz» ma’nolarini anglatadi. «Millat» so‘zi esa bir necha ma’noni; 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi: 3) xalq ma’nolarini anglatadi. «Millat», «milliylik»

tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g‘arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko‘ramiz. Aniqrog‘i, g‘arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o‘zaklarga borib tutashadi. Ya’ni Ovrupo xalqlari tillariga «millat» tushunchasi lotincha «natio» - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo‘lsa, Osiyoga esa Islom ta’limoti orqali yuqoridagi uch xil ma’noda kirib kelib, singdi. «Tarbiya» so‘zi esa «milliy tarbiya» tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogikpsixologik ta’rif berish juda muhim sanaladi. Arabcha «tarbiya», «tarbiyat» so‘zlari 1) parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; o‘rgatish; odob o‘rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko‘rsatish: ko‘z-quloq bo‘lish; himoya qilish kabi ko‘pqirrali mazmunga ega. «Tarbiyachi» so‘zi esa shu ko‘pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir. Demak, milliy tarbiyaning lug‘aviy ma’nosini «yosh avlodlarni o‘z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta’lim bermoq» sifatida aniqlash mumkin. Ta’lim va tarbiya davlat tomonidan amalga oshirilar ekan, o‘z mamlakatining iqtisodiy, ma’naviy, tarbiyaviy va mafkuraviy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirildi. Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim va tarbiyaning milliy asosga qurilishining eng oliy kafolati uning Konstitutsiyasida himoyaga olindi. Konstitutsiyaning mohiyati ochiqlik, hamkorlik, milliy madaniyatlar ravnaqi, millatlararo inoqlik ruhiga ega. O‘zbekistonda milliy madaniyatlarni tiklash, ravnaq toptirish yo‘lida milliymadaniy markazlar tashkil etilib, ularning faoliyati matbuot, radio va televideniyeda keng yoritilishi milliy qadriyatlarni tiklash, boyitish orqali umumfuqaroviy va umuminsoniy totuvlikka erishish yo‘li tanlaganini ko‘rsatdi. Chunki ”o‘zbek milliy madaniyati, tili an’analarini haqqoniy ravishda tiklash va rivojlantirish aholining boshqa milliy guruhlaridagi mana shunday jarayonlar hisobiga bo‘lmasligi” davlat tomonidan kafolatlandi. Qaysi bir jamiyatda ijtimoiy islohot zarurati yuzaga kelsa, o‘sha jamiyatda maktabga, tarbiyaga e’tibor keskin kuchayib, tarbiyani, jamiyatni takomillashtirishning bosh vositasi deb tan olina boshlanadi. Tarix bu kabi misollarga boy. Ana shu nuqtai-nazardan Yangi O‘zbekiston maktablari qarshisida turgan vazifa dolzarb va murakkabdir. Chunki endilikda ular o‘z xalqining eng go‘zal fazilatlaridan bo‘lgan milliy g‘urur, millatlararo muloqot madaniyati, O‘zbekiston vatanparvarligi, milliy odob, sof vijdonni o‘ziga mayoq qilib olib, Yangi O‘zbekiston sharafiga xizmat qila oluvchi o‘g‘il-qizlarning yangi avlodini tarbiyalab yetishtirishi kerak. Bu ijtimoiy buyurtma oila, bolalar bog‘chalari, maktab, mahalla, turar joylarda, maktabdan tashqari muassasalarda hamkorlikda olib boriluvchi milliy tarbiya jarayonini ilmiy nazariy tadqiq qilishni taqozo qiladi[3]. “Milliy tarbiya” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, uning: milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat; umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli; xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (YUNESKO tamoyili) vositasi; ta’limga oid siyosatning maqsad, vazifa

va tamoyillarining tarkibiy qismi; turli millatlar bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, ma'naviy manbai; o'quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go'zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo'nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili; millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida umumfuqaroviy totuvlikka erishishining insonparvarona yo'li va vositasi; ijtimoiy va maktab tarbiyalari uyg'unligining pedagogik sharti; insoniyatni umumbashariy uyg'unlikka olib borishning pedagogik yechimi; ijtimoiy-ma'naviy jabhada milliy xavfsizlikni ta'minlashning strategik ob'ekti va vositasi; etnopsixologik nuqtai-nazardan, o'quvchilarda milliy (avto va getero) stereotiplarni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish, rivojlantirish jarayoni ekanligi aniqlandi. Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, aytish mumkin-ki, milliy tarbiya tizimi – bu har bir xalqning o'ziga xos milliy xarakteri, axloq qoidalariga va taraqqiyotining tarbiyaviy talablariga asoslanib, yangi kompetensiyalarga ega avlodlarni yetishtirishning pedagogik jarayonidir. Milliy tarbiya ilmiy-pedagogik atama sifatida kam o'rganilganiga qaramasdan u har bir xalq bilan azaldan birga, mavjud edi. Chunki har bir xalqning tarixi – uning o'zligiga, xalqchil madaniyatiga asoslangan tarbiyaning tarixidir. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida ahamiyat kasb etadigan milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari, indikatorlari, mezonlari juda muhim hisoblanadi. Bu masalada ota-onalarning, tarbiyaga mas'ul shaxslarning milliy tarbiya, milliy xarakter, milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini bilmasdan turib ularni barkamol qilib tarbiyalashning ta'sirchanligi sust bo'ladi. Qolaversa bugungi yoshlarimiz real voqelikdan ko'ra, vertual voqelik ta'siriga ko'proq tobe bo'lib borayotgan bir vaqtda tarbiya masalasidagi ishlarimizni yangicha, zamonaviy yo'nalish va yondashuvlarda tashkil etishimiz juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov M. Milliy tarbiya. Monografiya. T.: 2004. B.210

2. Jabborov X.X.. Психологические особенности идеологического влияния “массовой культуры” на человеческий разум. Социальный психолог журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.

3. Jabborov X.X. “Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

HARBIY XIZMATCHILARDA MILLIY VA JANGOVAR RUHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK JIHATLARI

Xoliqov I. R.
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qurolli Kuchlarimiz saflarida o‘z xizmat majburiyatlarini bajarib kelayotgan harbiy xizmatchilarimizda milliy va jangovar ruhni rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, komandir va boshliqlar tomonidan amaliy ishlarni tashkil etish masalalariga ham e’tibor qaratilib, xulosa hamda tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy xizmatchi, jangovar va milliy ruh, motivatsiya, tizim, vaziyat, jarayon, xavf- xatar, tahdid, stress, emotsiya, birlik, jangovar vaziyat, jangovar tayyorgarlik.*

Аннотация. *В статье анализируются психолого-педагогические аспекты развития национального и боевого духа военнослужащих, исполняющих служебный долг в рядах Вооружённых Сил. Кроме того, уделяется особое внимание командирам и начальникам при организации практической работы по укреплении боевого духа подразделений. В конце статьи даются рекомендации и выводы по данной проблематике.*

Ключевые слова: *военнослужащий, боевой и национальный дух, мотивация, система, ситуация, процесс, опасность, угроза, стресс, эмоция, единство, боевая обстановка, боевая подготовка*.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta’minlash, hududiy yaxlitligini saqlash va barqaror rivojlanishini kafolatlashda Qurolli Kuchlar muhim rol o‘ynaydi. Bu vazifalarni amalga oshirishda harbiy xizmatchilarning yuksak ma’naviy-mafkuraviy va jangovar tayyorgarligi, milliy g‘oyalarga sadoqati hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan harbiylar orasida milliy va jangovor ruhni shakllantirish va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada ushbu ruhni shakllantirishning psixologik va pedagogik jihatlari tahlil etiladi.

Milliy va jangovor ruh tushunchasi.

Milliy ruh - bu shaxsda o‘z millati, tarixi, madaniyati, an’analari va milliy qadriyatlariga nisbatan iftixor tuyg‘usini uyg‘otuvchi, Vatanga sadoqatni shakllantiruvchi ichki ruhiy holatdir. U insonda Vatanga muhabbat, fidoyilik, milliy g‘urur va ma’naviy barkamollikni shakllantiradi.

Jangovor ruh esa harbiy xizmatchida xizmat burchiga mas’uliyat bilan yondashish, har qanday sharoitda topshirilgan vazifani bajarishga tayyorlik, jasorat,

matonat va intizomni o‘z ichiga oladi. Bu ruhiy holat harbiylarda stressga chidamlilik, birdamlik va jangovar harakatlarga psixologik tayyorgarlikni oshiradi.

Harbiy xizmatchilarda milliy va jangovar ruhni rivojlantirishning psixologik jihatlari.

1. Shaxsiy motivatsiyani shakllantirish: Milliy va jangovor ruh - bu avvalo shaxsning ichki motivatsiyasiga bog‘liq. Psixologik jihatdan, harbiy xizmatchida Vatanni himoya qilish nafaqat burch, balki sharafli vazifa sifatida qabul qilinishi zarur.

2. Ijobiy emotsiyalarni qo‘llab-quvvatlash: Jangovar tayyorgarlik davomida stress, qo‘rquv va ikkilanish holatlari kuzatilishi mumkin. Psixologik tayyorgarlik shu holatlarni yumshatish, harbiy xizmatchilarni ichki ishonch va xotirjamlik bilan ta’minlashga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan harbiy qism va muassasalarda psixologik xizmatlarni amalga oshirishni keng joriy qidish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Guruhiy birlik va o‘zaro ishonch: Jangovor vaziyatlarda birdamlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Psixologik treninglar, jamoaviy mashqlar orqali bir-biriga nisbatan ishonch, yordamga tayyor turish hissi shakllantiriladi. Bundan tashqari, o‘quv-jangovar vazifalarni bajarishga komandir tomonidan jamoani jipslantirish, yagona maqsadga yo‘naltirish muhim sanaladi.

4. Irodaviy sifatlarni rivojlantirish: Qiyin sharoitlarda qat’iyat, sabr-toqat, o‘zini boshqara olish - bu jangovor ruhni mustahkamlovchi asosiy psixologik fazilatlardir.

Pedagogik jihatlari.

1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslarini o‘rgatish: Ta’lim jarayonida harbiy xizmatchilarga milliy g‘oya, tarixiy meros, buyuk ajdodlarimiz haqida bilim berish orqali milliy iftixor hissini kuchaytirish mumkin.

2. Tarbiyaviy ishlar tizimini yo‘lga qo‘yish: Harbiy qismlarda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, vatanparvarlik kechalari, uchrashuvlar orqali tarbiyaviy ta’sirni oshirish muhim ahamiyatga ega.

3. Namuna orqali o‘rgatish: Katta tajribaga ega, o‘z xizmat burchiga sadoqatli harbiy xizmatchilar misolida yosh harbiy xizmatchilarni tarbiyalash – samarali, ustoz-shogird an’analariga sodiq muhitni shakllantirish pedagogik usullardan biri hisoblanadi.

4. Interaktiv usullardan foydalanish: Vatanparvarlik darslari, simulatsiya mashg‘ulotlari, videoroliklar va taqlidiy holatlar (keyslar) orqali bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash imkoni yaratiladi.

Xulosa . Harbiy xizmatchilarda milliy va jangovor ruhni shakllantirish - bu uzluksiz ravishda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan psixologik va pedagogik jarayondir.

Bu yo‘nalishda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- harbiy ta’lim muassasalarida milliy g‘oya va vatanparvarlik bo‘yicha maxsus kurslar joriy etilishi;

- harbiy qismlarda muntazam ravishda motivatsion treninglar va tarbiyaviy tadbirlar tashkil etilishi;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish;

- psixolog mutaxassislar ishtirokida harbiy xizmatchilarning shaxsiy ruhiy holatini doimiy tahlil qilib borish;

- komandir (boshliq) lar tomonidan shaxsiy tarkibga bo‘lgan munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish;

- ustoz-shogird an’analarini harbiy xizmat faoliyatida keng joriy qilish shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar konsepsiyasi.

2.“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” o‘quv qo‘llanmasi.

3.Imomnazarov J. “Harbiy psixologiya va pedagogika” darsligi, Toshkent, 2021.

4.Yunusova G. “Harbiy kadrlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish masalalari”, Ilmiy jurnal, 2022.

5. Xoliqov, I. (2025). Chaqiruvga qadar boshlang ‘ich tayyorgarlik fani o ‘qituvchilarida pedagogik-psixologik kompetentlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar tahlili. *Modern Science and Research*, *4*(5), 13-19.

6. Холиков, И. Р. Психологические характеристики компетентности учителей начальной допризывной подготовки общеобразовательных школ.

ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA IJTIMOIY MOTIV MASALASINING TADQIQ ETILGANLIGI

Yo‘ldoshev J.X. p.f.n, dotsent Tuychiyeva S.M.
Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: *Shaxslar, guruhlar va ijtimoiy institutlarning xatti-harakatlarini aniqlash mexanizmini tushuntirish ijtimoiy boshqaruvning muhim nazariy muammosidir. Ushbu muammoning yechimini “ijtimoiy harakat” da ko‘radi, chunki ”ijtimoiy motiv” bu “ijtimoiy harakat” ning o‘ziga xos turi. Maqolada “ijtimoiy motiv” tushunchasi va psixologik tadqiqotlarda ijtimoiy motivning o‘ziga xos xususiyatlari tasvirlangan.*

Kalit so‘zlar: *motivatsiya; ijtimoiy harakat; ijtimoiy motiv.*

Motiv (psixologiyada) — inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil, vaj motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqa motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida Motiv atamasi sub’yektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo‘llanadi. Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi.

Shaxslar va guruhlarning motivatsiya mexanizmlarini tushunishning ahamiyati ijtimoiy tizimlarda sub’ektlarning xatti-harakatlari ularning ichki motivatsion sabablari (motivlari) bilan belgilanadi. Motivatsiya nazariyalarining hal qilinmagan asosiy muammosi - bu turli xil ehtiyojlarni bir-biri bilan taqqoslash va ularni qondirish ketma-ketligini aniqlash usullarining yo‘qligi. Biologik va aqliy ehtiyojlarni qondirish orqali sub’ekt o‘zini “ijtimoiy” tutadi. Ya’ni, bu ehtiyojlar biologik yoki aqliy emas, balki “ijtimoiy harakat” ni faollashtiradi. Ijtimoiy harakatning sababi “ijtimoiy motiv” bo‘lib, unda ehtiyojlar beqiyos ob’ektiv xususiyatlarini yo‘qotadi, ammo sub’ektga ijtimoiy motivlarni bir-biri bilan taqqoslash va ularni qondirish tartibini aniqlashga imkon beradigan “muhimlik” bahosini oladi.

Ijtimoiy mojaro ta’riflari va ijtimoiy motivning o‘xshashligi ularning tuzilmalarining o‘ziga xosligi natijasidir, ular ziddiyatni keltirib chiqaradigan qarama-qarshilikni va sub’ektning ushbu qarama-qarshilikka salbiy munosabatini o'z ichiga oladi. Ammo bir xil tuzilmalar turli xil funksiyalarga ega bo‘lolmaydi, chunki har qanday tizimning xususiyatlari uning elementlarining tarkibi va ushbu elementlar o‘rtasidagi munosabatlarning tabiati bilan aniq belgilanadi. Amaliy jihatdan, bu shuni anglatadiki, uning funksionalligi jihatidan ijtimoiy motiv hech qanday tarzda ijtimoiy mojarodan kam emas.

Ijtimoiy motiv va ijtimoiy ziddiyat-bu sub’ektning (shaxs, guruh, ijtimoiy institut) mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan narsalar haqidagi g‘oyalarini o‘zgartirish yoki saqlashga salbiy munosabati tufayli yuzaga keladigan maxsus holatlaridir. Bu holat sub’ektga qo‘zg‘atuvchi kuch sifatida ta’sir qiladi, lekin sub’ektning tegishli g‘oyalari manbasini yoki uning erkinlik va ehtiyojning o‘z omillariga salbiy munosabatining sabablarini ko‘rsatmaydi. Shuningdek, na ijtimoiy ziddiyat, na ijtimoiy motiv motivatsiyalangan sub’ektning harakatlari (yoki harakatsizligi) yo‘nalishini aniqlashga imkon bermaydi. Ijtimoiy motiv-bu juda muhim bo‘lsa-da, ijtimoiy sub’ektlarni rag‘batlantirish mexanizmining faqat bitta elementi hisoblanadi.

Ijtimoiy motivlarga misollar:

Tan olishga intilish:

Hamkasblar yoki rahbariyat tomonidan maqtov, ma’qullash istagi.

Burch va mas’uliyat hissi:

Jamiyat oldidagi burchingizni bajarish yoki foydali bo'lish zarurligini tushunish.

Jamoaning bir qismi bo‘lish istagi:

Umumiy ishda ishtirok etish va jamoa yoki kompaniyaga qo‘shgan hissangizning ahamiyati.

Maqom va mavqega ehtiyoj:

Boshqalar bilan munosabatlarda ma'lum bir pozitsiyani egallash yoki yuqori ijtimoiy mavqega ega bo‘lish istagi.

Ijtimoiy hamkorlik:

Birgalikdagi faoliyatga va boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarga e'tibor qaratish.

Ijtimoiy motivlar darajasi:

Keng ijtimoiy:

Majburiyat, ma'suliyat yoki faoliyatning ijtimoiy ahamiyati kabi umuminsoniy qadriyatlar va tushunchalar bilan bog‘liq.

Tor ijtimoiy (pozitsion):

Guruhda ma'lum bir mavqega erishish, shaxslararo munosabatlarda ma'qullash va tan olishga qaratilgan.

L.I. Bojovichning ta'rifiga ko‘ra, “o‘quv faoliyatining motivi – bu o‘quvchining shaxsini, uning asosiy yo‘nalishini tavsiflovchi, uning oldingi hayoti davomida ham oila, ham maktabning o‘zi tomonidan tarbiyalangan motivlardir".

A.K.Markova o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi o‘quv motivining ta'rifini taklif qiladi: “motiv – bu o‘quvchining unga bo‘lgan ichki munosabati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘quv ishining alohida tomonlariga yo‘naltirilganligi”.

Torndayk bolaning ijobiy o‘quv motivatsiyasini uni jazolash orqali hosil qilib bo‘lmasligini, bunday chora-tadbirlar bolada faqatgina salbiy motivatsiyani vujudga keltirishini e'tirof etgan. O‘z tadqiqotlaridan kelib chiqib, Torndayk real inson turli rejadagi o‘z ehtiyojlari hamda talablari orqali amalga oshiradigan, uzoq vaqt davom etadigan jarayon hisoblangan o‘quv faoliyatiga aloqador bo‘lgan umumiy ko‘rinishdagi xulosalarga keladi va bu xulosalar, motivlashtirish nuqtai nazaridan qaralganda, mustahkamlashning alohida bitta tizimiga sig‘maydi. J.Bruner o'qish motivlari masalasiga Torndaykdan boshqacharoq yondashadi. U o'zining “O'quv jarayoni” nomli kitobida o'quvchining real, yetarli darajada uzoq davom etadigan o'qish jarayoni tufayli tug'iladigan amaliy va nazariy muammolarni e'tirof etgan.

J.Bruner faqat o‘qishni motivatsiyalash, ya'ni har doim ham o‘qish jarayoniga undovchi, anglangan omillar haqidagina emas, shu bilan birga, o‘quvchining motivlari haqida ham fikr yuritadi. Garchi uning fikrlari umumiy xarakterda bo‘lsa ham, ulardagi ayrim yo‘nalishlar diqqatga sazovordir.

X.Xekxauzen ta'kidlaganidek, "motivatsiya psixologiyasi kabi turli tomonlardan yondashish mumkin bo'lgan psixologik tadqiqotning boshqa sohasi deyarli yo'q".

Rus psixologi V.Vilyunas motivatsiyani "harakatni hayotiy shart-sharoitlar va ob'yektlarga rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi, aqliy aks ettirish va u tartibga soluvchi faoliyatning tarafkashlik, tanlab olish va yakuniy maqsadga muvofiqligini belgilovchi psixologik shakllanish va jarayonlar majmui" deb ta'riflagan.

E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" kitobida keltirilishicha motivlar quyidagi turkumlarga bo'linadi.

I. Shaxsning ijtimoiy ehtiyojlari bilan uyg'unlashgan, ularning mohiyati mezoni orqali o'lchanuvchi motivlar:

- ❖ dunyoqarashga taalluqli, aloqador bo'lgan g'oyaviy motivlar;
- ❖ ichki va tashqi siyosatga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi, shaxsiy pozisiyani ifodalovchi siyosiy motivlar:
- ❖ jamiyatning axloqiy normalari, prinsiplari, turmush tarzi, etnopsixologik xususiyatlariga asoslanuvchi axloqiy motivlar;
- ❖ borliq go'zalligiga nisbatan ehtiyojlarda in'ikos etuvchi nafosat (estetik) motivlari.

II. Faoliyat turlari mohiyatini o'zida aks ettiruvchi motivlar:

- ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni mujassamlashtiruvchi motivlar;
- kasbiy tayyorgarlik va mahoratni o'zida namoyon etuvchi motivlar;
- o'qishga, bilishga (kognitiv), ijodga (kreativ) oid motivlar.

III. Paydo bo'lish xususiyati, muddati, muhlati, barqarorligi bilan umumiylikka ega bo'lgan motivlar:

- ✓ doimiy, uzluksiz, longityud xususiyatli motivlar;
- ✓ qisqa muddatli, bir lashzali, bir zumlik va soniyalik motivlar;
- ✓ uzoq muddatli, vaqt taqchilligidan ozod, xotirjam xatti-harakatlarni talab etuvchi motivlar.

IV. Vujudga kelishi, kechishi sur'ati bioquvvat bilan o'lchanuvchi motivlar:

- kuchli, qudratli, ta'sir doirasidagi shijoatli motivlar;
- paydo bo'lishi, kechishi o'rta sur'atli motivlar;
- yuzaga kelishi, kechishi zaif, bo'sh, kuchsiz, beqaror motivlar.

V. Aks ettirish darajasi, sifati nuqtai nazardan ierarxiya vujudga keltiruvchi motivlar.

biologik motivlar;

psixologik motivlar;

yuksak psixologik motivlar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Ijtimoiy motiv-bu shaxsning boshqa odamlar bilan muloqot qilish, tan olish, hurmat qilish, ma'qullash, jamiyatdagi mavqei yoki ta'siriga bo'lgan intilishga asoslangan harakat qilish zarurati. U burch, jamiyat oldidagi mas'uliyat, umumiy ishda ishtirok etish yoki ijtimoiy rollarni bajarish bilan bog'liq harakatlarni, shuningdek, atrofdagilarning ijobiy munosabati va roziligini olish istagini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асмолов, А. Г. Личность как предмет психологического исследования /А. Г. Асмолов.- М.: Изд-во Моск. ун-та, 1984. -104 с.

2. А.С. Герасимова “Теория учебной мотивации в отечественной психологии” Международный форум в Сочи / Научные материалы международного форума и школы молодых ученых ИП РАН / Раздел 2.

3. Наумова Е.В. Мотивация и социальное действие // Теория и практика общественного развития. — Краснодар, Издательский дом «Хорс». — 2014. — № 21. — С. 41—44.

4. Наумова Е.В. Социальный конфликт как элемент технологии социального управления // Вестник НГУЭУ. — 2012. — № 4. — С. 197—206.

5. Вилюнас, В.К. Психологические механизмы мотивации человека / В.К. Вилюнас. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1990. - 288с.

6. E.G‘.G‘oziev "Umumiy psixologiya" o‘quv qo‘llanmasi Toshkent – “Universitet” – 2002 (125-bet)

QOBILIYAT VA UNING HARBIY XIZMATCHI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Yo‘ldoshev J.X., Tuychiyeva O.B.
Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya. *Maqolada qobiliyat tushunchasi, uning turlari va rivojlanish omillari tahlil qilinadi. Qobiliyat insonning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini ta’minlaydigan individual xususiyat bo‘lib, umumiy va maxsus turlarga bo‘linadi. Shuningdek, ta’lim va tarbiyaning qobiliyatni shakllantirishdagi roli yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *qobiliyat, psixologik xususiyat, umumiy qobiliyat, maxsus qobiliyat, bilim, ko‘nikma, malaka, ta’lim, tarbiya, ijodiy qobiliyat, amaliy qobiliyat.*

“Yoshlarimizning bilim olishi, zamonaviy kasb-hunarlarni egallashi, o‘z qobiliyat iste’dodini ro‘yobga chiqarishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish-eng muhim vazifamizdir.”

Sh.M.Mirziyoyev

Kishilar turli sohalardagi faoliyatlarida — mehnat, o‘yin, o‘qish va ijodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ba’zi bir odam bir ishni sekinlik bilan bajarsa, bir kishi tezlik bilan bajaradi. Ayrim kishilarning faoliyatlari samarali, serunum bo‘lsa, boshqalarniki esa kam unum bo‘ladi. Ba’zi odamlar o‘z ishlarida ijodiy, original usullarni ko‘proq qo‘llasa, ba’zi bir kishilarning ishlarida esa bunday usullar kamroq ko‘rinadi. Kishilar faoliyatining mana shu xususiyatiga qarab, biz ularning qobiliyatlari qandayligini aniqlab olamiz [5;384 bet]

Qobiliyatlar nima? "Qobiliyatlar" atamasi, psixologiyada uzoq va keng qo‘llanilishiga qaramay, adabiyotda uning ko‘plab ta’riflari mavjudligi noaniq. Agar siz uning ta’riflarini umumlashtirsangiz va ularni ixcham tasnifda taqdim etishga harakat qilsangiz, u quyidagicha ko‘rinadi:

1. Qobiliyatlar-inson ruhining barcha turdagi aqliy jarayonlar va holatlar to‘plami sifatida tushuniladigan xususiyatlari. Bu qobiliyatlarning eng keng va eng qadimgi ta’rifidir. Hozirgi vaqtda u deyarli psixologiyada ishlatilmaydi.

2. Qobiliyatlar - bu insonning turli xil faoliyat turlarini muvaffaqiyatli bajarishini ta’minlaydigan umumiy va maxsus bilimlar, ko‘nikmalar rivojlanishining yuqori darajasi. Ushbu ta’rif XVIII—XIX asrlar psixologiyasida paydo bo‘lgan va qabul qilingan, qisman hozirgi kunda ham qo‘llaniladi.

3. Qobiliyat - bu bilim, ko‘nikma va malakalarga bog‘liq bo‘lmagan xususiyat, lekin ularni tezda egallash, mustahkamlash va amalda samarali foydalanishni tushuntiradi (ta’minlaydi). Ushbu ta’rif hozir qabul qilingan va eng keng tarqalgan. Shu bilan birga, bu uchalasining eng tor va eng anig‘idir.[1;374]

Qobiliyatlar va ko‘nikmalar, shubhasiz, bir xil emas, lekin ular hali ham bir-biri bilan chambarchas bog‘liq; bundan tashqari, bu aloqa o‘zaro bog‘liqdir. Bir tomondan, ko‘nikmalarni, bilimlarni va boshqalarni o‘zlashtirish ma’lum qobiliyatlarning mavjudligini anglatadi, boshqa tomondan, ma’lum bir faoliyat uchun qobiliyatni shakllantirishning o‘zi u bilan bog‘liq ko‘nikmalarni, bilimlarni va boshqalarni o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalar, bilimlar va boshqalar inson qobiliyatlari uchun mutlaqo tashqi narsa bo‘lib qoladi, faqat ular o‘zlashtirilmaguncha. Shunday qilib, ma’lum bir bilim tizimi materialida inson haqiqatan ham umumlashtirish, xulosa qilish va hokazolarni o‘zlashtirganligi sababli, u nafaqat ma’lum ko‘nikmalarni to‘playdi, balki ma’lum qobiliyatlarni ham shakllantiradi[2;705-bet]

Nemovning fikricha “qobiliyat” tushunchasida uchta g‘oya mavjud. “Birinchidan, qobiliyatlar ostida bir kishini boshqasidan ajratib turadigan individual psixologik xususiyatlar qabul qilinadi... Ikkinchidan, har qanday individual xususiyatlar qobiliyat deb nomlanmaydi, faqat har qanday faoliyat yoki ko‘plab faoliyatni amalga oshirish muvaffaqiyati bilan bog‘liq bo‘lganlar... Uchinchidan,

“qobiliyat” tushunchasi ma’lum bir odamda allaqachon ishlab chiqilgan bilim, ko‘nikma yoki ko‘nikmalarga bog‘liq emas”[1;375-bet]

Qobiliyatlar – shaxsning ma’lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan yakka psixologik xususiyatlaridir. [3;537-b.]

Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo‘lishi bilan aql sifatlari xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo‘yib bo‘lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatorga qo‘yish ham mumkin emas.

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko‘nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o‘zi bu bilim va ko‘nikmalarga taalluqli bo‘lmaydi. Malaka, ko‘nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo‘ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo‘lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi haqiqatdir.

Bolada namoyon bo‘ladigan musiqaga qobiliyat uning musiqachi bo‘lishi uchun imkoniyatlar, maxsus ta’lim berilishi, qat’iylik, salomatligining yaxshi bo‘lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko‘pgina sharoitlar bo‘lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turiboq so‘nib ketishi mumkin. [4;315 b]

Umumiy qobiliyatlarga insonning turli xil faoliyatdagi yutuqlarini aniqlaydigan qobiliyatlar kiradi. Bularga, masalan, aqliy qobiliyat, qo‘l harakatlarining nozikligi va aniqligi, rivojlangan xotira, mukammal nutq va boshqalar kiradi.

Maxsus qobiliyatlar insonning muayyan faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilaydi, uni amalga oshirish uchun maxsus turdagi moyilliklar va ularning rivojlanishi zarur. Ushbu qobiliyatlarga musiqiy, matematik, lingvistik, texnik, adabiy, badiiy, sport va boshqa bir qator narsalar kiradi. Odamning umumiy qobiliyatlari mavjudligi maxsus qobiliyatlarni rivojlantirishni istisno qilmaydi va aksincha, ko‘pincha umumiy va maxsus qobiliyatlar birgalikda mavjud bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi va boyitadi.

Nazariy va amaliy qobiliyatlar bir-biridan farq qiladi, chunki birinchisi insonning mavhum — nazariy aks ettirishga moyilligini, ikkinchisi esa aniq, amaliy harakatlarga moyilligini belgilaydi. Bunday qobiliyatlar, umumiy va maxsus qobiliyatlardan farqli o‘laroq, aksincha, ko‘pincha bir-biri bilan birlashtirilmaydi, birgalikda faqat iqtidorli, ko‘p qirrali iste’dodli odamlarda uchraydi.

O‘quv va ijodiy qobiliyatlar bir-biridan farq qiladi, chunki birinchisi ta’lim va tarbiya muvaffaqiyatini, inson tomonidan bilim, ko‘nikma, ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni, shaxs fazilatlarini shakllantirishni belgilaydi, ikkinchisi-moddiy va ma’naviy madaniyat ob’ektlarini yaratish, yangi g‘oyalar, kashfiyotlar va ixtirolarni

ishlab chiqarish, bir so‘z bilan aytganda-inson faoliyatining turli sohalarida individual ijodkorlik hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, qobiliyat insonning individual psixologik xususiyatlaridan biri bo‘lib, insonlarni turli faoliyat turlarida muvaffaqiyatga erishishni ta’minlaydi. Qobiliyatlar umumiy va maxsus turlarga bo’linib, bilim va tajribani o‘zlashtirish jarayonida rivojlanadi. Qobiliyatlar tug‘ma imkoniyatlar va tashqi omillar ta’sirida shakllanib, insonning o‘quv, ijodiy amaliy faoliyatida bevosita ta’sir qiladi. Qobiliyatlarni samarali rivojlanishi uchun ta’lim, tarbiya va muhit rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Немов Р. С. “Психология”. – 4-е изд. – М.: ВЛАДОС, 2003. – Кн. 1. Общие основы психологии.

2. Сергей Леонидович Рубинштейн “Основы общей психологии” (изд. 2-е, 1946 г.)

3.Tillashayxova X.A.,Jo‘rayeva S.N.,Abdullayeva R.M. “Umumiy psixologiya”.-T.:2022.-B.537.

4. F.I.Xaydarov., N.I.Xalilova “Umumiy Psixologiya” (Darslik).- T.: -2009.-B-315

5. Ivanov P.I., Zufarova M.E. “Umumiy psixologiya”.- T.:-2008.-B.384.

6. Safayev N.S.,Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti” (darslik).-T.:-2024.

“YUKSAK MA’NAVIY SALOHIYAT VA HARBIY JANGOVAR QUDRAT MILLIY ARMIYAMIZNING ASOSI”

dotsent Saydjanov F. M.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunga kelib dolzarb muammolardan mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda yosh avlodni buyuk ajdodlarimiz yaratgan boy tarixiy, ma’naviy va madaniy merosga tayanib tarbiyalash dolzarb vazifa sirasiga kiradi.*

Kalitli so‘zlar: demokratik, sub’ekt, huquqiy, dunyoviy, kognitiv, regulyativ, xatti-harakati, milliy qadriyat, ma’naviyat, ruhiyat me’yori, ta’lim.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq xalqimizning tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini qayta tiklash va undan jamiyatni ma’naviy yangilashda unumli foydalanish zarurati davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masalaga aylandi.

Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgarayapti.

Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin.

Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiyadan.

Xozirda O‘zbekiston huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy demokratik davlat ekanligi belgilab qo‘yilmoqda. “Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi” ekanligi belgilanmoqda.

Ma’lumki, har bir millat taraqqiyotini uning tarixisiz, ma’naviy qadriyatlarisiz va madaniy merosisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Yuksak ma’naviyatli davlat va millatni yengish mumkin emas.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning maqsadi ham xalq farovonligini yanada oshirish, odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, shunigdek mustaqilligimizning 34 yilligini “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” degan ezgu g‘oya hayotimizda izchil qaror topdi.

Kuni kecha davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev BMTning 80- sessiyasining umumsiyosiy munozaralarida:

hozirgi kunda dunyoda xalqaro institutlarning o‘rni va roli zaiflashayotganligini, qarama-qarshilik, nizo va urushlar kuchayayotganligini, texnologik va ijtimoiy tengsizlik keskin oshganligini, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib borayotganligi mutlaqo yangi, xavotirli geosiyosiy voqelikni vujudga keltirayotganligini;

zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida BMT Xavfsizlik Kengashini transformatsiya qilish va uning tarkibini kengaytirishlikni;

BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda tuzilgan Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo‘yicha Mintaqaviy Kengashni Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirish taklif etilganligi;

bugungi tahdidlarga to‘la dunyoda global transport tizimining zaifligi dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan rivojlanayotgan davlatlarning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligini;

shuningdek, pedagoglarning o‘zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platformani yaratish maqsadida O‘zbekistonda Butunjahon professional ta’lim sammitini o‘tkazish taklif etildi.

“Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta’sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish takliflarini aytib – ta’kidlab o‘tdilar.

Xozirda milliy armiyamiz zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika bilan ta’minlanayotgani, harbiy xizmatchilarning jangovar va ma’naviy tayyorgarligi sezilarli darajada oshgani qayd etildi.

Jahon tajribasi va tahlillardan kelib chiqib, ichki va tashqi xatarlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha yangi jangovar bo‘linmalar tuzildi, qo‘shinlar tarkibi optimallashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etilib, uning negizida Mudofaa vazirligining barcha oliy harbiy ta’lim muassasalari – 5 ta institut, Serjantlar tayyorlash oliy maktabi hamda Aviatsiya va uchuvchisiz uchish apparatlari mutaxassislarini tayyorlash markazi institut maqomida mazkur universitet tarkibiga o‘tkaziladi.

Oliy Harbiy ta’lim muassasalarining transformatsiyasida yagona vertikal boshqaruv tizimining tashkillashtirilishi, ta’lim sifatini oshirish va bugungi zamonaviy xavf-xatarlardan kelib chiqib professional harbiy kadrlarni tayyorlash amalga oshirilmoqda.

Bu markazlashgan vertikal tizim qo‘shinlarning jangovar salohiyatini oshirish, dual ta’limni kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Tor doiradagi ixtisosliklar (psixolog, aloqachi, ta’minotchi, omborchi kabi 18 xil yondosh soha mutaxassislari) bo‘yicha “2+2” tartibi yo‘lga qo‘yilishidir.

Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida, yangi o‘quv yilidan boshlab, bitiruvchi bosqich kursantlari uchun tanlov asosida “Oliy Bosh Qo‘mondon” davlat stipendiyasi joriy etildi. Mazkur stipendiya sohibi bakalavriatni tamomlaganidan so‘ng 5-yil mobaynida oliy harbiy ta’lim muassasalarining magistraturasiga imtihonlarsiz qabul qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, “jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi- ma’naviyatdir”

Biz uchun ma’naviyat-insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikdagi qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir.

Boshqacha aytganda, ma’naviyat-jamiyatidagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir.

Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi.

Keling unutmaylik, Vatan – bu har birimiz uchun eng ulug‘ dargoh. Uni sevish, asrash va himoya qilish faqat bir avlodning emas, balki abadiy davom etadigan missiya, millatning ezgulik yo‘lidagi buyuk vazifasidir. Keling, ajdodlarimiz singari biz ham o‘z izimizni qoldiraylik – Yuksak ma’naviyatlilik, Vatanparvarlik, sadoqat va fidoiylik izini!"

Shunday ekan ma’ruzamni davlatimiz rahbari, Oliy bosh qo‘mondonimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning so‘zlari bilan yakunlamoqchiman.

“Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o‘sib kelayotgan yosh avlod qo‘lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g‘oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbarning kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston 2017.
2. Paxrutdinov Sh.I. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. - T.: Akademiya, 2006.
3. Samarov R.S. Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. Toshkent.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.384-b.
4. Adelstein A.S. Total Propaganda Horn Mass Culture to Popular Culture. – Mahway, N.J. – London, 2021.
5. Semiruxin L.V. Nanotexnologii i soznanie // Filosofskie nauki. - 2022. - №2.
6. Mamatkulov D.M. Mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi // Monografiya – Toshkent: «Lesson press» nashriyoti, 2023 – 224 b.

HARBIY XIZMATCHILARNI JANGOVAR NAVBATCHILIKGA TAYYORLASHNING EMPIRIK TAHLILI

dotsent Saydjanov F.M.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Annotatsiya*. Ushbu maqolada bugungi kunga kelib dolzarb muammolardan biri harbiy xizmatchini jangovar navbatchilik, jangovar xizmatdagi psixologik holati, uning xizmatdoshlari bilan bir-birini tushunishi,* rahbarning bo‘ysinuvchilarga ta’sir o‘tkazish samarasi, shuningdek jangovar xizmatda motivatsiyaga, his-tuyg‘uga, shaxsga oid, bilishga taalluqli, boshqaruv xususiyatli nizolar, qarama-qarshiliklar vaziyatlar vujudga kelishi masalalari yoritilgan.

Kalitli so‘zlar: kommunikativ, sub’ekt, motivatsion, emotsional, irodaviy, kognitiv, regulyativ, xatti-harakati, milliy qadriyat, ma’naviyat, ruhiyat me’yori, affektiv vaziyat, motivatsiya.

Harbiy xizmatchilarni jangovar xizmatga tayyorlash hamda xizmatni (jangovar navbatchi bo‘linma va qorovullik xizmatini) o‘tash jarayoniga psixologik tayyorgarlik va xizmat jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan ekstremal sharoitlarda shaxsning psixik holatini hamda xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlarni amaliy jihatdan o‘rganish psixologiyada nihoyatda murakkab masala hisoblanadi.

Bularning asosiy sabablari:

1. Ekstremal sharoitdagi voqea hodisa bo‘lib o‘tgandan keyin, uning ekstremalligi tushunilib yetiladi, ya’ni tabiiy holatdan g‘ayritabiiy holatga o‘tganligi faoliyat yakunlangandan so‘ng nomoyon bo‘ladi.

2. Ekstremal sharoitni qayta tiklagan holatda ham dastlabgidek mohiyatga ega bo‘lmaydi, natijada shaxslarning psixologik xususiyatlari, avvalgiga nisbatan ikki barobar yuqori nazoratga o‘tib qoladi.

3. Ekstremal sharoitni analiz, sintezida har kim o‘zini faoliyatini extiyot chorasini ko‘rishga imkon darajasida yo‘naltiradi.

Yuqoridagi biz ko‘rsatib o‘tgan ekstremal sharoitning strukturasi (tizimi) bevosita shu sharoitdagi shaxslar faoliyatini tahliliga qaratiladi. Bunda psixologiyada keng qo‘llanilib kelinayotgan test usuli, anketa usuli, sahnalashtirish usuli, hamda turli xil labarotoriya sharoitidagi qurilmalar asosida quyidagilarni o‘rganish mumkin:

I. Psixik jarayonlar:

1. Sezgi va uning turlarini diagnostika qilish;
2. Idrok va uning buzilishi;
3. Tafakkur va uning umumlashtirishini (bevosita, bilvosita);
4. Xotiraning tiklovchanlik xususiyati (obrazliligi).

II. Psixologik xususiyatlar:

1. Diqqat va uning yo‘nalganligi;
2. Nutqning verbal, noverballigi;
3. Faoliyatning mahsuldorligi.

III. Shaxsning individual o‘ziga xos xususiyati:

1. Temperament (mijozi); 2. Xarakter (xulq-atvori);
3. E’tiqod (diniy, nodiniy); 4. Etnik xususiyati (milliy, geografik);

IV. Psixologik holatlar:

1. Emotsional holatlarni (his-hayajon) ifodalanishi:

a) Passiv emotsional holat (befarqlik, bee’tibor);

b) Faol emotsional holat (hodisaga nisbatan qo‘zg‘alganlik).

2. Emotsional holatlarni ko‘rinishlari:

a) Xursandchilik; b) Qayg‘u; v) Sokinlik.

3. Emotsional holatlarni keltirib chiqaruvchi omillarga qarab:

a) Ommaviy psixoz; b) Individual stress; v) Individual shok; g) Affekt.

Yuqorida biz ko‘rsatib o‘tgan bevosita shaxs psixologiyasiga ta’alluqli bo‘lgan xususiyatlarni turli usul va metodlar yordamida bevosita o‘rganish mumkin. Biz himoya ishimizning amaliy qismini tahlil etish uchun o‘z oldimizga yuqorida sanab o‘tilgan jarayon, xususiyatlardan ba’zilarini tanlab olib o‘rganishni maqsad qilib qo‘ydik. Uning mohiyatini ochib berish uchun 2 bobimizni 3 qismga bo‘lib o‘rganishni

maqsadga muvofiq deb topdik. Quyida mazkur mavzularlarni tahliliga batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy-tadbiqiy jihatdan o‘rganish uchun biz bevosita psixologiyada keng qo‘llanilib kelinayotgan usullardan foydalanishga harakat qildik. Bunda asosiy e’tiborimiz harbiy xizmatchilarni bilish jarayonlaridagi o‘zgarish: xizmatni o‘tashga psixologik tayyorlik va xizmat jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan ekstremal sharoitga nisbatan shaxsning psixik holatini hamda xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlarni baholashning o‘ziga xos xususiyati namoyon bo‘lganligini bir necha yillar mobaynida amalda qo‘llanilib kelinayotgan usullar orqali o‘rganishga harakat qildik. Usullarni shunday tarzda qo‘lladikki, ular bir-birini tekshirish bilan bir qatorda bir-birini to‘ldirib borishi inobatga olingan.

Shu nuqtai-nazardan bir-birini tekshiruvchi shaxsni ekstremal sharoitda hayajonlanish darajasini o‘rganuvchi Djon Teylor shkalasi (havotirlanish darajasini aniqlash metodikasi), Ch. D. Spilberg va Yu. L. Xaninning «O‘zini o‘zi baholash shkalasi shaxsning ruhiy holati va ijtimoiy ahvolini o‘rganish» metodikasidan foydalandik.

Quyida mazkur metodlarni bevosita yaxlit holatda ilovada keltirib o‘tamiz.

Shaxsning havotirlanish darajasini o‘rganuvchi J.Teylor metodikasi (ikkinchi ilova) qisqacha tasnif:

Quyidagi keltirilgan tasdiqlarni yaxshilab o‘qib chiqib va bu tasdiqlarga rozi bo‘lsangiz «Ha» javobini, agar rozi bo‘lmasangiz «Yo‘q» javobini qo‘ying. Agar savollarga javob berishga qiynalsangiz «Bilmayman» degan javob berishingiz mumkin.

Javob tariqasi sifatida faqat javoblar tartib qatori yozilgan bir varaq qog‘oz olinishi mumkin.

Javob varaqasiga savollarni tartib raqamini yozib qo‘yish tavsiya etiladi. Natijalarni qayta ishlash.

Kalit bilan mos kelgan har bir javob bir ball bilan baholanadi, noaniq javob uchun 0,5 ball qo‘yiladi.

Ko‘rsatkichlar muhimligiga qarab quyidagicha bo‘ladi:

0 dan – 6 ballgacha past tashvishli. 6 dan 20 ballgacha o‘rtacha.

20 dan – yuqorisi – yuqori tashvishli. Qayta ishlash kaliti**.**

1-12 javoblar «Yo‘q», 13-50 javoblar «Ha».

O‘zini o‘zi baholash shkalasi shaxsning ruhiy holati va ijtimoiy ahvolini o‘rganish bo‘yicha Ch. D. Spilberg va Yu. L. Xanin metodikasining qisqacha psixologik sharhi:

Havotirlanishni aniqlash uchun mavjud bo‘lgan ko‘pgina metodikalar faqat shaxsning havotirlanishi yoki havotirlanish holatini yoxud spesifik ta’sirlanish

holatlarini baholashga imkoniyat beradi. Ch.D.Spilberger tomonidan taklif qilingan metodika esa, shaxsning havotirlanish xususiyatlari tafovuti va holatini aniqlovchi yagona metodika hisoblanadi. Ch.D.Spilbergerning o‘z-o‘zini baholash shkala blankasi ko‘rsatma va 40 savol-mulohazani o‘zida qamrab olgan bo‘lib, ulardan 20 tasi situativ holatini (SH) va 20 tasi esa, shaxsning havotirlanshini (SH) baholash uchun mo‘ljallangan.

Ish tartibi: tadqiqod individual va guruhda o‘tkazilishi mumkin tadqiqodchi sinaluvchi savollarga ko‘rsatma bo‘yicha javob berishni taklif qiladi va mustaqil ishlash kerakligini eslatadi. Har bir savolga to‘rt variantda javob ko‘rsatilgan. Situativ havotirlaniish shkalasi (SX).

Ko‘rsatma: “Quyidagi keltirilgan mulohazalarni diqqat bilan o‘qib chiqing va shu vaqtda o‘zingizni qanday his qilganingizni o‘ng tomondagi grafadagi raqamlardan birini ustidan chizib belgilang. Savol ustida ko‘p o‘ylamang, chunki to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javoblar yo‘q”.

Har bir shkala bo‘yicha yakuniy ko‘rsatkich 20 dan 80 ballar hajmida bo‘lishi mumkin. Bunda yakuniy ko‘rsatkich qancha yuqori bo‘lsa, havotirlanish darajasi shuncha yuqori bo‘ladi. (ikkala shkala bo‘yicha ham ko‘rsatkichlarni izohlashda quyidagi havotirlanish shkalasini baholarini ko‘zda tutib foydalanish mumkin:

30 ballgacha past; 31-44 ball o‘rtacha ko‘rsatkich; 45 va yuqori havotirlanish ko‘rsatkichi.

Shaxsning holatini baholash testi metodikasining qisqacha psixologik sharhi: Bu testdan ijtimoiy psixologik va pedagogik yo‘nalishda tadqiqotlar o‘tkazish uchun foydalanish mumkin. U orqali shaxsiy tarkibning kasbiy-shaxsiy qiyofasi, xarakterida yaqqol aks etgan va alohida ajralib turuvchi ijtimoiy hamda psixologik fazilatlar aksentuatsiyasini baholasa bo‘ladi. Ushbu testning muhim yangiligi shundan iboratki, bunda amorf, normal va volyuntarist shaxslar o‘rtasidagi farqlarni belgilashda shaxsning moyilliklari, holati, muloqotga kirishimlilik va hamdardlik (empatiyaga) qobiliyatlari e’tiborga olinadi. Agar psixolog ushbu so‘rovnomadan foydalansa, u xizmatchilarning kasbiy va shaxsiy sifatlariga yaxshi chizgi berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bizga ma’lumki, testlarni ishlab chiqish bir qator talablarga javob bergan taqdirda yaroqli sanaladi. Testning samaradorligi ishonchlilik, validlik, diskriminativlik, standartlashtirilganlik orqali belgilanadi. Ushbu testni harbiy ta’lim tizimida qo‘llash uchun qator tadbirlar amalga oshiriladi:

harbiy ta’lim tizimining nazariy holati tahlil etiladi;

test foydalanish sharoitlariga moslashtiriladi;

testning ishonchliligi va validligi psixologik-pedagogik mezonlarga ko‘ra tekshiriladi.

Kuzatuv usuli - ekstremal sharoitda shaxs xatti-harakatlari hamda psixologik holatlarini qay darajada yo‘naltira olganligini o‘z-o‘zini kuzatish usulidan va shaxsni ektremal sharoit jarayonida o‘zini tutishini bevosita kuzatish orqali amalga oshirdik. Ya’ni bunda shaxsda namoyon bo‘ladigan verbal, noverbal nutq namoyon bo‘lishi o‘zgarishi orqali baholashga harakat qildik.

Suhbat usulining dialog yo‘nalishidan foydalanib, uni aniq yo‘nalish asosida J.Teylor, Ch.D.Spilberger metodikasidan kelib chiqqan holda amalga oshirishga harakat qildik. Bunga asosiy sabab ekstremal sharoitga qaratilgan metodikalardan tashqari chiqib ketmaslik.

Har bir usul qat’iy bayonnoma va mavzuga ta’alluqli ravishda amalga oshirildi desak xato bo‘lmaydi. Olgan natijalarimizni batafsil bayoni bilan quyida to‘xtalib o‘tamiz.

Tadqiqotda ishtirok etgan harbiy xismatchilarning aksariyati 24 yoshgacha bo‘lgan askarlardir. Quyidagi jadvallarda J.Teylor va Ch.D.Spilberger metodikalari asosida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari ma’lumotlarini o‘zida aks ettirib, metodikalarning kalitiga mos ravishda bir tizimga solingan.

1-jadval

Jangovar navbatchilikka tushayotgan harbiy xizmatchilarning o‘z holatini baholash va havotirlanish darajasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari

№	F.I.	O‘z holatini baholash darajasi			Havotirlanish darajasi		
		x	x-y	$(x-u)^2$	x	x-y	$(x-u)^2$
1.	M. S.	97 o‘rta	3,8	14,4	10 o‘rta	0,3	0,09
2.	S. D.	100 o‘rta	6,8	46,2	10,5 o‘rta	0,8	0,6
3.	A. D.	88 o‘rta	-5,2	27,04	7 o‘rta	-2,7	7,3
4.	B. O‘.	106 o‘rta	12,2	148,8	29,5 yuqori	19,8	392,04
5.	K. H.	97 o‘rta	3,8	14,4	14 o‘rta	4,3	18,5
6.	O. M.	97 o‘rta	3,8	14,4	10 o‘rta	0,3	0,09
7.	A. B.	92 o‘rta	-1,2	1,4	5 past	-4,7	22,09
8.	A. S.	91 o‘rta	-2,2	4,8	8 o‘rta	-1,7	2,9
9.	N. A.	88 o‘rta	-5,2	27,4	5 past	-4,7	22,09
10.	R. A.	81 o‘rta	-12,2	148,8	5 past	-4,7	22,09
11.	A. B.	88 o‘rta	-5,2	27,04	11 o‘rta	1,3	1,7
12.	L. R.	88 o‘rta	-5,2	27,04	11 o‘rta	1,3	1,7
13.	A. Sh.	111 o‘rta	17,8	316,8	3 past	-6,7	44,9
14.	A. A.	97 o‘rta	3,8	14,4	10 o‘rta	0,3	0,09
15.	B. D.	98 o‘rta	4,8	23,04	12,5 o‘rta	2,8	7,8
16.	M. O.	77 o‘rta	-16,2	262,4	8 o‘rta	-1,7	2,9
17.	D. D.	97 o‘rta	3,8	14,4	7 o‘rta	-2,7	7,3
18.	X. R.	85 o‘rta	-8,2	67,2	8 o‘rta	-1,7	2,9
O‘rtacha ball (u)		**93,2**			**9,7**		
$\sum(x-u)^2$				**1132,76**			**557,08**

Bu ma’lumotlar ko‘rsatkichi uch marotaba o‘tkazilgan tajribalar asosida har bir shaxsga alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Jadvalimizning oxirgi ikki ustunida askarning o‘z holatini baholash darajasi va havotirlanish darajasini baholash natijalari o‘z aksini topgan. Har ikkala natijalarning o‘rtacha arifmetik qiymatini hisoblab umumiy qiymatini ko‘rsatib o‘tganmiz.

Bu yerda,

“X” - har bir harbiy xizmatchining omillar (faktorlar) bo‘yicha to‘plagan ballari;

“Y” - harbiy xizmatchilarning omillar (faktorlar) bo‘yicha to‘plagan ballarining o‘rtacha qiymati;

“(X-Y)” - har bir harbiy xizmatchining omillar (faktorlar) bo‘yicha to‘plagan ballaridan o‘rtacha qiymatining ayirmasi;

“$(X-Y)^2$” - har bir harbiy xizmatchining omillar (faktorlar) bo‘yicha to‘plagan ballaridan o‘rtacha qiymatining ayirmasini kvadratga ko‘tarilganligi (natijalarning ishoralarni bir xil qilish uchun amalga oshiriladi);

$\sum(X- Y)^2$ - harbiy xizmatchilarning har bir omil (faktor) bo‘yicha kvadratga ko‘tarilgan natijalari yig‘indisi.

Ushbu yuqorida keltirilgan natijalar asosida quyidagi formula yordamida barcha harbiy xizmatchilar uchun umumiy bo‘lgan oraliq me’yor chegarasini aniqlab olish mumkin:

$$\int_{seg}=\sqrt{\sum(X-Y)^2/n-1}$$

2-jadval

Jangovar navbatchilikda xizmat o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning o‘z holatini baholash va havotirlanish darajasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari

№	F.I.Sh.	O‘z holatini baholash darajasi			Havotirlanish darajasi		
		x	x-y	$(x-u)^2$	x	x-y	$(x-u)^2$
1.	S. D.	89 o‘rta	1,4	1,96	10 o‘rta	-0,04	0,0016
2.	A. T.	91 o‘rta	3,4	11,6	8 o‘rta	-2,04	4,16
3.	M. T.	85 o‘rta	-2,6	6,8	15 o‘rta	4,96	24,6
4.	Q. A.	95 o‘rta	7,4	54,8	10 o‘rta	-0,04	0,0016
5.	Q. I.	88 o‘rta	0,4	0,16	6 past	-4,04	16,32
6.	A. M.	96 o‘rta	8,4	70,6	7 o‘rta	-3,04	9,24
7.	H. X.	99 o‘rta	11,4	129,96	11 o‘rta	0,96	0,92
8.	O. A.	86 o‘rta	-1,6	2,6	10,5 o‘rta	0,5	0,25
9.	K. Z.	85 o‘rta	-2,6	6,8	11 o‘rta	0,96	0,92
10.	R. F.	70 past	-17,6	309,8	6 past	-4,04	16,32
11.	S. E.	88 o‘rta	0,4	0,16	14 o‘rta	3,96	15,68
12.	B. R.	93 o‘rta	5,4	29,2	9 o‘rta	-1,03	1,06
13.	U. F.	74 past	-13,6	184,96	13 o‘rta	2,96	8,76
O‘rtacha ball (u)		**87,6**			**10,04**		
$\sum(x-u)^2$				**809,4**			**98,23**

Birinchi jadvalda biz harbiy xizmatchilarning jangovar navbatchilikka tushayotgan jarayonidagi askarning o‘z holatini baholash darajasi va havotirlanish darajasini baholash natijalari o‘z aksini topgan. Bunda, askarlarning o‘z holatini baholash darajasining umumiy ko‘rsatkichi 93,2±8.16ni tashkil etgan, bu esa jangovar navbatchilikka tushayotgan harbiy xizmatchilarning o‘z holatini baholashi o‘rtacha ekanligidan dalolat beradi, havotirlanish darajasining umumiy ko‘rsatkichi 9,7±5.72ni tashkil etgan, bu havotirlanish darajasi o‘rtacha ekanligidir.

3-jadval

Jangovar navbatchilikni o‘tab bo‘lgandan keyingi holat bo‘yicha harbiy xizmatchilarning o‘z holatini baholash va havotirlanish darajasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari

№	F.I.	O‘z holatini baholash darajasi			Havotirlanish darajasi		
		x	x-y	(x-u)²	x	x-y	(x-u)²
1.	J. T.	91 o‘rta	1,5	2,25	8 o‘rta	-0,9	0,81
2.	K. Z.	85 o‘rta	-4,5	20,25	11 o‘rta	2,1	4,41
3.	Sh. M.	88 o‘rta	-1,5	2,25	7 o‘rta	-2,9	8,41
4.	T. M.	92 o‘rta	2,5	6,25	8 o‘rta	-0,9	0,81
5.	Q. Z.	90 o‘rta	0,5	0,25	11 o‘rta	2,1	4,41
6.	K. A.	98 o‘rta	8,5	72,25	5,5 past	-3,4	11,56
7.	S. S.	84 o‘rta	-5,5	30,25	12 o‘rta	3,1	9,61
8.	R. A.	101 o‘rta	11,5	132,25	10 o‘rta	1,1	1,21
9.	L. R.	88 o‘rta	-1,5	2,25	9 o‘rta	0,1	0,01
10.	N. A.	98 o‘rta	8,5	72,25	7 o‘rta	-1,9	3,61
11.	A. S.	84 o‘rta	-5,5	30,25	12 o‘rta	3,1	9,61
12.	A. B.	83 o‘rta	-6,5	42,25	6,5 o‘rta	-2,4	5,76
13.	X. R.	85 o‘rta	-4,5	20,25	9 o‘rta	0,1	0,01
14.	B. D.	92 o‘rta	2,5	6,25	10,5 o‘rta	1,6	2,56
15.	Yo. F.	85 o‘rta	-4,5	20,25	12 o‘rta	3,1	9,61
16.	A. A.	86 o‘rta	-3,5	12,25	9 o‘rta	0,1	0,01
17.	O. A.	96 o‘rta	6,5	42,25	7 o‘rta	-1,9	3,61
18.	A. Sh.	85 o‘rta	-4,5	20,25	6 past	-2,9	8,41
O‘rtacha ball (u)		**89,5**			**8,9**		
∑(x-u)²				**534,5**			**84,43**

Ikkinchi jadvalda tadqiqotni jangovar navbatchilikda xizmatni o‘tayotgan askarlar bilan o‘tkazdik va natijalar tahlilini yoritdik. Bunda, askarlarning o‘z holatini

baholash darajasining umumiy ko‘rsatkichi 87,6ni tashkil etgan, bu o‘z holatini baholash darajasi odatiy xizmat jarayonidagi baholashdan nisbatan pasayganligi aniqlandi, havotirlanish darajasining umumiy ko‘rsatkichi 10,04ni tashkil etgan, bu havotirlanish darajasi odatiy xizmat jarayonidagi baholashdan nisbatan ko‘tarilganligini ko‘rsatdi.


Uchinchi jadvalda tadqiqotni harbiy xizmatchilarni jangovar navbatchilikni o‘tab bo‘lgandan keyingi psixologik holatini o‘rganish bo‘yicha natijalar tahlilini yoritdik. Bunda, askarlarning o‘z holatini baholash darajasining umumiy ko‘rsatkichi 89,5±5,19ni tashkil etgan, bu o‘z holatini baholash darajasi odatiy xizmat jarayonidagi baholashdan nisbatan pasayganligi aniqlandi, havotirlanish darajasining umumiy ko‘rsatkichi 8.9±2,22ni tashkil etgan, bu havotirlanish darajasi odatiy xizmat jarayonidagi baholashdan nisbatan ko‘tarilganligini ko‘rsatdi.

4-jadval

Jangovar xizmatga jalb qilingan harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatida namoyon bo‘luvchi hususiyatlar darajasi

№	Xizmat faoliyati	O‘z-o‘zini baholash	Havotirlanish
1	Xizmatga tushayotgan	93,2±8,16	9,7±5.72
2	Xizmatni o‘tayotgan	87,6±8,21	10.04±2.86
3	Xizmatni o‘tab bo‘lgan	89,5±5,19	8.9±2,22

1-diagramma



Shunday ekan, harbiylar o‘zlarini turli vaziyatlarda, xulqiy hamda shaxsiy jabhadan o‘z xatti-harakatlarini qanday baholashlari mumkin. Shu o‘rinda metodikaning shkalalari xususiyati borasidagi mualliflarning fikrlariga yana bir bora to‘xtash orqali asosiy tadqiqot natijalariga murojaat etishga to‘g‘ri keladi.

Yu.L. Xaninning ta’kidlashicha, bezovtalanish holati yoki vaziyatli bezovtalanish bir xil narsa, ya’ni odamning ko‘pincha sotsial-psixologik stressorlarga (salbiy munosabatlarni yoki agressiv reaksiyalarni kutib qolishi, o‘ziga bildirilayotgan munosabatlarda noqulayliklarni idrok etishi, o‘zini o‘zi

hurmatlashga nisbatan tajovuz holatlarga duch kelishi va boshqalarga) nisbatan munosabatida namoyon bo‘ladigan har xil reaksiyalar hisoblanadi.

Bezovtalanish holati shaxsning ruhiy kechinmalari, vaziyatlarga nisbatan beradigan bahosi, o‘zini boshqara olishi bilan uzviy bog‘liq. Bizning tadqiqotimizda harbiylarning vaziyatli va shaxsli bezovtalanishlari ularning kutilmagan sharoitlarda o‘zlarini baholashlarida yuqori ekanligini qo‘rishimiz mumkin.

Harbiy xizmatchilarni jangovar navbatchilik va qorovullik xizmatini o‘tashga tayyorlashda ularning psixologik holatini aniqlash orqali ular bilan psixologik treninglar o‘tkazib borish, ularni hizmatni o‘tash jaryonida yuz berishi mumkin bo‘lgan ekstremal vaziyatlarda o‘zlarining holatlarini boshqarishga yordam beradi. Shu bilan birga xizmatni o‘tashda ularning faoliyat samaradorligi oshadi. Bu esa, shaxsiy tarkibning psixologik tayyorgarlik darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xizmatni o‘tashga tayyorlash jarayonida guruhlarda psixologik treninglarni o‘tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu guruhlarda bir smena a’zolari ishtirok etishi mumkin. Treninglarning o‘quv materiali yuz berishi mumkin bo‘lgan jangovar vaziyat bo‘lishi mumkin. Ishtirokchilar bunday vaziyatda har bir xizmatchi qay yo‘sinda faoliyat olib borishlari haqida harakatlar ketma-ketligini aniqlashlari zarur. Bunday vaziyatlarni modellashtirish harbiy xizmatchilarni nafaqat professional sifatlarini oshiradi, balki shunga o‘xshash holatlardagi psixik holatlarni o‘rganadilar, psixik jihatdan o‘zlarini tayyorlaydilar va yuz berishi mumkin bo‘lgan salbiy psixik holatlar belgilarini bilib oladilar.

Jangovar vazifani amalga oshirishda kuchlarni safarbar qilishning va bunday salbiy holatlarni oldini olishning eng samarali yo‘li bu o‘zini psixik boshqarish usullarini egallashdir. Har bir insonda o‘zining qiyin vaziyatlardan chiqish usullari bor. Ba’zi harbiy xizmatchilar qorovullik postida ogohlikni saqlash uchun o‘zining harakatlanish yo‘nalishida har to‘rt qadamda navbatma-navbat o‘ng va chap tomonga ko‘z tashlaydi. Bir daqiqa mobaynida 140-150 qadam tashlab yurish insonda yaxshi kayfiyat, tetiklikni uyg‘otadi, harakat tempini 10-12 qadamgacha sekinlashtirishdan tezlashtirishga o‘tish turli ritmi diqqatni, shaylikni oshirishi hammaga ma’lum. Qo‘l terisini goh-gohida chimchilash, o‘zining boshini o‘zi uqalashi va boshqa faollashtiruvchi o‘z-o‘ziga ta’sir etishning psixofiziologik usullari uyquni yengishda keng qo‘llaniladi.

Psixik o‘zini boshqarish usullarini o‘zlashtirish harbiy xizmatchilarda psixosomatik buzilishlarni (uyquning buzilishi, ishtahaning yo‘qolishi, faoliyat unumdorligini pasayishi, holsizlikni oshib borishini, arterial qon bosimining oshishini va b.) oldini olishga yordam beradi. Bunday buzilishlar jangovar navbatchilik va

qorovullik xizmatini o‘tashning o‘ziga xos sharoitlarida asab tarangligi va jismoniy toliqish, insonning energetik quvvatining butunlay sarflanishi oqibatida yuzaga keladi.

Psixik o‘zini boshqarish usullarini o‘zlashtirish insonning nerv-psixik xususiyatlari bilan ta’minlanadi. Inson organizmida yuz beradigan fiziologik jarayonlar psixik energiya vositasida amalga oshirilishi ko‘pgina tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Insonning vazifasi - bu energiyani emotsional-obrazli tarzda kerakli yo‘nalishga «yo‘naltirishdir». Shuning uchun asab tizimining «badiiy» tipidagi odamlar psixik o‘zini boshqarish usullarini oson o‘zlashtiradilar, mantiqiy fikr egalarida esa qiyinroq o‘zlashtiriladi.

Psixik o‘zini boshqarishning asosiy usullari

1. *Autogen trenirovka (AT)* — obrazli tasavvurlar yordamida so‘zlar qo‘shish orqali vegetativ nerv sistemasiga va u orqali ichki organlar faoliyatiga ta’sir o‘tkazish mashqlar tizimi bilan autogen holatga erishish. Bu mashqlarni bir kunda 3-4 marta juda yorug‘ bo‘lmagan tinch xonada o‘tkazish mumkin.

Ekstremal holatlarda yuz berishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarni oldini olish maqsadida ideomotor trenirovkalarni o‘tkazish mumkin. Bu mutaxasislarni professional va psixologik tayyorlashning samarali vositasidir. Bu trenirovkalarning asosi turli vaziyatlarda o‘zining harakatlarini «miyada fikran amalga oshirish»dir. Harakatlarning fikriy obrazi mushak bo‘g‘inlarining jismoniy harakati bilan bog‘liq. Ideomotor harakatlar shunaqangi aniq ta’riflanishi kerakki, bunda harbiy xizmatchi beixtiyor harakatlarni bajarsin. Bu harakatlar mazmunini, Qurolli Kuchlarning qo‘shin turlarining yetakchi mutaxasislari tomonidan yaratilgan, yuz berishi mumkin bo‘lgan jangovar real, tipik vaziyatlar maxsus psixologik pasportlar banki tashkil etadi. Tasavvur etishni boshqarish orqali qorovullik xizmatidagi askar kutilmagan vaziyatda yuz berishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarga tayyorlikni va uni oldini olishga o‘rganadi.

2. *Tinchlantiruvchi va safarbar etuvchi nafas olish.* Arsenalda stressga qarshi vositalarda biri sifatida to‘g‘ri nafas olish muhim ahamiyat kasb etadi. Nafas olishning 2 turi farqlanadi: yuqori (o‘mrov bilan) va pastki (qorin bilan). To‘g‘ri nafas olish o‘pkaning barcha qavatlarini nafas olish aktiga jalb (safarbar) etgan holda qon aylanishini yaxshilaydi, ichki organlarni uqalab turadi. Tinchlantiruvchi nafas olish turi (qorin bilan qisqa nafas olish va nafasni bir muncha uzoq ketma-ket to‘xtash bilan chiqarish) muammoli, stressli, ekstremal vaziyalar natijasida yuz bergan nerv-psixik zo‘riqish va psixik muvozanatni qayta tiklashda qo‘llaniladi.

Safarbar etuvchi nafas olish (o‘mrov bilan o‘rtacha nafas olib, nafasni bir oz ushlab turish va keskin (shiddat bilan) chiqarish) monoton ishlar bilan bog‘liq charchashni, uyqusirashni, lanjlikni yengishga va diqqatni jamlashga yordam beradi. Nafas olishning bu turi yurak qon-tomir tizimiga, ovqatxazm qilish organlariga, modda

almashinuviga, organizmning funksional imkoniyatlariga ijobiy ta’sir qilib, tonus (hayotiy faollik) va tetiklikni ta’minlaydi.

3. *Mushaklar tonusini boshqarish. (relaksatsiya).* Relaksatsiya (lot. relaxatio — zo‘riqishni kamaytirish, bo‘shashish) — bu insonda kuchli jismoniy yoki psixik zo‘riqish oqibatida yuzaga kelgan zo‘riqish olingandagi tinchlanish, bo‘shashish holati. Tana va psixika bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lganligi uchun mushaklarning bo‘shashishi nerv-psixik zo‘riqishni pasayishiga olib keladi.

Mushaklar tonusini - maxsus so‘zlar formulasidan tashkil topgan o‘zini ishontirish (sofrologiya) orqali, shu bilan birga o‘zining biologik faol (quloq terisidagi, qo‘l panjasining tashqi va ichki yuzasi, oyoq kaftidagi, yuzdagi, bo‘yindagi va boshning soch ostidagi) nuqtalarini massaj qilib ta’sir etish orqali pasaytirish mumkin. Shuning uchun, hayotiy muhim organlarning faoliyatini uyg‘unlashtirish va stressga qarshi «qalqon»ga ega bo‘lish uchun yuqorida keltirib o‘tilgan nuqtalarni yengil uqalashni (bundan oldin sovuq suvda yuvinib, qo‘llarni yuvib olish zarur) bir kunda bir necha marotaba amalga oshirish tavsiya etiladi.

4. Jangovar navbatchilik, qorovullik xizmatini o‘tayotgan harbiy xizmatchilar bilan bo‘shashtiruvchi mashqlar asosida o‘zlarining funksional holatlarini nazorat qilishni amalga oshirish mumkin. Bu usul asosan, xizmatni o‘tash jarayonida o‘z-o‘ziga bir qator savollar berish malakasini qo‘llash asosida funksional holatning muhim parametrlariga tegishli holatga ta’sir o‘tkazish maqsadida qo‘llaniladi. Savollar mushaklar tonusini, mimika va pantomimikani hamda yurak urishi tezligi va nafas olish ritmini nazorat qilishga qaratilgan bo‘ladi.

5. Yana bir usul haqida aytib o‘tish lozim bu - uyqu oldi va uyqudan keyingi o‘zini ishontirish. Bu usul oddiy o‘zini ishontirishdan farqli ravishda atayin maxsus autogen holatga tushirmasdan, tabiiy holda ro‘y beradigan fiziologik uyquning boshlanish va tugash bosqichidagi uyqusirash holati yuzaga kelishi bilan o‘ziga xos xususiyatga ega. Harbiy xizmatchi uyqu oldidan o‘zini ishontirish qoidalari tuzilishiga mos ravishda oldinda turgan muhim muammoni (masalan, charchoqni chiqarish, mas’uliyatli bosqich oldidan tashvishlanishni chiqarib tashlash va hokazo) shakllantiradi, keyin esa, uyqusirash chog‘ida o‘zini ishontirish formulasi vositasida ongostiga shakllantirgan muammosini yechish imkonini beruvchi tushni ko‘rish haqidagi axborotni kiritadi. Uyqudan turgandan keyin, tush ko‘rish holatidan chiqmagan holda u bu ustanovkani tasdiq shaklida mustahkamlaydi.

Bu usul uyqu jarayonida ham maqsad yo‘nalishida ichki ishlar to‘xtovsiz olib borilayotganini his qilgan holda muvaffaqiyatga sub’ektiv ishonchni oshirishga imkon beradi. Shunday qilib, harbiy xizmatchilar psixologik xarakteristikalarini optimallashtiruvchi, ularni harbiy faoliyatning turli topshiriq va vazifalarini amalga

oshirishga psixologik tayyorlik va psixologik sog‘ligini ta’minlovchi usullar va amaliy tavsiyalar shulardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Paxrutdinov Sh.I. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. - T.: Akademiya, 2006.
2. Samarov R.S. Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. Toshkent.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.384-b.
3. Adelstein A.S. Total Propaganda Horn Mass Culture to Popular Culture. – Mahway, N.J. – London, 2021.
4. Semiruxin L.V. Nanotexnologii i soznanie // Filosofskie nauki. - 2022. - №2.
5. Mamatkulov D.M. Mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi // Monografiya – Toshkent: «Lesson press» nashriyoti, 2023 – 224 b.

II -SHO‘BA

TARIXIY XOTIRA, MA’NAVIY-RUHIY TARBIYA YUKSAK JANGOVAR SHAYLIK GAROVI

МИЛЛАТ ФИДОЙИЛАРИ XOTIRASI YUKSAK JANGOVAR SHAYLIK GAROVI

Рахимов Ш. М.
“Шон-шараф” давлат музейи

Аннотация: *Ушбу мақолада мустақиллик йилларида Мудофаа вазирлиги тизимидан ватанимизнинг озодлиги йўлида мардларча ҳалок бўлган йигирма уч нафар жангчиларнинг қаҳрамонлиги ҳақида ёзилган ва нашр қилинган “Миллат фидойилари” китоби ва “Ғалаба боғи” ёдгорлик мажмуасида уларнинг хотираси учун барпо қилинган монумент ҳақида сўз юритилади.*

Калит сўзлар: Сариосиё, Узун, Киштут, вертолёт, жангчи, қаҳрамонлик, халқаро террорчилар, пистирма.

Аннотация: *В статье идет речь о книге рассказывающую о подвигах двадцати трех бойцов, отдавших свою жизнь за свободу нашей Родины в годы независимости из Министерства обороны и монументе построенного в честь их памяти в мемориальном комплексе «Парк Победы»*

Ключевые слова: Сариасия, Узун, Киштут, вертолет, боец, героизм, международные террористы, засада.

2025 йил 8 майда, Хотира ва қадрлаш куни ҳамда Иккинчи жаҳон урушида эришилган ғалабанинг 80 йиллиги арафасида давлатимиз раҳбари “Ғалаба боғи” ёдгорлик мажмуаси ҳудудида, мустақиллик йилларида ватан озодлиги учун курашларда қаҳамонларча ҳалок бўлган 196 нафар жангчиларнинг хотираларига бағишланган “Миллат фидойилари” монументини очди. Мамлакатимиз Президенти 2025 йилнинг 8 май куни фашизм устидан қозонилган ғалабанинг 80 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш куни муносабати билан сўзлаган маърузасида, “*Мен 2023 йил март ойида Сурхондарёда сизларнинг кўпчилигингиз – ана шундай марҳум аскар ва офицерларимизнинг оила аъзолари, яқинлари билан учрашганман, фикр ва таклифларингизни эшитганман. Мана шу қаҳрамонларимиз хотирасига ҳам ёдгорлик ўрнатсак, деган орзу, керак бўлса, армон мени доим ўйлантириб келарди. Бу нафақат менинг, балки ана шундай ботир ва довюрак она юрт посбонларини тарбиялаган сиздек ота-оналарнинг, қолаверса, қаҳрамонларимизнинг аёллари ва фарзандларининг, бутун халқимизнинг орзуси эди, десак, албатта хато бўлмайди. Халқимизнинг ана шу баҳодир ўғлонларимизга бўлган ҳурмат-эҳтиромини таъсирчан бир шаклда акс эттириш, ҳаётдан эрта кетган бу навқирон фидойи инсонларнинг Ватанимизга бўлган меҳри, садоқати ва жасоратини ана шу ёдгорликда кўрсатиш ҳақида ўз фикрларимни айтиб, архитектор ва ҳайкалтарошлар, тарихчи олимлар,*

ижодкор зиёлилар билан жуда кўп мулоқот қилганман. Ана шундай интилишларимиз натижаси сифатида бугун "Ғалаба боғи"да янги бир ёдгорлик – "Миллат фидойилари" монументи барпо этилганини барчамиз кўриб турибмиз. Албатта, ушбу монументда номлари зарҳал ҳарфлар билан муҳрлаб қўйилган 196 нафар марҳум ҳарбий хизматчи ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларининг ҳар бири, Иккинчи жаҳон уруш қатнашчилари каби, ҳаётнинг кўп-кўп неъматларидан баҳраманд бўлишга улгурмаган. Бу шерюрак ўғлонларимизнинг ҳам келажак орзулари бор эди, уларни олдинда яхши ва ёруғ кунлар, ота-онаси, оиласи, ширидан ширин фарзандлари кутаётган эди. Лекин мамлакатимиз истиқлоли, халқимиз тинчлигига нисбатан реал хавф туғилган пайтда, улар бир дақиқа ҳам ўйлаб ўтирмасдан, жонажон Ватанимиз ҳимояси йўлида ўзларини қалқон қилишди. Бу фидойи ҳарбийлар шу тариқа бугунги Янги Ўзбекистон учун мустаҳкам замин яратиб кетишди. Шу боис биз уларнинг хотираси, руҳи поклари олдида доимо қарздормиз", деган эди. [1].

Дарҳақиқат, Ўзбекистон Республикаси ўз мустақиллигини қўлга киритган дастлабки йилларида суверенитетимизга нисбатан амалга оширилган можароларга дуч келди. Уларнинг энг йириги 2000 йилнинг ёзида давлатимизнинг жанубий сарҳадларида содир бўлди, халқаро террорчи гуруҳларнинг чегараларимизни бузиб киришга, халқимизнинг тинч-фаровон ҳаётини бузиш учун қилган ҳаракати юзага келди. Аммо бизнинг армиямиз ёвуз ниятда бостириб киришга ҳаракат қилган террорчи тўдаларга қақшатқич зарба берди. Жанговар операцияларни амалга ошириш учун Қуролли Кучларимизнинг қўшин турларидан иборат қўшин гуруҳлари ташкил қилинди, оператив бошқарув йўлга қўйилди ва тезкорлик билан олиб борилган махсус операциялар давомида душман тор-мор қилинди, афсуски бир неча жангчиларимиз ҳалок бўлди.

Шунингдек, 2005 йилнинг май ойида Андижон шаҳрида ҳам экстремистик кучларнинг конституциявий тузумни бузишга қаратилган урунишлари юзага келди, бу сафар ҳам олиб борилган оператив тадбирлар натижасида тартибсизликлар бостирилди, аммо бу сафар ҳам қон тўкилди.

Ушбу операцияларда Мудофаа вазирлиги тизимидан иштирок этиб, мардларча ҳалок бўлган 23 нафар ватан ҳимоячилари ҳақида "Аждодлар изидан" ҳарбий тарихий жамиятнинг илмий ходимлари томонидан шу йилнинг бошида "Миллат фидойилари" номли китобни ёзишга киришилди. Бунинг учун, ушбу жангчилар яшаган хонадонларга хизмат сафарлари уюштирилди, уларнинг ота-оналари (агар ҳаёт бўлсалар), умр йўлдошлари, фарзандлари (агар уйланиб, бола-чақали бўлган бўлса), яқин қариндошлари, устозлари, синфдош-дўстлари билан

суҳбатлар уюштирилди ва улар ҳақида янги маълумотлар тўпланди. Шунингдек, қаҳрамонлар ҳақида ҳали оммага маълум бўлмаган маълумотлар тўплаш учун уларнинг йиғма жилдлари (шахсий делолари) ўрганиб чиқилди ва китоб саҳифалари уларнинг хизмат жойлари, тугатган ҳарбий таълим муассасалари, рағбатланганликлари ҳақидаги маълумотлар билан бойитилди.

Энди китобимиздан ўрин олган қаҳрамонларимиз ҳақида қисқача тўхталиб ўтмоқчиман.

Даставвал учувчилар ҳақида тўхталишни лозим топдим. Жанговар операцияларда жангчиларимизни ҳаводан қўллаб-қувватлаб турган, уларга керакли нарсаларни етказиб берган ва уларни эвакуация қилишда иштирок этган подполковник А.Чориев раҳбарлигидаги катта лейтенант Шермуҳаммад Аширов ва лейтенант Нариман Апкелямовдан иборат Ми-8 вертолёти экипажига, ўз жавобгарлик ҳудудида жанговар операцияни бажариб бўлган десантни базага эвакуация қилиш топширилади. Вертолет экипажи тоғнинг юқори қоясига яқинлашиб келади ва қўнишнинг имкони йўқлиги туфайли чап шассисини тоғнинг катта тошига теккизиб, муллақ туради. Борт техник **Нариман Апкелямов** десантни вертолёт бортига чиқаришни бошлаган бир пайтда душман снайперининг ўқи вертолёт двигателларидан бирини сафдан чиқаради, вертолёт қаттиқ чайқалади, шу пайтда вертолёт эшигини очиб жангчиларни вертолётга чиқишларини назорат қилиб турган экипаж командири подполковник А. Чориев ташқарига отилиб чиқиб кетиб, қояга урилади ва қўл суяги синади. Борт техник лейтенант Нариман Апкелямов юзага келган вазиятни тўғри баҳолаб вертолётга чиқишга улгурган десантчиларни шикастланган вертолётдан тезкорлик билан ташқарига чиқариб юборади ва уларнинг ҳаётини сақлаб қолади. [2. б. 56]

Вертолёт шикастланиб қаттиқ чайқалганда боши панелга урилиб оғир тан жароҳати олган иккинчи учувчи **Шермуҳаммад Аширов** охирги кучлари билан вертолёт бошқарувини йўқотмаслик учун штурвални маҳкам ушлаб турди. Шунга қарамасдан аста-секин бошқарувни йўқотган вертолётнинг дум қисми қояга урилади ва вертолётнинг иккинчи марта қаттиқ силкиниши натижасида борт техник лейтенант Нариман Апкелямов вертолётдан учиб чиқиб кетади ва қояга урилиб умуртқа соҳасидан қаттиқ жароҳатланади. [2. б. 33]

Буткул бошқарувни йўқотган вертолёт ичида қолган Шермуҳаммад охирги дамгача вертолётни хавфли ҳудуддан олиб кетишга ҳаракат қилди, аммо бунинг имкони бўлмади, машина учувчи Ш.Аширов билан бирга жарга қулади.... Нариман Апкелямов олган оғир тан жароҳатлари туфайли 2000 йилнинг 20 декабрь куни ҳаётдан кўз ёмди. [2. б. 53].

Махсус гуруҳ командири лейтенант **Сайёр Садинов** 1976 йил 18 ноябрда Самарқанд вилояти Каттақўрғон тумани Пайшанба посёлкасида туғилган. 1993 йил ўрта мактабни битиргач, ҳарбий хизматни 1995 йилнинг 14 майидан 64411сонли ҳарбий қисмда бошлади. У қисқа вақтда ўзининг фидокорона хизматлари билан хизмат пиллапоясидан юқори илдамлади, жумладан, 1995 й. 15 майда 64411 сонли ҳарбий қисм – оддий аскар, 1996 й. 5 январь кичик сержант, 1996 й. 21 март – сержант, 1996 й. 31 август – катта сержант, 1998 й. 18 майда ЎР МВ буйруғи билан прапоршик, 1999 йил 30 сентябрда кичик лейтенант, 1999 й. 15 декабрда – лейтенант унвонларига созовор бўлган.

2000 йилнинг 8 август куни террорчи тўдаларга қарши жанговар ҳаракатларни олиб бораётган вақтда душман снайпери ўқидан ҳалок бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2000 йил 25 августдаги Фармонига биноан Сайёр Садинов вафотидан кейин II даражали "Шон-шараф" ордени билан тақдирланган. [2. б.142].

Бобур Абдулҳамидович Ғаниев 1977 йилда туғилган. 1995–2000 йилларда Тошкент Ахборот технологиялари университетининг махсус факультетини битириб, 07556-сонли ҳарбий қисм махсус операциялар кучлари батальонида ҳарбий хизматни бошлади. 2000 йил 4 август куни Бобур гуруҳи билан жанговар рейдни амалга ошираётган жараёнда душман снайпери ўқидан яраланди. Яраланганлигига қарамасдан у гуруҳини бошқариб туради, унга ўзлари учун манфаатли маррани эгаллашга буйруқ берди. Шу пайт батальон фельдшери Қаҳрамон Мадолимов Бобурга биринчи тиббий ёрдам кўрсатди ва уни пана жойга олиб ўтди. Олинган жароҳати оғирлиги туфайли лейтенант Бобур Ғаниев ҳаётдан кўз ёмди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2000 йил 25 августдаги Фармонига кўра Бобур Ғаниев II-даражали "Шон-шараф" ордени билан тақдирланди. [2. б. 188-190].

Катта лейтенант **Маҳмуджон Мўминович Жалилов** 1975 йилнинг 11 июнида Андижон вилоятининг Избоскан тумани Янги замон қишлоғида таваллуд топган. 1993 йили ҳарбий лицейни битириб Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юрти, ҳаво-десант қўшинлари факультетига ўқишга кириб, 1997 йили билим юртини тамомлаган. 2000 йилнинг августида Сариосиё ва Узун туманларида сарҳадларимизга бостириб кирган террорчиларга қарши курашда Маҳмуджон жанговар гуруҳи билан иштирок этган. Жангда оғир яраланди, ёрдамга келган шифокор Баҳром Очиловга қараб, бир гап айтади: "Дўхтир, мени қўйинг, барчасини билиб, кўриб турибсиз, Илёсга ёрдам беринг, илтимос, у ҳали ёш, ҳаётини сақлаб қолинг". Илёснинг ҳаёти сақлаб қолинди. Маҳмуджон вафот этди... Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони

билан катта лейтенант Маҳмуджон Мўминович Жалилов вафотидан сўнг II даражали "Шон-Шараф" ордени билан тақдирланди. [2. б. 78].

Алишер Сатторович Салимов 1977 йил 15 сентябрда Сирдарё вилояти нинг Янгиер шаҳрида туғилган. 1994 йил ўрта мактабни тугатиб, Самарқанд олий ҳарбий автомобиль қўмондонлик-муҳандислик билим юртига ўқишга кирган. 1998 йилда 46178-сонли ҳарбий қисмда командирнинг шахсий таркиб билан ишлаш бўйича ўринбосари лавозимига тайинланади. 1999 йилда у махсус операция кучлари батальонида отряд командирининг ўринбосари лавозимига тайинланган. 2000 йил 4 августда куни Алишер Салимов гуруҳи террорчилар яширинган жойларни аниқлаб, уларни йўқ қилиш бўйича ўтказилган ҳарбий операцияни давомида душман пистирмасига қўққисдан ҳужум уютирилди, шу пайтда душманнинг иккинчи пистирмаси жангчиларимизга ҳужум қилди. Алишер Салимовга гуруҳига ёрдам кучлари етиб келди, ғаним йўқ қилинди, лекин душман снайпери отган ўқ Алишерни ҳалок қилди. Аммо унинг сержантлари Бахтиёр Одилов ва Алишер Каттақулов ўқ отилган томонга қарата автоматдан кетма-кет ўқ узишди. Арча шохига яширинган душман снайпери тош устига йиқилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2000 йил 25 августдаги Фармонига мувофиқ, Алишер Салимов вафотидан кейин II-даражали "Шон-шараф" ордени билан мукофотланди. [2. б. 152-153].

Энди қаҳрамонларимиз қаҳрамонимиз **Улуғбек Барноев, Қаҳрамон Мадалиев** ва **Маъруфжон Ражабовлар** тўғрисида тўхталмоқчимиз.

Жангчиларимиз ҳаракатланаётган махсус отряднинг бир гуруҳи душман ўрнашиб олган ҳудуднинг яқинига ҳаво транспорти орқали олиб келинади ва террорчи тўданинг базаси қидириб топилиб, унга шиддат билан босқин уюштирилади. Пистирмада жойлашган душман снайпери жангчиларимизга қарата ўт очади, Маъруфжон Ражабовни яралайди. Ярадор жангчимизга тиббий ёрдам кўрсатиш учун етиб келган отряд фельдшери Қаҳрамон Мадолимов ҳам ғаним томонидан ўққа тутилди. Халқаро Женева конвенциясида ярадорларга тиббий хизмат кўрсатиш кераклиги, Қизил хоч ва Қизил ярим ой белгилари остида ҳаракатланаётганларга қарши ҳужум қилиш тақиқланганлиги ҳақида ёзиб қўйилган. Фельдшернинг сумкасида, унинг тиббиёт ходими эканлигини англатувчи Қизил хоч белгиси отнинг қашқасидай кўриниб турсада, бундай қоидалар борлигини кўрс ва ёввойи тарбия топган у малъун террорчи қаердан ҳам билсин?

Улуғбек шу топда ёнидаги жангчига "мени паналаб тур!" дея, қуролидан душман томон шиддатли ўт очиб ярадор жангчиларимиз томон илдамлаб кетди, тевараатрофни эътибордан қочирмаган ҳолда ярадор бўлган жангчининг оёғидан оқаётган қонни тўхтатди. Энди, энгашган ҳолда яраланган фельдшер томонга ҳаракатланган заҳоти душман снайперининг ўқидан қулаб тушди. Мана

шу ерда учала жангчиларимиз қаҳрамонларча ҳалок бўлдилар. Улар Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2000 йил 25 августдаги Фармонига мувофиқ вафотидан кейин "Жасорат" медали билан мукофотландилар. [2. б. 127].

Катта лейтенант **Камолиддин Тўхтапўлатович Тошпўлатов** 1974 йил 1 майда Наманган вилоятида туғилган. У Фарғона шаҳридаги ҳарбий лицейда ўқийди ва 1992 йилда Тошкент олий умумқўшин қўмондонлик билим юртига ўқишга кирган. 1996 йилда билим юртини тугатиб, у Мудофаа вазирлигининг 36691-сонли ҳарбий қисм мотоўқчилар батальонида взвод командири лавозимида бошлаган. 2000 йил февралида махсус операция кучлари батальонига ўтади. [2. б. 164].

Катта лейтенант **Исматилло Нуриллоевич Хўжаев** 1972 йил 20 ноябрда Самарқанд вилоятининг Нуробод тумани, Оқсой қишлоғида туғилган. 1997 йилда Самарқанд олий ҳарбий автомобиль қўмондонлик-муҳандислик билим юртини битирган ва офицер сифа тида Мудофаа вазирлиги қўшинларида хизмат қила бошлаган. 2000 йилнинг август-сентябрь ойларида Сурхондарё вилоятининг Узун ва Сариосиё туманларида халқаро террорчи тўдаларга қарши олиб борилган жанговар ҳаракатларда Исматилло Хўжаев фаол иштирок этган. [2. б. 178].

Катта лейтенант **Асилбек Рустамович Мирзаев** 1976 йилнинг 30 мартида Андижон вилоятида туғилган. Мактабни тугатиб, 1994 йилда Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юртининг ҳаво-десант қўшинлари факультетига ўқишга киради, 1998 йили билим юртини тамомлаган. Ўз офицерлик фаолиятини Мудофаа вазирлиги қўшинларида бошлаган. [2. б. 94].

Катта лейтенант **Чори Менглиевич Ражабов** 1966 йил 20 июнда Сурхондарё вилоятида туғилган. 1983 йилда ўрта мактабни тугатиб, 1984 йили Тошкент маданий-оқартув техникумига ўқишга киради. 1984-1986 йилларда муддатли ҳарбий ҳизматни ўтайди. Хизматдан қайтиб келиб, техникумда ўқишни давом эттиради. 1989 йилда Аброр Ҳидоятов номидаги Ўзбек давлат драма театрида, 1990 йилда "Ўзбектелефильм" студиясида ишлайди. 1990–1995 йилларда Тошкент давлат санъат институтининг сиртқи бўлимига ўқишга кириб, актёрлик йўналиши бўйича таҳсил олади.

1996 йилдан Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги таркибидаги 77692-сонли ҳарбий қисм мусиқа оркестрида мусиқачи лавозимига қабул қилинади. 1997 йилда Тошкент олий умумқўшин қўмондонлик билим юртида қисқа муддатли офицерлар тайёрлов курсини тугатгандан сўнг, 1997 йил 24 июлда кичик лейтенант, 1998 йил 24 июлда лейтенант, 2000 йил 20 июнда катта лейтенант унвонларига сазовор бўлган.

2000 йил 16 сентябрь куни эрта тонг Чори Ражабов махсус гуруҳ таркибида навбатдаги разведка-қидирув ҳаракатларини давомида жангариларни топиш ва йўқ қилиш бўйича жанговар топшириқни юксак савияда бажариб базага қайтаётган вақтда вертолёт ҳалокатга учраб қулаб тушиши оқибатида ҳалок бўлади. [2. б. 132].

Сержант **Хайриддин Шодибоевич Холбоев** 1979 йил 7 декабрь куни Ўзбекистон Республикаси Фарғона вилояти Сўх тумани, Ленбург қишлоғида туғилган. 1998 йил Фарғона шаҳридаги 52788-сонли ҳарбий қисмда муддатли ҳарбий хизматни ўтагач, 1999 йил ноябрь ойидан Тошкент вилоятидаги 07556-сонли ҳарбий қисмда махсус отряднинг техниги сифатида шартнома асосида хизматни давом эттира бошлади. [2. б. 172].

Катта сержант **Дилшод Жумаевич Асанов** 1975 йил 31 мартда Фарғона шаҳрида туғилган. 1990–1993 йилларда шаҳардаги 13-сонли ўрта ҳунар-техника билим юртида газ пайвандчи йўналишида таҳсил олган. 1993-1995 йиллардан 39290-сонли ҳарбий қисмда муддатли ҳарбий хизматни ўтайди. 1995 йилдан шартнома асосида 52788-сонли ҳарбий қисмда, сўнгра 54715-сонли ҳарбий қисмда, 2000 йилда Тошкент вилоятидаги махсус операциялар кучлари батальонида хизматни давом эттирган.

1999 йил 24–26 ноябрь кунлари Тошкент вилояти Угам-Чотқол миллий боғи ҳудудида халқаро террорчилар гуруҳига қарши олиб борилган махсус операцияларда иштирок этган. [2. б. 44].

Старшина **Отабек Авазович Муҳаммадиев** 1976 йил 8 январда Қашқадарё вилоятида туғилган. 1995 йилда муддатли ҳарбий хизматни Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари сафида 39290-сонли ҳарбий қисмда бошлаган. 1996 йилда 94028-сонли ҳарбий қисмда моддий таъминот ротасининг взвод командири лавозимида хизматни давом эттирган. 1998 йилдан 07556-сонли ҳарбий қисмда отряд овоз узатиш станцияси бошлиғи лавозимида фаолият олиб борган. [2. б. 104].

Катта лейтенантлар Камолиддин Тошпўлатов, Исматилло Хўжаев, Асилбек Мирзаев, Чори Ражабов, сержантлар Хайриддин Холбоев, Дилшод Асанов, Отабек Муҳаммадиевлар Сариосиё тоғларида ўзларига топширилган ҳудудда халқаро террорчи тўдаларни йўқ қилиб вертолётда базага қайтаётганларида қўнишга атиги тўрт дақиқа қолганида вертолётнинг ҳалокатга учраганлиги оқибатида ҳалок бўлдилар. [2. б. 135].

Эломон Холмуродович Отажонов 1978 йил 17 сентябрда Сирдарё вилоятининг Сирдарё туманидаги "Тараққиёт" маҳалласида туғилган. 1985–1996 йилларда Сирдарё туманидаги 2-умумтаълим мактабида таълим олган.

1997 йилда, 17 ёшида Эломон Отажонов Ўзбекистон Қуролли Кучларининг ҳаво-десант қўшинларида бошлаган. Муддатли хизматдан кейин шартнома асосида хизматини махсус операция кучлари батальонида давом эттирган. То 2000 йилгача давлатимизнинг айрим ҳудудларидан бостириб киришга уринган террорчи тўдаларни йўқ қилишда муваффақият билан курашган.

2000 йилнинг 11 август куни Узун тумани Киштут қишлоғи яқинида ўрнашиб олган душманни топиш ва йўқ қилиш бўйича операция давомида Эломон ва икки жангчи илғор дозор таркибидаги ҳаракат қилади. Улар асосий гуруҳдан олдинда ҳаракатланишлари давомида душман снайпери Эломонни яралайди. Яралор бўлган Э.Отажонов ўз қуролидан душман ўрнашиб олган позицияларга ўқ отиб, уларнинг жойларини ортдан келаётган гуруҳга аниқлаб берди.

Гуруҳ жангчилари душманга қарата тез корлик билан ўт очиб, зарба бердилар, душман снайпери ва ўқчилари йўқ қилинди. Яралор бўлган уч нафар жангчини эвакуация қилиш учун вертолёт экипажи тоғлар орасидан қулай жойни танлаб машинани қўндирди. Эломон вертолётга ортилаётганида, ўнг қўли билан сафдошлари томон "Тўхтанглар!" – деб ишора қилди. Унинг овозида қатъият ва сўнгги сўзнинг юки сезиларди. "Сизлардан сўнгги илтимосим... Ота-онамдан, ука-сингилларимдан хабар олиб туринглар" – деди ва кўзларини юмди. [2. б. 110,112,113].

Кичик сержант **Юнусжон Носирович Охунов** 1979 йил 14 январь куни Фарғона вилоятида туғилган. 1996 йилда 19-ўрта мактабни битиргач, 1997-1999 йиллар Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Миллий Гвардия қўшинларида хизмат қилди. 1999 йил июндан шартонома асосида махсус бўлинмада хизмат қила бошлаган. [2. б. 120].

2000 йилнинг август ойида Сариосиё ва Узун тумани тоғлари тоғли ҳудудларида террорчиларга қарши курашга қидирув-разведка ишларини олиб бораётган вақтда жангариларнинг кичик бир гуруҳи билан бўлган жанговар тўқнашувда душман қириб ташланди, аммо 2000 йили 11 август кунида бўлиб ўтган жангда ҳалок бўлди. [2. б. 121].

Президентининг 2000 йил 25 август кунидаги Фармонига мувофиқ у "Жасорат" медали билан мукофотланди. [2. б. 124].

Сержант **Дониёрбек Абдумуталибович Тожибоев** 1979 йил 10 февралда Андижон вилоятида туғилган. 1997 йилдан муддатли ҳарбий хизматни Мудофаа вазирлигининг 77692-сонли ҳарбий қисмида бошлаган. У 1999 йил июнидан 07556-сонли ҳарбий қисмда шартнома асосида хизматни давом эттириб, аввал

гранатомёт ҳисоб бирлиги, кейин миномёт ҳисоб бирлиги таркибида фаолият юритган.

Сержант Дониёрбек Тожибоев батальон таркибида 1999 йил август–сентябрь ойларида Қирғизистон ҳудудида халқаро террорчилар маркази яксон қилинишида, 15 ноябрь куни Тошкент вилоятидаги Янгиобод шаҳарчасига кириб олган террорчиларни йўқ қилишда иштирок этиб жанговар ҳаракатларни амалга ошириш тажрибасига эга бўлган. Дониёрбек 2000 йил август ойида Сурхондарёнинг тоғли ҳудудларини халқаро террорчилардан тозалаш операциясида ҳам иштирок этган. Террорчилар вақтинчалик базаси қуршаб олиниб уларга қуролли зарбалар бериб йўқ қилиш пайтида сержант Дониёрбек Тожибоев оғир яралар бўлди ва ҳаётдан кўз юмди.

2000 йил 22 августда Дониёрбек Тожибоев вафотидан сўнг "Жасорат" медали билан тақдирланди.

Взвод командири капитан Абдували Ҳамроев ўша кунги жангни шундай хотирлайди:– "*Ўша куни душманнинг вақтинча базасини топиб, уларни яширин базаси борми, ини, пистирмаси борми барчасини яксон қилдик. Душман ўқи уч навқирон, жасур йигитларимиз – Эломон Отажонов, Юнусжон Охунов, Дониёрбек Тожибоевни нобуд қилди*". [2. б. 156].

Машраб Хуррамович Жўраев 1978 йил 15 март куни Сурхондарё вилоятининг Бойсун туманида туғилган. 1993 йилда мактабни 8-синфини битирган. Касб-ҳунар техника билим юртини тракторчи-машинист курсига ўқишга кирган. 1996-1998 йилларда аввал 7442-сонли ҳарбий қисмда ўқчи, кейин 7771-сонли ҳарбий қисмда шофёр сифатида муддатли ҳарбий хизматни ўтаган. 2001 йилнинг март ойида Мудофаа вазирлиги қўшинларида шартнома асосида хизматга кириш учун туман мудофаа ишлари бўлимига рапорт билан мурожаат қилган ва армияга чақирилиб, 44278-сонли ҳарбий қисмда разведка-қидирув взводи ўқчиси лавозимига тайинланган. [2. б. 204].

2001 йилнинг июль ойида Сурхондарё вилоятининг Сариосиё туманидаги тоғли ҳудудларда хавфли террорчилар гуруҳи фаолияти кучайган пайтда Машраб Жўраев ўз бўлинмаси билан бирга разведка-қидирув ҳаракатларига жалб этилади. Жанговар топшириқни бажараётган вақтда у душман пистирмасига дуч келади.

У жанговар вазият ҳақида сафдошларига хабар беришга муваффақ бўлади, бу ўз навбатида, асосий кучларга душманга қақшатқич зарба бериш учун тайёрланиш имкониятини берди. Машраб душман томонига гранаталар улоқтириб, уларга талафот етказди. Аммо ўзи оғир яраланиб ҳалок бўлди. [2. б. 205].

Муҳиддин Ҳусанович Эштемиров 1975 йил 13 апрель куни Сурхондарё вилояти Термиз туманидаги "Намуна" маҳалласида туғилган. 1992 йилда мактабни тамомлаган ва Термиз давлат университетининг тарих факультетига ўқишга кириб, уни 1997 йилда тугатган. 1997 йилда 05802-сонли ҳарбий қисмда муддатли хизматни ўтаган. 2001 йил баҳорида ўз истаги билан ҳарбий хизматга чақирилган ва 44278-сонли ҳарбий қисмда разведка-қидирув взводи портлатувчиси мутахассиси сифатида ҳарбий хизматини олиб борган. [2. б.208]

2001 йил 14 июль куни Сурхондарё вилояти, Сариосиё туманининг тоғли ҳудудида бўлиб ўтган жанговар ҳаракатлар чоғида пистирмадаги террорчилардан иккитасини йўқ қилади, вазият ҳақида сафдошларига хабар беришга улгуради. У ваҳший террорчилар қўлида азоблаб ўлдирилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг, 2001 йил 27 августдаги Фармонига биноан **Муҳиддин Ҳусанович Эштемиров** "Жасорат" медали билан мукофотланган. [2. б. 209].

Капитан **Баҳром Улуғбекович Жўраев** 1979 йил 21 ноябрда Тошкент шаҳрида туғилган. Мактабни битириб, 1996–2000 йилларда Тошкент олий умумқўшин қўмондонлик билим юртида таҳсил олган. Баҳром Жўраев 2000 йилдан бошлаб Шарқий ҳарбий округ ҳарбий қисмлари ва штабида турли лавозимларда хизмат қилган. [2. б.218].

2005 йилнинг май ойи ўрталарида Андижон шаҳрида ташқи кучларнинг босими остида қонуний конституцион тузумни ағдаришга қаратилган ҳаракатлар бошланди. Капитан Баҳром Жўраев 13 май куни кечқурун Андижон шаҳрида жамоат хавфсизлигини таъминлаш вазифасини бажараётганда Чўлпон шоҳ кўчасида қуролланган жиноятчилар гаровга олинган одамларни ўзига пана қилган ҳолда турли томонга ўқ отиб ҳарбий хизматчиларга яқинлашиб кела бошлайди.

У террорчилардан қуролларини топширишни ва гаровга олинганларни қўйиб юборишни қатъий талаб қилади. Жиноятчилар ҳарбийлар позицияларини қаттиқ ўққа тутадилар ва капитанни яradор қилишади. Ҳарбийлар жиноятчиларга қарши жавоб ўқи отиб, офицерни душман ўқлари остидан олиб чиқишади. Баҳром яradор бўлишига қарамай, бўлинмани бошқаришда давом этади. Ўз командирининг қаҳрамонлигидан руҳланган шахсий таркиб жиноятчиларнинг ҳужумларини қайтаради.

Жиноятчилар тўдаси пароканда бўлади. Уларнинг бир қисми қўлга олинади, қуролсизлантирилади, гаровга олинганлар озод қилинади. Ушбу жангда олган жароҳати оқибатида капитан Баҳром Жўраев 2005 йил 13 май куни вафот этади. [2. б. 219].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 23 майдаги Фармонига кўра, капитан Баҳром Улуғбекович Жўраев давлатимизнинг миллий хавфсизлиги, халқи мизнинг тинчлиги ва осойишталигини мудофаа қилиш ҳамда хизмат бурчини адо этишда кўрсатган жасорати ва фидойилиги учун II даражали "Шон-шараф" ордени билан (вафотидан кейин) тақдирланган. [2. б. 221].

Кичик сержант **Анваржон Машраббоевич Отабеков** 1982 йил 18 октябрда Андижон вилояти Хўжаобод туманида туғилган. 1997 йили мактабнинг 9-синфини тамомлаб, қишлоқ ва сув хўжалиги коллежида ўқиган. 2002 йилда муддатли ҳарбий хизматга чақирилган. 2003 йил май ойида шартномиа асосида хизматни давом эттирган, шу йилнинг май–октябрь ойларида Чирчиқ шаҳридаги сержантлар тайёрлаш мактабида ўқиган. 2003 йилнинг ноябридан кичик сержант А. Отабеков 34241-сонли ҳарбий қисмда хизмат қилган.

2005 йилнинг май ойида Андижон шаҳрида қонуний конституцион тузумни ағдаришга қаратилган ҳаракатлар даврида Анваржон Отабеков белгиланган жойга етиб келиб террорчиларнинг ҳужумини қайтаришга киришди ва мерганлик милтиғи билан вилоят театри биносининг том қисмига ўрнашиб олган бир қанча жангариларни йўқ қилишга муваффақ бўлди. У террорчилар эгаллаган позицияга яқинлашиш мақсадида зирҳли транспортёр тагига эмаклаб кирди. Шу пайт душман Анваржон Отабековни мўлжалга олиб, ўқ узди. Ўқ Анваржоннинг бошига тегди ва уни бу дунёдан олиб кетди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 25 августдаги Фармонига кўра, мамлакатимиз сарҳадлари дахлсизлигини ва миллий хавфсизлигини таъминлашда мардлик, жасорат ва фидойилик намунасини кўрсатгани учун Анваржон Отабеков вафотидан сўнг "Жасорат" медали билан тақдирланди

Биз юқорида ватан озодлиги, мамалакат суверинети учун жанговар ҳаракатларда ҳалок бўлган 23 нафар мард ўзбек жангчилари ҳақида қисқача тўхталди, аслида уларнинг ҳар бирлари ҳақида романлар, поэмалар ёзиш, фильмлар суратга олиш мумкин.

Уларнинг ватан ва халқ олдидаги хизматлари бебаҳодир, бир томондан халқаро террорчи гуруҳлар улар томонидан баратараф қилинган бўлса, иккинчи томондан уларнинг мустақиллик йўлида шаҳид кетишлари катта қайғули дарс бўлди. Уларнинг жанглари мисолида тактикага ўзгаришлар, янгиликлар киритилди. Жанговар ҳаракатларни классик усулда олиб бориш билан бирга қўшинларнинг махсус ҳаракатларига асос солинди. Тоғли ҳудудларда, ўрмонли тоғ ҳудудларида жанговар ҳаракатлар олиб бориш тактикаси такомиллашди. Тоғларда террорчи тўдаларга қарши кичик гуруҳчаларни қўллаш усуллари ривожланди ва ватан ҳимоячиларига бу йўналишда сабоқ берила бошланди.

Хулоса ўрнида Қуролли Кучлар Олий Бош Қўмондонининг табрикда янграган сўзларини келтиришни маъқул топдик, - “*Яна бир бор айтаман, бу масканда номлари қайд этилган баҳодирларимизнинг жасорати, номлари ва хотираси эл-юртимиз қалбидан ҳеч қачон ўчмайди. ....Бу ерни доимий обод қилиб, довюрак фарзандларимиз руҳларини шод этиш – бизнинг муқаддас вазифамиз.*

Инсон қадрини эъзозлаган давлат ҳеч қачон кам бўлмайди. Мен мана шу боққа, мана шу ёдгорликни томоша қилишга келган киши Ватан мустақиллиги учун курашган, жон фидо этган одам асло эл-юртнинг назаридан четда қолмаслигини, келгуси авлодлар уларни эсидан чиқармаслигини чин юракдан ҳис этишини истар эдим. Ана шундагина халқ ҳаётида фидойилик ва қаҳрамонлик анъаналари бардавом бўлади. Ана шундагина инсон қадри ва ҳаёти нақадар буюк бойлик экани яққол аён бўлади.” [1].

Фойдаланилган адабиётлар:

[1] -Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йилнинг 8 май куни, фашизм устидан қозонилган ғалабанинг 80 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш куни муносабати билан сўзлаган маърузаси

[2.] - Миллат фидойилари”. Китоб альбом, Тошкент: “Маънавият” нашриёти, 2025. 240 бет.

MILLIY HARBIY TARIXNI O‘RGANISH YUKSAK JANGOVAR SHAYLIK TIMSOLI

PhD, dotsent Pardayev X. S.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Maqolada tarixda yashab o‘tgan buyuk harbiy sarkardalarimizning ona vatanga muhabbati va uning uchun jonlarini fido qilishi, vatan ravnaqi va tinchligida ko‘rsatgan matonatlari, farovon hayotga bo‘lgan intilish kabi qilgan sa’yi harakatlarining tahlili keltirilgan hamda shu tahlilni o‘rganish asosida hozirgi kunda qo‘shinlarda xizmat qilayotgan harbiylarimizning vatanparvarlik his-tuyg‘ularini oshirish, o‘z kasbiy mahoratini va ko‘nikmalarini yuksaltirish orqali yuksak jangovar shaylikga erishish yuzasidan takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: milliy harbiy meros, harbiy sarkardalar, vatanparvarlik, harbiy boshqaruv, yuksak jangovar shaylik.

Аннотация. *В статье анализируются заслуги наших великих военачальников, живших в истории: их любовь к Родине и самопожертвование*

ради неё, стойкость в деле процветания и мира Отечества, стремление к благополучной жизни. На основе этого анализа вносятся предложения по повышению патриотических чувств военнослужащих, проходящих службу в войсках, и достижению высокой боеготовности путём совершенствования их профессиональных навыков и умений.

Ключевые слова: национальное воинское наследие, военачальники, патриотизм, военное лидерство, высокая боевая готовность.

Buyuk sarkardalarimiz sulton Jaloliddin Manguberdi, sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur “Buyuk Xorazmshohlar”, “Buyuk Temuriylar”, “Buyuk Boburiylar” saltanatlarini qurib, ularni adolatli qonunlar bilan bezagan. Ular Markaziy Osiyo va Hindiston xalqlari taqdirini taraqqiyotga, Renessansga yetaklagan shaxslardir. “Temur tuzuklari”, “Boburnoma” kabi boy meros egalaridir [1].

Ushbu buyuk harbiy daholarga nisbatan “tug‘ildi” so‘zini ishlatishimiz ularni chuqur anglamaganimizdan dalolatdir. Olloh ularni qahramonliklar uchun metin jasoratlar siymosi sifatida yaratgan. Ular mardlik va vatanparvarlikning oliy ko‘rinishi - yov qarshisida yurt muqaddas ekanligini harbiy iste’dodi bilan mashhur muhorabalarda namoyon qilganlar.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Qurolli Kuchlarimiz sohibqiron Amir Temur bobomizning “Millatning dardiga darmon bo‘lmoq - chin vazifangizdur”, degan ezgu da’vatini o‘ziga shior qilib oldi. Ular xalqimizga yanada yaqin bo‘lib, birlashtirib, safarbarlikni oshirib, qisqa muddatlarda o‘z oldiga qo‘yilgan muhim vazifalarni munosib ado etganini barchamiz cheksiz minnatdorlik bilan qayd etamiz”.

Hayotda insonlarni birlashtiruvchi hodisalar ko‘p. Gohi shodlik, gohi qayg‘u (g‘am) birlashtiradi. Yana bir qudratli kuch borki, u — ona allasi. Qadimdan xalqimiz farzandlariga Qur’on sura va oyatlarini o‘qib, buyuk va yetuk insonlar bo‘lishini tilab alla aytgan, ularning qalblariga vatanparvarlik tuyg‘usini singdirgan.

Ona Vatanga muhabbat va uning ravnaqi, tinchligi, farovon hayotga bo‘lgan intilish ham butun mamlakat fuqarolarini yagona maqsad yo‘lida birlashtirishi ayni haqiqat.

Agar Vatanga muhabbat tuyg‘usini, uning qudratli jozibasini butun vujudingiz bilan his qila olsangiz, shunda qalb tarbiyasi kamolga yetayotgan bo‘ladi. Bu bilan biz, yangi O‘zbekistonimizdagi harbiy vatanparvarlik ruhining bosh asosi, boy milliy merosimiz durdonalari haqida gapirmoqchimiz.

Sulton Jaloliddin Manguberdi o‘zbek xalqining dovyurak o‘g‘loni, jasoratda tengsiz pahlavon. U buyuk fotih Chingizxonga katta mintaqada yagona raqib bo‘la olgan sarkardadir [2].

Mirzo UluQbek “To‘rt ulus tarixi” asarida “Olam ahli Jaloliddindan oldin ham, keyin ham bunday bahodir jangchini ko‘rmagan. Bu zotning azmu shijoati oldida hatto buyuklikning o‘zi ham ta’zim qiladi”, deb yuksak baho beradi.

Tarixchi Nasaviy uni “Sherlar orasida eng zo‘r arslon edi”, deya ta’riflasa, Alouddin Juvayniy “Jahonda biror kishi bundayin mardni ko‘rmagan, ilgarigi nomdorlar orasida bo‘lganini ham eshitmagan... U sherlar orasida eng zo‘r arslon, dovyurak chavandoz, lashkar orasida eng botiri edi”, desa, Ibn al-Asir esa “Musulmon mamlakatlarning hukmdorlari orasidan sulton Jaloliddindan boshqa hech birida mo‘g‘ullarga qarshi muqaddas urush qilishga qodirini ko‘rmadim. Bunday istak ularning hech qaysisida yo‘q edi”, degan yuqori bahoni bergan.

Mo‘g‘ullar Xorazm davlati chegaralaridan o‘tganida Jaloliddin otasiga mardlik qanday bo‘lishi kerakligi haqida so‘zlar ekan: “Siz qo‘shinga buyruq bering-da, o‘zingiz bir chetda bizning Qalaba qozonishimizni kuting!” degan jur’atli taklifni bildirgan edi.

Jaloliddin ozodlik bayrog‘i ostida Eron, Iroq, Kavkaz, O‘indistondagi kuchlarni birlashtirib, mo‘Qullarga qarshi qahramonlik bilan olib borgan jami 15 tadan ortiq janglardan 10 tasida ajoyib g‘alaba qozongan. Bular — Niso, Qandahor, Valiyon, Parvon, Gardiz, Shatra, Basra, o‘arni, Ray, Isfaxon va eng ajoyibi Parvon dashtidagi g‘alabadir.

Sind daryosi bo‘yidagi uch kunlik jang shunday ayovsiz bo‘lgandiki, boshqa janglarni uning oldida bolalar o‘yini deyish mumkin edi. Jaloliddinda 30 ming, mo‘g‘ullarda 250 ming qo‘shin qatnashgan jangning uchinchi kuni Jaloliddin askarlarining 26 mingi qirilib, ko‘plab xorazmliklar shahid bo‘lganiga qaramay, mardlarcha maydonni tark etmasligi vatanparvarlikning haqiqiy oliy ko‘rinishi edi. Mo‘g‘ullar orasida yarador bo‘lgan va o‘lganlar esa yanada ko‘proq edi. Shu katta to‘siqni Jaloliddin 4000 askari bilan yengib Hindistonga o‘tib keta oldi. Chingizxon va barcha mo‘g‘ullar hayrat barmog‘ini tishlar ekan, Chingizxon o‘g‘illariga yuzlandi: “Otaga berilgan munosib o‘g‘il shundoq bo‘lishi kerak! U shunday qirg‘inbarot jang maydonidan va daryo girdobidan qutulib himoya qirg‘og‘iga chiqa oldimi, bu dovyurak hali boshimizga ko‘p tahlikalar soladi, undan mislsiz qahramonliklar va tashvishlar kutish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, o‘ldirmang uni, u yashashga haqli!”

Tinchlikparvar, mehnatsevar, ko‘p millatli va bag‘rikeng bo‘lgan o‘zbek xalqining maqsadi ezgu — dunyoda tinchlik hukm surishi. Keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahbarligida yaratayotganimiz — yangi O‘zbekistonda ham mana shunday ezgulik kuchi ulg‘ayib, bugun dunyoni o‘ziga rom eta oldi!

Birinchidan, biz yangi va zamonaviy davlat boshqaruvida buyuk bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan adolat yo‘lini tanladik.

Ikkinchidan, sohibqiron bobomiz Amir Temurning “Millatning dardiga darmon bo‘lmoq — chin vazifangizdur” degan ezgu da’vatini hayotimiz shioriga aylantirdik.

Uchinchidan, yaqin-yiroq davlatlar bilan do‘stona aloqalarni mustahkamlab, butun dunyo xalqlari manfaati uchun birdek daxldor xalqaro tashabbuslarni ilgari sura boshladik.

To‘rtinchidan, mana shu tashabbuslarning tub mohiyati tinchlik va farovonlikni ta’minlashga qaratilganini teran anglagan dunyo diplomatiyasi yangi ¤zbekiston va bu mamlakat Prezidentini qo‘llab-quvvatlashga kirishdi.

Bugun, Vatan himoyachilari bayrami arafasida xalqimizning, buyuk bobolarimizning yana bir yashovchan salohiyatini yodga olgimiz keldi. Xalqimiz ko‘p sinovlardan yorug‘ yuz bilan o‘tdi. Bugungi kunlarga yetguncha ne-ne qaqshatqich zarbalarga uchramadi, deysiz. Shu bilan birga, dunyoga “Tamaddun hodisasi”ni ham meros qoldirdi. Gap shu haqda borar ekan, buyuk bobomiz Amir Temurning harbiy merosini tilga olish o‘rinli bo‘ladi.

Amir Temur — buyuk harbiy sarkarda, strateg, ilm-fan, madaniyat homiysi, “Temuriylar Renessansi” asoschisi. Sohibqironning muvaffaqiyatli g‘alabalari, chuqur o‘ylangan strategiya va taktikalari esa mutlaqo noyobdir [3].

Amir Temur merosidagi strategik asar “Temur tuzuklari”ning bugungi kundagi ahamiyatiga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev alohida ahamiyat berdi: “Inson qadr-qimmatini e’zozlash, buning uchun har qanday holatda ham adolatni qaror toptirishga qodir bo‘lgan odil sudlov tizimini shakllantirish biz uchun o‘tgan ikki yil davomida eng ustuvor vazifaga aylandi. Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtoqiga “Adolat — davlatning asosi va hukmdorlar shioridir”, degan hikmatli so‘zni yozdirgani bejiz emas, albatta. Ushbu ulug‘vor g‘oya inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko‘tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylandi”, deya bugungi kundagi adolatni barcha sohada keng yo‘lga qo‘yish siyosatimizning negizi ekanini yana bir bor ta’kidladi.

Bu bejiz emas. Chunonchi, bugun dunyoning ko‘p davlatlari harb siyosatida Amir Temur bobomiz o‘gitlari va boshqaruv tutumlaridan keng foydalanib kelmoqda. Buni bobomiz qo‘llagan o‘nlab harbiy atamalar bugungi kunda ham ko‘plab mamlakatlar harbiy sohasida qo‘llanib kelayotganida ham ko‘rishimiz mumkin.

U xoh oshkora, xoh zimdan bo‘lsin, lekin bu — ayni haqiqat. Bundan, albatta, faxrlanamiz. Shu bilan birga, o‘zimiz ham bu buyuk merosdan samarali foydalanishimiz kerak. Shu maqsadda Prezidentimiz katta ishlarni boshlab berdi.

Amir Temurga buyuk tarixiy ahamiyatli baho bergan mashhur Sharq allomasi Ibn Xaldun “Forslar va arablar dunyoda peshvolik asrini o‘tab bo‘ldi, endi bu vazifa Amir Temur dahosi tufayli turklar qo‘liga o‘tdi”, deganida mutlaqo haq edi.

Amir Temur saltanatni boshqarishda “Kuch — adolatdadir”, “Adolatli bo‘lsang, najot topasan”, “Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal” degan shiorlari dunyo hukmdorlarini o‘ziga jalb etsa, harbiy boshqaruvda esa uning adolati — “Askarni eng quyi martabadan oliy martabagacha tarbiyalab ko‘tarish haqida”gi tuzugi bunga yaqqol dalil.

Amir Temur mahoratini ko‘rsatuvchi asosiy jihat oldiga qo‘yilgan maqsadga jangsiz erishish qobiliyatidir. Asosan, kam sonli qo‘shin va jangovar tayyorgarlik orqali to‘g‘ri usullar va kam talafot bilan jangda g‘alabaga erishishdir.

Amir Temurning harbiy iste’dodi — mohir tashkilotchi va atoqli sarkarda sifatidagi faoliyati, adolatli davlat boshqaruvi “Tuzuklar”ida aks etgan.

“Temur tuzuklari” asarida Sohibqironning ma’naviy-axloqiy va falsafiy fikrlari, mardlik va shijoatni tarbiyalashga qaratilgan g‘oyalari o‘z aksini topgan. Undagi Sohibqiron hikmatlari hozirgi kunda xalq maqollariga aylangan, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jumladan:

adovat emas, adolat kerak;

bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal;

bir kalima shirin so‘z qilichni qinga kiritar;

dushmandan qo‘rqma, munofiqdan qo‘rq;

so‘zlaguvchi garchi nodon bo‘lsa ham, tinglovchi dono bo‘lsin;

aqlli dushman johilu nodon do‘stdan yaxshiroq ekan;

yaxshini yomon kunda imtihon qil;

boshsiz mamlakat — jonsiz tanadir.

“Tuzuklar”dagi Sohibqiron hikmatlarining bugungi kunda ham dolzarbligi va ahamiyati ortib bormoqda. “Saltanat to‘nini kiygach, o‘z to‘shagimda rohatda uxlash huzur-halovatidan voz kechdim”, “Maslahat, kengash, tadbirkorlik, hushyorlik bilan mamlakatlarni o‘zimga bo‘ysundirdim. Ko‘p narsani bilib tursam-da, bilmaslikka oldim, do‘stu dushman bilan murosayu madora qildim”, “Dushmanlarni do‘stga aylantirdim”, “Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko‘targanlar, ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham agar ular iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelsalar, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotiramdan o‘chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo‘l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qo‘rquv bo‘lsa, butunlay unutishar edi”, “Hech kimdan o‘ch olish maqomida bo‘lmadim. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni Parvardigori olamga

topshirdim. Ish ko‘rsatgan, shijoatli er yigitlarni qoshimda tutdim, ko‘ngli buzuq qo‘rqoqlarni majlisimdan quvib yubordim”, degan edi buyuk bobomiz.

“Tuzuklar”dagi satrlarga nazar tashlar ekanmiz, Amir Temurning umri davomida yuritgan oqilona siyosati va tadbirlari, davlatchilik tajribasidan olingan qimmatli xulosalarining guvohi bo‘lamiz.

Xususan, “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir” yoki “Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin”, shuningdek, “Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo‘llarini mo‘ljallab qo‘y” kabi dono o‘gitlari shular jumlasidan. Uning bu kabi ibratli va keng ma’noli yuzlab o‘gitlari hayotdan olingan saboqlar mevasidir.

Amir Temur bobomizning nomdor amirlar, elchilar yoki o‘zga yurt hukmdorlariga aytgan fikrlari ham uning o‘tkir aql va zehn egasi, ma’naviy hamda axloqiy qarashlari, donishmandligi, bilimi kengligi, bunyodkorligi, ilm-fan homiysi sifatidagi faoliyati haqida dalillarga boy ma’lumotlarni beradi.

Sohibqiron Amir Temurning shijoat va mardlik haqidagi ko‘plab g‘oyalari o‘sha davrdayoq harbiy shiorlar sifatida qadrlangan. Uning Anqara jangidan oldin Yildirim Boyazid elchilariga mardlik haqida aytgan fikri bunga dalildir. Jumladan, “Mard kishi o‘z so‘ziga vafo qiladi, so‘z bilan ish orasida ixtilof bo‘lishi — nomardlik alomatidir” yoki “Saltanatni boshqarishda shamshirni nomus va sharaf bilan tutish” borasidagi vasiyatida ham mardlik va yurt tashvishi aks etgan.

Amir Temurning ma’naviy-axloqiy merosini o‘rganish hozirgi kunda yanada dolzarb hisoblanadi. “Temur tuzuklari” asaridagi vatanparvarlik g‘oyalarining yoshlarni yurt qayg‘usi va uni sevib ardoqlash ruhida tarbiyalashdagi o‘rni beqiyosdir.

“Tuzuklar”dan farzand tarbiyasida, shuningdek, Mudofaa vazirligi tizimidagi harbiy xizmatchilarning ma’naviy saviyasini yuksaltirish, milliy tariximizni chuqur o‘rganishda foydalanish, ushbu ma’naviy-axloqiy hamda harbiy merosni, uning ibratli hayoti va harbiy-siyosiy faoliyatini keng targ‘ib etish maqsadga muvofiq. Zero, buyuk Amir Temur dunyoga adolat tantanasini meros qoldirdi. Bu meros bugun ham, keyin ham o‘zining so‘nmas va doimo talpinuvchan ruhi bilan dunyo xalqlarini hamjihatlik va bag‘rikenglikka, to‘g‘ri va halol yashashga, mehribon bo‘lishga chorlab turadi.

Sohibqiron hazratlaridagi vatanparvarlik, mardlik, yurt tinchligi va farovonligi, ravnaqi uchun qalqon bo‘lish kabi fazilatlar nafaqat shaxsiy namuna, shu bilan birga, Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi temuriylar faoliyatida ham mujassam bo‘lgan.

Zahiriddin Muhammad — iste’dodli sarkarda, dovyurakligi va jasurligi uchun yoshligidan Bobur deyishgan. “Barb” arabcha “yo‘lbars”dir. Bobur kuchlar noteng

janglarda ajoyib g‘alabalarni qo‘lga kiritgan. Masalan, Bobur 1496 — 1503 yillarda saltanat faxri bo‘lgan Samarqandni dushmandan olish uchun tengsiz janglarga kirishib uch marta shaharni qo‘lga kiritdi. U Shayboniyxonning 15 minglik qo‘shini turgan Samarqandga o‘zining bor-yo‘g‘i 200 kishilik askari bilan hujum qilishga jur’at etib, dushmanni qal’adan haydashga erishgan. Samarqandni birinchi marta 1497-1498 yillarda 100 kun, ikkinchi marta 1499-1500 yillarda 6 oy, uchinchi marta 1511 yilning oxirida Shayboniyxon o‘limidan keyin yana kelib, egallab yana 6 oy hukmronlik qiladi. Shayboniyxonning jiyani Ubaydullaxondan jangda yengilgach Kobulga chiqib ketadi [4].

Yoki 1526 yil aprel oyida Dehli yaqinidagi Panipat jangida Bobur o‘zining 12 ming askari bilan 100 mingga yaqin katta qo‘shin va 2 mingga yaqin harbiy fillarga ega bo‘lgan Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyni tor-mor qilib g‘alaba qozonadi. Son jihatdan katta dushman qo‘shini oz sonli lashkar bilan tor-mor etilgan bu jang harbiy san’at tarixidan o‘rin olgan. Bunda “to‘lQama” deb atalgan harbiy taktikani ishlatib, porox bilan ishlaydigan harbiy qurol — “to‘fak”ni va “Farangi to‘pi”, aravalarga ham o‘rnatilgan “zarbzan qurol” kabi harbiy aslahalarni joriy etgan. Bobur mutlaqo yangi qurol — artilleriya aslahasining ilk namunasini yaratgan.

U jangda oldinda borar, qiyin sharoitlarda hamma bilan birga bo‘lib, mashaqqatni baham ko‘rar edi. Masalan, Bobur Hirotdaligida Kobulda notinchlik yuz berib, tog‘ yo‘li bilan Kobulga qaytishga majbur bo‘ladi. Ular toQda otni, odamni ko‘madigan qalin qorga duch kelishadi. Shunda Bobur askarlari bilan barobar yurib, qor tepib, yo‘l ochadi. Kechasi uni dam olgani g‘orga taklif qilganlarida ko‘nmaydi, boshqalar qatori ochiq havoda tunaydi va “Do‘stlar bilan birga o‘lish to‘ydir!” deydi.

Jangga kirish oldidan Mirzo Boburning askarlariga murojaati juda ta’sirlidir. “Oralaringizda o‘lmaydigan, abadiy tirik qoladiganingiz bormi? Quyosh botish uchun chiqadi, odamzod o‘lish uchun tug‘iladi. Bu ayni haqiqat! It ham o‘ladi, yigit ham o‘ladi. Lekin ularning o‘limi orasida farq bor. It nafsi sabab o‘lsa, yigit hamiyatini, yurtini, or-nomusini himoya qilib jon taslim etadi. Yigit kishi o‘z elini, Vatanini, shon-shavkatini, din-diyonatini, ona tuprog‘ini ko‘z qorachig‘idek asrash yo‘lida vafot etsa, bu sharafli o‘limdir. Avlodlarning erki, tinch va osoyishta yashashidan ulug‘ ne’mat bormi o‘zi” [5].

Xulosa sifatida aytish joizki, buyuk sarkardalarning harbiy dahosi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘lgan:

muntazam qo‘shin tuzib, askarlarning jasurligi, harbiy tayyorgarligi, jismoniy va ayniqsa, ma’naviy tarbiyasiga katta e’tibor qaratilgan;

ular doim qo‘shinning oldingi safida yo‘l boshlab, og‘ir nuqtalarda shaxsiy namuna va qahramonlik ko‘rsatgan;

jangsiz ham strateg sifatida taktika, manyovr va ruhiy hujumlarni o‘z o‘rnida ishlatib g‘alabaga erishgan;

buyuk sarkardalar dushman bilan “sultoniy” (“yakkama-yakka”) jangga chorlash orqali jang taqdirini hal qilgan;

kuchlar nisbati noteng bo‘lgan janglarga kirib, harbiy hiylalar ishlatib, ajoyib g‘alabalarni qo‘lga kiritgan;

janglarga karnay-surnay sadolari ostida, davlat bayroQini hilpiratib, sherdek na’ra tortib, shiddat bilan “Ur-ho, ur!” deb, qo‘qqisdan shiddatli hujum qilishgan, dushman kuchlarini yoyib tashlashgan, ularni tarqoq bo‘laklarga bo‘lib yakson qilishgan va muvaffaqiyatga erishishgan;

jangovar tartibi (yosol) takomillashtirilgan, Amir Temur og‘ir qurolli (zirhlangan) otliqlarni joriy qilgan, qo‘shin 7 qismga ajratilib, “qanbul” bilan ta’minlangan, Bobur esa “to‘lg‘ama” taktikasini kiritgan;

sarkardalar Sharqda yangi harbiy texnikalarni joriy etganlar. Amir Temur Sharqda birinchilardan bo‘lib o‘tochar qurolni, Bobur har bir innovatsion Qoyalarda shaxsan ishtirok etgan va natijada katta to‘pponcha — “to‘fak”, “farangi to‘pi” hamda “zarbzan qurol”ni yaratgan;

jangdan oldin sarkardalarning askarlarni ruhlantirish uchun vatanparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan va jangoldi nutqlari bo‘lgan;

vaziyatni tez payqab oluvchi strateg sifatida raqiblarining zaif tomonlarini sezgirlik bilan aniqlab, qiyinchiliklardan qo‘rqmay, og‘ir sharoitda ham qat’iy mardona qarorlar qabul qila olganlar;

ular himmatli va saxovatpesha podshoh bo‘lganlar. Ularning insonlarga muruvvati, kechirimliligi va shafqati keng bo‘lib, hatto dushmanlarga ham muruvvat ko‘rsatganlar.

Buyuk sarkardalarning harbiy mahorati va mashhur janglari, jahon harbiy san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi hali-hamon Vatanimiz va xorij sharqshunosligida maxsus tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganib kelinmoqda. Ushbu harbiy merosni tarixiy manbalar asosida ilmiy tadqiq etish, jahon harbiy merosiga qo‘shgan hissasiga baho berish — bugungi harbiy tarixning muhim va dolzarb masalalaridan.

“Hayotning o‘zi chevar”, deydi xalqimiz. Bu hikmat ruhini bugungi hayotimiz bilan bog‘lasak, dunyo silkinib, to‘lg‘anib turgan bir zamonda yangi O‘zbekistondagi osoyishtalik va hamjihatlik muhitining qadri yanada oshaveradi. Shu sababli ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini yuksaltirish, Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish yo‘lida qator sa’y-harakatlar olib borilmoqda, jumladan, barcha qo‘shinda hamkorlikdagi hozirjavob va

jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish, axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash istiqboldagi dolzarb vazifalar bo‘lib qoladi.

Harbiy kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish hamda harbiy ilmni rivojlantirish borasida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan harbiy mojarolar va zamonaviy jang amaliyotlarini, milliy harbiy san’at tarixini chuqur o‘rganish, qo‘shinlarning tayyorgarlik usul va uslublarini yanada takomillashtirish ustuvor vazifalari belgilangan.

Bu kabi chora-tadbirlar zamirida ham katta hayotiy haqiqat turibdi. Gap shundaki, mamlakat mudofaa salohiyati qanchalik qudratli va xalq bilan bir tanu bir jon bo‘lsa, odamlar xotirjam yashaydi. Xotirjamlik esa ulug‘vor reja-maqsadlarni amalga oshirishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Choriev D.A. Milliy harbiy merosimiz durdonalari. Jenevadagi BMT bo’linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi O’zbekiston Respublikasining doimiy vakolatxonasi © 2015, Chemin Perrault-de-Jotemps, 1217 Meyrin

[2]. Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jalloliddin Manguberdi asari. Toshkent, 2006

[3]. Temur tuzuklari asari. Toshkent, 2018

[4]. Boburnoma asari. Toshkent, 2017

[5]. E-mail: uzbekistan@bluewin.ch (murojat qilingan sana 24.09.2025).

AXBOROT URUSHLARI DAVRIDA TARIXIY XOTIRA VA MA’NAVIY-RUHIY TARBIYA: MILLIY ARMIYANING JANGOVAR SALOHIYATINI MUSTAHKAMLASH YO‘LLARI

dotsent Xolmatov N.M.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada axborot urushlari davrida milliy armiyalarning jangovar salohiyatini mustahkamlashda tarixiy xotira va ma’naviy-ruhiy tarbiyaning strategik roli ilmiy asosda tahlil qilinadi. Axborot urushlari zamonaviy xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar – dezinformatsiya, targ‘ibot, psixologik bosim, kiberhujumlar va “soft power” shakllarida namoyon bo‘lmoqda. Ular nafaqat texnik infratuzilmani, balki jamiyatning ruhiy-ma’naviy immunitetini ham nishonga oladi. Shunday sharoitda milliy armiyaning jangovar qudrati faqat texnologik ustunlik bilan emas, balki ma’naviy-ruhiy barqarorlik va tarixiy xotira asosida shakllangan milliy o‘ziga xoslik bilan ham belgilanadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida kontent-tahlil, komparativ tarixiy yondashuv va tizimli tahlil ishlatildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, samarali vatanparvarlik tarbiyasi, tarixiy xotirani tiklash va targ‘ib etish, axborot*

savodxonligi, ma’naviy-ruhiy immunitetni kuchaytiruvchi dasturlar milliy armiyaning jangovar shayligini oshirishda muhim mexanizm hisoblanadi. Maqolada konseptual model ishlab chiqilib, xalqaro tajribalar bilan taqqoslash asosida milliy xavfsizlik siyosatiga oid amaliy tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: *tarixiy xotira, ma’naviy-ruhiy tarbiya, axborot urushlari, milliy xavfsizlik, jangovar salohiyat, vatanparvarlik tarbiyasi.*

Аннотация: *В статье на научной основе анализируется стратегическая роль исторической памяти и духовного воспитания в укреплении боевого потенциала национальных армий в эпоху информационных войн. Информационные войны проявляются в виде новых угроз современной безопасности – дезинформации, пропаганды, психологического давления, кибератак и «мягкой силы». Они направлены не только на техническую инфраструктуру, но и на духовно-нравственный иммунитет общества. В таких условиях боевая мощь национальной армии определяется не только технологическим превосходством, но и национальной идентичностью, сформированной на основе духовно-нравственной устойчивости и исторической памяти. В качестве методов исследования использовались контент-анализ, сравнительно-исторический подход и системный анализ. Результаты исследования показали, что эффективное патриотическое воспитание, восстановление и укрепление исторической памяти, информационная грамотность и программы укрепления духовно-нравственного иммунитета являются важными механизмами повышения боеготовности национальной армии. В статье разработана концептуальная модель и даны практические рекомендации по политике национальной безопасности на основе сравнения с международным опытом.*

Ключевые слова: *историческая память, духовно-психологическое воспитание, информационная война, национальная безопасность, боеспособность, патриотическое воспитание.*

XXI asrning asosiy strategik xususiyatlaridan biri – bu axborot maydonida olib borilayotgan keskin kurashdir. “Axborot urushi” tushunchasi faqatgina texnologik vositalar bilan emas, balki ong va ruhiyat ustidan nazorat o‘rnatishga qaratilgan kompleks jarayonni ifodalaydi [11]. Dezinformatsiya, targ‘ibot, feyk-yangiliklar, kiberhujumlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali ongni manipulyatsiya qilish kabi usullar davlatlarning xavfsizlik tizimiga jiddiy tahdid solmoqda.

Milliy armiyaning jangovar salohiyati an’anaviy ravishda texnika, taktika va moddiy resurslar bilan o‘lchanib kelingan. Biroq zamonaviy sharoitda bu omillar bilan bir qatorda askarlarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligi, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarga sodiqligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda [10].

So‘nggi yillarda axborot urushlari va ularning psixologik ta’siri bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borildi [3]. Șerban (2024) harbiy ruhiyatni jangovar qudratning

muhim o‘lchovi sifatida ko‘rsatadi va ruhiy barqarorliksiz texnik ustunlik samarasiz bo‘lishini ta’kidlaydi. Warnick (2023) esa tarixiy qahramonlar va milliy xotiraning vatanparvarlik tarbiyasida o‘rni, shuningdek, noto‘g‘ri talqin xavflarini muhokama qiladi.

Matolinets (2024) tarixiy ta’limning ikki tomonlama xususiyatiga – u bir tomondan milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlasa, boshqa tomondan siyosiy targ‘ibot vositasiga aylanishi mumkinligiga e’tibor qaratadi [6]. Xalqaro adabiyotlarda (Nye, 2004) “soft power” nazariyasi axborot urushlarida g‘oyaviy ustunlikni ta’minlovchi mexanizm sifatida talqin qilinadi [5].

Milliy adabiyotlarda esa asosan vatanparvarlik tarbiyasi va tarixiy xotirani asrash masalalari keng yoritilgan, biroq ularni axborot urushlariga qarshi strategik vosita sifatida o‘rganish hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Metodologiya. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, quyidagi metodlardan foydalanildi [7]:

- **Kontent-analiz:** xalqaro va milliy manbalarda axborot urushlari, tarbiya va tarixiy xotira mavzusidagi ilmiy maqolalar tahlil qilindi.
- **Komparativ metod:** AQSh, Rossiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar harbiy tarbiya tizimlari solishtirildi.
- **Tizimli yondashuv:** tarixiy xotira, ma’naviy-ruhiy tarbiya va jangovar shaylik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik model sifatida ko‘rsatildi.

Nazariy asoslar

Axborot urushlari nazariyasi. Axborot urushlari zamonaviy gibrid urushlarning markaziy komponenti bo‘lib, ularning asosiy maqsadi dushman jamiyatining ruhiy-ma’naviy tayanchlarini zaiflashtirish, tarixiy xotirani buzish va milliy birlikni yemirishdir [8].

1- jadval. Axborot urushlari

Axborot urushlari tahdidlari	Ularga qarshi choralar
Dezinformatsiya va feyk yangiliklar	Axborot savodxonligini oshirish
Psixologik bosim va targ‘ibot	Ma’naviy-ruhiy immunitetni kuchaytirish
Kiberhujumlar	Kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash
Tarixiy xotirani buzish	Tarixiy xotirani tiklash va targ‘ib qilish
Madaniy identitetga hujum	Milliy qadriyatlar asosida tarbiya

Tarixiy xotira konsepsiyasi. Tarixiy xotira – bu millatning o‘zini anglash, qahramonlik namunalarini qadrlash va kelajak avlodlarga meros qoldirish mexanizmi [1]. U faqat o‘tmishni eslatish emas, balki jamiyatning ma’naviy-ruhiy immunitetini shakllantirish vositasidir.

2- jadval. Tarixiy xotira va ruhiy immunitet o‘rtasidagi bog‘liqlik

Tarixiy xotira elementi	Ruhiy immunitetga ta’siri
Milliy qahramonlar merosi	O‘ziga ishonchni oshiradi
Buyuk janglar saboqlari	Strategik sabr-toqatni shakllantiradi
Vatanparvarlik an’analari	Sadoqat va intizomni kuchaytiradi
Madaniy qadriyatlar	Ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi

Ma’naviy-ruhiy tarbiya. Ma’naviy-ruhiy tarbiya askar shaxsiyatida intizom, fidoyilik, vatanparvarlik, tanqidiy fikrlash va psixologik barqarorlikni rivojlantiradi [9]. Axborot urushlari sharoitida bu jihatlar milliy xavfsizlikni ta’minlashda asosiy tayanch bo‘ladi.

3- jadval. Axborot urushlariga qarshi kurash mexanizmlari

Mexanizm turi	Qo‘llash sohasi	Kutilayotgan natija
Tarixiy-mafkuraviy targ‘ibot	Harbiy ta’lim va tarbiya	Milliy xotirani kuchaytirish
Psixologik tayyorgarlik	Harbiy mashg‘ulotlar	Stressni yengish va bardoshlilik
Axborot xavfsizligi	Harbiy tizimlar	Ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash
Ommaviy axborot vositalari	Jamoatchilik bilan aloqa	Ijtimoiy barqarorlik

Tadqiqot natijasida quyidagi konseptual model ishlab chiqildi:

1. **Tarixiy xotira resurslari**: Muzeylar, yodgorliklar, milliy qahramonlar hayoti va faoliyati asosida tarbiya.


2. **Ma’naviy-ruhiy immunitet**: Askarlarning psixologik barqarorligini oshiruvchi treninglar, milliy qadriyatlarga asoslangan ruhiy tayyorgarlik dasturlari.

3. **Axborotga qarshi immunitet**: Axborot savodxonligi: feyk xabarlarni tanib olish ko‘nikmalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda ongli ishtirokni o‘rgatish.

4. **Pedagogik dasturlar**: Vatanparvarlik ta’limini raqamli texnologiyalar (VR, simulyatorlar) bilan uyg‘unlashtirish [4].

5. **Harbiy ta’limga integratsiya**: Harbiy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda ma’naviy-ruhiy treninglar o‘tkazish.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy armiyalar faqat texnik ustunlikka tayanib emas, balki ideologik va ruhiy barqarorlikni saqlash orqali g‘alaba qozonmoqda. Masalan, Janubiy Koreyada “axborot savodxonligi” ta’lim tizimining majburiy qismi sifatida kiritilgan [12]. AQSh va NATO armiyalarida “morale”ni oshirish uchun maxsus psixologik tayyorgarlik dasturlari mavjud. Rossiyada esa “tarixiy xotira siyosati” orqali harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi kuchaytirilmoqda.



1- rasm. Konseptual model

Milliy sharoitda ham tarixiy xotira va ma’naviy-ruhiy tarbiya integratsiyasi milliy armiyaning jangovar salohiyatini oshiradi. Biroq bunday dasturlar siyosiy manipulyatsiyaga aylanib ketmasligi, balki tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi ilmiy asoslangan yondashuv asosida olib borilishi zarur.

Xulosa. Axborot urushlari milliy xavfsizlikka jiddiy tahdid bo‘lib, unga qarshi kurashda texnologik choralar bilan bir qatorda tarixiy xotira va ma’naviy-ruhiy tarbiya hal qiluvchi rol o‘ynaydi:

- Milliy armiyada “axborot savodxonligi” modulini joriy etish zarur.
- Vtanparvarlik ta’lim-tarbiya dasturlari raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.
- Tarixiy qahramonlar va milliy qadriyatlardan foydalanishda ilmiy-tanqidiy yondashuv qo‘llanishi kerak.
- Harbiy mashg‘ulotlarga psixologik tayyorgarlik bloklari qo‘shilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Șerban, M. (2024). The role of military morale as an essential dimension of combat power. *Security and Defence*.

[2]. Qambarov A.B. (2025). Yangi O‘zbekiston yoshlarida tarbiyaning shakllantirishda tarixiy tafakkurni o‘rni. *Ta’lim va Taraqqiyot jurnali*. Namangan davlat pedagogika instituti. Available at: https://journal.namspi.uz/articleview/154

[3]. Fayzullayeva U.X. (2024). Kasbiy ma’naviyatning tamoyillari. *Pedagogika va tarbiya metodikasi jurnali*.

[4]. Turdiyeva N.S., & Ibragimova D.O. (2024). Ma'naviy-axloqiy tarbiya to'g'risida Sharq allomalarining fikrlari. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*. Available at: https://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/4157

[5]. Matolinets, T. (2024). History teaching as a tool of patriotic education and political propaganda in the modern system.

[6]. Warnick, B. (2023). Heroes, Patriotic Education, and the Shadows of History.

[7]. Nye, J. (2004). *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. New York: PublicAffairs.

[8]. Scopus Content Coverage Guide. (2023). Elsevier.

[9]. Huntington, S. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. New York: Simon & Schuster.

[10]. Toffler, A. (1990). *Powershift: Knowledge, Wealth, and Violence at the Edge of the 21st Century*. New York: Bantam Books.

[11]. National Defense University (2022). *Information Warfare and National Security*. Washington, D.C.

[12]. Ministry of Defense of Uzbekistan (2023). *Milliy armiyada ma'naviy-ruhiy tarbiya konsepsiyasi*. Toshkent.

[13]. UNESCO (2021). *Media and Information Literacy in the Digital Age*. Paris: UNESCO Publishing.

HARBIY YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY TARBIYASIDA JADIDLAR MEROSINING AHAMIYATI

dotsent Xudayarov A.Sh.
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Mamalakatimizda qatag'on qurbonlari bo'lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini, xususan, jadidlar merosini yanada chuqur o'rganish va ularning xotirasini abadiylashtirish bo'yicha muhim farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Xalqimizning noyob adabiy-badiiy merosi bugungi kunda yosh avlodga ulkan ma'naviy kuch beradi. Hozirgi kundagi keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi.*

Kalit so'zlar: *Ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini, Uchinchi Renessans, Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, Jadid bobolarimiz, Ma'naviyat va ma'rifat.*

Аннотасия. *В нашей стране принимаются важные указы и постановления, направленные на далнейшее изучение жизни и деятелности наших предков, ставших жертвами репрессий, в частности наследия*

джадидов, и увековечение их памяти. Уникалное литературно-художественное наследие нашего народа сегодня придает подрастающему поколению огромную духовную силу. Главной селю было создание в Узбекистане фундамента нового Возрождения, то эст третего Возрождения, посредством широкомасштабных демократических преобразований, в том числе образовательных реформ.

Ключевые слова: *жизн и деятелност наших предков, трете возрождение, воспитание с момента рождения, наши предки-джадиды, духовност и просвещение.*

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek,"Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaxo boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi"

Yurtimiz azaldan bebaho ma'naviy meros va qadriyatlarga boy mamlakat bo'lgan. Faqat biz bu merosni chuqur o'rganib hayotimizning har jabhasida foydalansak, bizga Vatanni sevish, milliy o'zlikni anglash, yurt kelajagiga daxldorlik xissi bilan yashashga o'rgatadi. Ma'rifatparvar bobolarimiz millatni uyg'otish va istiqlol yo'lida qancha jabru jafolar chekkani va taraqqiyotga faqat ilmu ma'rifat bilan erishish mumkinligini targ'ib etgan [1].

Jadid bobolarimizdan biri Abdullo Avloniyning yoshlarimiz tarbiyasi xaqidagi quyidagi so'zlari e'tiborga molikdir:"Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrlarimizni nurlantirmoq, axloqimizni yaxshilash, zexnimizni ravshanlantirmoq lozim ekan. Tarbiyani kim qiladi? Qaerda qiladi?degan savol keladi. Bu savolga: Birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir... Xulosa shuki, tarbiya biz uchun yo xayot, yo mamot, yo najot, yo xalokat, yosaodat-yoo falokat masalasidir", degan so'zlari bugungi globallashu jarayonida naqadar axamiyatlidir [2].

Hozirgi kunda ektremizm, ommaviy madaniyat, kosmopolitizm ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kabi zararli illatlar yoshlarimiz o'rtasida keng avj olmoqda. Bu xatarlardan yoshlarimizni saqlash uchun barchamiz shug'ullanishimiz kerak, zarracha loqaydlikka yo'l qo'ymaslik zarur.

"Yoshlarning bo'sh vaqti dushmanning ish vaqti" degan naql bor. Biz farzandlarimizning bo'sh vaqtini qoldirmasligimiz, aksincha ularni foydali o'qish va kasb-hunarga targ'ib qilishimiz shart.

Davlatimiz rahbari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisida bunday dedi[: "Azizlarim, tarbiyasi izdan chiqqan nopok

kimsalardan ogox bo‘laylik! Farzandalarimizni ularning buzg‘unchi ta’siridan asraylik! Kelajagimizni yovuz kuchlar qo‘liga berib qo‘yishga aslo haqqimiz yo‘q. Agar barchamiz birgalikda qat’iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni mustahkamlashga, albatta, qodirmiz”[3].

Jadidchilikni shakllantirishda ko‘plab millat ziyolilari faol qatnashgan. Jamiyatni o‘rtaasrchilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi.



Turkistondagi jadidchilik harakatiga Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho‘lpon, Pahlavon Niyoz Hoji, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» tashkiloti rahbarlari boshchilik qilishgan.

Bu harakat o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra, XIX asr boshlarida mavjud bo‘lgan diniy islohotchilikdan farq qiladi. Ogahiy, Nodira, Ahmad Donish, Turdi, Maxmur, Furqat, Muqimiy kabi ijodkorlar mansub bo‘lgan avlodning qarashlari asosan ma’rifatparvarlik tamoyiliga tayanar edi. Jadidlar esa nafaqat ma’rifat, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish, mavjud tartiblarni o‘zgartirish yo‘lidan bordilar.

Jadidchilik harakati rivojini uch bosqichga ajratish mumkin [4].

1) XIX asrning 80-yil oxirida mamlakatimizda jadidchilik harakati paydo bo‘ldi. Toshkentda – Munavvarqori va Avloniy; Samarqandda – A.Munzim, S.Aziziy, Mulla Qilich; Buxoroda – Jo‘raboy Maxsum; Qo‘qonda – Hamza; Namanganda – So‘fizoda va Ibrat kabi olimu fuzalolar maktab ochish, noshirlik, savodxonlikni oshirish borasida muhim ishlarni amalga oshirdilar. Bu jarayon I jahon urushigacha davom etdi. Butun mamlakat bo‘ylab ko‘plab jadid maktablari faoliyat olib bordi. Shuningdek, matbaachilik, noshirlik, ilm-fan, adabiyot, madaniyat, maorifni milliy asosga ko‘chirishga intilish kuchaydi;

2) I jahon urushi Rossiya imperiyasidagi ahvolni yanada murakkablashtirib yubordi, uning hududida siyosiy harakatlar kuchayib ketdi. Bu davrda jadidchilik o‘ta ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etib, uning g‘oyalari asosida siyosiy partiyalar tuzildi;

3) 1917 yil oktyabrida Rossiyadagi davlat to‘ntarishidan keyin Qo‘qonda Turkiston Muxtoriyati tuzildi va oradan bir yil o‘tmasdan, bolsheviklar tomonidan zo‘ravonlik bilan yo‘q qilindi. Muxtoriyat rahbarlari, uni e’lon qilishda ishtirok etgan yoki unga xayrixoh bo‘lganlar ham badarg‘a va quvg‘in qilindi, qatag‘onga uchradi [5].

Ushbu mavzu borasida ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning quyidagi so‘zlari hozirgi vaqtda ham o‘z ta’sirini yo‘qotmagan: “To‘y va ta’ziyag‘a sarf qilaturg‘on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm vadin yo‘liga sarf etsak, anqarib ovro‘poyillardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar. Yo‘q, hozirgi holimizga davom etsak, din va dunyoga zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydur”.

Haqiqatan bugungi kundagi ahvolimiz ham xuddi shunday. Endilikda mablag‘imizni yoshlarimizning ilm olishiga sharoit qilishga sarflasak maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Jadid bobolarimizning fikr-g‘oyalari mana bir asr bo‘libdiki o‘z ta’sirini yo‘qotgani yo‘q. Bugungi kunda insoniyat inqirozlar qurshovi va ekologik muammolar tahlikasida qolgan, bu ham etmagandek, dunyo yoshlari ishsizlik, ochlik va axloqiy qashshoqlik kabi illatlarga mubtalo bo‘lib turgan vaqtda biz hali ham ba’zi mayda ikir-chikirlar xaqida bahsdamiz.

Behbudiy yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish jarayonida, urf-odat va an’analarni himoya qilish bahonasida milliy biqiqlik va cheklanishlarga berilmaslik kerakligini ta’kidlab, yoshlarning davr mezonlari asosida kiyinishi, hayot yangiliklariga intilishini ta’qiqlamaslik, balki qo‘llab-quvvatlash lozim, deb hisobladi. «Agar bu juz’iy tashabbuhlar ila-da kishi kofir bo‘laversa, bas, er yuzida bir nafar ham musulmon qolmasligi lozim kelur…».3 Bundan ayon bo‘lmoqdakim, Behbudiy har bir juz’iy narsa haqida bahs yuritib, xalqni kofiru musulmonga ajratib tashlash yoshlarning ma’naviy dunyosiga va barkamol shaxslar bo‘lib voyaga etishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Bu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudiyning islom dini asoslarini yaxshi bilganligi, ayniqsa, o‘z qarashlarida hanafiylik mazhabi tarafdori bo‘lganligini ta’kidlash zarur. Behbudiy o‘zi yashagan davr ibtidosi nuqtai nazaridan real fikr yuritadi. Behbudiy ma’naviy merosi haqida gap ketganda, uning hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolayotgani, hatto juda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganini qayd qilish zarur [6].

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “bugungi yashin tezligida o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm giyovandlik, odam savdosi, noqonuniy migrasiya, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga qanday og‘ir kulfatlarni solayotganiga barchamiz guvoh bo‘lmoqdamiz. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga umriga zomin bo‘lmoqda”.

Chunki O‘zbekistonning mustaqilligiga raxna solishga intilayotgan, islom olamida xalifalik tuzish g‘oyasini targ‘ib qilayotgan diniy-ekstremistik harakat va guruhlarning islom «sof»ligini ta’minlash maqsadidagi da’volari puch ekanligini oldindan muftiy Behbudiy o‘z asarlarida aniq va puxta asoslab bergan edi. O‘sha davrda qadimchilar qiyofasidagi aqidaparastlarning mutaassib g‘oyalarining ijtimoiy taraqqiyotga, barkamol insonning shakllanishidagi salbiy oqibatlarini ochib bergan va diniy bag‘rikenglik (tolerantlik)ni ma’naviy yuksalish omillaridan biri deb hisoblagan Behbudiyning falsafiy mushohadalari hali e’tiqodi butunlay shakllanib ulgurmagan yosh avlodning turli oqimlar «qarmog‘i»ga tushmasligiga va ularda mafkuraviy immunitetning hosil bo‘lishiga yordam beradi [7].

Shuning uchun O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev oilaning farzand tarbiyasidagi muhim ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: “Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan o‘ta muhim masala - bu unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Biz bir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim: ota-ona, jamiyat e’tiboridan chetda qolgan bola oilaga quvonch va foyda o‘rniga faqat tashvish keltiradi. Shu bois bola tarbiyasi, yoshlar bilan ishlash biz uchun eng muhim va dolzarb vazifa bo‘lib qolishi shart”.

Milliy qarashning mohiyatini anglab etish bugungi hodisalarni to‘g‘ri o‘qiy olish uchun o‘z tariximizni, xususan, ma’rifatparvar jadid bobolarimiz qoldirgan ma’naviy merosni chuqur bilishimiz kerak. Bugungi zamonda ilmiy salohiyat va sanoatda qanday o‘rinlardamiz shu haqida bahs qilishimiz zarur.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda bizning ahvolimiz qanday? Ilg‘or xalqlar hamma sohada rivojlanib bormoqda. Hatto oyni zabt etib sun’iy intelektni rivojlantirib taraqqiy etayapti. Xo‘sh, biz bunday kadrlarga muhtoj emasmizmi?! Musulmon ahli shunday kadrlar chiqarmasa gunohkor bo‘lmaydimi?!

Yurtboshimiz Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisida quyidagi ta’sirli so‘zlarni ham ta’kidladi: “Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston”degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni xal etishimiz bo‘yicha amaliy

harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi. Bu so‘zlar har bir “O‘zbekistonlikman”, “O‘zbekman” degan insonning qalbida chuqur xis etmog‘ini



istardim” [8].

Behbudiy yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish jarayonida, urf-odat va an’analarni himoya qilish bahonasida milliy biqiqlik va cheklanishlarga berilmaslik kerakligini ta’kidlab, yoshlarning davr mezonlari asosida kiyinishi, hayot yangiliklariga intilishini ta’qiqlamaslik, balki qo‘llab-quvvatlash lozim, deb hisobladi. «Agar bu juz’iy tashabbuhlar ila-da kishi kofir bo‘laversa, bas, yer yuzida bir nafar ham musulmon qolmasligi lozim kelur…».3 Bundan ayon bo‘lmoqdakim, Behbudiy har bir juz’iy narsa haqida bahs yuritib, xalqni kofiru musulmonga ajratib tashlash yoshlarning ma’naviy dunyosiga va barkamol shaxslar bo‘lib voyaga yetishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Bu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudiyning islom dini asoslarini yaxshi bilganligi, ayniqsa, o‘z qarashlarida hanafiylik mazhabi tarafdori bo‘lganligini ta’kidlash zarur. Behbudiy o‘zi yashagan davr ibtidosi nuqtai nazaridan real fikr yuritadi. Behbudiy ma’naviy merosi haqida gap ketganda, uning hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolayotgani, hatto juda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganini qayd qilish zarur [9].

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “... bugungi yashin tezligida o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm giyovandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga qanday og‘ir kulfatlarni solayotganiga barchamiz guvoh bo‘lmoqdamiz. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga umriga zomin bo‘lmoqda”. 1 Chunki O‘zbekistonning

mustaqilligiga raxna solishga intilayotgan, islom olamida xalifalik tuzish g‘oyasini targ‘ib qilayotgan diniy-ekstremistik harakat va guruhlarning islom «sof»ligini ta’minlash maqsadidagi da’volari puch ekanligini oldindan muftiy Behbudiy o‘z asarlarida aniq va puxta asoslab bergan edi. O‘sha davrda qadimchilar qiyofasidagi aqidaparastlarning mutaassib g‘oyalarining ijtimoiy taraqqiyotga, barkamol insonning shakllanishidagi salbiy oqibatlarini ochib bergan va diniy bag‘rikenglik (tolerantlik)ni ma’naviy yuksalish omillaridan biri deb hisoblagan Behbudiyning falsafiy mushohadalari hali e’tiqodi butunlay shakllanib ulgurmagan yosh avlodning turli oqimlar «qarmog‘i»ga tushmasligiga va ularda mafkuraviy immunitetning hosil bo‘lishiga yordam beradi [2].

Xulosa: Jadidlar o‘z asarlarida milliy taraqqiyotning iqtisodiy omillari, jamiyat ma’naviy-axloqiy poklanishida dinning o‘rni, fan va texnika yutuqlarini egallash uchun maorif tizimini qayta qurish lozimligi masalalarini yoritdilar. Jamiyatning ma’naviy yuksalishi inson ijobiy fazilatlarining boyishi bilan bog‘liqligi masalasini tahlil qilib, ularning uyg‘unligini ta’minlash ijtimoiy hayotning boshqa unsurlariga pozitiv ta’sirga ega degan, xulosaga keldilar. O‘rnida biz buyuk millat sifatida dunyoda o‘z o‘rnimizga ega bo‘lishni istasak, buyuk tariximiz bilan bir qatordama’rifatparvar jadid bobolarimiz qoldirgan ma’naviy merosni chuqur o‘rganib, ularning o‘gitlariga amal qilmog‘imiz, Vatan taraqiyoti uchun jiddu jahd qiladigan yangi avlodni tarbiyalamog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O‘zbekiston, 2016. 32 b.

[2]. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O‘zbekiston, 2017. 488 b.

[3]. Ziyoev X. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. -T.: Sharq, 2001, - 448 b.

[4]. Karim B. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. -T.: Universitet,2000. -103 b.

[5]. Komilov N. Tafakkur karvonlari. - T.: Ma’naviyat, 1999. - 280 b.

[6]. Mahmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat. - T.: Sharq, 2001. - 160 b.

[7]. Mahmudov G‘. Jadid adabiyotida milliy istiqlol mavzusi. -T.O‘zbekiston, -1999.-102 b.

[8]. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: Manaviyat, 1997.- 280 b.

AMIR TEMURNING HARBIY STRATEGIK VA JANG SAN'ATI MEROSIDAN HARBIY TA'LIMDA FOYDALANISH USLUBLARI

Soriyev X. Ya
O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, Serjantlar tayyorlash oliy maktabi

Annotatsiya*: Ushbu ilmiy maqolada Amir Temurning harbiy strategik va jang san'ati merosini zamonaviy harbiy ta'limda foydalanish uslublari: psixologik amaliyotlar – dushman ongini yengish usullari, taktik hiylalar – dushmanni aldash va ularni nazoratga olish san'ati, qo'shinlaridagi jismoniy tayyorgarlik va trening usullari, aqliy va ruhiy tayyorgarlik bilan bog'liq mashqlar usuli ilmiy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: harbiy, strategik, jang san'ati, harbiy-psixologik strategiya, usul, psixologik amaliyot, **t**aktik hiylalar, "Ming askar", "Tovus tongi", mohirlik, ruhiy tetiklik, jismoniy tayyorgarlik.

Аннотация: *В данной научной статье научно проанализированы методы использования наследия Амира Темура в военной стратегии и боевых искусствах в современном военном образовании: психологические практики – методы преодоления разума противника, тактические приемы – искусство обмана и контроля над врагом, методы физической подготовки и обучения в его войсках, методика упражнений, связанных с умственной и психологической подготовкой.*

Ключевые слова: военная, стратегическая, боевое искусство, военно-психологическая стратегия, метод, психологическая практика, тактические приемы, "тысяча солдат", "павлинья Заря", ловкость, душевное освежение, физическая подготовка.

"Amir Temur jang ustasi bo'lgan. U jangga uzoq tayyorlanish orqali tez, shiddatli hujum uyushtirishni afzal bilgan" deb yozadi amerikalik mashhur tarixchi olim Richard Nel'son. Darhaqiqat, harbiy san'at tarixi Amir Temurni haqli ravishda jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida e'tirof etadi. U buyuk davlat arbobi va ilm – fan homiysi, shu bilan birga harbiy strategiya, jang taktikalari va qo'shinning jismoniy tayyorgarlik sohasida buyuk inqilob yaratgan yetuk harbiy sarkardadir. Amir Temur o'z davridagi davlatning harbiy tizimini san'at darajasiga olib chiqdi va aynan ana shu faoliyati tufayli uning davlati yer yuzida katta obro'y – e'tiborga ega bo'ldi. Chunki hamma davrlarda ham harbiy kuch – qudrat xalqaro siyosiy nufuzni belgilagan. Amir Temur davlatida amalga oshirilgan islohotlar va joriy etilgan qoidalar aynan

uning harbiy tizimini to‘g’ri yo‘lga qo‘yish orqali muvaffaqiyatli bajarilgan[1]. Sohibqiron qo‘shin tuzilishini harbiy san’at bilan uyg’unlashtirdi va shu asnoda davlatning mustahkam harbiy tizimini yaratdi.

Amir Temur harbiy strategiyasi va jang san’ati, shu bilan birga harbiy-psixologik strategiyalaridan hozirgi zamonaviy harbiy ta’limda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida biz Amir Temurning harbiy strategiya va jang san’atida qo‘llagan ba’zi usullari va ulardan zamonaviy jang san’ati hamda harbiy ta’limda foydalanish haqida to‘xtalamiz.

1.Psixologik amaliyotlar – dushman ongini yengish usullari. Dushman ichiga qo‘rquvni tashlash va ishonchni buzish. Amir Temur dushmanga qarshi jangdan oldin uning qo‘shinida jodugarlar, noyob qurollar yoki "mag’lub etilmas lashkar" borligi haqida maqsadli ravishda ovoza tarqatgan. Bu orqali dushmanda janggacha **qo‘rquv va ishonchsizlik** paydo qilgan. Masalan, Amir Temur, barcha safarlarida bo‘lgani kabi, Anqara yurishidan oldin avvalo, ayg’oqchilardan mohirona foydalandi. Yildirim Boyazidga qarshi harakat boshlashdan oldin Anado‘lu xalqi orasida o‘z foydasiga targ’ibot – tashviqot ishlari olib bordi. SHu bilan birga, josuslari yordamida Yildirim Boyazidning nasroniy xotinlarga uylangani, saroy ahli axloqan buzilgani borasida gap-so‘zlarni ko‘paytirdi. Usmonli mamlakatidagi tatarlarni (ya’ni mo‘g’ul-tatarlarni) o‘z tomoniga og’dirish uchun ularning amirlariga maktublar yo‘lladi. Xatlarida ular nafsoniyatini qo‘zg’otadigan “Nega Saljuq o‘g’li qullikdan ozod etgan kishilar avlodidan bo‘lmish odamning quliga aylandingiz?” degan fikrni alohida ta’kidladi va Usmonli xonlari past tabaqadan chiqqani, mo‘g’ul –tatarlar ustun ekani, shu bois ular Anado‘luda hukmron bo‘lishi lozimligini takror – takror aytib, bu bilan ularning boshini silaganday e’timod qozonmoqqa intildi[2]. Natijada aholi va dushman qo‘shini orasida qo‘rquv va vahima kuchayadi, yigirma mingga yaqin tatar qo‘shinlari jang boshlanganda Sohibqiron qo‘shinlari tomoniga o‘tib ketadi. Amir Temurning jang san’atidagi bu informatsion va psixologik tayyorgarlik taktikasi – dushman ruhiyatiga ta’sir qilish usullari (ovoza, tarqoqlikdan foydalanish, qo‘rquv uyg’otish) – hozirda **psixologik operatsiyalar (PsyOps)** sifatida harbiy ta’lim dasturlariga kiritilgan.

2.Taktik hiylalar – dushmanni aldash va ularni nazoratga olish san’ati. Dushmanni noto‘g’ri yo‘nalishga yo‘naltirish (dezinformatsiya). Temur ko‘pincha

[1] **Uljaeva Shoxista. “Amir Temur davlat boshqaruvi” T., “Akademnashr”, 2017. 447-bet.**

[2] Ahmad Shimshirgil. Amir Temur. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/ahmad-shimshirgil-amir-temur/

“yolg’on lager”, “yolg’on chekinish”, “yolg’on ittifoq” kabi hiylalar bilan dushmanni chalg’itgan: 1) Jang oldidan boshqa yo‘ldan yurayotgandek qilib ko‘rsatgan. 2) Dushmanga “ketdi” deb ovoza tarqatib, tunda qaytib kelib hujum qilgan. Masalan, Amir Husayn Qarshi qal’asini qo‘lgan kiritib, u yerda Amir Muso va Malik Bahodir boshliq o‘n ikki ming kishilik qo‘shin qal’a himoyasiga qoldiradi. Shunda Amir Temur qal’ani olish uchun hiyla ishlatadi. U o‘zini Xurosonga ketayotgan kishi qilib ko‘rsatadi va Amudaryo bo‘yida Xurosondan Qarshiga ketayotgan karvondagilarga Xurosonga ketayotgani aytadi va u yerdagi holatlarni surishtiradi. Karvondagilar esa shubhasiz, buni Amir Musoga yetkazishadi. Amir Temur esa bu karvonga bir ayg’oqchi qo‘shib yuboragan edi. Ayg’oqchi keltirgan xabarga ko‘ra, Amir Muso va Malik bahodir Amir Temur ketganidan xursand bo‘lib, aysh–ishratga berilib ketgan. Shundan keyin Amir Temur jangchilarining bir qismiga jangovor topshiriq berib, o‘zi bir yuz qirq ikki otliq bilan Qarshi qal’asi yoniga keladi va tunda hujum qilib, qal’ani qo‘lga kiritadi. Va yana: Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida Amir Temur yoshligida harbiy hiylani mahorat bilan ishlatgani haqida ma’lumot beradi. Xususan, Ilyosxo‘ja Movarounnahrga o‘ttiz ming qo‘shin bilan bilan yurishni boshlab yuborgan davrda Amir Temur Ilyosxo‘jada o‘z qo‘shinining ko‘pligi haqida tasavvur uyg’otish va dushmanni psixologik jihatdan qo‘rqitish, iloji boricha ularni mamlakatdan katta urushlarsiz chiqarib yuborish choralarini ko‘ra boshlaydi. U bu borada quyidagicha harbiy hiyla ishlab chiqqan: 1363–yilda tasarrufida o‘ttiz ming qo‘shini bo‘lgan Ilyosxo‘ja qo‘shini qarshisidagi Puli Sangin (Hisor viloyatida, Vaxsh daryosi ustida qurilgan tosh ko‘prik) ko‘prik boshiga o‘zining ikki ming otliq askarini joylashtiradi va Amir Temurning o‘zi besh ming otliq bilan daryodan o‘tib, Ilyosxo‘ja lashkari tepasidagi toqqa chiqib o‘rnashib oladi va kechasi bilan o‘z askarlariga ko‘p joylardan gulxan yoqib, olov va tutun bilan vahima soladi. Bu haqda Amir Temur “Tuzuklari”da shunday yozadi: “Birinchi navbatda Ilyosxo‘janing barcha zafarli favjlarini bir joyda bog’lagan holda ushlab turishga qaror qildim. Shu maqsadda ikki ming otliq askarimni Ilyosxo‘ja ro‘barosidagi ko‘prik yonida joylashtirdim. Uzi mesa besh ming otliq bilan Ilyosxo‘ja qo‘shini tepasida joylashgan tog’ga chiqib o‘rnashdim va kechsi ko‘p joyga gulxan yoqishni buyurdim”[3]. Bu hiyla dushman qo‘shiniga qattiq ta’sir qiladi, ular “Amir Temur juda ko‘p qo‘shin bilan qarshi hujumga kiradi” deb o‘ylaydi, ruhan tushkunlik va qo‘rqinch iskanjasida qoladi, ular tunni “Jangga hozirlan!” buyrug’ini kutub, uyqusizlikda o‘tkazishdi. Ular vahima bilan g’aflatda yotganda Amir Temur tun panasida to‘rt tomondan ularning ustiga hamla qiladi, Jeta lashkari o‘zini yig’ib, qo‘shinini tartibga keltirguncha bahodir yigitlar ularni to‘zitib

[3] **“Temur tuzuklari”. Toshkent “Fan” 2019. 42–bet.**

tashlaydi va g’alaba qozonadi. Bu hozirgi zamonaviy harbiy ta’limdagi PsyOps (psixologik operatsiyalar) va deception tactics'larining ildizi hisoblanadi.

3. Amir Temurning harbiy jang san’atidagi yuksak muvaffaqiyatlarini shakllantirgan asosiy omillardan biri – uning qo‘shinlaridagi jismoniy tayyorgarlik va trening usullaridir. Bu tayyorgarlik nafaqat jangda faol harakat qilish, balki askarning ruhiy barqarorligini, irodasini va intizomini ham ta’minlagan. Amir Temur davriga kelib “Ming askar” jang san’ati ommaviy tus olgan. “Ming askar” jang san’ati usullarining birinchisi “Tovus tongi” deb atalgan. Odatda kechayu kunduz fikru – yodi jang bilan bo‘lgan askarning ko‘zi qonga to‘lib, tap tortmay haqu nohaqni yanchib, yo‘q qilib ketishi hech gap emas. “Tovus tongi” mashqi askarni sokinlashtiradi, xayollarini tiniqlashtiradi. Amir Temur “Ming askar” jangovar yakkama-yakka kurash usullarini lashkariga o‘rgatgan. Sohibqiron o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi, amirlarni tayinlashda nomzodlarning qancha jang usulini bilishiga ham alohida e’tibor bergan. “Ming askar” usulini mukammal bilib, jasorat ko‘rsatgan jangchilar maxsus o‘n musht uzunligida, qalinligi otning ko‘zidek keluvchi, og’irligi besh kilo chiqdigan oltin qurol bilan taqdirlangan[4]. Bu qurol bilan har qanday hamlada himoyalanib, har qanday jangchini mag’lub etish mumkin bo‘lgan. Chunki ming usul sohibida bu oltin yaroq sehrli qudrat kasb etgan. Unda jangchining nasli, tug’ilgan joyi, ko‘rsatgan jasoratlari yozib qo‘yilgan. Oltin – qudrat beruvchi ma’dan. Oltin qurol jangchini tovusning holatiga solgan. Tovusning jahli chiqmaydi. Shuncha zeb-ziynati, go‘zalligi bo‘lsa-da, sokin yuradi. Jangchi og’ir – bosiq bo‘lsa, vaziyatning xojasiga aylanadi. Oltin qurolning sehrli kuchi ham shunda.

Shu bilan birgalikda Sohibqiron Amir Temur o‘z qo‘shinida zarur jangovar kayfiyat, g’alabaga ishonch ruhini uyg’otish, jangchining jismoniy va ruhiy holatini yanada yaxshilash uchun vaqti-vaqti bilan har-xil musobaqalar, tomoshalar o‘tkazib turgan. Bunday musobaqalarda navkarlarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi sinovdan o‘tgan. Navkarlar muntazam ravishda jangovar kurash usullarini o‘zlashtirib borishgan. Maxsus tayoqlar, gurzilar, zanjirlar, arg’amchilar bilan olishuv, maydonda va otlar ustida kurash, mushtlashuv, sakrab tepish, chil berish, kalla urish, qo‘llarni qayirish kabi yuzlab usullar ishlatilgan. Mashg’ulot turlari – harbiy jismoniy mashqlar sifatida quyidagilarni amalga oshirish tashkil etilgan: **1) <u>Chavandozlik mashg’ulotlari (otda yurish)</u>**. Bunda askarlar otni tutishdan tortib, yurish, chopish, otdagi nayza va qilich bilan harakat qilishni o‘zlashtirgan. Bu mashqlar jangda manevr qilish, tez harakatlanish va ot ustida muvozanatni saqlashni ta’minlagan. **<u>2) Qurol bilan mashqlar (nayza, qilich, kamon).</u>** Bunda askarlar og’ir nayza va qilich bilan

[4] **To’lqin Alimardonov. Amir Temur imperiyasi (siyosiy-falsafiy talqin). Yangi asr avlodi, Toshkent 2021. 248-bet.**

mashq qilgan – bu mashqlar yelka, bel va qo‘l mushaklarini mustahkamlagan. Kamon otish mashqlarida yo‘nalishni aniqlash, diqqatni jamlash, to‘g’ri nafas olishni o‘rgatgan. Bugungi kundagi **"combat fitness training – jangovar jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari "** shunga o‘xshash mashg’ulotlarga asoslanadi. **3)Yugurish, yuk ko‘tarish, tana mushaklarini rivojlantirish.** Bunda **q**umli, toshli, baland – tekisli joylarda yugurish, tosh ko‘tarish, yuk tashish kabi mashqlar bajarilgan. Bu mashqlar askarni uzoq vaqt charchamasdan harakat qilishga tayyorlaydi. Bu mashqlar hozirgi harbiy dala maydonlarida olib **boriladigan funktsional tayyorgarlik bilan chambarchas bog’liq. 4) Kurash (qo‘lma-qo‘l jang).** Bunda milliy kurash turlari orqali qo‘lma – qo‘l jang ko‘nikmalari shakllantirilgan. Kurash nafaqat jismoniy kuchni, balki aql – zakovat, refleks va ruhiy barqarorlikni ham talab qiladi.

Mana shunday bellashuv va musoboqalarda g’olib chiqqanlar bahodirlik unvoni va yuksak martabalarga ega bo‘lishgan. Shu bois Amir Temurning mashqlari tufayli va ommaviy musoboqalarda chiniqqan har qaysi navkar o‘z kuchi, mohirligi, tadbirkorligi, g’alabaga ishonchi, ruhiy tetikligi bilan ming askarga teng kelarkan. Masalan, Amir Temur oltmish kishilik askari bilan Xiva hokimining ming kishilik qo‘shiniga qarshi jang qilib, dushmanni yengadi. Jang oxirida Amir Temur qo‘shinida 10 nafar, Xiva hokimi qo‘shinida 50 nafar askar qoladi va dushman qochishga tushadi[5].`

4)Aqliy va ruhiy tayyorgarlik bilan bog’liq mashqlar usuli. Amir Temur qo‘shinida jismoniy mashqlar aqliy va psixologik tayyorgarlik bilan uyg’un holda olib borilgan. Bunda:

Yo‘nalish	Unga oid mashqlar	Maqsadi
Sabr-toqat	Mavsumlar bo‘yicha mashq (sovuqda, issiqda)	Tabiiy sharoitga moslashish
Ruhiy barqarorlik	Uzoq muddatli yurishlar va tunda joy almashtirish	Qiyin vaziyatda o‘zini boshqarish
Aqliy zehn	Hujum-qopqon mashqlari	Og’ir paytda to‘g’ri qaror qabul qilish
Ixtiyorni boshqarish	“Tuzuklar”dagi intizomiy talablar	Irodani mustahkamlash

Ushbu usullarning zamonaviy harbiy ta’limda qo‘llanilishi hozirgi “Special Forces – Maxsus kuchlar” va “Rapid Reaction – Tezkor reaksiya” bo‘linmalarida: Qo‘lma – qo‘l jang texnikasi, Har–xil iqlim sharoitida yurish, Simulyator (Poligonni

[5] **Keren L. Amir Temur saltanati//Frantsuz tilidan tarjimasi va izoxlar muallifi: B. Ermatov; Maxsus muharrir: X. Sulton; So’z boshi: Lui Bazen / .-T.: «Ma’naviyat», 1999.—20 b.**

modellashtirilgan varianti – 7D variantida otish)larda otish, manyovr va toblanish jang taktikalarida, Qurolli Kuchlar harbiy ta’lim muassasalari va harbiy qismlarda esa milliy kurash mashg’ulotlari, jismoniy tarbiya va harbiy sport, kichik taktik guruh mashg’ulotlarida qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning harbiy strategik va jang san’ati merosidan zamonaviy harbiy ta’limda: **jismoniy tayyorgarlik mashg’ulotlarida** – kuch, toblanish va chidamlilikni ta’minlash; **aqliy va taktik tayyorgarlik** mashg’ulotlarida – tez fikrlash, strategiya yaratish va manyovr qila olish; p**sixologik jihatdan barqarorlik shakllantirish mashg’ulotlarida** – dushman ongiga ta’sir qilish, o‘zini yo‘qotmaslik; q**o‘mondonlik salohiyatini oshirish mashg’ulotlarida** – lider sifatida qaror qabul qilish, intizom va ma’naviy tarbiya berish kabi muhim sohalarda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uljaeva Shoxista. “Amir Temur davlat boshqaruvi” T., “Akademnashr”, 2017.

2. Ahmad Shimshirgil. Amir Temur. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/ahmad-shimshirgil-amir-temur/

3. “Temur tuzuklari”. Toshkent “Fan” 2019.

4. To‘lqin Alimardonov. Amir Temur imperiyasi (siyosiy-falsafiy talqin). Yangi asr avlodi, Toshkent 2021.

5. Keren Lyu‘sen. Amir Temur saltanati//Frantsuz tilidan tarjimasi va izoxlar muallifi: B. Ermatov; Maxsus muharrir: X. Sulton; So‘z boshi: Lui Bazen / .-T.: «Ma’naviyat», 1999

BUYUK SARKARDA AJDODLARIMIZ JASORATINING YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI: JALOLIDDIN MANGUBERDI MISOLIDA

Ostonov Z. Z.
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Yangi O‘zbekistonimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi tobora davlat siyosatining ajralmas va qatiy qismiga aylanib bormoqda. Bu istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda sog‘lom dunyoqarashli, ma’naviy barkamol, intelektual saloxiyati yuuqori bo‘lgan avlodni tarbiyalash maqsadida turli ijtimoiy-siyosiy islohotlar amalga oshirilmoqdaki, ular yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Yosh avlodni buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish,

ularda milliy g‘urur, iftixor va tug‘ilib o‘sgan yurtga bo‘lgan muxabbat tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim.

Barcha ta’lim muassasalarida ayniqsa Harbiy ta’lim o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan farzandlarimiz qalbida milliy ruh, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg‘usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning boy jang san’atidan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi[6].

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlab borish eng muhim vazifalardan biridir.

Bugungi taxlikali davrda mintaqamiz va dunyodagi vaziyat tobora keskinlashib bormoqda. Milliy xavfsizligimiz, tinch va osoyishta hayotimizga nisbatan tahdid va xatarlar kuchaymoqda.

Ogohlikni oshirish, o‘zaro hamjihatlik va birdamligimizni mustahkamlash, har qanday tahdidlarga munosib javob berishga tayyor bo‘lib yashash hayotning eng muhim zaruratiga aylanmoqda.

Yosh avlodning ongini salbiy ta’sirlardan himoya qilish, adashganlarni to‘g‘ri yo‘lga qaytarish o‘zini vatanparvar deb hisoblaydigan har bir O‘zbekiston fuqarosi, ayniqsa yoshlarning asosiy burchi bo‘lib qolishi shart[7].

Ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarda vatanparvarlik va ona Vatanga sadoqat tuyg‘usini yanada yuksaltirish yana bir muhim vazifamizdir.

Biz yoshlarimizni haqiqiy vatanparvarlik, azmu shijoat, mardlik va jasorat ruhida tarbiyalashda muhtaram ziyolilarimiz, faol va fidoyi olimlarimiz hamda ijodkorlarimizning yordamiga tayanamiz. Ayniqsa, buyuk sarkarda bobolarimizning hayoti va jangovar faoliyati, harbiy merosini o‘rganish hamda yoshlarimiz o‘rtasida targ‘ib etish katta ahamiyatga egadir[8].

Keling bir Jahon tarixiga nazar tashlaylik, qalbida, yuragida ma’naviy jasorat hissi nihoyatda kuchli bo‘lgan insonlar har qanday murakkab vaziyatda ham adolat va haqiqat yo‘lida o‘zini ayamay, el-yurt uchun, Vatan uchun qanday ibratli ishlarni amalga oshirganini ko‘rish mumkin[9].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Urganchni bosqinchilardan himoya qilishda bayroq tutib jon bergan Najmiddin Kubroning qahramonligida, dunyoni to‘fondek bosgan Chingizxon qo‘shiniga qarshi o‘n bir yil muttasil mardona kurash olib borgan

[6] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. - 328 b.
[7] O‘sha asar. – 258 b.
[8] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. - 287 b.
[9] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2016. -159 b.

Jaloliddin Manguberdining jangovar ruhida, yurtimizni istilochilardan ozod qilib, buyuk davlat barpo etgan Amir Temur bobomizning bunyodkorlik salohiyatida ham ma'naviy jasorat tuyg'usi buyuk va ustuvor ahamiyat kasb etgani shubhasiz, albatta[10].

Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining hayot yo'li yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda g'urur, sadoqat va vatanparvarlik tuyg'usini, jangovarlik ruhi va istalgan paytda Vatan himoyasiga tayyorlik hissini tarbiyalashda ibratli namuna bo'la oladi.

Jaloliddin Manguberdi (to'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad) (1198-1231) – Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220-1231), mohir sarkarda. Anushteginiylardan. Xorazmshohlardan Muhammadshohning katta o'g'li. Onasi – Oychechak turkman kanizaklardan bo'lgan.

Jaloliddinning fe'l-atvori va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida Sh.Nasaviy quyidagicha ma'lumot beradi: "U bug'doymag'iz ranglik, o'rta bo'ylik, turkey qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi. U sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so'zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi"[11].

Jaloliddin Manguberdining jasorati haqida qator tarixchilar o'zlarining asarlarida ma'lumot berib o'tganlar. Ularni turli jihatdan o'rgangan Jumaboy Rahimov o'zining "Vatanning sheryurak bahodiri" (Jaloliddin Manguberdi) asarida ancha batafsil sharhlab o'tadi[12].

Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G'azna, Bomiyon, G'ur, Bust, Takinobod, Zamin Davar va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlagan[13].

Ammo Turkon xotun va qipchoq amirlarining qat'iy noroziligi sababli Qutbiddin O'zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etilgan. Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan.

XIII asr boshlarida Xorazmshohlar saltanati qo'shinining umumiy soni Chingizxon harbiy kuchiga nisbatan birmuncha oshiqroq edi. Biroq, Xorazmshoh hokimiyati mustahkam bo'lmagan.

Mansabdorlar davlat tang ahvolga tushib qolgan paytlarda o'z vazifalarini tashlab ketar, podshoga itoatsizlik qilar, o'zboshimchalik bilan o'z bilganlaricha yo'l tutar edilar. Hatto ayrim viloyat hokimlari Xorazmshohga nomigagina bo'ysunib,

[10] O'sha asar. – 163 b.
[11] Nasaviy Sh.M. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – T.: O'zbekiston. 2006. -296 b.
[12] Rahimov J. Vatanning sheryurak bahodiri. – T.: O'qituvchi. 2015. -486 b.
[13] Nasaviy Sh.M. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – T.: O'zbekiston. 2006. -46 b.

amalda deyarli mustaqil edi. Buning ustiga Sulton oliy dargohi ichida kuchli nizo hukm surardi. Ayniqsa, turkon xotun, ya’ni “turklar onasi” nomi bilan shuhrat topganSulton Muhammadning volidasi qo‘shinning oliy sarkardalari hisoblangan qipchoq oqsuyaklari bilan urug‘-qabila aloqalari orqali mahkam bog‘langan edi. U o‘z qabiladoshlari hisoblangan qipchoq oqsuyaklari bilan urug‘-qabila aloqalari orqali mahkam bog‘langan edi. U o‘z qabiladoshlari manfaati yo‘lida saroyda ko‘tarilgan barcha fitnalarga boshchilik qilar, hatto ularda shohga qarshi adovat ruhini uyg‘unlashtirib qo‘ygan edi.

Ichki nizo, boshboshdoqlik va fuqarolarning noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutgan edi[14].

Shoh va sarkardalar o‘rtasidagi ixtiloflar, mamlakat taqdiri, xalqning ertangi kuniga bo‘lgan bepisand munosabat, o‘z shaxsiy manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun ko‘rish holatining ustunligi natijasida butun mamlakat birin-ketin dushman tomonidan egallandi.

Buxoro, Samarqand, Xo‘jand singari buyuk shaharlarning qo‘ldan ketishi Muhammad Xorazmshohni larzaga soldi. U endi janubi g‘arbiy hududlarga chekina boshladi. Xorazmshoh yakkalanib qolib, ko‘plab ishonchli amirlari xiyonat yo‘lini tutdi. Undan Qunduz va Badaxshon viloyatlari hokimlari yuz o‘girdi. 1220-yilning aprelida Muhammad Xorazmshoh Nishopurga keladi. Ammo uni mo‘g‘ullar ta’qib etib kelayotganini eshitib, bir qancha shahar va qal’alarda yashirinib yurdi. Hech qayerda uni iliq kutib olishmadi. Oxiri Kaspiy dengizidagi Ashura orolida o‘g‘li Jaloliddinni taxt vorisi etib tayinlab, 1220-yilning dekabrida vafot etadi.

Orolda Sultonning kasali zo‘raygandan keyin va onasi asirlikka tushganini eshitganidan so‘ng Jaloliddinni hamda o‘sha paytda orolda bo‘lgan uning ukalari – O‘zloqshoh va Oqshohni huzuriga chaqirdi. Va ularga bunday dedi: “Mamlakatda hukmronlik iplari uzildi, davlat asoslari kuchsizlandi va yemirildi. Bu dushmanning asl maqsadlari nima ekanligi ayon bo‘ldi: uning tirnoqlari va tishlari mamlakat badaniga qattiq botdi. Men uchun ulardan qasosni faqat o‘g‘lim Manguberdi olishi mumkin. Shu uchun, mana, uni taxtim vorisi qilib tayinlamoqdaman. Sizlar ikkalangiz esa unga bo‘ysunishlaringiz va amriga quloq osishlaringiz kerak”. Shundan keyin u qilichini o‘z qo‘li bilan Jaloliddinning beliga osib qo‘ydi”[15].

Jaloliddin Manguberdi ukalari Oqshoh va Qutbiddin O‘zloqshohlar bilan birga Gurganj mudofaasiga oshiqadi[16].

Lekin Gurganjdagi qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e’lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqasd uyushtirmoqchi

[14] Rahimov M. O‘zbekiston tarixi. – T.: Fan, 2019. -136 b.
[15] Nasaviy Sh.M. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – T.: O‘zbekiston. 2006. -79 b.
[16] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2001. -39 b.

bo‘ldilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Gurganjni tark etib Xurosonga yo‘l olgan.

Movarounnahrning asosiy shaharlari egallangach, mo‘g‘ullarning bosqinchilik yurishi Amudaryodan janubidagi yirik savdo va madaniyat markazlari: Balx, Hirot, Marv va G‘azna kabi shaharlarga yo‘naltiriladi. Ammo bu viloyatda ular Jaloliddin Manguberdining qattiq qarshiligiga uchraydi. Bu o‘lkada u kuchli lashkar to‘playdi.

Niso shahri yaqinida uni 700 nafar mo‘g‘ul suvoriysi kutardi. Jaloliddin Manguberdi shiddatli jangdan so‘ng ularni tor-mor keltirib, Nishopurga keldi. Bu yerdan u barcha viloyat hokimlariga nomalar jo‘natib, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi birlashishga da’vat etdi, bir oydan so‘ng G‘azni tomon yurdi. Yo‘lda unga Hirot voliysi, qaynotasi Aminalmulk 10 ming kishilik qo‘shin bilan kelib qo‘shildi. Qandahorni qamal qilib turgan mo‘g‘ul qo‘shinlari bilan 3 kunlik jangda Jaloliddin Manguberdi ularni tor-mor keltirgan. U G‘azniga 1221-yil keldi.

Bu yerda unga xalaj qabilasi boshlig‘i Sayfuddin Ig‘roq, Balx voliysi A’zam Malik, afg‘onlar sardori Muzaffar Malik, qarluqlar boshlig‘i Hasan Qarluq kelib qo‘shildilar. Ularning har biri ixtiyorida 30 minglik qo‘shin bor edi. Jaloliddin Manguberdining o‘zidagi kuchlar esa 60 ming suvoriy edi. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qal’asini qamal qilayotgan Takajuk va Malg‘ur boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shiniga hujum qilib, 3 kunlik jangdan so‘ng ularni tor-mor keltirgan, 1000 dan ortiq mo‘g‘ul askari o‘ldirilgan, omon qolgan qismi Panjshir daryosidan o‘tib, ko‘prikni buzib tashlashgan. Bu Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g‘alabasi edi[17].

Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no‘yonni 45 minglik qo‘shin bilan jo‘natadi. G‘azni yaqinidagi Parvon jangida Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullar ustidan ajoyib g‘alabani qo‘lga kiritadi. Biroq jangdan so‘ng Jaloliddin Manguberdining lashkarboshilari o‘lja ustida o‘zaro janjallashib qolib, oqibatda Sayfuddin Ig‘roq, A’zam Malik va Muzaffar Maliklar Jaloliddin Manguberdini tark etganlar. Jaloliddin Manguberdining yonida faqat Aminalmulk o‘z lashkari bilan qolgan, xolos.

Chingizxon katta qo‘shin to‘plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o‘zi otlangan. Gapdiz qal’asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo‘shinining ilg‘orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizxon qo‘shini Jaloliddin Manguberdini daryodan o‘tishiga imkon bermay qurshab oladi. 1221-yil 25-noyabrda bo‘lgan tengsiz jangda mag‘lubiyatga uchragan

[17] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2001. -40 b.

Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan Sindning o‘ng sohiliga suzib o‘tib, cho‘l ichkarisiga kirib ketdi (bu cho‘l hozirda ham Cho‘li Jaloliy deb ataladi)[18].

Jaloliddin Manguberdi va Chingizxon qo‘shinlari o‘rtasidagi jang tarixda bu Sind Daryosi Bo‘yidagi Jang (1221-yil 24-26-noyabr). Parvon jangida mag‘lub bo‘lgan mo‘g‘ullar Chingizxon boshchiligida ulkan lashkar to‘plab Jaloliddinga qarshi otlangan. Son jihatdan mo‘g‘ullar bir necha barobar ziyod bo‘lgan, shu tufayli xorazmliklar Sind (Hind) daryosi tomon chekinishgan. Jaloliddin Parvonda avval uni tark etgan Sayfuddin Ig‘roq, A’zam Malik va Muzaffar Malik kabi amirlar bilan birlashib, Chingizxonga qarshi jang qilishga qaror qiladi. Ammo, o‘ylangan rejaning amalga oshishiga yov imkon bermaydi. Ildam yetib kelgan Chingizxon Jaloliddinning O‘rxon boshliq ug‘ruqiga hujum qilib, uni yakson etadi. Dushmanning lashkari bilan Sind daryosi orasida qolgan Jaloliddinning jangga kirishdan o‘zga chorasi qolmaydi. Sind daryosi bo‘yidagi jang 1221-yilning 24-noyabr erta saharda boshlanadi. Jaloliddin xos askarlari bilan yovning Chingizxon joylashgan markaziga shiddatli hujum uyushtiradi va uni 2 bo‘lakka ajratib yuboradi. Ammo, 10 ming kishilik bahodir laqabini olgan, saralangan mo‘g‘ullar pistirmasi uning yo‘lini to‘sadi. Bu pistirma Jaloliddinning qaynotasi Aminalmulk lashkariga hujum qildi. Ularni yengib, markazga tomon surib tashladi[19].

Jaloliddinning so‘l qanoti mo‘g‘ullarga bardosh berolmay yengiladi. Og‘ir ahvolda qolgan Jaloliddin 700 ga yaqin otliq askarlari bilan mardlarcha qarshilik ko‘rsatadi. Chingizxon uni tiriklayin qo‘lga olishni buyuradi. Dushman sultonni qurshovga oladi, ular o‘z niyatlariga yetay deb turganda Jaloliddinning tog‘avachchasi va xos amirlaridan bo‘lgan Axos Malik uni xalqa ichidan olib chiqishga erishadi.

Jang vaqtida sultonning go‘dak o‘g‘li yov qo‘liga asir tushadi. Chingizxon uni qatl etishga hukm qiladi. Janggohdan chiqqan Jaloliddin qarindosh-urug‘lari bilan vidolashadi va ularni Sindga g‘arq qilishga ijozat beradi, so‘ngra qayta hujumga tashlanadi, noiloj ahvolda qolgach, 10 gaz balanddan oti bilan daryoga sakraydi. Daryoning narigi qirg‘og‘iga sog‘-salomat o‘tib olgan sultonning bu qahramonligini ko‘rgan Chingizxon Jaloliddinni ta’qib etishni man qiladi va o‘z a’yonlari hamda farzandlariga qarata shunday deydi: “Otaga shunday o‘g‘il zarurki, u ikki girdob – olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oldi!”[20].

Sinddan suzib o‘tishga muvaffaq bo‘lgan Jaloliddin 4 mingga yaqin askarlari bilan birlashadi va Hindistonning shimoliy hududlari tomon yo‘l oladi. Oradan bir necha kun o‘tgach, Jaloliddin Manguberdi qo‘shini soni 7 mingga yetdi. Unga Kulbars

[18] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2001. -40 b.
[19] Nasaviy Sh.M. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – T.: O‘zbekiston. 2006. -108 b.
[20] Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – T.: Cho‘lpon, 1994. -184 b.

bahodir, Kabkuh va Sa’diddin Ali ash-Sharabdor kabi lashkarboshilar o‘z kishilari bilan kelib qo‘shildi.

Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindistonning notanish cho‘lida och, juldur kiyimli jangchilari bilan sargardonlikda qoldi. Uning bu holidan foydalanmoqchi bo‘lgan Shatra viloyati rana (shoh) si Jaloliddin Manguberdiga hujum qilgan. Jaloliddin Manguberdining merganlik bilan otgan kamon o‘qidan rana halok bo‘ladi, qo‘shini esa parokanda bo‘lib qochadi. Jaloliddin Manguberdi katta o‘ljani qo‘lga kiritadi.

Bu g‘alabadan so‘ng Sind, Uchcha, Mo‘lton, Lohur va Peshavor hokimi Nosiriddin Qubachaning Nandana va Sakundagi noibi Qamariddin Karmoniy Jaloliddin Manguberdiga o‘zini xayrixohligini izhor etib, sovg‘a-salomlar jo‘natgan[21].

G‘iyosiddin Pirshoh ajralib ketgan amirlardan Sanjoqonxon, Elchi Pahlavon, O‘rxon, Soyircha, Tekjoruq Xonkishilar o‘z lashkarlari bilan kelib Jaloliddin Manguberdiga qo‘shildilar. Jaloliddin Manguberdi Kalor shahri, Parosravar, Tarnuj qal’alarini qo‘lga kiritdi. Mulklarining katta qismidan ajralgan Qubacha 10 ming otliq qo‘shini hamda mamluklar sulolasidan bo‘lgan Dehli sultoni Shamsuddin Eltutmishdan olgan qo‘shimcha kuch bilan Jaloliddin Manguberdiga qarshi jang qilgan, biroq mag‘lubiyatga uchragan, uning xazinasi, qurol-yarog‘lari o‘lja tushgan. 1222-yil Chingizxon Jaloliddin Manguberdi izidan To‘rbay To‘qshin va Bola no‘yonni 20 minglik qo‘shin bilan jo‘natadi. Lekin ular Mo‘ltonga qadar borib, shaharni ololmay, jazirama issiqqa dosh berolmay qaytishadi[22].

Jaloliddin Manguberdi shundan so‘ng Hindistonda, keyinchalik Iroq, Ozarbayjonda davlat tuzishga urinadi. Afsuski, turli sabablarga ko‘ra buni uddalay olmaydi.

Uning kuchsizlanganidan foydalangan mo‘g‘ullar katta qo‘shin bilan Ozarbayjonga bostirib kirib Marog‘a, Tabrizni egallab (1231-yil) Jaloliddin Manguberdini ta’qib etishgan. Mayofariqin viloyatidagi qishloqlardan birida mo‘g‘ullar tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberdining oz sonli qo‘shinini tor-mor keltiradilar, Jaloliddin Manguberdini o‘zi esa ta’qibdan qutulib Kurdiston tog‘lariga chiqib ketgan. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo‘liga asir tushib, fojiali ravishda halok bo‘lgan[23].

Atigi o‘ttiz uch yil umr ko‘rgan, ammo nomi ellarda mashhur bo‘lgan, Chingizxonni lol qoldirgan, o‘z yurtini sevgan oxirgi Xorazmshoh *Sulton Jaloliddin Manguberdi* yorug‘ dunyodan ko‘z yumdi. Uning nomi asrlar davomida avlodlar uchun jasorat va mardlik, vatanparvarlik ramzi bo‘lib kelmoqda.

---

[21] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2001. -111 b.
[22] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2001. -40 b.
[23] Nasaviy Sh.M. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – T.: O‘zbekiston. 2006. -294 b.

Sulton Jaloliddinning hayotligi davrida mo‘g‘ullar O‘rta Sharqni bosib ololmadilar. Bu voqea ancha keyin 1256-yili ro‘y berdi. *Jaloliddin Manguberdi* o‘n bir yil davomida mo‘g‘ullarni nafaqat O‘rta Sharqqa, balki Sharqiy Yevropaga ham qo‘ymadi.

Jaloliddin Manguberdi o‘zining mardligi, jasorati bilan hatto mo‘g‘ul lashkarboshilarini ham hayratiga sazavor bo‘lgan. U bilan 1227-yil Isfaxon yaqinida jangga kirgan lashkarboshi Taylol no‘yonshunday deydi: “Sen qayerda bo‘lma, har qanday sharoitda qutulib keta olasan. Haqiqatan, sen o‘z davringning ulug‘ qahramonisan, tengdoshlaringning buyuk yo‘lboshchisisan”[24].

Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko‘rsatgan mislsiz jasorati, vatanga va o‘z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida “Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida” qaror qabul qildi (1998-y). Qarorga ko‘ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o‘rnatildi, yirik ko‘cha, maydon, jamoa korxonalari va boshqalarga uning nomi qo‘yildi. J.Manguberdi haqida videofilm, doston, pyesa va boshqalar yaratilgan. 2000-yil 30-avgustda “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’sis etilgan[25].

Har qanday mamlakatning kuch-qudrati, uning mustaqilligi, davlat chegaralarining mustahkamligi o‘sha mamlakat fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning o‘z Vataniga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalanganliklari, kerak bo‘lsa Vatan uchun jon fido qilishga ham tayyor bo‘lishdek yuksak ma’naviy fazilatlarga ega bo‘lishlariga bog‘liqdir. Ana shu fazilatlarning yosh va barkamol avlodlarni shakllantirishda Jaloliddin Manguberdining hayoti, uning ibratli yo‘li muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, yoshlar tarbiyasiga faqat bir kishi yoki qaysidir tashkilot yoxud muassasaning ishi sifatida qarash mutlaqo noto‘g‘ri. Bugun biz tarbiyalayotgan yoshlar jamiyatimizning, vatanimizning ertangi egalaridir. Ularga har birimiz, kim bo‘lishimizdan, qaysi sohada faoliyat olib borishimizdan qat’iy nazar, hech qachon loqaydlik bilan munosabatda bo‘lmasligimiz kerak. Chunki, “har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlarning ilm va ma’rifatiga, hunar va san’atiga bog‘liqdur”.

Xulosa qilish mumkinki, bugungi O‘zbekiston yosh avlod vakili To‘maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi,

[24] Nasaviy Sh.M. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – T.: O‘zbekiston. 2006. -169 b.
[25] Rahimov M. O‘zbekiston tarixi. – T.: Fan, 2019. -144 b.

Amir Temur, Mirzo Bobur singari sarkardalar, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Farg‘oniy, Buxoriy, Termiziy va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimizning munosib davomchilari bo‘lishlarini istasak bugun ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga har qachongidan ham ko‘proq ahamiyat berishimiz darkor[26].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. -464 b.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2016. -176 b.

3. Nasaviy, Sh.M. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – T.: O‘zbekiston. 2006. -384 b.

4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2001. -237 b.

5. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – T.: Cho‘lpon, 1994. -184 b.

6. Rahimov J. Vatanning sheryurak bahodiri. – T.: O‘qituvchi. 2015. -486 b.

7. Rahimov M. O‘zbekiston tarixi. – T.: Fan, 2019. -544 b.

8. Xaitov B.T. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda jadid adiblarining o‘rni// Sharq allomalari yozma merosining ilmiy, falsafiy, ma’naviy tafakkurdagi o‘rni: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -T.: TDShU, 2020 y. 23 oktabr /Mas’ul muharrir Po‘latova D.A., 385-388 b.

TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BOBUR ASARLARINING AHAMIYATI

dotsent Nazarov T.T., Abdirashidov U.M.
Buxoro davlat pedagogika instituti

.

Annotatsiya. *Bobur ijodi jahon miqyosida tobora ommaviylashib borayotganini ko‘rsatadi. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining hozirga qadar o‘ttizdan ortiq jahon tillariga tarjima etilgani, dunyo olimlari tomonidan ulug‘ ajdodimiz merosini har tomonlama tadqiq etishga bo‘lgan qiziqishning kuchayib borayotgani o‘zbek xalqining, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishga hissa qo‘shishi shubhasiz.*

Kalit so‘zlar: *Vatanparvarlik, ta’lim, bilim, xalqaro, olim, shoh, shoir, strategiya, avlod, ilm, fan, hurmat.*

[26] Xaitov B.T. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda jadid adiblarining o‘rni// Sharq allomalari yozma merosining ilmiy, falsafiy, ma’naviy tafakkurdagi o‘rni: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -T.: TDShU, 2020 y. 23 oktabr /Mas’ul muharrir D.A.Po‘latova, 50 b.

Аннотация. *Творчество Бабура приобретает всё большую популярность во всём мире. Перевод произведений Захириддина Мухаммада Бабура более чем на тридцать языков мира, растущий интерес учёных мира к всестороннему изучению наследия нашего великого предка, несомненно, способствуют повышению авторитета узбекского народа и Узбекистана на международной*

Ключевые слова: *Патриотизм, образование, знания, интернационал, ученый, король, поэт, стратегия, поколение, наука, искусство, уважение.*

Turkiy adabiyotning eng buyuk vakillaridan biri, o'zining ijobiy faoliyati va kuchli siyosati bilan jahon tarixida o'chmas nom qoldirgan buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning munosib vorislaridan bo'ldi. Uning avlodlari esa ko'p yillar davomida dunyo siyosatiga katta ta'sir ko'rsata oldilar. Shu tariqa Bobur ulkan sulola asoschisi sifatida tarixda qoldi. Yuksak madaniyatga erishgan har bir xalqning shunday buyuk farzandlari bo'ladiki, ular nafaqat o'z yurti, balki umumjahon tafakkur ahlining hurmat-e'tiborida bo'ladi. O'zbek xalqi tarixida dunyo sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan ana shunday ulug' allomalar, davlat arboblari ko'plab topiladi. Ularning hayoti va ijodini dunyo olimlari keng miqyosda o'rganib keladilar. Bu fikrimizga, ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Bobur ma'naviy merosining jahon ilmi fani, madaniyati va san'atida o'rganilishi, targ'ib-u tashviq etilishi yaqqol misol bo'la oladi.

Hayot zavqi, tabiat go'zalliklaridan zavqlanish, inson va insoniylikni ulug'lash, vatan va vatandoshlarni sevish, avaylash ham Bobur she'riyatida katta o'rin egallaydi.

Vatanparvarlik - insonning o'z yurti manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi fidoiyligi, Vatanning har qarich tuprog'i har bir giyohini ko'z qorachig'iday asrashi, uning uchun zarur bo'lganda jonini ham fido etishdir. Boshqacha aytganda, vatanparvarlik - Vatanga bo' lgan mehr muhabbatning e'tiqot va iymon darajasiga ko' tarilishi, ona yurt tarixi,milliy meros va qadriyatlarini bilish va e'zozlash, xalq va millat manfaatlari yo'lida astoydil mehnat qilish, zakovati, mehnati bilan uning boyligiga boylik, qudratiga qudrat qo'shishdir[1]. Vatanparvarlik - o'z vatanining mustaqilligini asrab-avaylash, uning yo'lida fidokorona mehnat qilish, Vatan posbonligiga tayyor bo'lish, vatan tarixi madaniyatini bilish, faxrlanishdir. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsad-laridan biri ham O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaroni, birinchi navbatda yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbida insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini chuqur singdirishdan iborat.

Bobur ijodida Vatan tushunchasi, Vatanparvarlik tuyg'usi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Bobur shoh bo'lsa-da, o'zini g'arib deb his qiladi. U davlati va saltanatini o'z diyorida barpo eta olmaganiga afsuslanadi:

Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi,
Shod etmas emish ko‘ngulni mehnatda kishi.
Ko‘nglum bu g‘ariblarda shod o‘lmadi, oh,
G‘urbatta sevunmas emish, albatta, kishi.

Bobur Vatanidan ajralib, begona yurtlarga borganidan pushaymon bo‘ladi. Yo‘l qo‘ygan xatosini "taqdir"dan deb biladi. Quyidagi alamli ruboiysi shu haqida:

Tole' yuqi jonimga balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Bobur uchun hech bir yurt o‘z Vatanidek bo‘la olmaydi. Hech qanday davlat Vataniga bo‘lgan muhabbati o‘rnini bosa olmaydi. G‘urbat azoblari esa uni hech tark etmaydi. Uning mana bu mungli ruboiysi bunga yorqin misol:

Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,
G‘urbat bu aziz umrni kam qiladur,
Ne nav' bitay firoq-u g‘urbat sharhin,
Kim, ko‘z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.

Bobur ruboiylarida vatanparvarlik - iymon - e'tiqodga aylangan yuksak ma'naviyat ekanligini, vatanparvarlik - so‘z va ish birligi, Vatanga bo‘lgan muhabbat havoyi va'dalar, balandparvoz so‘zlarda emas, u mehnatda insonning bunyodkorlik faoliyatida namoyon bo‘lishini ta'kidlaydi.

Boburning "Xazon yafrog‘i yang‘lig‘..." misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalidagi baytlarda Vatan sog‘inchi ifodalangan. Shoir kuz manzarasini tasvirlaydi. Umrining oxirlab borayotganini sarg‘ayib to‘kilayotgan xazonlarga o‘xshatadi. Bu bilan insonning dunyoga kelib-ketishi tabiiy bir hol ekanligini ifodalaydi. Aziz yurtini esa "sabz-u xurram", ya'ni doimo yashil-u ko‘rkam, gul kabi gullab, ochilib turishini va umrbod shunday qolishini juda istaydi [3].

Bobur ijodidagi Vatan mavzusi, vatanparvarlik tushunchasi nafaqat she'riyatida, balki uning o‘zbek adabiyotida nasrda yozilgan dastlabki tarixiy, badiiy, ilmiy, noyob qomusiy asari "Boburnoma"da ham tilga olinadi. Masalan, Bobur "1526 yil voqealari" bayonida Hindiston haqida yozar ekan, uning tabiat manzaralarini o‘z yurtiga qiyoslab tasvirlaydi: "Hindustondakim, oqar suv hargiz bo‘lmas, chashma xud ne tilar. Adyonan chashma dam kim bor, yerdin zax suyidek sizib chiqar. **Ul yerning** chashmalaridek qaynab chiqmas...".

"Boburnoma"da Movarounnahr va Xurosondagi turli joylarning tavsifini berilar ekan, muallif boshqa ko‘plab jihatlar qatori, muayyan hududning nabototi, o‘tloqlari,

tog‘lari, ularda o‘sadigan o‘simliklarning tabiiy xususiyatlarini ham aniq tasvirlaydi. Bunday tasvirlar tarjimalarda ham boburona ifodalanganiga va ayrim o‘rinlarda muallif uslubidan chekinganiga ham guvoh bo‘lamiz. Bu tasvirlarda, asosan, muayyan joy boshqa manzillar bilan qiyoslash orqali ifodalangani bois adib istiqlol yillarida Bobur asarlarining ilmiy va ommabop nashrlari uzluksiz va tizimli ravishda zahmatkash olimlarimiz — akademik Aziz Qayumov, professor Saidbek Hasanov, Abdug‘afur Abdurashidov, Hasanxo‘ja Muhammadxo‘jayev, Vahob Rahmonov, Ergash Ochilovlar tomonidan amalga oshirib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining ahamiyati beqiyos. Zero Bobur inson uchun na davlat va na saltanat, na toj-u taxt, hech bir narsa Vatanga, el-yurt mehriga teng kelolmasligini o‘z asarlarida ta’kidlaydi. Vatandan judolik - inson uchun katta baxtsizlik ekanligini, o‘zga yurtlarda shoh bo‘lsa ham, baribir ko‘ngil qasrining bir chekkasi kemtik ekanligini aytib o‘tadi. Bobur ilmiy va badiiy merosini o‘qib, yoshlarimizda: shunday go‘zal vatanda, mustaqil, tinch va farovon yurtda tug‘ilib o‘sganidan faxr hamda iftixor tuyg‘usi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosirxo‘jayev S.H., Lafasov M.F… Ma’naviyat asoslari.Toshkent. “fan”.2002-yil 44-46-betlar.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Sochining savdosi tushti. Toshkent,2007.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma (nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev) Toshkent. “Yulduzcha”.1989.

3. A’zamxojayeva G. Bobur ijodida Vatan mavzusi // O‘zbek tili va adabiyoti. T:, “Fan”2013. 1-son.

OILADAGI MA’NAVIY-RUHIY TARBIYA YUKSAK JANGOVAR SHAYLIK GAROVI

Primova M.M.
Toshkent Alfraganus universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola oilada huquqiy madaniyat va tenglikni ta’minlashning ilmiy-nazariyasoslarini ochib beradi. Oila ijtimoiy institut sifatida kishilarning qon-qarindoshlik, mulk va manfaat umumiyligi, talab hamda ehtiyojlarning birgalikda, o‘zaro kelishilgan holda tuziladigan yaxlit mikroijtimoiy tuzilmadir. Aynan oilada inson o‘z qadrini anglaydi, umr mazmuni va ezgu xulq namunalarini egallaydi.*

Kalit so‘zlar: oila, ijtimoiy institut, mikroijtimoiy tuzilma, ijtimoiy himoya, huquqiy faollik.

Аннотация: *Данная статья раскрывает ноучно-теоретические основы обеспечения правовой культуры и равенства в семье. Семья как социальный институт, созданный на основе микросоциольной системы родственных отношений обойщенности имущества и интересов, требований и подребностей. Именно в семье человек осозноёт свою ценност и овладевает смыслом жизни, образцами примерного поведения.*

Ключевые слова: семья, социальный институт, микросоциальная система, социальная защита, правовая активность.

Zamonaviy davlatchilik sharoitida huquqiy demokratik davlat barpo etishning ilg‘or yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan oilada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston davlatchiligi tarixiga nazar solsak, bundan 2700 yil avval yurtimizda yaratilgan va Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqining ajdodlari oilalarida oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solgan “Avesto” kitobida asosiy e’tibor nikoh tuzish zarurati, bola huquqlarining himoyasi, nikohni bekor qilish shart-sharoitlari va er-xotin o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarga qaratilgan [1].

Oila va oilaviy munosabatlar masalalari, shu jumladan, oilada huquqiy madaniyatini shakllantirish va yanada oshirish masalalari bir necha asrlardan buyon buyuk mutafakkirlar va davlat boshqaruvi masalalari bilan shug‘ullanuvchi olimlar diqqat e’tiborini o‘ziga tortib kelgan. Buyuk mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiyning “Aql haqidagi risola”, Abu Rayxon Beruniyning “Hindiston”, Abu Ali Ibn Sinoning “Qush risolasi” va “Axloq haqida risolasi”, Imom At-Termiziyning “Dastur al-mulk”, Burxoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” va Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarlarida oila va oilaviy munosabatlarda huquqiy madaniyatini shakllantirish bo‘yicha qarashlar o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab oila institutini rivojlantirishga davlat miqyosida katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 1998 yil – “Oila yili”, 1999 yil – “Ayollar yili”, 2001 yil “Onalar va bolalar” yili va 2012 yil – “Mustahkam oila yili” deb e’lon qilindi.

Oila va oilaviy tarbiya munosabatlari faqatgina bir yo‘nalishdagi tadqiqotlar orqali hal etiladigan masala bo‘lmasdan, u davlatning huquqni muhofaza qilish va boshqa organlari, ilmiy muassasalar, jamoatchilik va jamiyatning har bir a’zosi bilan uzviy bog‘liqdir.

Yaponiya va Malayziya kabi davlatlarda huquqiy madaniyat o‘quvchilarga maktab davridanoq singdirib boriladi. Mamlakat yoshlari uchun parlament binosi oldiga kelib ta’zim qilish – odatiy holga aylangan. Ushbu an’ana nafaqat parlament va

qonunlarga hurmat, balki mamlakatda qonun chiqaruvchi organlarga bo‘lgan ishonch va ehtiromdan ham dalolatdir.

Shariat qonunlarida diniy, ma’naviy, huquqiy va axloqiy me’yorlar, kishilarning oila, jamoat joylaridagi yurish-turish qoidalari, er-xotin, ota-ona bilan bolalar hamda qarindoshlar o‘rtasidagi munosabat, bola tarbiyasi kabi sohalarda oila a’zolarining huquq hamda majburiyatlari belgilab berilgan. Shuningdek, shariatda nikoh muqaddas, oila esa buzilmas, deb e’tirof etiladi.

Islom huquqining oila va oilaviy munosabatlarga bag‘ishlangan normalarida “zaif” jins vakili bo‘lgan ayollar masalasining umumijtimoiy jihatlari, ijtimoiy-tarixiy negizlari va madaniy-ma’naviy xususiyatlari belgilangan. Shuningdek, ayollar masalasini hal etishning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatdan o‘ziga xosligini belgilashga alohida e’tibor qaratilgan.

Islom huquqida ayolga uning jinsiga, biologik tuzilishiga qarab haq-huquq berilgan, shu bilan birga vazifalar ham tayinlangan. Unga ko‘ra, ayol oila hayotining barcha jabhalarida: ilm olishda, mehnat qilishda, jamiyat taraqqiyotida qatnashishda, mol-mulkka egalik qilishda erkak bilan teng huquqli bo‘lgan.

Shular asosida, oila huquqlariga doir islom huquqidagi nazariy muammolarni tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, islom huquqida ayol huquqlariga yondashishda oila mustahkamligining o‘ziga xos vositasi sifatida qaralgan [2].

O‘zbekistonda oila a’zolarining aksariyat huquqlari bir vaqtning o‘zida ularning oilaviy majburiyatlari sifatida ham namoyon bo‘ladi (eng avvalo oila a’zolari o‘rtasidagi shaxsiy huquqiy munosabatlar doirasi nazarda tutilmoqda). Masalan, ota-onalar o‘zlarining balog‘atga yetmagan bolalarini faqat tarbiya qilish huquqiga ega bo‘libgina qolmasdan, balki ularni tarbiya qilishga majburdirlar [3].

Xulosa qilib aytganda, oiladagi huquqiy madaniyatning muhim xususiyatlari qatorida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

a) yuksak huquqiy ong;

b) mamlakatning amaldagi qonunlarini bilish;

v) qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarning zarurligi, foydaliligi va maqsadga muvofiqligiga ishonch hosil qilish;

g) o‘z huquqlari va burchlari, erkinliklari va javobgarligi, jamiyatdagi o‘z holati (maqomi), boshqa shaxslar bilan o‘zaro munosabatlar me’yorlarini to‘g‘ri tushunish (anglash);

d) huquqiy faollik, ya’ni sub’ektning huquqbuzarliklarni oldini olish borasidagi izchil ixtiyoriy faoliyati;

ye) har qanday huquq buzilish holatiga qarshi kurashish, jamiyatda huquq-tartibot va qonunga bo‘ysunishni quvvatlash va boshqalar.

O‘zbekistonda buning uchun barcha tarixiy-ilmiy va diniy asoslar yetarli hisoblanadi. Bunday sharoitda, oilaning mustahkamligini ta’minlash va oilada huquqiy munosabatni muvozanatlab turishda ayolning o‘rni va rolini hisobga olgan holda ularni turli zo‘ravonliklar va jinoyatlardan himoya qilish choralarini ishlab chiqish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avesto. Tarixiy adabiy yodgorlik/ Asqar Mahkam tarjimasi. – T.: 2001; Homidov H. Avesto fayzlari/ Ilmiy muharrir: N. Komilov. – T.: 2001.
2. “A’rof” surasi. 189-oyat.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64 va 66-moddalari. – T.: “O‘zbekiston”, 2012.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2012.

OILA-MILLIY QADRIYATLAR VA MA’NAVIYAT MASKANIDIR

Rahimova G.A., O’tkurova M.B.
Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oila tushunchasi, uning jamiyatdagi o‘rni, ma’naviy va ijtimoiy vazifalari, shuningdek oila mustahkamligining psixologik va ma’naviy omillari tahlil qilingan. O‘zbekistonda oilaga bo‘lgan davlat siyosati ham yoritilgan. Shuningdek, oilaning inson hayotidagi o‘rni, ota-onaning mas’uliyati, farzand tarbiyasida mehr-muhabbat, hurmat va sabr-toqatning tutgan o‘rni ham tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: Oila, jamiyat, qadriyat, tarbiya, ma’naviyat, mustahkamlik, Konstitutsiya, ota-ona, farzand, mehr-muhabbat, milliy an’ana, psixologik

Аннотация: *В этой статье анализируется понятие семьи, её роль в обществе, духовные и социальные функции, а также психологические и духовные факторы прочности семьи. В Узбекистане также освещена государственная политика в отношении семьи. Также анализируется роль семьи в жизни человека, ответственность родителей, роль любви, уважения и терпения в воспитании детей.*

Ключевые слова: Семья, общество, ценности, воспитание, духовность, стойкость, Конституция, родители, ребёнок, любовь, национальные традиции, психология

Oila – inson hayotining eng muhim qadriyatlaridan biridir. Har bir insonning ma’naviy barkamolligi, shaxs sifatida shakllanishi, tarbiyasi va kelajak hayoti bevosita oilaga bog‘liqdir. Jamiyatda mustahkam oila bo‘lmasa, taraqqiyot va barqarorlikni

tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham oila qadimdan muqaddas dargoh sifatida e’zozlanadi. Har bir insonning dunyoqarashi, tarbiyasi, odob-axloqi va kelajakdagi faoliyati, avvalo, oilada shakllanadi. Jamiyatning poydevori ham aynan mustahkam oilalardan boshlanadi.

Oila qadimdan jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. Har qanday davlat yoki xalqning rivojlanishi avvalo oiladan boshlanadi. Chunki farzand tarbiyasi, ma’naviy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va madaniy an’analar eng avvalo oilada shakllanadi. Mustahkam oila jamiyat barqarorligi, millatning kelajagi va taraqqiyotining garovidir. Shu sababli ham qadimdan “Baxtli oila – baxtli jamiyat” degan ibora keng tarqalgan.

Oila nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni bajaradi, balki insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasini ham shakllantiradi:

- Mehr-oqibat, hamjihatlik, sabr-toqat oilaning eng asosiy tayanchi hisoblanadi.
- Farzandlar ota-onaning kundalik xatti-harakati, odobi, so‘zlari orqali tarbiyalanadi.
- Oila orqali insonda vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, kattaga izzat, kichikka mehr kabi fazilatlar qaror topadi.

Oilaning jamiyatdagi o‘rni quyidagi asosiy vazifalarda ko‘rinadi:

1. Naslni davom ettirish – oilaning eng muhim vazifasi farzand ko‘rish va tarbiyalashdir.
2. Ijtimoiylashuv – farzandlar jamiyatga moslashishi, axloqiy va ma’naviy qoidalarga amal qilishni oilada o‘rganadilar.
3. Iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash – oila a’zolari bir-birini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.
4. Ma’naviy tarbiya – milliy urf-odat va qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazish.

Oilaviy munosabatlarning turli tomonlarini yoritar ekan, Ibn Sino, avvalom bor oila boshligi oldiga qator talablarni qo‘yadi. Oila boshligi, deb yozadi u, ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o‘zlashtirmog‘i lozim. Agar oila boshligi tajribasiz bo‘lsa, u o‘z a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo‘shnilarga, maxalla-kuyga ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeidan qat'iy nazar, ularning birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi Ibn Sino. Ota-ona davlat boshligimi, yoki oddiy fuqaromi, bari-bir, u bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo‘lmoqlari lozim.

Oilaning barqaror va mustahkam bo‘lishida quyidagi jihatlar muhim:

- Er-xotinning o‘zaro hurmat va sadoqati.
- O‘zaro muomala madaniyatining yuksakligi.
- Moliyaviy masalalarda hamjihatlik.
- Farzandlar tarbiyasida mas’uliyatlilik.
- Milliy va diniy qadriyatlarga amal qilish.

O‘zbekiston Respublikasida oilaga katta e’tibor qaratilgan. Konstitutsiyada oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida mustahkamlab qo‘yilgan. Davlat tomonidan “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash”ga doir turli dasturlar ishlab chiqilmoqda. Shu jumladan: yosh oilalarni uy-joy bilan ta’minlash, farzand tarbiyasi va ta’lim sifatini yaxshilash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Masalan:

76-modda:

“Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini va muhim ijtimoiy institutidir. Oila jamiyat va davlat muhofazasida bo‘ladi.”

77-modda:

“Oila, onalik va bolalik davlat muhofazasida bo‘ladi.”

Bu moddalar oilaning nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy jihatdan ham mustahkam qadriyat ekanini ko‘rsatadi. Konstitutsiyada oilaga berilgan bunday yuksak maqom – davlat va jamiyatning kelajagi, farovonligi va barqarorligi mustahkam oila poydevoriga bog‘liq ekanidan dalolat beradi.

Oilada shakllanadigan qadriyatlar va ma’naviy muhit inson psixologiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mehr-muhabbatga boy, do‘stona va sog‘lom psixologik muhitda voyaga yetgan bola o‘zini erkin his qiladi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi va kelajakda ijtimoiy hayotda faol bo‘ladi. Oilada qaror topgan sog’lom ma’naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo’lib voyaga yetishishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir. Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to’g’ri ko’rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Ota-onalar o’zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg’usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga, turli ko’rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me’yorlarga og’ishmay rioya etish, sog’lom turmush tarzini yaratish, o’z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so’z va faoliyat birligini ta’minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat na’munasini ko’rsatadi.Shaxs shakllanishiga ta’sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas bo’lagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga o’ziga xos xususiyatlarni ham akslantiradiki, bunday hislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar to’qnashuvidan iborat ijtimoiy munasabatlardan toliqqan inson

organizmining ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo’lgan mo’tadil iqlimni hosil qila oladi. Bu tuyg’u xalqimiz ruhiyatidagi o’ziga xos xususiyatlaridan biridir. Aksincha, oiladagi ziddiyatlar, nizolar va mehrsizlik farzand psixikasida salbiy oqibatlar qoldirishi mumkin. Bunday muhitda ulg‘aygan bolalarda qo‘rquvchanlik, ishonchsizlik, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy muammolar yuzaga chiqadi. Shuning uchun oilaviy qadriyatlar nafaqat ma’naviyatni, balki farzandlarning psixologik barqarorligini ham belgilaydi.

Psixologlar ta’kidlaganidek, ota-onaning farzand bilan muloqoti, unga mehr ko‘rsatishi, tarbiyada izchillik va sabr-toqat bilan yondashishi – bolaning ruhiy sog‘lomligi uchun asosiy omildir. Shu bois oiladagi qadriyat va ma’naviyatni mustahkamlash jamiyatda psixologik sog‘lom muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Shaxsning ma’naviy sifatlariga ega bo’lishi, unda ma’naviy bilimlarnin egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo’lishida oila asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog’lom ma’naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo’lib voyaga
yetishishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir. Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to’g’ri ko’rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Ota-onalar o’zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg’usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga, turli ko’rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me’yorlarga og’ishmay rioya etish, sog’lom turmush tarzini yaratish, o’z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so’z va faoliyat birligini ta’minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat na’munasini ko’rsatadi.

Oila – insonning eng birinchi maktabi, mehr va tarbiyaning maskani, jamiyatning mustahkam poydevoridir. Har bir inson oilasiga mehr berib, uni asrab-avaylasa, jamiyat yanada mustahkam, farovon va baxtli bo‘ladi. Mustahkam va mehrga boy oila bo‘lmasa, jamiyatda ham taraqqiyot bo‘lishi qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Oila kodeksi”. – Toshkent, 2022.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Oila va jamiyat: ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Oila nashriyoti, 2020.

5. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
6. Xudoyberdiyev A. Psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
7. G‘ofurov U. Oila va tarbiya masalalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016.
8. UNESCO. Family and Society: Global Perspectives. – Paris, 2015.

TARIXDAGI XORIJIY OLIMLARINING MOTIVATSIYA MUAMMOLARINI O‘RGANISHGA BO‘LGAN YONDASHUVLARI

Yo‘ldoshev J.A.
Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xorijiy olimlarining motivatsiya muammolarini o‘rganishga bo‘lgan nazariy yondashuvlari va fikrlari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: motiv, motivatsiya, nazariy yonadshuv, ustanovka, shaxslararo munosabat.

Jahonning buyuk olimlari shaxslararo munosabatlar masalasiga alohida ahamiyat berganlar. Ularni keltirib chiqaruvchi va harakatlantiruvchi motivlar, motivatsiyalar to‘g‘risida ba’zi fikrlarini bildirganlar. Chet el psixologiyasida motivlarni o‘rganishga bag‘ishlangan qator ilmiy izlanishlar mavjuddir. X.Xekxauzen motivlarning kengaytirilgan modelini yaratdi, bunda muhokama qilingan motivatsiya mezonlarining aksariyati hisobga olingandir. Motivlar modelida kutilma va qo‘zg‘ovchining mezonlari o‘zaro aloqaga kirishadi. Harakatning har qaysi oqibati muayyan qo`zg`atuvchi bilan aloqaga kirishishi mumkin. X.Xekxauzen harakat oqibatini to`rt sinfga ajratadi: o`zini o`zi baholash, yuksak maqsadga yaqinlashish, boshqalarni baholash va bilvosita ta`sirlar.

Boshqa qomusiy olimlar singari Dj.Atkinson motivatsiyaga erishish nazariyasiga asosan,bir davrning o`zida validlik natijasini oshiruvchi nazariyani ham soddalashtirdi, ham kengaytirdi. Muvaffaqiyatga (ham muvaffaqiyatsizlikka) undovchi bilan topshiriqlar murakkabligi o`rtasidagi aloqa soddaroq ko`rinishga ega bo`ldi. Ushby modelda qo`zg`ovchi muvaffaqiyatning subyektiv ehtimolligiga bog`liqdir (ma`lumki, Festinger modelida valentlik topshiriqning subyektiv murakkabligiga tobedir). Atkinson modelida muvaffaqiyat kutilmasi bilan qo`zg`ovchining chiziqli o`zaro aloqasi ehtimoli mujassamlashgandir. Muvaffaqiyat ehtimoli bilan qo`zg`ovchining soddalashgan modelli tasavvuri negizida o‘zaro aloqadorlik tushunchasi yotadi. Muvaffaqiyat kutilmasini o`lchash go`yoki yetarli, qo`zg`ovchi esa qo`shimcha kattalik sifatida tasavvur qilinadi.

Dj.Atkinson validlik natijasini oshiruvchi modelini ikkita dispozitsion o`zgaruvchi hisobiga kengaytirdi. Biroq validlik natijasini oshiruvchi modelga

shaxslilik omillari kiritilmagan. Muallif mavaffaqiyatga intilish motivi hamda muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi kabi psixologik terminlarni psixologiya faniga kiritgan. Dj.Atkinsonning mazkur modeli muvaffaqiyatsizlik motivi bilan muvaffaqiyat motivi kuchayishi o`zaro solishtirilganda o`rtacha subyektiv murakkablikdagi topshiriqlarga nisbatan ustuvorlik tezroq ortib borishini oldindan aytib bera oladi. Muvaffaqiyatsiz motivirovka qilgan shaxslarda maksimum qochish tendentsiyasi o`rtacha murakkablikdagi topshiriqlarda namoyon bo`ladi.

Bundan tashqari Atkinson va K.Berchlarning motivatsiya to`g`risidagi nazariyasida motivlarni bir nechta "tillar" ga ajratadi; eksperimental, neyrofiziologik, bixevioristik (xulqiy), matematik.

Ularning nazariyasini yangiligi shuki, unda reaksiyalar tahlil qilinishi o`rniga harakatlar, shu jumladan, verbal harakatlar tadqiq etiladi. Ta`sir etuvchi stimullar motivlar, ularning ahamiyatliligi, baholanishiga bog`liq holda qaytadan barpo qilinadi. Bu narsa harakatning tasnifi, samarali holatlarini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Amerikalik psixolog R.Vudvortsning motivlar to‘g’risidagi nazariyasiga ko`ra motivlar ehtiyoj va kognitiv jarayonlar orqali aniqlanadi. Muayyan xulq kodiga tug`ma va egallangan mexanizmlar o`z ta`sirini o`tkazadi. Ehtiyoj va ustanovkalar javobga ta`sir etadi. U motivlarga qobiliyatni ham kiritadi, buning natijasida motiv faqat ehtiyojlar bilan aniqlanib qolmasdan, balki qobiliyat ham unga ta`sir o`tkazadi. Vudvorts bu o`rinda qobiliyatni nasliy belgi sifatida talqin qiladi, shuning uchun hayot davomida ontogenezda rivojlanish, takomillashish ehtimoli mavjudligini inkor etadi.

Shuni alohida ta`kidlab o`tish joizki, rus psixologi A.A.Uxtomskiy organizm funktsional holatlarining determinantlari muammosini o`rganish jarayonida o`zining dominantlik printsipini kashf qilgan. Muallif kashf qilgan dominantini xulq harakati va uning vektori sifatida asoslashga intiladi. Motivlar masalasi uning uchun muhim ahamiyat kasb etib, muammo fiziologik, psixologik, dunyoqarashlik jabhalaridan turib tahlil qilinadi.

Xulq-atvor yaxlitligi tufayli organizm integral bus-butunlik tariqasida tushuntiriladi. Bunday yondashuv psixologik va fiziologik holatlarning biri ikkinchisidan ajralmas ekanligini bildirib keladi. Muallif motivni insonning zo`r berishi natijasida shakllanuvchi qo`zg`atuvchi sifatida talqin etadi va hayot jarayonida o`zgaruvchanligini ta`kidlab o`tadi.

O‘z zamonasining buyuk olimlaridan biri P.K.Anoxinning motivlar to`g`risidagi g`oyasiga ko`ra jonli dunyo yaralgan davrdan e`tiboran voqelikni ilgarilab, oldindan aks ettirish uning xususiyatiga aylangan. Mazkur aks ettirishning mavjudligi

inson uchun shaxsiy faoliyati, kelajagi, istiqboli natijasining fikriy obrazlarini yaratish imkonini vujudga keltirdi.

Tadqiqotchi xatti- harakatining original model sxemasini yaratadi. Shaxsdagi boshqaruv harakatlari teskari aloqa printsipi bo`yicha amalga oshiriladi. Ushbu tasavvurga binoan hissiy organlar aloqa kanali vazifasini o`tasa, jism va harakatning idrok qilinayotgan alomatlari axborot(informatsiya) manbai sifatida xizmat qilishi mo`ljallangandir.

Harakatning natijasi to`g`risidagi axborotlar(informatsiyalar) harakat aktseptorida idrok qilinadi. Harakatning kamchiliklari, tuzatishlar (korrektsiyalar) afferent sintezi negizida kechadi, buning natijasida uni idrok etish muayyan darajada yaxshilanadi. P.K.Anoxinning mulohazasicha, harakat bosqichlari afferent sintezi, dominant motivatsiya, qidiruv afferentatsiya, xotira; harakatning shakllanishi va axborotlarni oldindan aytish apparati; harakat natijalari umumlashmasi; teskari afferentatsiyaning amalga oshishi; maqsad bilan olingan natijalar o`rtasida ajrimlik namoyon bo`lishidan iboratdir.

Motivlar muammosini o‘rganish D.N.Uznadze tomonidan ham amalga oshirilgan bo‘lib, uni ustanovka nazariyasida turib izohlashga harakat qilgan.

A.N.Leontyev uzoq muddat davomida psixikani tahlil qilish tufayli motiv va motivatsiya masalasiga ham qo`l urishga qaror qiladi. Motivatsiya kontseptsiyasining to`laqonli ifodasi uning ilmiy ishlarida bayon qilinadi. Keyinchalik bu masalaga "Ong, faoliyat, shaxs» monografiyasida qaytadan murojaat etadi. Genezisda inson ongining namoyon bo`lishini tahlil qilish vositasi orqali u motivatsiya masalasiga yondashadi.

Shuningdek, hayotiy omillar xatti-harakat (xulq) motiviga aylanishining psixologik mexanizmlari muammosi tahlil qilinadi, motiv rivoji va faoliyatning murakkablashuvi jarayoni tekshiriladi. U psixologiya faniga faoliyatning shaxsiy ma`no kasb etuvchi atamasini olib kiradi. Inson shaxsining shakllanishi uning motivatsiya doirasidagi o`sishida o`zining psixologik ifodasini topish mumkinligi bo`yicha xulosa chiqarishga olib keladi.

V.G.Aseyev o‘z ilmiy tadqiqotlarida motivlarni uzluksiz protsessual va diskret holatlari pozitsiyasidan turib o`rganadi. Motivatsiyaning faolligi va imkoniyatliligi, uning modalligi, mazmuni va dinamikasi birligi jihatlari tekshiriladi. Uning eng muhim jihati shundan iboratki, bunda shaxsda motivlarni shakllantirish jabhasiga keng e`tibor beriladi.

Muallifning fikricha, inson faoliyatini harakatlantiruvchi kuchi va ruhiy jarayonlar boshqaruvining yuksak shakli motivatsiyani rivojlanish qonuniyatlaridir.

Boshqaruvning yuksak shakli sifatida motivlarning talqin qilinishi dadil qadam bo`lib hisoblanadi. Xuddi shu boisdan asarning eng muhim yutug`i shundan iboratki, unda shaxs shakllanishining boshqaruvchi motivatsiyasi jabhalari to`g`risidagi ma`lumotlar ifodalanganligidir.

Jahon psixologiyasida motiv muammosi turlicha nuqtai nazardan tadqiq qilingan, chunonchi, bilish jarayonlari motivatsiyasi, uning metodologik va o`ziga xos xususiyatlari, faoliyat va muomala motivatsiyasi, o`qish, kasb tanlash, kasbga moslashish, kasb motivlari dinamikasi kabi muammolar tadqiq qilingan. Psixologik lug`atlarda, ensiklopediyalarda motiv va motivatsiya muammosiga oid xilma-xil talqinlar hukm surib kelmoqda. Muammoga nisbatan yondashuvlar, talqinlar turlicha ekanligi umumiylikka kelishni qiyinlashtirmoqda. Ikkinchi bir tomondan fikrlarning xilma-xilligi motiv, motivatsiya masalalarini chuqur o`rganishga puxta negiz hozirlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ковалёв.В.И «Методы проведения и деятельности» Москва. «Наука» 2000 г.

2. Ғозиев.Э.Ғ "Методологические проблемы в психологической науке" Чимкент. 2005 г.

3. Леонтьев.А.А "Психология обшения" 1997 г.

4. Асеев.В.Г "Мотивация поведения и формирование личности". М. "Мысл" 2011 г.

5. Chemers M. (1997) An integrative theory of leadership. Lawrence Erlbaum Associates, Publishers. ISBN 978-0-8058-2679-1

6. Yo'ldoshev J.A. levels of effectiveness of formation of citizenship position in students based on the heritage of repression victims International Journal of Advance Scientific Research (ISSN – 2750-1396) 30-34

GENDER ASIMMETRIYANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TALQINI ASOSIDA MA'NAVIY-RUHIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH

p.f.n., dotsent Saribayeva U.A.
Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada gender asimmetriya - ijtimoiy hayotning ayrim sohalarida ayollar va erkaklar tengsizligi, erkaklar va ayol-qizlar o'rtasida gender tenglik munosabatlarini shakllantirish, ijtimoiylashuv doirasida orttirilgan fe'l-atvor modellarini, gender o'zini anglash, kabi muammolarni o'rganishga bag'ishlangan.*

Kalit so‘zlar: gender, asimmetriya, zo‘ravonlik, kamsitish, ayollar, erkaklar, tengsizligi, imkoniyat, imtiyoz, tenglik, munosabat.

Аннотация: *В этой статье обсудим гендерную асимметрию – неравенство женщин и мужчин в отдельных сферах общественной жизни, формирование гендерных отношений равенства между мужчинами и женщинами, исследование моделей поведения, приобретенных в процессе социализации, гендерного самосознания и других проблем.*

Ключевые слова: гендер, асимметрия, насилие, дискриминация, женщины, мужчины, неравенство, возможности, привилегии, равенство, отношения.

Inson qadri oliy mezon bo‘lgan yangi hayot, yangi jamiyat qurish yo‘lida qo‘lga kiritgan zafarlarimiz, yerishgan yutuqlarimiz, mustaqil taraqqiyot g‘oyasiga hamisha sodiq, fidoi xalqimizning mehnati, pedagog o‘qituvchilarimizning ta’lim-tarbiya berishdagi ijodkorligi, Ona yurtimizni ko‘z qorachig‘idek qo‘riqlab kelayotgan mard, jasur xarbiylarimiz, mard va matonatli askar yigitlarimizning mardonavor xizmatlari maxsulidir.

Bobolarimizning asrlar osha kutgan ezgu orzusi ushaldi, bugun xalqimiz mustamlakachilik zulmidan ozod bo‘ldi. Ona diyorimiz obod, Vatanimiz ozod bo‘ldi. Mamlakatimiz mudofaa qudrati oshdi, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyati yuksaldi, professional milliy armiyamiz shakllandi.

Davlatimiz xavfsizligi, chegaralarimiz daxlsizligi, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, xalqimiz osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, barchamizdan o‘z sohamizda ibratli faoliyat yuritishimizni, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek sharafli va muqaddas burchimizga sodiq bo‘lishimizni talab etadi.

Vatanni himoya qilish, uni ravnaqi yo‘lida o‘z burchini sitqidildan ado etish yurtning har bir farzandining vazifasidir, shu o‘rinda ilmiy faoliyat yuritayotgan har bir mutahassisning faxr-iftixor xissi bilan yo‘g‘rilgan ma’suliyatidir.

Shu bilan birga, gender tushunchasini to‘g‘ri talqinini insonlarga oila, maktab, professional muhit, ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari va madaniy normalarni etnopsixologik, diniy qadriyatlar asosida yetkazish, shaxs ijtimoiylashuvini maqsadli ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Insonlar tug‘ilishdanoq ijtimoiylashadi, o‘zi yashayotgan jamiyatning stereotip, axloq, fe’l-atvor, xulq me’yorlari, ijtimoiy determinantlarga muvofiq rivojlanadi, voyaga yetadi va o‘zini tutishni o‘rganadi. Ijtimoiylashuv jamiyatning haqiqiy a’zosi bo‘lish uchun muhim jarayondir, ijtimoiylashuv doirasida orttirilgan fe’l-atvor modellari shaxs uchun har doim ham foydali bo‘lmasligi mumkin. Shaxs umri

davomida jinsga bog‘liq ijtimoiy konstruksiyalar ta’sirida rivojlanadi. O‘g‘il bolalar ongiga o‘zlarining his-tuyg‘ularini sezdirmaslik, jismoniy kuchni namoyon etish, harbiy xizmatga tayyorgarlik ko‘rish singdiriladi. Uy mehnati esa oilaviy tarbiyaga binoan, azaldan ayollarning zimmasidagi vazifa deb tushuntiriladi[1].

Amerikalik antropolog Margaret Mead 1935 yilda Polineziya orollarida o‘smirlarning ijtimoiylashuvini tadqiq etgan va biologik jins va ijtimoiy jins differensiatsiyasini tahlil qilgan[5].

Gender tushunchasi amerikalik psixiatr, psixoanalitik, sotsiolog Robert Stollerning Stokgolmda o‘tkazilgan psixoanalitiklar kongressida shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy jins, gender o‘zini anglash, gender identifikatsiyasi kabi muammolarni o‘rganishga oid ma’ruzasidan so‘ng atama sifatida qo‘llanila boshladi. Robert Stoller birinchi bo‘lib biologik jins (sex) va sotsiomadaniy jins (gender) tushunchalarini ajratib ko‘rsatadi[7].

Britaniyalik sotsiolog, London universiteti professori Ann Oakley [6] tomonidan «Uy mehnati sotsiologiyasi» asari nashr etilgunga qadar sotsiologiya uy mehnati sohasini e’tiborsiz qoldirgan, chunki faqat maosh to‘lanadigan faoliyat mehnat hisoblangan. Bugungi kunda ayollarning uy ishlari sotsiologik tadqiqotlarning tan olingan mavzularidan biriga aylandi[6].

Qariyb barcha rivojlangan mamlakatlarda barqaror gender taqsimoti mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, erkaklar mehnat bozorida, ayollar esa uy mehnati bilan bandligi qayd etilgan[2]. M.M. Malisheva[3] tadqiqotlarida dunyoning barcha regionlarida uy ishlarining og‘irligi 75% ayollarning zimmasiga to‘g‘ri kelishi qayd etilgan. Gender stereotiplari ijtimoiylashuv jarayonida o‘g‘il va qiz bolalarning hayotiy ambitsiyalari, iste’dodi va qiziqishlarini to‘liq aniqlashda cheklovlarni keltirib chiqarishi, qarama-qarshiliklarga, ziddiyatlarga, psixologik muammolarga olib kelishi, ushbu stereotiplarga javob berishni istamaslik boshqa odamlarning ta’qib qilinishiga sabab bo‘lishi kuzatiladi[3].

Shu o‘rinda T.M. Melnik[4] gender tushunchasini quyidagicha izohlaydi, “Gender erkaklar va ayollarning ijtimoiylashuv jarayonida orttirilgan, jamiyat tomonidan modellashtirilgan va ijtimoiy institutlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan tafakkur, xulq-atvor xususiyatlari, turmush tarzi me’yorlari va qadriyatlar tizimidir”. Gender, birinchi navbatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy kontekst bilan belgilanadi hamda jinsga bog‘liq holda ayol va erkak haqidagi tasavvurlarni o‘zida mujassam etadi[4].

Mavzu doirasidagi baxs munozaralar genderning:

– gender-rol stereotiplarining jamiyat hayotiga ta’siri;

– ayollik yoki erkaklikning ijtimoiy xususiyatlari;

– shaxsning teng imkoniyatlari;
– genderga oid cheklovlar;
– genderga oid ijtimoiy-madaniy farqlar;
– genderga oid tabiiy xususiyatlar;
– erkaklar va ayollar hayoti;
– madaniy kontekstda gender;
– shaxsning xulq-atvor normalari;
– liberal feministik konsepsiyalar;
–iqtisodiy-demografik omillarning gender muammosiga ta’siri;
– ijtimoiy sotsializatsiya;
– gender psixologiyasi kabi bir qator muammolarni ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik, oilaviy, diniy qadriyatlar bilan uyg‘un tarzda o‘rganishni taqozo etadi.

Jumladan, gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va bartaraf etish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Gender tengligi jamiyatda va shaxsiy hayotda erkaklar va ayollarning ijtimoiy roli, mavqei, vazifalarini ifodalovchi tushunchadir.

Gender xulq-atvor: oilaviy hayotda erkak va ayol munosabatlarida; ijtimoiy mehnatning taqsimlanishida; xulq-atvor, yurish-turishda; tashqi ko‘rinish, kiyinish madaniyatida; milliy an’ana, urf-odatlar, stereotiplarda; yosh, milliy-etnik, sinfiy, irqiy mansublik asosida; genderning madaniy reprezentatsiyasi (OAV, badiiy simvollar va obrazlarda aks etishi); ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik tendensiyalarda namoyon bo‘ladi.

Dunyo bo‘ylab milliarddan ortiq ayollar oilaviy, maishiy va jinsiy zo‘ravonliklarga qarshi huquqiy himoyadan mahrum[2]. Gender tengligi inson huquqlarining ajralmas qismi bo‘lsada, dunyoda gender bilan bog‘liq kamsitilish, gender bo‘yicha diskriminatsiya, huquqlarning poymol etilishi, gender asimmetriya keng tarqalgan. *Gender asimmetriya* (gender asymmetry) ijtimoiy hayotning ayrim sohalarida ayollar va erkaklar tengsizligini anglatadi. Bugungi kunda nafaqat, davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar qabul qilish, yirik va o‘rta biznes sohasida erkaklarning ustunlik qilishi, iqtisodiyotning kam daromadli sohalarida ayollarning faoliyat yuritishi, balki oilaviy munosabatlarda xam erkakning ustunligi, oila boshi ekanligi erkakning oilani moddiy ta’minotchisi vazifasidan, oilaning turli muammolarini xal etishda yetakchilik rolini o‘z zimmasiga olishida deb qaralishi mantiqan to‘g‘ri bo‘lsada, bugun nosog‘lom, nizoli oilalarda erkaklar tomonidan ayollarni turli ko‘rinishdagi kamsitishlari, ayollar va qizlar turli xil zo‘ravonlik shakllariga duch kelish bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik genderga asoslangan zo‘ravonlikning eng jiddiy shakllaridan biridir. Ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning barcha turlarini tugatish, ayollar va qizlar, erkaklar va o‘g‘il bolalar uchun ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy resurslardan teng foydalanish imkoniyatini ta’minlash, siyosiy hayotda ishtirok etish imtiyozlarini oshirish, jamiyatning har bir fuqarosining psixologik bilimlarini, gender tenglik borasidagi savodxonliklarini oshirish juda muhim.

Shu jumladan, oiladagi zo‘ravonlik, jinsiy ta’qiblarni bartaraf etishda gender o‘zini anglash, shaxsning “MEN” konsepsiyasini shakllantirish, psixokorreksion ishlarni to‘g‘ri va maqsadli tashkil etish jamiyatda, erkaklar, ayol-qizlar o‘rtasida imkoniyat va imtiyozlar tengligiga, gender tengligini saqlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Gender tengligi: g‘oyadan qonunga qadar. Toshkent «Akademnashr» 2021. – B. – 10.

[2]. Гендерные проблемы и развитие. Стимулирование развития cherez гендерное равенство в правах, в доступности ресурсов и возможности выражат свои интересы / Пер. с англ. – М.: Вес мир, 2001.

[3]. Малышева М.М. Современный патриархат. Социально-экономическое эссе. – М.: Academia, 2001. – 94 с.)

[4]. Мелник Т.М. Гендер как наука. Пособие. – Киев, 2004. – С.10 – 29.

[5]. Margaret Mead. Sex and temperament in three primitive societies. – New York, 1935.

[6]. Окли Энн. Социология домашнего труда. – Оксфорд (Англия), 1974.

[7]. Robert Stoller - Wikipedia

III-SHO‘BA

BUGUNGI TAHLIKALI VAZIYATLARDA HARBIY KADRLARNI TAYYORLASH VA QAYTA TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

TA’LIMNING DUAL SHAKLI ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH VA QO‘SHINLARNING TAKTIK QO‘MONDONLIGI YO‘NALISHIDA QO‘LLASHNI ASOSLASH

h.f.d., professor Abdurayimov S.S.,
O‘R Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Kuzibekov N.Sh.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada ta’limning dual shaklini harbiy ta’limda qo‘llashga oid fikr mulohazalar va bu orqali sifatli ta’limga erishish hamda bitiruvchilarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish haqida bayon qilingan. Shuningdek, rejalashtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqishda ta’lim shakllarning ahamiyati haqida yoritilgan hamda kelajakdagi ofitserlarimiz kasbiy kompetentsiyalarni oshirish bo‘yicha takliflar keltirilgan.*

Shuningdek, ta’lim jarayonini rejalashtirish va tashkillashtirishni belgilovchi asosiy tarkib hujjatlar o‘quv rejalari va dasturlari kadrlar tayyorlashni tashkillashtirish tartibi va mazmunini belgilash hamda bakalavriat yo‘nalishlarining o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini dual ta’lim shakli uchun oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari va ta’lim yo‘nalishining malaka talablari asosida ishlab chiqilishi haqida ilmiy tadqiqot ishlari haqida asosli fikrlar tahlili bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, dual ta’lim, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim, samaradorlik, o‘qitish natijalari, kasbiy kompetensiya, mustaqil ta’lim.

Аннотация: *В данной научной статье изложены размышления о применении дуальной формы обучения в военном образовании, а также о достижении качественного образования и развитии профессиональных компетенций выпускников за счёт этого подхода. Кроме того, освещается значение форм обучения при разработке планирующих документов, а также приведены предложения по повышению профессиональных компетенций будущих офицеров.*

Также в статье представлены обоснованные научные мнения о разработке основных организационно-планирующих документов, определяющих планирование и организацию учебного процесса, таких как учебные планы и программы. Указывается на необходимость разработки учебных планов и программ бакалавриата для дуальной формы обучения на основе государственных образовательных стандартов высшего образования и квалификационных требований по образовательным направлениям.

Ключевые слова: Образовательный процесс, дуальное обучение, практико-ориентированное обучение, эффективность, результаты обучения, профессиональная компетенция, самостоятельное обучение.

“Harbiy xizmatchilar, ayniqsa, komandirlar tarkibining professional tayyorgarligini oshirish milliy armiyani yanada rivojlantirishning eng muhim sharti bo‘lib qolmoqda” deb ta’kidlanganligi mamlakatimizda Qo‘shinlarning taktik qo‘mondonligi yo‘nalishi ta’lim tizimi , Oliy ta’lim , davlat ta’lim standarti , asosiy qoidalar, o‘quv reja va dasturlar, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta’lim muassasalarining faoliyatini tartibga keltirish to‘g‘risidagi nizom hamda yo‘riqnoma talablari asosida o‘tkazilishi hamda rejalashtirilishi belgilangan. Qo‘shinlarning taktik-qo‘mondonligi yo‘nalishi ta’lim tizimining hozirgi holatini diagnostika qilishda asosan o‘quv ishlar holatiga e’tibor berildi.

O‘quv ishlari oliy harbiy ta’lim muassasasi faoliyatining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarini, kursantlarning o‘quv materiallarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun joriy, oraliq, yakuniy nazoratlar hamda bitiruv malakaviy ishlari va bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyalarini rejalashtirish, tashkillashtirish va o‘tkazish tadbirlarini o‘z ichiga oladi. Diagnostika jarayonining asosiy maqsadi ta’lim tizimining kamchiliklarini aniqlab, ularni bartaraf etish va sifatli ta’limga erishish uchun ta’lim tizimini takomillashttirish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqishdir.

Qo‘shinlarning taktik qo‘mondonligi (artilleriya) yo‘nalishining ta’lim tizimidagi o‘quv ishlarni tashkil etishning hozirgi holati ta’lim jarayonining rejalashtiruvchi hujjatlarning ishlab chiqilganligi va amalda qo‘llash holati, yo‘nalishning o‘quv dasturida ta’lim va fan mazmuni yoritib berilganligi hamda tarkibiy qismlarini tartibga solinganligi , o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish hamda kursantlarning o‘quv mashg‘ulotlarda zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalari shakllanganlik darajasi, professor-o‘qituvchilar bilan olib borilgan suhbatlar va kadr buyurtmachi, okrug qo‘shinlari qo‘mondonlari tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar asosida tahlil qilindi.

da o‘quv jarayoni odatda ta’limning kunduzgi shakli asosida amalga oshiriladi. Ushbu shakl ta’lim olishning an’anaviy shakli bo‘lib, ishlab chiqarishdan ajralgan holda talablariga yetarlicha javob bermayapti. Chunki qaysi kadr buyurtmachi yoki okrug qo‘mondonlarining fikr mulohazalarini o‘rgansak, albatta, ular yosh leytenantlarga

liy ko‘nikmalari pastligi, jangovar tayyorgarlik fanlari haqida tushunchalar sustligi, shaxsiy tarkib bilan faoliyat olib borish va notiqlik madaniyati yetishmasligi kabi fikrlarini ta’kidlamoqda.

Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash turli shakllarda amalga oshiriladi, jumladan, ta’limning dual shaklida. “Dual” so‘zi lotinchada “ikki qismdan iborat” ma’nosini anglatadi. Dual ta’lim – ta’lim oluvchiga ta’limni o‘z yo‘nalishiga mos muassasa, harbiy qismda xizmat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizim hisoblanib, ta’lim oluvchilar amaliy ko‘nikmalalarini yanada rivojlantirish bilan bir qatorda, ta’lim muassasasini bitirgunga qadar ish bilan ta’minlanishga erishadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020- yil 23- sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonunining 17-moddasida ta’rif berilib, unga ko‘ra Dual ta’lim ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Dual ta’limni tashkil etish tartibi esa O‘zbekiston **ссылки не найден.**; 17- b**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

ozirgi kunda dual ta’lim shakli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025- yil 16- yanvarda “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 14-sonli qaroriga asosan tartibga solingan bo‘lib, bu shaklda ta’lim bilimlarni o‘zlashtirishga, qolgan 50% amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Yetakchi xorijiy davlatlar tajribalardan kelib chiqib, bo‘lajak ofitserlarni ularning jangovar tayyorgarlik fanlaridan bilimlarini yanada oshirish maqsadida mavjud an’anaviy ta’lim olish shaklini boshqa tur shakliga o‘zgartirish, bunda asosiy e’tiborni ta’limning amaliy qismini kursantlarning kelgusida tayinlanishi mumkin bo‘lgan harbiy qism, muassasalarda amalga oshirish hisoblanadi.

Ta’limning dual shaklini harbiy kadrlarni tayyorlash tizimida qo‘llaganda o‘quv jarayonining nazariya va amaliy ta’lim muddatining 50% miqdori yo‘nilishga mos harbiy qism va muassasalarda o‘tkazilishi belgilanib, modul asosidagi ta’lim joriy qilinadi. Bunda ta’lim davridagi malakaviy amaliyotlar muddati ko‘payadi va kursantlar amaliyot davrida yo‘nalishlariga mos lavozimlarda xizmat o‘tashlari amalga

Dual ta’lim jahon ta’lim tizimidagi ta’limning noyob shakli bo‘lib, dastlab Germaniyada avtomobil ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarda joriy etilgan. Germaniyada dual ta’lim rivojlanishining asosiy omili qonunchilikda dual ta’lim

ishtirokchilarining vazifalari va majburiyatlari aniq belgilab qo‘yilganligidan iborat. Hozirgi kunda dual ta’limning “Nemis modeli” Ispaniya, Italiya, Xitoy, Gresiya, Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston Respublikasining texnik yo‘nalishlardagi ayrim ta’lim muassasalarida muhandis texnologlarni tayyorlashda qo‘llanilib kelinmoqda. Xususan, Strasburg universitetida dual ta’lim tizimi bepul ta’lim va oylik maosh berish yo‘li bilan tashkil etilgan. Karaganda davlat texnika 55 ta yirik sanoat muassasalarini birlashtirgan. Tomsk politexnika universitetida yirik kompaniyalarning buyurtmalariga ko‘ra abituriyentlar konkursli tanlovdan o‘tkazilib,

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida harbiy kadrlarni tayyorlashda ta’limning dual shaklini qo‘llash uchun birinchi bosqichning o‘quv amaliyot (tanishuv va harbiy ishni o‘rganishlar) davrida, ikkinchi va uchinchi bosqichning qo‘shin amaliyoti mobaynida seksiya, raschet, guruh komandiri va uning o‘rinbosari lavozimlarga tayinlash hamda ixtisoslik fanlarning nazariy qismini ta’lim muassasalarida bilim olish orqali yo‘lga qo‘yish, kafedralardan biriktirilgan pedagog xodimlar rahbarligida ta’lim olish jarayonlarini, trenajerlar, dala-o‘quv maydonlari hamda oliy ta’lim muassalari joylashgan hududga yaqin bo‘lgan harbiy qism va muassasalarda mashg‘ulot jadvali asosida soat 9:00 dan 18:00 gacha o‘quv dasturi asosida tashkil etiladi. Yuqori to‘rtinchi bosqich davomida qo‘shinlar amaliyotini qo‘shinlarning jangovar va ma’naviy ma’rifiy tayyorgarlik dasturlari asosida nazarda tutilgan modullar davriga integratsiya qilgan holda kursantlarini bo‘lg‘usi tayinlanishi mumkin bo‘lgan

Kursantlarni o‘qishning so‘nggi semestrini bitiruvchi egallagan ixtisosligi bo‘yicha bevosita lavozimga tayinlanishi ko‘zda tutilgan lavozimlarga yuborish *bitiruvchi 4-bosqichga o‘tgan o‘quv yili boshida amalga oshirish tartibini joriy*

Ta’limning dual ta’lim shakli uchun ta’lim yo‘nalishining malaka talabi, o‘quv reja va dasturlarni takomillashtirish zarur bo‘lib, qayta shakllantirish talab etiladi *(ma’lumot uchun: hozirda bakalavriatning o‘quv rejalarida nazariy ta’lim – 42 % ni, auditoriya mashg‘ulotlari 32%, dala mashg‘ulotlari – 20 % ni, amaliyot (stajirovka)lar – 6 % ni tashkil etmoqda).*

Ta’limning dual ta’lim shaklini bo‘lajak ofitser harbiy kadrlarni tayyorlashda joriy qilish uchun “Dual ta’limni tashkil etishning “Kelajak jangchisi” algoritmi” ishlab

1- jadval

Oliy harbiy ta’limda dual ta’limni tashkil etish SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	OHTM	Ta’limning dual shakl subyektlari bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlarining kadrlar buyurtmachilariga takliflar kiritish.	Har yili 1-fevralga qadar
2-bosqich	Harbiy kadrlarni tayyorlash boshqarmasi, kadr buyurtmachilar, OHTM	Dual shakl tashkil qilinadigan harbiy qism (muassasa, xizmat joyi)lar o‘quv moddiy bazasini tahlil qilish va dual ta’lim hujjatlarini muvofiqlashtirish	Har yili 1-iyunga qadar
3-bosqich	kadr buyurtmachilar (kadrlar iste’molchilari)	Ta’limning dual shaklini tashkil etadigan harbiy qism (muassasa, harbiy tashkilot)lar taqsimotini vazirga taqdim qilish.	Har yili 1-iyulga qadar
4-bosqich	Oliy harbiy ta’lim muassasalari	Ta’limning dual shakli guruhlarini shakllantirish va guruh rahbarlarini tayinlash.	O‘quv jarayoni boshlanishidan kamida bir oy oldin
5-bosqich	Harbiy qism (muassasa, xizmat joyi)lar	1. Kursantlarga ofitserlar tarkibidan tajribali ustoz biriktirish. 2. Kursantga qonunchilik hujjatlariga muvofiq rag‘batlantirish.	O‘quv yili mobaynida
7-bosqich	O‘R MV	1. Dual ta’lim jarayonini muvofiqlashtirish. 2. Dual ta’lim tashkil qilingan harbiy qism (muassasa, xizmat joyi)larda kursantlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar doimiy monitoringini yuritish.	O‘quv yili mobaynida

Ta’limning dual shaklini tashkil etishning “Kelajak jangchisi” algoritmi

qadam. 1-fevralga qadar OHTM tomonidan dual shakl subyektlari bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlarining kadrlar buyurtmachilariga takliflar kiritish.

2 qadam. 1-iyunga qadar OHTMlar tomonidan kadr buyurtmachi va harbiy qism (muassasa, harbiy tashkilot)lar bilan dual ta’lim hujjatlarini muvofiqlashtirish.

3 qadam. 1-iyulga qadar kadr buyurtmachisi tomonidan ta’limning dual shaklini tashkil etadigan harbiy qism (muassasa, harbiy tashkilot)lar taqsimoti bo‘yicha qaror qabul qilish.

qadam. Ta’lim dual shaklini tashkil etish bo‘yicha guruhlarni shakllantirish va guruh rahbarlarini tayinlash.

5

qadam. Harbiy qism (muassasa)ning tegishli buyrug‘i asosida ta’limning dual shakli bo‘yicha kursantlarni o‘quv jarayoniga jalb qilish.

6-qadam. Ta’limda dual shakli tashkil qilingan harbiy qism (muassasa, xizmat joyi)da kursant va rahbarlarning faoliyatini kadr buyurtmachilari va OHTM tomonidan nazorat (monitoring) qilish mexanizmini yaratish.

7-qadam. Kursant va rahbarga dual ta’lim jarayonida harbiy qism (muassasa, xizmat joyi)dagi funksional va maxsus majburiyatlarni bajarishlari uchun harbiy qism (muassasa, xizmat joyi) tomonidan boshqaruv hujjat talablariga muvofiq rag‘batlantirish to‘lash.

8-qadam. Oliy harbiy ta’lim muassasasi va harbiy qism (muassasa, xizmat joyi) kursantlarning ishtiroki, o‘zlashtirishi, ichki tartib-qoidalarga rioya etishi kabi masalalarda ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish.

9-qadam. Kursantlarni dual ta’lim dasturini o‘zlashtirganlik darajasini baholash.

Shuningdek, kelajak ofitseri algoritmi asosida oliy harbiy ta’limda ta’limning

lar tahlili, dastlabki xulosalarga ko‘ra, bu tizim uch taraflama, ya’ni oliy harbiy ta’lim muassasasi, harbiy qism va kursantga manfaatli bo‘lib, harbiy qismlarga zamonaviy malakali harbiy kadrlarni tayyorlashga, ta’lim davrining asosiy qismi bo‘lajak bo‘yicha bilim, malakalarini yetarlicha egallashlariga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi tahlillar va ilmiy-amaliy asoslar shuni ko‘rsatmoqdaki, harbiy ta’lim tizimida dual ta’lim shaklini joriy etish zarurati bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Dual ta’lim — harbiy kadrlarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirgan xizmat sharoitlariga tayyorlashda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi oliy harbiy ta’lim muassasalarida bu shaklni joriy qilish bo‘yicha bosqichma-bosqich, tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan "Kelajak jangchisi" algoritmi, qo‘shinlar taktik qo‘mondonligi (artilleriya) yo‘nalishida amaliy ko‘nikmalarni samarali shakllantirish imkonini beradi. Diagnostika natijalari asosida aniqlangan muammolar — nazariy bilimlar ustunligi, amaliy tajribaning yetarli emasligi, komandirlik sifatlarining past darajasi kabi jihatlar — aynan dual ta’lim orqali bartaraf etilishi mumkin. Shuningdek, xorijiy tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, dual ta’lim shakli kadrlar buyurtmachilari, ta’lim muassasalari va ta’lim oluvchilar o‘rtasida faol hamkorlikni taqozo etadi. Bu esa harbiy sohada

zamonaviy, malakali, yetuk va tashabbuskor ofitser kadrlarini yetishtirishga xizmat qiladi.Xulosa qilib aytganda, harbiy oliy ta’lim tizimida dual ta’lim shaklini joriy etish — nafaqat harbiy ta’lim samaradorligini oshirish, balki kelajakda armiyamiz salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik muhim yo‘nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishining 2025- yil 27- yanvar 1- son bayoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2022- yil 15- sentyabrdagi “Mudofaa vazirligi harbiy ta’lim muassasalarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi takomillashtirish to‘g‘risidagi”686- sonli buyrug‘i.

3. NATO School Oberammergau “Academic Course Guide: Eight Core Disciplines (2018 Guide)” harbiy ta’limga oid o‘quv qo‘llanma. // NATO School Oberammergau. Oberammergau, 2018. – 44 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy harbiy ta’lim muassasalarining tashkiliy-huquqiy asoslari va ularning rivojlanish yo‘nalishlari” harbiy pedagogika bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. // O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. T.: Mudofaa ishlari nashriyoti, 2023. – 74 b.

5. Xodjiev Shavkat. “Harbiy ta’lim tizimining modernizatsiyasi: xorijiy tajriba va O‘zbekiston amaliyoti”. Ilmiy maqola. // “Oliy ta’lim muassasalari uchun pedagogika va psixologiya” jurnali. – T., 2021. – №2. – B. 47–53.

6. Xasanov A.X. “Yuqori harbiy ta’limda ofitser kadrlar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llari” // Pedagogik ta’lim: nazariya va amaliyot. Ilmiy jurnal. 2023, №4. – B. 45–51.

HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHDA AXBOROT XURUJINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

p. f.d. (DSc), dotsent Shermatov F.T.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instiuti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada mualifning xizmat tajribasi asosida olib borilgan ilmiy izlanishlar atroflicha o‘rganib chiqilib, mazkur maqolada globallashuv sharoitida axborot xurujining o‘ziga xos xususiyatlari nazariy va amaliy jihatlari taxlil etilib, fikr va mulohazalar tanqidiy ochib berilib, axborot xurujiga tavsiflar batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: globallashuv, axborot ochligi, mafkuraviy kurash, axborot xuruji, dezinformatsiya, manipulyatsiya, targ‘ibot, inqirozli holatlarni boshqarish, ig‘vogarlik, diskreditatsiya, fitna.

Аннотатсия: *В данной научной стате подробно исследуется опыт работы автора, в стате анализируются теоретические и практические аспекты информатсионного кризиса в условиях глобализатсии, логически разъясняются взгляды и комментарии, дается описание и описание информатсионной атаки.*

Ключевые слова: глобализация, информационный голод, идеологическая борба, информатсионная атака, дезинформация, манипуляция, пропаганда, антикризисное управление, провокация, дискредитация.

Mutaxassislar bu tezkor davrni «ommaviy axborotlashuv» yoxud «globallashuv asri» deb atashmoqda. Boisi yer yuzining qaysidir bir chekkasida yuz bergan voqeadan bir necha soniya ichida butun dunyo ahli xabar topmoqda.Bu esa shubhasiz matbuot va ommaviy axborot vositalarining o‘rni va roli nechog‘li oshib borayotganidan dalolat beradi. Bugungi globallashuv jarayoni kimki axborotga egalik qilsa, o‘sha dunyoga hukmronlik qiladi, degan fikr bejizga aytilmaganligini tasdiqladi. Darhaqiqat, hozir dunyoning bir qancha davlatlarida yadro quroli ishlab chiqarish bo‘yicha harakatlar davom etayotgan bo‘lsa, bir qator mamlakatlarda esa axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib borilmoqda.[1]

Kuzatuvchilar ayni paytda dunyoga tarqatilayotgan axborotlarning 80 foizi bor-yo‘g‘i 4-5 ta axborot agentliklari tarqatayotganini e’tirof etmoqdalar. Bugun biz jadal sur’atlar bilan o‘sib kelayotgan yangi axborot-texnologiyalar asrida yashayapmiz. Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonining o‘ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatd o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar manfaatlariga ham xizmat qilayotganini inkor etib bo‘lmaydi.

Insoniyat tarixidan guvoxlik berishicha, xalq, davlatlarning manfaatlarini himoya qilish masalalarida mafkuraviy immunitet juda muhim o‘rin tutgan. Bu davlatlarning nafaqat moddiy, jismoniy, balki ma’naviy (ruhiy) tomonlarining asosiy tarkibidir. Aynan shuning uchun harbiy xizmatchilarning ma’naviy ruhi masalasiga doimiy ravishda alohida e’tibor qaratilgan. Harbiy ekspertlarning fikricha, zamonaviy globallashuv jarayonlarida harbiy xizmatchilarning ruhiy va ma’naviy barqarorligiga salbiy ta’sir etuvchi omillar ko‘payib bormoqda. Bir qator tahlilchilarning zamonaviy qurolli majoralarning natijasi shaxsiy tarkibning ruhiy, ma’naviy holatiga bog‘liqligi haqidagi fikrlari bir xildir. Bugun ishonch bilan aytish mumkinki, aynan harbiy xizmatchilarning ruhiy va ma’naviy holati asosiy nishonga aylandi.

Mafkuraviy immunitet o‘ziga xos xususiyatlari sifatida birinchidan insonnning umumiy immunitet tizimi tug‘ma bo‘lsa, mafkuraviy immunitet orttirilgan xususiyatga ega, ya’ni u shakllantiriladi, ikkinchidan, u har bir avlod uchun alohida xususiyatga

ega bo‘ladi, uchinchidan, mafkuraviy immunitet tizimi shakllangandangina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlik ta’minlanadi.

Insoniyat hayotida ilm-fan, madaniyatning natijasi bo‘lgan texnika, sanoatning o‘rni ortib borishi bilan ma’naviyat, axloq-odob, tarbiya masalalari kun tartibida ikkinchi o‘ringa tushib qoldi. G‘arb aholisi o‘rtasida jamoaviylik ta’siri pasayib, individuallik, xudbinlik, molparastlik, boylikka o‘chlik va har qanday yo‘l bilan bo‘lsada boylikka erishish kabi illatlar avj olib ketdi. Oqibatda, ma’naviyat va madaniyat inqiroz yo‘liga tushib qoldi. Insoniy qadriyatlar tan olinmay qo‘yildi va insoniy munosatlar asosan manfaatlargagina asoslanadigan bo‘ldi. XX asr o‘rtalariga ayniqsa, oxirlariga kelib turli madaniy tadbirlar katta foyda keltiradigan voqealarga aylantirildi. Millionlab insonlar ongini boshqaradigan mediamagnatlar paydo bo‘ldi va bu aholining tubanlashuviga va ruhiy ezilishiga sabab bo‘ladigan fahsh, zo‘ravonlik, qotillik, urush va shunga o‘xshash voqea va hodisalarni keng ekranga olib chiqa boshladilar. [2]

Bugungi kunda axborot xurujining yana bir ko‘rinishi odob-ahloq, sharm-hayo kabi qadriyatlarga tajovuz tarzida namoyon bo‘lmoqda.

Albatta, internet insoniyatning muhim yutug‘i hisoblaniladi. Odamlarga qator qulayliklar yaratdi, axborot va kommunikatsiya jarayonlarini misli ko‘rilmagan darajada tezlashtirdi. Shu bilan birga kuchli mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lgan internet tizimi jiddiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Shubhasiz, hozirgi vaqtda inson jamiyatda muntazam ravishda axborotga ega bo‘lishga intiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” kitobida internetning roli to‘g‘risida “Albatta, biz internent va boshqa axborot manbalarining o‘rni va ahamiyatini inkor etmaymiz. Darhaqiqat, bugungi hayotimizni internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuni hisobga olgan holda, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi internet tizimi orqali ma’naviy targ‘ibot ishlarini, jumladan, elektron kitobxonlikni kuchaytirish zarur. Nega deganda, biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashini asrlar davomida sinovdan o‘tgan, yuksak ma’naviyat xazinasi bo‘lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz”, - deyilgan.

Darhaqiqat, internet hozirgi vaqtda turli qarash, fikr, g‘oyalarni birlashtiruvchi jahon kompyuter tarmog‘i, balki o‘ziga xos “mafkuraviy kurash” maydoni ham desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Hammamizga ma’lum, yoshlarning aksariyat qismi hozirgi vaqtda “axborot ochligi” sindromiga chalingani sir emas. Chunki, ular tinimsiz yangiliklarga ega bo‘lmasa, ruhiy depressiyaga tushib qoladi. Ular ichki va tashqi siyosiy hayot

to‘g‘risidagi asosiy tushunchalarga internet orqali ega bo‘layotgani, davriy gazeta, jurnallardan kam foydalanayotganligi, internetning qanchalik muhim “mafkuraviy” kuchga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Turli mamlakatlarni mafkuraviy zabt etish g‘oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan uyg‘unlashib ketgan. Ya’ni, jamiyatni mafkurasizlantirishga, g‘oyasizlantirishga yo‘naltirilgan axborotlar bozorida ma’naviy-madaniy, g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan saviyasi past bo‘lgan audio va video kassetalar, ahloqsizlikka olib keladigan adabiyotlar va boshqa “san’at asarlarining” sotilishi yoki internet tarmoqlari orqali keng tarqatilishi kimlar uchundir juda katta foyda manbai bo‘lib qolayotganligi hammaga ma’lum. Bunda ommaviy axborot vositalari orqali psixologik ta’sir o‘tkazishning yangidan-yangi usullaridan foydalanadilar. Xususan, milliy hayotimizga xos muayyan xususiyatlarni ochiqdan-ochiq qoralash, yerga urish yoki ayrim tarixiy voqea-xodisalarni umuman bo‘lmagandek, jahon madaniyati, ilmu-faniga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ allomalarimizni bizga aloqasi yo‘qdek qilib ko‘rsatishga urinishlar mavjud. Shuningdek, jahon afkor ommasida O‘zbekiston haqida noto‘g‘ri tasavvur tug‘dirishga bo‘layotgan intilishlarni hech qachon e’tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim. Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘tgan asrning boshidayoq “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamon ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”, degan haqqoniy fikr bildirgan. [3]

Turli saytlar orqali tarqatilayotgan xabarlar yoshlar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilinmoqda. Bu holat harbiy xizmatchilarni ham chetlab o‘tmayotgani sir emas. Ayrim holatlarda ularga salbiy axborotning mazmuni, unda kuzda tutilayotgan maqsadlar to‘g‘ri tushuntirilmayotgani, qolaversa bu axborotlarga nisbatan ularning shaxsiy pozitsiyasining to‘liq shakllanmaganligi holati bu boradagi ishlarda jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

“Axborot xuruji” iborasi birinchi marta 1976 yil Tomas Ronning “Boeing” kompaniyasi uchun mo‘ljallangan “qurollar tuzumi va axborot urushi” nomli hisobotida qayd etilgan. Tomas Ron AQSh iqtisodiyotida infratuzilma asosiy komponent bo‘lib, keyinchalik uning harbiy, siyosiy sohalar kabi zaif nuqta bo‘lib qolishini ta’kidlaydi. Axborot xurujining muhim jihati esa “qarshi davlatning-korxonalari rahbarlariga, a’zolariga psixologik bosim o‘tkazib, ularni “kerakli” qarorlarni qabul qilishga majbur qila bilishdir” deydi. Shunga ko‘ra “axborot xuruji” nima, degan savolga javob berish mumkin. *Axborot xuruji* - bu raqib sanalgan shaxsga, jamiyatga va davlatga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda qabul qilingan qarorlarga ta’sir ko‘rsatish, ijtimoiy faktlar va jamoatchilik ongini o‘ziga kerakli yo‘nalishda shakllantirishga urinishdir. Axborot xurujlarining amalga oshirishda raqiblar asosan quyidagi usullardan foydalanadi:

dezinformatsiya (yolg‘on axborot tarqatish) - psixologik ta’sir ko‘rsatishning bir ko‘rinishi bo‘lib, raqib tarafni chalg‘itish maqsadida yolg‘on axborot tarqatiladi. Bunda haqiqiy axborot bilan yolg‘on axborot aralash ko‘rinishida bo‘ladi;

manipulyatsiya (omma ongini boshqarish) - omma ongini tuli g‘oyalar, ko‘rsatmalar, motivlar, stereotiplar, taqlid orqali sub’ekt manfaatlariga moslashtirish. Voqelikni noto‘g‘ri idrok qilish orqali soxta, yolg‘on tushuncha yoki tasavvur hosil qilinadi;

targ‘ibot - omma ongida OAV yordamida ma’lum g‘oyalarni tarqatish va ommalashtirish;

inqirozli holatlarni boshqarish - asosan iqtisodiy va siyosiy sohalarga qaratilgan bo‘lib, ma’lum guruh yoki davlat qiziqishlarini ko‘zlaydi. Avvaldan tanlab olingan shaxslarga yashirin ko‘rinishida ta’sir ko‘rsatiladi;

ig‘vogarlik - ma’lum guruhlar va shaxslar tomonidan davlatning konstitutsion tuzumiga yoki qonuniy asoslariga qarshi harakatlarni amalga oshirish;

tuxmat (bo‘hton)-biror ob’ektni obro‘sizlantirish, sha’nini bulg‘ash maqsadida yolg‘on ma’lumotlarni tarqatish;

diskreditatsiya (obro‘sizlantirish) - omma orasida davlat rahbarlari, jamoat tashkilotlari, ayrim shaxslar obro‘sini, siyosiy yechimlar, tadbirlar ahamiyatini tushuntirish va ularga salbiy ta’sir ko‘rsatish;

omma diqqatini jalb etish - biror voqea, hodisa, ish yuzasidan huquqiy ma’lumot panada qoldiriladi, shov-shuvga sabab bo‘ladigan tadbirlar amalga oshiriladi;

mish-mish gaplarni tarqatish - mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni tarqatish. Asosan davlat va jamiyadagi bo‘shliq joylarga asosiy zarba beriladi hamda siyosiy va ma’naviy yetuk bo‘lmagan shaxslar ob’ekt sifatida tanlab olinadi;

fitna - maxsus axborot harakati bo‘lib raqib muvaffaqiyatsizlikka (mag‘lub bo‘lish) olib boruvchi variantni tanlashga majburlanadi.

Kiberjinoyatlar – kompyuter yoki tarmoq resurslari vositasida amalga oshiriladigan har qanday jinoyatlar. Kiberjinoyatlarning bir qancha turlari mavjud. Jumladan,

Fishing – elektron pochta orqali turli tashkilotlar (bank, soliq xizmati, internet do‘konlar kabi) nomidan turli takliflar bilan havolalar yuboriladi. Bunda foydalanuvchilarning bank ma’lumotlarini qo‘lga kiritish maqsad qilinadi.

Spam - hozirda juda keng tarqalgan spamlar foydalanuvchilarning roziligisiz shaxsiy qurilmalarni (kompyuter, smartfon, planshet kabi) turli havolalar, reklama saytlariga yo‘naltiradi.

Kiber ta’magirlik – turli tashkilot yoki foydalanuvchilarning kompyuteriga zararli kod (virus) yuboriladi. Ushbu virus foydalanuvchi ma’lumotlarini kod

vositasidagina ochish yoki butunlay yo‘qotish mumkin bo‘lgan ko‘rinishga keltiradi. Keyinchalik kodni ma’lum qilish uchun turli miqdorda mablag‘ talab etiladi. Pul mablag‘lari o‘tkazmalarining izini yo‘qotish maqsadida kriptovalyutalarda to‘lov qilish tadab etiladi. [4]

Mualliflik huquqini buzish. Ushbu jinoyat turi kiberjinoyatlar orasida keng tarqalgan. Jumladan, turli film, musiqa, rasm va kitoblarni muallif roziligisiz, noqonuniy ravishda ochiq ma’lumotlar bazasiga joylashtirish hozirda ommalashgan.

Shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy qo‘lga kiritish uchun qilinadigan kiberjinoyatlar ham mavjud bo‘lib, ushbu jinoyatchilar foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini turli sxemalar vositasida qo‘lga kiritishni ko‘zlashadi. Ushbu jinoyatning bir nechta ko‘rinishlari mavjud. Jumladan, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash. Bunda foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini (pasport, yashash joyi, bank operatsiyalari kabi) o‘g‘irlab, keyinchalik shaxsiy ma’lumotlarni soxtalashtirish, yangi shaxsiyatni yaratish maqsadida foydalaniladi.

- **Ijtimoiy va siyosiy motivatsiyalangan kiberjinoyatlar** ham hozirda keng tarqalmoqda.

Turli ijtimoiy va siyosiy guruhlar yoki shaxslarni obro‘sizlantirish. Bunda siyosiy vaziyatga ta’sir etish maqsadida siyosatchilar yoki tashkilotlarning obro‘sini tushurish uchun turli fitnalar uyushtiriladi.

Irqiy va boshqa turdagi bag‘rikenglikka putur yetkazish. Ushbu turdagi jinoyatlar gender, irqiy, diniy, milliy va boshqa turdagi toqatsizlikni keltirib chiqarish maqsadida yolg‘on ma’lumotlarni tarqatish, xabarlarni g‘arazli maqsadda sharhlash orqali namoyon bo‘ladi. Internet foydalanuvchilarining anonimligi ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashni qiyinlashtiradi.

- **Ekstremistik g‘oyalar targ‘iboti va terrorchilik.** Ushbu turdagi jinoyatlarning ham maqsadiga ko‘ra bir nechta guruhlari mavjud

Ekstremistik g‘oyalar targ‘iboti. Turli ekstremistik tashkilotlar vakillari o‘zlarining g‘oyalarini targ‘ib qilish va yangi a’zolarni jalb etish maqsadida turli video, audio va o‘yinlarni joylashtirib borishadi.

Terroristik harakatlarni amalga oshirish. Terrorchi tashkilotlar o‘z tarafdorlari bilan o‘zaro bog‘lanish, terrorchilik harakatlarini muvofiqlashtirib borish va foydalanuvchilarni qo‘rqitish maqsadida internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishadi. [5]

Xulosa o‘rnida, yuqorida keltirilgan usullar ma’lum amallar ketma-ketligidan iborat bo‘lib, ularni amalga oshirishdan axborot xurujining ob’ekti va sub’ekti, kuch va vositalar, resurslar va vaqt omilini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqori darajada axborot xurujidan ko‘zlangan asosiy maqsad - raqib davlat axborot maydonini egallab olish, halqaro maydonda davlat imidjini tushurish, jamiyat hayotini

beqarorlashtirish, shaxsni obro‘sizlantirishga qaratilgan axborotlarni tarqatish kabilardir. Hozirgi bosqichda maqsadga erishish uchun asosiy vositalar sifatida OAV va axborot-komunikatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Bugungi tahlikali zamonda kelajak avlodni yot va buzg‘unchi g‘oyalar ta’siridan asrab avaylash doim dolzarb va birlamchi vazifa bo‘lib qolaveradi. Shunday ekan, kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni turli xil buzg‘unchi toifalarning xurujlaridan asrab avaylamog‘imiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’birlari bilan aytganda o‘z bolamizni o‘zimiz asramog‘imiz lozimligini bugun hayotning o‘zi yana bir bor ko‘rsatib bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Shermatov F.T., Harbiy – kasbiy tayyorgarlik psixologiyasi // Monografiya. 2024. 76-93 bet.

[2] Shermatov F.T., Beknazarov A.A. Jangovar stress va uning psixologik oqibatlari. // O‘quv qo‘llanma. 2021. 48-51 bet.

[3] Shermatov F.T., Socio-psychological foundations of the appointment of future officers to leadership positions // American journal of interdisciplinary research and development volume: 14 | march, 2023 Plano journal ISSN (online): 2771-8948 sjif (2023): 6.959 P.143-149

[4] Shermatov F.T., The New Method and Mechanism for Determining Professional Stresses in the Service of Military Workers International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. ISSN 2364-5369 Volume 8 Issue 9 September 2021 P. 243-246.

[5] F.Shermatov. A.Beknazarov. “Bo‘lajak ofitserlarda liderlik psixologiyasi”. Darslik.– T.: AKT va AHI, 2022.

[6] Qosimova D.S. “Boshqarish nazariyasi”: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2007.

BUGUNGI TAHLIKALI VAZIYATLARDA HARBIY RADIOALOQA OPERATORLARINI TAYYORLASH TAMOYILLARI

PhD, dotsent Pardayev X. S.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya: *Maqolada hozirgi tahlikali vaziyatda harbiy bo‘linmalardagi taktik boshqaruv bo‘g‘inlarida radioaloqa operatorlarini tayyorlash usullarining afzalliklari, qulay tomonlari va bir qancha imkoniyatlari tahlili keltirilgan hamda shu tahlil asosida qo‘shinlardagi taktik bo‘linmalar radioaloqa operatorlarinining kasbiy mahoratini va ko‘nikmalarini oshirish orqali samarali natijalarga erishish yuzasidan takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: radio operatorlari, o‘qitish tamoyillari, tizimli va izchil mashg‘ulotlar, mavjudlik mezoni, o‘qitish metodikasi.

В статье анализируются преимущества, достоинства и некоторые возможности подготовки радистов в тактических структурах управления воинских частей в современной опасной обстановке и на основе этого анализа предлагаются предложения по достижению эффективных результатов за счет совершенствования профессиональных навыков и умений радистов в тактических подразделениях армии.

Ключевые слова: радисты, принципы обучения, систематическое и последовательное обучение, критерии готовности, методика обучения.

Radio operatorlarini o‘qitishda o‘qitish tamoyillari deganda butun o‘quv jarayoniga va uning tarkibiy qismlariga (uslublar, maqsadlar, vazifalar, tashkiliy shakllar) qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan dastlabki taxminlar tushunilishi kerak. Ta’lim tamoyillari ta’lim jarayonini qurish, shuningdek, uni boshqarishning nazariy yondashuvlarini belgilaydi [1].

O‘qituvchining o‘qitish tamoyillarini bilishi ularga o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, dars maqsadlarini samarali belgilash, materiallarni tanlash, o‘qitishning tegishli uslub va shakllarini tanlash imkonini beradi. Quyida biz quyidagi ta’lim tamoyillarini ko‘rib chiqamiz.

Ta‘lim olish imkoniyati.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, o‘rganish uchun taklif etilayotgan material talabalar uchun ochiq va tushunarli bo‘lishi kerak. Bu tamoyil osondan qiyinga, oddiydan murakkabga o‘tishni talab qiladi. Mavjudlik mezoni - bu darsda o‘tilgan barcha mavzularni ko‘pchilik talabalar tomonidan to‘liq o‘zlashtirish.

O‘quv dasturini o‘z vaqtida o‘zlashtirishlarini ta’minlash uchun o‘rganayotgan tinglovchilarga ustuvor ahamiyat berish muhimdir. Bunga rahbarlarning e’tiborini kuchaytirish, individual mustaqil o‘quv topshiriqlari va a’lo baholarga ega bo‘lgan talabalarni topshirish orqali erishiladi.

O‘qitishda ko‘rgazmali qurollar.

Radiotelegraf operatsiyalarining asosiy jihatlarini aniq ko‘rsatib, instructor amaliy ko‘nikmalarni yanada mustahkam o‘zlashtirishga va o‘quv materialini o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘rganilayotgan hamma narsa vizual tasvirlar, namoyishlar va o‘rganilayotgan asbob-uskunalarning namunalari bilan qo‘llab-quvvatlanishi kerak [2].

Tizimli va izchil mashg‘ulotlar.

Radio operatorlari uchun tizimli treninglar ularning amaliy ko‘nikmalarini oshirish uchun muntazam ravishda o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishni anglatadi.

Shuning uchun o‘quv dasturini ishlab chiqishda o‘quv yuklamasining aniq taqsimlanishini ta’minlash va uzoq tanaffuslarga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

O‘rganiladigan material bilimlarning bosqichma-bosqich to‘planishini ta’minlaydigan tartibda joylashtirilishi kerak va mavjud bilimlarga asoslangan ko‘nikmalar, shuningdek, o‘rganilayotgan mavzu o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatadi va tegishli mavzular. Kursning o‘quv mavzulari talabalarning mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarini kengaytiruvchi va chuqurlashtiradigan ketma-ketlikda o‘rganilishi kerak.

Bilimlarni egallashning mustahkamligi.

Bu tamoyil to‘g‘ri tuzilgan mashqlarni va takrorlashni ta’minlanadi, bu esa o‘rganuvchilar tomonidan mavzuni chuqurlashtirishga yordam beradi. O‘quvchilarning ilgari taqdim etilgan materialni puxta o‘zlashtirganliklari yoki oldingi mashqlarni yetarli darajada bajarganliklarini tekshirmasdan yangi materialni tushuntirish yoki keyingi mashqni ta’minlamasdan mashq qilishni davom ettirish mushkul.

Tinglovchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

Radio operatorlarini muvaffaqiyatli tayyorlashning asosiy omillaridan biri bu rahbarning tinglovchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini, ularning umumiy ma’lumot saviyasini, o‘z mutaxassisliklarini o‘zlashtirishga qiziqish darajasini qanchalik to‘g‘ri tushunishidir.

Guruhlardagi tinglovchilarlar individual xususiyatlarini tushunish o‘rganishni farqlash va to‘liq hajmdan mohirona foydalanishga imkon beradi. Buning uchun o‘qitish usullari va shakllaridan foydalanish zarur.

Radio operatorining professional ishi doimo katta aqliy va baquvvat kuch talab qiladi. Ularning ishi ko‘pincha tinimsiz sur’atda yoki ekstremal jangovar sharoitlarda sodir bo‘ladi.

Qayta ishlangan ma’lumotlarning hajmi juda katta bo‘lishi mumkin. Radio operatorlari o‘z vazifalarini birinchi navbatda maxsus jihozlangan transport vositalarida va boshpanalarda, shuningdek, kun yoki yilning istalgan vaqtida ochiq joylarda bajaradilar [3].

Radioaloqadagi eng og‘ir daqiqalar radiokanal yo‘qolganda yoki buzilgan (aralashuv) va jangovar ogohlantirish holatida paydo bo‘ladi. Bularning barchasi o‘qituvchiga haqiqiy hayotga eng mos keladigan sharoitlar o‘quv usullarini tanlash uchun asos yaratadi.

Zero, yuqori malakali mutaxassis tayyorlash uchun shunchaki o‘rgatish, ko‘rsatish, tushuntirish, bilimning o‘zlashtirilishini ta’minlashning o‘zi yetarli emas.

Kursni tugatgandan so‘ng, tinglovchi o‘zgaruvchan muhitda turli vaziyatlarni tushunishi va harakat qila olishi, to‘g‘ri qaror qabul qilishi va o‘z kasbiy sohasida yuqori malakaga ega bo‘lishi juda muhimdir.

Bu o‘qituvchi zimmasiga o‘quv jarayonida qo‘shimcha mas’uliyat yuklaydi, bu dars mavzusi va maqsadlariga to‘g‘ri keladigan o‘qitish usullarini topish va qo‘llashdan iborat bo‘lib, tinglovchiga o‘zining ta’lim salohiyatini maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Umuman o‘qitish metodikasi – o‘quvchilar yoki o‘quvchilar guruhida ularning birgalikdagi faoliyati predmetiga ko‘zlangan maqsadlarga muvofiq ma’lum shakl va tuzilma berish yo‘li bilan muayyan kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini boshqarish usulidir.

Harbiy-ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik intizomiga taalluqli, o‘qitish usullari (ta’lim texnologiyalari) orqali o‘qituvchi tinglovchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga intilishi kerak:

1. Qadriyat-semantik kompetentsiya (turli vaziyatlarda o‘z taqdirini o‘zi belgilash mexanizmlari, dunyoqarash, qadriyat yo‘nalishlari).

Ushbu kursni tugatgandan so‘ng tinglovchilar kasbiy faoliyat mavzusi va sohasi bo‘yicha o‘zlarining qiymat yo‘nalishlarini shakllantirishlari, qaror qabul qila olish, ularning oqibatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish va o‘z pozitsiyalaridan kelib chiqqan holda turli vaziyatlarda o‘zini o‘zi belgilash qobiliyatini egallashlari lozim.

2. Ta’lim va kognitiv kompetentsiya (rejalashtirish, maqsad qo‘yish, tahlil qilish, mulohaza yuritish, o‘z-o‘zini baholash, funktsional savodxonlik, maqsadni qo‘yish, unga erishishni tashkil etish, kognitiv maqsadlarni belgilash, ta’lim sharoitlarini tanlash, natijalarni tavsiflash, xulosalarni shakllantirish, kompyuter vositalari va texnologiyalari (matn va grafik muharrirlar, taqdimotlar) yordamida o‘z ishining natijalarini taqdim etish lozim.

3. Kommunikativ qobiliyatlar (atrofingizdagi odamlar bilan qanday munosabatda bo‘lishni bilish va masofada guruh yoki jamoada ishlash ko'nikmalari), o‘zini og‘zaki va yozma ravishda taqdim etish qobiliyati, boshqalar va uzoqdagilar bilan muloqot qilish texnikasini o‘zlashtirish, guruhda birgalikda ishlash usullarini, murosalarni izlash va topish qobiliyatini egallash va muloqot sharoitida harakat qilish texnikasini o‘zlashtirishi lozim.

4. Axborot kompetensiyasi (axborotni qidirish, tahlil qilish va tanlash, uni saqlash, o‘zgartirish va uzatish, zamonaviy axborot texnologiyalarini bilish), turli axborot manbalari bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, kitoblar, darsliklar, texnologik jadvallar, ma’lumotnomalar, kataloglar, lug‘atlar, Internet, ta’lim muammolarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni mustaqil ravishda izlash, tizimlashtirish, tahlil qilish, ajratib olish va tanlash, axborot vositalaridan kompyuter, magnitafon, telefon, mobil telefon, maxsus qurilmalardan (ADKM, KKOR –

radiotelegraf operatorlarini tayyorlash uchun kompyuter majmuasidan) foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish lozim [4].

Bu barcha kompetensiyalarni rivojlantirish, takomillashtirish va rivojlantirish asosiy kompetensiyalardan birini - kasbiy kompetentsiyani shakllantirishi kerak. Ushbu kompetensiyalar tinglovchi mashg‘ulotni tugatgandan so‘ng Morze kodidan foydalangan holda radio uzatish va axborotni qabul qilish sohasida yuqori malakali mutaxassis bo‘lishini talab qiladi.

Faqat bilim, ko‘nikma va qobiliyatning o‘zi etarli emas. Bitiruvchi radio operatori, yuqorida aytilganlarning barchasidan tashqari, o‘z kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniq va aniq tushunishi, turli vaziyatlarda harakat qila olishi, kutilmagan muammolar bo‘yicha qarorlarini tez va to‘g‘ri tanlashi, qabul qilishi va asoslashi kerak.

Yuqorida aytib o‘tilgan shartlar va sharoitlar majmuasini hisobga olgan holda, o‘qituvchi darsni o‘tkazish uchun muayyan texnologiya, usul yoki ikkalasining kombinatsiyasini tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilishi kerak.

Radiotelegraf operatorlarini tayyorlashda asosan quyidagi o‘qitish usullari va texnologiyalaridan foydalaniladi:

Klassik - materialni og‘zaki bayon qilish (ma’ruza, hikoya, tushuntirish), ko‘rsatish, mashqlar, mashqlar, mustaqil ish, amaliy ish.

Ta’lim, kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarni yanada maqsadli rivojlantirish, kengaytirish va takomillashtirish, shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yoki minimallashtirish imkonini beradigan zamonaviy o‘qitish usullari va texnologiyalari.

Bu keys tadqiqot usuli, loyiha usuli, modulli ta’lim texnologiyasi va konsentrlangan ta’limdir.

Radio operatorlarini o‘qitish va tayyorlash usullarini ko‘rib chiqaylik.

Ma’ruzalar ilmiy bilim asoslarini bayon etishi, o‘quv materialining eng murakkab masalalarini dialektik munosabatda o‘rganishi, tinglovchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berishi kerak.

Ma’ruzaning asosiy maqsadi katta hajmdagi o‘quv ma’lumotlarini etkazish emas, balki radio tarmoqlari va radio yo‘nalishlarida ishonchli amaliy ish uchun zarur bo‘lgan materialni aniq va aniq taqdim etish bo‘lishi kerak [5].

O‘quv materialini og‘zaki taqdim etish, asbob-uskunalar dizayni, ishlash qoidalari va zarur ish texnikasi ko'rgazma bilan birga bo‘lsa, samaraliroq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda bu usul birinchi navbatda biror narsani isbotlash, o‘rganilayotgan masalalarning asosiy nuqtalarini ochib berish yoki turli texnika, harakat va harakatlar haqida tushunchaga ega bo‘lish zarur bo‘lganda qo‘llaniladi.

Namoyish darslarni sezilarli darajada jonlantiradi va radio operatorlarini o‘qitishda muhim ahamiyatga ega. Quloq orqali radiotelegraf belgilarini qabul qilish yoki uzatishda yuqori sifatli ishlarni ko‘rsatish o‘quvchilar e’tiborini tortadi, qiziqishini rivojlantiradi, bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkam egallashiga xizmat qiladi.

Bu usul foydalidir, chunki o‘quvchi o‘z harakatlari va harakatlarini ko‘rsatganlar bilan o‘zaro bog‘laydi va shu orqali o‘qituvchining “Men qilgandek qil” talabini bajaradi.

Namoyish aniq, tushunarli va aniq tushuntirish bilan birga bo‘lishi kerak.

Aks holda, ko‘rsatilayotgan harakat yoki mashq aqlsiz, sof mexanik tarzda bajariladi.

Taklif etilgan tamoyillar radio operatorlarini tez fursatda tayyorlash, ko‘nikma va tajribalarini oshirish imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Азов В.С. Роль и место глобальной системы оперативного управления в стратегическом руководстве США /Журнал//Зарубежное военное обозрение №6 2003. С 2-7

[2]. Харченко Н.А. Современное состояние и перспективы развития радиостанций зарубежных государств/Журнал//Зарубежное военное обозрение №6 2003. С 22-30

[3]. Глущенко А. А. Место и роль радиосвязи в модернизации России/ Учебное пособие. Санк-Петербург.2023

[4]. Основы построения систем и сетей передачи информации: учебное пособие для вузов/ В.В. Ломовицкий, А.И. Михайлов, К.В. Шестак и др. – М.: Горячая линия-Телеком, 2005.

[5]. Simple Network Management Protocol [Электрон ресурс] // URL: http://xgu.ru/wiki/SNMP (murojat qilingan sana 24.03.2025).

ILMIY KADRLARNI TAYYORLASHDA ILMIY LOYIHALARNI AHAMIYATI

t.f.n., dotsent Qurbanov Sh.K., dotsent Abdusattarov Q.M.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Ilmiy kadrlarni tayyorlash samaradorligi davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ilmiy loyihalar bilan chambarchas bog‘liqligi va uning ilm-fanning rivojlanish tendensiyasiga ta’siri juda yuqori yuqori yukanligi ma’lum.Tadqiqot ishida bu borada Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar va natijalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: Innovatsiyalar, ilmiy loyiha, ilmiy daraja, moliyalashtirish, amaliy loyihalar, dissertatsiya, ilmiy kadrlar, ilmiy salohiyat.

Аннотация. *Эффективност подготовки научных кадров тесно связана с государственным финансированием научных проектов, и её влияние на тенденции развития науки является весма высоким. В исследовательской работе проанализированы мероприятия реализуемые в нашей Республике в этом направлении и даны результаты этих исследований.*

Ключевые слова: Инновации, научный проект, учёная степень, финансирование, прикладные проекты, диссертация, научные кадры, научный потенциал.

Hozirgi tezkor axborot almashinuvi va texnologiyalarni jadal rivojlanishi davrida- yangi O’zbekistonnning ichki va tashqi siyosatida jahonga ochiqlilik tomon yuz burayotgani iqtisodiy ravnaq topishiga katta rol o‘ynaydi. Shuning bilan birga milliy kadrlarni raqobatbardoshliligini oshirishni ham talab qiladi. Shu jumladan, harbiy ilmiy kadrlarni tayyorlashda ham o‘ziga xos innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Raqamlashtirilgan zamonaviy harbiy texnikalarni boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqish, modernizatsiya qilish, umum-texnik ko‘rsatgichlarini yaxshilash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqazo qiladi. Shuning uchun ham harbiy ilmiy kadrlarni tayyorlash Yangi O’zbekiston Qurolli Kuchlari oldidagi muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. [1]

Respublikamizda ilm-fan va innovatsiyalar sohasida olib borilayotgan keng islohotlar, xususan, mutloq yangi qabul qilingan me’yoriy-huquqiy, konseptual hujjatlar, davlat va jamiyat hayotiga raqamli, innovatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi, ilmiy-tadqiqot institutlarining faoliyati samaradorligini oshirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, yuqori malakali ilmiy-pedagog va ilmiy-muhandis kadrlar tayyorlash, ularga munosib shart-sharoitlar yaratish, ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish bo‘yicha maqsadli sa’y-harakatlar o‘z o‘rnida harbiy ilm-fanni jadal rivojlantirish, mudofaa sohasiga ilg‘or axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini amalga oshirish bo‘yicha tajribasidan foydalanish mamlakatimiz uchun alohida ahamiyatga ega. Bu sanoat, telekommunikatsiya va boshqa bir qator tarmoqlarda innovatsion faoliyatni tartibga solish va rag‘batlantirish tizimining shakllanishiga ko‘maklashadi. [2]

Harbiy ilmiy kadrlarni tayyorlashda jahon ilmiy fanining rivojlanish tendensiyalari barobarida hamqadam bo‘lish uchun albatta davlat ilmiy dasturlari


asosida moliyalashtiriladigan dolzarb ilmiy loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.


Respublikada ohirgi paytlarda xukumatimiz tomonidan ilm-fanni qo‘llab quvvatlashga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Innovatsion rivojlanish agentligining ma’lumotlariga ko‘ra 1 rasm. Respublikamizda 2024 yilda quyidagi ilmiy loyihalar amalga oshirilgan.



1.rasm. Respublikada amalga oshirilayotgan ilmiy loyihalar bo‘yicha ma’lumot.

Bundan kelib chiqadiki so‘ngi yillarda bu borada katta o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Buning natijasida ilmiy kadrlar salohiyati ham o‘sish tendensiyaga ega ekanligi ham 2 rasmda keltirilgan infografikada ko‘rinmoqda.





2-rasm. Respublikamizda ilmiy kadrlarni o‘sish dinamikasi

Kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki ilmiy kadrlarni tayyorlashda ilmiy loyihalarni o‘rni muhim. Bu borada davlatimizni qo‘llab quvvatlashi kelajakda respublikamizni jahon ilm-fanini rivojlanish tendensiyasi barobarida ham iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy va harbiy salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Sh.Otajonov, Sh.Ergasheva. Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi: tanlov mavzulari va ilmiy loyihalar qanday shakllantiriladi? – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2020, 86 b.

[2]. M.Parpiyeva. Axborot texnologiyalari soxdsida ilmiy - texnikaviy innovatsiyadan samarali foydalanish xususiyatlari. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 | 2021-985-1000 b.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОДГОТОВКИ ВОЕННЫХ РАДИОТЕЛЕГРАФИСТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

PhD, Давлатов У. Р., Абзалов Д.Р., Халматов И.М.

Военный институт информационно-коммуникационных технологий и связи

Аннотация: *В статье рассмотрены методы повышения эффективности подготовки военных радиотелеграфистов на основе технологий искусственного интеллекта (ИИ). Предложена математическая модель адаптивного тренажёра, основанная на принципах машинного обучения и распознавания сигналов с использованием дискретного преобразования Фурье (ДПФ) и нейросетевых алгоритмов. Приведены формулы для моделирования сигналов азбуки Морзе и расчёта вероятности ошибок в условиях помех. Показана роль ИИ в автоматизации контроля знаний и индивидуализации учебного процесса.*

Ключевые слова: радиотелеграфисты, искусственный интеллект, код Морзе, военная подготовка, интеллектуальные тренажёры.

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari asosida harbiy radio operatorlarini tayyorlash samaradorligini oshirish usullari muhokama qilinadi. Diskret Furye transformatsiyasi (DFT) va neyron tarmoq algoritmlari yordamida mashinani o'rganish va signalni aniqlash tamoyillariga asoslangan adaptiv simulyatorning matematik modeli taklif etiladi. Morze kod signallarini modellashtirish va interferensiya sharoitida xatolik ehtimolini hisoblash uchun formulalar berilgan. Bilimlarni boshqarishni avtomatlashtirish va o'quv jarayonini individuallashtirishda AIning roli ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: radio operatorlari, sun'iy intellekt, Morze alifbosi, harbiy tayyorgarlik, aqlli simulyatorlar.

Введение

Быстрые и существенные изменения в военном деле, технике радиосвязи, принимаемой на вооружение, усложнение деятельности военных радиоинженеров и неизменные сроки их подготовки при возрастающем объеме технической информации обусловливают необходимость решения высшими военными учебными заведениями ряда проблем. Основными, из которых являются: перевод подготовки специалистов на качественно новый уровень, отвечающий современным требованиям к офицерским кадрам; повышение эффективности образовательного процесса на основе оптимального сочетания традиционных и инновационных форм, методов и средств обучения; творческое внедрение современных информационных технологий при максимальной реализации функций управления процессом обучения в соответствии с целями и содержанием профессионального образования [1].

В связи с этим идет активный поиск средств, методов и форм, интенсифицирующих учебно-воспитательную работу, дающих возможность динамично развивать познавательную деятельность обучающихся.

Быстрое развитие технологий произвело революцию в различных секторах, включая военное образование. Традиционные методы обучения дополняются или заменяются инновационными технологиями, такими как виртуальная реальность (VR), искусственный интеллект (ИИ) и другими новыми инструментами [2].

1. Виртуальная реальность (VR) в военной подготовке. Технология виртуальной реальности получила значительное распространение в военном образовании. Моделирование виртуальной реальности обеспечивает реалистичный и захватывающий опыт обучения солдат, позволяя им практиковать тактические маневры, боевые сценарии и навыки принятия

решений в безопасной и контролируемой среде. VR позволяет военнослужащим тренироваться в сложных ситуациях, повышая их ситуационную осведомленность и возможности реагирования.

2. Искусственный интеллект (ИИ) в военном образовании. Искусственный интеллект играет ключевую роль в современном военном образовании, дополняя программы обучения интеллектуальными системами. Технологии на основе искусственного интеллекта могут анализировать огромные объемы данных, выявлять закономерности и генерировать ценную информацию для военнослужащих. ИИ может помочь в планировании сценариев, принятии стратегических решений и оценке эффективности солдат, предоставляя персонализированную обратную связь для улучшения [3].

3. Другие новые технологии в военной подготовке. Помимо виртуальной реальности и искусственного интеллекта, военное образование трансформируют и другие технологии. К ним относятся дополненная реальность (AR) для наложения цифровой информации на реальный мир, носимые устройства для мониторинга биометрических данных и производительности солдат, дроны для тактической разведки и симуляторы для реалистичного обучения средств связи и оборудования. Эти инструменты предлагают расширенные возможности обучения, эффективность и экономичность.

4. Совместное и дистанционное обучение. Технологии изменили военное образование, предоставив возможности совместного и дистанционного обучения. Через онлайн-платформы стажеры из разных мест могут участвовать в совместных учебных упражнениях, способствуя межкультурному взаимопониманию и сотрудничеству. Кроме того, варианты дистанционного обучения обеспечивают доступ к образовательным ресурсам и опыту независимо от географических ограничений. Такая гибкость повышает доступность и инклюзивность военного образования, обеспечивая наличие разносторонних и глобально осведомленных военных сил.

5. Обучение кибербезопасности и информационной войне. По мере развития характера войны растет и потребность в военнослужащих, владеющих навыками кибербезопасности и информационной войны. Интеграция технологий облегчает специализированное обучение в этих важнейших 244 областях. Смоделированные сценарии кибератак и оборонительные стратегии, основанные на искусственном интеллекте, позволяют солдатам развивать навыки, необходимые для эффективного смягчения киберугроз. Опережая противников в цифровой сфере, военное образование вооружает личный состав инструментами для защиты критически важной инфраструктуры и национальной безопасности.

Преимущества интеграции технологий в военную подготовку

1. Реалистичное и безопасное обучение: виртуальная реальность и симуляторы создают реалистичную среду обучения без риска для жизни и ресурсов, позволяя солдатам неоднократно отрабатывать сложные сценарии.

2. Повышенная ситуационная осведомленность: технологии виртуальной реальности и искусственного интеллекта помогают солдатам развивать ситуационную осведомленность, воспроизводя условия реального мира и подготавливая их к динамичным и непредсказуемым ситуациям.

3. Персонализированное обучение: системы на базе искусственного интеллекта могут анализировать данные об индивидуальных результатах, определять области для улучшения и предоставлять индивидуальные учебные модули для повышения навыков и возможностей солдат.

4. Экономическая эффективность: интеграция технологий снижает потребность в дорогостоящих физических ресурсах и оборудовании, делая программы обучения более экономически эффективными в долгосрочной перспективе.



Проблемы и соображения

1. Внедрение и инфраструктура. Интеграция новых технологий требует надежной инфраструктуры, обеспечивающей доступ и совместимость между учебными заведениями.

2. Обучение и ознакомление. Адекватное обучение и ознакомление с новыми технологиями необходимы для максимизации их преимуществ. Персонал должен обладать навыками эффективного использования и адаптации к этим инструментам.

3. Безопасность и киберугрозы. По мере развития технологий обеспечение безопасности данных, сетей и систем становится критически важным для защиты конфиденциальной военной информации и противодействия потенциальным киберугрозам.

Искусственный интеллект и алгоритмы машинного обучения играют ключевую роль в военных действиях. Вооруженные силы начали применять технологию еще до того, как она стала обычным явлением в гражданской жизни. Все это время инженеры активно тестировали множество алгоритмов, развивали их, дорабатывали и обучали выполнять все более сложные задачи [4].

Современные условия ведения радиоэлектронной борьбы требуют высокой устойчивости систем военной связи. Радиотелеграфия, основанная на азбуке Морзе, продолжает использоваться как надёжный способ передачи информации в условиях ограниченной полосы пропускания и помех [5].

Традиционные методы подготовки радиотелеграфистов характеризуются высокой длительностью и ограниченной адаптивностью. Использование технологий искусственного интеллекта (ИИ) позволяет сократить время обучения, автоматизировать контроль и обеспечить имитацию реальных условий радиообстановки [6].

Математическая модель сигналов азбуки Морзе

Передача сигналов Морзе базируется на законе пропорциональности длительности элементов:

$$T_{dot} = T, \quad T_{dash} = 3T, \quad T_{intra} = T, \quad T_{inter} = 3T, \quad T_{word} = 7T, \qquad (1)$$

где T – длительность базового элемента (точки).

Сигнал на выходе генератора можно представить как:

$$s(t) = A \cdot \sin(2\pi f_0 t) \cdot g(t), \qquad (2)$$

где A – амплитуда, f_0 – частота тона (обычно 600-1000 Гц), $g(t)$ – огибающая, определяемая кодовой последовательностью (точка или тире).

Распознавание сигналов

Для выделения признаков используется дискретное преобразование Фурье (ДПФ):

$$S(k) = \sum_{n=0}^{N-1} s\,(n)\, e^{-j\frac{2\pi}{N}kn}, \quad k = 0,1,\dots,N-1\,, \tag{3}$$

где N – количество отсчётов, $s\,(n)$ – сигнал во временной области.

Основная задача распознавания — определение наличия сигнала на частоте f_0 и измерение длительности активных интервалов. Для повышения точности в условиях шума применяются рекуррентные нейронные сети (RNN, LSTM) и сверточные архитектуры (CNN), обученные на выборках телеграфных сигналов [6].

Адаптивная модель обучения

Рассмотрим вероятность правильного распознавания символа P_c, зависящую от отношения сигнал/шум (SNR):

$$P_c = 1 - Q\left(\sqrt{2 \cdot \frac{E_S}{N_0}}\right), \tag{4}$$

где $Q_{(X)}$ – функция ошибок, E_S – энергия символа, N_0 – спектральная плотность шума.

Уровень сложности в тренажёре можно адаптировать по формуле:

$$D_{t+1} = D_t + \alpha \cdot \left(E_t - E_{target}\right), \tag{5}$$

где D_t– сложность на шаге t, E_t– фактический уровень ошибок обучаемого, E_{target} – целевой уровень ошибок, α – коэффициент адаптации.

Таким образом, система подстраивает скорость передачи и условия моделирования под индивидуальные особенности обучаемого.



Подводя итоги, можно сказать, что интеграция виртуальной реальности, искусственного интеллекта и других новых технологий в программы военной подготовки произвела революцию в современном военном образовании. Эти технологии обеспечивают реалистичную, безопасную и захватывающую среду обучения, повышают ситуационную осведомленность и предлагают персонализированный опыт обучения. Несмотря на существующие проблемы, преимущества использования технологий в военном образовании обширны, предоставляя солдатам навыки и знания, необходимые для сегодняшних сложных и постоянно развивающихся полей сражений.

Заключение

Использование технологий искусственного интеллекта в подготовке военных радиотелеграфистов позволяет существенно повысить эффективность обучения, приблизить тренировочный процесс к боевым условиям и снизить нагрузку на преподавателей. Перспективными направлениями являются развитие нейросетевых систем распознавания сигналов, интеграция адаптивных алгоритмов в комплексные тренажёры и расширение базы данных телеграфных сигналов для машинного обучения.

Использованной литературы:

1. Коджаспирова Г. М., Петров К. В. Технические средства обучения и методика их использования. М. : ACADEMIA. 2001. 255 с.

2. Агапиев, Н.П. Использование информационных технологий при многоуровневой подготовке специалистов по дисциплине «Основы радиотелеграфии»:/ Н.П. Агапиев, С.Н. Кулагин Бюллетень методического совета АФАПСИ № 2 Орел,2002 - 8.

3. Внедрение технологий виртуальной реальности в процесс обучения личного состава в военной учебной среде / В. Е. Моряков, Н. В. Серищев, Е. А. Жидко. // Молодой ученый. — 2024. — № 49 (548). — С. 306-308.

4. Чжан Ю. и Ву М. (2020). Искусственный интеллект в военном образовании: текущие применения и будущие тенденции.

5. Proakis J.G., Salehi M. *Digital Communications*. – McGraw-Hill, 2014.

6. Власов А.В. Использование искусственного интеллекта в подготовке специалистов связи // Вестник связи. – 2021. – №4. – С. 45–52.

7. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. *Deep Learning*. – MIT Press, 2016.

8. Хусаинов Р.М. Автоматизация обучения радиотелеграфистов на основе адаптивных тренажёров // Вопросы радиоэлектроники. – 2020. – №8. – С. 61–68.

ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ МОШЕННИЧЕСТВУ: ИЗУЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ОПЫТА

Талипов О.О.
ГУП «Главный центр информатизации» Центрального банка Республики Узбекистан

Аннотация. *В условиях глобализации и цифровизации проблема мошенничества приобретает всё большую актуальность, затрагивая как национальные экономики, так и международные отношения. В данной работе рассматриваются современные подходы к противодействию мошенничеству на национальном и международном уровнях. Особое внимание уделяется анализу правовых механизмов, институциональных структур и практик, применяемых в различных странах, включая опыт стран ЕС и США. Исследуются особенности законодательства, стратегии превенции, методы расследования и раскрытия мошеннических схем. Сравнительный анализ позволяет выявить эффективные практики, а также пробелы и вызовы, стоящие перед государствами в борьбе с мошенничеством.*

Ключевые слова: мошенничество, международный опыт, антифрод и фрод данные.

Введение

В условиях стремительного развития цифровых финансовых технологий проблема мошенничества приобретает всё более комплексный и транснациональный характер. Современные схемы мошенничества поражают не только частных лиц, но и целые финансовые институты, нарушая доверие к платёжным системам. Повышение эффективности противодействия таким преступлениям невозможно без изучения и внедрения международного опыта, адаптированного к национальным реалиям. В данной работе рассматриваются ключевые практики борьбы с мошенничеством в различных странах, а также текущее состояние и перспективы развития этой сферы в Республике Узбекистан.

1. Глобальные тренды в области мошенничества

Мошеннические схемы становятся всё более технологичными и разнообразными. Основные мировые тенденции включают:

- широкое использование методов социальной инженерии (фишинг, вишинг, смишинг);

- подмену абонентских номеров и подделку сайтов финансовых организаций;
- компрометацию учётных данных и создание фальшивых мобильных приложений;
- активное распространение схем через мессенджеры и социальные сети.

По данным Европейского центрального банка, до 80% всех мошеннических операций в еврозоне связано с онлайн-транзакциями. Аналогичные тренды наблюдаются в США и странах Азии.[1]

2. Опыт стран Европейского союза: регламенты и превентивные меры

В Европейском союзе борьба с мошенничеством регулируется через правовые и технологические механизмы. Ведущую роль играет Директива PSD2, предусматривающая обязательную строгую аутентификацию клиентов при большинстве операций. Кроме того, создаются единые платформы для обмена данными между банками и спецслужбами.[2]

В Великобритании действует подразделение DCPCU, объединяющее сотрудников полиции и банковских экспертов, и платформа Take Five, проводящая массовые кампании цифровой гигиены.[3]

Нидерланды успешно внедрили систему «умной блокировки», когда подозрительные операции временно замораживаются до подтверждения их легитимности со стороны клиента.

3. США: данные, технологии и партнёрство с финтехом

США делают упор на использование искусственного интеллекта, Big Data и аналитики для предсказания и блокировки мошеннических операций. Банки используют поведенческую биометрию, а также алгоритмы машинного обучения, выявляющие нетипичные действия пользователей.

В рамках закона Bank Secrecy Act банки обязаны сообщать о подозрительных операциях (SAR). Важным координатором антифрод деятельности выступает Федеральная торговая комиссия (FTC), которая собирает и анализирует данные о мошенничестве, а также информирует население через кампании и отчёты. [4]

4. Азиатский подход: комплексные стратегии в Сингапуре и Южной Корее

Сингапур применяет стратегию «Zero Trust» во всех финансовых учреждениях, требуя постоянной проверки подлинности и целостности

[1] European Central Bank. (2022). *Fifth report on card fraud*. European Central Bank.
[2] European Parliament, & Council of the European Union. (2015). *Directive (EU) 2015/2366 on payment services in the internal market (PSD2)*. Official Journal of the European Union.
[3] UK Finance. (n.d.). *Dedicated Card and Payment Crime Unit (DCPCU)*.
[4] Federal Trade Commission. (2024). *Consumer Sentinel Network Data Book 2023*. Federal Trade Commission.

транзакций. Центральный банк MAS обязывает финорганизации тестировать свои системы безопасности и сертифицировать антифрод решения.[5]

В Южной Корее центральную роль играет Financial Security Institute (FSI), выполняющий функции наблюдения, реагирования и анализа киберугроз в финансовом секторе. Страна также внедрила механизм оповещения пользователей в режиме реального времени при любом подозрительном действии.[6]

5. Национальный опыт Узбекистана: реализация ПП–381 и внедрение антифрод инфраструктуры

В Республике Узбекистан борьба с мошенничеством в финансовом секторе получила законодательное и институциональное усиление с принятием Постановления Президента от 30 ноября 2023 года ПП–381 «О мерах по обеспечению кибербезопасности критической информационной инфраструктуры Республики Узбекистан». Документ прямо направлен на предотвращение краж, мошенничества и иных нарушений в банковской и платёжной сферах.[7]

Согласно пункту 2 Постановления, Центральный банк уполномочен направлять обязательные указания о временной блокировке банковских карт, счетов и мобильных приложений на срок до трёх суток при выявлении фродовых операций. Это даёт регулятору оперативные полномочия по пресечению мошенничества в реальном времени.

Документом также предусмотрены следующие ключевые меры:

- Внедрение транзакционных антифрод систем у операторов платёжных систем, с анализом операций в реальном времени;
- Создание централизованной антифрод системы в Центральном банке, способной интегрироваться с банками и платёжными организациями;
- Разработка биометрической системы идентификации клиентов на уровне ЦБ для повышения надёжности дистанционных операций;
- Ужесточение безопасности мобильных приложений: блокировка переводов новым пользователям на 1 час, уведомление основного владельца профиля, сбор параметров устройства (IMEI, IMSI, DeviceID и др.).

Ряд банков уже начал реализацию этих требований: внедряются поведенческие антифрод алгоритмы, создаются SOC и антифрод подразделения, налаживается обмен фрод данными с Центральным банком.

Тем не менее, важными задачами остаются:

[5] Monetary Authority of Singapore. (n.d.). *Advisory on fraud prevention*. Monetary Authority of Singapore.
[6] Financial Security Institute. (n.d.). *About Financial Security Institute*.
[7] Постановление Президента №ПП–381 “О мерах по обеспечению кибербезопасности критической информационной инфраструктуры Республики Узбекистан”.

- масштабирование технических решений на весь рынок;
- подготовка специалистов по фрод аналитике;
- обеспечение устойчивого межведомственного обмена информацией.

Таким образом, ПП–381 стало основой для создания в Узбекистане многоуровневой и централизованной системы противодействия мошенничеству, с участием как регулятора, так и всех ключевых игроков финансового рынка.

Выводы

Борьба с мошенничеством в финансовой сфере сегодня требует комплексного подхода, в котором ключевую роль играют не только технологии, но и координация между участниками рынка, регулятором и правоохранительными органами.

Международная практика показывает, что устойчивые результаты достигаются в тех странах, где:

- действуют централизованные антифрод системы;
- банки обязаны внедрять многоуровневые механизмы аутентификации и поведенческого анализа;
- функционируют оперативные каналы обмена информацией об инцидентах;
- обеспечена правовая возможность быстро ограничивать доступ к подозрительным счетам и операциям.

В Узбекистане сформирована нормативная база (в частности, ПП–381 от 30.11.2023 г.), определившая ключевые механизмы пресечения фродовых операций. Внедряются централизованные и сессионные антифрод системы, расширяются полномочия регулятора.

Тем не менее, для повышения устойчивости финансовой системы к мошенничеству необходимо:

1. Обеспечить полноценную реализацию механизмов, предусмотренных ПП–381, особенно в части временного ограничения операций и внедрения централизованной антифрод системы.

2. Расширить технические и аналитические возможности банков и платёжных организаций, включая мониторинг транзакций в режиме реального времени и сбор поведенственных метрик.

3. Внедрить унифицированную платформу обмена фрод данными между всеми участниками рынка с чётко установленными протоколами реагирования.

4. Усилить контроль за безопасностью мобильных приложений, включая защиту от несанкционированного доступа и автоматическую блокировку подозрительных действий.

5. Повысить уровень подготовки специалистов, а также регулярно проводить учения по реагированию на инциденты.

Формирование эффективной системы противодействия фроду – это не разовая мера, а непрерывный процесс. Узбекистан обладает необходимыми институциональными и нормативными ресурсами для дальнейшего развития в этом направлении.

Использованной литературы:

1. European Central Bank. (2022). Fifth report on card fraud. European Central Bank.https://www.ecb.europa.eu/pub/cardfraud/html/ecb.cardfraudreport202210.en.html
2. European Parliament, & Council of the European Union. (2015). Directive (EU) 2015/2366 on payment services in the internal market (PSD2). Official Journal of the European Union. https://eur-lex.europa.eu/legal-ontent /EN /TXT /?uri=CELEX%3A32015L2366
3. UK Finance. (n.d.). Dedicated Card and Payment Crime Unit (DCPCU). https://www.ukfinance.org.uk/what-we-do/financial-crime-prevention/dcpcu
4. Federal Trade Commission. (2024). Consumer Sentinel Network Data Book 2023. Federal Trade Commission. https://www.ftc.gov/reports/consumer-sentinel-network-data-book
5. Monetary Authority of Singapore. (n.d.). Advisory on fraud prevention. Monetary Authority of Singapore. https://www.mas.gov.sg/regulation/advisories
6. Financial Security Institute. (n.d.). About Financial Security Institute. https://www.fsec.or.kr/eng/main/
7. Президент Республики Узбекистан. (2023, November 30). Постановление Президента №ПП–381 “О мерах по обеспечению кибербезопасности критической информационной инфраструктуры Республики Узбекистан”. Lex.uz. https://lex.uz/ru/docs/6832810

HARBIY BILIM YURTLARIDA TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA TEST TOPSHIRIQLARINI TO‘G‘RI SHAKLLANTIRISH VA UNING O‘RNI

dotsent Kamborov K.N., PhD, dotsent Mirjalolov O.A.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola test shakllari va ularni to‘g‘ri tuzish masalalariga etibor qaratilgan. Test tuzish ko‘pchilik pedagoglar nazarida juda oddiy ishday tuyulsada, lekin ularni tuzish o‘ziga xos mashaqqatni talab etadi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются тестовые формы и их правильное построение. Хотя создание тестов кажется большинству педагогов простой задачей, на самом деле, это требует особого уровня усилий.

Kalit so’zlar. Test, test shakli, yopiq test, ochiq test, qoida, baholash.

Ключевые слова. Тест, форма теста, закрытый тест, открытый тест, правило, оценка.

Harbiy bilim yurtlarida ta‘limni rivojlantirishda kursantlarning bilimini shaffof aniqlash uchun test, attestatsiya shakllaridan biri sifatida qaralib, kursantlarning ta’lim yutuqlari darajasini:

- nazariy bilimlarini, intellektual ko‘nikmalarini, amaliy ko‘nikmalarni ob‘ektiv ravishda o‘rnatishga imkon beradigan jarayon hisoblanadi.

- test topshiriqlarini tuzishda o‘ziga xos shakllardan foydalanish kerak. Aks xolda har qanday test ko‘rinishidagi topshiriqlar pedagog va kursant vaqtini bexuda sarflashdan boshqa narsa emas. Arastu davridan beri shakl, elementlarning joylashishi yoki tashkil etilishi uchun ideal tamoyil sifatida tushunilgan.

Boshqa bir talqinni I. Kant ilgari surgan, unga ko‘ra shaklni tartibga solish tamoyili sifatida qaraladi. Mazmun bilan birlashganda shakl vazifaning o‘ziga xos ko‘rinishini beradi, yoki boshqacha aytganda mazmuni ma’lum bir shaklga ega bo‘ladi. Shaklning muhim rolini Gegel estetika bo‘yicha ma‘ruzalarida bir necha bor ta‘kidlagan:

Uning so‘zlari bilan aytganda, shakl “tarkibning ichki ta’rifi”dir [1].

Test topshiriqlarining o‘ziga xos shakli shundaki, test topshiriqlari savollar yoki topshiriqlar emas, balki javoblarga qarab bayonotlar shaklida rost yoki yolg‘on shaklda tuzilgan vazifalardir. An‘anaviy savollar, aksincha, to‘g‘ri yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin emas va ularga javoblar shunchaki noaniq va tushunarsiz bo‘lib, ularning to‘g‘riligini ochib berish, umuman olganda, o‘qituvchilarning intellektual energiya sarflarini talab qiladi. Shu ma‘noda an’anaviy savollar va javoblar texnologik jihatdan rivojlanmagan va shuning uchun ularni testlarga qo‘shmaslik kerak. Ko‘pchilikka test tuzish oddiy holatdek tuyuladi. Aslini olganda haqiqiy test topshiriqlarini shakllantirishga mazmun, shakl va uquv ko‘nikma va bilimlarini birlashtiradigan ijodiy hodisa sifatida qarash kerak. Kursantlar bilimini shafof aniqlashda testlar asosan dasturiy ta‘minotlar yoki nusxalangan qog‘oz variantida olib boriladi.

Test topshiriqlarining asosiy shakllari quyidagilar:

- ✓ yopiq shakli (kursant tayyor javoblardan birini tanlashi kerak bo‘lganda);
- ✓ ochiq shakli (kursant o‘zi javob topib, blankaga yozganda). Yopiq turdagi vazifalar, o‘z navbatida, quyidagilarga bo‘linadi:

1. Bitta javob variantini tanlashingiz mumkin bo‘lgan testlar (ko‘p tanlov). Agar kursant uni to‘g‘ri tanlagan bo‘lsa, javob hisobga olinadi. Variantlar:

✓ oddiy tanlov - 4-5 javobdan bitta to‘g‘ri javob;

✓ taqdim etilganlardan eng to‘g‘ri javobni tanlash.

Shuningdek:

1. Bir nechta javob variantlarini tanlashingiz mumkin bo‘lgan testlar - (muqobil tanlov, belgilash katakchasi). Sinov uchun javobni faqat barcha javoblar to‘g‘ri berilgan taqdirda (qo‘shimcha yoki etishmayotgan narsa yo‘q) yoki har bir to‘g‘ri javob uchun ball qo‘yilgan va har bir noto‘g‘ri javob uchun ball tushirilgan taqdirda hisoblash mumkin.

Variantlar:

✓ qiyin tanlov - 4-5 javobdan ikki yoki undan ko‘p to‘g‘ri javob;

✓ moslikni o‘rnatish (chapda va o‘ngda tegishli tushunchalar berilgan, masalan, gapdagi so‘zlar, umumiy va o‘ziga xos tushunchalar va boshqalar). Kursantga yozishmalar chizish, kompyuterdagi bloklarni sudrab olib, birbiriga joylashtirish va h.k. ishlarni qilish kerak bo‘ladi. Bunga saralash va tasniflash bo‘yicha vazifalar ham kiradi.

Quyidagi variantlarni moslashtirish testlari berilishi mumkin:

- tushunchalar va ta‘riflar;
- matn va rasm;
- mualliflar va iqtiboslar ro‘yxati;
- sanalar va tadbirlar;
- tushunchalar ro‘yxati va ularning xususiyatlari;
- va boshqalar

2. Ketma-ketlikni aniqlash (kursantga to‘g‘ri ketma-ketlikda o‘rnatishi kerak bo‘lgan bir qator tushunchalar, sanalar, so‘zlar taklif etiladi).

Variantlar:

- hodisalarning xronologik ketma-ketligini o‘rnatish;
- mantiqiy ketma-ketlikni o‘rnatish;
- sonlarni o‘sish / tushish tartibida joylashtirish;
- muqobil javob (kursantdan har bir berilgan bayonot uchun Ha-Yo‘q yoki True-False-ni o‘rnatish talab qilinadi).

Ochiq turdagi topshiriqlar:

- kichik iboralar, so‘zlar yoki belgilar bilan yozish - kontekstga qo‘shimcha sifatida. Masalan, tushirib qoldirilgan so‘zni, tinish belgilarini, tushirib qoldirilgan simvolni va boshqalarni kiritish;
- erkin tasnif - kursantga savolga javobni erkin taqdim etish uchun joy beriladi.

Bo‘sh joy belgilar soni bilan cheklanishi mumkin, masalan, 100 yoki 500 belgidan ko‘p bo‘lmagan, 10 ta so‘z va boshqalar. Testlarni tuzish qoidalari test topshirig‘i aniq, tushunarli shakllantirilishi va birma-bir talqin qilinishi kerak. Agar

savol shunday tuzilgan bo‘lsa, uni hamma kursantlarlar ham birdek tushunib eta olmaydilar, so‘zlarni o‘zgartirish kerak.

Misol: Tarmoq xizmatlari firmasi bu ...

Kursantga savol beriladi:

- tarmoq xizmati nima?
- Internetga kirish xizmatlari?
- Avon kabi tarmoq marketing firmasi yoki boshqa biron narsa?

Test vazifasi qisqacha, murakkab jumlalar, keraksiz qatnashuvchi va ergash gaplar, kirish so‘zlaridan foydalanmasdan tuzilishi kerak. Agar vazifada juda ko‘p “qaysi”, “qaerda”,“nima” ko‘p vergul bo‘lsa, uni tushunish va shuning uchun hal qilish qiyin bo‘ladi. Topshiriq takrorlanmasdan, ikki marta inkor qilinmasdan tuzilishi kerak (yo‘q - emas), ammo umuman inkor etishdan saqlanish yaxshiroqdir. **Misol:** Paint elektron jadval dasturi emas.

Javob variantlari: Ha-Yo‘q. Kursant uchun bu savolga javob berish qiyin bo‘ladi, chunki vazifada ham, javobda ham inkor mavjud. Agar savolning o‘zi taklif qilgan bo‘lsa, savolga “shakllantiring”, “ko‘rsating”, “xabar bering” kabi so‘zlarni yozmasligingiz kerak. Masalan: Radioni kash yetgan kishining ismini yozing? “Yozing” so‘zi ortiqcha. Topshiriqlarning so‘zlarini ham, javoblarning so‘zlarini ham kursantga oldindan aytib berish bo‘lmasligi uchun tekshiring. Bitta topshiriqda boshqa topshiriqqa javob berish uchun ishora yo‘qligiga ishonch hosil qiling. Vazifalar aniq noo‘rin javoblardan iborat bo‘lmasligi kerak, bunda kursant darhol to‘g‘ri javobni hisoblab chiqadi. Barcha javoblar tarkib jihatidan ham, hajm jihatidan ham bir xil bo‘lishi kerak. Har bir javobda takrorlangan iboralar savolning matniga kiritilishi kerak. Masalan:

16 sanoq tizimida ……	16 sanoq tizimida nechta raqam va harf bo‘ladi.
a) 8 raqam va 4 harf bo‘ladi.	a) 8 raqam va 4 harf
b) 9 [illegible] 6 harf bo‘ladi.	b) 9 raqam va 6 harf
c) 11 [illegible] 4 harf bo‘ladi.	c) 11 raqam va 4 harf
d) 12 raqam va 2 harf bo‘ladi.	d) 12 raqam va 2 harf

Savolda qimmatli fikrlardan foydalanishga va kursantning sub’ektiv fikriga murojaat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Masalan, “muhim”, “asosiy” so‘zlaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Masalan: Yaxshi fotosuratda eng muhimi nima xisoblanadi?

a) to‘g‘ri ekspozitsiya

b) kadr kompozitsiyasi

c) avtorlik g‘oyasi

d) sahnaning to‘g‘ri yoritilganligi

Topshiriqda gapning boshini tuzish uchun asosiy kalit so‘z (asosiy tushuncha) yaxshiroqdir. Topshiriq yoki qo‘shma gaplar bilan topshiriqni shakllantirishni boshlamaganingiz ma’qul.

Masalan: Qaysi mamlakatlar tarmoq qurilmalar bo‘yicha global YaIM va tovar eksportida eng kam ulushga ega.

To‘g‘ri: Jahon YaIMdagi eng kichik ulush ...

Tasvirlar, diagrammalar, jadvallar va boshqalar bilan birga topshiriqlarni tuzish va variantlarga javob berish maqsadga muvofiqdir. Test natijalari iloji boricha ob’ektiv va ishonchli bo‘lishi uchun etarli miqdordagi topshiriqlarni, shuningdek turli xil darajadagi vazifalarni o‘z ichiga olishi kerak. Bu shuningdek kursantlarning charchoqlarini yo‘q qilishga yordam beradi. Eruditsiya yoki mantiqiy fikrlash asosida javob beradigan savollardan saqlaning, chunki test vazifasi o‘qish va fikrlashni sinash emas, balki ma’lum bir kursantning maxsus bilimlarini, o‘quv materialini bilishlarini sinab ko‘rishdir. Matnlarni bilish (agar kerak bo‘lmasa), asosiy ma’lumotlar, kichik tafsilotlar va hk. haqidagi savollarni chiqarib tashlang. O’qitishning interfaol usullaridan qaysi vaqtda foydalanishni, qaysi mavzularda qanday interfaol usullarni qo’llashni, qanday qilib tashkil etishni, qaysi interfaol usullar axborot texnologiyalari mashg‘ulotlarida ko’proq ijobiy natija berishini o’qituvchi bilishi kerak. Interfaol usullarni yangi mavzuni bayon qilishda, takrorlash va bilimlarni mustahkamlashda ijobiy natija berishi mumkin. [2]

Bizning fikrimizcha bunday testlar to‘plami orqali kursantlar bilimini baholash, ularning faqat masalalarni yozma ko‘rinishda yechish yoki bo‘lmasam test topshiriqlarini topshirish kabi bir yoqlama fikrlashlarini o‘zgartiradi. Bunday turdagi topshiriqlar, kursantlarning har bir o‘tilgan ma’ruzaga puxta tayyorgarlik ko‘rib kelishlariga sabab bo‘ladi. Bunday topshiriqlar to‘plamini turli xil sabablarga ko‘ra darsni o‘tkazib yuborgan kursantlarga darsni mustaqil o‘zlashtirganligini aniqlash sifatida ham qo‘llash mumkin.

Fanlardan test tayyorlash uchun ishlatiladigan bir qancha dasturlar mavjud. Bu dasturlar o‘qituvchilarni test qilish, baholash va baholashni avtomatlashtirish uchun juda foydalidir. Quyida ba‘zi mashhur dasturlar qo‘llaniladi:

- Google Forms, Quizizz, Kahoot, Microsoft Forms, Moodle, Quizlet, My test va boshqa dasturlar mavjud.

Google Forms yordamida so‘rovnomalar, testlar va anketa yaratish mumkin. Javoblar avtomatik ravishda Google Sheets-ga to‘planadi, undan bemalol natijalarni analiz qilish imkoniyati mavjud. Testlar shaxsning intelektual salohiyatini

rivojlantirishga qulay imkoniyat yarratadi. Bunda testlarning natijasini onlayn va real vaqt rejimida javoblarni ko‘rish imkoniyati mavjud. Internet Veb saytlari asosida ishlaydi. Google Forms yordamida test tayyorlash juda oddiy va samarali. Bu platforma yordamida onlayn testlar, so‘rovnomalar, viktorinalar va baholash tizimlarini yaratish mumkin.

Kahoot yordamida interaktiv va viktorina testlarini yaratish mumkin. Bundan tashqari kursantlarda motivatsiya yaratish, bilimini va malakasini oshirish, e‘tiborini jalb qilish uchun o‘yin formatida testlarni yaratish mumkin. Internet Veb saytlari asosida ishlaydi.

Moodle masofaviy ta‘limni tashkillashtirish qulay platforma bo‘lib, testlar, viktorinalar, imtihonlar, onlayin kurslarni yaratish va boshqarish imkonini beradi. Veb, IOS, Android plotformalarda ishlaydi. Bu dasturlar orqali testlar yaratish, kursantlarni baholash va ularning natijalarini tahlil qilish juda oson. Har biri o‘zining afzalliklariga ega va turli ehtiyojlar uchun mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1].Аванесов В.С. “Форма тестовых заданий”. Учебное пособие для учителей школ, лицеев, препадователей вузов и колледжей. 2 изд., переработанное и расширённое. М.: “Центр тестирования”, 2005 г. 156 с.

[2]. Yusupova Sh. B. Maktablarda dasturlash asoslarini o’qitishda interfaol usullardan foydalanish.

[3]. O’zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali “Ijtimoiy sohalarni raqamlashtirishda innovatsion texnologiyalarning o’rni va ahamiyati” respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plam materiallari. 29.05.2020. 243-250 b.

OFITSER-O‘QITUVCHILAR BILIMI, KO‘NIKMASI VA MALAKALARINI TEKSHIRISH VA BAHOLASHNING ZARURIY AHAMIYATI

PhD, dotsent Uzoqov A.M., Narzullayev M.Z.
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ofitser-o‘qituvchilar bilimi, ko‘nikmasi va malakasini tekshirish va baholash ta’lim jarayonining tarkibiy qismidir. Jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikda turlicha funksiyalarni bajarar ekan, tekshirish va baholash ta’lim jarayonining borishiga va natijalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita ta’sir ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: Ofitser, ta’lim, bilim, ko’nikma, malaka, loyiha, mashg’ulot, strategiya, mahorat.

Аннотация. *Проверка знаний, умений, навыков и компетенций офицеров-преподавателей является неотъемлемой частью образова-тельного процесса. Выполняя различные функции боевой и общественно-политической подготовки, проверка знаний и аттестация напрямую и косвенно влияют на ход и результаты образовательного процесса.*

Ключевые слова: Офицер, образование, знания, навыки, квалификация, проект, обучение, стратегия, мастерство.

Ta’lim beruvchi (o‘qituvchi, komandir, murabbiy) o‘z tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi va malakalarini tekshirib borar ekan, avvalambor ularning faoliyatini nazorat qiladi: talabalar nimalarni va qanday o‘rganayapdilar, qanday qiyinchiliklarga duch kelayapdilar, kim qanday yordamga muhtoj va hokazo. Shu bilan birga u tekshirish davomida ta’lim va tarbiya berishni davom ettiradi, ya’ni talabalarga bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlashga, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga, tafakkurini va xotirasini rivojlantirishga, axloqiy-jangovar, hissiy-irodaviy xislatlarini mustahkamlashga va ma’naviy-ma’rifiy barkamolligini ta’minlashga yordam beradi.

Shu bilan bir vaqtda, shaxsiy tarkib tayyorgarligi darajasini tekshirish ta’lim beruvchiga o‘z faoliyati natijasini tanqidiy baholash imkonini beradi. Harbiy xizmatchilar ta’limi jarayonida yo‘l qo‘ygan xatolarini bilish, ularning sabablarini o‘rganish va tuzatish choralarini ko‘rish kelajakda guruhning jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligini yanada yuqori darajaga ko‘tarishga imkon beradi.

Shaxsiy tarkibning bilimi, ko‘nikmasi va malakalarini tekshirish va baholashdan ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun quyidagi pedagogik talablarga rioya qilish shart:

birinchidan, tekshirish ma’lum tizim asosida, har bir mashg‘ulotda amalga oshirishi lozim;

ikinchidan, u bilish xarakteriga ega bo‘lishi, barcha ta’lim oluvchilar uchun qiziqarli va foydali bo‘lishi kerak;

uchinchidan, yakka tartibdagi tekshiruv jamoa (kurs, guruh) tayyorgarligini tekshirish bilan muvofiqlashtirilishi zarur;

to‘rtinchidan, tekshirish har tomonlama, haqqoniy bo‘lishi va turli metodlar bilan amalga oshirilishi muhimdir;

beshinchidan, tekshirish jarayonida talabalarga nisbatan yuksak talabchanlik ko‘rsatish va ularning shaxsiy qadriyatlarini hurmat qilish hamda amaliy yordam berish lozim[1].

Sanab o‘tilgan talablar asosida o‘tkaziladigan tekshirishlar talabalarni o‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatadi. Ta’lim beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan doimiy va ma’lum tizim asosidagi tekshirish ularni mashg‘ulotlarga puxta tayyorlanishga,

ko‘proq mustaqillik va tashabbuskorlik ko‘rsatishga, o‘z harbiy mutaxassisligini ongli ravishda egallashga undab boradi.

O‘zining belgilanishiga va xarakteriga ko‘ra talabalarning bilimi, ko‘nikmasi va malakasini tekshirish boshlang‘ich, joriy, yakuniy va nazorat tekshiruvi kabi turlarga bo‘linadi.

Dastlabki tekshirish guruhga endigina kelgan talabalar, kursantlar va ofiserlarning tayyorgarlik darajasini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi. Bu turdagi tekshirish har bir bo‘ysunuvchi bilan alohida suhbatlashish, mashg‘ulotlarda qatnashish va xizmat vazifalarini bajarish davomida ular harakati va xulqini kuzatish, ba’zi hollarda ma’lum bir vazifalarni bajarishni talab qilish orqali o‘tkazilishi mumkin. Boshlang‘ich tekshirish natijalari ta’lim beruvchi uchun keyingi ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish uchun muhimdir.

Joriy tekshirish ta’lim jarayoni davomida, har bir mashg‘ulotda o‘tkazib turiladi. Bunday tekshirish, bir tomondan, ta’lim oluvchilarning mas’uliyatini oshirsa va mashg‘ulotlarga doimiy ravishda tayyor holda kelishga undasa, ikkinchi tomondan, o‘qituvchiga bo‘ysunuvchilarning o‘quv materialini qay darajada o‘zlashtirayotganlarini kuzatib borishga yordam beradi va zarur hollarda ta’lim jarayoniga kerakli tuzatishlar kiritish lozimligini ko‘rsatadi.

Yakuniy tekshiruv odatda o‘quv yili oxirida, fanni yoxud uning katta bo‘limini o‘rganish tugaganda o‘tkaziladi. U bitiruv va joriy imtihonlari, sinovlar, maxsus tekshiruv mashg‘ulotlari, taktik mashqlar ko‘rinishida va boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Nazorat tekshiruvi guruhlarda, muassasalarda yuqori qo‘mondonlikning rejalari asosida ma’lum davrlarda o‘tkaziladi. Bunday tekshiruvlarning maqsadi shaxsiy tarkibning tayyorgarlik darajasini tekshirish, shuningdek ta’lim jarayonining borishini nazorat qilishdan iboratdir. Nazorat tekshiruvlari reja asosidagi mashg‘ulotlar (mashqlar) jarayonida yoki alohida belgilangan vaqtda o‘tkazilishi mumkin. Saf ko‘riklari ham shunday tekshiruv jumlasiga kiradi.

Ta’lim jarayonining borishi, shaxsiy tarkibning tayyorgarlik darajasi yuqori organlar rejasi asosida o‘tkaziladigan xususiy va ayniqsa inspektorlik tekshiruvi vaqtida tekshiriladi va baholanadi. Bunda guruhlar va qismlar shaxsiy tarkibining faoliyati, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligining tashkil etilishi, jangovar tayyorgarligi darajasi har tomonlama o‘rganiladi va baholanadi[2].

Nazorat va yakuniy tekshiruvlari ta’lim beruvchilar uchun ta’lim jarayoninig borishi, o‘z faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlari haqida ma’lumot olish va keyingi faoliyatida shularni hisobga olish imkonini beradi.

Harbiy xizmatchilar bilimini baholashda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o‘quv fani (savol) bo‘yicha bilimlari hajmi;

- bilimlarining chuqurligi va aniq tizimga solinganligi;

- o‘rganilgan bilimlarni tushunib etganligi, fikrlarining mustaqilligi, qat’iy ishonch bilan bayon etilishi;

- bilimlarining amaliy ahamiyatini tushunib etishi, turli vazifalarni bajarishda qo‘llay olishi[3].

Harbiy xizmatchilarning ko‘nikma va malakalarini baholashda quyidagilar inobatga olinadi:

- ko‘nikma va malakalarning mavjudligi;

- ularning aniqligi va mustahkamligi;

- ko‘nikma va malakalarni turli sharoitlarda qo‘llay olishi;

- yo‘l qo‘yilgan xatolarning miqdori, ularning xarakteri va amaliy faoliyatga ta’siri;

- harakatlarining aniqligi, mustaqilligi, bajarilish tartibi (ketma-ketligi).

Har qanday sharoitda ham baho ob’ektiv va haqqoniy bo‘lishi, ta’lim oluvchilarning bilimi, ko‘nikmasi va malakalariga aniq mos kelishi lozim. Oshirib qo‘yilgan baho bo‘ysunuvchini “erkalatib”, tinchlantirib qo‘yishi, ba’zan esa manmanlikka olib kelishi mumkin. Nohaq pasaytirib qo‘yilgan baho esa talabani ranjitishi, mashg‘ulotlardan ko‘nglini sovutib qo‘yishi mumkin.

Ta’lim oluvchilarning amaliy faoliyatini tahlil qilish talabalar tayyorgarligi darajasini tekshirishning muhim metodi sanaladi. Ofiser o‘z bo‘ysunuvchilarining bilimi, ko‘nikmasi va malakalari haqida nafaqat ularni kuzatish, balki ularning amaliy faoliyati, bajarayotgan ishlari natijalariga qarab ham baho beradi. Masalan, jangovar texnikani boshqarish va qurol-yarog‘lardan foydalanish vaqtida ta’lim oluvchining harakatlari qanchalik to‘g‘ri va aniq bo‘lishi, havfsizlik qoidalariga rioya qilishi, harbiy mulkka ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishi uning bilimi, ko‘nikmasi va malakalari haqida to‘g‘ri tasavvur olishga va haqqoniy baholashga imkon beradi.

Og‘zaki so‘rov tekshirishning keng tarqalgan metodi bo‘lib, bundan ko‘pincha ta’lim oluvchining nazariy bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanaladi. Og‘zaki so‘rov bir qarashda juda oson metodga o‘xshab ko‘rinsada, puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Ta’lim beruvchi tekshirilishi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini aniqlashi, so‘rov paytida beriladigan savollarni mantiqan va mazmunan to‘g‘ri tuzishi lozim.

Tekshirishning og‘zaki so‘rov metodi ta’lim oluvchidan savolni tez idrok etish ko‘nikmasini hosil qilish, ularning xotirasini rivojlantirishga yordam beradi.

Tekshirishning yozma metodi ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlarini tekshirish maqsadida qo‘llaniladi. Yozma tekshirish talabani mantiqiy mushohada qilishga (fikrlash)ga o‘rgatadi, o‘z fikrini yozma ravishda bayon eta olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Test usulida tekshirish keyingi paytlarda ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlarini tekshirish maqsadida keng qo‘lanilmoqda. Biroq tekshirishning bu metodi turli tanqidiy munozaralarga ham sabab bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini ***texnika vositalari yordamida tekshirish*** alohida olingan talabalarning va guruhlarning tayyorgarligini tekshirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Tekshirish vaqtida turli trenajerlardan, kompyuter texnikasidan foydalanish bir tomondan vaqtni va moddiy resurslarni tejash imkonini bersa, boshqa tomondan esa nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikma va malakalardagi kamchiliklarni aniqlash va tuzatish uchun qulaylik yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurulloyev L.L. Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari: Darslik. Buxoro: «Umid» nashriyoti, 2023. - 336 b.

2. Xoliqov I.R. Harbiy pedagogika asoslari moduli: O‘quv qo‘llanma. «Buxoro Determinanti» MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023y.-272 b.

3. Raximov F.B. Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari: Darslik. Buxoro: «Umid» nashriyoti, 2021. - 435 b.

4. Uzoqov A.M. Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari: O‘quv qo‘llanma. - Buxoro: «Kamolot» nashriyoti, 2021. - 371 b.

MALAKALI OFITSER KADRLARNI TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

dotsent Mamaraufov O.A.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya*: Harbiy kadrlar tayyorlash tizimi har qanday mamlakatning milliy xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Zamonaviy geosiyosiy o‘zgarishlar, harbiy texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot urushlari va gibrid tahdidlar sharoitida ofitser kadrlardan doimiy ravishda bilim va ko‘nikmalarini yangilash talab qilinadi. Shu sababli, ofitserlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish mamlakat mudofaa strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. [1].*

Kalit so‘zlar: *Ofitser kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish, innovatsiyalar, harbiy ta’lim, stem fanlari, virtual reallik (vr), kengaytirilgan reallik (ar), axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik, strategik qarorlar qabul qilish, milliy xavfsizlik, Mudofaa strategiyasi*

Аннотация: *Система подготовки военных кадров является ключевым фактором обеспечения национальной безопасности и обороноспособности любой страны. В условиях современных геополитических изменений, стремительного развития военных технологий, информационных войн и гибридных угроз от офицеров требуется постоянное обновление знаний и навыков. Поэтому совершенствование системы подготовки, переподготовки и повышения квалификации офицеров становится одним из приоритетных направлений стратегии национальной обороны.*

Ключевые слова: *Подготовка офицерских кадров, Переподготовка, Повышение квалификации, Инновации, Военное образование, Дисциплины STEM, Виртуальная реальность (VR), Дополненная реальность (AR), Информационные технологии, Кибербезопасность, Принятие стратегических решений, Национальная безопасность, Стратегия обороны*

Ofitser kadrlarni tayyorlash tizimi

Oliy harbiy ta’lim muassasalari ofitserlarning kasbiy salohiyatini shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Bugungi kunda ta’lim jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni, balki zamonaviy qurol-aslahalar bilan ishlash, strategik va taktik qarorlar qabul qilish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini qamrab olishi zarur [2].

Shu bilan birga, milliy g‘oya va vatanparvarlik tarbiyasi ofitser kadrlar tayyorgarligining asosiy ustuni hisoblanadi. Chunki zamonaviy ofitser nafaqat harbiy bilimga, balki yuksak ma’naviyat va rahbarlik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Fan va amaliyot uyg‘unligi – nazariy bilimlar bilan birga taktik mashg‘ulotlar, dala o‘quvlari, simulyatsiya va modellashtirish mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

Milliy va ma’naviy tarbiya – ofitserlarda yuksak mas’uliyat, vatanga sadoqat va rahbarlik qobiliyatini tarbiyalaydi [3].

Qayta tayyorlash tizimi

Zamonaviy sharoitda harbiy xizmatning turli lavozimlarida xizmat qiluvchi ofitserlarning vazifalari muntazam yangilanib bormoqda. Shu bois qayta tayyorlash tizimi:

yangi lavozimga tayinlangan ofitserlar yoki vazifasi almashgan ofitserlar uchun maqsadli qayta tayyorlash kurslar;

xalqaro hamkorlik – xorijiy harbiy akademiyalar tajribasini o‘rganish, qo‘shma o‘quv mashg‘ulotlarda ishtirok etish;

innovatsiyalarni joriy etish – elektron ta’lim platformalari, virtual simulyatorlar, strategik o‘yinlardan foydalanish, simulyatsiya va modellashtirish dasturlarini joriy qilish kabi yo‘nalishlarda takomillashtirilishi maqsadga muvofiqdir [4].

Malaka oshirish jarayoni

Ofitser kadrlarning malakasini oshirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda olib borilishi zarur:

axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik sohasida muntazam seminar va kurslar;

yangi avlod qurol-aslaha va harbiy texnika bilan ishlashni o‘rgatish va ulardan samarali foydalanish;

liderlik, boshqaruv va psixologiya sohalarida bilimlarni yangilash, malaka oshirish;

xorijiy tillarni o‘rgatish orqali ofitserlarning xalqaro hamkorlik salohiyatini kuchaytirish xorijiy tillar va xalqaro hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish [5].

Tizimni takomillashtirish yo‘nalishlari

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, ofitser kadrlar tayyorgarligini yuksaltirishda quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi [6]:

ofitserlarning kasbiy o‘sishi uchun reytingov baholash tizimini– har bir ofitserning kasbiy o‘sishi, bilim va ko‘nikmalarini baholab borishni joriy etish;

tajribali ofitserlarning yosh kadrlar bilan ishlashini ta’minlaydigan ustoz-shogird tizimini kuchaytirish;

harbiy ta’lim jarayonida STEM (Science – ilm, Technology – texnologiya, Engineering – muhandislik, Mathematics – matematika) fanlari va innovatsiyalarning ulushini oshirish;

yagona elektron ma’lumotlar bazasi– ofitserlarning xizmat yo‘li, malaka oshirish tarixi va kelgusi ehtiyojlarini elektron tarzda nazorat qilish orqali ularning xizmat va malaka o‘sish yo‘lini nazorat qilish [7].

STEM fanlarining ahamiyati

Ilm (Science) – harbiy sohada fizika, kimyo, biologiya kabi fanlar zamonaviy qurol-aslaha ishlash prinsiplarini anglash uchun zarur. Masalan, ballistika, kimyoviy va biologik xavfsizlikda ilm fanlari asosiy o‘rin tutadi.

Texnologiya (Technology) – axborot tizimlari, dronlar, sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik sohasida bilim talab qiladi.

Muhandislik (Engineering) – qurol-aslaha va harbiy texnikadan samarali foydalanish, ularni modernizatsiya qilish va xizmat ko‘rsatishda muhim.

Matematika (Mathematics) – aniq hisob-kitoblar, aniqlanish va modellashtirish jarayonlarining asosiy vositasi.

STEM va innovatsiyalarni integratsiya qilish yo‘llari

Harbiy akademiyalarda STEM laboratoriyalari tashkil etish.

Xorijiy harbiy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma dasturlar amalga oshirish.

Ilmiy-tadqiqot markazlarida ofitser kadrlar ishtirokini ta’minlash.

Yagona innovatsion platformalar orqali o‘quv jarayonlarini raqamlashtirish [8].

Innovatsiyalarni joriy qilish zarurati

Zamonaviy harbiy tahdidlar bilan samarali kurashish uchun ta’lim jarayonida innovatsiyalardan foydalanish zarur:

simulyatsiya va modellashtirish dasturlari – real sharoitni o‘rgatish va mashq qilish;

virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari (VR/AR) – taktik mashg‘ulotlarni amaliy yo‘nalishda samarali o‘qitish;

axborot texnologiyalari – ofitserlarning raqamli savodxonligini oshirish, kiberhimoya ko‘nikmalarini shakllantirish;

Innovatsion pedagogik usullar – problemali ta’lim, interaktiv simulyatsiyalar va onlayn kurslar;

virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari (VR/AR) – taktik mashg‘ulotlarni amaliy yo‘nalishda samarali o‘qitish.

Hozirgi zamon harbiy sohasi yangicha o‘qitish metodlari va innovatsiya texnologiyalarini talab qilmoqda. Ana shunday innovatsiyalardan biri — virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalaridir. Ushbu texnologiyalar taktik mashg‘ulotlarni o‘qitishda samarali instrument sifatida xizmat qilib, kursant va ofitserlarni real sharoitga yaqin muhitda tayyorgarlikdan o‘tkazish imkonini beradi [7].

VR/AR texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi afzalliklari

Real muhit modellashtirish – VR texnologiyalari orqali harbiy amaliyotlar real sharoitga yaqin holda o‘rgatiladi. Masalan, shahar sharoitidagi jang, tog‘lik hududlarda harakatlanish, yoki favqulodda holatlarda harakat qilish ssenariylari.

Xavfsizlik – jangovar harakatlarning xavfli elementlarini simulyatsiya qilish mumkin, bu orqali kursantlar xayotiy xavfsizlikni ta’minlagan holda tajriba to‘playdi.

Qayta-qayta mashq qilish imkoniyati – VR mashg‘ulotlari bir xil ssenariyni takror va tahlil qilishga sharoit yaratadi.

Iqtisodiy samaradorlik – qurol-aslaha va texnikadan doimiy foydalanish xarajatlari qisqaradi.

AR texnologiyalarining imkoniyatlari

Jonli muhitda qo‘shimcha ma’lumot berish – AR orqali kursantlar taktik mashg‘ulot vaqtida ekranda aniq koordinatalar, yo‘nalish va topshiriqlarni ko‘ra oladi.

Interaktiv o‘quv jarayoni – real mashg‘ulotlarga qo‘shimcha ravishda virtual ma’lumotlar ulanadi, bu esa bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Komandirlar uchun nazorat vositasi – AR qurilmalari orqali ofitserlar kursantlarning harakatini nazorat qilib, darhol tuzatish kiritishi mumkin.

Xorijiy tajriba

AQSh armiyasi – “Integrated Visual Augmentation System (IVAS)” dasturi orqali VR/AR texnologiyalaridan taktik mashg‘ulotlarda keng foydalanmoqda.

NATO davlatlari – maxsus simulyatsiya markazlarida VR texnologiyalari asosida strategik mashqlar o‘tkaziladi.

Rossiya va Xitoy armiyasi – harbiy akademiyalarda VR simulyatorlaridan havo hujumiga qarshi mudofaa va tankchilik bo‘yicha mashg‘ulotlarda foydalanish yo‘lga qo‘yilgan [9].

O‘zbekiston sharoitida joriy etish imkoniyatlari

Mavjud harbiy akademiya va oliygohlarda VR simulyatsiya markazlari tashkil etish.

Xorijiy harbiy o‘quv muassasalari bilan innovatsiya dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Maxsus AR qurilmalari orqali ofitserlar tayyorgarligini interfaol tarzda nazorat qilish.

Moliyaviy xarajatlarni qisqartirish maqsadida milliy dasturiy ta’minot ishlab chiqish.

Xulosa

Harbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish milliy xavfsizlik va mudofaa qobiliyatini mustahkamlashning eng muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar, xalqaro tajriba va milliy g‘oya asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonlari orqali yuksak bilim va malakaga ega ofitser kadrlar korpusini shakllantirish mumkin. Bu esa mamlakat armiyasining zamonaviy tahdidlarga qarshi samarali kurasha oladigan kuchga aylanishini ta’minlaydi.

Harbiy ta’lim jarayonida STEM fanlari va innovatsiyalarning ulushini oshirish Harbiy kadrlarning intellektual va texnologik jihatdan raqobatbardosh qilish imkonini beradi. Zamonaviy bilim va innovatsiyalarga tayangan ofitser kadrlar har qanday tahdidlarga samarali javob qaytarish salohiyatiga ega bo‘ladi.

Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari (VR/AR) harbiy ta’lim jarayonida taktik mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish, xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy jihatdan tejamkorlikni ta’minlaydi. Ushbu texnologiyalarni joriy etish orqali ofitserlar va kursantlar real sharoitga yaqin muhitda tayyorgarlikdan o‘tadi va bu ularning amaliyotdagi samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. – Toshkent, 2022. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasi” PF-164, 2022 yil.

2. Nazarov Sh. “Harbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish masalalari”. – Toshkent: Mudofaa nashriyoti, 2021.

3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

4. Mirzaev A., Toshpo‘latov B. “Zamonaviy harbiy ta’limda innovatsiya texnologiyalari”. – “Harbiy bilimlar jurnali”, №3, 2020.

5. “International Military Education and Training Programs: Comparative Experience”. – NATO Review, 2019.

6. Abduraxmonov Q. “Harbiy kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish yo‘llari”. – Toshkent: Akademiya, 2023.

7. B. “Military Education and VR/AR Technologies: Perspectives and Challenges”. – Central Asian Journal of Military Studies, №1, 2023.

8. NATO Review. “Innovation and Military Education”. – Brussels, 2020.

NATO Review. “The Future Soldier: Virtual and Augmented Reality in Training”. – Brussels, 2021.

9. Abdukhalilov B. “STEM education in military academies: international experience and perspectives”. – Central Asian Journal of Military Studies, №2, 2022.

HARBIY XIZMATCHILAR TA’LIMI JARAYONINING ASOSIY QISMLARI VA TA’LIMI PRINSIPLARI

dotsent Xudayarov A.Sh.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya: *Harbiy xizmatchilarning ta’limi jarayonining sifati uning mantiqiy asoslari bilan belgilanadi. Ular – maqsad, topshiriq, vazifa, qonuniyat, muhokama kabilar. Har taraflama analiz qilish uchun ushbu jarayonining asosiy elementlarini birma bir tahlil qilamiz. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: maqsad, ta’lim sub’ekti(bilim oluvchi), ta’lim mazmuni, uslublari, ta’lim shakli, mashg‘ulot turi, o‘quv jarayonining mazmuniy metodik va tashkiliy ta’minoti, ta’lim natijasi, tekshiruv-baholash jarayoni, to‘g‘ri va qarshi aloqa.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim jarayoni, O‘quv materialini turli, O‘quv rejasi, tinglovchilar bilim, ko‘nikma, malaka bilan qurollantiriladi, Anglash, Fikrlash, Idrok, perseptiv, Ta’lim jarayonini diagnostika, Ta’limi prinsiplari.*

Аннотация: *Качество процесса воспитания военнослужащих определяется его обоснованием. Это цели, задания, задачи, законность, дискуссии. Мы проанализируем основные элементы этого процесса один за другим для всестороннего анализа. К ним относятся: цель, предмет образования (обучаемый), содержание образования, методы, форма обучения, тип обучения, содержательное методическое и организационное обеспечение образовательного процесса, результат обучения, процесс оценивания, положительная и отрицательная обратная связь.*

Ключевые слова: *Учебный процесс, Различные виды учебного материала, Учебная программа, учащиеся оснащены знаниями, умениями,*

компетентностью, Понимание, Мышление, Восприятие, перцептивность, Диагностика учебного процесса, Принципы обучения.

Ta’lim jarayoni quyidagilarni nazarda tutadi:

vaziyatni analiz qilish, ta’lim maqsadini aniqlash va to‘g‘ri qo‘yish;

o‘quv ishlarini rejalashtirish va tashkillashtirish, mohiyatini aniqlash va o‘quv maqsadiga yetish uchun lozim metodlarni va o‘quv jihozlarini belgilash;

o‘quv materialini turli yo‘llar va vositalar orqali yetkazish va uni qabul qilish;

qarshi aloqa, nazorat ishlari;

analiz, o‘z-o‘zini tekshirish, ta’lim natijasining bahosi va boshqalar.

Eslab

– o‘quv faoliyatining taxmin qilinayotgan natijasi bo‘lib, oldindan rejalashtirilgan kutilayotgan ijobiy

Maqsadga erishish uchun ongli ravishda maqsad qo‘yib, uzoq vaqt intilib, rejali tashkillashtirgan holda faoliyat olib borish lozim. Bu shunchaki o‘ylab topilmaydi, aksincha qo‘shin tayyorgarligi talablaridan kelib chiqib qo‘yiladi. Harbiy xizmatchilarni o‘qitish davomida o‘quv maqsadi turlicha tanlanadi. Masalan, bosh maqsad, umumiy maqsad, fanni o‘rganishdan maqsad.

Bosh maqsad – harbiy xizmatchilarning xizmat topshiriqlari va vazifalarini sifatli bajarishlarini ta’minlovchi harbiy kasbiy tayyorgarligi.

Umumiy maqsad – bu maqsad butun ta’lim jarayonida mutaxassislik uchun o‘rganiladigan o‘quv fanlarini o‘zlashtirishga qaratilgan.

Fanni o‘rganishdan maqsad – ta’limning turli bosqichlarida mazkur fanni o‘zlashtirish davomida o‘rganish, bilish lozim bo‘lgan vazifalar, topshiriqlar bilan bog‘liq maqsad.

Xususiy maqsad – o‘quv fanining aniq bir bo‘limi, mavzusini o‘zlashtirishga qaratilgan maqsad.

Maqsadni to‘g‘ri qo‘yish o‘qitishning shakl va metodlarini, kerakli materiallarni to‘g‘ri tanlash imkonini beradi [1].

Tinglovchilarning tayyorgarligida asosiy rolni ***ta’lim beruvchi*** (komandir, boshliq, tarbiyachi, yo‘riqchi...) o‘ynaydi. Uning asosiy pedagogik vazifalari quyidagilardan iborat:

bo‘ysunuvchilar o‘quv faoliyatini tashkillashtirish;

o‘quv materialini tizimli berish va jangovar texnikalar, qurollarni maqsadli ko‘rsatish;

o‘quv jarayoniga tinglovchilarning qiziqishlarini oshirish, ularda harbiy kasbiy motivlarni shakllantirish;

tinglovchilarda mustaqil ta’lim olish va kasbiy ko‘nikma va malakalarni oshirishni shakllantirish;

tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini, kasbiy sifatlarini tekshirish va baholash.

Ta’lim beruvchi mashg‘ulotni tashkillashtiruvchi va boshqaruvchi sifatida masalalarni hal qiladi. U turli maqbul shakl va metodlar, usullar bilan kerakli bilimlarni yetkazadi. Tinglovchilar esa bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash bilan bir qatorda tafakkur qilish, harbiy xarakter va irodasi ham mustahkamlanib boradi. Shuningdek, ularda axloqiy-ruhiy sifatlar, hissiy-irodaviy chidamlilik, psixologik tayyorgarlik ham shakllanib boradi.

Harbiy ta’lim jarayonining yana bir muhim bo‘lagi – bilim oluvchi. Bugungi kun tinglovchilari tez fikrlovchi, turli dunyoqarashli, o‘z fikrini himoya qiluvchi va olg‘a suruvchi, talabchanligi bilan farq qiladi. Shuning uchun bugun ta’limda bilim beruvchi va oluvchining o‘zaro munosabati, ularning ta’lim jarayonidagi vazifalari ham o‘zgarib bormoqda (1-jadval) [2].

1-jadval. ***Ta’lim ishtirokchilarining vazifalari***

Bilim beruvchining vazifalari	*Bilim oluvchining vazifalari*
Ta’lim maqsadi va vazifalarni tushuntirish va ijobiy motivatsiya uyg‘otish	Ta’limning maqsadini to‘g‘ri anglash uchun shaxsiy tashabbus bilan chiqish
Tinglovchilarni yangi bilimlar bilan qurollantirish	Yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash
Mustaqil fikrlash, tafakkur qilishga o‘rgatish	Har bir ma’lumotga baho berish
Yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayonini boshqarish	Analiz, sintez, taqqoslash, tizimlashtirishni bilish
Ilmiy qonun va qonuniyatlarni o‘zlashtirish-larini boshqarish va yo‘naltirish	Ilmiy qonun va qonuniyatlarni o‘zlashtirish, sabab va oqibatlarni tahlil qilish
Nazariyadan amaliyotga o‘tish jarayonini boshqarish	Ko‘nikma va malakalarni tizimlashtirish
Bilim oluvchilarning ijodiy faoliyatini, mustaqil ta’lim olishlarini boshqarish	Muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qila olish va mustaqil faoliyat olib borish
Tinglovchilarning bilim va ko‘nikmalarini tekshirish va baholash.	Erishigan yutuklarini tahlil qilish, o‘zini nazorat qilish

Ta’lim mazmuni – bu harbiy xizmatchi xizmat (o‘qish) jarayonida egallaydigan bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimi.Ta’lim mazmuniga qo‘yilgan asosiy talab - harbiy xizmatchining yuksak darajadagi harbiy-professional tayyorgarligiga qo‘yilgan zamonaviy talablarga to‘liq javob berishdir. Ta’lim jarayonida o‘zlashtirilayotgan bilim, ko‘nikma, malakalar alal oqibat harbiy va jangovar mahoratga aylanadi. Bunga esa turli ijtimoiy-gumanitar, otish tayyorgarligi, maxsus-taktik, taktik, texnik, jismoniy va saf tayyorgarligi kabi fanlarni o‘qitish orqali erishiladi.

Ta’limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Harbiy ta’limning mazmuni deganda, kursantlarning o‘qish jarayonida egallab olishi lozim bo‘lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko‘nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Harbiy ta’limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

1. Qurolli Kuchlar tizimining eng zarur extiyojlari, tuzimning xususiyatlari.

2.Davlatning harbiy ta’lim va muayyan turdagi o‘quv yurti oldiga qo‘yadigan maqsad va vazifalar.

3.O‘qitish qoidalaridan kelib chikadigan va bilim oluvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e’tiborga oluvchi didaktik talablar.

4. Mintaqaviy siyosiy vaziyat talablari.

Ta’lim mazmuni o‘quv rejasi, o‘quv dasturi va darsliklarda ifodalanadi.

Eslab қолин

***O‘QUV REJASI* - deb, o‘qitiladigan fanlar, o‘qitish uchun ajratilgan soatlar va o‘quv yilini tuzilishini**

O‘quv rejasi – barcha ta’lim muassasalarida so‘zsiz amal qilinishi lozim bo‘lgan davlat xujjatidir. Unda kurslar bo‘yicha o‘rganilishi lozim bo‘lgan o‘quv fanlari va o‘sha fanlar uchun ajratilgan o‘quv soatlari ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Ta’lim muassasasining yagona o‘quv rejasi Mudofaa vazirligi tamonidan tasdiqlanadi [3].


Eslab

***O‘QUV DASTURI* – o‘quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O‘quv dasturi xar bir o‘quv fanining o‘qitish uchun ajratilgan bilim xajmi, tizimi va g‘oyaviy – siyosiy yo‘nalishini aniqlab beradigan davlat xujjatidir.**

O‘quv dasturida o‘quv yili davomida xar qaysi kursda alohida fanlar bo‘yicha bilim oluvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o‘quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma’lum mavzular orqali ko‘rsatiladi. Ma’lum mavzu yuzasidan bilim oluvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi.

Darslik – o‘quv jarayonining zarur qismidir. Ko‘p vaqtlardan beri u o‘qitishning eng muhim vositasi hisoblanar edi.

Har bir o‘quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi.



Darsliklar bilan bir qatorda ayrim fanlardan o‘quv qo‘llanmalar xam tuziladi. Masalalar va mashqlar to‘plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug‘at kitoblari vash u kabilarni misol qilib keltirish mumkin [4].

Kursantlar darslik va o‘quv qo‘llanmalardan darsda, mustaqil tayyorgarlikda foydalanadilar. Darslik materiali katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U bilan ishlash tarbiyalanuvchilarning aqliy tarbiyasiga, ularda ilmiy dunyoqarashning, axloq, odob, tafakkurning, nutqning, ishdagi mustaqilligini rivojlanishiga yordam beradi.

Bulardan tashqari **monografiya**lar ham kursantlarga ilmiy bilim olishga yordamchi qo‘llanma bo‘ladi. Monografiya yakka shaxs tomonidan yaratilgan, birgina muhim bo‘lgan muammoni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy asar. Monografiya ma’lum bir mavzularni chuqur o‘rganish jarayonida tinglovchilarni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlaydi.

Harbiy xizmatchilarni o‘qitish **metodlari** – *ta’lim beruvchi va oluvchining birgalikdagi faoliyati usullari bo‘lib, bu orqali dars maqsadiga erishiladi, tinglovchilar bilim, ko‘nikma, malaka bilan qurollantiriladi*, urush va tinchlik zamonida harbiy xizmatchilarni qiyin vazifalarni bajarishga, nostandart vaziyatlarda tafakkur bilan yo‘l tutishga o‘rgatadi.

Hozirgi zamon harbiy ta’lim jarayonida o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish, o‘rganilgan materialni tahlil qilish, ko‘rsatish, mashq qilish, amaliy mashg‘ulot, mustaqil ish kabi turli klassik metodlar bilan birga interfaol metodlar keng qo‘llanilmoqda.


Usul – bu metodning bir qismi, yoki uning alohida bir tomoni, o‘xshash bo‘lagi yoki uning modifikatsiyasi. Alohida usulni turli metodlar bilan qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Ta’lim vositasi – maxsus ishlab chiqilgan o‘quv materiali, o‘quv jihozi, texnika vositalari hisoblanadi.

O‘qitishda kerak bo‘ladigan eng muhim vositalarga o‘qituvchining nutqi, mimikasi, jesti; o‘quv vositalaridan kitob, ko‘rgazma vositalari, axborot ma’lumotlari, audiovizual apparatlar; kompyuter texnologiyalarida tayyorlangan materiallar, didaktik materiallar, laboratoriya vositalari va boshqalar kiradi.

Ta’limning tashkilish **shakllari** – bu o‘quv jarayonini tashkillashtirishning tashqi tuzilishi. *Aniq qabul qilingan tartib va rejada ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyatini namoyon bo‘lishi*. Ta’lim oluvchilarning tarkibi va soni, o‘quv joyi mashg‘ulotning muddatiga qarab ta’lim shakllari individual, guruhiy, sinf, sinfdan tashqari shakllarga ajratiladi. Albatta ta’limning yakuniy natijasi kafolatlanishi lozim [5].

Psixologik-pedagogik aspektda bilim dialektik jarayon bo‘lib u o‘zida quyidagilarni aks ettiradi:




1. *Anglash* - masalani muhimligini, ahamiyatini bilish.

2. *Idrok* - bor bilimlar, dunyoqarash asosida o‘quv materiallarini bir butun holda aks ettirish. Turli tinglovchilar ma’lumotlarni turlicha qabul qilishadi.

3. *Fikrlash* – materialni o‘rganib, fikr yuritib uni ijodiy qayta ishlash, muhimlarini ajratish, umumlashtirish.

4. *O‘quv materialini eslab qolish*.

5. *Bilimlarni qo‘llay olish*



Ko‘nikma hosil bo‘lishi uchun olingan bilimlar amaliy bajariladi va bu doimiy takrorlash orqali ko‘nikmaga aylanadi.

Ko‘nikma o‘z ichida quyidagicha farqlanadi:

perseptiv (sensor) ko‘nikma – yaxshi tanish bo‘lgan, doimiy qo‘llaniladigan predmetning avtomatlashgan hissiy aks ettirish. Perseptiv ko‘nikma asosan ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish analizatorlari yordamida o‘zlashtiriladi. Ya’ni masofani mo‘ljalga olish, zaharli moddaning hidi yoki ta’miga qarab aniqlash, tovushni eshitib u nimaning yoki kimning harakati haqida ma’lumot berishini bilish kabi ko‘nikmalar hosil bo‘ladi.

aqliy (intellektual) ko‘nikma – oldin bajarilgan topshiriqlarni yana bajarish lozim bo‘lganida qo‘llaniladigan avtomatlashgan yechimlari, bajarish usullari. Aqliy ko‘nikmalar o‘ylab bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni tezda yechimini topish, belgilarga qarab vaziyatni aniqlash, jangovar harakat rejasini tuzish, taktik harakatlar chizmalarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

harakat ko‘nikmalari – oldindan ko‘p bora takrorlangan harakatlar. Masalan o‘q otish qurolini ochib yopish texnikasi. Harakat ko‘nikmalari aqliy va perseptiv ko‘nikmalar bilan birgalikda rivojlanadi. Harakat ko‘nikmalarini tayanch-harakat sezgilari retseptorlari orqali o‘zlashtiriladi. Masalan, jismoniy mashqlar harakatlari,

Eslab qoling

MALAKA – bu anglangan aniq harakatlarni bajara olish. Olingan bilim va orttirilgan ko‘nikmalar asosida ma’lum faoliyatni puxta, qiyinchiliklarsiz amalga oshira olish jarayoni

jangovar tayyorgarlik mashqlari elementlari, akop qazish, qurollarni o‘qlash [5]. Malaka ham aqliy, ham jismoniy bo‘ladi. Ko‘nikmadan farqli ravishda malaka maxsus mashqlarni takrorlamasdan ham, ilmiy-nazariy bilimlarni egallamasdan ham orttirilishi mumkin.

Harbiy xizmatchining muhim kasbiy sifatlari – bu harbiy faoliyat jarayonida, kasbiy vazifalarni amalga oshirish mobaynida mukammallashib boruvchi harbiy xizmatchini harbiy professional sifatida namoyon etuvchi ko‘rsatgichdir.

Ta’lim jarayonini diagnostika qilish – bilim olish va uni amalda qo‘llash, qayta ishlash maqsadini amalga oshiruvchi harbiy pedagogik jarayonni rejalashtirish, borishi va natijasini doimiy o‘rganib, tahlil qilish. Diagnostika o‘z ichiga nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma’lumotlarni o‘rganish, ularni analiz qilish, o‘sish jarayonini aniqlash, muammolari va natijalarini o‘rganish kabilarni qamrab oladi. Harbiy ta’lim jarayonida harbiy xizmatchilarning amaliy faoliyat davomidagi ko‘rsatkichlari natijalari, yutuqlari asosiy baho ko‘rsatkichi bo‘ladi.

Demak harbiy xizmatchilarning ta’limi jarayoni asoslanganlik, ko‘pfunksiyali, fundamental va amaliy yo‘nalishli bo‘lib, bu juda murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Uning bu jihatlari uni tashkillashtirish, metodikasi, amaliyotini mukammal tashkil etishni taqozo etadi.

Ko‘rilgan maqsad, vazifa,qonun va qonuniyatlari ta’lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirishning asoslarini belgilaydi. Ular nazariy asos bo‘lib o‘qitish texnologiyalari orqali amalga oshiriladi.

Yangi asr o‘zining shiddatkorligi, texnika va kibernetikaning mislsiz tezligi bilan xarakterli. Jumladan harbiy texnik sanoat va ilmiy kashfiyotlar takomillashuvi ham tobora tezlashib bormoqda.

2-jadval. Ta’lim oluvchini rivojlantirish prinsipi.



Zamonaviy harbiy ta’lim talablaridan biri barcha ilmiy bilimlarni egallagan shaklan mukammal ofitserni emas, barcha ilmiy yangiliklarning mohiyatini anglagan va keng fikr yurituvchi, mukammal tafakkur qila oladigan harbiy xizmatchini shakllantirishdir. Ta’lim oluvchilarni ertangi bilimlarni egallashga tayyorlash, tafakkurini rivojlantirib borish, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qila oladigan qilib tayyorlash zaruriyati bor.

Rivojlantiruvchi ta’lim prinsipining mohiyati ham aynan ana shundan iborat. Bilim berish jarayonida ta’lim oluvchilarni nafaqat bugungi kundagi isbotlangan faktlarni o‘rganishga, balki nazariy jihatdan fanning rivojlanish istiqbollarini ko‘ra bilishga tayyorlab borish lozim [6].

Xulosa: Hozirgi globallashuv jarayonida mamlakatimiz mudofaa tizimini yuksaltirish va xavfsizlikni ta’minlashni yanada mustahkamlash maqsadida harbiy bilim yurtlarida o‘tilayotgan fanlarning mazmun va mohiyatiga e’tibor berish hamda sifat jihatdan takomillashtirish davr talabi hisoblanadi.

Harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchi kadrlarini sifatli tayyorlash va qayta tayyorlash eng muhim masalalardan bo‘lib, professor-o‘qituvchilar tarkibining kasbiy salohiyatini oshirishda, mashg‘ulotlar samaradorligini ta’minlashda pedagogik va psixologik bilimlarning roli katta.

Bugungi kursantlar ertangi kunning bunyodkorlari, vatanparvarlari, harbiy jamoalarni boshqaruvchi ofitserlar bo‘lib yetishishi kerakligini hisobga olsak, ulardagi bilimdonlik darajasi va ko‘lamining keng bo‘lishining ahamiyati beqiyosdir. Buni esa o‘qituvchilar ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1].Q.Nazarov. O‘zbek falsafasi. –T., 2003.

[2].X. Ibragimov, Sh. Abdullaeva. Pedagogika nazariyasi. T., “Fan va texnologiya”, 2008, 288 bet.

[3].Sotib-Oldiev A., Karimjonov A. Harbiy pedagogika. - T.: Sharq, 2005. -256 b.

[4]. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent, Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2005 y.

[5]. Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. –T.: O‘qituvchi, 1997. -232 b.

[6].Ibragimov X. Pedagogik psixologiya. –T.: o‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. -400 b.

RADIOELEKTRON KURASH MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

dotsent Yakubov X.U.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Dushman qo‘shinlari (kuchlari) va qurollarini boshqarish tizimlarini aniqlash, radioelektron himoya choralarining samaradorligini kompleks texnik nazorat qilish, dushman razvedkasining texnik vositalariga qarshi kurashish va o‘z qo‘shinlari (kuchlari)ni niqoblash uchun avtomatlashtirilgan radioelektron kurash komplekslari tomonidan jangovar vazifalarni bajarishda sun’iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari va ustunliklari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, sun’iy intellekt texnologiyalari, radioelektron kurash, qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnika, kognitiv vazifalar, radioelektron obyektlar, radionurlanish manbalari, inson-operator.*

Аннотация. *Обоснованы преимущества и достоинства технологий искусственного интеллекта при выполнении боевых задач автоматизированными комплексами радиоэлектронной борьбы по выявлению систем управления войсками (силами) и оружием противника и комплексного*

технического контроля эффективности мероприятий радиоэлектронной защиты, противодействия техническим средствам разведки противника и маскировки своих войск (сил).

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, технологии искусственного интеллекта, радиоэлектронная борьба, вооружение, военная и специальная техника, когнитивные задачи, радиоэлектронные объекты, источники радиоизлучений, человек-оператор.*

Fan va texnika taraqqiyotining zamonaviy tendentsiyalari inson faoliyatining turli sohalariga intellektual tizimlarni keng joriy etish bilan tavsiflanmoqda. Ushbu yondashuv iqtisodiyotning yuqori texnologiyali sektorlarida jarayonlar samaradorligini bir necha barobar oshirayotganini ko‘rsatmoqda. Bu ayniqsa, jamoat xavfsizligi va boshqa sohalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Harbiy fan va texnikani rivojlantirishning eng muhim jihatlaridan biri, jahonning yetakchi armiyalari harbiy-siyosiy rahbariyatining fikriga ko‘ra, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini (SIT) qo‘llashdir. Masalan, AQSH oliy harbiy rahbariyatining "Elektromagnit spektrda ustunlikka erishish strategiyasi" (2020) da keltirilgan qarashlariga ko‘ra, SITni mavjud va yangi harbiy texnika namunalariga integratsiyalash vazifalaridan biri hisoblanadi1. Xitoy Kommunistik partiyasi raisi ham SITni davlat hayotining barcha sohalariga, shu jumladan mudofaa sohasiga joriy etish muhimligini bir necha bor ta’kidlagan [1].

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti, Qurolli Kuchlar oliy bosh qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev 21-fevral kuni harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasini mustahkamlash masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. O‘zbekistonda sun’iy intellekt bilan ishlaydigan kibertuzilma va dronlar hamda ularga qarshi kurash bo‘yicha yangi bo‘linmalar tuzilishi vazifasi qo‘yildi [2,3,4].

Shunday qilib, SITni texnik tizimda amalga oshirishga imkon beradigan metodologik va algoritmik yechimlar to‘plami sifatida ta’riflash mumkin.

Sun’iy intellekt falsafasi SIT rivojlanishining quyidagi bosqichlarini talqin qiladi:

zaif sun’iy intellekt (Artificial Narrow Intelligence) - muayyan kontekstda bir yoki tor doiradagi vazifalarni hal qilish imkonini beruvchi texnologiyalar (cheklangan kognitiv funksiyalar);

kuchli sun’iy intellekt (Artificial General Intelligence) - keng doiradagi kontekstlarda keng ko‘lamli vazifalarni hal qilish imkonini beruvchi texnologiyalar (universal kognitiv funksiyalar);

super sun’iy intellekt (Sun’iy Super Intellekt) - barcha kontekstlar diapazonidagi barcha muammolarni hal qilish imkonini beruvchi texnologiyalar (yuqori darajadagi kognitiv funksiyalar).

Intellektual vazifalarning butun doirasini uchta asosiy guruhga bo‘lish qabul qilingan - axborotni idrok etish, axborotni tushunish (qaror qabul qilish) va harakat (qarorni amalga oshirish). Zaif sun’iy intellektga nisbatan ma’lum bir kontekstda ma’lum bir kognitiv (intellektual) funksiyani amalga oshirish, SIT asosida yotgan matematik terminologiyaga o‘xshashlik bo‘yicha, vazifa, natija esa yechim deb atash qabul qilingan.



1-rasm. Zamonaviy jangovar harakatlarda suniy intelektning qo‘llanilishi.

Shuni tushunish muhimki, SITlar mutlaqo yangi va o‘rganilmagan narsa emas. O‘tgan asrning 50-yillarida Alan Tyuring tomonidan aqlli hisoblash mashinalari tamoyillari tavsiflangan. Neyron tarmoqlari texnologiyasining asoslari 1957-yilda Frenk Rozenblatt tomonidan perseptron nomi ostida shakllantirilgan, 1958-yilda esa u 20 x 20 pikselli tasvirlarda eng sodda geometrik shakllarni taniy oladigan ibtidoiy qurilmani yaratdi6. Keyinchalik, 70-yillarda zamonaviy qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimlari (QQQT), kredit skoringi va tibbiy diagnostika algoritmlari asosida yotuvchi hal qiluvchi daraxtlar induksiyasiga bag‘ishlangan nazariy va amaliy ishlar paydo bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda kuchli va ayniqsa super sun’iy intellektni amalga oshirishga imkon beradigan texnologiyalar nazariy rivojlanish bosqichida va turli hisob-kitoblarga ko‘ra, amaliyotga joriy etilgunga qadar o‘nlab-yuzlab yillar oralig‘ida. Shu bilan birga, zaif sun’iy intellekt texnologiyalari allaqachon chuqur ilmiy asosga va keng amaliy qo‘llanishga ega. Shunday qilib, maqsadlarni mustaqil ravishda aniqlash, rejalashtirish va boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan sun’iy intellektning jangovar tizimlarini yaratish haqida jangovar harakatlar, hozircha faqat nazariy muhokamalar davom etmoqda.

Radioelektron kurash (REK) jangovar ta’minotning eng ko‘p ilm talab qiladigan va texnologik turi sifatida sun’iy intellekt sohasidagi eng so‘nggi yutuqlarni joriy etishga juda muhtoj. SITni qo‘llash sohasi qo‘shinlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari (QBAT) bilan chegaralanadi, ularda har qanday hisoblash tizimlariga yordamchi hisob-kitoblarni o‘tkazish va axborot almashish vazifalari yuklanadi, degan fikr noto‘g‘ri deb hisoblanishi kerak. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bir xil turdagi, ko‘p marta takrorlanadigan kognitiv vazifalarni operatorlardan SITga o‘tkazish natijalarni olish tezkorligi va aniqligini bir necha bor oshirishni ta’minlaydi [5].

Inson-operator va SIT bilan hisoblash majmuasining bir xil turdagi ko‘p martalik muammolarni hal qilishdagi imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish axborotni idrok etishning takrorlanuvchi kognitiv vazifalari ikkinchisining quyidagi afzalliklarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi:

sun’iy neyron tarmoqlar tasvirlarni (tasvirdagi obyektlarni) tanib olish aniqligi bo‘yicha hozirgi vaqtda inson imkoniyatlaridan ustunlik qilmoqda;

inson-operatordan farqli o‘laroq, SIT bilan hisoblash kompleksi bir xil vazifani 24 soat davomida sifatini yo‘qotmasdan uzluksiz bajarishi mumkin;

SIT bilan hisoblash kompleksi subyektiv izmga moyil emas va obyektlarni siyosiy, ijtimoiy va boshqa insonga bog‘liq omillardan qat’i nazar, bir xil aniqlikda tasniflaydi;

har qanday o‘qitilgan SIT qisqa vaqt ichida istalgan zarur miqdoriy-parallel ravishda ishlaydigan hisoblash komplekslarini, shu bilan birga zarur miqdordagi odam-operatorlarni sezilarli darajada uzoqroq muddat davomida o‘qitish kerak;

o‘qitilgan SIT nusxasi natijalarining sifati asl nusxaga aniq mos keladi va individual xususiyatlarga ega emas, har bir operator-inson esa noyob va oldindan bashorat qilish qiyin bo‘lgan o‘zining individual samaradorligiga ega;

inson-operator tomonidan natijani taqdim etishning tezkorligi inson organizmining biologik tizim sifatida ishlash xususiyatlari bilan cheklangan, SIT natijalarini taqdim etishning tezkorligi faqat hisoblash va aloqa tizimlarining xususiyatlari bilan cheklangan va hozirgi vaqtda sezilarli darajada yuqori.

Shunday qilib, boshqaruv jarayoniga qo‘yiladigan talablar majmuasi (aniqlik, tezkorlik, uzluksizlik, maxfiylik) bo‘yicha, REK kompleksini boshqarish kontekstida, SITni idrok etishning kognitiv vazifalari spektri inson-operatorga qaraganda ancha samaraliroq hal qilinadi. Binobarin, dushman qo‘shinlari (kuchlari) va qurollarini boshqarish tizimlarining radioelektron obyektlarini (REO) aniqlash va radioelektron himoya tadbirlarining samaradorligini kompleks texnik nazorat qilish (KTK), dushman razvedkasining texnik vositalariga qarshi turish va o‘z qo‘shinlari (kuchlari) ni niqoblash uchun avtomatlashtirilgan REK komplekslarida SITni qo‘llash razvedka

bo‘yicha REK va KTK bo‘linmalarining jangovar imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishni ta’minlaydi.

Demak, axborotni idrok etishning kognitiv masalalarini yechishga qodir bo‘lgan SITlarni REK komplekslariga kiritish reaksiya tezligi, diqqatni uzoq vaqt jamlay olmaslik, operator tomonidan idrok etiladigan va eslab qolinadigan axborot hajmining cheklanganligi va shu kabi biologik cheklovlarni chetlab o‘tish imkonini beradi. Bundan tashqari, tor ixtisoslikdagi mutaxassislarga (tarjimonlar, kriptotahlilchilar va boshqalar) bo‘lgan ehtiyoj kamayadi, bu esa yakunda jangovar imkoniyatlarning sezilarli darajada oshishini va umuman REK kuch va vositalarini qo‘llash samaradorligini ta’minlaydi.

Axborotni idrok etish va tushunishning kognitiv vazifalari majmuini ko‘proq radioelektron vaziyatni (REV) baholashda hal qilish talab etiladi, shu bilan birga, jang maydonining radioelektron vositalar bilan tobora ko‘proq to‘yinishi, aloqa va boshqaruv vositalari nomenklaturasining kengayishi, doimiy ravishda takomillashib borayotgan uchuvchisiz va robototexnik komplekslarni joriy etish hisobiga qurolli kurash vositalarini takomillashtirish bunday vazifalar soni va murakkabligining keskin o‘sishiga olib kelmoqda. REVni baholash sifati va to‘liqligi qayta ishlangan axborot hajmiga, tezkor-taktik hisob-kitoblarni amalga oshirish usullariga bevosita bog‘liq. Axborotni dastlabki qayta ishlash, uni tasniflash, toifalash va tekshirish uchun SITni qo‘llash REVni baholash vaqtini 40 - 60% ga qisqartirish imkonini beradi. SITni tezkor-taktik hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun dasturiy ta’minotga integratsiyalash radioelektron muhitning miqdoriy va sifat xususiyatlarini eng aniq hisoblash va sezilarli darajada qisqa vaqt ichida vizual tasavvurni shakllantirish imkonini beradi.

Boshqaruv siklining keyingi bosqichlari, masalan, REKni tashkillashtirish tartibini belgilash, o‘zaro hamkorlikni rejalashtirish va tashkil etish kamroq darajada operativ-taktik hisob-kitoblar o‘tkazishga bog‘liq. Shu bilan birga, jangovar harakatlarni kompyuterda modellashtirish hamda turli qo‘shin turlari va turlaridagi kuch va vositalarning o‘zaro hamkorligini puxta tashkil etishning obyektiv zarurati o‘tkazilayotgan tezkor-taktik hisob-kitoblarning aniqligiga bo‘lgan talablarni oshirmoqda. Demak, zaif sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish boshqaruv siklini umuman 30 - 50% ga qisqartirish, REVni baholash va REK kuchlari va vositalarini jangovar qo‘llashni modellashtirish aniqligini 50 - 80% ga oshirish imkonini beradi.

Harakatning kognitiv vazifalarini alohida ko‘rib chiqish kerak. Sun’iy intellekt tomonidan qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan huquqiy, axloqiy va ma’naviy ziddiyatlar hal etilmaganligi sababli, qaror qabul qilish funksiyasini faqat insonga yuklash mumkin. Biroq, SITni qo‘llash zamonaviy

operatsiyalar (jangovar harakatlar) bo‘lgan murakkab tizimlar va ularda sodir bo‘ladigan jarayonlarni modellashtirish imkonini beradi.

Har xil turdagi kuch va vositalarning optimal taqsimotini tanlash keyinchalik optimal variantni aniqlash uchun har bir alohida olingan variantni hisoblash uchun sezilarli vaqt sarfini talab qiladi, bunda turli xil usullarni qo‘llash talab etiladi.

Shu bilan birga, turli xil kuch va vositalarni qo‘llash samaradorligini hisoblash uchun SITni qo‘llash hisob-kitoblarni amalga oshirish vaqtini sezilarli darajada qisqartirish va mansabdor shaxslarning sa’y-harakatlarini boshqaruv funksiyasini bajarishga yo‘naltirish imkonini beradi [6].

Harbiy-havo kuchlarini kompyuterlashtirishning jadal sur’atlari, xorijiy davlatlar armiyalari tomonidan jangovar robotlashtirilgan komplekslarning joriy etilishi, tarmoq markazli tamoyillarning rivojlanishi va qo‘llanilishi, "ko‘p sferali" janglar va "mozaik" jangovar harakatlar nazariyalarini hisobga olgan holda kibernetik makondagi qarama-qarshilikning ahamiyati ortib bormoqda. Bunday sharoitda faqat o‘t ochish vositalaridan foydalangan holda ustunlikka erishish dargumon, aloqa tarmoqlariga, ularda aylanib yuruvchi axborotlarga va avtomatlashtirish vositalarining dasturiy ta’minotiga maxsus dasturiy ta’sir ko‘rsatish zarur.

Binobarin, radioelektron vaziyatning o‘zgarishiga tezkorlik bilan javob berish, dushmanning axborot va dasturiy ta’minotiga ta’sir ko‘rsatish usullarining moslashuvchanligi va moslashuvchanligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Intellektual tizimlarning qo‘llanilishi robotlashtirilgan ko‘p funksiyali avtonom xalaqit modullarini REK komplekslari tarkibiga kiritish imkonini beradi va quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

REK bo‘linmalarining mavjud shtat sonini saqlab qolgan holda jangovar imkoniyatlarni sezilarli darajada oshirish;

hayotni ta’minlash tizimi, ekipajning ish joylari va dam olish joylarini istisno qilish orqali xalaqit stansiyalarining (SIT bilan avtomatlashtirilgan xalaqit modullari) qiymat va og‘irlik o‘lchami xususiyatlarini pasaytirish;

qo‘shinlarning jangovar to‘qnashuv chizig‘i yaqinida avtomatlashtirilgan xalaqit modullarini joylashtirish imkoniyati tufayli jang paytida REK bo‘linmalari shaxsiy tarkibining yo‘qotishlarini kamaytirish, front ortidagi boshqaruv punktlarida REK kompleksidan foydalanuvchi;

zamonaviy dinamik jangovar harakatlar sharoitida REK tizimining mobilligi va moslashuvchanligini oshirish;

razvedka guruhlari tomonidan SIT bilan kichik o‘lchamli xalaqit modullarini tashlash, ta’minot polosasida SIT bilan xalaqit modullarini oldindan o‘rnatish va niqoblash orqali dushman tomonidan nazorat qilinadigan hududdan dushmanga radioelektron shikast yetkazish imkoniyati;

taktik havo desantlari tarkibida qo‘nishsiz harakat qilish uchun SIT bilan avtomatlashtirilgan xalaqit modullarini tushirish imkoniyati.

Sun’iy intellekt texnologiyalari bilan to‘ldirish orqali SITni rivojlantirish turli tadqiqotlarda bir necha bor ko‘rib chiqilgan va asoslangan, shuning uchun ushbu maqola doirasida SITni REK kuch va vositalarini boshqarish tizimiga joriy etishning umumiy tizimli ta’sirini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtda qo‘shinlar va qurol-yarog‘larni boshqarish tizimiga faol joriy etilayotgan asosiy tarmoq markazli tamoyillardan biri axborot manbalari va iste’molchilarini bog‘laydigan, o‘z mohiyatiga ko‘ra keng kommunikativ funksiyalarga ega bo‘lgan yagona axborot makonini barpo etishdir.

Shu tariqa, SITni boshqaruvning quyi darajasidan (alohida REK majmuasi) yuqori darajasigacha (Qurolli Kuchlarning REK tizimi) bo‘lgan barcha darajalarida joriy etish va qo‘llash uchun keng imkoniyatlar ochiladi, u kommunikativ va kognitiv-funksiyalar REKning yagona intellektual-axborot makoni, taktik, operativ, strategik vaziyatni tahlil qilish, maqsadlarni belgilash (maqsadlarni taqsimlash) va boshqarishning "murakkab" vazifalarini hal qilishda SITning "oddiy", ammo miqdoriy jihatdan katta hajmli vazifalarni hal qilishdagi va REK bo‘linmalari shaxsiy tarkibining afzalliklarini birlashtirish imkonini beradi.

Umumqo‘shin qo‘shilmalarini boshqarish tizimiga, xususan, REK kuch va vositalarini boshqarish tizimiga yagona boshqaruv tizimini joriy etish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rejalashtirish bosqichida obyektiv jihatdan murakkab va ko‘p vaqt talab qiladigan vazifa dushman harakatlarining ehtimoliy xususiyatini bashorat qilish asosida uni baholash uchun dastlabki ma’lumotlarning to‘liq to‘plamini shakllantirishdir. Misol qilib aytganda, 2020 yil Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarida o‘tkazilgan "Janub-2020" Hamkorlikdagi qo‘mondonlik shtab o‘quvi davomida amaliy jihatdan shu narsa aniqlandiki, bir tomondan, REK xizmatining mavjud tarkibi belgilangan muddatlarda boshlang‘ich ma’lumotlar to‘plamini yaratish imkoniyatiga ega emas va natijada maxsus dasturiy ta’minot tarkibidagi axborot-hisoblash vazifalarini qo‘llagan holda tezkor-taktik hisob-kitoblarni to‘liq amalga oshirish mumkin emasligini. Boshqa tomon, REK vositalari yordamida aniqlanadigan radionurlanish manbalarini muayyan radioelektron obyektlar bilan qo‘lda taqqoslashga to‘g‘ri keladi, bu esa qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining tezkorligini ham, REK kuch va vositalarining jangovar imkoniyatlarini ham sezilarli darajada pasaytiradi, umuman olganda, boshqaruv siklini oshiradi. Texnologiyalarini qo‘llash orqali tezkor-taktik hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun dastlabki ma’lumotlarni tekshirish, normallashtirish va filtrlash REK boshqaruv punkti mansabdor shaxslarining ishtirokisiz amalga oshirilishi mumkin [1,7].

Xulosa qilib aytganda, SITni REK tizimiga barcha darajalarda joriy etish jangovar salohiyatni sezilarli darajada oshirish, qo‘shinlarning yo‘qotishlarini kamaytirish va nafaqat zamonaviy urushlar va qurolli to‘qnashuvlarda, balki kelajakdagi “ko‘p yo‘nalishli jangovar to‘qnashuvlar”, “tarmoqdagi urushlar” va “gibrid urushlar” jangovar harakatlarga qarshi turishda ustunlikni ta’minlash imkonini beradi. Shunday qilib, bugungi kunda qurollanish tizimlariga suniy intellektual texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qadamlar o‘zini to‘liq oqlaydi va ertangi tinch hayotni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Конференция по искусственному интеллекту. 24 ноября 2022 г. С.124-128

[2]. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti, Qurolli Kuchlar oliy bosh qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev 2025 yil 21-fevral kuni harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasini mustahkamlash masalalari bo‘yicha yig‘ilish yakuni.

[3]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son qarori.

[4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-sonli qarori.

[5]. Струкова П.Э. Искусственный интеллект в Китае: современное состояние отрасли и тенденции развития // Вестник Санкт-Петербургского университета. Востоковедение и африканистика. 2020. Т. 12. Вып. 4. С. 588—606. URL: https://doi.org/10.21638/spbu13.2020.409 (12.07.2021).

[6]. ГОСТ Р 59276-2020 Системы искусственного интеллекта. Способы обеспечения доверия.

[7]. Turing A. Computing machinery and intelligence // Mind: журнал. Oxford University Press. 2021. № 79. С. 433—460.

TAHLIKALI HOLATLARDA HARBIY KADRLARNI TAYYORLASH VA QAYTA O’QITISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

dotsent Abidov A.A.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tahlikali holatlarda harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta o’qitishning o’ziga xos jihatlari, psixologik va jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati hamda zamonaviy o’quv-uslubiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek,*

ekstremal vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, xavfsizlik choralariga amal qilish va zamonaviy texnologiyalarni o’zlashtirish masalalari yoritiladi.

Kalit so’zlar: *harbiy kadr, tahlika, tahdid, psixologik, stress, favqulodda vaziyat, tayyorlash, simulyator va texnologiya*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности подготовки и переподготовки военных кадров в условиях чрезвычайных ситуаций, анализируется значение психологической и физической подготовки, а также современных учебно-методических подходов. Кроме того, освещаются вопросы оперативного принятия решений в экстремальных условиях, соблюдения мер безопасности и освоения современных технологий.*

Ключевые слова: *военные кадры, опасность, угроза, психологический, стресс, чрезвычайная ситуация, подготовка, симулятор и технологии.*

Bugungi kunda dunyodagi murakkab geosiyosiy vaziyat, zamonaviy qurollar va texnologiyalarning keng qo’llanilishi harbiy xizmatchilardan yuqori darajadagi tayyorgarlikni talab etmoqda. Tahlikali holatlar – tabiiy ofatlar, terrorchilik xurujlari, qurolli to’qnashuvlar yoki favqulodda vaziyatlar – sharoitida harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta o’qitish jarayonlari alohida e’tibor talab qiladi. Bu jarayonda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko’nikmalar, tezkor qaror qabul qilish malakalari va psixologik tayyorgarlik muhim o’rin tutadi.

Maqolaning maqsadi – tahlikali holatlarda harbiy kadrlar tayyorlash va qayta o’qitish jarayonlarining nazariy va amaliy jihatlarini yoritish, ularning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash, mavjud muammolarni ko’rib chiqish va samarali yechim takliflarini ishlab chiqish.[1]

Xavf va tahdid tushunchasi:

tahdidlarning tabiat va turi (harbiy, tabiiy, texnogen, ijtimoiy) – ularning darajasi, tezligi, oldindan bashorat qilinishi yoki qilinmasligi.

tahdidlarga mos javob reaksiyasi – oldindan tayyorlanish, favqulodda rejalashtirish, muvozanatli resurs va kuchlarni yo’naltirish.

Harbiy ta’lim va qayta tayyorlash:

- Harbiy ta’lim – boshlang’ich va mutaxassislik (ofitserlik, texnik, logistika va h.k.), fundamental nazariy bilimlar, jangovar, ma’muriy va texnik ko’nikmalar.
- Qayta o’qitish/malaka oshirish – yangi texnologiyalar, taktik va strategik yangilanishlar, tajriba tahlili va bilimlarni yangilash.[2]

Maxsus pedagogika va psixologiya ta’siri:

- Psixologik tayyorgarlik – stress, zo’riqish, qaror qabul qilish sharoitida ruhiy chidamlilik, psixik barqarorlik.
- Jamoa psixologiyasi – birlik, intizom, komandolararo hamkorlik, liderlik.



1-rasm. Qayta o’qitish/malaka oshirish

Tahlikali holatlarda tayyorlash va qayta o’qitishning o’ziga xos xususiyatlari.

Quyida, tahlikali holatlar sharoitida harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda alohida e’tibor talab qiladigan jihatlar:

1. Reaktivlik va tez moslashuvchanlik - tahlikalar tez sodir bo’ladi – shuning uchun harbiy kadrlar tayyorgarligi shoshilinch holatlarda tezkor chora ko’rishga, yangi sharoitga moslashishga yo’naltirilishi kerak.

2. O’quv mazmunining dinamikligi - taktika, texnika, texnologiyalar, dushman usullari doimiy ravishda yangilanadi – o’quv dasturlari, mashg’ulotlar yangilanishi, real ma’lumotlarga asoslangan holda tahlil va o’rgatuvchi amaliyotlar bo’lishi zarur.

3. Praktik mashg’ulotlarga katta ustuvorlik - nazariy bilim yetarli emas; simulatsiyalar, trenajorlar, jamoaviy jangovar mashqlar, favqulodda evakuatsiya, kimyo, biologik, radiologik vaziyatlar bo’yicha interfaol treninglar muhim.

4. Psixologik tayyorgarlik va chidamlilik - stress, og’ir sharoit, yo’qotish, zarba, qorqinch va boshqa psixologik xavflar – bular bilan bosh qura olish malakasi, psixologik barqarorlik, liderlik va jamoa ichida moslashuvchan munosabatları.

5. Jismoniy tayyorgarlik – tahlikali vaziyatlarda jismoniy zo’riqish, harakat tezligi, chidamlilik talab etiladi – shuning uchun jismoniy tayyorgarlik standartlari yuqori bo’lishi, muntazam va intensiv mashqlar bo’lishi kichik guruhlarda ham bo’lishi kerak.

6. Texnologik va material-texnik ta’minot - simulyatorlar, zamonaviy qurol-aslaha, aloqa vositalari, foydalanilayotgan texnika va uskunalar bo’yicha amaliy o’qitish – bular tahlikalar holatida samarali bo’lishi uchun dolzarb.

7. Ishonchli boshqaruv va rahbarlik – favqulodda vaziyatda rahbar qobiliyatlari, qaror qabul qilish – tezkor, ishonchli va aniq bo’lishi zarur. Rahbarlar xodimlar

motivatsiyasini saqlash, resurslarni tejash va operatsiyalarni koordinatsiyalashni bilishi lozim.

8. Aniq rejalashtirish va cheklangan resurslarni boshqarish - tahlikalar ko’pincha resurs cheklanishi bilan bo’ladi – inson kuchi, yoqilg’i, oziq-ovqat, tibbiy yordam. Qayta tayyorlash jarayonida bunday sharoitlar nazarda tutilishi kerak.

9. Kadr tanlovi va saralash - nomzodlar jismoniy, ruhiy, ma’naviy jihatdan favqulodda sharoitlarda ishlashga qodir bo’lishi shart. Tanlov jarayonida testlar, psixologik-profili, jismoniy kuch va chidamlilik sinovlari bo’lishi lozim.

10. Huquqiy va etik jihatlar - tahlikali holatlar, urush holati, favqulodda holatlar sharoitida qonunchilik, xalqaro huquq va huquqiy normalarni hurmat qilish, inson huquqlarini ta’minlash muhim. Kadrlarni tayyorlash shuningdek mazkur jihatlarga e’tibor qaratishi zarur.[3]



2-rasm. Harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash

Muammolar va cheklovlar.

Tahlikali holatlarda harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta o’qitishda uchraydigan asosiy muammolar quyidagilar:

- Moliyaviy va moddiy-texnika cheklovlari — zamonaviy uskunalar, trenajorlar, texnologiyalar yetishmasligi.
- Mutaxassis va o’qituvchilar malakasi – ularning o’zi ham yangiliklardan xabardor bo’lishi, amaliy tajribaga ega bo’lishi talab qilinadi.
- Psixologik tayyorgarlik mavhumligi – stressga chidamlilik, ruhiy jarohatlar, post-travmatik stress (PTSD) kabi holatlar bilan ishlash bo’yicha yetarli dasturlar va metodologiyalar yo’qligi.

•Nazorat va baholash tizimining noaniqligi – kim qachon tayyor, qanday darajada tayyor, tahdid darajasiga mos ekanini tekshirish mezonlarining yetishmasligi.

•Reaktivlik va strategik rejalashtirish o’rtasidagi muvozanat – oldindan rejalashtirilgan tayyorgarlik va tezkor javobni uyg’unlashtirish qiyin.

•Axborot va kommunikatsiya yetishmovchiligi – real vaqt rejimida ma’lumot yetkazish, interaktiv aloqalar, dushman yangiliklarini kuzatish.

•Motivatsiya va psixologik barqarorlik muammolari – stress, xavf va yo’qotishlar sababli psixologik tushkunlik, ishtiyoqning pasayishi mumkin.[4]

Takliflar va tavsiyalar.

Tahlikali vaziyatlarda harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta o’qitishning samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar keltiriladi:

1. Keng qamrovli monitoring va tahdid aniqlash tizimini tashkil etish – Geosiyosiy, texnologik, ekologik va ijtimoiy tahdidlarni oldindan aniqlash; razvedka, axborot tahlili va prognozlash bo’yicha imkoniyatlar kuchaytirilishi kerak.

2. Modulli va adaptiv o’quv dasturlari joriy etish – dasturlar qisqa muddatli, zaruratga qarab tezkor moslashuvchan bo’lishi, nazariy va amaliy qismlar kombinatsiyasi bilan tuzilishi zarur.

3. Simulyatorlar va virtual treninglardan foydalanish – zamonaviy texnologiyalar – virtual haqiqat, kengaytirilgan haqiqat, simulyatorlar yordamida real sharoitlarga yaqin mashq qilish imkonini oshirish.

4. Psixologik tayyorgarlik va ruhiy salomatlikni qo’llab-quvvatlash - harbiy psixologiya mutaxassislari bilan doimiy ishlash, stressni kamaytirish usullari, jamoalararo yordam, zarur bo’lganda professional psixologik reabilitatsiya.

5. Liderlik va rahbarlik ko’nikmalarini rivojlantirish – har darajadagi rahbarlar uchun tezkor qaror qabul qilish, resurslarni boshqarish, operatsiyalarni muvofiqlashtirish bo’yicha kurslar va amaliy mashqlar.

6. Resurslar va infratuzilmani mustahkamlash - o’quv bazalari, trenajorlar, laboratoriyalar, zamonaviy qurol-aslaha va uskuna bilan ta’minlash.

7. Huquqiy normalarni o’rgatish - xalqaro huquq, inson huquqlari, urush jinoyatlari, favqulodda holatlar qonunchiligi bo’yicha bilimlarni muntazam yangilash.

8. Baholash va sertifikatlash tizimlarini takomillashtirish - kadrlarning tayyorgarligini mezonlarga asoslangan baholash; ushbu baholar asosida sertifikatlar berish va amal qilish muddatlarini yangilash.

9. Jamoa va birlik ruhini shakllantirish - guruh mashg’ulotlari, jamoaviy maqsadlar, yagona qadriyatlar, intizom, ichki aloqa va yordam tizimlarini kuchaytirish.[5]

Xulosa qilib – Tahlikali holatlarda harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta o’qitishning o’ziga xos xususiyati — bu ularning psixologik barqarorligi, zamonaviy

texnologiyalarni egallashi va ekstremal sharoitlarda tezkor harakat qilish qobiliyatiga bog’liqdir. Harbiy xizmatchilar muntazam ravishda qayta tayyorlanib, yangi bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlari mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Ah. M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko’taramiz. T: O’zbekiston. 2017

2. “O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy -ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 3898 sonli Qarori

3. Chrome-extension: // efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/ https:// milliytar biya. uz/ storage/ pdf/ Enfs Qus Xigf pdz 5TVg Hqqna FRB qqs WBMRMQ 6KdWL. pdf?utm_source=chatgpt.com

4. Chrome-extension:// efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/ https:// api. scienceweb.uz/storage/publication_files/966/818/6188b332d78a4___Abdurahimov%20.A.Maxamatov%20maqola%202021%20oktyabr.pdf?utm_source=chatgpt.com

5. https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-harbiy-ta-lim-muassasalarida-kursantlarni-ma-naviy-axloqiy-qadriyatlar-asosida-tarbiyalashda-qo-mondonlikning-roli?utm_source=chatgpt.com

6. Chrome-extension:// efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/ https:// api. scienceweb. uz/ storage/ publication_files/ 796/ 997/ 619e114ad9b62 ___ Respublika%20konferensiyasi.pdf?utm_source=chatgpt.com

BO‘LAJAK HARBIY TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

dotsent Tojiyev X.X.
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy yondashuvlar asosida bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish ularning shaxsiy sifatlari, bilim darajasi hamda talaba yoshlarga muntazam ravishda ta’lim va tarbiya berib ularni doimo harbiy vatanparvarlik ruhini oshirib borishlari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: Harbiy ta’lim, taxlil, texnologik yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, talaba yoshlar, kompyuter texnologiyasi, axborotlashtirish, modul, ta’lim, tarbiya.

BUGUNGI TAHLIKALI VAZIYATLARDA HARBIY KADRLARNI TAYYORLASH VA QAYTA TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Аннотация. *В данной статье показано развитие профессионально-педогогической подготовки будущих преподавателей военного обучения на основе современных технологических подходов и их личностных качеств, сущности уровня их знаний, а также систематическое обучение молодёжи, их постоянное совершенствование в духе военного патриотизма.*

Ключевые слова: Военное обучение, анализ, технологический подход, профессиональная подготовка, молодёж, компютерная технология, информация, модуль, обучение, воспитание.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishgandan so‘ng umumiyinsoniy qadriyatlarga sodiqlik, adolat va tenglik birinchi navbatda ko‘zga tashlanmoqda. Inson qadr-qimmatini baholashda ana shu adolat va tenglik muhim rolni bajaradi. Axloqiy fazilatlarga baho berish mezonlari ham aniq tarixiy jarayonlar, sharoitlar bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi.

Bugungi kunda kompyuterli o‘qitish texnologiyasi rivojlanib bormoqda va ta’lim berishda asosan elektron ta’lim resurslaridan kehg foydalanilmoqda. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish bevosita innovatsion ta’lim texnologiyalariga bog‘liqdir.

Innovatsion ta’lim texnologiyasining xususiyati shundaki:

- ta’lim oluvchining mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan;
- o‘qituvchi ta’lim jarayonida maslahatchi sifatida qatnashadi;
- o‘qitish jarayonidagi axborot vositalari va resurslari faol integratsiyasi ta’minlanadi;
- o‘qitish motivatsiyasi oshiriladi;
- ta’limning intensivligi va natijaviyligini oshiradi;
- ta’lim oluvchining mustaqil ishlash va izlash malakalarini shakllantiradi.

Kompyuterli o‘qitish jarayonini samarali tashkil etilishi o‘quv maqsadlariga kafolatli erishishni ta’minlaydi. Agar o‘qitish jarayoni yaxshi tashkil etilmasa, ilg‘or o‘qitish texnologiyalari ham samara bermaydi . Bu texnologiya o‘quv axborotlarining verbal va tasavvurli shakllarini birgalikda namoyon etish, o‘qitish jarayonini maqsadlarga moslashtirish imkonini beradi. Kuzatishlarning ko‘rsatishicha, o‘qituvchi, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida qatnashadi va talabalarning kompyuter bilan ishlagandagi rasmiy ko‘nikmalariga faqat tuzatishlar kiritish va nazorat qilish bilan cheklanadi.

Ta’limda axborot texnologiyalari multimediya, prezentatsiya, audio-video materiallar, internet, masofaviy ta’lim, ommaviy ochiq onlayn kurslar, video konferensiya va o‘rgatuvchi mobil ilovalardan iboratdir.

Modulli o‘qitish texnologiyasi modul fanning fundamental tushunchalarini - ma’lum hodisa yoki qonun, yoki bo‘lim, yoki ma’lum bir yirik mavzu yoki o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhini o‘z ichiga oladi. Modulli o‘qitish - o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u talabalarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Modulli o‘qitish, kasbiy ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi;

- modul - faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallash va tizimlash, dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi;
- o‘qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbga qiziqtirish asosida, faollashtirish, mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.

Modulli o‘qitish texnologiyasini afzalligi shundaki, modulni o‘rganish o‘zlashtirish jarayonining asosini mustaqil bajariladigan ish-harakatlar tashkil qiladi, modulni o‘rganish mobaynidagi ish-harakatlar talabalar tomonidan mustaqil ravishda rejalashtiriladi, amalga oshiriladi, tekshiriladi va baholanadi, ish harakatlar o‘zida texnikaviy, mehnat xavfsizligi, huquqiy, ekologik kabi masalalarni qamrab olishi kerak. Kasbiy tayyorgarlikning muayyan darajasiga erishish uchun mustaqil o‘quv-bilish faoliyatini kengaytirishga imkon beruvchi egiluvchan modulli texnologiyaga asoslangan o‘qitish usuli katta ahamiyatga ega.

Modulli o‘qitish texnologiya asosida ta’lim jarayonini tashkil etish shundan iboratki, unda ta’lim mazmuni avtonom tashkiliy metodik bloklar (modullar) da tuzilmalashtiriladi. Modullar mazmuni va hajmi ta’lim oluvchilarning ixtisosligi va darajali tabaqalanishiga hamda didaktik maqsadlarga bog‘liq ravishda variatsiyalanadi. Modulli texnologiyaning markaziy tushunchasi “modul” bo‘lib, uning mohiyatini nazariyachi va amaliyotchilar bir xil tarzda talqin etmaydilar. Modul-bu bir fan doirasidagi tashkiliy-metodik tuzilmaviy birlikdir [1].

Olimlardan R.S.Bekirova va M.A.Choshanovlar modulni didaktik maqsadlar, o‘quv materialining tugallangan mantiqiy birligi (fanlararo bog‘lanishlarni hisobga olgan holda), metodik yo‘riqnoma (didaktik materiallarni qo‘shib hisoblaganda) va nazorat tizimini o‘z ichiga olgan “o‘quv fanining avtonom tashkiliy-metodik tuzilmasi” sifatida tasniflaydi[2].

Ta’lim jarayonini tashkil etishning modulli texnologiyasi ta’lim maqsadlarini, mazmuniy-protsessual jihatini, modul elementlari bo‘yicha taqsimlangan o‘quv materialini taqdim etadi, reyting bo‘yicha amalga oshirilgan yakuniy nazoratni aks ettiradi.

Modulda mazmun, o‘qitish metodlari, mustaqillik darajasi hamda o‘zlashtirish jadalligi bo‘yicha individuallashtirilgan o‘qitish dasturi aks ettiriladi. Har bir o‘quv moduli aniq o‘qitish maqsadi, o‘z mazmuni, didaktik ta’minotiga ega. O‘qitish maqsadlaridan kelib chiqqan holda, modulda o‘qitishning tashkiliy shakllari (ma’ruza-maslahat, laboratoriya ishi, hisob-grafik topshiriq, mustaqil ish, yakuniy nazorat va boshqalar) rejalashtiriladi, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-biluv faoliyatiga zaruriy tuzatish kiritish ko‘zda tutiladi. Modulni qurishning muhim mezoni bilimlarni o‘zlashtirish darajalari mantig‘ini ta’minlovchi faoliyatni (idrok qilish, tushunish, anglash, qo‘llash, umumlashtirish, tizimlashtirish) tuzilmalashtirish hisoblanadi.

“Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘quv materialini talabalar tomonidan o‘zlashtirish moduldan-modulga ketma-ket amalga oshiriladi va har bir talabaga belgilangan o‘quv-bilish faoliyati maqsadlariga erishish imkonini beradi. Ma’ruzalar umumlashgan shaklda ilmiy bilimlar asosi bo‘lib hisoblanadi va kasbiy faoliyatning yo‘naltiruvchi asosi sifatida uning nazariy bazasini yaratadi. Amaliy mashg‘ulotlar amaliy masalalarni yechishning hisoblash ko‘nikmalarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq bir necha muhim funktsiyalarni bajaradi.

Modulli o‘qitish texnologiyasining mohiyati shundan iboratki, o‘quv fanining mazmuni dastur ko‘rinishida rasmiylashtiriladi, uni loyihalash umumqabul qilingan quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

-o‘quv predmeti mazmunini asosiy tushunchalar va metodlar atrofida shakllashtirish;

-o‘quv materialini bayoni qilish ketma-ketligining tizimliligi va mantiqiyligi;

-mazmunning bir butunligi va amaliy ahamiyati;

-o‘quv materialini taqdim etishning ko‘rgazmaliligi.

O‘quv jarayonini modulli-reyting texnologiyasi asosida loyihalash quyidagilarga imkon beradi:

-o‘quv materialining muammoli modulini guruhlash orqali o‘qitish mazmunini integratsiyalash va tabaqalashtirish-ning didaktik birligi amalga oshiriladi;

-o‘quv modullarini variativ konstruktsiyalash (qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan ko‘rinishda);

-bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning modul dasturi variantini mustaqil tanlashini va dasturni o‘zlashtirishlarining individual sur’atini ta’minlash;

-bo‘lajak o‘qituvchining bilish faoliyatini boshqarishda o‘qituvchi edvayzer (maslahatchi) va moderator (yo‘naltiruvchi) bo‘lishi kerak.

Muammoli o‘qitish texnologiyasi - bu rivojlantiruvchi o‘qitish texnologiyasi bo‘lib, faol bilim ortirish jarayonini rag‘batlantiradi va fikrlashning mantiqiy ketmaketlik stilini shakllantiradi. Muammoli o‘qitish mohiyati o‘qituvchi tomonidan

talabalarning o‘qishida muammoli vaziyatlarni tashkil etish va o‘quv (yaxshisi, hayotiy) masalalar, muammolarni savollar va topshiriqlarni yechish yo‘li bilan yangi bilimlarni o‘zlashtirish faoliyatini boshqarishdan iboratdir.

Muammoli o‘qitish, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga taalluqli, chunki bu yerda shaxsga sub’yekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi – pedagogik jarayonda o‘ziga xos qiziqish uyg‘otishdir. Muammoli o‘qitish, o‘qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o‘zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o‘qitishning turli ta’rif va tavsiflari bor. Bizningcha, nisbatan to‘liq va aniq ta’rif M.I.Maxmutov tomonidan berilgan bo‘lib, unda muammoli o‘qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari, tahlil, umumlashtirish hisobga olingan o‘rgatish va dars berish usullarini qo‘llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining tizimi sifatida izohlanadi[3].

Muammoli o‘qitishning mohiyatini o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi.

Bu esa bilimlarni o‘zlashtirishning ilmiy tadqiqot usulini yuzaga keltiradi. Ma’lumki, o‘qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda obyektiv qonuniyatlari didaktik tamoyil – muammolilikka tayanadi. Fanda muammoli o‘qitish bilan aloqador ikkita tushuncha ishlatiladi ular “muammo” va “muammoli vaziyat” tushunchalaridir.

Muammo muammoli masalalar ketma-ketligiga ajraladi. Demak, muammoli masalani muammoning oddiy, xususiy bir masaladan iborat holati sifatida ko‘rish mumkin. Muammoli o‘qitish ijodiy faoliyatni hamda unga ehtiyojni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda ta’lim oluvchilar ijodiy fikrlashining rivojlanishi an’anaviy o‘qitishdagiga nisbatan jadalroq bo‘ladi.

Muammoli o‘qitishning yakuniy maqsadi–ta’lim oluvchilarni muammolarini ko‘rish va yechishga o‘rgatishdan iborat bo‘lib, bu faqat fikrlash faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. S.L.Rubinshteyn “tafakkur – inson oldida turgan masala va muammolarni yechishga olib keladigan idrok bo‘lib, tafakkur muammoli vaziyatdan kelib chiqadi va muammoni yechishga qaratilgan bo‘ladi” - deb ta’kidlaydi. Bundan quyidagi mantiq hosil bo‘ladi. Shaxsning ijodiy, mustaqil, fikrlovchi bo‘lishi jamiyat uchun zarur bo‘lib, fikrlash jarayoni muammoli vaziyatdan boshlanadi[4].

Muammoli vaziyat–psixik qiyinchilik, ziddiyatli vaziyati bo‘lib, talabalarni muammoli vaziyat holatiga tushirish orqali ularda fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan obyekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma’lum bo‘lgan vazifa, masala bo‘yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi.

Muammoli ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘qitish jarayonini samarali kechishini ta’minlash bilan birga ta’lim oluvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga nisbatan qo‘yilayotgan ijtimoiy ta’lim oluvchilar o‘qituvchilardan loyiha va muammoli ta’lim texnologiyalarini o‘qitish jarayonida maqsadli, samarali qo‘llashni talab etadi.

Kasbiy tayyorgarlik kasbiy faoliyat doirasida amalga oshiriladi. Kontekstli yondashuv o‘qitish shakli va metodlari tizimi yordamida kelgusidagi kasbiy faoliyat kontekstini yaratishga imkon beradi. Faol o‘qitish texnologiyasi sifatida kontekstli o‘qitish texnologiyasini qo‘llashda bo‘lajak mutaxassisda ijodkorlikni rivojlantirish hamda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatuvchi algoritmlar va kasbiy faoliyatning yaxlit tuzilmasi vositasida shakllantrishni nazarda tutiladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, “Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda texnologik yondashuv asosida innovatsion ta’lim texnologiyalardan samarali foydalanish orqali talabalarning kasbiy tayyogarligini rivollantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sabali interfaol o‘qitish jarayonining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullarini aniqlash zaruriyati yuzaga keladi. Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar mashqni bajarishlari, me’yorlar va harakat usullarini bajarish texnikasini o‘rganishlari va mustahkamlashlari, shuningdek, qurilmalar, jihozlangan maydonchalar, mashg‘ulot joyi va qurol-aslahalar, muhandislik vositalari, shaxsiy himoya vositalari, sport snaryadlari va anjomlaridan foydalangan holda o‘tkazishlari lozim. Amaliy mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil qilish va o‘tkazishda mashg‘ulot rahbarining darsga munosabati, talabalarga ta’sir o‘tkaza olishi hamda shaxsiy namunasi muhim ahamyatga egadir.

O‘qitish jarayonida bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchisida onglilik, qiziquvchanlik, tartiblilik, birgalikda faoliyat yuritish sifatlari shakllanadi. Aniqlangan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashni ta’minlaydi.

Kelgusida bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda texnologik yondashuvlardan faol va kehg foydalanish ularni pedagogik mahoratlarini uzluksiz ravishda oshirib borish hamda o‘zini-o‘zi muntazam ravishda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1].Abdullaeva K.M. Maxsus fanlarni o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Ped.fan.nom.diss. avtoreferati. –T.: -2006.

[2].Чошанов, М.А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения: Методическое пособие / М.А. Чошанов. – М.: Народное образование, 1996. – 160 с.[2]

[3]. Махмутов М.И. Проблемное обучение. - М.: Педагогика, 1975. – 11 с.3

[4]. Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии Текст. : в 2-х томах. Т.2. С.Л. Рубинштейн. М.: Педагогика, 1989. -382 с.[4]

[5]. Бўтаев А. «Чақириққача ёшларни тайёрлаш». Ўқув қўлланма.Дарслик. Андижон нашриёти -2004 й.

HARBIY OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TAXSIL OLUVCHILARNI O‘QITISHDA RAG‘BATLANTIRISH USULLARI

Madraximov T.X., Mirzaolimov A.Q.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim sifati va o‘quv samaradorligini oshirish maqsadida rag‘batlantirish usullaridan foydalanish hamda ularni o‘rnida va kerakli vaqtda qo‘llash, shuningdek mustaqillikdan oldingi va hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida rag‘batlantrish usullarini qo‘llashning o‘rni va farqlari bo‘yicha fikr mulohazalar va yondashuvlar tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogika, ta’lim va tarbiya jarayoni, o‘qituvchi, kursantlar, pedagogik ta’sir ko‘rsatish, rag‘batlantirish, jazo, motivatsiya, emotsiya, baholash, pedagogikaning bosh maqsadi.*

Аннотация. *В статье проанализированы мнения и подходы к использованию методов стимулирование в целях повышения качества образования и эффективности обучения, их применение в нужном месте и в нужное время, а также роль и различия в использовании методов стимулирование в современной системе образования до обретения независимости и в настоящее время.*

Ключевые слова: *педагогика, образовательный и воспитательный процесс, учитель, обучаемые, педагогическое воздействие, стимулирование, наказание, мотивация, эмоция, оценка, основная цель педагогики.*

Pedagogikada ta’lim va tarbiya jarayonida ko‘plab murakkab vazifalar mavjud, ammo ular orasida asosiy va eng muhimlaridan biri — bu rag‘batlantirish

muammosidir, ya’ni, insondan kerakli xulq-atvorni yuzaga chiqarish uchun unga qanday ta’sir ko‘rsatish mumkinligidir [2].

Ma’lum ma’noda, bu “muammolar ichidagi muammo”, asosiy qiyinchiliklar, izlanishlar va pedagogik sa’y-harakatlarning markazidir. Chunki rag‘batlantirish samaradorligi ko‘pincha pedagogik jarayonning muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Aslida, inson qaysi yoshda bo‘lmasin, ota-ona va pedagoglar rahbarligini tabiiy hol sifatida qabul qiladi, biroq ushbu prinsipial tayyorgarlikdan kerakli xulq-atvorga erishish yo‘lida bir qator jiddiy to‘siqlar mavjud. Ularning asl sababi insonning qobiliyat yoki irodasi yetarli emasligidadir, ammo hurmat talablik va o‘zini namoyon qilishga o‘zgartirilgan ehtiyojlar turli shakldagi qarshiliklarga ega bo‘ladi va ular odamlarga chuqur asoslangan, adolatli, hatto deyarli olijanobdek tuyuladi. Pedagoglarning taktik xatolari: o‘zini tuta olmaslik, yetarlicha hushmuomalalik ko‘rsatmaslik, jazolashga urg‘u berish — qarshi javob pozitsiyasida o‘ynaydi va pedagogik ta’sir ko‘rsatish vazifasini yanada murakkablashtiradi [1].

Qadimgi yunon tilidagi «stimulus» so‘zi olijanob ma’noga ega bo‘lmagan: u zamonlarda buqalar va xachirlarni haydash uchun ishlatilgan uchi o‘tkir uzun tayoq shu tarzda atalgan. Hozirgi zamon tushunchasida «stimullash» degani — “insonni nimagadir undash, turtki berishdir”. Chunki biz tabiatan shunday tuzilganmiz-ki, doimiy eslatmalar va turtkilarsiz — shaxsiy yoki tashqi kuchlarsiz, ko‘pincha esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri majbur qilishlarsiz — oldinga harakat qila olmaymiz, yetarlicha faol mehnat qilmaymiz, inersiya asosida yashaymiz [6].

Rag‘batlantirish muammosi insoniyat tarixi bilan barobar yoshga ega. Uni hal qilishning asosiy yo‘llari mashhur «qamchi va shirin kulcha» matalida yaxshi ifodalangan. Inson ruhiyatining qiziqarli jihat(nayrang)larini ochish uchun olimlar juda ko‘p ishlarni amalga oshirganlar. Vaqt o‘tishi bilan insonga ta’sir ko‘rsatish usullarining xilma-xilligi anglandi, chunki uni faoliyatga undashni oddiy va sodda turtkilar orqali amalga oshirish tobora qiyinlashib borar edi [7].

Bizning qadimgi ajdodlarimiz esa ortiqcha murakkablashtirmasdan, asosan «qamchi»dan — turli jismoniy va ruhiy jazolardan foydalanganlar. Bunday holat ham o‘sha davrning og‘ir turmush tarziga, ham inson ruhiyati haqidagi tasavvurlarga mos edi. Ya’ni, inson tabiatida go‘yo yovuz niyatlar ustunlik qiladi va ularni faqat qattiqqo‘llik va shafqatsizlik orqali o‘zgartirish mumkin, degan qarash mavjud bo‘lgan.

Afsuski, barcha tarbiya tarixi jazolardan ajralmasdan kelgan. Buning ustunligini yozma manbalar, antik davr va o‘rta asrlarga oid tasvirlar tasdiqlaydi, ularda o‘qituvchi ko‘pincha tayoq yoki xipchin tutgan holda aks ettirilgan. Hatto oila va maktab tarbiyasida hukmron bo‘lgan shafqatsizlik muhitini hozir tasavvur qilish qiyin. XIX asrda ham jismoniy jazolar barcha o‘rta maktab muassasalarida va deyarli barcha

oilalarda, hatto imperatorlik xonadonlarida ham qo‘llanilgan [7].

Biroq asta-sekin «qamchi» va «shirin kulcha» o‘zaro bog‘liqligi tobora murakkablashdi. Chunki uzoq va bosqichma-bosqich ma’naviy tajriba to‘planishi jarayonida katta pedagogik chidamlilik va yumshoqlik g‘oyalari mustahkamlandi. XX asrga kelib, rivojlangan mamlakatlarda jismoniy jazolar, umuman olganda, deyarli to‘liq yo‘q qilindi va bu esa o‘z navbatida yangi pedagogik davrning boshlanishini anglatdi.

Hozirgi bosqichda pedagogik rag‘batlantirish, aslida har qanday davrda bo‘lgani kabi, an’anaviy va odatga aylangan pedagogik texnika bilan tarbiyalanuvchilarning yanada demokratik talablari o‘rtasida doimiy ziddiyat holatida namoyon bo‘lmoqda [6].

Abadiy qonuniyat shundaki, tarbiyalanuvchilarning insoniy yondashuviga bo‘lgan ehtiyoji doimo pedagogik amaliyotdan ilgarilab ketadi. Boshqacha aytganda, pedagog har doim ko‘proq yoki kamroq darajada konservativroq bo‘ladi. Ajdodlarimizga insoniylikning oliy namunasi bo‘lib tuyulgan pedagog xulq-atvori bugungi kun odamiga qattiqqo‘l va nohaqdek ko‘rilishi mumkin. Ana shu qonuniyatdan kelib chiqib, rag‘batlantirish usullarini doimiy ravishda takomillashtirib borish zarurati vujudga keladi.

A. Maslouning ehtiyojlar piramidasini eslaylik. Uning fikricha, o‘rtacha inson o‘z fiziologik ehtiyojlarini 85% darajada, xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojini 70%, fikrlashga bo‘lgan ehtiyojini 50%, hurmat-ehtirom ehtiyojini 40%, o‘z fikrini ifoda qilish va ijodkorlik ehtiyojini esa atigi 10% darajada qondirishi mumkin [5].

Bu yerdan pedagog qanday xulosa chiqarishi kerak? Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, rag‘batlantirish vositalarini insonning ustuvor ehtiyojlari sohasidan izlash zarur, ya’ni ularning rivojlanish darajasiga tayanish kerak. Agar inson hali unga qaratilgan chaqiriqni na anglay olsa, na qabul qila olsa, unga oliy his-tuyg‘ular yoki nozik turtkilar bilan murojaat qilish befoyda bo‘ladi. Bu juda muhim xulosadir. A.Maslouning ko‘pchilik odamlar faqat fiziologik ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanishini ta’kidlashi esa pedagog uchun qaysi sohada rag‘bat izlash lozimligini ko‘rsatadi. Shubhasiz, intellektual va emotsional sohalarning rivojlanishi tajribasi to‘planib borgan sari rag‘batlantirish ham yuksalish tartibida rivojlanishi kerakligi - har bir yangi stimul ma’lum ma’noda oldingisini ortda qoldirishi lozimligi aniq ravshandir.

Ma’lumki, qo‘zg‘otuvchi motiv(sabab)lar mavjud bo‘lganida bizning harakatlarimiz u yo‘q holatga nisbatan ancha qat’iy va izchil namoyon bo‘ladi. Amaliy motivatsiya gohida o‘quvchini bir qarashda, undan kutilmagan darajada faol ishlashga undaydi. Motivatsiya o‘quvchini «barpo qilish» majbur qiladi. Natijada, boshqa mustahkam teng shart-sharoitlar (qobiliyatlar, sog‘liq holati, tayyorgarlik darajasi) bo‘lgan taqdirda ham, turli xil darajadagi motivatsiya o‘quvchilarning turlicha

o‘zlashtirishlariga sabab bo‘ladi [9].

Mening fikrimcha, harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini tayyorlash tizimida ham rag‘batlantirish usullaridan foydalanish mumkin.

Bugungi kunda nazariyada ijobiy rag‘batlantirish usullari ustuvor bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oya mustahkam o‘rin oldi. Chunki ular ham insonparvarroq, ham samaraliroq hisoblanadi. Bu, bir tomondan, etikaning rivojlanishi, ikkinchi tomondan esa, psixologiya fanining ma’lumotlari natijasidir. So‘ngi paytlar shuni ko‘rsatdiki, o‘z-o‘ziga ishonch va muvaffaqiyatga intilish — mukofot va rag‘bat natijasi sifatida — jazodan qo‘rqishga qaraganda ancha samaralidir. Jumladan, qiziqarli bir kuzatish shuni ko‘rsatadiki: tennischi muvaffaqiyatli zarbalari uchun o‘zini maqtaganda, u o‘zini har bir xatosi uchun tanqid qilgan paytiga nisbatan yaxshiroq o‘ynaydi.

Harbiy amaliyotda rag‘batlantirish doirasi ancha boy: eng ko‘p qo‘llaniladiganlari — pedagogning iliq nigoh tashlashi hamda tabassumi, «ofarin», «juda yaxshi», «ajoyib» kabi so‘zlari, maqtov, taxsil oluvchini o‘qishga doir baholash, ba’zan esa minnatdorlik bildirishdir. Qizig‘i shundaki, milliy pedagogikada ijobiy mustahkamlash usullarini, jumladan rag‘batlantirish turlarini ishlab chiqishga doimo juda kam e’tibor qaratilgan [8].

Mustaqillikdan oldingi davrda yashirin bir doktrina hukmron edi: rag‘batlantirish go‘yoki ortiqcha hashamatdek qaralardi. Chunki mehnatsevarlik va g‘ayrat qilish har bir insonning oddiy majburiyati hisoblanar, ular alohida mustahkamlashsiz ham bajarilishi lozim, deb hisoblanardi. Albatta, rag‘batlantirish mavjud edi, ammo ularning turli-tumanligi yoki takomillashtirilishi haqida, ayniqsa maktab tarbiyasida, hech kimni hayoliga ham kelmagan va bosh ham qotirmagan (harbiy sohadan esa mukofotlar zarurati doimo yaxshi anglangan). Shu bois ishonch bilan aytish mumkinki, ijobiy mustahkamlash usullarini ishlab chiqish bugungi pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Keling, o‘qishga doir baholash orqali rag‘batlantirish masalasiga to‘xtalaylik. Asosan, baholash rag‘bat yoki jazo emas, balki bilimlar o‘lchovi hisoblanadi. Biroq deyarli hech bir o‘qituvchi bahoni rag‘bat vositasi sifatida qo‘llashdan to‘liq voz kecha olmaydi, shuning uchun uni eng to‘g‘ri va samarali tarzda qo‘llashga intilish zarur. Har qanday pedagog o‘z bahosining o‘quvchiga ta’sirini juda yaxshi his etadi, zarur paytda o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida biroz yuqori baho qo‘yish mumkinligini anglaydi. Ko‘p hollarda o‘qituvchining ichki sezgirligi va hayrixoqligi yaxshi maslahatchi bo‘lib xizmat qiladi, ammo shunga qaramay, barcha ayrim tipik xatolar pozitsiyalarini ko‘rsatib o‘tishlari kuzatishimiz mumkin [10].

Ba’zi pedagoglar o‘z baholarini doimiy ravishda yuqori qo‘yish orqali qadrsizlantiradilar. Bu holat o‘qituvchining tabiatan yumshoqligi yoki bilimlarining yetarli emasligi sababli sodir bo‘ladi. Bunday o‘qituvchining «a’lo» baholari o‘zining

rag‘batlantiruvchi funksiyasini yo‘qotadi.

Bunga qarshi turdagi pedagoglar yaxshi baholarga juda ham qizqanchiq bo‘ladilar, chunki ular buni talabchanlik va o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, deb hisoblaydilar. Bunday bahoning «haqiqiy» qo‘llanishiga rozi bo‘lish mumkin edi, lekin bunday o‘qituvchilar ko‘pincha past baholar qo‘yishda qizqanchiqlik qilmaydilar.

Ma’lum darajada pedagoglarning ba’zi o‘quvchilarni baholashda sustligi ancha tipik holat bo‘lib, u ularning bilim darajasiga yopishtirilgan yorliq yoki tamg‘aga aylanadi. Kuzatilganidek, o‘quvchi mazkur o‘qituvchining reputatsiyasidan chiqib ketishi qiyin; masalan, agar u «uch»chi bo‘lsa, o‘qituvchi uning nazorat ishlari uchun haqli bo‘lgan «to‘rt»ni uncha xoxlamasdan qo‘yadi. «Balkim, ko‘chirib yozgandir», — deb o‘ylaydi o‘qituvchi va «to‘rt» bahosini o‘z kasbiy g‘ururiga zarba sifatida qabul qiladi. Ba’zan o‘quvchi har tarafdan «to‘rtdan beshga» ko‘tarilishga harakat qiladi, lekin o‘qituvchi ishonch bilan bu o‘quvchi «besh»ga bila olmaydi, deb, «uni joyiga qo‘yish» imkonini topadi.

Ijobiy mustahkamlashning yana bir usuli mavjudki, uni «muvaffaqqiyat vaziyatini yaratish» deb atash mumkin. Bu ham insonning o‘z-o‘ziga ishonishini mustahkamlashga qaratilgan, ammo pedagogdan uning biror rag‘batlantirish usulidan foydalanishdan ko‘ra ko‘proq harakat talab qiladi. Bu o‘quvchiga mashg‘ulotlarga tayyorgarlikda maxsus yordam berish, mashg‘ulotlarda chiqishlar qilish uchun yutuqqa olib keladigan materiallar taqdim etish (referat, ma’ruza), murakkab mavzularni o‘zlashtirish uchun oldindan tayyorlash, kuchli sheriklar yordamini tashkil etish va shunga o‘xshash ishlar bo‘lishi mumkin [10].

«Sen qila olasan, sen muvaffaqiyatga erishasan» rag‘batlantirishlar ko‘pqirralidir. Klassik misol sifatida bu usul AQShning bir maktabida psixologlar tomonidan o‘tkazilgan «intellekt koeffitsienti» tadqiqotida qo‘llanilgan «soxtakorlik» na’munasini keltirish mumkin. Ular sinfga kutilmagan holda orqada qolib ketgan o‘quvchilar orasidan eng yuqori ballarni olgan o‘quvchilarni e’lon qilishdi. Natija barcha kutilishlarni ortda qoldirdi: e’tirofga erishgan o‘quvchilar ruhlanib, bilim darajalarini sezilarli darajada oshirdi va semestr oxirida o‘tkazilgan test sinovlariga ko‘ra sinfning yetakchilar guruhiga qat’iy kirishdi. Muvaffaqiyatga ishonch bilan harakat qilish o‘rta va kuchsiz o‘quvchilarning ta’limdagi rivojlanishiga juda ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Albatta, bu usulni oliy ta’lim muassasasida “keng” qo‘llash qiyin, ammo «muvaffaqiyatli vaziyatni yaratish»dagi misol sifatida u juda namunalidir [5].

Pedagoglarga ishni bajarishga «taqiq» usulidan foydalanishni tavsiya qilish mumkin, ya’ni uni tez va sifatli bajarilishini qalbda astoydil istasin. Baholash va undan samarali foydalanish mahoratlariga ish sifatiga boshqaruvchi turli usullar ham kiradi. Ish sifatini oshirish uchun eng yuqori nuqtadagi istakni «to‘xtating», jo‘shqinlikni

ushlab turing, shu orqali ishlarni alohida aniq va puxta bajarilishini ta’minlab, ko‘plab ijobiy sifatlarni shakllantiring [3].

Harakat, uning intensivligi va natijadorligi kayfiyatning natijasi hisoblanishiga e’tibor qarating. Bu bizdan uning o‘zgarishlarini diqqat bilan kuzatishni talab qiladi.

V. Shatalov, N. Guzik, Ye. Volkov va boshqa mashhur pedagog-novatorlar tomonidan qiyin va jizibasi kam o‘quv faoliyatini o‘quvchilar uchun qiziqarli va biz istagan darajada amalga oshirish bo‘yicha ko‘plab yaxshi misollar keltirilgan. Biz «Oilaviy tarbiya bo‘yicha qo‘llanma»dan olingan misoldan foydalanamiz, chunki unda kam ishlangan bir jihat —jozibasi kam ishni bajarishga ruxsat berish orqali rag‘batlantirish — alohida ta’kidlangan [5].

Kim aytadi, kir idishlarni yuvish — qiziqarli va obro‘li ish deb? Ammo bunday ishni nafaqat qiziqarli, balki sevimli ish deb bilgan odamlar ham bor. Bu munosabat qanday paydo bo‘ladi va shakllanadi degan savolga yoshi katta ayol u kichkinaligida onasi unga shunday deydi: «Agar o‘zingni yaxshi tutsang, senga idish yuvishga ruxsat beraman». Bu mukofotni olish istagi yaxshi xulqni rag‘batlantirgan. Mukofot sifatida berilgan idish yuvish ham haqiqiy mukofot sifatida qabul qilingan. Chunki mukofot sifatida «mukofot» bo‘lmagan rag‘bat berilishi mumkin emas.

Ishni jozibali qilishda o‘quvchilarning xatolari ham yordam beradi, aniqroq aytganda, ularga bo‘lgan munosabatingiz. O‘quvchilar xatolaridan maksimal rag‘bat oling: «Ajoyib xato!», «Tasodifiy bo‘lmagan xato!», «Haqiqatga olib boradigan xato!», «Rahmat, sening fikring to‘liq to‘g‘ri emas, lekin mulohaza qilish uchun ozuqadir». O‘quvchilarning kuzatuvchanligining aniq va nozikligini har tomonlama ta’kidlab turung: «Avval men shunday deb o‘ylardim...». Xatoni osonlik bilan tuzatish mumkindek ko‘rsating, shunda o‘quvchilarga topshirilayotgan ish ularga qiyin bo‘lmaganday seziladi [4].

Shu tariqa, umumiy tendensiya shundan iboratki, yuqorida ta’kidlangan ijobiy mustahkamlash usullari o‘quvchilarni rag‘batlantirishda ustuvor vositaga aylanmoqda. Bunday faktni tan olish, albatta, quvonchli, ammo buning ortida pedagogik reallikning rang-barang manzarasi yashiringan, unda salbiy mustahkamlash usullari, ya’ni turli jazolar juda sekinlik bilan o‘z pozitsiyalarini tark etishini ko‘rishimiz mumkin. Gap jismoniy jazolar haqida emas, balki kursantlar uchun ancha kuchli «qamchin» bo‘lishi mumkin bo‘lgan ruhiy salbiy ta’sirlarni nazarda tutadi. Ular orasida eng ko‘p uchraydiganlari — tanbehlar, ta’zirlar, tana qilishlar, ogohlantirishlar, tahdidlar, kinoyali luqmalar, qattiq botadigan gap ohanglari, hayfsan e’lon qilish ko‘rinishida jazolash kabi usullardir. Ya’ni, biz uni «jazo beruvchi pedagogika» deb ataydigan ko‘p sonli usullar texnikasidir.

«Jazo» atamasini pedagogik adabiyotlarda ommabopligi sekin-asta pasayib bormoqda va unga pedagogikaga qarshi, biroz xunuk sado berayotgandek his qilinadi.

Biroq amaliyotda jazo keng tarqalgan bo‘lib, shu bois bu hodisaning sabablarini illyuziyalarga berilmay tushunishimiz zarur. Birinchidan, pedagoglar ommaviy psixologiya va muloqot madaniyatining vakillari bo‘lib, unda ma’lum bir ahamiyatli xulq-atvorlarning buzilishini kechirish emas, balki asosan kurash va bardosh bilan yengib o‘tish stereotipi ustuvor bo‘ladi. O‘quvchilarning ma’lum bir ahamiyatli xulqi — pedagog talablarini bajarishdan iborat, shu bois uni bajarmaslik jazo qo‘llashni qo‘zg‘atadi. Ikkinchidan, kursantlar bilan ishlashning o‘zi doimiy qarshilik va nizoli vaziyatlar bilan bog‘liq. Bu ayniqsa birinchi va ikkinchi kurs kursantlarida yaqqol ko‘rinadi. Buning hammasi «qarshilik submadaniyati»ni kuchaytiradi ham qo‘shiladi. Shuningdek, o‘qituvchi uchun ish faqat dars berish emas, balki doimiy kurash va yengib o‘tishdan iborat bo‘ladi. Pedagog uchun kurashish, shuningdek, ko‘ngilchan, og‘ir-vazmin va samimiy bo‘lib qolish qiyin. Norozilik va g‘azablanish chiqish yo‘lini qidiradi, chunki jismoniy jazo va judayam qo‘pollikni imkoni yo‘q, salbiy his-tuyg‘ular vaysash, zaharhandalik, pand-nasihatlar «jazo pedagogikasi»ning boshqa andozalariga aylanadi. Jazo juda ham individual bo‘lishi, haddan tashqari alohida shaxsga moslashtirilishi lozim.

Keling, pedagogik jazolarni imkon qadar samarali qilish uchun qanday shartlarga rioya qilish kerakligini ko‘rib chiqaylik. Jazo, albatta, adolatli bo‘lishi kerak, ya’ni uni pedagogning yomon kayfiyati ta’sirida qo‘llash mumkin emas va o‘quvchining aybdorligiga to‘liq ishonch bo‘lganda qo‘llanishi zarur. Agar bunday ishonch bo‘lmasa, jazo qo‘llanmasligi lozim. Jazolar asosan turli xil adolatsizlik, ochiq egoizm, tahdidkorlik va hamkasblarga nisbatan faol takabburlik kabi xulqlar uchun joiz bo‘lishi mumkin. Dangasalik va o‘zlashtira olmaslik uchun jazo kamroq axloqiy va ta’sir ko‘rsatadigan hisoblanadi, chunki bu kamchiliklar ko‘pincha o‘quvchining irodasi yetarli rivojlanmaganligi natijasidir. Bunday hollarda jazo o‘rniga yordam ko‘rsatish kerak. Albatta, agressivlik va manmanlik ham shaxsga bog‘liq bo‘lmagan tashqi omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, ammo hozirgi bosqichda jamiyat o‘zining rivojlanishida shaxsni bunday xulq uchun aybdan ozod qila olmaydi. Ehtimol, jazolarni «jazo pedagogikasi»siz — keragidan ortiq va konstruktiv bo‘lmagan xulq-atvor usullari qo‘llash lozim, ya’ni asosiy maqsad pedagogning salbiy his-tuyg‘ulariga munosib javob berish hisoblanadi. Jazo qo‘llashda barcha pedagogik xatolarni oldindan ko‘rish qiyin, chunki ular pedagogning individual psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Eng yaxshisi, jazolar asoslangan bo‘lishi lozim [5].

Xulosa qilib aytish mumkinki, rag‘batlantirish usullari pedagogik texnologiyaning muhim, lekin yagona qismi emas. Bu yerda tarbiyalanuvchilarning faoliyatini tashkil etish va ularning o‘zlariga aktual bo‘lgan muammolarga to‘g‘ri munosabatini shakllantirish ham yuqori ahamiyatga ega. **Pedagogikaning bosh maqsadi** — o‘quvchilarning o‘zini tarbiya qilish salohiyatini rivojlantirishdan iborat

bo‘lib, bu, aslida, inson ongi rivojlanishining qonuniyatlariga to‘liq mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] T.X. Madraximov, A.Q. Mirzaolimov “Oliy harbiy ta’lim muassasasi o‘quv jarayonini elementlarini o‘zaro faoliyati va uning tizimli boshqaruvini takomillashtirishdagi muhim omillar”, “Ofitserlar malakasini oshirish, zaxira va rezervdagi ofitserlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish yo‘llari” mavzusidagi Respublika ilmiy–amaliy konferensiyasi maqolalar to‘plami., AKT va AHI - Toshkent, 2024 yil 30 oktabr, 100-104 b.

[2] T.X. Madraximov, G.Sh. Tulyaganov, D.M. Madraximova “Oliy harbiy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining uslubiy mahoratini takomillashtirish”, Globallashuv sharoitida axborot xavfsizligiga zamonaviy tahdidlar, ularni xal etishning innovatsion usullari Respublika ilmiy-texnik konferensiya. Toshkent 30.11.2022 y (222-229 b.).

[3] T.X.Madraximov, A.A.Beknazarov “O‘quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda mashg‘ulotning texnologik xaritasi va uning tuzilishining psixologik tahlili”, ICT in EDUCATION CHELLENGES&SOLUTIONS international conference proceedings Tashkent, may 20, 2021 (52-55 b.).

[4] A.A.Beknazarov, T.X.Madraximov “Harbiy-pedagogik jarayonda pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning muhim omillari”, ICT in EDUCATION CHELLENGES&SOLUTIONS international conference proceedings Tashkent, may 20, 2021 (120-124 b.).

[5] Р.К. Сайфудинов, А.В. Воробьёв, Д.В. Редькин Стимулирование обучения курсантов в военных вузах, Создание и использование тренажерных средств для подготовки личного состава Вооруженных Сил Российской Федерации - тезисы докладов, Санкт-Петербург – Тверь., 2020 г., - 17-23 с

[6] Платонова, Н.М. Педагогическое стимулирование как условие повышения эффективности обучения // Н.М. Платонова / Проблемы и пути перестройки процесса обучения в школе. - Л., 1990.

[7] Азаров, Ю.П. Семейная педагогика / Ю.З. Азаров. - М., 1992.

[8] Макаренко, А.С. О воспитании / А.С. Макаренко. - М., 1988.

[9] Маркова, А.К. Формирование мотивации учения / А.К. Маркова, Т.А. Матис, А.Б. Орлов. - М., 1990.

[10] Белкин, А.С. Ситуация успеха. Как ее создать / А.С. Белкин. - М., 1991.

BUGUNGI TAHLIKALI VAZIYATLARDA HARBIY KADRLARNI TAYYORLASH VA QAYTA TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI *(ROSSIYA – UKRAINA URUSHI MISOLIDA)*

Maxmudov Sh.T., Alayev S.P.
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Ushbu tezisda bugungi tahlikali geosiyosiy vaziyatlarda harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Rossiya–Ukraina urushi misolida zamonaviy urushning yangi xususiyatlari, axborot-psixologik qarama-qarshiliklar, texnologik ustunlik hamda harbiy strategiyalarni yangilash zaruriyati yoritiladi. Shuningdek, harbiy xodimlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari harbiy ta’lim tizimini yanada samarali tashkil etish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *harbiy kadrlar, tayyorlash va qayta tayyorlash, Rossiya–Ukraina urushi, geosiyosiy tahdidlar, zamonaviy urush, axborot-psixologik qarama-qarshilik, texnologik ustunlik, harbiy ta’lim.*

Аннотация*. В данной статье анализируются особенности подготовки и переподготовки военных кадров в условиях современных геополитических угроз. На примере российско-украинской войны рассматриваются новые характеристики современных вооружённых конфликтов, информационно-психологическое противоборство, технологическое превосходство и необходимость обновления военных стратегий. Особое внимание уделено вопросам повышения профессиональной подготовки военнослужащих, применения современных технологий и развития навыков быстрого принятия решений. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования системы военного образования.*

Ключевые слова: *военные кадры, подготовка и переподготовка, российско-украинская война, геополитические угрозы, современная война, информационно-психологическое противоборство, технологическое превосходство, военное образование.*

XXI asrda geosiyosiy vaziyatning beqarorligi, yangi xavf va tahdidlarning paydo bo‘lishi, gibrid urushlarning kengayishi davlatlarning mudofaa siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, Rossiya–Ukraina urushi global xavfsizlik arxitekturasi uchun sinov bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur mojaro nafaqat ikki davlatning harbiy salohiyati, balki butun dunyo bo‘ylab harbiy ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining zamonaviy talablarga qay darajada mos ekanini ko‘rsatdi.

Rossiya–Ukraina urushi misolida shuni kuzatish mumkinki, qisqa muddat ichida safarbar etilgan zaxira kuchlari yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lmagani sababli katta talafotlarga uchradi. Shu bilan birga, Ukraina o‘zining mavjud inson salohiyatini samarali qayta tayyorlash orqali frontdagi imkoniyatlarini kengaytira oldi. Bu esa harbiy ta’lim jarayonining nafaqat an’anaviy, balki tezkor, moslashuvchan va texnologik jihatdan boyitilgan shakllarini joriy etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Demak, bugungi tahlikali sharoitlarda harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning o‘ziga xos jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Harbiy kadrlarni tayyorlash masalasi qadimdan davlat mudofaasi tizimining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. An’anaviy yondashuvda bu jarayon uch asosiy bosqichda tashkil etiladi:

Boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik – yoshlarni dastlabki nazariy bilimlar, saf tartibi, qurol-aslahadan foydalanish va jismoniy tayyorgarlik bilan ta’minlash. Bu bosqich, odatda, maktab va kollej darajasida, shuningdek, harbiy chaqiruv orqali amalga oshiriladi.

Professional harbiy ta’lim – oliy harbiy o‘quv yurtlarida ofitser va qo‘mondon kadrlarni tayyorlash. Bu jarayonda strategik fikrlash, taktik qaror qabul qilish, qo‘mondonlik ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Xizmat davomidagi malaka oshirish – ofitserlar va askarlarni zamonaviy texnologiyalar, yangi qurol turlari, kiberxavfsizlik va jangovar taktikalar bilan tanishtirish, ularni doimiy ravishda qayta tayyorlash.

Zamonaviy urushlar shuni ko‘rsatadiki, bu an’anaviy yondashuv yetarli emas. Chunki bugungi xavfsizlik tahdidlari klassik jangovar harakatlardan tashqari:

- **Kiberhujumlar**,
- **Axborot urushlari**,
- **Dronlar va sun’iy intellekt asosidagi qurollar**,
- **Gibrid va asimmetrik urush shakllari** bilan ham xarakterlanmoqda.

Shu bois harbiy kadrlarni tayyorlashda quyidagi nazariy tamoyillar dolzarb hisoblanadi:

- **Moslashuvchanlik** – kadrlar tez o‘zgaruvchan jangovar sharoitlarga moslashishi lozim.
- **Texnologik tayyorgarlik** – harbiy xizmatchilar zamonaviy texnik vositalardan samarali foydalana olishi zarur.
- **Psixologik barqarorlik** – uzoq muddatli jangovar sharoitlarda ruhiy bosimga bardosh berish.
- **Integratsiyalashgan ta’lim** – fuqarolik sohalaridan (IT, muhandislik, tibbiyot) harbiy sohaga bilimlarni ko‘chirish.

Nazariy jihatdan qaralganda, harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi **milliy mudofaa siyosati** bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u davlatning geosiyosiy manfaatlari, strategik xavfsizlik ehtiyojlari va mavjud texnologik imkoniyatlariga mos ravishda shakllanadi.

Rossiya–Ukraina urushi zamonaviy harbiy operatsiyalarni qayta tushunishga turtki berdi: an’anaviy katta hajmli qo‘shinlar va chiziqli jangovar amaliyotlar har doim ham kutgan natijani bermayotgani aniqlandi. Urushning dastlabki bosqichlarida Rossiya an’anaviy, ko‘lamli qo‘shinlardan foydalanishga urinib, katta personalli operatsiyalarni amalga oshirdi, biroq bu yondashuvning samaradorligi muammolarga duch keldi va tezda kamchiliklari ochiq ko‘rinib qoldi. Shu bilan birga, Ukraina juda tez moslashib, kichik mobil guruhlar, diversiya-taktika va dronlardan keng foydalangan holda raqib ustunligini pasaytirdi.

Urush davomida kichik, yuqori mobil guruhlarning roli oshdi: razvedka, tezkor hujum-va-qochish operatsiyalari va diversiya amaliyotlari muvaffaqiyat kalitiga aylandi. Bunday taktik uslublar katta tajribali qo‘mondonlik va murakkab logistika talab qilmaydi, ammo xuddi shu paytda yakka tartibdagi ofitserlar va serjantlardan keng vakolat va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini talab etadi. Shu sababli tayyorgarlik dasturlarida «komanda-sathi» (small-unit) taktikalar, qaror qabul qilish mashqlari va reja asosida o‘qitishlarga alohida e’tibor qaratish kerak.

Dronlar texnologiyalarini samarali qo‘llash front chizig‘ini tezkor ravishda o‘zgartirishga, real vaqtda ma’lumot olishga hamda inson resurslari samaradorligini oshirishga imkon berdi. Natijada harbiy kadrlar dron operatsiyalarini tushunishi, ularni boshqarishi va qarshi choralar (EW — elektron kurash) bilan shug‘ullanish qobiliyatiga ega bo‘lishi muhim bo‘lib qoldi.

Urushda tijorat kosmik xizmatlari ham harbiy amaliyotlarga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, Sun’iy yo‘ldosh interneti (Starlink) Ukrainaga barqaror aloqa imkoniyatini taqdim etdi, bu esa harbiy boshqaruv va real vaqtda ma’lumot almashinuvi uchun katta ustunlik yaratdi. Shu bilan birga, tijorat xizmatlarining siyosiy va texnik cheklovlari, hamda ularni nazorat qiluvchi sub’yektlarning qarorlari (masalan, xizmatni to‘xtatish holatlari) harbiy rejalarga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi. Harbiy kadrlarni tayyorlashda kosmik va tijorat kommunikatsiyalarni tushunish, ularni joriy vaziyatga moslash va zaxira aloqa rejalarini ishlab chiqish zarurati tug‘ildi.

Ukraina misolida ko‘ngillilar, muhandislar, tibbiyot xodimlari va IT-mutaxassislar qisqa muddatli intensiv kurslar orqali front ehtiyojlariga moslashtirildi. Bu amaliyotning samarasi shuni ko‘rsatdiki, harbiy-ta’lim tizimi fuqarolik sohasidagi malakalarni harbiy kontekstga o‘tkazish (reskilling/upskilling) mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim. Bunday yondashuv mintaqalarda tezkor inson resurslarini shakllantirish imkonini beradi.

Rossiya–Ukraina urushi shuni ko‘rsatdiki, harbiy kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi an’anaviy salkam «katta hajm + standart trening» tamoyiliga asoslanib qololmaydi. Zamonaviy urush xarakteri — dronlar, kiber va elektron urush, kosmik-kommunikatsiya vositalarining integratsiyasi va asimmetrik taktikalar — kadrlarni yangi kompetensiyalar (texnologik, kiber, EW, psixologik chidamlilik va taktik moslashuvchanlik) bilan ta’minlashni talab qiladi. Ushbu talablar nafaqat ta’lim dasturlarini, balki harbiy institutsional tizimlarni (zaxira tayyorlash, tezkor qayta tayyorlash, fuqarolik-harbiy hamkorlik) yangilashni ham taqozo etadi.

Urush sharoitida mavjud kadrlarni qayta tayyorlash yanada muhim ahamiyat kasb etadi. 2022-yil kuzida Rossiyada qisman safarbarlik e’lon qilinib, zaxiradagi fuqarolar qisqa muddatda qayta tayyorlandi. Biroq qisqa muddatli kurslar jangchilarning murakkab jangovar sharoitlarga to‘liq moslashuvi uchun yetarli bo‘lmadi. Natijada, safarbar qilinganlarning bir qismi texnologik vositalardan foydalanishda, jangovar koordinatsiyada va psixologik tayyorgarlikda kamchiliklarga duch keldi. Bu tajriba sifatli, uzluksiz va tizimli harbiy ta’limning hal qiluvchi ahamiyatini yaqqol ko‘rsatdi.

Ukrainada esa qayta tayyorlash jarayoni biroz boshqacha kechdi. Xususan:

- **IT-mutaxassislar** – kiberhujumlarni bartaraf etish, dronlarni boshqarish va razvedka ma’lumotlarini qayta ishlashga jalb qilindi.
- **Muhandislar** – mudofaa inshootlari, mina maydonlari va texnik ta’minotda faol ishtirok etdi.
- **Tibbiyot xodimlari** – jang maydonida tezkor yordam ko‘rsatish, evakuatsiya tizimlarini samarali yo‘lga qo‘yishda muhim rol o‘ynadi.

Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy urushlarda fuqarolik sohalaridagi bilim va ko‘nikmalarni harbiy ehtiyojlarga moslashtirish zarur. Demak, harbiy ta’lim tizimi:

- **tezkor qayta tayyorlash kurslari**
- **modulli ta’lim dasturlari**
- **soha bo‘yicha mutaxassislarni integratsiya qilish** orqali takomillashtirilishi lozim.

Natijada, qayta tayyorlash faqat harbiy bilimlarni takrorlash emas, balki mavjud fuqarolik salohiyatini harbiy vazifalarga moslashtirish jarayoniga aylanadi.

Qiyosiy tahlil

Quyidagi jadval Rossiya va Ukraina tajribasini asosiy jihatlar bo‘yicha solishtirish imkonini beradi:

Mazkur tahlil shuni ko‘rsatadiki, Rossiya ko‘proq an’anaviy yondashuvga tayanib, safarbar qilinganlarni qisqa muddatda frontga yuborgan. Ukraina esa ko‘ngillilarni va turli soha mutaxassislarini jang maydoniga integratsiya qilib, zamonaviy texnologiyalar va psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali jangovar samaradorlikni oshirgan.

1-jadval

Asosiy jihatlar	Rossiya tajribasi	Ukraina tajribasi
Mobilizatsiya	Qisman safarbarlik, qisqa muddatli tayyorgarlik	Ko‘ngillilar va zaxira kuchlarning tezkor integratsiyasi
Texnologiyalar	Elektron urush vositalariga e’tibor	Dronlar va **Starlink** tizimidan keng foydalanish
Psixologik tayyorgarlik	Cheklangan yondashuv, qisqa kurslar	Rotatsiya, ruhiy tiklanish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi

Rossiya–Ukraina urushi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bugungi tahlikali sharoitlarda harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

1. **Gibrid va texnologik urushlarga moslashuv** – an’anaviy jangovar tayyorgarlik yetarli emas, zamonaviy urushlar kiberxavfsizlik, dron texnologiyalari, sun’iy intellekt va axborot urushlarini ham o‘z ichiga oladi.

2. **Qisqa muddatli, lekin intensiv kurslar** – safarbar qilingan yoki zaxiradagi kadrlarni tezkor ravishda front sharoitiga moslashtirish uchun modulli va amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan dasturlar zarur.

3. **Harbiy va fuqarolik sohalarini integratsiyalash** – IT-mutaxassislar, muhandislar, tibbiyot xodimlari va boshqa kasb egalari qisqa muddatli maxsus kurslar orqali harbiy vazifalarga moslashtirilishi lozim.

4. **Psixologik barqarorlikni ta’minlash** – uzoq muddatli jangovar harakatlarda shaxsiy tarkibni ruhiy bosimga tayyorlash, rotatsiya tizimini joriy etish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish zarur.

5. **Uzluksiz yangilanish** – harbiy ta’lim tizimi global geosiyosiy vaziyatlar, yangi qurol turlari va urush tajribalaridan kelib chiqib, doimiy ravishda modernizatsiya qilinishi shart.

Xulosa qilib aytganda bugungi tahlikali geosiyosiy vaziyatlar, xususan Rossiya–Ukraina urushi misolida, harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash masalasi global miqyosda dolzarb ekanini ko‘rsatmoqda. Zamonaviy urushlar faqat an’anaviy qurollar bilan emas, balki kiberxavfsizlik, axborot urushi, dronlar, sun’iy intellekt va yuqori texnologiyalarga asoslangan qurol-yarog‘lar bilan olib borilmoqda. Shunday sharoitda harbiy xizmatchilarning nafaqat jismoniy va taktik tayyorgarligi, balki texnologik savodxonligi, strategik fikrlash qobiliyati ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, doimiy tahdidlar sharoitida kadrlarni qayta tayyorlash tizimini tezkor, moslashuvchan va zamon talablariga javob beradigan qilish zaruriyati yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Milliy xavfsizlik va harbiy sohadagi islohotlar*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. Saidov A.X., Rustamov O. *Geosiyosat va xavfsizlik masalalari*. – Toshkent: Fan, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2018.

4. Qodirov M. *Harbiy ta’lim va zamonaviy urush tahdidlari.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2022.

5. NATO. *Strategic Concept 2022*. – Brussels: NATO Public Diplomacy Division, 2022.

6. Freedman, L. *Ukraine and the Art of Strategy*. – Oxford University Press, 2019.

BO‘LAJAK OFITSER KADRLARNING HARBIY-KASBIY TAYYORGARLIGI SIFATINI TA‘MINLASH JARAYONINING MAZMUN-MOHIYATI VA TARKIBIY XUSUSIYATLARI

Murodova Y.T.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya*: Ushbu maqolada bo‘lajak ofitser kadrlarning harbiy-kasbiy tayyorgarligi jarayoni, uning mazmuni va tarkibiy xususiyatlari yoritilgan. Harbiy tayyorgarlik jarayonida ma’naviy-axloqiy, nazariy, amaliy va jismoniy omillarning o‘zaro uyg‘unligi ta’minlanishi zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, ofitser shaxsining kasbiy mahorati, yetakchilik qobiliyati va yuksak mas’uliyat hissi kabi sifatlari shakllanishida ta’lim-tarbiya jarayonining o‘rni ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: ofitser, harbiy-kasbiy tayyorgarlik, intizom, ma’naviy-axloqiy tarbiya, jangovar tayyorgarlik, kasbiy kompetensiya.

Аннотация*: В данной статье освещается процесс военно-профессиональной подготовки будущих офицерских кадров, ее содержание и структурные особенности. Обоснована необходимость обеспечения взаимной гармонии духовно-нравственных, теоретических, практических и физических факторов в процессе военной подготовки. Также раскрыта роль образовательно-воспитательного процесса в формировании таких качеств офицера, как профессиональное мастерство, лидерские способности и высокое чувство ответственности.*

Ключевые слова: военно-профессиональная подготовка, дисциплина, духовно-нравственное воспитание, боевая готовность, профессиональная компетентность.

Bugungi kunda mamlakat xavfsizligi va barqaror taraqqiyoti ko‘p jihatdan ofitser kadrlarning harbiy-kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Harbiy xizmatchilarning, ayniqsa bo‘lajak ofitserlarning puxta tayyorgarlikka ega bo‘lishi armiyaning jangovar salohiyatini belgilaydi. Shu bois harbiy ta’lim muassasalarida ofitser kadrlarni tayyorlash jarayonini ilmiy asoslangan metodika bilan tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi.

Harbiy-kasbiy tayyorgarlik - bu ofitser shaxsini professional faoliyatga tayyorlashga qaratilgan, nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, jismoniy tayyorgarlik va ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining yaxlit majmuasidir. U quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi, nazariy bilimlar (harbiy fanlar, strategiya va taktika asoslari), amaliy ko‘nikmalar (qurol-aslaha bilan muomala, jangovar mashg‘ulotlar, boshqaruv ko‘nikmalari), jismoniy tayyorgarlik (yashuvchanlik, chidamlilik, tezkorlik, kuch va sog‘lom turmush tarzi), ma’naviy-axloqiy tarbiya (vatanparvarlik, fidoyilik, mas’uliyat, ofitser sha’ni va nomusi).

Harbiy-kasbiy tayyorgarlik jarayonining asosiy yo‘nalishlari, bu ta’lim yo‘nalishlari nazariy fanlar va maxsus harbiy bilimlarni o‘rganish, tarbiya yo‘nalishi axloqiy, mafkuraviy va vatanparvarlik ruhida shakllantirish hisoblanadi.

Amaliy yo‘nalish mashg‘ulotlar, dala sharoitidagi taktik mashqlar, jismoniy yo‘nalish sog‘lom turmush tarzi va kuchli jismoniy tayyorgarlik bilan xarakterlanadi.

Tayyorlov jarayonining tarkibiy xususiyatlari bu bilim, ko‘nikma va sifatlarning birgalikda kompleks tarzda shakllanadi. Uzviylik integratsiya- nazariy ta’lim bilan amaliy mashg‘ulotlarning uyg‘unligi va bosqichma-bosqichlik- oddiy mashqlardan murakkab harbiy topshiriqlargacha izchil o‘sish hisoblanadi.

Har bir kursantning individual qobiliyati va salohiyatini hisobga olish, uni psixoligiyasi va shaxsini chuqur o’rganish, bo‘lajak ofitser shaxsida shakllantiriladigan kasbiy sifatlar, mustahkam bilim va keng dunyoqarash, qat’iyatlilik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, yetakchilik va jamoani boshqarish ko‘nikmasidir.

Vatanparvarlik va ofitser sha’ni, jismoniy va ruhiy chidamlilik, bo‘lajak ofitser kadrlarning harbiy-kasbiy tayyorgarligi-bu ko‘p qirrali va kompleks jarayondir. Bu jarayon nazariy, amaliy, jismoniy va ma’naviy yo‘nalishlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. Mazkur jarayon sifatli tashkil etilganda, armiyamizning jangovar salohiyati oshadi, ofitser shaxsida vatanparvarlik, kasbiy mahorat va rahbarlik qobiliyatlari shakllanadi. Keng dunyoqarashni shakllantiruvchi omillar, bu bilimlarning kengligi va xilma-xilligi, faqat o‘z sohasi bo‘yicha emas, balki ijtimoiy,

siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va texnologik bilimlardan xabardor bo‘lish hisoblanadi.

O‘qish va mutolaa madaniyati, bu ilmiy, badiiy va tarixiy adabiyotlarni muntazam o‘qish, yangi g‘oyalarni tahlil qilish, axborot makoni bilan ishlash, zamonaviy axborot texnologiyalari, internet, ilmiy maqolalar, hujjatlar bilan ishlashni bilish, mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuv, har qanday axborotni tahlil qilish, uning foydali yoki zararli tomonlarini ko‘ra bilishdir.

Kursantlarning dunyoqarashini rivojlantirish metodlari, bu interfaol metodlar (munozara, debat, “aqliy hujum”, “klaster” usuli), keys-stadi – muayyan vaziyatni tahlil qilish va hal etish orqali qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish, multidisiplinar yondashuv – bir mavzuni turli fanlar nuqtayi nazaridan o‘rganishdir.

Amaliy metodlar, mashg‘ulot va treninglar – jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarni yechish, rolli o‘yinlar – boshqaruv, yetakchilik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalar – simulyatorlar, elektron ta’lim dasturlari, onlayn kurslardan foydalanish hisoblanadi.

Tarbiyaviy metodlar, ma’naviy-ma’rifiy suhbatlar – vatanparvarlik, axloqiy qadriyatlar haqida muloqot, hayotiy misollar – buyuk shaxslar hayoti va faoliyatidan o‘rnak olish, ijodiy topshiriqlar – esse yozish, mustaqil loyiha ishlab chiqish, o‘z ustida ishlash, kundalik yuritish – o‘qilgan kitoblar, kuzatuvlar va mulohazalarni qayd etishdir.

Rejalashtirish va refleksiya – o‘z ustida ishlash uchun rejalar tuzish, natijalarni tahlil qilish, muloqot madaniyatini shakllantirish – turli qarashlarga ega insonlar bilan suhbatlashish hisoblanadi.

Keng dunyoqarashni rivojlantirish uchun insonning bilim olishga bo‘lgan intilishi, tanqidiy fikrlashi, ijtimoiy faoliyati, madaniyatlararo aloqasi va ijodiy yondashuvi asosiy omillardan hisoblanadi. Bu jarayonda ta’lim, tarbiya va o‘z ustida ishlash metodlaridan kompleks foydalanish yuqori samara beradi.

Ofitserlarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish, harbiy xizmatda ofitser shaxsining kasbiy mahorati nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikmalarga ham bevosita bog‘liq. Amaliy ko‘nikmalar ofitserning jangovar vaziyatda tezkor qaror qabul qilishi, qo‘shinlarni boshqarishi va shaxsiy namunasi orqali askarlarni ruhlantirishida asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli, ofitserlarni tayyorlash jarayonida amaliy mashg‘ulotlar va maxsus tadbirlar keng va tizimli yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Ofitserlarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun zarur tadbirlar, jangovar mashg‘ulotlar va dala o‘quvlari, jangovar harakatlar sharoitida ofitserning bo‘linmani boshqarish qobiliyatini rivojlantirish, taktik harakatlarni modellashtirish va dala sharoitida mashq qilish, qurol-aslaha va texnikani o‘zlashtirish, harbiy texnika,

aloqa vositalari va zamonaviy qurol turlari bilan ishlash, qurolni qismlarga ajratish, yig‘ish, sozlash bo‘yicha normativlarni bajarish hisoblanadi.

Rahbarlik va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish, jamoani boshqarish bo‘yicha mashqlar, yetakchilik psixologiyasini o‘rganish va turli vaziyatlarda samarali buyruq berish, taktik simulyatsiyalar va kompyuter texnologiyalari, virtual yoki real poligonlarda mashg‘ulotlar, qaror qabul qilish tezligini oshirishga qaratilgan kompyuter dasturlari hisoblanadi.

Jismoniy va psixologik tayyorgarlik tadbirlari, maxsus sport mashg‘ulotlari, stressga chidamlilikni oshirish bo‘yicha psixologik treninglar, aloqa va koordinatsiya mashg‘ulotlari, aloqa texnologiyalaridan foydalanish orqali jangovar vaziyatni boshqarish, guruhlararo muvofiqlikni ta’minlash uchun maxsus mashqlar, o‘quv yig‘inlari va qo‘shma mashqlar, har xil qo‘shin turlari ishtirokida o‘quv yig‘inlarini tashkil etish, hamkorlikdagi mashg‘ulotlar orqali tajriba almashish, harbiy strategiya va taktikaga oid keys-stadilarni tahlil qilish, harbiy tarixdan saboq olish va amaliy vaziyatlarga tatbiq etishdir.

Xulosa qilib aytganda, ofitserlarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish — murakkab va ko‘p bosqichli jarayon. Bunda jangovar mashg‘ulotlar, qurol-aslahani mukammal bilish, rahbarlik va boshqaruv mashqlari, jismoniy hamda psixologik tayyorgarlik tadbirlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi zarur. Bu tadbirlar muntazam tashkil etilganda, ofitser o‘z bo‘linmasini har qanday sharoitda samarali boshqara oladigan yuqori malakali rahbar sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

2. Дудулин, В.В. Повышение эффективности военно-профессиональной подготовки курсантов вузов РВСН в современных условиях: монография / В.В. Дудулин. - М., 2007. - 240 с.

MALAKA OSHIRISH TIZIMI PEDAGOGIK FAOLIYATIDA KASBIY KOMPETENTSIYANING O‘RNI VA ROLI

Axmedova M.D.
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya*:Ushbu maqolada o‘qituvchilarning ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari haqida fikr yuritilgan. Malaka oshirish tizimi va pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentsiya mavzusi hozirgi vaqtda ta'lim sohasida juda muhimdir. Ta'limning o‘zgaruvchan va tez rivojlanayotgan*

muhitida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning ta'lim sifatini yaxshilashda, pedagoglar o‘z malakasini muntazam ravishda oshirishi muhim masala xisoblanadi.

***Аннотация**: В данной статье обсуждаются вопросы развития профессиональной компетентности преподавателей в образовательных учреждениях.*

Система повышения квалификации и профессиональная компетенция в педагогической деятельности в настоящее время очень важны в сфере образования. В условиях меняющейся и стремительно развивающейся образовательной среды важным вопросом является повышение эффективности педагогической деятельности и повышение качества образования учащихся, регулярное повышение квалификации педагогов.

Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg‘or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish hozirgi kunning muhim vazifalari sifatida belgilangan.

Hozirgi taraqqiyotimizning talablari asosida ta'lim standartlari takomillashtirilib, dasturlar modernizatsiya qilinib, ta'lim muassasalariga yetkazib berilmoqda va bu jarayon pedagog o‘qituvchilarni o‘z ishiga nisbatan yanada mas'uliyatli bo‘lishga undaydi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida ko‘proq shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish, shuning¬dek, ularning mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning boshlang‘ich tushunchalarni o‘rganish asosida tushunchalarning ilmiyligi, yangiligi va ishonchliligini tahlil qilish, eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida axborotlar almashinuviga alohida e'tibor qaratish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Malaka oshirish tizimi va pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentsiya mavzusi hozirgi vaqtda ta'lim sohasida juda muhimdir. Ta'limning o‘zgaruvchan va tez rivojlanayotgan muhitida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning ta'lim sifatini yaxshilashda, pedagoglar o‘z malakasini muntazam ravishda oshirishi muhim masala xisoblanadi.

Malaka oshirish – pedagoglar uchun kasbiy faoliyatni to‘g‘ri va samarali amalga oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Bu tizim, nafaqat pedagoglar uchun, balki ularning o‘quvchilari va butun ta'lim muassasalari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Malaka oshirish tizimi ta'lim muassasalaridagi pedagoglar uchun mukammal kasbiy

bilimlarni va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bu tizim pedagoglarning ilmiy va pedagogik bilimini, o‘qitishdagi ko‘nikmalarini, innovatsion metodlardan foydalanish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan.

Malaka oshirish tizimi pedagoglarning:

- pedagogik nazariy bilimlarini mustahkamlash
- yangi o‘qitish usullari va texnologiyalarini o‘rganish
- tajriba va ko‘nikmalarini oshirish
- innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo‘lgan omillardan biri o‘qituvchilar faolligini ta'minlash va mustaqil faoliyatini tashkil qilish bo‘lib, mazkur jarayonlar sama¬radorligi nafaqat ularning malakasini oshirishni tashkil etishga, balki mustaqil ta'limni yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchilarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, refleksiv ta'limiy muhitni hamda o‘zaro ta'sir jarayonini tashkil etishga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini ularning mustaqil olgan tushunchalari asosida tashkil etish va mazkur jarayonda ularni ijodiy fikrlashga undash asosida faolligini ta'minlash, shuningdek, ularda refleksiv qobiliyatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari komponentlaridan biri hisoblangan tarbiyaviy munosabatlar jarayoniga e'tibor qaratadigan bo‘lsak, "inson-inson" munosabatlari shaklida birinchi navbatda ta'lim muassasasi rahbarlarining o‘qituvchilar bilan "rahbar-o‘qituvchi", o‘qituvchi¬larning o‘z o‘quvchilari bilan "o‘qituvchi-o‘quvchi", o‘qituvchi¬larning o‘z kasbdoshlari bilan "o‘qituvchi-o‘qituvchi" munosabat- larini, ya'ni mazkur jarayonda o‘zaro bevosita ta'sir mavjudligini ko‘ramiz. Bu bevosita ta'sir, muloqot jarayonida yoki muloqotsiz masofadan turib ham mavjud bo‘lishi mumkin. Muloqot jarayonida rahbarlar va o‘qituvchilarning samimiy va diqqat bilan o‘z suhbatdoshiga qarab turishi va uni tinglay bilishi, suhbatdoshiga o‘z fikrini to‘la va to‘g‘ri ifodalashi hamda samimiy suhbatlashishi uchun imkon yaratish bilan bir qatorda, o‘qituvchi-larning o‘z rahbarlari bilan bemalol suhbatlashishlari, o‘z fikrlarini va takliflarini rahbarlarga bildirishlari, yangiliklar yaratish borasida ham rahbarlarga suyanish mumkinligiga ishonch hosil qilishlarida, shuningdek, o‘qituvchilar o‘rtasidagi munosabatlarda ham o‘zining ijobiy samarasini beradi.

Ixtiyoriy rahbar o‘z xodimlarining barchasi bilan ham doimiy jonli muloqotda bo‘lavermasligi aniq. Shunga qaramasdan barcha o‘qituvchilar, shu qatori o‘quvchilar ham rahbarlar bilan doimiy, bevosita o‘zaro ta'sirda bo‘lishi tarbiyaviy munosabatlarda

namoyon bo‘ladi. Bunday bevosita ta'sir masofadan turib, muloqotsiz tarbiyaviy jarayonda vujudga keladi va undan rahbar ham, o‘qituvchilar hamda o‘quvchilar ham bir xilda ta'sirlanishlari mumkin. Ya'ni, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning tashqi ko‘rinishi, kiyinishi, yutuqlari, fan va sport yo‘nalishlari bo‘yicha turli musobaqalardagi g‘alabalari rahbarning kayfiyatiga va uning reytingiga qanday ta'sir ko‘rsatsa, rahbarniig tashqi ko‘rinishi, kiyinishi, bilimi, jamoadagi mavqei, o‘zi kabi ta'lim muassasalari rahbarlari o‘rtasidagi obro‘si, fan-texnika, sport va san'atga bo‘lgan qiziqishi o‘qituvchilar va o‘quvchilarning faoliyati hamda o‘zaro munosabatlariga shunday ta'sir ko‘rsatadi.

Muloqot jarayonini va muloqotsiz o‘zaro ta'sir jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish bilan bir qatorda, ta'lim muassasasi rahbarlari o‘qituvchilarning faoliyatini to‘g‘ri baholay bilishlari ham zarur hisoblanadi. Ta'lim muassasasi rahbari tomonidan yosh o‘qituvchi faoliyatining e'tirof etilishi, turli tadbirlarda ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar qatori, faol yosh o‘qituvchilarni ham mukofotlab, rag‘batlantirib borishi o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi shaxsiga ta'sir ko‘rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarning asosiy shakllaridai biri bo‘lgan inson-inson munosabatlari shaklida o‘qituvchining o‘z kasbdoshlari bilai "O‘qituvchi-o‘qituvchi", yosh o‘qituvchilarning tajribali ustoz o‘qituvchilar bi¬lan "ustoz-shogird" munosabatlarida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatuvchi bevosita ta'sir jarayoni mavjud.

Mazkur bevosita ta'sir jarayonining mavjudligini ta'lim muassasalarida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonini hamda ustoz-shogird munosabatlarini muvofiqlashtirish zapypiyatini belgilaydi. Chunki bu bevo¬sita ta'sir muloqot jarayonida yoki masofadan turib ham vujudga kelishi mumkinligi o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bevosita ta'sir vujudga keluvchi muloqot jarayonida ixtiyoriy ishtirokchining, ya'ni suhbat jarayonidagi o‘qituvchi yoki ustoz o‘qituvchining fikri, g‘oyasi, suhbat mavzusi yo‘nalishidagi tushunchalari, uning so‘zlash dinamikasi, nutqi hamda uning yuzidagi tabassum, samimiylik va jo‘shqinlik, o‘z suhbatdoshiga qarab turishi va uni tinglay bilishi, suhbatdoshi uchun ham o‘z fikrlarini bildirishi va samimiy suhbatlashishi uchun imkoniyatlar yaratishi mazkur jarayon ishtirokchilarida suhbatlashilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish shakllantirishi bilan bir qatorda, ularda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiyev M., Salaxutdinov R., Barakayev M., Abdalova S.. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T., 2001.

2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. 2000

3. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T.: Universitet, 2000.

4. Tolipov U., Usmonboyeva. M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.

5. Prantskune E., Grudene S va boshq. Noviye roli i kompetentsiya uchitelya. Litva.- 2011y. Yunisef. Seminar dasturlari.

6. Turg‘unov S., B.Doniyorov, M.Otajonova. O‘qituvchilarning kasbiy kometentliligini rivojlantirishda ta'lim muassasi rahbarlarining funktsional vazifalari. T.2011 yil.

С КАК ИНСТРУМЕНТ УКРЕПЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ БАНКОВ И ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ

Талипов О.О.

ГУП «Главный центр информатизации» Центрального банка Республики Узбекистан

Аннотация. *Данное исследование направлено на анализ роли SOC в системе кибербезопасности банков и платёжных систем, а также оценку эффективности их применения для мониторинга, обнаружения и реагирования на инциденты информационной безопасности и кибербезопасности.*

Ключевые слова: SOC, кибербезопасность, информационная безопасность, банки, платёжные системы, мониторинг угроз и реагирование на инциденты.

Введение

В современных условиях, когда цифровизация финансовых услуг ускоряется, а объем онлайн-транзакций стремительно растет, обеспечение информационной безопасности и кибербезопасности становится одним из ключевых факторов устойчивости банков и платежных систем. На фоне роста числа целевых кибератак, фишинга, мошеннических операций с картами и угроз со стороны организованных преступных группировок, всё большее значение приобретает централизованный и системный подход к мониторингу и реагированию на инциденты. Одним из таких инструментов выступает Security

Operations Center (SOC) — Центр мониторинга и реагирования на инциденты информационной безопасности.[8]

Внедрение SOC в финансовом секторе представляет собой организационно-техническую структуру, предназначенную для кругло-суточного мониторинга событий информационной безопасности, выявления и анализа инцидентов, а также координации реагирования. В рамках финансового сектора SOC может выполнять следующие ключевые функции:

- Сбор и анализ логов и телеметрии с ИТ-систем банков и платёжных организаций;
- Обнаружение аномалий и потенциальных угроз в режиме реального времени;
- Централизованное реагирование на инциденты с минимизацией последствий;
- Формирование отчётности и рекомендаций для участников финансовой системы;
- Взаимодействие с национальными и международными CERT, регуляторами и правоохранительными органами.

Таким образом, SOC выступает не только как технический центр, но и как координационная платформа для киберзащиты всего сектора.[9]

По международному опыту многие страны пришли к необходимости централизованного или секторального подхода к кибербезопасности в финансовой сфере. В Великобритании, Сингапуре, Эстонии, Литве и других странах SOC выполняет роль координационного узла между коммерческими банками, платёжными провайдерами, регулятором и государственными CERT.

К примеру, в Нидерландах центральный SOC финансового сектора интегрирован с национальной системой киберугроз и предоставляет банкам услуги по мониторингу и анализу угроз, а также регулярно проводит совместные киберучения.

В Литве Центр мониторинга информационной безопасности при Банке Литвы координирует защиту критической финансовой инфраструктуры, а также обеспечивает обмен индикаторами компрометации между банками и регулятором.[10]

В Сингапуре создан Financial Sector Cybersecurity SOC, функционирую-щий как узел быстрого реагирования, связанный с национальной системой

[8] European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). (2020). *Security operations centres (SOCs) in the EU financial sector*. ENISA.
[9] National Cyber Security Centre. (2022). *Guidance on security operations centres*. NCSC.
[10] Bank of Lithuania. (2023). *Cybersecurity in the financial sector*. Bank of Lithuania.

наблюдения за угрозами и разведкой в киберпространстве (Threat Intelligence Sharing Platform).[11]

Общий вывод: эффективный SOC в финансовом секторе не ограничивается наблюдением за внутренней инфраструктурой, а становится связующим звеном между всеми участниками экосистемы и позволяет предотвратить масштабные последствия инцидентов.

Необходимость создания SOC в Узбекистане

Банковская система Узбекистана активно развивается: растёт количество пользователей цифровых услуг, расширяется использование онлайн и мобильного банкинга, увеличивается число операций с платёжными картами. Это повышает и уровень рисков.

Многие банки и платёжные организации уже внедряют локальные решения по мониторингу и защите от фрода и взломов. Однако отсутствие централизованного анализа и оперативного реагирования на инциденты снижает общую эффективность противодействия угрозам. В этих условиях создание SOC на уровне отрасли — логичный шаг, направленный на усиление общей киберустойчивости.

SOC может обеспечить:

- раннее обнаружение атак, направленных на несколько организаций одновременно;
- сбор и анализ данных об угрозах с различных источников;
- техническую и методическую поддержку организаций финансового сектора;
- обмен индикаторами компрометации (IOC), практиками реагирования и аналитикой;
- взаимодействие с международными партнёрами и обмен информацией через глобальные платформы. Это особенно актуально в условиях, когда злоумышленники действуют в рамках транснациональных схем и атакуют сразу несколько участников отрасли.[12]

Кадровый потенциал и институциональные вопросы

Эффективность SOC определяется не только технологиями, но и человеческим фактором. Формирование профессиональной команды требует подготовки аналитиков 1-й, 2-й и 3-й линии, архитекторов безопасности, специалистов по реагированию на инциденты (CSIRT), инженеров по автоматизации процессов. Необходимо также обеспечить устойчивое обучение

[11] Monetary Authority of Singapore. (2021). *Establishment of the Financial Sector Security Operations Centre*. Monetary Authority of Singapore.

[12] European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). (2020). *Security operations centres (SOCs) in the EU financial sector*. ENISA.

персонала, ротацию, участие в международных учениях и киберполигонах.

Со стороны регулятора важно определить:

- нормативную основу функционирования SOC;
- требования к уровню зрелости SOC у участников рынка;
- механизмы информационного обмена и совместного реагирования;
- процедуры оценки эффективности и независимого аудита SOC.

Такой подход позволит не только улучшить мониторинг и реагирование на инциденты, но и повысит киберустойчивость всей финансовой экосистемы страны в условиях нарастающих глобальных угроз.[13]

Выводы

Создание SOC в финансовом секторе Узбекистана позволит не только повысить уровень защищённости банков и платёжных организаций, но и выстроить централизованную систему предупреждения, выявления и реагирования на инциденты.

Для эффективного функционирования центра мониторинга информационной безопасности (SOC) в банковском и платёжном секторах рекомендуется определить оптимальную модель его организации — централизованную на уровне Центрального банка, гибридную с учётом взаимодействия с локальными SOC коммерческих банков или распределённую с чётким разграничением функций. Ключевым технологическим элементом должно стать внедрение масштабируемой платформы сбора и корреляции событий информационной безопасности (SIEM), обеспечивающей своевременное выявление и анализ инцидентов. Необходимо также разработать регламент взаимодействия SOC с участниками финансового рынка, включая банки, платёжные организации и финтех-компании. Особое внимание следует уделить установлению международного сотрудничества в сфере обмена данными об угрозах (Threat Intelligence) и участию в совместных киберучениях. Наряду с этим важным направлением остаётся системная подготовка кадров, специализирующихся на операциях внутри SOC, включая аналитиков, инженеров по реагированию и архитекторов кибербезопасности.

В долгосрочной перспективе SOC станет не только оперативным центром, но и стратегическим инструментом по укреплению доверия к цифровым финансовым услугам, стабильности и устойчивости всей финансовой системы страны.

[13] National Cyber Security Centre. (2022). *Guidance on security operations centres*. NCSC.

Список использованной литературы:

1. European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). (2020). Security operations centres (SOCs) in the EU financial sector. ENISA. https://www.enisa.europa.eu/publications/socs-in-the-eu-financial-sector

2. Bank of Lithuania. (2023). Cybersecurity in the financial sector. Bank of Lithuania. https://www.lb.lt/en/cybersecurity-in-the-financial-sector

3. Monetary Authority of Singapore. (2021). Establishment of the Financial Sector Security Operations Centre. Monetary Authority of Singapore. https://www.mas.gov.sg/news/media-releases/2021/establishment-of-the-financial-sector-soc National Cyber Security Centre. (2022). Guidance on security operations centres. NCSC. https://www.ncsc.gov.uk/guidance/security-operations-centres

ZAMONAVIY KRIPTOGRAFIK ALGORITMLAR: TAHLIL, QO‘LLANILISHI VA POST-KVANT DAVRI MUAMMOLARI

Dadilov B.A.

Qurolli Kuchlar Bosh shtabi Aloqa, axborot texnologiyalari va axborotlarni himoyalash bosh boshqarmasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy kriptografik algoritmlarning asosiy tamoyillari, turlari va amaliy qo‘llanilishi chuqur tahlil qilinadi. Simmetrik (AES), asimmetrik (RSA) va xesh-funksiyalar kabi kriptografik primitivlarning ishlash mexanizmlari, afzalliklari va kamchiliklari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu algoritmlarning blokcheyn, raqamli imzolar va xavfsiz aloqa protokollaridagi o‘rni o‘rganiladi. Maqolaning muhim qismi kriptografiyaning kelajagiga, xususan, kvant hisoblashlarining mavjud shifrlash standartlariga solayotgan tahdidiga va post-kvant kriptografiyasiga (PQC) o‘tish zaruratiga bag'ishlangan. NIST tomonidan standartlashtirilayotgan yangi avlod algoritmlari va ularning istiqbollari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *kriptografiya, AES, RSA, xesh-funksiya, blokcheyn, kvant hisoblash, post-kvant kriptografiyasi (PQC), axborot xavfsizligi.*

Аннотация. *В данной статье подробно анализируются основные принципы, виды и практическое применение современных криптографических алгоритмов. Рассматриваются механизмы работы криптографических примитивов, таких как симметричные (AES), асимметричные (RSA) алгоритмы и хеш-функции, их преимущества и недостатки. Кроме того, изучается роль этих алгоритмов в блокчейне, цифровых подписях и протоколах защищённой связи. Важная часть статьи посвящена будущему криптографии, в частности*

угрозам, которые квантовые вычисления создают для существующих стандартов шифрования, а также необходимости перехода к постквантовой криптографии (PQC). Обсуждаются новые поколения алгоритмов, стандартизируемые NIST, и их перспективы.

Ключевые слова: *криптография, AES, RSA, хеш-функция, блокчейн, квантовые вычисления, постквантовая криптография (PQC), информационная безопасность.*

Raqamli transformatsiya davrida axborot xavfsizligi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kriptografiya – ma'lumotlarni ruxsatsiz kirishdan himoyalash uchun matematik usullardan foydalanadigan fan bo‘lib, zamonaviy axborot tizimlarining poydevorini tashkil etadi. Uning asosiy vazifalari nafaqat konfedensiallikni, balki ma'lumotlar yaxlitligini, autentifikatsiyani va rad etmaslikni ham ta'minlashdan iborat [1].

Kriptografiya tarixi oddiy almashtirish shifrlaridan (masalan, Sezar shifri) Ikkinchi Jahon urushidagi murakkab elektromexanik Enigma mashinasigacha bo‘lgan uzoq evolyutsion yo‘lni bosib o‘tdi. Har bir yangi shifrlash usuli kriptoanalizning, ya'ni shifrlarni buzish san'atining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Bu abadiy "qurollanish poygasi" bugungi kunda ham davom etmoqda.

Hozirgi kunda kriptografiya uchta asosiy primitivga tayanadi: katta hajmdagi ma'lumotlarni tez shifrlash uchun simmetrik kalitli kriptografiya; kalit almashinuvi va raqamli imzolar uchun asimmetrik kalitli kriptografiya; va ma'lumotlar yaxlitligini tekshirish uchun kriptografik xesh-funksiyalar. Ushbu usullar zamonaviy xavfsizlik protokollarida (masalan, TLS/SSL) gibrid tarzda birgalikda qo‘llaniladi.

Biroq, kriptografiya sohasida yangi va jiddiy muammo paydo bo‘lmoqda: kvant kompyuterlarining rivojlanishi. Keng miqyosli kvant kompyuterlari Shor algoritmi yordamida hozirda keng qo‘llaniladigan asimmetrik shifrlash tizimlarini (RSA, ECC) osongina buzish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa butun dunyo raqamli infratuzilmasini jiddiy xavf ostiga qo‘yadi. Ushbu tahdidga javoban, post-kvant kriptografiyasi (PQC) deb nomlanuvchi yangi avlod algoritmlari ishlab chiqilmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi zamonaviy kriptografik algoritmlarning (AES, RSA, SHA) ishlash tamoyillarini, ularning amaliy qo‘llanilishini va o‘zaro taqqoslamasini taqdim etish, shuningdek, kvant hisoblashlari keltirib chiqaradigan muammolarni va PQC standartlariga o‘tishning ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

Ushbu bo‘limda zamonaviy kriptografiyaning asosini tashkil etuvchi uchta asosiy algoritmik yondashuvning ishlash mexanizmlari batafsil ko‘rib chiqiladi.

1. Simmetrik kalitli kriptografiya: Ilg'or shifrlash standarti (AES)

Simmetrik kriptografiya shifrlash va shifrni ochish uchun yagona umumiy kalitdan foydalanadi. Uning yuqori tezligi tufayli katta hajmdagi ma'lumotlarni

himoyalash uchun keng qo‘llaniladi. Bugungi kunda "oltin standart" sifatida Ilg'or Shifrlash Standarti (AES) tan olingan. AES 128-bitli ma'lumotlar bloklari ustida ishlaydi va 128, 192 yoki 256-bitli kalitlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

AES "Almashtirish-O‘rin Almashtirish Tarmog'i" (SPN) arxitekturasiga asoslangan bo‘lib, bir necha raundli transformatsiyalardan iborat. Har bir raund (oxirgisidan tashqari) to‘rtta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi:

- **SubBytes:** Har bir bayt S-box (almashtirish qutisi) yordamida chiziqli bo‘lmagan almashtiriladi. Bu kalit va shifrlangan matn o‘rtasidagi bog'liqlikni yashirish (chalkashtirish) uchun xizmat qiladi.
- **ShiftRows:** Ma'lumotlar bloki matritsasining qatorlari siklik ravishda siljitiladi. Bu bir ochiq matn bitining ta'sirini ko‘plab shifrlangan matn bitlariga yoyishni (tarqalishni) ta'minlaydi.
- **MixColumns:** Har bir ustundagi baytlarni aralashtiruvchi va tarqalishni yanada kuchaytiruvchi matematik amal.
- **AddRoundKey:** Joriy ma'lumotlar bloki raund kaliti bilan XOR amali orqali birlashtiriladi. Bu yopiq kalitdan foydalaniladigan yagona qadamdir.

2. Asimmetrik Kalitli Kriptografiya: RSA Algoritmi

Asimmetrik (ochiq kalitli) kriptografiya bir-biri bilan matematik bog'liq bo‘lgan ikkita kalitdan – ochiq va shaxsiy kalitdan foydalanadi. Ochiq kalit ma'lumotlarni shifrlash uchun erkin tarqatiladi, shaxsiy kalit esa shifrni ochish uchun yopiq saqlanadi. Bu yondashuv kalitlarni xavfsiz tarqatish muammosini hal qiladi.

Eng mashhur asimmetrik algoritm RSA bo‘lib, uning xavfsizligi ikkita katta tub sonning ko‘paytmasini ko‘paytuvchilarga ajratishning hisoblash jihatidan murakkabligiga asoslangan. RSA jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat :

- **Kalit yaratish:**

1. Ikkita katta tub son (p va q) tanlanadi.
2. Modul $n = p \cdot q$ hisoblanadi.
3. Eyler funksiyasi $\varphi(n) = (p-1) \cdot (q-1)$ hisoblanadi.
4. Ochiq eksponenta e tanlanadi ($1 < e < \varphi(n)$ va e bilan $\varphi(n)$ o‘zaro tub).
5. Shaxsiy eksponenta $de = 1 \, mod \, \varphi(n)$ shartini qanoatlantiradigan tarzda hisoblanadi.

- **Shifrlash:** Ochiq matn P ochiq kalit (e, n) yordamida $C = P^e mod \, n$ formulasi bo‘yicha shifrlanadi.
- **Shifrni ochish:** Shifrlangan matn C shaxsiy kalit (d, n) yordamida $P = C^d mod \, n$ formulasi bo‘yicha ochiladi.

3. Kriptografik xesh-funksiyalar

Xesh-funksiyalar har qanday o‘lchamdagi kirish ma'lumotidan qat'iy uzunlikdagi noyob "barmoq izi" (xesh) hosil qiluvchi bir tomonlama matematik algoritmlardir.

Ularning asosiy maqsadi ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlashdir. Xavfsiz xesh-funksiya uchta asosiy xususiyatga ega bo‘lishi kerak: to‘qnashuvga chidamlilik (collision resistance), birinchi proobrazga chidamlilik (pre-image resistance) va ikkinchi proobrazga chidamlilik (second pre-image resistance).

Hozirda SHA-2 (ayniqsa, SHA-256) va yangi SHA-3 oilalari standart sifatida keng qo‘llaniladi. Parollarni saqlash uchun esa ataylab sekinlashtirilgan maxsus funksiyalar (masalan, bcrypt, Argon2) ishlatiladi, chunki ular oddiy kuch bilan hujum qilishni qiyinlashtiradi.

Ushbu bo‘limda yuqorida tavsiflangan algoritmlarning amaliy qo‘llanilishi, o‘zaro taqqoslanishi va ularning xavfsizligini sinovdan o‘tkazuvchi kriptoanaliz usullari ko‘rib chiqiladi.

AES va RSA turli xil vazifalar uchun mo‘ljallangan va bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatlarga ega. Ularning asosiy farqlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval

AES va RSA ning qiyosiy tahlili

Xususiyat	AES (Simmetrik)	RSA (Asimmetrik)
Kalitdan foydalanish	Shifrlash/ochish uchun yagona kalit	Shifrlash uchun ochiq, ochish uchun shaxsiy kalit
Tezlik	Juda tez	Juda sekin
Kalit uzunligi (ekvivalent xavfsizlik uchun)	128-bit	~3072-bit
Asosiy qo‘llanilishi	Katta hajmdagi ma'lumotlarni shifrlash	Kalit almashinuvi, raqamli imzolar
Ta'minlanadigan funksiyalar	Konfedensiallik	Konfedensiallik, Autentifikatsiya, Rad etmaslik
Kvant kompyuterlariga zaifligi	Grover algoritmi bilan zaiflashadi	Shor algoritmi bilan buziladi

Amaliy qo‘llanilish sohalari

- **Gibrid tizimlar (TLS/SSL):** Zamonaviy xavfsiz aloqa protokollari ushbu algoritmlarni birgalikda ishlatadi. Odatda, seans boshida RSA yoki Diffie-Hellman yordamida simmetrik AES kaliti xavfsiz almashiniladi. Keyin esa barcha ma'lumotlar almashinuvi tezkor AES yordamida shifrlanadi.
- **Blokcheyn texnologiyasi:** Blokcheynning o‘zgarmasligi va xavfsizligi kriptografiyaga, xususan, xesh-funksiyalarga asoslangan. Har bir blok o‘zidan oldingi blokning xeshini o‘z ichiga oladi va shu tariqa buzilmas zanjir hosil qiladi. Raqamli imzolar (RSA yoki ECC asosida) esa tranzaksiyalarning haqiqiyligini tasdiqlaydi .
- **Raqamli imzolar va ochiq kalit infratuzilmasi (PKI):** Asimmetrik kriptografiya yuboruvchining shaxsini tasdiqlash, ma'lumotlar yaxlitligini tekshirish va

rad etmaslikni ta'minlovchi raqamli imzolarni yaratish imkonini beradi. PKI esa ochiq kalitlarni ishonchli tarzda tarqatish uchun markazlashtirilgan tizimni ta'minlaydi.

Zamonaviy kriptoanaliz hujumlari

Algoritmlarning mustahkamligi ularni buzishga qaratilgan hujumlar bilan doimiy sinovdan o‘tkaziladi.

- **Matematik Hujumlar:** Differensial va chiziqli kriptoanaliz kabi usullar blokli shifrlarning ichki tuzilishidagi statistik zaifliklarni topishga qaratilgan. AES kabi zamonaviy shifrlar ushbu hujumlarga qarshi turish uchun maxsus ishlab chiqilgan.
- **Yon kanal hujumlari (Side-Channel Attacks):** Bu hujumlar algoritmning o‘ziga emas, balki uning jismoniy amalga oshirilishiga qaratilgan. Hujumchilar qurilmaning quvvat sarfi, ishlash vaqti yoki elektromagnit nurlanishi kabi parametrlarni o‘lchash orqali yopiq kalitni aniqlashlari mumkin .

Kriptografiya sohasidagi eng katta va yaqin kelajakdagi muammo bu kvant kompyuterlarining paydo bo‘lishidir. Ular hozirgi kriptografik landshaftni butunlay o‘zgartirib yuborish qudratiga ega.

Kvant tahdidi

- **Shor algoritmi:** 1994-yilda Piter Shor tomonidan ishlab chiqilgan kvant algoritmi katta sonlarni ko‘paytuvchilarga ajratish va diskret logarifm muammolarini samarali hal qila oladi. Bu degani, yetarlicha kuchli kvant kompyuteri RSA, ECC va Diffie-Hellman kabi barcha ochiq kalitli kriptotizimlarni buza oladi.
- **Grover algoritmi:** Bu algoritm simmetrik shifrlarga (masalan, AES) qilingan oddiy kuch bilan hujumni kvadratik darajada tezlashtiradi. Bu AES-128 ning xavfsizlik darajasini 64-bitli shifr darajasiga tushiradi. Bunga qarshi chora sifatida kalit uzunligini ikki baravar oshirish (masalan, AES-256 dan foydalanish) kifoya qiladi.
- **"Hozir o‘rib ol, keyin shifrini och" (Harvest Now, Decrypt Later):** Hujumchilar hozirda shifrlangan ma'lumotlarni to‘plab, kelajakda kvant kompyuterlari paydo bo‘lganda ularni ochishni rejalashtirishi mumkin. Bu uzoq muddatli konfedensiallikni talab qiladigan ma'lumotlar uchun jiddiy tahdiddir.

Post-kvant kriptografiyasi (PQC) sari yo‘l

Ushbu tahdidga javoban, butun dunyo kriptograflari ham klassik, ham kvant kompyuterlari hujumlariga chidamli bo‘lgan yangi algoritmlarni ishlab chiqish ustida ishlamoqda. AQSh Milliy Standartlar va Texnologiyalar Instituti (NIST) 2016-yilda yangi PQC standartlarini tanlash bo‘yicha ochiq tanlov boshladi. Ko‘p yillik tahlillardan so‘ng, 2024-yil avgust oyida NIST birinchi uchta PQC standartini e'lon qildi :

- **FIPS 203 (ML-KEM):** CRYSTALS-Kyber algoritmi asosida kalit almashinuvi uchun standart.

- **FIPS 204 (ML-DSA):** CRYSTALS-Dilithium algoritmi asosida raqamli imzolar uchun standart.
- **FIPS 205 (SLH-DSA):** SPHINCS+ algoritmi asosida raqamli imzolar uchun zaxira standart.

Ushbu yangi standartlar panjaraga asoslangan (lattice-based) va xeshga asoslangan (hash-based) kabi yangi matematik muammolarga tayanadi, ularni hatto kvant kompyuterlari ham samarali yecha olmaydi deb hisoblanadi. PQC ga o‘tish shunchaki algoritmni almashtirish emas, balki butun global raqamli infratuzilmani qamrab oluvchi murakkab va uzoq muddatli jarayondir. Bu jarayon tashkilotlardan "kripto-chaqqonlik" (crypto-agility), ya'ni kriptografik algoritmlarni zarurat tug'ilganda tez va oson yangilay olish qobiliyatini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kriptografiya qadimgi oddiy shifrlardan tortib, bugungi murakkab raqamli algoritmlargacha bo‘lgan uzoq va dinamik rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Simmetrik, asimmetrik va xesh-funksiyalar zamonaviy axborot xavfsizligining uchta tayanch ustunini tashkil etib, gibrid tizimlarda birgalikda ishlaganda eng yuqori samaradorlikni namoyish etadi.

Biroq, kriptografiya va kriptoanaliz o‘rtasidagi abadiy poyga yangi bosqichga kirmoqda. Kvant hisoblashlarining rivojlanishi mavjud ochiq kalitli kriptografiya uchun ekzistensial tahdid tug'diradi. Post-kvant kriptografiyasi ushbu muammoning yechimi bo‘lib, NIST tomonidan yangi standartlarning joriy etilishi raqamli dunyoni kelajakdagi tahdidlardan himoya qilish yo‘lidagi muhim qadamdir. Tashkilotlar va hukumatlar uchun PQC ga o‘tishni rejalashtirish va kripto-chaqqonlik tamoyillarini joriy etish yaqin yillardagi eng muhim vazifalardan biriga aylanadi. Kriptografiya sohasidagi innovatsiyalar to‘xtovsiz davom etishi, axborot xavfsizligini ta'minlashning doimiy va proaktiv yondashuvni talab qiladigan jarayon ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baeldung. (n.d.). *Linear vs. Differential Cryptanalysis*. Baeldung on Computer Science. Olingan manba: https://www.baeldung.com/cs/cryptanalysis-linear-vs-differential

2. Cloudflare. (2024, August 13). *NIST's first post-quantum standards are here*. The Cloudflare Blog. Olingan manba: https://blog.cloudflare.com/nists-first-post-quantum-standards/

3. Cryptomathic. (n.d.). *Classification of Cryptographic Keys: Functions and Properties*. Olingan manba: https://www.cryptomathic.com/blog/classification-of-cryptographic-keys-functions-and-properties

4. DigiCert. (n.d.). *NIST Standards for Quantum-Safe Cryptography*. DigiCert Blog. Olingan manba: https://www.digicert.com/blog/nist-standards-for-quantum-safe-cryptography

5. DigiCert. (n.d.). *The History of Cryptography*. DigiCert Blog. Olingan manba: https://www.digicert.com/blog/the-history-of-cryptography

6. Encryption Consulting. (2024, March 4). *What is AES (Advanced Encryption Standard)?* Olingan manba: https://www.encryptionconsulting.com/education-center/what-is-aes/

7. GeeksforGeeks. (n.d.). *Cryptography in Blockchain*. Olingan manba: https://www.geeksforgeeks.org/ethical-hacking/cryptography-in-blockchain/

IV -SHO‘BA

DUNYODAGI TURLI XAVF-XATAR VA QUROLLI TO‘QNASHUVLARDA MAMLAKAT YOSHLARINING VATAN HIMOYASI UCHUN SAFARBAR ETISHDA MAVJUD MUAMMOALAR VA ULARINING YECHIMLARI

PREZIDENTIMIZ SHAVKAT MIRZIYOYEV ASARLARIDA MILLIY TARBIYA MASALALARINING YORITILISHI

p.f.n., professor Beknazarov A.P., p.f.n. Xolmatov P.T., Ganiyeva N.S.
TIFT Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy ruhda tarbiyalangan shaxs milliy iftixor va sharfni his etadi. Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma’naviy birlashuvi, milliy g‘oyasi bilan yuksalgan.Yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga etib olish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g‘oya masalasi juda muhim ahamiyatga egaligi bayyon qilingan.*

Kalit so‘zlar: milliy iftixor, milliy g‘oya, ommaviy madaniyat, ma’naviy tarbiya.

Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish zarur. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur, – dedi Shavkat Mirziyoyev[1].

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev yig‘ilishda. – Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat.[2]

Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan, – dedi davlatimiz rahbari.[3]

Bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha olib brogan yig’ilishdagi nutqi.
[2] Shu manba.
[3] Sh.M Mirziyoyev “Insonparvarlik, ezgulik va bunyotkorlik- milliy g’oyamizning poydevoridir” T.2021 yil38.b.6-bet.

o‘zini o‘ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba’zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda.

Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo‘lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o‘ylab yashash zarur.

Davlatimiz rahbari loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun nuroniylar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati yetishmayotganini ta’kidladi.

Tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi, ammo ma’naviy-ma’rifiy ishlardagi uzviylik hozircha bu borada bog‘cha, maktab, oliy ta’lim, mahalla – har biri alohida ish olib bormoqda. Bu ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, xususan, o‘g‘il-qizlarni bolaligidanoq bilimli va fazilatli etib tarbiyalash, buning uchun maktabgacha ta’lim muassasalariga metodik yordam ko‘rsatish muhimligi ta’kidlandi.

Jumladan, maktablar, texnikumlar va oliy ta’lim dargohlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Barcha oliygoh va ularning filiallarida mavjud shtat birliklari doirasida yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor lavozimi joriy etildi.

Milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida “Ijod” jamoat fondi negizida Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash fondi tashkil etilishi qayd etildi.

Yoshlarning san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun barcha oliy o‘quv yurtlari byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan talabalarni teatr, kinoteatr va muzeylarga olib borish tizimini yo‘lga qo‘yishi darkor. Teatrlarning ijodiy jamoalari ham o‘z repertuarini yoshlarning qiziqishiga mos, yuqori saviyadagi asarlar bilan boyitishga aloh;ida e’tibor qaratishi zarur.

Teatr san’atining o‘g‘il-qizlarimiz tarbiyasidagi rolini oshirish maqsadida maktab va oliygohlarda havaskorlik teatr to‘garaklarini yo‘lga qo‘ysak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mamlakatimiz rahbari siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni yechish bilan bir qatorda, jamiyatimiz hayotini,

fuqarolarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan ko‘pqirrali vazifalarga doimo katta e’tibor qaratar edilar.

Yurtimizda ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at, sport kabi muhim sohalar faol tarzda rivojlanmoqda. Davlatimiz rahbari xalqimizning ma’naviy qadriyatlariga ehtirom bilan munosabatda bo‘lish, muqaddas dinimiz, an’ana va urf-odatlarimiz bebaho tarixiy merosimizni saqlab qolish va rivojlantirishni davlat siyosati darajasiga ko‘tardi.

Ta’lim va tarbiya, ilm-fan, sogliqni saqlash, madaniyat va san’at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo‘lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta’minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi. Muqaddas islom dinimiz bizga aynan shuni o‘rgatadi. Bunday yondashuv - davr talabidir.

«Ta’lim va ma’rifat - tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l» shiori Islom hamkorlik tashkilotining bugungi anjumani mavzusi etib belgilangani bejiz emas. Negaki, mazkur anjuman sizu bizning buyuk ajdodlarimiz kindik qoni to‘kilgan O‘zbekiston zaminida bo‘lib o‘tmoqda. Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Iso va Hakim Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulo‘g‘bek, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab daholar nomi nafaqat islom, ayni vaqtda jahon sivilizatsiyasi tarixida haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan. Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Yangi taxdidlar, jumladan, «ommaviy madaniyat» xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi gaoballashuv sharoitida bu g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma’naviy olami, xalqlar madaniyatini

belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir.

Qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharafli burchimizdir. «Ta’lim va ma’rifat - tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l» shiori ostida tashkil etilgan xalqaro anjumanning o‘ziga xos muhim ahamiyati davlatimiz uchun ta’lim va ma’orif sohasida zaruriy yo‘nalishlarni belgilab olishdan iboratdir:

1).Yoshlarda ilm-fanga va ta’lim olishga intilish tuyg‘usini kuchaytirish, barcha jamiyatlarda islom qadriyatlari va madaniyatini to‘g‘ri anglash hamda qabul qilish;

2). lm-fan va texnikani yanada rivojlantirish, Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning intellektual salohiyatini mustahkamlash;

3). Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning birdamligini ta’minlash, ular o‘tasigagi ziddiyatlarga barham berish, urushlar, terrorizm va ekstremizmni bartaraf etishda sa’y-harakatlarni birlashtirish tobora avj olayotgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, tinchlik va barqarorlikka taxdid solayotgan xavflarga qarshi kurashish;

4). Nafaqat islom madaniyati, balki umumbashariy sivilizatsiyaga benazir hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ko‘p qirrali diniy-ma’naviy merosini o‘rganishga ixtisoslashgan xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (keyingi o‘rinlarda — Taraqqiyot strategiyasi) qabul qilindi.

Bu rejalarni 2026 yilgacha muvofaqiyatli amalga oshirishni yo‘lga qoyish ustuvor masala sifatida qaraldi.

Taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo‘nalishi **“Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish”** ga qaratilgan bo‘lib unda unda bir necha masalarga batafsil to‘xtalib o‘tilgan

71-maqsad: Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish.

“Yangi O‘zbekiston — ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish.

Aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish.

Targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o‘z vaqtida amalga oshirish choralarini ko‘rish.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash.

Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o‘z vaqtida berib borish orqali yolg‘on ma’lumotlar tarqalishining oldini olish.

“Mahalla — tuman — viloyat — respublika” prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma’naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish.

Ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish.

Maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash ko‘nikmasini shakllantirish.

“Yoshlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash.

73-maqsad: Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish.

IHT, IRSIKA, AYSESKO, YUNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi,

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

74-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash.

Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish.

Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta’minlash.

Turli millat yoshlari uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish.

Xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish.

Xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do‘stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish.

75-maqsad: Tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish.

Atoqli O‘zbekiston xalq rassomlari va amaliy san’ati ustalarining namunali hayoti va ijodini keng targ‘ib qilish hamda ular xotirasini abadiylashtirish.

O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atini xalqaro darajada ommalashtirish.

Tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlarida yetuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish.

76-maqsad: Madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

Madaniyat va san’at sohasi vakillari, ijodkorlar, shuningdek, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchi va xodimlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda ularning yashash sharoitlarini yaxshilash.

Teatr san’atini rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish va ular tomonidan aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

Hududlarda yangi madaniyat obyektlarini barpo etish va ularning samarali faoliyat olib borishini ta’minlash.

O‘zbek sirk san’atini yanada rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o‘tkazishni joriy etish.

O‘zbek xalqi madaniyati va san’atini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish.

Respublika hududida joylashgan madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish bilan bog‘liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish.

77-maqsad: O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish.

Tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish.

78-maqsad: Milliy kino san’atini rivojlantirish.

Kino san’atini jamiyatning ma’naviy, madaniy-ma’rifiy hayotida, jumladan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda strategik manba sifatida shakllantirish.

Kino sanoatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, shuningdek, xorijiy kinokompaniyalarni mamlakatga jalb qilish va hamkorlikda filmlar ishlab chiqarishni rivojlantirish.

Milliy multiplikatsiya industriyasini shakllantirish.

Kino sanoatini iqtisodiyotning alohida tarmog‘i sifatida rivojlantirish, zamonaviy va yuqori texnologik moddiy-texnika bazasiga ega infratuzilmani yaratish.

Kinematografiya sohasida kadrlar tayyorlash, kino ijodkorlari va texnik xodimlari malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish.

Milliy seriallar ishlab chiqarishni davlat tomonidan rag‘batlantirish, animatsion filmlar ishlab chiqarishga yosh multiplikator va animatorlarni keng jalb qilish.

Sohada mualliflik huquqining kafolatli himoya qilinishini ta’minlash, kinoprokat tizimini rivojlantirish va milliy filmlarni jahon kino bozorlariga olib chiqish.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi masalalarni amalga oshirilishi yoshlarimizda milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy me’rosga sadoqat hissini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. O‘zbek xalqi madaniyati va san’atini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylari munosib nishonlanib, hayoti va faoliyati keng targ‘ib qilinib, xotiralari abadiylashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha olib borgan yig’ilishdagi nutqi.

2. Sh.M. Mirziyoyev “Insonparvarlik, ezgulik va bunyotkorlik- milliy g’oyamizning poydevoridir” T.2021 yil38.b.6-bet.

3. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son.

4. Izbullayeva Gulchehra. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi XIII – XIV asrlar) [Matn]: O’quv qo’llanma / G. Izbullayeva. - Buxoro: «Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, 2019. - 180 b.

5. Qurbonova O.U., Tosheva.D.I. Oila pedagogikasi. Darslik. -Бuxoro: Durdona, 2023 y.220 b.

YOSHLARDA MA’NAVIY- AXLOQIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

t.f.n. Jabborov A.X
Toshkent kimyo texnologiyalari universiteti

p.f.n., professor Beknazarov A. A.
Renessans ta’lim universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada axloq va ma’naviyat chuqur ichki o‘zaro aloqadorlikka ega bo‘lib ma’naviyat individ mansub bo‘lgan guruhlar axloqi ta’sirida yuzaga keladi, axloq esa, o‘z navbatida, guruh a’zolari bo‘lgan individlar ma’naviyatining o‘zaro tutash ommaviy munosabatlarida namoyon bo‘lishi bayyon qilingan.*

Kalit so‘zlar. yoshlar, vatanparvarlik, tarbiyalash, axloq, maqsad, vazifalar.

Axloq - ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi hisoblanadi, axloq, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy hamda jismonan yetukligining mezoni bo‘lgan ma’naviy kamolotga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo‘lgan, shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Axloq (arabcha - xulq-atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri u ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonunqoidalar

majmuidir. Axloq - shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlami boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlami tartibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg‘unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag‘batlantirish va jazolash. Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo‘ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlami o‘zida birlashtirgan shaxs tavsifi axloqiy tamoyillar deb ataladi. Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o‘zlariga odamlar orasidan namuna tanlaydi. Bu axloqiy ideal deb ataladi. Axloqning asosiy qirralari (tamoyillari) - birdamlik (shaxsiy manfaatlarning umumiylikning yuqori ko‘rinishi sifatidagi ijtimoiylikka bo‘ysundirilishi) va insonparvarlik (shaxsga o‘zo‘ziga qadriyat va yakuniy maqsad sifatida munosabatda bo‘lish).

Axloqiy ongning o‘ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha’n, qadr-qimmat kabilarni keltirib o‘tish mumkin. Yuqorida aytilganlarni e’tiborga olib, axloqning, jamiyat a’zolarming faoliyatiga yo‘nalganligi va uni boshqarilishi ma’nosida, faoliyatli tavsifini ko‘rsatib o‘tish to‘gri bo‘ladi. Axloqiy me’yorlar har bir inson va jamiyat uyg‘unlikda mavjud bo‘la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko‘p asrlik tajribasi natijasidir. Axloq me’yorlari insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash, ezgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan. Axloq me’yor va qadriyatlardan iborat. Axloqning uchinchi elementi esa, shaxs o‘zida tarkib toptirishni xohlagan me’yor va sifatlar tarzida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Ma’naviyat va axloq o‘z navbatida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etadi. Tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jarayoni bo‘lib, maxsus tashkil etilgan davlat va jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo‘ladi. Ma’naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o‘quvchi tomonidan axloqiy me’yor va tamoyillar mohiyatini o‘rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya - yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy yani jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o‘zaro bog‘liq vazifani shart qilib qo‘yadi:

birinchidan, jamiyat ongida me’yorlar, tamoyillar, ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko‘rmishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish;

ikkinchidan, inson o‘z xatti-harakatlarini yo‘naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya’ni boshqa kishilarga talab qo‘ya bilishi va ulaming xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog‘liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e’tiqod, ma’naviy moyilliklar, histuyg‘ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlami shakllantirishdan iborat bo‘lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi.

O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ulaming ma’naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi.

O‘quvchilami axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1) o‘quvchilarda axloqiy his-tuyg‘ular va xatti-harakatlami tarbiyalash;

2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg‘ulami tarbiyalash;

3) axloqiy xulq-atvor.ko‘mkmalarini shakllantirish.Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari deganda, o‘quvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlami egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlami, shaxsning axloqiy his-tuyg‘ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usullari yig‘indisidir. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

Ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari: hikoya, tushuntirish, etik suhbat, izohlash, nasihat, o‘git, ko‘rsatma, namuna va boshqalar.

Ma’naviy-axloqiy xulq-atvomi shakllantirish metodlari: mashq, o‘rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hakozolar.

Ma’naviy-axloqiy motivasiyani hosil qilishga doir metodlar: rag‘batlantirish, musobaqa, tanbeh berish kabilar.lmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish. Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy,

ma’naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo‘lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub’ektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to‘laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O‘z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo‘lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g‘oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Xulosa qilib aytganda axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo‘g‘in insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammallika erishtiruvchi vosita ekanligini anglashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son.

2. Izbullayeva, Gulchehra. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi XIII – XIV asrlar) [Matn]: o’quv qo’llanma / G. Izbullayeva. - Buxoro: «Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, 2019. - 180 b.

3. Qurbonova O.U., Tosheva.D.I. Oila pedagogikasi. Darslik. -Бuxoro: Durdona, 2023 y.220 b.

4. Mutalipova M. J. Xalq Pedagogikasi: (o'quv qo'llanma): T.: Alisher Navoiy nomidagi O ‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011.- 160 b.

5. Huasyn Voiz Koshifiyning “Ahloqi Muxsiniy” asari.T: 2011y.374 b.

YOSHLARIMIZNI “MILLIY TARBIYA” ASOSIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

p.f.n. Xolmatov P.X.
TIFT universiteti

p.f.n. professor Beknazarov A.A.
Renassans ta’lim universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada insoniyat hech qachon tashqi dunyodan o‘zini qurshab turgan olamdagi o‘zgarishlar, rivojlanishlar, ro‘y berayotgan hodisalar, voqealar, jarayonlardan ajralib qolganligi bois, yoshlarimiz ruhiyatiga insonga mehr-muhabbat tuyg‘ullarini singdirish jarayonida milliy g‘oyaning ana shu tamoyilini ta’lim-tarbiya tizimini bosh maqsadiga aylantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanligi bayyon qilingan.*

Kalit so‘zlar: liderlik, o’quvchilarda liderlik xususiyatlari, rasmiy va norasmiy lider, shaxs, individual-psixologik xususiyatlar, psixologik portret.

Jahondagi barcha davlatlar, xalqlar, millatlar, ijtimoiy-siyosiy kuchlar, ular o‘rtasidagi munosabatlar, jumladan ijtimoiy jarayonlardagi mafkuraviy ta’sirlar odamlar ongi, tafakkuri va dunyoqarashiga ta’sir etadi. Demak har qanday jamiyat o‘z istiqbolini kishilarni e’tiqod darajasiga aylangan muayyan g‘oyasida ko‘radi,sababi «jamiyatning, jamiyat ahlining mustahkam va ravshan mafkurasi bo‘lmasa, o‘z oldiga qo‘ygan aniq bir maqsad-muddaosi bo‘lmasa, u muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi».

Masalan insonlar ongi va qalbini makon tutgan g‘oya va mafkuralar ta’lim hamda tarbiyasiz shakllanmaydi, jamiyat ravnaqiga, millat va xalqni kelajagiga xizmat qiluvchi qudratli botiniy kuchga aylana olmaydi. Chunki jamiyat mafkurasi, o‘tmish bilan xozirgi davr va kelajakni, kechagi kun bilan ertangi kunni bog‘lab, tutashtirib, aloqadorligini mustahkamlab turish uchun xizmat qilishga qodir ijtimoiy g‘oyalar majmuyidir. Ana shu g‘oyalardagi belgilovchi ustuvor tamoyil, bu jamiyatimiz tabiatiga, millatimiz mentalitetiga xos bo‘lgan insonparvarlik bo‘lib, u bizning milliy tarbiyamizning shakllanishini tub negizi hisoblanadi.

Yoshlarimiz ruhiyatiga insonga mehr-muhabbat tuyg‘ullarini singdirish jarayonida milliy g‘oyaning ana shu tamoyilini ta’lim-tarbiya tizimini bosh maqsadiga aylantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

O‘zbek milliy axloqiy tarbiyasi ma’lum odob va e’tiqod, ishonch va mehr-muhabbatning majmuasi bo‘lib, kishi o‘zini qanday tuta bilishida korinadi.Masalan ota-onaga, ustozga, el-yurtga, xalqqa bo‘lgan hurmat milliy tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lganligini alohida ta’kidlash lozim.Tarbiyada irsiyat,muhit,talim-tarbiyaning ahamiyati kattadir. Biz barkamol insonni vujudga keltirishimiz uchun uni shunga muvofiq keladigan muhitda tarbiyalashimiz zarur. Yaxshi muhitda yaxshi odam, yomon muhitda yomon odam shakllanadi. Biroq buni mutlaq haqiqat hisoblash ham qiyin. Yaxshi muhitda o‘sayotgan bola ota-ona nazoratidan chetda qolsa, yomon odam bo‘lib o‘sishi ham mumkin.

Milliy tarbiyada moddiy va ma’naviy asos moddiy ta’minlangan oilalardagi farzandlar ko‘p hollarda yaxshi ta’lim va tarbiya olishi mumkin lekin hayotda buning aksi ham bo‘lib, moddiy ta’minlanganlik bolani ishyoqmas, tanbal qilib qo‘yishi ham mumkin. Buning aksicha, kam ta’minlangan oilalarning bolalari mehnatsevar, odobli va xushfe’l bo‘lishi ham uchrab turibdi.

Yoshlarni imon-e’tiqodli, milliy g‘oyaga sadoqat, bir-birlariga mehr-oqibatni, o‘z Vataniga, millati, dini, tili, tarixi, madaniyati urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi dolzarb masalalardan sanaladi.

Fuqarolarni yangicha tafakkur zehniyat asosida tarbiyalash orqali milliy g‘oya va mafkuraning hayotbaxsh insonparvarlik tomoyillariga, umumbashariy qadriyatlarga mos keladigan xulq-atvorni shakllantirish va kamolga etkazish, ya’ni jamiyatda mehr-muruvvat madaniyatini qaror toptirish lozim.

Umuman olganda mehr-muruvvat milliy mustaqillik g‘oyasining insonparvarlik tomoyillaridan ko‘zlangan asosiy yo‘nalishdir. Shuning uchun ham tarbiya jarayonida xuddi shu yo‘nalishga jiddiy e’tibor berish lozim.

Tarbiya o‘z mohiyatiga ko‘ra, keng va tor ma’nolarda istefoda etiladi hamda ijtimoiy hayotda amal qiladi. Keng ma’noda oladigan bo‘lsak, tarbiya – ijtimoiy-madaniy tajribalarni aniq maqsadni ko‘zlagan holda avloddan-avlodga o‘tkazadigan va shaxsning kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratadigan alohida jarayondir.

Yoshlarda mehr-muruvvat madaniyatini shakllantirishning samarali tashkiliy va pedagogik uslublari, vositalari ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etilishi zarur. Bunday shakl va vositalar milliy g‘oyani ruyobga chiqarish, barkamol avlodni shakllantirishdan iborat bosh maqsadga erishishni ta’minlovchi xalqimizning milliy madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlariga va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan bo‘lishi lozim.

Ta’lim-tarbiya barcha davrlarda ham insoniyat oldida hal etilishi zarur bo‘lgan eng muhim dolzarb vazifa bo‘lib turgan. Shuningdek, u odamlarning amal qilib kelayotgan tajribalari, yutuqlari, urf-odatlari va an’analari asosida tashkil qilingan.

Farzandlar tarbiyasiga oid shakllangan urf-odatlarimiz, boqiy an’analarimiz ko‘p. Bugungi kunda ham ulardan yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Allomalarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo‘lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko‘zda tutilgan. Zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g‘oyaviy uyg‘unlik – ta’lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma’naviy-ma’rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi.

Shu jihatdan olib qaraganda o‘tmish allomalari, mutafakkirlarining ma’naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g‘oyat beqiyosdir.Endi qisqacha milliy tarbiya asoslari kategoriyalari xaqida fikt yuritamiz.

Milliy ong – muayyan millatga mansub kishilar tomonidan milliy qadriyatlarga tayangan holda ijtimoiy munosabatlar hamda hayotiy faoliyatlarni samarali tashkil etishga nisbatan ongli yondashuv darajasi sanaladi. Falsafiy manbalarda “milliy ong” tushunchasiga shunday ta’rif beriladi: “millatning yagona tili, urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari va ma’naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezoni hisoblanadi. O‘z navbatida milliy ongning rivojlanb borishi har bir millatning o‘z-o‘zini anglash darajasiga ko‘taradi.

O‘quvchilarda milliy ongni shakllantirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda “rivojlanish”, “tarbiyalash”, “shakllantirish”, “omil”, “pedagogik ta’sir”, “milliy g‘urur”, “milliy iftixor” va “milliy o‘zlikni anglash” kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot muammosini ijobiy hal etishda bu tushunchalarning mazmunini to‘laqonli anglab olish taqozo etiladi.

Ko‘plab adabiyotlarda «shakllanish», «rivojlanish», «tarbiyalash», ayrim manbalarda esa «ijtimoiylashuv» tushunchalarining yagona mantiqqa egaligi qayd etiladi. «Shakllantirish» va «rivojlantirish» tushunchalarining o‘zaro bir-birini o‘rnini to‘ldiruvchi tushunchalar ekanligi to‘g‘risidagi qarashlar ham mavjud. Ularga ko‘ra, shakllantirish jarayoni rivojlantirish va rivojlantirish jarayoni esa shakllantirish negizida sodir bo‘lishi g‘oyasi ilgari suriladi.

«Rivojlanish» atamasining sof biologik, «tarbiyalash» atamasining pedagogik, «shakllanish» atamasining esa falsafiy kategoriya sifatida qabul qilinganligini inobatga

oladigan bo‘lsak, o‘z-o‘zidan anglanadiki, shaxsni shakllantirish jarayoni uni rivojlantirish (aniqroq qilib aytganda, shaxsda muayyan sifatlarni tarbiyalash, amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish) negizida sodir bo‘luvchi ijtimoiy hodisadir. Zero, «shakllanish» atamasi dunyoqarash va uning tarkib topishini anglatuvchi asosiy tushunchadir. Bizga yaxshi ma’lumki, shaxs dunyoqarashining tarkib topish hodisasi unda shaxsiy, irodaviy hamda ma’naviy-axloqiy sifatlarning mavjudligi va yaxlitligiga tayangan holda sodir bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda qayd etish lozimki, o‘quvchilarda milliy ongni shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik faoliyat jarayonidir. Bu jarayon barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy maqsadni amalga oshirish borasidagi yaxlit jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarida milliy ongni shakllanganligini aniqlash uchun bu tushunchaning mohiyatini anglab olish talab etiladi. Shu sababli uning manbalarda yoritish holatini tahlil qilish asosida o‘quvchilarda milliy ongni shakllanganlik darajasini aniqlashga yordam beruvchi mezonlarni yaratishga urinib ko‘ramiz.

Milliy iftixor tuyg‘usi – o‘z milliy mansubligidan fahrlanish imkoniyati. Milliy iftixor tuyg‘usi o‘z millatining boy tarixi, madaniy va ma’naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasidan g‘ururlanish imkoniyati. Milliy iftixor tuyg‘usi – o‘zligini anglash va o‘zgalarni tushunishga da’vat etuvchi qudratli kuch.

Ko‘rinib turibdiki, bu o‘rinda g‘urur tushunchasini shaxsga, iftixor tushunchasini millatga xos tuyg‘u sifatida e’tirof etadilar. Aynan mana shu holat ular o‘rtasidagi farqni ko‘rsatuvchi ko‘rsatkich sifatida qabul qilinadi. Har ikki tushunchaga berilgan ta’rifdan g‘urur tushunchasi individuallik, iftixor tushunchasi esa ijtimoiylik xususiyatiga ega bo‘ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Milliy g‘urur (iftixor), – deb ta’rif beriladi manbalarda, - shaxs yoki ijtimoiy guruhning milliy o‘z-o‘zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy-ma’naviy meros, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qashgan hissasi, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro‘-e’tiboridan fahrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

Bu tuyg‘u shaxsda quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

a) millatning yutuqlari, obro‘-e’tibori bilan fahrlanish, uning muammolariga befarq bo‘lmaslik;

b) xalqi, millatining taqdiri uchun jonkuyar bo‘lish;

g) o‘z millatining moddiy-ma’naviy merosini asrab-avaylash;

d) xalq odatlari, an’analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish to‘g‘risida qayg‘urish;

e) xalqi, millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Milliy g‘urur, milliy iftixor o‘zi mansub bo‘lgan millat, xalqning ravnaqi, taraqqiyoti uchun kurashishnigina emas, shu bilan birga o‘zga millatga mansub kishilarga hurmat-ehtirom ko‘rsatishni taqozo qiladi. Bunday tuyg‘uga ega ma’naviy etuk kishi milliylikni millatchilikdan, haqiqiy milliy g‘ururni millatparastlikdan farqlay oladi, boshqa millat vakillarining izzat nafsi va g‘ururini kamsitmaydi. Shuningdek, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usiga ega insonda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi shakllanadi.

Milliy o‘zlikni anglash – bu millatchilik emas, balki o‘z millati, xalqi, an’analari, urf-odatlari, tug‘ilib o‘sgan joyi, Vatani, tili, dini, avlod-ajdodlari, kasb-kori, shajarasi, oilasidan g‘ururlanish, ularni avaylab-asrash hamda boshqa xalqlar va millatlarni ham hurmat qilish demakdir.

Muammoga oid manbalarni o‘rganish, shaxsda milliy ongni shakllantirish jarayonida quyidagilar muhim o‘rin tutishi aniqlandi:

1. Milliy mansublik – shaxsning muayyan millat vakili ekanligini ifodalovchi holat, maqom. Mazkur tushuncha shaxsning nasabini ham ifodalashga xizmat qiladi.

Zero, ota-ona yoki sulolaning qanday millat vakili ekanligi farzandlarda ana shu millatga xos xususiyatlarning namoyon bo‘lishini kafolatlaydi. Milliy mansublikni belgilashda onaning maqomi muhim ahamiyatga ega.

Qadimdan o‘g‘il bolalarning farzandlari ma’lum urug‘ yoki sulolaning davomchilari, qizning farzandlari esa begona urug‘ yoki sulolaning nasli sifatida baholanib kelingan. Shu sababli o‘g‘il uylantirishga jiddiy e’tibor qaratilgan va kelinlikka ana shu sulolaga munosib qiz tanlangan. Zamonaviy sharoitda ham dunyoga kelgan chaqaloq uning onasi mansub bo‘lgan millat vakili maqomini oladi.

2. Milliy tuyg‘u, ruhiyat (milliy psixologiya) – sub’ektning ob’ektga bo‘lgan muhim munosabati, mazkur munosabat mazmunida aks etuvchi xususiyat bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlar, shaxsning atrof-muhitga ta’sirida namoyon bo‘ladi. Milliy tuyg‘uga ega shaxs o‘zini millat vakili ekanligini his eta olishi, u kechiradigan turmush tarzi millatdoshlariniki bilan uyg‘un bo‘la olishi lozim.

3. Milliy xarakter – millat vakillari ruhiyatida aks etuvchi barqaror psixik xususiyatlar birligi bo‘lib, u ham ijtimoiy borliqqa munosabatda aks etadi. Millat vakillarining turmush tarzi, ijtimoiy maqsadlari, hayotiy faoliyatlari hamda ruhiy kechinmalarining yaxlitligi milliy xarakterga xos etakchi psixik xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

4. Milliy o‘z-o‘zini anglash – har bir millat (elat)ning o‘zini real mavjud sub’ekt, muayyan moddiy va ma’naviy boyliklarni ifodalovchisi, yagona til, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib etishlaridir. Milliy o‘z-o‘zini anglash millatning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni va uning umumiy taraqqiyotiga ta’sirining munosib baholanishiga xizmat qiladi

5. ***Milliy g‘urur*** **–** har bir millatning o‘z-o‘zini anglashi natijasida sodir bo‘ladigan ichki ruhiy kayfiyat. Bu tuyg‘u o‘z ona zamini, ajdodlar tomonidan qoldirilgan moddiy-ma’naviy merosdan, o‘z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissalaridan o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, oro‘-e’tibori bilan fahrlanish hissiyotidir. ... Milliy hurur har bir insonda o‘z millatining moddiy-ma’naviy merosini o‘zlashtirish, urf-odatlarini, an’analar, qadriyatlari, tarixini mukammal bilish va uni o‘zga millatlar bilan qiyoslash natijasida shakllanadi hamda unda o‘z millatiga mehr-muhabbatini oshirib boradi”.

Milliy g‘ururga egalik millat vakili sifatida o‘zi mansub bo‘lgan millat tomonidan tarixiy taraqqiyot davomida qo‘lga kiritilgan yutuqlardan, millatning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasidan fahrlanishnigina ifodalab qolmay, balki milliy taraqqiyot, millat taqdiri va istiqboli uchun kurashish, bu borada chuqur mas’ullikni his etish hamdir.

6. ***Milliy iftixor*** – milliy g‘urur tuyg‘usiga egalikning yuqori bosqichi bo‘lib, u millatning “yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir”. Milliy iftixor tuyg‘usiga egalik, shuningdek, millatning kishilik taraqqiyoti tarixida tutgan o‘rnini, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan munosib hissasini, qadr-qimmati, obro‘-e’tiborini munosib baholash olish, millat istiqboliga bo‘lgan ishonchga egalikni ham ifodalaydi.

Demak, yoshlar ongiga milliy iftixor tuyg‘usini singdirish engil-elpi qaraladigan yoki shoshma-shosharlikni talab qiladigan jarayon emas, aksincha, bu holat pedagoglar harakatining behuda sarflanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Buyuk mutafakkirlarimizdan Abu Nasr Farobiy yozganidek, ta’lim-tarbiya ishini boshlashdan avval tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xislatlarini o‘rganish lozim. Alloma o‘zining «Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida» asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida batafsil fikr bayon etadi. Farobiy ta’limotida inson ta’lim yordamida barcha fanlarni puxta o‘zlashtirish bilan ma’naviy-axloqiy fazilatlarga, odob me’yorlari va kasb-hunarga oid malakalarga ega bo‘ladi. U «Ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surdi. Bu usullar esa, o‘z navbatida, Farobiyning «Fozil insonlar jamiyati»da axloqan pok, barkamol avlodning tarbiyasi uchun xizmat qilish kerak edi.

Farobiy ta’lim-tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan mutafakkir sanaladi. Ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya - insoniy fazilatni hamda ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim. IX-X asrdan keyingi davrlarda yashab o‘tgan allomalar ham inson axloqi, yoshlar tarbiyasi masalasiga oid ko‘p ish olib borganlar. Bu xayrli ishga tasavvuf olamining allomalari Najmiddin Kubro, Fariddin Attor, Baxovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy va boshqalar katta hissa qo‘shdilar. Bu allomalarning ijodiy faoliyati, boy ma’naviyati tufayli milliy tarbiya tizimining asoslari vujudga keldi. Xulosa qilib aytganda ruhan tetik va sog‘lom, erkin va tanqidiy fikrlovchi, ayni paytda, ijtimoiy mas’uliyatni to‘g‘ri his etadigan, muayyan kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalash O‘zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning tarkibiy qismiga, asosiy shart-sharoitiga va maqsadiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son

2. Izbullayeva, Gulchehra. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi XIII – XIV asrlar) [Matn]: o’quv qo’llanma / G. Izbullayeva. - Buxoro: «Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, 2019. - 180 b.

3. QurbonovaO.U., Tosheva.D.I. Oila pedagogikasi. Darslik. -Бuxoro: Durdona, 2023 y.220 b.

4. Mutalipova M. J. Xalq Pedagogikasi: (o'quv qo'llanma): T.: Alisher Navoiy nomidagi O ‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011.- 160 b.

5. Huasyn Voiz Koshifiyning “Ahloqi Muxsiniy” asari.T: 2011y.374 b.

MILLIY TARBIYA MAZMUNI VA UNI YOSHLARIMIZDA SHAKLLANTIRISH MASALALARI

p.f.n. Xolmatov P.X., Abdurasulova D.A.
TIFT universiteti
p.f.n. professor Beknazarov A.A.
Renassans ta’lim universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmuni va yo‘nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida belgilanadi. Bu fikr mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya ishlari yo‘nalishlarini belgilash uchun ham katta ahamiyatga ega. Milliy tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish ekanligi bayyon qilingan.*

Kalit so‘zlar: liderlik, o’quvchilarda liderlik xususiyatlari, rasmiy va norasmiy lider, shaxs, individual-psixologik xususiyatlar, psixologik portret.

Olimat ul Banotning milliy tarbiya an’analari haqida quyidagi fikrlarida ham chuqur ma’no bor. U shunday deb yozgan edi: «Ota-onalar qo‘lida bolalar aziz omonatlardir. Shuning uchun ham ularni go‘zal tarbiya etmoq yaxshi xulqlarga o‘rgatmoq va ko‘rkam odatlarni tushuntirmoq lozim. Tarbiya bilan bir bolani oltin etmoqlik mumkin, tuproq qilmoq ham mumkin. Tarbiyalangan kishilar din amri bilan yashaydilar, ularning tili bilan dili, so‘zi bilan ishi bir bo‘ladi.Bunday fazilatlarni shakllantirish birinchi navbatda oilada ota-onaga hamda qolaversa tarbiyachilarga bog‘liqdir. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o‘tilgan hozirgi sharoitda oila va undagi ota-onaning farzand tarbiyasida mas’uliyati yanada oshdi, deb aytishga to‘la asosimiz bor. Shaxs ma’naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e’tiqodiga aloqador ko‘nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma’noda oila - haqiqiy ma’naviyat o‘chog‘i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Milliy tarbiyaning takomillashuvi jamiyatda mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga olib keladi. Bunday shaxslarning ko‘payishi jamiyatda ongli hayot kechirish tizimini vujudga keltiradi. Yuksak g‘oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari etaklaydi. g‘oyasi etuk, e’tiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko‘rsata oladi. Bizning ezgu maqsadimiz esa ta’lim-tarbiya jarayonini

takomillashtirish asosida g‘oya va mafkuramizni e’tiqod qilinadigan muqaddas tuyg‘uga aylantirishdir. Chunki, e’tiqodga aylanmagan g‘oyani g‘oya, milliy mafkurani mafkura deb bo‘lmaydi. Binobarin, ta’lim sohasida belgilangan milliy g‘oya va mafkuraning asosiy tamoyillari, uning maqsadi va mohiyati bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Quyida milliy mafkuraning mazmunini yoritamiz:

a) mustaqillikning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy-huquqiy zaminlarini mustahkamlashdan;

b) O‘zbekistonning o‘ziga xos va o‘ziga mos taraqqiyot yo‘lini asoslashdan; v)fan-texnika yutuqlarini rivojlantirib, jamiki zamonaviy yangiliklarni chuqur o‘rganib, ularni hayotga, ishlab chiqarishga ijodiy, oqilona joriy etish va O‘zbekistonni jahon bozori talablariga mos keladigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan mamlakatga aylantirish;

v) ijtimoiy adolat, qonunchilik tantana qilishini ta’minlaydigan fuqarolik jamiyati qurish, tinchlik, osoyishtalik, milliy hamkorlik, hamjihatlik, barqarorlikni ta’minlashdan;

g) inson ma’naviy kamolotini tezlashtirishdan;

d) mustaqil va yangicha fikrlaydigan, e’tiqodi mustahkam, iymoni butun, irodasi baquvvat, g‘oyaviy-siyosiy jihatdan etuk, o‘z Vataniga mehr-sadoqat tuyg‘usi kuchli kishilarni tayyorlash, tarbiyalashdan;

e) yoshlar qalbiga vatanparvarlik, el yurtga sadoqat, insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini singdirishdan;

k) kishilarni doimo ogoh bo‘lib turishga da’vat etish..., mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko‘proq kuchga ega ekanligini odamlar ongi va qalbiga etkazishdan;

m) yoshlarda mehnatsevarlik va insonparvarlik, vijdonlilik va imonlilik, halollik, milliy g‘urur tuyg‘ularini tarbiyalashdan;

n) ijtimoiy ong, axloq va odobning milliy va umuminsoniy zaminlarini mustahkamlashdan iborat jarayonlarning barchasi milliy g‘oyaning asosiy tamoyillari mazmunini anglatadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki xalqimiz tarixidagi buyuk allomalarni, xususan, ma’rifatli dunyo buxoriylar, farg‘oniylar, xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolar, ulug‘beklarni qanchalik izzat ikrom qilgan bo‘lsa, yigirma birinchi asrda biz xalqimiz, millatimizga nisbatan ana shunday ehtiromni qaytadan qo‘lga kiritishimiz kerak.

Ularni III renesan yaratuvchilari ekanligini va buyuk ajdodlarga munosib avlod bo‘lish ruhida tarbiyalamog‘imiz lozim. Buning uchun esa ta’lim-tarbiya tizimini muntazam takomillashtirib, milliy g‘oya tamoyillari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlantirishni ta’minlay olishimiz zarur. Ana shundagina biz kutilgan natijalarga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son

2. Izbullayeva, Gulchehra. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi XIII – XIV asrlar) [Matn]: o’quv qo’llanma / G. Izbullayeva. - Buxoro: «Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, 2019. - 180 b.

3. QurbonovaO.U., Tosheva.D.I. Oila pedagogikasi. Darslik. -Бuxoro: Durdona, 2023 y.220 b.

4. Mutalipova M. J. Xalq Pedagogikasi: (o'quv qo'llanma): T.: Alisher Navoiy nomidagi O ‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011.- 160 b.

5. Huasyn Voiz Koshifiyning “Ahloqi Muxsiniy” asari.T: 2021y.374 b.

XALQARO XAVF-XATARLAR SHAROITIDA YOSHLARNI VATAN HIMOYASIGA SAFARBAR ETISHNING MA’NAVIY VA IJTIMOIY ASOSLARI

dotsent Allayarov D.U.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xalqaro maydonda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlar, qurolli to‘qnashuvlar va tahdidlar sharoitida mamlakat yoshlarini Vatan himoyasiga safarbar etish masalalari yoritilgan. Unda yoshlarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligi, vatanparvarlik tarbiyasi va ijtimoiy mas’uliyat hissini kuchaytirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, ta’lim va tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma’naviy merosning o‘rni, shuningdek, zamonaviy xavfsizlik konsepsiyalari bilan uyg‘unlashtirilgan yondashuvlarning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Maqolada yoshlarni safarbar etish jarayonida davlat siyosati, xalqaro tajriba va ijtimoiy institutlarning hamkorligi misollar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *xalqaro xavf-xatarlar, yoshlar, Vatan himoyasi, safarbarlik, ma’naviy-ruhiy tayyorgarlik, ijtimoiy asoslar, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik tarbiyasi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы мобилизации молодёжи страны на защиту Отечества в условиях возникающих опасностей, вооружённых конфликтов и угроз на международной арене. Анализируются основные направления духовно-нравственной подготовки молодёжи, патриотического воспитания и укрепления её чувства социальной ответственности. При этом показывается роль национальных ценностей, исторической памяти и духовного наследия в процессе образования и воспитания, а также важность подходов, гармонизированных с современными концепциями безопасности. В статье на конкретных примерах анализируются государственная политика, международный опыт и взаимодействие социальных институтов в процессе мобилизации молодёжи.*

Ключевые слова: *международные угрозы, молодёжь, защита Родины, мобилизация, духовно-нравственная подготовка, социальные основы, национальные ценности, патриотическое воспитание.*

O‘zbekiston aholisi tarkibida yoshlar salmoqli ulushni tashkil etgani bois, ularning Vatan himoyasiga bo‘lgan mas’uliyatini oshirish va safarbarlik ruhini yuksaltirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni safarbar etish jarayonida tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, ma’naviy meros va ijtimoiy birdamlik tamoyillari muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki jamiyatning barqarorligi, milliy armiyaning jangovar shayligi va davlat xavfsizligining kafolati, eng avvalo, yosh avlodning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlarda yoshlarni har tomonlama barkamol, bilimli, ma’naviy yetuk va Vatanga sodiq etib tarbiyalash masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yilgan. Bu esa xalqaro xavf-xatarlar sharoitida yoshlarni Vatan himoyasiga safarbar etishning ma’naviy va ijtimoiy asoslarini ilmiy-uslubiy jihatdan chuqur o‘rganish zarurligini taqozo etadi. Shu bois mazkur masalaning ilmiy tahlili va amaliy yechimlarini muhokama qilish Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasining asosiy maqsad va vazifalariga to‘liq mos keladi.

Xalqaro xavf-xatarlar sharoitida yoshlar ongiga ta’siri

Bugungi global muhitda xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar tobora ko‘paymoqda. BMT hisobotlariga ko‘ra, 2024- yilda dunyo bo‘yicha 50 dan ortiq qurolli mojarolar qayd etilgan bo‘lib, ulardan ayrimlari bevosita mintaqaviy xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Masalan, Yaqin Sharqdagi urushlar, Rossiya-

Ukraina to‘qnashuvi, Afg‘onistondagi beqarorlik Markaziy Osiyo davlatlariga ham xavf tug‘dirishi mumkinligi mutaxassislar tomonidan ta’kidlanmoqda. Xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlariga ko‘ra, yoshlar ekstremistik oqimlar tomonidan eng faol nishon sifatida ko‘rilmoqda. *“UNESCO Global Report on Youth” (2023)* da qayd etilishicha, onlayn platformalarda tarqatilayotgan soxta axborot va radikal g‘oyalar aynan 18-30 yosh orasidagi auditoriyani ko‘proq qamrab olmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham bu masala dolzarbdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M. Mirziyoyev o‘z nutqlarida yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashni milliy xavfsizlikning eng muhim tarkibiy qismi sifatida belgilab kelmoqda. Xususan, *“Yoshlar – kelajagimiz”* davlat dasturi doirasida 2018-2023- yillarda 400 mingdan ortiq yoshlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlangan, bu esa ularni turli buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilishning samarali vositasi sifatida e’tirof etilmoqda. Misol tariqasida, 2022- yilda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan 2 milliondan ortiq yoshlarni qamrab olgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilganini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bu kabi tashabbuslar xalqaro xavf-xatarlarning yoshlar ongiga salbiy ta’sirini kamaytirish, ularni Vatan himoyasiga safarbar qilishda mustahkam poydevor yaratmoqda.

Yoshlarni Vatan himoyasiga safarbar etishning ma’naviy va ijtimoiy asoslari

Yoshlarni Vatan himoyasiga safarbar etishda ularning harbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda ma’naviy-ruhiy salohiyatini oshirish va ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy sharoitda xavf-xatarlar nafaqat qurol bilan, balki g‘oya va mafkura maydonida ham kechmoqda. Shu bois safarbarlikning poydevori sifatida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va vatanparvarlik tarbiyasi alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston tajribasida “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi, shuningdek, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident qarorlari yoshlarni ma’naviy-ijtimoiy barkamol etishda asosiy hujjatlar bo‘lib xizmat qilmoqda. 2017-2024- yillar davomida mazkur dasturlar asosida respublika miqyosida minglab tadbirlar o‘tkazilib, millionlab yoshlar qamrab olindi, bu kabi tadbirlar joriy yilda ham tashkil etilib, tobora ko‘proq yoshlarni qamrab olmoqda. Bu tadbirlar yoshlarning ongida Vatanga sodiqlik, ijtimoiy mas’uliyat va birdamlik ruhini kuchaytirdi.

Tarixiy xotirani tiklash va uni yoshlar ongiga singdirish ham safarbarlikning muhim jihatlaridan biridir. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistondan 500 mingdan ortiq yigit-qiz frontga jo‘natilgan, ulardan ko‘plari jasorat ko‘rsatib,

O‘zbekiston nomini sharaf bilan himoya qilgan. Bu faktlarning o‘zi yoshlar ongida faxr, sabr-toqat va fidoyilik tuyg‘usini uyg‘otadi. Shu sababli har yili 9- may – “Xotira va qadrlash kuni” keng nishonlanishi yoshlar qalbida milliy g‘ururni yanada oshirmoqda. Ijtimoiy institutlar hamkorligining kuchaytirilishi ham safarbarlikning barqaror poydevoridir. Masalan, Mudofaa vazirligi va Yoshlar ittifoqi hamkorligida o‘tkazilgan “Vatan himoyachilari kuni” tadbirlarida yuz minglab yoshlar ishtirok etib, ular uchun amaliy mashg‘ulotlar va vatanparvarlik darslari tashkil etildi, shuningdek harbiy qism va muassasalarda “ochiq eshiklar kuni” tadbirlari ham muntazam tashkil etilib o‘tkazilib kelinmoqda. Bu yoshlarning milliy armiyaga ishonchini mustahkamlab, ular ongida fuqarolik mas’uliyatini yanada chuqurlashtirdi.

Xalqaro miqyosda ham yoshlarni safarbar qilishda tarbiya, ma’naviy tayyorgarlik va ijtimoiy birdamlik birinchi o‘rinda turadi. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarida ham vatanparvarlik tarbiyasi va yoshlarni xavfsizlik sohasida tayyorlash milliy xavfsizlik siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Xulosa. Xalqaro xavf-xatarlar kuchayayotgan hozirgi davrda yoshlarni Vatan himoyasiga safarbar etish nafaqat harbiy sohada, balki ma’naviy va ijtimoiy jihatdan ham dolzarb masaladir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlar va tarixiy xotira asosida shakllantirish, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish mamlakat xavfsizligini ta’minlashning muhim omillaridan biridir.

Tarixiy tajriba ham, bugungi global jarayonlar ham shuni anglatadiki, yosh avlodning ongida Vatanga sadoqat, ijtimoiy mas’uliyat va birdamlik ruhini kuchaytirish milliy xavfsizlikning mustahkam kafolatidir. Shu bois yoshlarning harbiy tayyorgarligini oshirish bilan bir qatorda ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, xalqaro miqyosdagi tahdidlarga qarshi mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi. O‘zbekistonning bugungi taraqqiyot yo‘li yoshlar safarbarligiga, ularning ma’naviy-ijtimoiy barkamolligiga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 13-iyul.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy xavfsizlik strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 25-avgust.

4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

5. Jo‘rayev M., Tohirov S. Harbiy psixologiya va tarbiya asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020.

6. Xolmatova N. Yoshlar va ma’naviyat: zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Sharq, 2021.

7. United Nations. Youth, Peace and Security: Progress Study. – New York: UN Publications, 2018.

8. NATO Review. Youth and Resilience in Security Strategies. – Brussels, 2020.

9. Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996.

10. Qodirov A. Global tahdidlar va xavfsizlik muammolari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

ПРОБЛЕМЫ МОБИЛИЗОВАННОСТИ МОЛОДЕЖИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И МЕРЫ ПО ИХ РЕШЕНИЮ

Джураев Р.З.

Военный институт информационно-коммуникационных технологий и связи

Аннотация. *В статье рассмотрен проблемы развития гражданской активности молодежи в условиях социальных перемен. На основе анализа определены проблемы и противоречия молодежных инициатив, социальной активности молодежи и существующих государственных программ поддержки молодежных инициатив. Озвучены перспективы развития гражданского общества, его морально-психологической готовности к защите своей Родины.*

Ключевые слова: молодёжь, закон, политика, история, образование, совершенствование, формирование, развитие, военный патриотизм, военно-патриотическое воспитание, цель военно-патриотического воспитания.

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida yoshlarning fuqarolik faolligini rivojlantirish muammolari ko‘rib chiqiladi. Tahlil asosida yoshlar tashabbuslari, yoshlarning ijtimoiy faolligi hamda yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaldagi davlat dasturlari muammolari va qarama-qarshiliklari*

aniqlandi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish istiqbollari, uning o‘z Vatanini himoya qilishga ma’naviy-ruhiy tayyorgarligi haqida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, qonun, siyosat, tarix, ta’lim, takomillashtirish, shakllantirish, rivojlantirish, military patriotism, military patriotic education, goal of military, patriotic education, tasks of military patriotic education.

Введение.

В эпоху глобализации проблемы, связанные с духовно-нравственным воспитанием молодежи, являются одними из важнейших, от решения которых зависит будущее каждого государства. Сегодня в международной политике происходят своеобразные процессы. В межгосударственных отношениях метод «воздействия на другого» перешел в самую сложную стадию – духовную. Теперь государства ликвидируются другими государствами не с помощью оружия, силы, богатства, а с помощью духовно-идеологических движений[4].

Говорить о социальном развитии можно лишь тогда, когда есть социальная активность молодежи. Общество перемен не дает стабильного видения будущего развития, поэтому формы гражданской активности могут отличаться. Государственная политика стимулирует и направляет развития активизма молодых людей, но этого недостаточно чтобы кардинально изменилась ситуация в понимании того, на что можно опираться сейчас и что станет приоритетом развития в будущем.

Молодежь – это основа становления гражданского общества, инновационной социально ответственной экономики будущего. Поэтому формы гражданской активности молодежи, распространенные в настоящий момент, могут стать основой для понимания будущего развития государства. Использование идей и возможностей молодежи становится ресурсом формирования общества нового типа.

Гражданская активность молодежи и государственная молодежная политика в условиях социальных перемен на сегодняшний день мало связаны между собой. Это произошло потому, что есть разрыв между видением развития сверху и возможностей развития снизу. Молодежная активность состоит из автономной активности (когда отдельный человек или группа людей проявляет инициативу и делает что-либо для изменения ситуации) и мобилизационной

[4]Пахрутдинов Ш.И. Угрозоустойчивое общество в качестве фактора развития государства и общества // Conflictology. 2016. No 4. С. 73.

активности (сформированной в виде политизации и решения поставленных органами власти задач, через официальные институты (школы, университеты, городские и районные молодежные центры дополнительного обучения и т.д.). Мобилизационная активность молодежи, безусловно более фундаментальный каркас для развития патриотизма и гражданской идентичности, так как может быть более регулярной по организации и финансированию мероприятий. Если говорить о мобилизационной активности, то необходимо развивать ценности и мировоззрение, направленное на развитие интересов государства, социально-политических интересов развития страны, инновационного развития общества. Социальная активность – это социальное действие, это просоциальная активность, которая меняет общественную ситуацию в отдельных вопросах или в целом в обществе. Гражданская активность – реализуется через выполнение обязанностей гражданина в различных сферах жизни. Социальная и гражданская активность соединяются в раскрытии потенциала мобилизационной активности. В решающие моменты истории во всем мире именно социально активной и граждански активной молодежи принадлежала ключевая роль в изменении социального порядка, поэтому необходимо заниматься мобилизационной активностью молодого поколения для усиления качественных показателей развития и общей динамики общественного прогресса, социальных трансформаций и общественного воспроизводства. На наш взгляд необходимо учитывать и социально-психологические возможности и состояния современной молодежи. Процессы цифровизации и качественных трансформаций социальных условий жизни приводят к новым моделям социальной активности, что также должно находить подтверждение и поддержание в государственной молодежной политике [2].

На сегодняшний день наблюдаются трудности в совмещении и совместном развитии молодежных инициатив и государственной политики: слабой представленности преемственности политики областей и районов республики, направленной на реализацию потенциала молодежи; недостаточное горизонтальное взаимодействие молодежи и молодежной политики в части организации межобластных и межрайонных мероприятий; финансирование работы с молодежной активностью по остаточному принципу; малом количестве программ, в которых можно получить финансирование на реализацию молодежью своих идей, способных укрепить гражданское общество (гранты,

субсидии); волюнтаризм власти становится преградой для тесного взаимодействия с молодежью [2].

Анализ активности молодежи стран, находящихся в той или иной стадии конфликта с другой страной показывает, что руководство этих стран столкнулось с тем, что государство должно мотивировать молодежь деньгами, чтобы мобилизационная активность этой категории населения шла более успешно. Например, главнокомандующий ВСУ Александр Сырский признал существование серьезных проблем с мобилизацией молодежи, особенно это касается молодежной программы привлечения на фронт, об этом он сообщил в интервью американскому изданию Washington Post. Главком ВСУ сообщил о том, что недавний соцопрос на Украине показал, что более 50% респондентов молодого призывного возраста видят мотивацию в «дополнительных деньгах» [3].

Наряду с проводимой политикой мира Республика Узбекистан обязуется обеспечивать безопасность, мир и стабильность своих граждан. Он осуществляет право на неприкосновенность в соответствии с Уставом ООН, обеспечивает военную и оборонительную мощь. Переосмысление подготовки молодежи к защите Родины требует полного использования содержательных и организационно-методических аспектов военно-патриотического воспитания. Необходимо выбирать и закреплять традиции, которые проверяются путем анализа эффективности воспитательной деятельности, практики военно-патриотического воспитания, поиска новых форм, которые позволят более полно реализовать задачи подготовки молодежи в качестве защитников Родины.

За последние годы в республике проделана определенная работа в сфере подготовки призывников по военно-техническим специальностям, формированию духовно богатой и физически здоровой личности, созданы благоприятные условия для занятия спортом, в том числе его техническими и прикладными видами. Подготовка молодежи к службе в ВС РУ является общегосударственной задачей. При решении этой задачи обязательным предметом в учебном процессе является начальная военная подготовка.

Принятая Концепция военно-патриотического воспитания молодежи, направленная на усиление проводимых совместно с местными органами государственной власти мероприятий по обеспечению единства армии и народа, дает возможность укомплектовать ряды национальной армии Узбекистана

молодыми людьми, обладающими современными знаниями, навыками и профессиональным мастерством, твердой волей и активной гражданской позицией.

Вместе с тем в ВС РУ до настоящего времени имеются системные проблемы, касающиеся повышения образовательного уровня военнослужащих. В соответствии с реальными социально-политическими изменениями в жизни страны необходимо развитие у военнослужащих профессионального опыта, базирующегося на понимании ими национальных интересов и социально-политических процессов, происходящих в мире, усиление идеологического иммунитета к внутренним и внешним угрозам [4].

Отдельно необходимо отметить преграды реализации государственной молодежной политики. Результаты анализа показали, что основными преградами для реализации государственной молодежной политики, в том числе являются бюрократизм и формализация работы, которые безусловно присутствуют в работе органов власти на местах. Данные факторы указывают отсутствие понимания отдельных чиновников, того что решение каких-то отдельных вопросов зависит не от статьи расходов, а от реальной возможности что-то сделать, и ситуация изменится.

Кроме того, стоит подчеркнуть тот факт, что бюрократический язык, официозный стиль отталкивали многих грантополучателей, из числа молодежи, даже на этапе написания и подачи заявки. И это показатель социальной и личной ограниченности, не готовности взаимодействовать с официальными структурами. Это безусловный минус для всех должностных лиц, ответственных за продвижение молодежной политики и инициатив нашего Президента в области поддержки молодежи, интеграции ее в различные сферы деятельности республики, что указывает на их отсутствие у них должной гибкости и лояльности.

Одной из наиболее значимых ценностей и идеологической основой государства является патриотизм. Под военно-патриотическим воспитанием понимается постепенное и неуклонное формирование у обучающихся любви и уважения к своей Родине, что является одной из важнейших черт всесторонне развитой личности. Для совершенствования системы военно-патриотического воспитания, формирования у граждан Узбекистана высокого патриотического сознания было принято Постановление Президента Республики Узбекистан

«О коренном совершенствовании системы повышения духовно-просветительского уровня военнослужащих Вооруженных Сил Республики Узбекистан»[5]. Разработана и реализуется государственная программа «Патриотическое воспитание граждан», которая нацелена на совершенствование системы патриотического воспитания, прежде всего в общеобразовательных организациях.

Современное понимание военно-патриотического воспитания как одного из приоритетных направлений деятельности государственных институтов представлено в «Концепции военно-патриотического воспитания молодежи». В ней сформулирована цель – «развитие у обучающихся гражданственности, патриотизма как важнейших духовно-нравственных и социальных ценностей, формирование профессионально значимых качеств, умений и готовности к их активному проявлению в различных сферах жизни общества, особенно в процессе военной и других, связанных с ней, видов государственной службы, верности конституционному и воинскому долгу в условиях мирного и военного времени, высокой ответственности и дисциплинированности» [5].

На основе проведенного анализа, можно выделить приоритеты и перспективы реализации государственной молодежной политики. Потенциальные возможности, которые находятся в государственной молодежной политике находятся в увеличении возможностей получения поддержки инициатив, через работу некоммерческих организаций, так как они непосредственно могут и формально обеспечить функционирование проектов и акций и неформально координировать работу многих волонтеров, добровольцев, социальных и гражданских активистов, что в целом усиливает их мобилизационный потенциал.

Более того, необходимо государственно поддерживаемая социальная реклама как некоммерческих организаций, так и непосредственно социальной и гражданской активной деятельности, мобилизационной внутренней работы в каждой области нашего государства. В качестве перспективы развития государственной молодежной политики отмечается ее доступность и известность. Доступность – в том, чтобы любой молодой человек знал, что ему

[5]Постановление Президента Республики Узбекистан «О коренном совершенствовании системы повышения духовно-просветительского уровня военнослужащих Вооруженных сил Республики Узбекистан» от 4 августа 2018 года № ПП-3898.

нужно сделать, с кем взаимодействовать чтобы реализовать свои идеи. А известность предполагает социальную рекламу, способную активизировать гражданскую позицию, усиливать идеи патриотизма, навыки социальной активности в любых социальных условиях в любом регионе нашей страны.

Таким образом, проведенный анализ существующей государственной молодежной политики и инициатив активной молодежи выявил как разное понимание сути поддержки просоциальных практик молодых людей, так разные мотивы и механизмы осуществления данного взаимодействия.

Без серьезных трансформаций социальной молодежной политики нельзя говорить о развитии молодежи, молодежных инициатив и тем более о мобилизационной активности молодых людей, способной консолидировать общество, усилить уровень гражданской осознанности и активности и сформировать новый уровень и качество жизни для всех жителей республики.

Выводы. Государственная политика не может быть хорошей для всех хотя бы потому, что мы все разные. Одни – инициативные, активные, другие – инертные и пассивные. Поэтому необходим адресный подход ко всем и это надо учитывать в реализации программ государственной молодежной политики.

Универсального рецепта «хорошей молодежной государственной политики». Есть понимание того, что разным сообществам молодежи необходимы разные подходы и формы активизации их деятельности. Ведь социальная активность, участие в различных проектах – это всегда личная инициатива, которая может найти поддержку со стороны власти и это уже станет целым организованным и контролируемым движением, или же разрозненной инициативой, которая через несколько дней, недель или месяцев забудется навсегда. Это тонкая грань соблюдения интересов государства и поддержания социально и гражданско активных молодых людей.

В современных условиях, когда существенно изменилась военная ситуация в мире, социально-экономическое положение в стране, армии, образовательных учреждениях, настала необходимость творческого развития молодежи, целенаправленной и качественной реализации системы военно-патриотического воспитания молодежи страны.

Список литературы:

[1]. Молодой учёный научный журнал. Проблемы формирования патриотизма у молодежи в условиях современного мира https: //moluch. ru/archive /350/78691 (дата обращения 26.09.2025 г.).

[2]. Социология научный журнал. Мобилизационная активность молодежи и государственная молодежная политика. № 1 –2023 г.

[3]. Спутник беларусь электронный журнал. https: // sputnik. by/ 20250723/ syrskiy-o-mobilizatsii-na-ukraine-molodezh-khochet-deneg-1098351097.html (дата обращения 26.09.2025 г.).

[4]. Розимова Ё.Ю. Современные требования к военно-патриотическому воспитанию молодежи в Узбекистане. Бюллетень конференции “Россия и мусульманский мир” Россия, 2021.

[5]. Постановление Президента Республики Узбекистан «О коренном совершенствовании системы повышения духовно-просветительского уровня военнослужащих Вооруженных сил Республики Узбекистан» от 4 августа 2018 года № ПП-3898.

MAMLAKAT YOSHLARINING VATAN HIMOYASI UCHUN SAFARBAR ETISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

dotsent Soliyev A.B.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Maqolada XXI asrda dunyoda yuzaga kelayotgan turli xavf-xatarlar va qurolli to‘qnashuvlar sharoitida mamlakat yoshlarini Vatan himoyasiga safarbar etish masalalari tahlil qilingan. Yoshlarning ma’naviy-ruhiy holati, tashkiliy-huquqiy hamda iqtisodiy-texnologik jihatlariga oid muammolar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, milliy mafkurani mustahkamlash, harbiy tayyorgarlik tizimini zamonaviylashtirish va yoshlarning kasbiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *milliy xavfsizlik, yoshlar, Vatan himoyasi, safarbarlik, vatanparvarlik, mafkura, harbiy tayyorgarlik, muammo va yechimlar.*

Аннотация. *В статье анализируются вопросы мобилизации молодёжи страны на защиту Отечества в условиях различных угроз и вооружённых конфликтов, возникающих в мире в XXI веке. Рассматриваются проблемы,*

связанныес духовно-психологическим состоянием молодёжи, организационно-правовые и экономико-технологические аспекты. Разработаны предложения и рекомендации по укреплению национальной идеологии, модернизации системы военной подготовки, созданию возможностей для профессионального развития молодёжи.

Ключевые слова: национальная безопасность, молодёжь, защита Отечества, мобилизация, патриотизм, идеология, военная подготовка, проблемы и пути решения.

Globallashuv jarayoni va geosiyosiy ziddiyatlar avj olayotgan bir sharoitda milliy xavfsizlikni ta’minlash davlat siyosatining asosiy vazifasiga aylandi. Ayniqsa, mamlakat yoshlarini Vatan himoyasiga safarbar etish va ularning ma’naviy, jismoniy hamda intellektual tayyorgarligini yuksaltirish har qanday davlatning barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega [1-2]. Biroq ushbu jarayonda ijtimoiy, tashkiliy va iqtisodiy xarakterdagi muammolar mavjud bo‘lib, ularni ilmiy asoslangan yondashuv orqali hal etish zarur.

Ijtimoiy-ruhiy muammolar. Mamlakat yoshlarini Vatan himoyasiga safarbar etish jarayonida ijtimoiy va ruhiy omillar katta ahamiyatga ega. Chunki har qanday harbiy tayyorgarlik, avvalo, shaxsning ichki ruhiyati, ma’naviy holati va jamiyatdagi ijtimoiy muhitiga bog‘liq. Bu sohada quyidagi asosiy muammolar mavjud:

Vatanparvarlik hislarining susayishi. Globallashuv jarayonida yoshlar turli g‘oyaviy oqimlar va mafkuraviy ta’sirlarga duch kelmoqda. Bu esa milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik, ijtimoiy mas’uliyatning zaifligi va harbiy xizmatga qiziqishning pasayishiga olib kelmoqda.

Axborot muhitidagi salbiy ta’sirlar. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatiladigan dezinformatsiya, manipulyatsiya va yot g‘oyalar yoshlarning ruhiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim hollarda yoshlar harbiy xizmatni majburiyat emas, balki og‘ir yuk sifatida qabul qila boshlaydi.

Harbiy xizmatga motivatsiyaning pastligi. Yoshlar orasida harbiy xizmatdan qochishga intilish, uning ahamiyatini to‘liq anglamaslik holatlari uchraydi. Bu esa ayrim oilalarda vatanparvarlik tarbiyasining yetarli emasligi bilan bog‘liq.

Ruhiy tayyorgarlikning yetishmasligi. Yoshlar stress, qiyin sharoit va qurolli to‘qnashuvlarga doimiy tayyor emas. Harbiy xizmatga kirishdan oldin ularning ruhiy barqarorligini mustahkamlashga oid tizimli chora-tadbirlar yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Ma’naviy tarbiya tizimidagi kamchiliklar. Ayrim ta’lim muassasalarida vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar formal tusda o‘tkaziladi. Bu esa yoshlarning milliy g‘oya va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini susaytiradi [3].

Tashkiliy-huquqiy muammolar. Yoshlarni Vatan himoyasiga safarbar etish jarayonida tashkiliy va huquqiy jihatlar muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishda qator kamchilik va muammolar kuzatiladi:

Safarbarlik tizimining zamonaviy talablarga mos emasligi. Harbiy hisobga olish va chaqiruv jarayonlari ba’zi hollarda an’anaviy usullarda amalga oshiriladi. Bu esa raqamlashtirish va avtomatlashtirish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishni cheklaydi.

Harbiy tayyorgarlik dasturlarining yetarli darajada samarali emasligi. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida harbiy tayyorgarlik ko‘pincha nazariy bilim bilan cheklanib qolmoqda. Amaliy mashg‘ulotlar, simulyatorlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi past.

Huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi. Yoshlar orasida harbiy xizmat va safarbarlikka oid qonunchilik normalarini to‘liq bilmaslik holatlari uchraydi. Bu esa ularning huquq va burchlariga nisbatan befarqlikni keltirib chiqaradi.

Harbiy xizmatga aloqador qonunchilikdagi ayrim kamchiliklar. Amaldagi qonun va me’yoriy hujjatlarda yoshlarning zamonaviy talablarga javob beradigan harbiy tayyorgarligi uchun huquqiy asoslar to‘liq ta’minlanmagan.

Harbiy xizmatning ijtimoiy maqomi masalalari. Jamiyatda harbiy xizmatning nufuzi ayrim hollarda yetarli darajada namoyon qilinmaydi. Bu esa yoshlarning xizmatga qiziqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy va texnologik muammolar. Yoshlarni Vatan himoyasiga safarbar etish jarayonida iqtisodiy resurslar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ayni yo‘nalishda bir qator muammolar mavjud:

Moliyalashtirishning cheklanganligi. Harbiy xizmat va safarbarlik tizimini qo‘llab-quvvatlash uchun ajratiladigan mablag‘ ba’zi hollarda yetarli emas. Bu holat zamonaviy infratuzilma, trenajyorlar va simulyatorlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Zamonaviy qurol-aslaha va texnika bilan ta’minlanish muammosi. Harbiy qismlarda yangi turdagi dronlar, kiberxavfsizlik texnologiyalari, intellektual mudofaa

vositalari yetarli emas. Bu esa yoshlarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishni sekinlashtiradi.

Innovatsion simulyator va trenajyor markazlarining yetishmasligi. Harbiy tayyorgarlik jarayonida virtual simulyatorlar, VR/AR texnologiyalari va avtomatlashtirilgan o‘quv tizimlari keng qo‘llanilmayotgani sababli yoshlar haqiqiy sharoitga yaqin muhitda tajriba orttira olmaydi.

Harbiy xizmat va fuqarolik kasblari uyg‘unligi masalasi. Yoshlar harbiy xizmat davrida faqat mudofaa sohasiga oid bilimlar bilan cheklanib qolmoqda. Ularga iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda qo‘llaniladigan mutaxassisliklar (axborot texnologiyalari, muhandislik, tibbiyot) bo‘yicha tayyorgarlik imkoniyatlari keng berilmagan.

Xorijiy tajribalardan to‘liq foydalanilmasligi. Rivojlangan mamlakatlarda yoshlarni safarbarlikka tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish keng qo‘llanilsa-da, mahalliy amaliyotda ularning aksariyati to‘liq joriy etilmagan.

Ijtimoiy-ruhiy muammolar yechimlari. *Vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish.* Ta’lim tizimida “Milliy g‘oya va vatanparvarlik” yo‘nalishida maxsus fan va mashg‘ulotlar joriy etish.

Axborot muhitini tartibga solish. Yoshlar uchun milliy qadriyatlar va tarixiy merosni targ‘ib etuvchi ijtimoiy tarmoq platformalari va media kontent yaratish.

Harbiy xizmatning ijtimoiy nufuzini oshirish. Harbiy xizmatni sharafli burch sifatida namoyon etuvchi filmlar, kitoblar va ommaviy tadbirlar tashkil qilish.

Ruhiy tayyorgarlik markazlari. Harbiy xizmatga chaqirilishdan oldin yoshlarning psixologik barqarorligini mustahkamlaydigan mashg‘ulot va treninglar joriy etish.

Tashkiliy-huquqiy muammolar yechimlari. *Safarbarlik tizimini raqamlashtirish.* Elektron reestrlar, onlayn chaqiruv platformalari orqali jarayonlarni tezkor va shaffof yo‘lga qo‘yish.

Harbiy tayyorgarlik dasturlarini modernizatsiya qilish. Kiberxavfsizlik, dron texnologiyalari, robototexnika va strategik fikrlash mashg‘ulotlarini o‘quv rejasiga kiritish.

Huquqiy savodxonlikni oshirish. Yoshlar uchun maxsus seminarlar, onlayn kurslar va huquqiy axborot portallarini yo‘lga qo‘yish.

Qonunchilikni takomillashtirish. Harbiy xizmat va safarbarlikka oid qonunlarni xalqaro tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish, yoshlarga qulay imkoniyatlar yaratish.

Iqtisodiy va texnologik muammolar yechimlari. *Davlat–xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish.* Harbiy simulyator va innovatsion trenajyor markazlarini xususiy sektor bilan hamkorlikda tashkil etish.

Zamonaviy qurol-aslaha va texnologiyalar joriy etish. Milliy mudofaa sanoatini rivojlantirish orqali yoshlarni yangi turdagi qurol va texnika bilan tanishtirish.

Innovatsion ta’lim platformalari. VR/AR asosidagi virtual mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish, simulyator orqali amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish.

Harbiy xizmat va kasbiy rivojlanish uyg‘unligi. Yoshlarga xizmat davrida IT, muhandislik, tibbiyot kabi sohalarda amaliyot o‘tash imkoniyatini berish.

Xorijiy tajribalarni integratsiya qilish. NATO, Koreya, Turkiya kabi davlatlarning harbiy tayyorgarlik tajribalarini milliy tizimga moslashtirish [4-5].

Xulosa. Dunyodagi turli xavf-xatarlar va qurolli to‘qnashuvlar sharoitida yoshlarni Vatan himoyasiga safarbar etish masalasi strategik ahamiyatga ega. Maqolada ijtimoiy-ruhiy, tashkiliy-huquqiy hamda iqtisodiy-texnologik muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy asosda bayon etildi.

Ijtimoiy-ruhiy muammolar yechimi sifatida vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, harbiy xizmatning ijtimoiy nufuzini oshirish va psixologik tayyorgarlik markazlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Tashkiliy-huquqiy sohada raqamlashtirilgan safarbarlik tizimini joriy qilish, harbiy tayyorgarlik dasturlarini modernizatsiya qilish va qonunchilikni takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, iqtisodiy va texnologik yo‘nalishda davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, milliy mudofaa sanoatini kuchaytirish va xorijiy tajribalarni integratsiya qilish yoshlarni har tomonlama tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mamlakat yoshlarini Vatan himoyasiga safarbar etishdagi muammolarni bartaraf qilish davlat, jamiyat va oila hamkorligida amalga oshirilishi kerak. Milliy g‘oya va qadriyatlarga tayangan holda yosh avlodning ma’naviy-axloqiy immunitetini mustahkamlash, ularning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda huquqiy asoslarni takomillashtirish O‘zbekiston mudofaa qobiliyatini mustahkamlaydi. Bu esa global xavf-xatarlar sharoitida milliy xavfsizlik va barqarorlikning kafolati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. – 64 b.

[2]. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2018. – B. 12–15.

[3]. Xasanboev J. Vatanparvarlik tarbiyasida ijtimoiy-ruhiy muammolar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – B. 120–126.

[4]. Hamidov A., Karimov F. Milliy xavfsizlik va yoshlar siyosatining dolzarb muammolari. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 56–63.

[5]. Abdullaev Sh. Harbiy psixologiya va yoshlar tayyorgarligi. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 72–80.

LOKAL URUSHLARDA ALOQA BO‘LINMALARINING JANGOVAR VAZIFALARNI BAJARISHIDAGI RUHIY HOLATI BO‘YICHA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Tadjibaev Z.A.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Ushbu maqolada zamonaviy lokal urushlarda to‘liq butlanmagan aloqa bo‘linmalari shaxsiy tarkibi bilan aloqani ta’minlash, aloqani ta’minlashdagi muammolar, ushbu muammolarning aloqa bo‘linmalari shaxsiy tarkibining ruhiy holatiga ta’siri o‘rganilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar bildirilgan.

***Kalit so‘zlar**: Aloqa tizimi, aloqaning vazifalari, aloqa bo‘linmalari, aloqa ekipajlari, tashkiliy-shtat tuzilishi, jangovar post, tezkor-texnik xizmat, antenna-machta qurilmalari, qo‘riqlov, himoya qilish, uyqusizlik, charchoq, stress, bo‘linma shaxsiy tarkibining ruhiy holati.*

В данной стати рассмотрены вопросы обеспечения связи в современных локалных войнах с не полным составом подразделений связи, недостатки в организатсии и обеспечении связи, изучены психологическое состояние личного состава подразделений связи и экипажей при обеспечении связи с неполным составом экипажей, даны предложения по улучшению морално-психологического состояния личного состава подразделений и экипажей связи.

***Ключевые слова**: Система связи, средства связи, подразделений связи, экипажи аппаратных и радиостансии, организатсионно-штатная структура, боевой пост, оперативно-техническая служба, антенна-мачтовые устройства, охранение и защита, бессоннитса, усталост, стресс, психологическое состояние личного состава.*

Zamonaviy davrning asosiy xususiyatlaridan biri – bu ma’lumotlarni almashish va boshqaruvni ta’minlash vositalarining shiddat bilan rivojlanishidir. Harbiy aloqaning rivojlanish asosida boshqaruv organlarini ta’minlash uchun aloqa tizimining qo‘llanishga doimiy shayligi yotadi.

Aloqa tizimi – qo‘shinlarni boshqarishda barcha turdagi axborotlar almashuvini ta’minlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yaratilgan (yoyilgan) uzel, aloqa kuch va vositalarining tashkiliy-texnik birlashmasidir.

Oxirgi yillardagi muayyan joydagi urushlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, aloqa tizimi qo‘shin(kuch) va qurollar qo‘llanilishi samarodorligini yuqori darajada oshirishga o‘z hissasini qo‘rsatmoqda.

Aloqaning asosiy vazifalari [1]:

yuqori shtab bilan mustahkam aloqani ta’minlash va jangovar boshqaruv signallarni o‘z vaqtida qabul qilish;

vaziyatning har qanday sharoitlarida bo‘ysunuvchi bo‘linmalarni boshqarishni ta’minlash;

hamkorlikda harakatlanayotgan qo‘shilmalar, qismlar va bo‘linmalarning o‘zaro axborot almashuvini ta’minlash;

dushman ommaviy qirg‘in quroli qo‘llashi xavfi, dushmanning havo hujumi haqida ogohlantirish, radiatssion, kimyoviy va bakteriologik (biologik) zararlanish haqida bo‘linmalarga bildiruv berish signallarini o‘z vaqtida uzatilishini ta’minlash;

qo‘shinlar jangovar harakatlarini ta’minlash turlari bo‘yicha farmoyishlarni uzatish va hisobotlarni qabul qilish.

Ushbu vazifalarni bajarish boshqaruv punktlarida mavjud bo‘lgan aloqa uzellariga yuklatiladi.

Aloqa uzeli Qurolli Kuchlar aloqa tizimining muhim elementlaridan hisoblanib, uning asosini tashkil etadi hamda tinchlik va urush davrida qo‘shinlar (kuchlar)ni boshqarishni ta’minlaydi.

Aloqa uzellarining tashkiliy-shtat tuzilishi tarkibiga qarab elementlardan, apparatxonalardan, radiostansiyalar va jangovar postlardan tashkil topgan.

Aloqa uzeli har bir jangovar postning qo‘shinlar boshqaruvini ta’minlash maqsadida o‘z vazifalari mavjud bo‘lib, qo‘yilgan vazifalarni bajarish maqsadida tezkor-texnik xizmat tashkillashtiriladi.

Aloqa uzellarida tezkor – texnik xizmat qo‘shinlarni boshqarish bo‘yicha barcha turdagi ma’lumot almashuvini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlashga yo‘naltirilgan

tashkiliy va texnik tadbirlar yig‘indisi hisoblanadi.

Tezkor – texnik xizmat aloqa uzellarining yetakchi xizmatidir va ushbu aloqa uzeli tomonidan bajariladigan vazifalarning hajmi va murakkabligi, uning tashkiliy – texnik tuzilishining o‘ziga xosligi, qurilmalar tarkibi, hamda shaxsiy tarkibning mavjudligi va tayyorgarligiga muvofiq tashkillashtiriladi.

Tezkor-texnik xizmatni samarali tashkillashtirish, qo‘yilgan vazifalarni muvofaqiyatli bajarish - aloqa ekipajlarining shtat bo‘yicha to‘liq butlanganligiga, shaxsiy tarkibning o‘z vazifalarini a’lo darajada o‘zlashtirganliklariga, aloqa texnikasining doimiy jangovar sharyligiga bog‘liq.

Aloqa uzellarida cutkalik navbatchilik odatda shtatda turuvchi shaxsiy tarkib bilan tashkillashtiriladi [2].

Tinchlik davrida aloqa bo‘linmalari ekipajlari urush davri shtati bilan to‘liq butlanmagan holda xizmat olib boradi, yani qisqartirilgan holda.

Aloqa ekipajlarining to‘liq shtat bo‘yicha butlanmagan holda xizmat olib borishi quyidagi kamchilik va qiyinchiliklarni keltirib chiqadi:

- radiostansiya antenna-machta qurilmalarini yoyishda normativ bo‘yicha vaqt meyorlarining oshib ketishi (aloqa uzellariga qo‘yilgan asosiy talablardan biri, ya’ni - o‘z vaqtidalik yo‘qoladi);
- zarurat tug‘ilganda, qisqa fursatlarda aloqa vositalarini (aloqa uzelini) bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish (aloqa uzellariga qo‘yilgan yana bir asosiy talablardan biri bo‘lgan – yuqori xarakatchanligiga ta’sir ko‘rsatadi) (ayniqsa Rossiya va Ukraina davlatlari o‘rtasidagi qurolli mojarolarda dronlarning, uchuvchisiz uchish apparatlarining va yuqori aniqlikdagi qurollarnining ishlatilishi);
- jangovar postlarda navbatchilik olib borishda bir mutaxassisning jangovar postda soatlab, vaqti kelsa sutkalab qolib ketishi va buning oqibatida uyqusizlik, qattiq charchoqning paydo bo‘lishi;
- maxfiylik darajasining kamayishi va buning oqibatida maxfiy malumotlarning tashqariga chiqib ketishi, maxfiy xujjatlarning yo‘qolish xavfining ortishi;
- dala sharoitlarida zamonaviy aloqa vositalarining ichki qismida (salonida) shaxsiy tarkib uchun dam olish sharoitining yo‘qligi (vaqti kelsa jangovar navbatchilikdan ozod bo‘lgan shaxsiy tarkib ish stolining ustida uxlashi), vaqtida yuvinmaslik, kiyim kechaklarning o‘z vaqtida almashtirmasliklari;
- ovqatlanish, shaxsiy extiyojlarini qondirish uchun sharoitning yo‘qligi

(navbatchilikda bir kishining qolib ketishi oqibatida hojatga borishning xam imkoni yo‘qligi).

Aloqa bo‘linmalari shaxsiy tarkibining to‘liq shtat bo‘yicha butlanmagan holda xizmat olib borishlari aloqa ekipajlari shaxsiy tarkibining ruhiy holatiga quyidagicha salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

- uyqusizlik – kunlab, vaqti kelsa sutkalab bir jangovar postda almashmasdan xizmat olib borish jarayonida shaxsiy tarkibning qattiq charchashi va buning oqibatida uzatiladigan (qabul qilinadigan) ma’lumotlarning o‘z vaqtida uzatilmasligi (qabul qilinmasligi), jangovar postdagi maxfiy hujjatlarga, atrofda bo‘layotgan jarayonlarga (jangovar harakatlarga) befarqlikni (bee’tiborlikni) keltirib chiqarishi;
- jangovar postda doimo bir odamning xizmat olib borishi, ayniqsa radio mutaxassislarining bir pozivnoyda (bir nomda) va bir nutqda ishlashi dushman tomonidan ularning o‘rniga radiotarmoqqa yolg‘on ma’lumotlar kirgizishi;
- aloqa vositasidan uzoqqa keta olmaslik (aloqa vositasiga bog‘lanib qolish), o‘z vaqtida ovqatlanmaslik, shaxsiy extiyojalarni qondirishning (hojatga borishning) yo‘lga qo‘yilmaganligi, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilmaslik;
- jangovar holatlarda stansiya ichida bir odamning xizmat olib borishida qo‘rquvning yuzaga kelishi (aloqa uzellariga dushmanning diversion guruhlari tomanidan hujum qilinishi (dronlar ham bundan istesno emas).

Aloqa ekipajlari shtatlarining butlanishi aloqa vositalarini yoyish, yig‘ish, tezkor-texnik xizmatni tashkillashtirish bo‘yicha rahbariy xujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda tashkillashtirilishi lozim. Bu savollarni ko‘rib chiqishda shaxsiy tarkibning jangovar postlarda smenali xizmat olib borishi, dam olishi, aloqa uzeli qo‘riqlovi va himoyasi albatta inobatga olinishi zarur.

Masalan, bir aloqa vositasi ekipajida besh kishi mavjud bo‘lgan holda, ulardan ikki nafari jangovar navbatchilikda, bir nafari aloqa vositasi qo‘riqlovida, bir nafari dam olishda, aloqa ekipaji boshlig‘i esa aloqa uzeli navbatchiligida bo‘lgan holda, jangovar holatlarda aloqa ekipaji aloqani ta’minlash bo‘yicha qo‘yilgan vazifani o‘z vaqtida, to‘liq va ishonchli bajara oladi deyish mumkin.

Jangovar holatlarda aloqa ekipajlarida navbatchilikni olib borish 4-6 soatdan oshmasligi maqsadga muvofiq.

Aloqa ekipajlaridagi har bir shaxsiy tarkibning o‘z vazifasi bor. Masalan, ekipaj xaydovchi-elektrigi aloqa vositasining elektr ta’minotiga, avtomobilning jangovar shayligiga javob beradi.

Hozirgi vaqtda ko‘pgina mobil aloqa vositalari qisqartirilgan shtat bo‘yicha shaxsiy tarkib bilan butlangan. Jangovar xarakatlar davrida barcha shaxsiy tarkib sutkalab, vaqti kelsa xaftalab bir ekipajda (jangovar postda) qolib ketishadi. Jangovar postlarda navbatchilikni tashkillashtirish, dam olish, aloqa vositasi qo‘riqlovi va himoya qilish savollari yetarlicha ko‘rib chiqilmagan.

Jangovar xarakatlar davrida aloqa bo‘linmali shaxsiy tarkibining ahloqiy- ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish maqsadida:

qisqartirilgan aloqa ekipajlaridagi barcha shaxsiy tarkib aloqa bo‘yicha bir nechta mutaxassisliklarga ega bo‘lishi, shu jumladan xaydovchi-elektrik ham aloqa bo‘yicha mutaxassislikka ega bo‘lishi;

aloqa vositalarini yoyish va yig‘ish jarayonlarini avtomatlashtirish;

aloqa vositalari ichida shaxsiy tarkib uchun dam olish (uxlash) uchun sharoitlar yaratish;

aloqa ekipaji a’zolarini aloqa vositalarida xizmat olib borishidan tashqari boshqa xizmatlarga va ishlarga jalb qilmaslik;

aloqa vositalarini kompleks ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aloqa bo‘yicha qo‘llanma. O‘R MV 2019 yil 25 yanvardagi 65 sonli buyrug‘i.

2. Aloqa uzellarini ekspluatatsiya qilish qoidalari. O‘R QK BSh boshlig‘ining 2021 yil 9 fevraldagi 40-sonli buyrug‘i.

3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat Nizomi 3-qism.

4. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Garnizon va Qorovullik xizmatlari Nizomi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Mexnat kodeksi.

6. Tadjibaev Z.A. “To‘liq butlanmagan shtat birliklarida jangovar navbatchilikni olib borishning aloqa ekipajlari shaxsiy tarkibining ahloqiy-ruhiy holatiga ta’siri”. Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi. AKT va AXI 2024 yil 22 fevral.

YOSH AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – MAMLAKAT MUDOFAA SALOHIYATINING TAYANCHIDIR

Kuzibekov N.Sh., Eshimov J.R.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya: *Maqola yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhimligini ta'kidlaydi. Ularning vatanparvarlik hissini rivojlantirishda tarixiy bilimlar, yurtga xizmat qilish, atrof-muhitni asrash, san'at va ommaviy madaniyat, oila va ijtimoiy tadbirlarning roli alohida e’tiborga olinadi. Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy jihatlari yoshlarni o‘z mamlakatiga, xalqiga va uning kelajagiga bo‘lgan muhabbat va mas’uliyat hissi bilan tarbiyalashga qaratilgan. Maqola yoshlarni faqat o‘qish yoki ishlash bilan cheklanmay, jamiyatni rivojlantirish va yurtni himoya qilish yo‘lida faol bo‘lishga undashni maqsad qilgan.*

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, milliy tarix, madaniyat, yurtga xizmat, ekologiya, oila roli, ijtimoiy tadbirlar.*

Аннотация: *Статья подчеркивает важность воспитания молодежи в духе патриотизма. Особое внимание уделяется роли исторических знаний, служения Родине, охраны окружающей среды, искусства и массовой культуры, а также семьи и социальных мероприятий в формировании патриотических чувств у молодого поколения. Основные аспекты патриотического воспитания направлены на формирование любви и чувства ответственности молодежи к своей стране, народу и будущему. Цель статьи – побудить молодежь не ограничиваться только учебой или работой, а быть активными в развитии общества и защите Родины.*

Ключевые слова: *патриотизм, воспитание молодежи, национальная история, культура, служение Родине, экология, роль семьи, социальные мероприятия.*

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, har bir millat va jamiyat uchun juda muhim vazifa hisoblanadi. Bu nafaqat ular uchun, balki butun xalq, mamlakat uchun katta ahamiyatga ega, chunki kelajakda bu yoshlar jamiyatni boshqaruvchi, xalqni himoya qiluvchi, ilm-fan va texnologiya sohalarida muvaffaqiyatlarga erishadigan, vatanni sevuvchi, unga xizmat qiluvchi insonlar bo‘lib yetishadilar. Shunday ekan, o‘smirlar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagi muhim jihatlar alohida e’tibor berish va ularning ongida ushbu tuyg‘ularni singdirish zarurdir:

Vatan tarixini o‘rganish. Vatanparvarlikni shakllantirishda birinchi va eng muhim bosqichlardan biri yoshlarni milliy tarix, madaniyat, urf-odatlar bilan tanishtirishdir. Milliy tarixni o‘rganish yoshlar uchun nafaqat ilmiy bilimlar manbai, balki ular o‘z yurtining boy tarixiy merosiga, muhim voqealariga va shaxslariga

nisbatan hurmat va faxr tuyg‘usini rivojlantirishga yordam beradi. Tarixdagi ulug‘ insonlar, vatanni himoya qilishda qatnashgan jasur jangchilar, ilm-fan va madaniyat rivojiga hissa qo‘shgan buyuk allomalar haqida ma’lumotlar yoshlarning qalbida milliy g‘urur va yurtiga bo‘lgan muhabbatni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, tarixni o‘rganish orqali yoshlar milliy qadriyatlarni anglaydi va o‘z o‘tmishining, bugungi kunining va kelajagining bevosita davomchisi ekanini his qilishadi. Tarixiy shaxslarning yurt uchun qilgan xizmatlari va o‘z jonu tanlarini fido qilgan mardliklari haqida bilish, o‘ziga xos vatanga sadoqatni, fidoyilikni va o‘z xalqiga xizmat qilishni qadrlashni o‘rgatadi.

Bu jarayonda tarixiy voqealar va shaxslar nafaqat tarix darsliklari orqali, balki san'at, adabiyot va kino orqali ham yoshlarning ongi va qalbiga chuqur ta’sir o‘tkazishi mumkin. Shuning uchun, vatan tarixini o‘rganish yoshlar uchun nafaqat o‘qish yoki ma’lumot olish, balki vatanparvarlik ruhini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Yurtga xizmat qilishni ulug‘lash. Yoshlarni yurtga xizmat qilishga undash, vatanparvarlikni rivojlantirishda juda muhim omildir. Yurtga xizmat qilish, faqat yurtni sevish emas, balki uning taraqqiyoti va rivojiga faol hissa qo‘shish demakdir. Yoshlar o‘zlarining jamiyatda faollik ko‘rsatishlari, ilmiy, ma’naviy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda o‘zlarini tanitishlari zarur. Bu, nafaqat milliy madaniyatni o‘rganish, balki aholi bilan aloqada bo‘lib, ularning ehtiyojlariga javob berish, ijtimoiy mas'uliyatni o‘z zimmalariga olish orqali amalga oshiriladi.

Yurtga xizmat qilishning mohiyati, yoshlarni doimiy ravishda jamiyatni yaxshilashga undashda yotadi. Shunday qilib, yoshlar o‘qish, ishlash, ijtimoiy faoliyatda qatnashish, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish orqali faqat o‘z taqdirini emas, balki butun jamiyatning kelajagini ham yaxshilashga intilishadi. Yurtning rivojlanishiga ulush qo‘shish, davlatni yanada kuchliroq qilish, xalqni farovon qilishda yoshlarning roli beqiyosdir.

O‘quv jarayonida va jamiyatda yoshlarni yurtga xizmat qilishga undash, ularga o‘z zimmalariga mas'uliyatni olishni o‘rgatadi. Bu orqali yoshlar, o‘zlari yurtning kelajagi ekanligini anglashadi va ularning harakatlari jamiyatni ijobiy tomonga o‘zgartirishga xizmat qiladi. Yurtni rivojlantirishga bo‘lgan mas'uliyatni tushunish, yoshlarni faqat o‘z manfaatlari bilan cheklanmaslikka, balki butun xalqning manfaatini o‘ylab yashashga undaydi.

Shu bilan birga, yoshlarni yurtga xizmat qilishda milliy qadriyatlarni, an'analarni hurmat qilish, milliy va umum insoniy tamoyillarni ustuvor qo‘yish lozimligini anglatadi. Yurtni sevish – bu uning kelajagi uchun har bir insonning hissa qo‘shishi, o‘z xalqiga manfaat keltirishidir.

Aholi va tabiatni asrash. Vatanparvarlik nafaqat milliy tarix, madaniyat va milliy qadriyatlarni hurmat qilishni, balki atrof-muhitga e’tiborli bo‘lishni ham o‘z ichiga oladi. Tabiatni asrash – bu yoshlarni nafaqat o‘z mamlakatining go‘zalliklarini saqlab qolishga, balki uning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishga undaydi. Tabiatning mohiyatini anglash, uni sevish va unga e’tiborli bo‘lish yoshlarni mas'uliyatli, ekologik jihatdan ongli va samarali fuqarolar qilib tarbiyalaydi.

Bugungi kunda ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi, tabiat resurslarining kamayishi kabi jiddiy masalalar tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Shuning uchun yoshlarni bu muammolarni hal qilishga intilish, atrof-muhitni asrashda faol qatnashishga chaqirish juda zarur. Tabiatga nisbatan mas'uliyatli yondashuv yoshlarning ongida tabiatni qadrlash, unga zarar yetkazmaslik, uni asrab-avaylash va kelajak avlodlar uchun saqlab qolish kabi mas'uliyatli vazifalarni shakllantiradi.

Tabiatni asrash faqat o‘simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish, balki ifloslanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish kabi amaliy ishlarni ham o‘z ichiga oladi. Yoshlar bunday faoliyatda ishtirok etish orqali nafaqat ekologik muammolarni yechish, balki o‘z mamlakatining tabiiy boyliklarini saqlab qolish, uning ekologik holatini yaxshilashga hissa qo‘shish kerakligini tushunadilar.

Aholi va tabiatni asrashning o‘zi, aslida, milliy vatanparvarlikni shakllantirishning muhim qismi bo‘lib, yoshlarni yurtining kelajagi va uning tabiiy boyliklari uchun mas'uliyatli insonlar qilib tarbiyalaydi. Shu orqali, ular nafaqat o‘z milliy madaniyatini, balki uning tabiatini va resurslarini ham chuqur sevib, ularga mehr bilan qarashni o‘rganadilar.

Ommaviy madaniyat. Yoshlarning vatanparvarlik hissini rivojlantirishda san’at, adabiyot, kino va boshqa ommaviy madaniyat turlarining roli juda katta. Ommaviy madaniyatning eng kuchli ta’sir vositalaridan biri — bu kitoblar, filmlar, she’rlar, qo‘shiqlar va boshqa ijodiy asarlar orqali o‘tkaziladigan ma’naviy ta’sirdir. Vatanparvarlikni ulug‘lovchi badiiy asarlar yoshlarning qalbida milliy g‘urur va vatan sevgisini uyg‘otadi, ularning o‘z tarixiga, madaniyatiga bo‘lgan hurmatini kuchaytiradi.

Kitoblar va adabiyot orqali yoshlar o‘z millatining boy merosi, uning tarixiy yutuqlari va jangchiligi haqida o‘qib bilishadi. Masalan, ulug‘ tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati haqida yozilgan romanlar, hikoyalar yoki esselar yoshlarni ruhiy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bu asarlar o‘zbek xalqining mardlik an’analari, jasoratli jangchilari va ularning yurtni himoya qilishdagi fidoyiligi haqida yoshlarni ma’lumotlantiradi, shu bilan birga ularda milliy g‘urur va vatanga bo‘lgan muhabbatni mustahkamlaydi.

Kino va teatr san’ati ham yoshlarning vatanparvarlik hissini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Milliy filmlar, hujjatli kinolar va tarixiy dramalar orqali yoshlar o‘z xalqining tarixini, qadriyatlarini va madaniyatini yanada chuqurroq o‘rganadilar. Shu bilan birga, kino san'ati badiiy vositalar yordamida yoshlarning hissiyotlarini jonlantiradi va ularni o‘z yurtiga nisbatan hurmat, sevgi va sadoqatni his qilishga undaydi.

Shuningdek, she'rlar, qo‘shiqlar va musiqa asarlari ham vatanparvarlikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ularda vatan haqidagi g‘oyalar, yurtni sevish, uning uchun fido bo‘lish kabi mavzular ko‘tariladi. Mashhur she'riy asarlar va qo‘shiqlar yoshlarning ruhiyatiga ta’sir qilib, ularni vataniga bo‘lgan sevgiga undaydi.

Ommaviy madaniyat orqali yoshlar o‘zining tarixiy va madaniy ildizlarini his qilib, o‘z yurti va millatini anglashadi. Bu, ular uchun nafaqat badiiy hissiyot, balki vatanparvarlikni chuqurroq tushunishga yordam beruvchi omilga aylanadi.

Vatanparvarlikni shakllantirishda ommaviy madaniyatning o‘rni beqiyosdir, chunki u yoshlar qalbida mustahkam iz qoldiradi va ularni milliy qadriyatlar bilan tarbiyalaydi.

Oila va yaqin qarindoshlar. Vatanparvarlik tarbiyasida oilaning roli juda katta, chunki oila yoshlar uchun ilk o‘qituvchi va tarbiyachi hisoblanadi. Ota-onalar farzandlariga o‘zlari sevgan, qadrlagan va hurmat qilgan yurtni, millatni va uning qadriyatlarini ulashadilar. Oila — bu vatanparvarlikni shakllantirishning poydevori bo‘lib, ota-onalar o‘z ma'naviy yuksalishlarini va mas'uliyatini farzandlariga o‘rgatib, ularni vataniga sodiq, uning kelajagi uchun g‘amxo‘r bo‘lishga undaydilar.

Vatanparvarlik tarbiyasining dastlabki va eng samarali manbai ota-onaning o‘zi hisoblanadi. Farzandlar o‘zlarining dastlabki tarbiya va bilimlarini, dunyoqarashini, qadriyatlarini o‘z ota-onalaridan oladi. Ota-onalar o‘zlariga xos vatanparvarlikni namoyon etish orqali, ya'ni milliy an'analarni hurmat qilish, vatanini sevish, jamiyatga yordam berish kabi xatti-harakatlari bilan bolalariga o‘rnak bo‘ladilar. Bu orqali ular

farzandlariga vatan sevgisini, xalqni qadrlashni va uning kelajagi uchun mas'uliyatni his qildirishadi.

Shuningdek, ota-onalar o‘zlari vatanparvarlik ruhida yashashlari kerak. Ularning faoliyati va qarashlari farzandlarining dunyoqarashiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Agar otaonalar vatanni sevish, uning uchun ish qilishni, unga yordam berishni o‘zlarining kundalik hayotlarida amalda ko‘rsatsa, farzandlar bu xulqni o‘zlarida mustahkamlashadi. Ota-onalar orqali farzandlar o‘z milliy qadriyatlarini, tarixini, madaniyatini o‘rganadilar va shu bilan birga, yurtga xizmat qilishni, uning rivojlanishi uchun mas'uliyatni anglashadi.

Bundan tashqari, oila yoshlarni jamiyatga faol qatnashishga, uning taraqqiyotiga hissa qo‘shishga undaydi. Farzandlar oilada o‘zining yurtiga, uning kelajagi uchun mas'uliyatini his qilishni o‘rganishadi. Shuning uchun oilaning vatanparvarlik tarbiyasidagi o‘rni o‘zgarmas va juda muhimdir. Ota-onalar o‘zlari vatanparvar bo‘lib, farzandlariga ham shu ruhda tarbiya berish orqali, ularni haqiqiy vatanparvar, mas'uliyatli va yurtiga fidoyilik bilan xizmat qiladigan insonlar qilib tarbiyalaydilar.

Ijtimoiy tadbir va faoliyatlar. Yoshlar o‘rtasida vatanparvarlikni rivojlantirishda ijtimoiy tadbirlar, sport musobaqalari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ko‘rgazmalar va boshqa faoliyatlar katta rol o‘ynaydi. Bunday tadbirlar yoshlarni faqat jismoniy yoki intellektual jihatdan rivojlantiribgina qolmay, balki ularni bir-biri bilan hamkorlikda ishlashga, o‘zaro fikr almashishga, jamiyatdagi mas'uliyatni his qilishga undaydi. Ijtimoiy tadbirlar orqali yoshlar o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, yurtni yanada rivojlantirish va uning taraqqiyotiga hissa qo‘shishga bo‘lgan intilishlarini kuchaytiradilar.

Sport musobaqalari, masalan, yoshlarning jismoniy sog‘lig‘ini mustahkamlashga, ular orasida raqobatni rag‘batlantirishga va bir-birlariga yordam berishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sport faoliyati orqali jamoaviy ruhni rivojlantirish, do‘stlikni mustahkamlash va yurtni himoya qilish kabi vatanparvarlik ruhini shakllantiruvchi qadriyatlar yoshlar qalbida mustahkamlanadi. Sportchilar, musobaqalarda yurtni himoya qilish maqsadida raqobatlashayotganda, ular nafaqat o‘zlarining yutuqlari uchun, balki butun xalqining g‘ururi va faxri uchun kurashadilar.

Ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar yoshlarni intellektual rivojlanishiga hissa qo‘shib, ularga o‘z yurtining zamonaviy ilmiy va texnologik rivojlanishiga qatnashish imkoniyatini yaratadi. Bu kabi tadbirlar orqali yoshlar ilm-fan,

innovatsiyalar va muhim jamiyat masalalariga oid yangi bilimlarni olishadi, shuningdek, o‘z fikrlarini erkin ifoda etish va jamoaviy muhokamalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, yoshlar ilmiy izlanishlar, yangi g‘oyalar va yechimlarni taklif qilish orqali yurtning rivojlanishiga bevosita hissa qo‘shishadi.

Ko‘rgazmalar va madaniy tadbirlar esa yoshlarni o‘z xalqining san'ati, adabiyoti, tarixi va madaniy boyliklari bilan tanishtirib, vatanparvarlikni chuqurroq anglashga yordam beradi. Bunday tadbirlar yoshlarni o‘z milliy qadriyatlarini hurmat qilishga, ularni kelajak avlodlarga yetkazish maqsadida tarbiyalaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy tadbirlar yoshlarni faqat o‘z shaxsiy yutuqlari uchun emas, balki butun jamiyat, xalq va vatan manfaatlari uchun ishlashga undaydi. Ular o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatib, yurtni rivojlantirishga hissa qo‘shish, jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni o‘rganadilar. Bu jarayon orqali yoshlar o‘zlariga bo‘lgan mas'uliyatni his qilib, yurtiga bo‘lgan muhabbatlarini va vatanparvarlik hissini yanada mustahkamlashadi.

Xulosa. Vatanparvarlikni yoshlar orasida shakllantirish – bu uzoq muddatli, mas'uliyatli ishdir. Bunda ta’lim tizimi, oila, jamiyat va davlatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat birgalikda ish olib borish orqali o‘smirlar va yoshlarni yurtini sevuvchi, uning kelajagi uchun g‘amxo‘r bo‘lgan, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalash mumkin. Shunday qilib, ular nafaqat o‘z yurtining, balki butun dunyoning yaxshi fuqarolariga aylanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 82 b.

2. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Fan, 2001 - 153 b.

3. Karimov.I.A Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot – pirovard maqsadimiz.

4. Toshkent: O‘zbekiston. 2000. – 471 b.

5. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Adolat, 1992. – 44 b.

6. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. –Toshkent: O‘zbekiston, 1992. -76 b.

7. Nabiyev, M. (2020). Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch asarida globallashuv davrida milliy taraqqiyotni ta’minlashning usul va vositalar tahlili.

TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA, UMUMINSONIY VA AXLOQIY QADRIYATLAR

Raximov U.M.
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada* b*ugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bu – yosh avlodni, xususan, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdir. Vatanparvarlik – bu shunchaki yurtga muhabbat emas, balki o‘z Vatanining mustaqilligi, taraqqiyoti va ravnaqi uchun mas’uliyatni his qilish, fidoiylik ko‘rsatishga tayyorlikdir. Bu fazilatni shakllantirishda esa umuminsoniy va axloqiy qadriyatlar muhim o‘rin egallaydi.*

Kalit so‘zlar. talabalar, vatanparvarlik, tarbiyalash, umuminsoniy, axloqiy qadriyatlar, axloqiy barkamollik.

Bugun mamlakatimizda yosh avlodni har jihatdan barkamol va komil insonlar qilib tarbiyalash davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning bosh maqsadiga aylandi. Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek: “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”[6].

Darhaqiqat, Vatanimizning ertasi, umidi va ishonchi bo‘lgan yoshlar uchun bugun yurtimizda barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Buning sababi, yoshlar ertaga har bir sohaning rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘shib, mamlakatimiz taraqqiyotini yanada baland cho‘qqilarga olib boruvchi kelajagimiz davomchilaridir.

Ma’naviyat har bir millatning, davlatning va ushbu davlatdagi insonlarning kuch-qudrat manbaidir. Ma’naviyat bo‘lmagan joyda baxt-saodat ham, imon-e’tiqod ham, Vatan va erk tuyg‘usi ham, diyonat-u adolat ham bo‘lmaydi.

Milliy qadriyatlar, shubhasiz, millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganimizda milliy qadriyatlar millatning o‘tmishi va buguni bilan bog‘liq. Shuning uchun ham, “milliy qadriyatlar millat rivojlanishi bilan rivojlanadi, inqirozga uchrashi bilan qadrsizlanadi. Shuning uchun ham, millat -

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so‘zi gazetasi, 2020-yil 25-yanvar.

o‘zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taqqiyot jarayonida takomillashtirib turishi ma’nosida o‘z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgarilanma harakatdan iborat o‘zgarishlar jarayonida ularni o‘tmishdan kelajakka tamon yetkazib boradigan eng asosiy obyektdir”.

Milliy qadriyatlarning negizini urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramu-sayillar tashkil etadi. O‘zbek milliy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g‘oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o‘zbeklarning o‘zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o‘zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o‘zaro hurmat, bir-biriga suyanish va yaxshi qo‘shnichilik, bolajonlik va ota-onaga hurmat, mehr - oqibat va sadoqat har tomonlama e’zozlanib kelinadi. Milliy qadriyatlar o‘sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy-madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko‘rsatkichdir.

Umuminsoniy qadriyatlar – asosiy tamoyillar manbai. Umuminsoniy qadriyatlar – bu butun insoniyat tomonidan qadrlanadigan, millat va dinidan qat’i nazar, barcha jamiyatlar tomonidan tan olingan ruhiy-axloqiy me’yorlar majmuidir. Ular orasida:

halollik,
adolat,
bag‘rikenglik,
tinchliksevarlik,
mehnatsevarlik,
insonparvarlik kabi fazilatlar mavjud.

Talabalar bu qadriyatlarni o‘z hayotlariga tadbiq qila olsalar, ular nafaqat yaxshi mutaxassis, balki chinakam vatanparvar, yetuk shaxs bo‘lib voyaga etadilar.

Axloqiy qadriyatlar – ruhiy tayanch va ichki kompas

Axloqiy qadriyatlar esa jamiyatda yashash, bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, oila, mehnat va Vatanga bo‘lgan munosabatni belgilovchi ichki me’yorlardir. Talabalarda quyidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish vatanparvarlik ruhini mustahkamlashda asos bo‘la oladi:

Kamtarinlik va sadoqat;
Kattaga hurmat, kichikka izzat;
Do‘stlik va jamoatchilik ruhi;
Yurt taraqqiyoti uchun mas’uliyat hissi.

Axloqiy barkamollik – bu shaxsning Vatan oldidagi burchini his etishiga, uni doim yuksak qadrlashiga xizmat qiladi.

Axloqiy qadriyatlar ular odamlar qanday harakatlar to‘g‘ri va qanday xatolar borligini hal qilishda foydalanadigan prinsiplardir. Inson ushbu turdagi qadriyatlarni kundalik hatti-harakatlarida qo‘llashda axloqiy harakat qiladi. Masalan, mas’uliyat, halollik, adolatlilik, halollik, sadoqat va hamjihatlik. “Axloqiy qadriyatlar - bu shaxsning shaxsiyat rivojlanishi davomida singdirilgan qadriyatlar bo‘lib, ular uyda, o‘qish joyida va yoki umuman inson faoliyat ko‘rsatadigan muhitda o‘rgatiladi”[7]. Harbiy xizmatchilarga axloqiy qadriyatlar harbiy xizmat davrida o‘rgatiladi. Unga ko‘ra ular nafaqat harbiy xizmat davrida, balki, xizmatdan tashqari vaqtda muhim hisoblandi.

Vatanparvarlik tarbiyasining dolzarbligi. Global axborot makonida yashayotgan bugungi talaba ko‘plab yot g‘oyalarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun ham ularning ongu tafakkurini milliy g‘oya, vatanparvarlik ruhi bilan to‘ldirish dolzarbdir. Shuningdek:

Talabalar Vatan tarixini chuqur o‘rganishlari zarur.

Harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, sport musobaqalari, “Vatan himoyachilari kuni” kabi bayramlar mazmunli o‘tkazilishi kerak.

Oliy ta’lim muassasalarida “Ma’naviyat soati” va “Shaxsiy namuna” prinsipi asosida ustozlar yetakchi rol o‘ynashi lozim.

Talaba shaxsini shakllantirishda muhitning roli. Oiladagi tarbiya, ta’lim muassasasi va ijtimoiy muhit birgalikda talabani ongli, vatanparvar, halol, mas’uliyatli inson qilib voyaga yetkazadi. Zero, insonning axloqiy qiyofasi bolaligidan shakllanadi, ammo talabalik davrida u mustahkamlanadi. Shu bois, bu davrda berilgan axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasi butun umrlik tayanchga aylanadi.

Xulosa. Vatanparvarlik – bu shunchaki so‘z emas, balki amal, hayot tarzidir. U umuminsoniy va axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgandagina yuksak darajada namoyon bo‘ladi. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu kelajak avlodni yuksak insoniy fazilatlar asosida yetishtirish, ularni shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni his etuvchi, ma’naviy barkamol insonlarga aylantirish demakdir. Bunday yoshlar esa Vatan taraqqiyotining hal qiluvchi kuchidir.

Qadriyatlarning ijtimoiy xususiyatini e’tiborga olsak, u, insonlarning amaliy faoliyati jarayonida vujudga kelib asta-sekin rivojlanadi, insonlarga xos bo‘lgan

rostgo‘ylik, poklik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi olijanob fazilatlarni, axloqiy normalarni hamda qadriyatlarni mujassam etadi. Qadriyatlarning har biri millatning o‘tmishi, buguni va kelajagini oydindek ko‘rsatib turuvchi komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so‘zi gazetasi, 2020-yil 25-yanvar.
2. Milliy qadriyatlar xususiyati va ahamiyati. htt://elib.buxdu.uz.
3. Umuminsoniy qadriyatlarning jamiyatimiz ma’naviy poklanishidagi roli htt
4. Tulenov J. Kadriyatlar falsafasi. – T.: O‘zbekiston, 1998. – 12-13 b.

TALABALARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHGA DOIR ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA FAOLLASHTIRISH

Bozorov A.A.
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh avlodimizda qat’iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda o‘rta maktabdan boshlab oliy o‘quv yurtlarigacha qamrab oladigan uzluksiz harbiy ta’lim va vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha o‘ziga xos noyob va yaxlit tizim yaratilganligi bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar. talabalar, vatanparvarlik, tarbiyalash, umuminsoniy, samaradorlik, faollashtirish.

Darhaqiqat, vatanparvarlik yoshlarda fuqarolik burchi, shaxsiy mas’uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini, faol hayotiy pozitsiya va qat’iy e’tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vositadir. Bundan unumli foydalangan holda yoshlarimizda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, Ona-yurt taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlash, ularni o‘z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rishimizni taqozo qilmoqda.

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o‘zgarayotgan, mintaqalar va davlatlar o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurashlar tobora keskinlashayotgan bir sharoitda mamlakatimiz yoshlarini, shu jumladan armiyadagi yosh avlod vakillarini

vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari biz uchun yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi – o‘zaro aloqador, bir-birini to‘ldiruvchi va hamkorlikda olib boriladigan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-mafkuraviy va madaniy-ma’rifiy tadbirlarni yanada rivojlantirishga alohida etibor qaratishimiz lozim.

Talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko‘zlangan maqsad – yoshlarda Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ijtimoiy, ma’naviy-ahloqiy fazilatlarni qaror toptirish, mamlakatimizning barcha sohalari uchun jonkuyar, halol, o‘z kasbiga sadoqatli va yetuk kadrlar zaxirasini shakllantirishdan iboratdir.

Bu kabi ishlar jarayonida qo‘mondonlar, barcha bo‘g‘indagi komandirlar va mansabdor shaxslar uchun: “Bugungi kunimiz va kelajagimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan yoshlarni katta maqsadlar sari safarbar etish, o‘z salohiyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish hamda ularni haqiqiy vatanparvar, har jihatdan komil insonlar qilib tarbiyalash ishlarida sustkashlikka yo‘l qo‘yish – bu ularga nisbatan xiyonatdir”, – degan haqiqat dasturilamal bo‘lishi kerak.

Sir emaski, har bir soha rivoji uning malakali va tajribali xodimlarining professionallik darajasiga bog‘liq bo‘lganidek, mamlaktimizning Qurolli Kuchlari uchun kadrlar tayyorlash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Albatta, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta’minlash, yurtimizda favqulodda vaziyatlarning olidini olish mas’uliyatli va mashaqqatli vazifani ishonchli tarzda bajarish uchun avvalambor ana shu tizimga loyiq kadrlarni tayyorlash zarur. Chunki ular oldiga ulkan mas’uliyat qo‘yilgan bo‘lib, xodimlardan yuqori bilim, yuksak salohiyat va ko‘nikma, jismoniy chiniqqanlik, jangovar shaylik talab etiladi. O‘z navbatida harbiy va jismoniy tayyorgarlik Qurolli Kuchlar shu jumladan Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy xizmatchilari uchun xizmat faoliyatida va umuman turmush tarzida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o‘rtasida xalqimizga yot g‘oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi ularning oldini olish va barham berish, yosh askarlar o‘rtasida harbiy intizomni yuqori darajada saqlab turish va Vatanga sadoqat ruhini, uning muqaddas ekanligini ularning ongiga singdirish bo‘yicha o‘z vaqtida, barcha toifadagi komandir va boshliqlarning

oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Komandirlardan bunday vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishi va qaror qabul qilishi uchun kasb mahoratini har tomonlama yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bugun milliy armiyamiz safida xizmat qilish, o‘z yigitlik burchini o‘tash o‘g‘lonlarimizning ezgu orzusiga aylanib ulgurdi. Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan yoshlarning jismonan baquvvat, ma’nan yetuk, vatanparvar, jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan, har tomonlama barkamol inson bo‘lib voyaga yetishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida esa ulkan g‘amxo‘rlik ko‘rsatib kelinmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti ta’kidlaganidek “...Armiyada xizmat qilish yosh avlodimiz uchun alohida ma’no-mazmunga ega bo‘lib, uning nufuzi tobora ortib bormoqda. Bunday xizmatning jozibadorligi faqat yaratib berilayotgan imtiyozlar va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy va moddiy jihatdan yuqori darajada ta’minlangani bilangina bog‘liq emas, albatta. Bu, avvalambor, armiya yosh avlodimiz uchun haqiqatdan ham mardlik va mustahkam irodani, yuksak vatanparvarlik tuyg‘usini, Vatanimizga sevgi va sadoqat hislarini tarbiyalaydigan hayot maktabiga aylangani bilan izohlanadi”.

Darhaqiqat, bugun milliy armiyamiz saflarida muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan askarlarimiz hayot maktabida har tomonlama toblanib, ular qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari jo‘sh urmoqda.

Oilada chaqaloq tug‘ilsa-yu, u o‘g‘il bola bo‘lsa, keksalarimiz, “o‘g‘lon ulg‘ayib alp qomatli, mard yigit bo‘lsin, el-yurt, Vatan koriga kamarbasta bo‘lsin, yurtimizni g‘animlardan himoya qilsin, tinchligimiz posboni bo‘lsin”, deya duo qilishadi. Shu tariqa har bir er yigitning qalbida bolaligidanoq vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanadi. Buyuk bobokalonlarimiz, sarkardalarimiz singari bilimli, mard va jasur bo‘lishga intiladi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yil 23-fevralda “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur Konsepsiya mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan

bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradigan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi.

Shuningdek, Konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va ma’nan sog‘lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta’lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralib, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg‘or tajribalar, bugungi O‘zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Shunday ekan, biz o‘z faoliyatimizda yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirishimiz, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishimiz, qolaversa, milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashda yordam bermog‘imiz darkor.

Shuningdek, yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash, O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borishimiz kerak.

Zero, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bu millati, tili va kasbidan qat’i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z

fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yil 23-fevralda “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi/ Rasmiy nashr/ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –T.: Adolat, 2017. -112 b.

3. MV. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha uslubiy Qo‘llanma. 2018 y.

INTERNET TARMOQLARNING TALABA YOSHLAR RIVOJLANISHIGA TA’SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yo‘ldosheva H. N.
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda kuchli mafkuraviy qurolga aylangan ekan butun dunyo miqyosida mafkuraviy-g’oyaviy tahdidlarni targ’ib qilishda muhum omil vazifasini o’tamoqda buni o’z oldiga maqsad qilib olganlar uchun ijtimoiy tarmoq yoshlarning ongiga, qalbiga va ruhiyatiga salbiy ta’sir ko’rsatishda muhim yo’l bo’lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar psixokasiga salbiy oqibatlari va ijtimoiy tarmoqlarning zararli va foydali jihatlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: Globallashuv, mafkuraviy, ijtimoiy xavf, axborot xuruji, messenger, facebook, tiwitter.

Аннотация: *поскольку социальные сети сегодня стали мощным идеологическим оружием, они выступают важным фактором в продвижении идеологических и идеологических угроз во всем мире для тех, кто нацелен на это, социальные сети служат важным способом негативного воздействия на умы, сердца и психику молодых людей. В этой статье рассматриваются негативные*

последствия социальных сетей для психики молодежи, а также вредные и полезные аспекты социальных сетей.

Ключевые слова: глобализация, идеология, социальная опасность, информационная атака, мессенджер, facebook, twitter.

Hozirgi globallashuv jarayonida va jahonda olamshumul o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bir paytda biz nafaqat aniq bir inson, balki butun jamiyat hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelayotgan axborot texnologiyalarining ajoyib ixtirolaridan biri bo‘lmish ijtimoiy tarmoqlarni chetlab o‘tolmaymiz. Joriy vaqtda ijtimoiy tarmoqlar deyarli butun dunyoni qamrab olgan. Ayniqsa, yosh avlod juda ham ijtimoiy tarmoqlarni yaxshi ko‘radi. Kimga internetda o‘z rasmlarini qo‘yish, olis masofadagi do‘stlar va qarindoshlar bilan gaplashish, o‘yinlar o‘ynash, musiqa tinglash va so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lish, statuslarni tinmay o‘zgartirish yoqmaydi deysiz? Agar biz ijtimoiy tarmoqlar soniga va ularning turlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning hammasini yoritishda bu maqola ojizlik qiladi. Keling biz eng mashhur ijtimoiy tarmoqlar va ularga qancha foydalanuvchi a’zo bo‘lganligiga bir nazar tashlaylik: Facebook –750 million, Twitter – 200 million, Odnoklassniki– 100 million va hokazo. Mana ko‘rib turganingizdek, shu raqamlar insoniyatning qanchalik ijtimoiy tarmoqlar ichiga kirib ketayotganligidan dalolat bermoqda. Tabiiyki, sizda savol paydo bo‘lishi mumkin: bu yaxshimi yoki aksinchami? Albatta, ko‘pchilik bu tarmoqlarni ma’qullaydi va unga ijobiy baho beradi. Chunki, hozir ijtimoiy tarmoqlar bo‘sh vaqtni o‘tkazishning eng yaxshi vositasi hisoblanadi. Keyingi 15-20 yil davomida dunyo mamlakatlari aholisi, shu jumladan O‘zbekistonlik yoshlar hayotida mobil aloqa urf tusini olgan bo‘lsa, hozirgi davrga kelib mobil uskunalardagi WhatsApp Messenger va Telegram orqali matnli muloqot ommaviylik kasb etmoqda. Qayd etish kerak, bugungi kunda dunyo aholisining qariyb yarmi – ya'ni 3 mlrd.ga yaqin kishi turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda shulardan eng katta qismi – 2 mlrd. odam “Facebook”da O‘zbekistonda “Facebook” tarmog‘idan foydalanuvchilar 1 millionga yaqinlashib qolgan ular o‘rtacha 25-34 yoshda bo‘lib 65,5 foizini erkaklar 34,5 foizini xotin qizlarimiz tashkil etar ekan. Ayni paytda dunyoda 1 mlrd.lik auditoriyaga ega.

Endi esa ijtimoiy tarmoqlarnig hayotimizga dunyoqarashimizga, ongimizga, sog‘lig‘imizga qanday ta’sir etishi haqida fikr yuritaylik. Internetning zo‘r berib rivojlanishi bilan odamzod borgan sari me’yorni unutib, uning girdobiga bexosdan tortilmoqda. Biz kundalik hayotda odamlar bilan jonli muloqotda bo‘lamiz jonli fikr almashinamiz va o‘zimizga kerakli bo‘lgan xulosalarni chiqaramiz. Virtual hayot esa

insonni tamomila dunyoqarashi va ongini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Ushbu odamlar bamisoli ijtimoiy tarmoqlarda “yashashadi”. Ular uchun virtual hayot muammolari va tashvishlari har narsadan, jumladan real hayotdan ustun turadi. Bizning fikrimizcha, bu tendentsiya salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunki inson ijtimoiy tarmoqlarda bo‘lar ekan, u o‘z hayotini faqat shu tarmoqlar orqali ko‘radi, xulosalarni tarmoq nuqtai nazaridan va ulardagi a’zolar fikrlaridan chiqaradi, uning dunyoqarashi shu tarmoq doirasida shakllanadi, xullas bunday insonlarning ongi faqat bir olamda yashaydi. Inson real hayotidagi kamchiliklarini, siqilishlarini va muvaffaqiyatsizliklarini tarmoqda qoplashga intiladi. Rasmlar va ularga berilgan sharhlar, yangi do‘stlar, yorqin lavhalar va tarmoqlararo uyushmalar odamni to‘lqinlantiradi. Internet ularning fikrlashini butunlay o‘zgartirib yuboradi. Undan tashqari ijtimoiy tarmoqlar g‘arazgo‘y odamlarning yovuz maqsadlariga xizmat qilishlari mumkin. Masalan, tarmoqqa qo‘yilgan axborot va xabarlar boshqalar tomonidan o‘g‘irlanishi buzilishi va boshqa tarmoq a’zolariga yuborilishi mumkin. Hatto ijtimoiy tarmoqlar butun boshli qotilliklar, isyonlar, urushlarga sabab bo‘lishi mumkin masalan, zamonaviy fanda “informatsion urush” degan atama mavjud. Informatsion urush ijtimoiy tarmoqlarda juda qo‘l kelishi mumkin. Ma’lumki, 2011 – yilning boshi butun jahonning diqqat – e’tiboriga sazovor bo‘lgan “arab inqiloblari” yoki “arab bahori” nomli voqyealar bilan boshlandi. Tunisda boshlangan davlat to‘ntarishi zanjirli reaktsiya bo‘ylab Misr, Liviya, Suriya, Iordaniya, Yaman va boshqa arab davlatlariga tarqaldi bu to‘ntarishlarga ahamiyat beradigan bo‘lsak, harakatlarni boshlaganlar 18 – 35 yoshlardagi fuqarolar edi. Ya’ni, ular ham ijtimoiy tarmoqlar ta’siri ostida bo‘lib qolib, ularning boshqa o‘lkalardagi do‘stlari qanday yashayotganligini ko‘rib o‘z hayotlarini tubdan o‘zgartirishga ahd qilishdi. O‘ylashimizcha, bu dalil sotsial tarmoq ta’siriga tushgan yangi fuqarolik jamiyati shakllanishinig boshlanishidir. Biz ijtimoiy tarmoqlarga qarshi emasmiz, biz faqatgina ularni real hayotimiz bilan farqi, ularni o‘zaro chalkashtirmaslik lozimligini aytib o‘tdik. Albatta ulg‘ayib kelayotgan yosh avlod fan – texnika yutuqlaridan va axborot texnologiyalarining muvaffaqiyatlaridan foydalanishi kerak. Lekin dunyoda har narsa bilan foydalanishning o‘ziga yarasha me’yori mavjud va ularni suiste’mol qilmaslik lozim. O‘ylashimizcha, yoshlar bo‘sh vaqtini faqat ijtimoiy tarmoqlarda o‘tirish bilan o‘tkazishlari noto‘g‘ri. Chunki jonli haqiqiy va real muloqot o‘rnini hech narsa bosa olmaydi yoshlar kitob o‘qishlari o‘z ustilarida ishlashlari hamda ijtimoiy faollikni

oshirishlari lozim. Tarmoqdagi faollik hech narsani belgilamaydi va inson to‘g‘risida haqqoniy bo‘lmagan ma’lumotlarni saqlashi mumkin.

Biz ongli ravishda sotsial tarmoq a’zosi bo‘la turib, real hayot va virtual hayotni farqlay bilishimiz lozim. Kun sayin jadal rivojlanib borayotgan axborot asrida zamonaviy texnika vositalaridan foydalanmaslikning yoki ularga murojaat etmaslikning hech bir iloji yo‘q. Chunki, inson dunyoqarashining shakllanishida, ma’naviy olamining yanada kengayishida, ayniqsa kampyuter texnologiyasi asosiy vosita rolini bajarmoqda. Bu bir tomondan quvonarli holat. Bugungi kunda, biz yoshlar, mana shunday katta imkoniyatlardan xohlagancha foydalanib, o‘qish yoki ish davomida vaqtimizdan ancha unumli foydalanmoqdamiz. Hozirgi kun nuqtai nazar bilan qaraydigan bo‘lsak, allaqachon global tarmoqqa aylanib ulgurgan internet o‘zining tezkorligi chegara bilmasligi bilan ommaviy axborot vositalari orasida eng muhim sohaga aylanib ulgurdi. Unda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy tarmoqlar: Kun.uz, Daryo.uz kabi saytlar orqali har soatda yurtimiz va jahonga oid eng so‘ngi yangiliklardan boxabar bo‘lib turamiz. Ammo shiddat bilan yuksalib borayotgan fan-texnika asrida internet va ijtimoiy tarmoqlarining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda uning yoshlar ma’naviyatiga, ularning yangiliklarga chanqoq ongiga salbiy ta’sirining ham guvohi bo‘lyapmiz zimdan e’tibor bersak, internet kafelariga serqatnov yoshlar ayniqsa o‘smirlar u yerga borishib, har xil buzg‘unchi g‘oyalar ruhidagi ur-sur, o‘ldir-yondir kompyuter o‘yinlarini tomosha qilayotganligini, tuturuqsiz narsalar bilan vaqtlarini besamar o‘tkazayotganligiga guvoh bo‘layapmiz. Eng achinarlisi, ayrim befarq ota-onalar farzandim internetda o‘tirib bilim olyapti deb o‘ylashadi. Shu o‘rinda talabalarning ba’zi dars paytlarida qo‘l telefonlari orqali internet saytlariga kirib, bemalol foydalanib o‘tirishlariga munosabat bildiradirsak. To‘g‘ri talaba mustaqil izlanuvchi shaxs sifatida bilimini ko‘proq boyitishi, turli xil manbaalarga murojaat etishi yaxshi lekin dars hisobidan emas chunki, har narsaning ham o‘z vaqt-soati bor, shu jumladan internetdan foydalanishning ham. Kundalik hayotimizda har narsaning salbiy va ijobiy tomoni bo‘lgani kabi zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishda ham me’yorga amal qilmog‘imiz zarur! XXI asr – axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog‘i-internetsiz tasavvur qilish mushkul. Ma’lumki, internet-axborot va hujjatlarning o‘zaro ta’minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan xalqaro tizimdir. Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi uydan ko‘chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo‘ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy

ta’lim muassasasining masofaviy virtual talabasi bo‘lish, hatto elektron xizmatlarni matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish kitob va risolalarni sahifalash va hokazo shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning tarbiyasiga katta ta’sir qilmoqda. Xattoki endigina tili chiqqan go’dakda ham ijtimoiy tarmoqa qaramlik kuzatilmoqda. Aksariyat kishilar kundalik stress va tashvishlardan uzoqlashish uchun ijtimoiy tarmoqlardan panoh topishga urinishadi. Biroq ijtimoiy tarmoqlar nega insonga vahima va xavotir hislarini uyg‘otishi hanuz aniqlanmagan. Ijtimoiy tarmoqlar insonlar ruhiyatiga tamaki va alkogolli ichimliklardan ham ortiq zarar yetkazar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida. 2016-yil 14-sentabr.

2. Qodirov U. Yoshlar va axborot psixologik xavfsizlik. 2014-yil 153 b.

3. Alimov B. S. Ijtimoiy tarmoqlar va ularning mamlakat imijini shakllantirishdagi o‘rni // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, — T:, 2015. — № 3. — B. 286-290 (10.00.00; № 15).

4. Alimov B. S. Yoshlarning ijtimoiy tarmoklar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli // Yoshlar innovasion faolligini oshirishning dolzarb vazifalari: Resp. ilmiy-amaliy konf. material. to‘p. 2019 yil 27 aprel. — Toshkent, 2019. — B. 75-78.

5. Alimov B. S. Ijtimoiy tarmoqlar va imij hamohangligi // Zamonaviy elektron ommaviy axborot vositalarining taraqqiyot tendensiyalari: Resp. ilmiy-amaliy konf. material. to‘p. O‘zDJTU, 2019 yil 26 aprel. — To shkent, 2019. — B. 15-17.

YOSHLARDA MILLIY IFTIXOR TUYG‘USINI TARBIYALASH VA UNING TA‘LIM – TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Nabiyev S. A.
O‘R HX va MU Serjantlar tayyorlash oliy maktabi

Annotasiya: *Ushbu maqolada milliy iftixor tushunchsining mohiyat-mazmuni, yoshlar tarbiyasi, yoshlarning bugungi kunda jamiyatimiz hayotidagi o‘rni, yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini tarbiyalash va uning ta‘lim – tarbiya jarayonidagi ahamiyati haqida ayrim mulohazalar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: milliy iftixor, Vatanga muhabbat, milliy o‘zlikni anglash, yoshlar tarbiyasi, ta‘lim – tarbiya, ma‘naviy-axloqiy fazilat, intellektual salohiyat.

Jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri yosh avlod ta‘lim- tarbiyasidir. Chunki har qanday jamiyatning buguni va kelajagini yoshlar belgilab beradi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida isbotlangan haqiqat shundan iboratki, yoshlar ta‘lim – tarbiyasini ustivor vazifa, deb bilgan xalqlar o‘z oldilariga qo‘ygan barcha ezgu maqsad - muddaolariga erishishgan. Shu nuqtai-nazardan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir: “Qanchalik qiyin bo‘lmasin, diz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta‘sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma‘naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur”[8].

So‘nggi yillarda olib borilgan islohatlar savarasi o‘laroq, mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning kompleks tizimi yaratildi.Bilimli, keng dunyoqarashga ega vatanparvar yigit-qizlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi. Bu borada 2016 yil 14 sentyabrda 406-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risi” da Qonun, 2017 yil 5 iyul kuni 5106-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorliginioshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risi”gi Prezident Farmoni va boshqa qator hujjatlar qabul qilindi.

Mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e’tiborning yorqin namunasi sifatida, 2008 yilni “Yoshlar yili”, 2010 yilni “Barkamol avlod yili”, 2020 yilni “Ilm-ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, 2021 yilni “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, 2024 yilni “Yoshlar va biznesni qullab-quvvatlash yili” deb e’lon qilinishini keltirish mumkin. Bugungi kunda yoshlarimizga o‘z imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun barcha imkoniyat va sharoitlar yaratib berilgan.

Jamiyatni yangilash va demokratlashtirish jarayonida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohatlarning samaradorligi, avvalo, milliy tafakkurning o‘zgarishi, yuksalishi bilan bevosita bog‘liq. Demak, milliy yuksalish g‘oyasini hayotimizning bosh mezoniga aylantirish, har bir fuqaroda, ayniqsa yoshlarimizda milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish dolzarb masaladir.

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 25 dekabr “Yoshlar forumi” dagi nutqidan.

Yoshlar bilan olib borilayotgan ta‘lim-tarbiya jarayonida ularda o‘z Vataniga muhabbat, milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy o‘zlikni anglash kabi tuyg‘ularni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda, milliy iftixor tuyg‘usiga qisqacha to‘xtalib o‘taylik.

Iftixor (arabcha faxrlanish, quvonish) – ulug‘ bir narsaga daxldorlikdan faxrlanish, quvonish, g‘ururlanish tuyg‘ulari bilan bog‘liq tushunchadir.

Milliy iftixor - insonning ong va faoliyatida, o‘zi mansub bo‘lgan millatning madaniyati, tarixi, dini, tili, qadriyatlari qanchalik o‘rnashib olganligini ifodalaydi. Milliy iftixor milliy g‘ururning yuqori bosqichi, cho‘qqisidir. Xuddi shuning uchun ham milliy iftixor millatni yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini his qilishida namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, iftixor ruhiy - ma‘naviy fazilatdir. Xuddi shu fazilat tufayli kishilar o‘zlarining tarixiy birliklarini - urug‘-aymoqchilik, qon-qardoshlik, yaqinliklarini ifodalaydi.

Jamiyat a‘zolari, shu jumladan, yosh avlod ongu-shuurida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishga barcha davrlarda katta e’tibor qaratib kelingan. Chunki milliy iftixor tuyg‘usi kuchli bo‘lgan xalqni hech qanday kuch yenga olmaydi. Ayniqsa, hozirgi g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar, kurashlar avj olib borayotgan davrda yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish zarurdir.

Mamlakatimiz milliy xavfsizligiga tahdid solayotgan turli tashqi va ichki kuchlar o‘z maqsadlari yo‘lida asosan, yoshlarimizdan foydalanishmoqda. Afsuski, ayrim yoshlarimiz yolg‘on da‘vatlarga uchib, ularning ta‘siriga tushib qolmoqda. Yoshlarimizda milliy iftixor tuyg‘usi kuchli bo‘lsa, ular o‘zlarini har qanday salbiy ta‘sirlardan saqlay olishadi. Milliy iftixori kuchli shakllangan inson hech qachon o‘z xalqi va millatiga qarshi kurashmaydi, balki millat boshiga og‘ir kunlar tushganda unga qalqon bo‘lib xizmat qiladi.

Shu o‘rinda, hozirgi davrda yoshlarimiz orasida vujudga kelayotgan va o‘zining salbiy ta‘siri oqibatlari bilan ajralib turadigan holatlar ham uchrab turibdi. Jumladan, yoshlarimiz orasida ma‘naviy zaiflik, g‘oyaviy savodsizlik, milliy ma‘naviyat va madaniyatdan uzoqlashish holatlari kuzatilmoqda. Ushbu salbiy holatlarning vujudga kelishiga turli ichki va tashqi omillar sabab bo‘lmoqda. Jamiyatimizning barcha bo‘g‘inlarida ularga qarshi kurashish zaruratidan kelib chiqqan holda, yoshlar tarbiyasiga barcha birdek mas’uliyat his qilmog‘i lozim.

Bugungi o‘zaro g‘oyaviy kurashlar, qarama-qarshiliklar, inson ongi va qalbi uchun kurash avj olgan zamonda yoshlarimizni ushbu salbiy holatlardan asrash eng

asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalarni bajarishning eng muhim omillaridan biri - yoshlarimizda milliy iftixorni kuchaytirishdir. Milliy iftixor yoshlarimizning millat vakili sifatida o‘zligini chuqur anglab yetishlari, ularda vatanparvarlik, millatparvarlik, millat manfaatlari yo‘lida fidoiylik va boshqa tuyg‘ularni kuchaytiradi hamda yoshlarimizni mamlakatimiz manfaatlari yo‘lida ulug‘vor ishlarga da‘vat etadi.

Yosh avlod bilan olib borilayotgan ta‘lim-tarbiya jarayonida, ularda milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytirish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozim deb, hisoblaymiz:

-yoshlarimiz ongi va qalbiga milliy g‘oya va mafkuramizni chuqur singdirish;

-ta‘lim-tarbiya tizimida xalqimiz tarixini chuqur o‘rgatishga alohida e’tibor qaratish;

-yoshlarimizda o‘tmish ajdodlarimiz va ularning merosiga chuqur hurmatni shakllantirish;

-yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash;

-yoshlarda o‘z xalqi va millatidan, uning o‘tmishi, buguni va kelajagidan faxrlanish hissini shakllantirish.

Shu o‘rinda, davlatimiz xavfsizligi va mudofaasi uchun mas‘ul bo‘lgan harbiy xizmatchilaimizda ham miliiy iftixor tuyg‘usini yuksaltirish muhim masaladir. Ushbu yunalishda ishlar samarasini oshirish maqsadida, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi PQ-3898-sonli “O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida” qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror asosida “O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi” ishlab chiqildi.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi - mustaqil, keng dunyoqarash va fikrlashga ega, iymon-e’tiqodi va irodasi mustahkam, ma’naviyatli va fidoyi, ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – Vatan himoyachilarini tarbiyalash, ularning dunyoqarashlarini, mantiqiy, ijodiy va tahliliy fikrlash doirasini kengaytirish, ona Vatan taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Xalqimiz uchun ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish jarayonida yoshlarimizning fidoiyligi, bilimdonligi, Vatanga muhabbati muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Qachonki, yoshlarimizda milliy iftixor kuchli bo‘lsa, shundagina

ular o‘zlarining barcha kuch va imkoniyatlarini Vatan ravnaqi, yurt kelajagi uchun ishga soladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi PQ-3898-sonli “O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida” Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 25 dekabr “Yoshlar forumi” dagi nutqi.

3. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. –T.: O‘zbekiston, 1996.

O‘QUVCHI YOSHLARNING HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI TIZIMI

dotsent Xaydarov M.X
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annatatsiya: *Ushbu maqolada milliy vatanparvarlik g’oyasini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy qilish konsepsiyasi masalalari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: harbiy ta’lim, vatanparvarlik tarbiyasi, tizim, oila ta’limi va tarbiyasi, milliy ta’limning turli bosqichlari, harbiy ta’lim , harbiy xizmat tizimi, pedagogika, psihologiya, ta’lim va tarbiya metodlari innovatsion yondashuv, milliy ruh, ma’naviy an’analar va hokazo.

Аннотация: *В данной статье научно и теоретически анализируются вопросы концепции внедрения идеи национального патриотизма в образовательный процесс.*

Ключевые слова: военное образование, патриотическое воспитание, система, семейное воспитание и воспитание, разные этапы народного образования, военное образование, система воинской службы, педагогика, психология, методы обучения и воспитания, новаторский подход, национальный дух, духовные традиции и т.д.

Dunyo tamaddunining turli bosqichlari va ijtimoiy taraqqiyotning barcha davrlarida mavjud bo’lgani kabi bugungi zamon yoshlarining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishida ham ma’lum bir tizim, shakl va ish uslublari mavjud. Bu tizim yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash bo‘yicha kompleks xususiyatga ega bo‘lib, milliy armiyamizga har tomonlama yetuk harbiy kadrlarni tayyorlashni amalga oshirish bilan

bog‘liq faoliyat olib boruvchi barcha o‘quv-tarbiya muassasalari, davlat tashkilotlari, shuningdek, yoshlar tarbiyasiga mas’ul nodavlat tashkilotlarni ham o‘z ichiga oladi**.**

Masalaga shu nuqtai nazardan obektiv yondashadigan bo’lsak, yoshlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimining yo‘nalishlari- oila ta’limi va tarbiyasi, maktabgacha ta’lim tizimi, umumiy o‘rta ta’lim tizimi, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi, oliy ta’lim tizimi, harbiy ta’lim tizimi, harbiy xizmat tizimi, pedagogika, psihologiya, ta’lim va tarbiya metodlari, ta’lim va tarbiya jarayoni, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayoni yo‘nalishlaridan tarkib topganligi anglashiladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi uzluksiz jarayon bo‘lib, inson hayotining barcha davrlarida o‘ziga xos tarzda shakllanib, rivojlanib, namoyon bo‘lib boradi va har bir shaxsning hayotida jiddiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Vatanparvarlik tarbiyasi bilan uzluksiz bog‘lik holda uning yuqori darajasi bo‘lgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning zarur yo‘nalishi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ham uzluksiz jarayondir.

Shu bilan birga, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi tarbiyaning barcha turlari bilan bog‘liq va ularga asoslanadi hamda armiya bilan xalqning birligiga tayanadi.

Hozirda mavjud harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi tarkibiga o‘sib kelayotgan yosh avlodning oilada, maktabda, to‘garaklarda harbiy soha, armiya xizmati ishi bilan tanishib borishi, chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash mashg‘ulotlarida qatnashishi, “Vatanparvar” tashkiloti tizimidagi o‘quv muassasalarida o‘qishi, texnik va amaliy sport turlari bilan shug‘ullanishi, harbiy sport musobaqalari, “Burgutlar”, “Yosh chegarachilar” va boshqa harbiy sport o‘yinlari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oliy harbiy bilim yurtlari, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi va boshqalar kiradi.

Bu tizim faoliyatida mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish, har tomonlama barkamol insonni shakllantirish, yoshlarimiz qalbida Vatanga yuksak muhabbat, Qurolli Kuchlarimizdan g‘ururlanish va harbiy xizmatga chuqur hurmat tuyg‘ularini kamol toptirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tizimi yo‘nalishidagi tadbirlar muhim o‘rin tutadi.

Harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirish yuzasidan hozirgi dolzarb vazifalarga quyidagilar kiradi:

bugungi zamonda dunyo shiddat bilan o‘zgarib borayotganligini, xalqimizning ma’naviy qadriyatlari, madaniyati va urf-odatlariga mutlaqo zid bo‘lgan, yot va

buzg‘unchi g‘oyalarni jamiyatimiz hayotiga turli yo‘llar bilan singdirishga qaratilgan urinishlar kuchayganligini, ayniksa, yosh avlodning qalbi va ongini egallash uchun keskin kurash ketayotganligini hisobga olish;

bunday sharoitda harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatgacha bo‘lgan yoshdagi farzandlarimizni tarbiyalash va ularning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasidagi ishlarning sifati va samaradorligini yuksaltirib borish, bu ishlarning chuqur va boy mazmunli bo‘lishini, ta’sirchanligini ta’minlash choralarini ko‘rish;

ta’lim muassasalari, harbiy va mehnat jamoalarida, mahallalarda yoshlarimiz qalbida Vatanga yuksak muhabbat, Qurolli Kuchlarimizdan g‘ururlanish va harbiy xizmatga chuqur hurmat tuyg‘ularini kamol toptirishga qaratilgan harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirish;

harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan, dolzarb vazifalarni amalga oshirishda Mudofaa vazirligi qoshidagi Jamoatchilik kengashi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamda boshqa jamoat tashkilotlari va tuzilmalar, madaniyat, san’at va sport sohalarining ko‘zga ko‘ringan namoyandalari bilan hamkorlikda ish olib borish;

ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san’at, ilm-fan yutuqlari va Internetning milliy tarmog‘i imkoniyatlaridan keng foydalanish;

yoshlar va fuqarolar orasida Vatanni himoya qilish g‘oyalarini targ‘ib qilish, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga daxldor barcha tashkilotlar va o‘quv muassasalarida harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy va tashkiliy ommaviy ishlarning yanada yuqori darajada olib borilishini ta’minlash.

Shularni hisobga olgan holda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirib borish zarur:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun harbiy-texnik mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv muassasalariga chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarni sifatli saralash maqsadida Mudofaa vazirligining joylardagi mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limlari bilan birgalikda keng ko‘lamli targ‘ibot ishlarini amalga oshirish, o‘quv jarayoni davomida chaqiriluvchi o‘quvchilar bilan harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish.

2. Mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda imzolangan rejalarga asosan o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarida tahsil olayotgan chaqiriqqacha yoshlar bilan keng ko‘lamli vatanparvarlik tadbirlarini o‘tkazish, mazkur tadbirlarning ahamiyatini

va samaradorligini oshirib borish.

3. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarini va umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarini harbiylar hayoti, harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan sharoitlar va xizmat jarayoni bilan yaqindan tanishtirish maqsadida garnizonlar bilan hamkorlikda o‘quvchilarning harbiy qismlarga sayohatlarini amalga oshirish.

4. Mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda imzolangan rejalarga asosan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarini va umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan sport tadbirlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar va davra suhbatlari tashkil etish va o‘tkazish.

5. Kamol topib kelayotgan yosh avlodni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etish, ular ongida harbiylik kasbiga qiziqishni shakllantirish hamda Vatan himoyasi muqaddas burch ekanligini targ‘ib qilish maqsadida o‘quvchi yoshlarning Qurolli Kuchlarga harbiy-texnik mutaxassislar tayyorlovchi o‘quv muassasalariga tashriflarini amalga oshirish.

6. Harbiy o‘quv muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilarning ota-onalari, mahalliy davlat organlari, jamoatchilik vakillari va chaqiriqqacha yoshlar ishtirokida ularni o‘quvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirish maqsadida “Ochiq eshiklar kuni” o‘tkazish.

7. Harbiy o‘quv muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilar bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish, o‘qish davomida o‘zining namunali xulqi bilan safdoshlari orasida o‘rnak bo‘lgan hamda o‘tkazilgan sport musobaqalarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan o‘quvchilarni taqdirlash.

8. O‘quv muassasalari o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan turli ta’lim-tarbiyaviy hamda bayram tadbirlarida milliy armiyamizda xizmat qilayotgan tajribali, ilg‘or harbiy xizmatchilarning ma’ruzachi sifatida ishtirokini ta’minlash.

9. “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” sport o‘yinlari mash’alasini yoqish ishlarini tashkil qilishda yoshlarni sport bilan shug‘ullanishga keng jalb etish, ularni vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga yo‘naltiradigan tadbirlarni amalga oshirish. (Bu tadbirlarda mash’alani Quyosh qurilmasida yoqish, uni har bir viloyat, tuman, shaharlardan olib o‘tish jarayoni va tegishli tadbirlar: kutib olish, miting, konsertlar,boshka tadbirlar tashkil qilinishining ma’naviy-ma’rifiy hamda sportni ommalashtirish va vatanparvarlik tarbiyasidagi

ahamiyati beqiyosdir. Bu jarayonlarda tasdiqlangan rejaga aniq rioya qilish, uning to‘liq va sifatli bajarilishini hamda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarning ibratli darajada bo‘lishi natijasida ularning ijtimoiy-tarbiyaviy ta’siri va ahamiyati yanada ortib, yoshlarda iftixor tuyg‘ulari hosil qilib, ularning sport bilan shug‘ullanishga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.)

10. O‘quv muassasalari o‘quvchilarining otaliq harbiy qismlarga sayohatlarini amalga oshirish, tashkilotda Qurolli Kuchlar tizimida o‘tkazilgan tanlovlarning g‘oliblari bo‘lgan milliy armiyamiz shaxsiy tarkibidagi zobit va serjantlar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etish.

11. O‘quv muassasalari kutubxonalari va ma’naviyat xonalarining kitob jamg‘armalarini vatanparvarlik tarbiyasi va ta’limi yo‘nalishidagi yangi adabiyotlar va ko‘rgazmali vositalar bilan boyitib borish.

12. Ommaviy axborot vositalarida vatanparvarlik tarbiyasi yo‘nalishidagi mavzularni yoritib borish va boshqalar.

Bugungi kunda yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, milliy armiyamiz saflarida har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli, Vatan taqdiri, yurt tinchligi va himoyasi yo‘lida bor salohiyati bilan mas’uliyatni zimmasiga olishga qodir shijoatli yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha qator ishlar amalga oshirib kelinmokda.

Bu ishlarni bevosita amalga oshirish bo‘yicha asosiy jarayonlar oilada, maktabgacha, maktab va boshqa ta’lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini olib borish hamda quyidagi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonlarini o‘z ichiga oladi:

- chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash mashg‘ulotlarini olib borish;
- yosh avlodning oilada, maktabda, to‘garaklarda harbiy soha, armiya xizmati ishi bilan tanishib borishini ta’minlash;
- texnik va amaliy sport turlarini ommalashtirish va rivojlantirib borish;
- harbiy sport musobaqalarini o‘tkazib borish;
- “Burgutlar”, “Yosh chegarachilar” va boshqa harbiy-sport o‘yinlarini tashkil qilib borish;
- harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi tadbirlarni amalga oshirib borish;
- internetning milliy tarmog‘idan foydalanib zarur axborotlar bilan tanishib va tegishli hamkorlar bilan axborot almashib borish;
- yoshlarning madaniyat, adabiyot, san’at va sport sohalaridagi taniqli namoyandalar bilan muloqotlari va boshqa tadbirlarni amalga oshirib borish.

Bunda alohida ta’kidlash kerakki, yoshlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishning 2-jadvalda aks ettirilgan umumiy tizimi tarkibidagi asosiy bosqichlar bo‘lgan oila ta’limi va tarbiyasi, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, harbiy ta’lim, harbiy xizmat jarayonlarining har birida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi o‘ziga xos darajada olib boriladi va shunga ko‘ra tegishlicha muayyan xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Buning natijasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining umumiy tizimida uning yuqorida aytilgan bosqichlarining har biri harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining alohida kichik tizimlarini hosil qiladi. Har bir kichik tizim o‘ziga tegishli bo‘lgan nazariy, metodik, amaliy va tashkiliy asoslarga ega. Shunga ko‘ra, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining umumiy tizimi real hayotda faqat harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining alohida kichik tizimlari ko‘rinishida amal qiladi. Amalda har bir tarbiyalanuvchi o‘zining har bir yosh davridagi ta’lim-tarbiya olishi davomida unga shu yosh davriga xos harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining alohida kichik tizimi xos bo‘ladi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, O’zbekiston respublikasida uzluksiz ta’limning turli bosqichlarida harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi masalasi muhim mavzulardan biri bo’lib, alohida tadqiqotni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy Nizomlari. Toshkent: O‘zbekiston, 1996.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalariga tanlash tartibi va qabul qilish qoidalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida», 2014 yil 3 iyun.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrdagi 348-son qarori bilan tasdiqlangan “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi.

5. Atadjanova Sh. Oilada o‘spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: ped.fan.nomz. dis-yasi. - T.: TDPU, 2001. -136 b.

6. Hasanboev J., Hasanboeva O., Turopova M. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002. -112 b.

7. Ibragimova G.X. Kasb ta’limi tizimida talaba-yoshlar ma’naviyatini milliy istiqlol g‘oyasi asosida shakllantirish. - T.: Fan, 2005. -159 b.

8. Jumayev, F. Sh. (2021). Natsionalniye chuvstva kak faktor formirovaniya molodeji na urokax voyennogo obrazovaniya. Vestnik nauki i obrazovaniya, (16-2 (119)), 94-97.

9. Jumayev, F. Sh. (2020). Perspektivniye napravleniya vnedreniya sovremennix informatsionnix texnologiy v sistemu voyennogo obrazovaniya. Vestnik magistraturi, (3-1 (102), 20-22.

YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA LIDERLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yo‘ldoshev J. A., Sayfiyeva S. O.
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola hozirgi kunda o‘quvchilarda liderlikning rivojlanishing psixologik psixologik turlari va ularning xususiyatlari. O‘quvchilardagi liderlikni rivojlantirishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari hamda muammolari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: liderlik, o’quvchilarda liderlik xususiyatlari, rasmiy va norasmiy lider, shaxs, individual-psixologik xususiyatlar, psixologik portret.

Bizga ma'lumki, har qanday guruh, tashkilot, jamoada, bo'linmada tan olingan obro’-e’tiborga ega bo'lgan shaxs mavjud va u mazkur tashkilotning faoliyatiga bevosita ta'sir o'tkazadi, bu o'zini boshqaruv harakatlari sifatida namoyon qiladi, shuningdek, Amir Temurning "Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir", degan fikri ham tasdiqlaydi va bugungi kunda biz bunday shaxslarni liderlar deb ataymiz.

Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan muammo ham lider shaxsi haqida, uning ijtimoiy guruhga ta’siri haqida qandaydir tasavvurlarni shakllantirishga va, eng asosiysi, insonni lider qila oladigan u yoki bu xususiyatlar to‘plamini aniqlashga qaratilgan. Shu orqali bu xususiyat larning nasliy yoki yo‘qligi va shunga bog‘liq holda (agar ular korrektirovka qilinadigan bo‘lsa), bu xususiyatlarni boshqa insonda shakllantirish mumkinligini aniqlashga harakatqilamiz. Bunda turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan nazariyalarni ko‘rib chiqqan holda tahlil qilishga, qanday xususiyatlar liderda jamlanganligi va ulardan qaysilari yuqori o‘rin tutishini aniqlashga

va shu bilan birga, shaxsda liderlik xususiyatini shakllantirishga xizmat qiladigan dastur va treninglarni o‘rganib chiqishga e’tibor qaratiladi.

Fikrimizcha, samarali faoliyat olib boruvchi sinf rahbari o‘z sinf jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir o‘quvchi zarur vaziyatda o‘z imkoniyatini ishgasolish orqali topshiriqlarni bajarishda qatnashishi va ushbu jarayonda ishtirok etayotganini his qila olishi zarur. Buning uchun jamoa, har qanday vazifa, topshiriqlarni hal etishda chuqur mas’uliyat his etuvchi va o‘ziga ishongan o‘quvchilarga ega bo‘lishi lozim. Bolaning jamoaviy munosabatlarga kirishuvi o‘rtoqlari bilan shaxslararo munosa- batlar tizimida amalga oshadi. Bolaning atrofidagi jamoaviy munosabatlarga kirishuvchi odamlar: uning ota-onasi, aka-opasi va tarbiya maskanidagi o‘rtoqlari boshqa a’zolardir. Bolaning kelajakda shaxs sifatida shakllanib, yetuk inson bo‘lib kamol topishi hamdahayotda o‘z o‘rnini topib ketishida uning jamoaviy munosabatlarga qanday kirishuvi,jamoada qanday psixologik iqlim hukm surganligi, o‘z o‘rtoqlari bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarining qanday tarzda kechganligi muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, guruhda doimo shunday bolalar topiladiki, ular paydo bo‘luvchi ko‘pgina muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, liderlik ko‘p jihatdan shaxs tug‘ma qobiliyalarining yetarli darajada shakllanganligi bilan ham xarakterlanadi. Shu sababli ham o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasi bolalardan iborat ekanligini unutmasligi, har bir o‘quvchi shaxsini e’tibordan chetda qoldirmasligi kerak. O‘quvchilar bilan psixologik aloqaning qisqa muddatga bo‘lsa-da yo‘qolishi og‘ir oqibat- larni vujudga keltiradi. Demak, har bir o‘quvchida liderlik sifatlarini shakllantirish o‘qituvchidan har bir bolaga nisbatan individual yondashishni talab qiladi.

Jumladan, har bir bolaning ichki imkoniyatlariga qarab topshiriq va vazifalarni taqsimlash, o‘z navbatida, ularga ishonch bildirish, rag‘batlantirish, faolligini oshirish va tashabbuskorlik, tashkilot- chiliklarini yanada kuchaytirish orqali liderlik sifatlarini shakllantirib borish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Lider, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida namoyon bo‘ladi. Muayyan shaxsning lider darajasida tan olinishi unga ruhan yaqinlikni, uning ish bilan bog‘liq qator fazilatlarini yuqori baholashni, ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e’tibori kuchliligini anglatadi. Lider – guruhning hamma a’zolari tomonidan tan olingan shaxs lider. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihati guruh manfaatini har

narsadan ustun qo‘yish, guruh oldiga qo‘yilgan vazifani hal etishga sidqidildan kirishib, bu jarayonga jamoani safarbar eta bilishidir. Mehnat jamoasidagi yetakchi, avvalambor, ishchanligi va ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadi.

Rahbarlik – lavozim lider guruh tomonidan saylangan shaxs.Agar rahbar va lider o‘rtasidagi farqqa e’tibor beradigan bo‘lsak, rahbar xodimlarga ega, liderning esa hamfikr tarafdorlari mavjud. Rahbar tayinlanib, boshqaruvda hokimiyatga suyansa, lider jamoa a’zolari orasidan saylanib, jamoaga tayanadi. Barcha ta’lim tizimida yoshlarning ijodiy iste’dodlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratish lozim. O‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarning tashabbuslari, innovatsion g‘oya va fikrlarini, iste’dod va iqtidorini o‘z vaqtida ko‘ra olishi va uni ro‘yobga chiqarish uchun ko‘makdosh bo‘lish.

Yoshlarda yetakchilik ko‘nikmalari va boshqaruv mahoratini rivojlantirish orqali yuksak ma’naviyatli yetakchi yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo‘naltirish talab etiladi

Tahlil va natijalar.

Liderlik va rahbarlik. Mehnat jamoasidagi har bir xodim guruhda o‘zining mavqeiga ega. Bu rasmiy yoki norasmiy tarzda qo‘lga kiritilgan bo‘lishi mumkin. Rasmiy mavqe xodimning mansab pog‘onasidagi o‘rni va uning lavozimidan kelib chiquvchi vakolatlari bilan ifodalanadi. Har qanday xodim o‘z hamkasabalari bilan o‘zaro munosabatda bo‘lar ekan, turli omillar ta’sirida bu munosabatlar hissiy rang ola boshlaydi. Hissiyotga asoslangan munosabatlar ikki ko‘rinishda - yoqtirish (simpatiya) va yoqtirmaslik (antipatiya) sifatida shakllanadi. Shunday xodimlar ham borki, ular o‘zining ma’lum hislatlari bilan jamoaning ko‘pchilik a’zolarida simpatiya uyg‘ota oladilar va ular guruhning norasmiy tizimida yuqori mavqeni egallaydilar. Psixologik talqin bo‘yicha, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar bo‘lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs esa - liderdir. Mehnat jamoasidagi lider avvalambor o‘zining ishchanlik xususiyatlari bilan farqlanib turadi, chunki, u aynan mehnat faoliyati tufayli boshqalardan ajralib ko‘zga tashlana boshlaydi. Bundan tashqari, lider, guruh manfaatini himoya etar ekan, kezi kelganda rasmiy munosabatlar tizimiga va rasmiy doiralar manfaatiga ham zid chiqa oladi. Natijada, jamoada rasmiy rahbar va norasmiy lider o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘lishi mumkin.

O‘sib borayotgan avlodning tashkilotchilik faoliyati muammosi psixologiya - pedagogika fani tomonidan XX asrning 20-30-yillardayoq faol hal qilib borilgan.

Mazkur muammo bolalarning o‘z - o‘zini boshqarishini qurish yo‘llarini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan. Liderga xos bo‘lgan fazilatlar orasida odatda o‘tkir zehn, kuchli iroda va maqsadga intiluvchanlik, jo‘shqin energiya, o‘ziga xos tashkilotchilik qobiliyati va ayniqsa, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyorlik, kompetentlik, odamlarda ishonchni uyg‘otish qobiliyati va boshqalar ko‘rsatiladi.

Psixologik talqin bo‘yicha, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar bo‘lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs esa lider. Liderlik holati, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida amalga oshadi. Biron-bir shaxsning lider darajasida tan olinishi unga borliq bo‘lgan qator fazilatlarini yuqori baholashni va ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e’tiborliligini anglatadi. Lider - guruhning aksariyat a’zolari tomonidan tan olingan shaxs. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihati

- guruh manfaatini har narsadan ustun qo‘yish, doimo guruh oldiga qo‘yilgan vazifani yechishga sidqidildan kirishish va bu jarayonda jamoani safarbar eta olishidir.

Xulosa. Zamonaviy jamiyatda o'smirlarning liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Jamiyatdagi o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlar va texnologik rivojlanish davrida o'smirlar jamiyatning faol a'zolari sifatida o'z rolini topishlari va shakllantirishlari kerak. Buning uchun ijtimoiy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim berish, o'smirlarning liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishda ularning madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir fuqaro shaxsini inson sifatida hurmat qilish unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo‘lish, ishga ijodiy yondashish talab qilinadi.

Dars jarayonida qo‘llaniladigan ta’lim metodlarning o‘ziga yarasha pedagogik ahamiyati mavjud. Biz sinfda yetakchi o‘quvchilarni shakllantirishimiz uchun ko‘proq jamoa bo‘lib ishlashga, jamoada bir-birini fikrini xurmat qilishga va o‘z fikriga qat’iy turishga o‘rgatadigan pedagogik ahamiyatga ega metodlardan foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Chemers M. (1997) An integrative theory of leadership. Lawrence Erlbaum Associates, Publishers. ISBN 978-0-8058-2679-1

[2] G’oziyev E.G’. “Ontogenez psixologiyasi”.-T.: Noshir. 2010

[3] Yusupov E. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari.- T.: O'qituvchi, 1996. – B. 187.

[4] Маркова А. К. Психология труда учителя. М.: Просвещение, 1993.Талаба192 с.

[5] Shamshetova A. K. Umumiy psixologiya // o‘quv –uslubiy majmua. O‘zDJTU – 2018. 320 bet.

[6] Ibraimov, X., Azimova, Z., & Otaboeva, Z. (2023). Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community. *Science and innovation*, *2*(B12), 108-113.

YOSHLARNI VATAN HIMOYASIGA TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA “VATANPARVARLIK” TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Xikmatov A.I., Qandov Z.N.
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya:*Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat bosqichining o‘ziga xos xususiyati nafaqat pedagoglar, balki keng jamoatchilik orasida tarbiya muammolariga qiziqishning sezilarli o‘sishi hisoblanadi. Mamlakat hayotida ko‘pgina vazifalarning hal etilishi yosh avlodda fuqaroligi shakllanganligi darajasiga, ma’naviy-axloqiy takomillashtirish ehtiyojiga, o‘z Vatanining tarixiy-madaniy merosiga hurmat hissiga bog‘liqligi ma’lum bo‘ladi. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o‘rin egallaydi.*

Kalit so‘zlar: liderlik, o’quvchilarda liderlik xususiyatlari, rasmiy va norasmiy lider, shaxs, individual-psixologik xususiyatlar, psixologik portret.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya o‘ta muhim, nozik va hal qiluvchi masala ekanligini ta’kidlab, bugungi yoshlar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonida ulardagi vatanparvarlik sifatlarini yuzaga chiqarishga yetkazishning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalarini kun tartibiga qo‘ydilar. Yurtboshimiz bu jarayonda tarixiy an’analar hamda xorijiy mamlakatlar tajribalarini umumlashtirib, zamonaviy ilmiy asosda yurtimizda bolalar va o‘smirlarning vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kabi tavsiyalarni berdilar.

Yoshlarning harbiy hayot, jismoniy tarbiya bilan bog‘liq tadbirlarda ishtirok etishida qog‘ozbozlik, yuzakilik va sustkashlikka yo‘l qo‘yish katta xato ekanligi ta’kidlandi, shuning uchun talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida

tarbiyalashning yangicha pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha yangicha metodologiyani ishlab chiqish bugungi ilmiy tadqiqotlarning bosh maqsadiga aylanib ulgurdi.

Shuningdek, O‘zbekston Respublikasi ta’limi sohasida «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida belgilangan vazifalarning to‘laqonli amalga oshirishga erishish ham yoshlarda vatanparvarlik sifatlarini va fidoyilik xususiyatini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda yoshlarda harbiy-vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish va ijtimoiy maydonga vatanparvarlikni targ‘ib qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Misol uchun, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyatini shakllantirish maqsadida turli harbiy-sport musobaqalari, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda. «Mustaqillik», «Amir Temur», «Jaloliddin Manguberdi» ordenlari, «Jasorat», «Sodiq xizmatlari uchun», «Mardlik» medallari ta’sis etildi. Ayniqsa, yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berilishi fikrimizning yorqin dalilidir. 2017-2021-yillar va 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar va Taraqqiyot strategiyalarida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning beshta ustuvor yo‘nalishlaridan biri «Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat» qilib belgilanganligi Vatanparvarlikni chinakam e’tiqodga aylantirish bilan bog‘liq ilmiy muammolarni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Vatanparvarlik ijtimoiy ongini alohida shaxslarning va ijtimoiy guruhlarning, mazkur miqdor tavsifidan boshqa hech qanday o‘z sifatlariga ega bo‘lmagan individual ongi majmui sifatida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Vatanparvarlik alohida insonlarning ma’naviy ongining majmuidan iborat deb hisoblash xato bo‘lar edi.

Vatanparvarlik – ma’naviy-amaliy hodisa va shaxslar tomonidan yuzaga keltiriladigan jamiyatning vatanparvarlik ongi bilangina cheklanmaydi, ammo bunda yetarli mustaqillikni saqlashini ta’kidlab o‘tish lozim. Vatanparvarlik ongining mazkur shakllaridan har biri – ijtimoiy va individual – boshqasini nazarda tutadi va usiz mavjud bo‘la olmaydi, ularning o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro singishi ularning ajralmas umumiyligini anglatadi. Bularning barchasi milliy ongga ham xosdir.

Yuqorida keltirilgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi mohiyatiga tayanib, u o‘zining belgilangan chegaralari, sifatli tavsiflariga egaligini ta’kidlaymiz. Bu uning o‘ziga xos xususiyatlari, maqsadlari, vazifalari, yo‘nalishlari va vositalarini ajratishga imkon beradi.

Vatanparvarlik tarbiyasi jamiyatga nisbatan o‘zining yo‘nalganligi bo‘yicha o‘zining asosiy ijtimoiy vazifasini bajaradi, ya’ni inson omilining mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga faol, maqsadga yo‘nalgan ta’sir etadi.

Ijtimoiy nuqtayi nazaridan, ko‘rinib turganidek, biz tadqiq etayotgan tizimning tarbiyaviy vazifalari to‘g‘risida aytish mumkin. Ularga bizningcha, birinchidan, harbiy-siyosiy yo‘nalganlik va vatanparvarlik dunyoqarashini shakllantirishni kiritish kerak bo‘lib, uni amalga oshirish jarayonida insonlarda, yosh avlodda vatanparvarlik hissi, mamlakatning va Qurolli kuchlarning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda har bir insonning o‘z ijtimoiy rolini chuqur tushunishi, bu rolni fuqarolik va harbiy burchi sifatida anglash shakllanadi.

Ikkinchidan, bu insonning, ayniqsa yoshlarning harbiy mehnatga, o‘z Vatanini himoyalashga tayyorgarligini shakllantirish, harbiy xizmat ijtimoiy ahamiyatining chuqur anglash, Qurolli kuchlarga muhabbat, qiyinchiliklarga ma’naviy-psixologik immunitetni, harbiy faoliyatning favqulodda vaziyatlarida shaxs xulqining barqarorligini shakllantirish vazifasi.

Uchinchidan, vatanni qurolli himoya qilishda katta avlodning ijtimoiy tajribasining uzviyligini ta’minlashdan iborat bo‘lgan kommunikativ vazifani ta’kidlash lozim.

To‘rtinchidan, vatanni himoya qilish uchun zarur bo‘lgan axloqiy sifatlarni shakllantirishning muhim vazifasi, uning yordamida qahramonlik-axloqiy ma’naviy ideallar yuzaga keladi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida uchta asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

yuqori ta’lim-tarbiyaga asoslanadigan vatanparvarlik tarbiyasi;

jismoniy tayyorgarlik;

harbiy tayyorgarlik, ya’ni bo‘lajak askarga zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni egallash.

Harbiy kasblarni, muhim tarixiy sanalarni, Qahramonlik-vatanparvarlik tarbiyasi ajdodlarning jasoratlari uchun faxr-iftixor hissini tarbiyalashni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan.

Milliy-vatanparvarlik tarbiyasi o‘zining kichik Vataniga muhabbat hissini, milliy an’analar va madaniyatga hurmatli munosabatni shakllantiradi, o‘z xalqi uchun faxr hissini uyg‘otadi.

XX asr 80-90-yillarining oxirida harbiy-vatanparvarlik ishlarining keskin pasayishi, sobiq Ittifoqning yemirilishi va jamiyatda armiyaning obro‘si pasayishi oqibatida harbiy xizmatni o‘tashni xohlamaydiganlar soni o‘sishi va chaqiruv tarkibining sifati yomonlashishiga olib keldi.

Yurtimizda vatanparvarligining mohiyati, mazmuni, tuzilmasini va yoshlarning Vatan himoyasiga tayyorgarligini, uning mamlakat mudofaa qobiliyatini ta’minlashda tarbiya tizimidagi roli va o‘rnini chuqur va har tomonlama tahlil qilish zarurati yuzaga keldi.

Zamonaviy yoshlar vatanparvarligining ulkan imkoniyatlari va uni zamonaviy ijtimoiy hayot sharoitlarida samarasio‘ amalga oshirilishi o‘rtasidagi ziddiyatlar kuchaydi.

Jamiyatdagi islohotlar va Qurolli kuchlarni isloh qilish davomida fuqarolarning ongida armiyaga nisbatan ijobiy o‘zgarishlar paydo bo‘ldi. XXI asr boshida davlat Qurolli kuchlarga ko‘proq e’tibor qaratdi, ommaviy axborot vositalari esa – ularga obyektiv munosabatda bo‘la boshladi va oqibatda yoshlarning vatanparvarlik ongining o‘sishiga olib keldi.

Zamonaviy yoshlarda ularning xususiyatlari va manfaatlarini, jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni inobatga olib, vatanparvarlikni tarbiyalash bo‘yicha faoliyatni yaxshilash zarur. Shuning uchun bugun zamonaviy hayot voqeligidan kelib chiqib, yoshlarning turli toifalarida Vatan himoyasiga tayyorlikni tarbiyalash prinsiplari, metodlari, shakllari, vositalari asosida tuzilgan vatanparvarlik tarbiyasining yangi tizimini qurish va amalga oshirish kerak.

Xulosa qilganda Vatan himoyasiga tayyorgarlikni shakllantirish. ayniqsa zamonaviy sharoitlarda yosh avlod bilan amalga oshiriladigan katta ishlarni nazarda tutishini ta’kidlaymiz. Bu obyektiv amal qiluvchi– ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, harbiy-texnik omillarning mavjudligi bilan tasdiqlanadi.

Shubhasiz, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik ishlarini kuchaytirish bo‘yicha faoliyat bugungi kunda mahalliy, hududiy xususiyatlarni, shuningdek foydalaniladigan kuchlar va vositalarni avvalgidan ko‘ra ko‘proq inobatga olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б.452.

2. «Таълим тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. –Тошкент, Ўзбекистон, 23.09.2020. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.05.2018 й., 06/18/5430/1164-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. –Тошкент: Ўзбекистон, 463-I-сон 29.08.1997.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда).

5. Ватан ҳимояси – миллий ифтихор. Ўзбекистон Республикаси Президенти, Республика Қуролли Кучлар Олий Бош Қўмондони И.А.Каримов асарларидан олинган ҳарбий ватанпарварликка доир ҳикматли фикрлар мажмуаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2004. – 6 б.

HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

PhD Umarov G’.J.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Respublikamizda yoshlarimizni tarbiyalash tizimini to‘liq modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida, eng ilg’or, eng jonkuyar, vatanparvar, jamiyatimiz manfaatlariga sodiq, yoshlarimizni keng qamrovli o’rganish, jumladan ularni psixodiagnostik usullar bilan baholash hamda ularda harbiy-vatanparvarlik ruhini rivojlantirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar, ilmiy modellar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri ekanligi bayyon qilingan.*

Kalit so‘zlar: harbiy-vatanparvarlik, tarbiya, psixologik muammo, ilmiy modellar, individual-psixologik xususiyatlar.

Shu bilan birga, milliy qadriyatlarga, xalqlarning madaniyatiga va o‘zligiga bo‘lgan tahdidlar, yod g‘oyalarni singdirishga bo‘layotgan urinishlar kuchayib borayotgan globalizatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif

qatlam bo‘lib qolayotganligi sababli bu yo‘nalishda qo‘shimcha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinishi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda[1].

Shu o‘rinda, buyuk ajdodlarimizning ilm-ma’rifat va ta’lim-tarbiya sohasidagi benazir fikrlari, vatanga muhabbat, vatanparvarlik va barkamollik sari yo‘naltiruvchi g‘oyalari bugungi yoshlar taraqqiyoti uchun bebaho xazinadir.

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy “Inson mohiyati aqlda, aqlning mohiyati xatti-harakatda bilinadi”[2,32] – degan hikmatli fikrlari o‘tmishda yaratilgan va bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, yoshlarning kasbiy-shaxsiy, jismoniy tayyorgarligi va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni kasbga tayyorlash jarayonida ma’naviy-g‘oyaviy, vatanparvarlik va jismoniy yetukligiga e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Zero, ularni o‘zaro uyg‘un holda rivojlanishini ta’minlash yoshlardagi vatanparvarlik ruhini oshirishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’rifatparvar pedagog Abdulla Avloniy ham o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asari orqali yoshlarning ko‘p qirrali bilimlarga ega bo‘lishi, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, el-yurtiga sadoqat va uning tinchligi yo‘lida yaxshi kasbning sirlarini egallashi, bir tomondan ijtimoiy muhit va oilaviy sharoitga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, shaxsdagi g‘ayrat-shijoatga, xohish, intilish va iqtidor sifatlarining namoyon etilishi haqida o‘zining ilmiy pedagogik mulohazalarini bayon etilgan [3,55]. Bundan ko‘rinib turibdiki, tarixning barcha davrida yoshlarning kelajagi dolzarb masala sifatida e’tirof etilgan.

O‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yoshlarni milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarni asrash, ularni boyitish uchun harakat qila olish ko‘nikmalarini tarbiyalashga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik g’oyalarini targ’ib etuvchi qiziqarli tadbirlarning keng ko‘lam va yuksak saviyada tashkil etish an’anasini qayta tiklash. Yoshlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlarini yaxlit holda o‘rganilishiga erishish, mazkur jarayonni tashkil etishning samarali yo‘llari, omillari va vositalarini yetarli darajada o‘rganish muhim hisoblanadi. Demak, yoshlarda vatanparvarlik qadriyatlariga ega bo‘lishlarini ta’minlashda va bu jarayonni yaxlit tashkil etish, unda har bir samarali omildan maqsadli foydalanish, imkoniyatlarni ko‘ra olish va ularning samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega.

Yoshlardagi vatanparvarlikni ulardagi ichki motivatsion omil sifatida shakllanishi ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ularda vatanparvarlik qadriyatlarini

shakllantirish va hissiy motivatsion munosabatlarni tarkib toptirishda quyidagi shart-sharoitlarga amal qilish zarur deb hisoblayman:

vatanparvarlikni shakllantiririshda ijtimoiy hayot sharoitlari bilan bog‘lab olib borish;

yoshlarni ijtimoiy yo‘naltirish, ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan amaliy faoliyatni tashkil etish;

ijtimoiy onglilik va ijtimoiy hayot vaziyatlaridan to‘g‘ri yo‘l topib chiqa olish – ma’naviyatlilik, komillik belgisi ekanligini tushuntirish;

yoshlarda mas’uliyat, mustaqil fikrlash malakalarni shakllantirish;

o‘smirlik davri – o‘tish xususiyatlarini to‘g‘ri tushunish, ulardagi yosh va individual xususiyatlarni e’tibordan chetda qoldirmaslik.

Yoshlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida oiladagi sog‘lom munosabatlar katta ahamiyat kasb etadi. Oilada sog‘lom muhitning saqlanishi ko‘p omillarga bog‘liq. Masalan, ota-onalar bilan bolalarning o‘zaro yaxshi munosabati, katta avlod vakillariga hurmat, e’tibor, oiladagi farzandlarning o‘zaro munosabatlari to‘g‘ri tarbiyalangani, ota-onaning bolalari tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o‘rnatilgan to‘g‘ri tartib va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish kabilar shular jumlasidandir.

Shaxsda vatanparvarlikning psixologik tuzilmasini tadqiq qilgan V.N.Myasishchevning fikricha, vatanparvarlik komponentlari shaxsning davlatga, xalqqa va o‘z-o‘ziga nisbatan quyidagi munosabatlarida namoyon bo‘ladi[4,53]:

davlatga munosabat – davlat ramzlarini, davlatning tarixiy, madaniy an’analarini, davlat tilini bilish va ularga nisbatan munosabatda ko‘rinadi;

xalqqa munosabat – xalqning mentaliteti, qadriyatlari, asosiy xususiyatlarini anglash, vatanparvarlik, millatchilik, egotsentrizm, shovinizm tushunchalarining mohiyatini bilish, xalqning tinchlik va harbiy safarbarlik holatiga munosabat, xalq manfaatida vatanparvarlikni ifoda etishga ehtiyojini his qilishda ifodalanadi;

shaxsning o‘ziga vatanparvar sifatida munosabat – o‘zining huquqlarini, burch hamda majburiyatlarini bilishida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotchilar A.L. Juravlev va A.V.Yurevichlarning tadqiqotlarida vatanparvarlikning psixologik jihatini tavsiflashga harakat qilingan [5,88]. Mualliflarning ta’kidlashicha vatanparvarlik ko‘p komponentli tushuncha va hodisa bo‘lib, uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat ekanligini ta’kidlaganlar:

Vatanga muhabbat tuyg‘usi;

shaxsiy manfaatlaridan ko‘pchilik, omma manfaatlari uchun voz kechishga tayyorlik;

munosib xulq-atvor;

o‘z mamlakati, uning tarixi va xalqiga mansubligini his etish.

Tadqiqotchi J.Ramatovning ta’kidlashicha, o‘z taqdiri va kelajagi uchun qayg‘uruvchi har qanday jamiyat, har qanday mamlakat yoshlarga munosabat masalasida ularning hayotini ma’naviy boy, sermazmun qilish, xalqiga, Vataniga sadoqatli, har tomonlama yetuk, barkamol inson bo‘lib yetishishidan manfaatdordir [6,129]. Shuning uchun yoshlarning jismoniy, ma’naviy va intellektual qobiliyatlarini namoyon qila olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yoshlarimizning siyosiy ongli, ma’naviy barkamol, sharqona odob-axloqli, faol, mas’uliyatli, ona Vatanga sadoqatli bo‘lib yetishishi jamiyat va davlat taqdiri uchun g‘oyat muhimdir.

Qolaversa, “Zamonaviy harbiy xizmatchi imijining psixologik jihatlari” mavzusida psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan tadqiqot ishimga asosan “Harbiy xizmatchi imijining ijobiy psixologik sifatlari”ga mas’uliyatlilik, jamoaviy “Men”, qat’iyatlilik, sabr-bardoshlilik, faollik, jasoratlik, progressiv tip, ijobiy emotsional tip, muvozanatlashgan tip kabi psixologik sifatlar qatoriga vatanparvarlikning kiritilishi [7,116] yuqorida e’tirof etilgan ilmiy-psixologik ta’riflarning isbotini belgilaydi.

Xulosa kilib aytganda, mamlakatimizda yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari prinsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma’naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yunaltirilgan ta’limning mazmuni davlat ta’lim standartlari asosida isloh qilinishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlarni jonlantirish va faollashtirishda “oila – maktab – mahalla” shu uchlikning hamkorlikdagi faoliyati alohida sanaladi, shu bilan bir qatorda pedagoglarda ijtimoiy va psixologik bilimlarni ham talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-4375-son qarori.

2. Abu Nasr Forobiy., Fozil odamlar shahri. – T., 2008. – 32 b.

3. Islomov Z.M., Sirojiddinov Sh.S., O‘sarova F.X. Buyuk allomalar ijodida ahillik va bag‘rikenglik g‘oyalari. – T.: JIDU, 2005. – 38-57 b.

4. Мясищев В.Н., Социальная психология личности. – Л.: 1974. С. 53.

5. Журавлев, А.Л., Юревич А.В., Патриотизм как объект изучения психологической науки / А.Л. Журавлев, А.В.Юревич. // Психологический журнал. – 2016. – Т. 37. - № 3. – С. 88-98.

6. Ramatov J., Yoshlarda vatanparvarlik fazilatini shakllantirish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy vazifasi // O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi. – Toshkent, 2019, 129-131-b.

TALABA YOSHLARDAGI LIDERLIK XUSUSIYATLARINI KIBERNI HIMOYALASHDA FOYDALANISH

PhD Umarov G‘. J.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy hayot yoshlarga bir qancha talablarni, vazifalarni yuklashi sababli yoshlarda ijtimoiy munosabatlarga, insonlar bilan o’zaro munosabat faol qo’shilish va iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda va boshqa sohalarda ilg’or bo’lish kabi vazifalarni yuklagan holda talaba yoshlardagi liderlik xususiyatlarini kibernimoyalashda foydalanish bo‘yicha takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: liderlik, talaba yoshlar, xususiyat, kibernimoya, foydalanish.

Lider bu – oilani, jamoni, jamiyatni oldinga yetaklovchi shaxsdir. Yo’l boshlovchi, qiyin vaziyatlardan olib chiquvchi, o’z jamodoshlariga yordam, ko’mak beruvchi shax hisoblanadi. Yetakchilik - bu ma'lum bir vaziyat uchun turli xil jamiyat manbalarining eng samarali kombinatsiyasiga asoslangan va odamlarni umumiy maqsadlarga erishishga undashga qaratilgan boshqaruv o'zaro ta'sirining bir turi. Yetakchilik har kimning sa'y-harakatlarini tashkilot maqsadlariga erishishga yo'naltirish orqali shaxsga ham, guruhga ham ta'sir o'tkazish qobiliyati. Lider deganda faqat insonlar ustida yetakchilik qilib, ularga o’z so’zini o’tkaza olish va biror ishni amalga oshirishi emas, balki insonning vijdonan amalga oshiradigan faoliyati hamda vijdonan qabul qiladigan qarorlarini ham tushunish mumkin.

Lider talaba yoshlar qanday bo’ladi va qanday bolishi kerak ularning qanday xususiyatlari bor degan savollar tug’ilishi tabiiy. Lider talaba qanday bo’lishi kerak

degan savolga quidagicha javob berishga harakat qilamiz. Lider talaba o’zining ilmi, aql zakovati, harakatchanligi bilan ajralib turadi. Bunday talabalar o’z kelajaklarini ozlari mustaqil yarata olishadi. Yo’lidagi qiyinchiliklarni oqilona bartaraf etishga harakat qiladi. O’z jamoadoshlariga yordamlashadi.

Xozirgi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini, shu jumladan ta’limni rivojlanishini “Media” (ya’ni: televidenie, radio, kinomatografiya, ommaviy nashrlar, kompyuter axborot tizimlari)siz tasavvur qilish qiyin. Axborot makonini globallashuvi va uning “ochiqligi” zaminida yangi bilimlar, faktlar, qarashlar, konsepsiyalarning oqimi shiddat bilan ortib bormoqda va ommaviy axborot kommunikatsiyalari orqali berilayotgan axborotlardan foydalanish muammosi paydo bo‘lmoqda. Hozirgi kunda axborotlarning mazmunini ham, ularni ommaviy axborot tarmoqlari orqali tarqatish usullari va yo‘llarini ham nazorat qilish amalda qiyin bo‘lib bormoqda.

Axborotning bunday xilma-xilligi ta‘sirida talaba yoshlarning mustaqil ravishda tafakkur qilishi muammosi, uning qarashlarini, qadryatlarini va ideallarini shakllanishi masalalari yoshlar ongida axborot olamini tartibga solish yo‘llarini izlashni, axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko‘nikmalari tizimini ishlab chiqish va shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu esa yoshlarda o‘ziga xos xususiyatlarni shakllantirish va ular orqali turli yot axborot xurujlardan himoyalash muhimdir.

Talabalar orasida yetakchilikka intilish kuzatiladi.. Ular har sohada o’zlarini ko’rsatishadi. Guruhdoshlari bilan biron bir masalalarga yechim izlayotganlarida o’zlarining ajralib turuvchi yechimlari bilan o’rtaga chiqadilar. Lider talabaning bir qancha xususiyatlarini sanab o’tadigan bo’lsak ular quyidagilardir:

birinchidan, lider talabada jamoadoshlariga nisbatan bilimliroq, aqilliroq bilim ko’lami, dunyo qarashi keng bo’lishi kerak.

ikkinchidan, yetakchi talaba turli vaziyatlarda o’z jamoadoshlarini to’g’ri vaziyatga olib chiqa olishlari, qiyinchilikka duch kelgan jamoadoshiga yordam bera olishi kerak,

uchinchidan, jamoani boshqara olishi, democrat bo’lishi kerak. Shu va boshqa xususiyatlarga ega bo’lishlari kerak.

Har qanday aqilli, bilimli talaba lider bolavermaydi. Lider bo’lish uchun bu xususiyatlari o’zi yetarli bo’lmaydi.

Lider talabalarning muhim xususiyatlaridan yana biri, ularning nutqidir. Lider talabalar o’zlariga ishonch bilan nutq qiladilar. O’zlarining nutqlari bilan

jamoadoshlarining orasida bir qarorga kelishlariga turtki bo’ladi. Ularning nutqida aniqlik, birnon bir masalaga yechim bo’ladi.

Afsuski, bugungi kunda axborot xavfsizligi shaxsiy va psixologik xavfsizlikka ham xavf solayotganini kuzatishimiz mumkin. I. A. Bayevning ta'rifiga ko'ra, "shaxsiy xavfsizlik" tushunchasi bu- shaxsning hayotiy manfaatlarini himoya qilish holati. Psixologik xavfsizlik- ta'lim muhitining holati, shaxsiy va ishonchli muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirishga hissa qo'shadigan o'zaro munosabatlardagi psixologik zo'ravonlikdan ozod bo‘lishi, atrof-muhitning ahamiyatini va ruhiy salomatlikni ta'minlashning namoyon bo'lishi, jumladan unga yuqoriday ishtirokchilarni yaratuvchi ham kiritilgan" [1, 172-bet].

Yurtimizda haqiqatdan ham internet nazorat qilinmaganligi sababli, har kim oddiy harakatlar va so'rovlar kombinatsiyasidan foydalangan holda har qanday ma'lumotni topishi mumkin. Bularning barchasi bizning axborot va psixologik xavfsizligimizga juda kuchli ta'sir qiladi. Natijada ko‘plab yoshlar jumladan talabalar ham ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlar bilan o‘tkazishmoqda. Bu birinchi navbatda mustaqil ta‘lim uchun ajratilishi kerak bo‘lgan vaqtni bexudaga sarflash, berilgan topshiriqlarni bajarishni sifatini tushishi, ya’ni shunchaki tezroq internetda biror qiziqarli film yoki rolik tomosha qilishga shoshilish oqibatida vazifalarni ko‘r- ko‘rona yakunlash, yoki o‘qituvchi maruzasini tinglash o‘rniga orqa o‘rindiqda internet tarmog‘iga bog‘lanib mashg‘ulotni o‘tkazib yuborishday salbiy oqibatlarni xam keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari ko‘plab talaba-yoshlar turli notog‘ri propaganda ta’sirida, ta’qiqlangan saytlar,kanallar ko‘rish va kirish natijasi bilib- bilmay notog‘ri oqimlarga kirib qolish xolatlari ko‘p uchramoqda. Chet elda katta pul topishni, xorijda ish va o‘qishga olib kirib qo‘yishni va’da qilib ayni gulday o‘smir yoshida firibgarlar tuzog‘iga tushib qolayotgan yoshlar ham kam emas. Ular orasida lider yoshlar ham bor.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, lider talabalar har tomonlama yetuk bo’lishlari va o‘zlarini turli axborot xurujlaridan himoyalashlari kerak. Bu ularning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Lider talaba qachonki o’z ustida ishlasa, o’z bilimlarini oshirib borsagina o’zi istagan darajada jamiyatda o’z o’rnini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баева, И. А. Психологическая безопасност в образовании / И. А. Баева. Психологическая безопасност в образовании. Санкт-Петербург: Союз. 2002. 172с.

2. Байлук В.В. Человекознание Самообразователная и самовоспитателная реализация личности как законы успеха. Экатеринбург, 2012.

3. Saidjanov F.M. Axborot-psixologik xurujlarning ta’sir prinsiplari va ularga ilmiy yondashuv mexanizmlari. Journal of new century innovations - International scientific electronic journal.ISSN (p): 2181-3671 Volume–18_Issue-2_December_2022. 119-120

4. Internet ma’lumotlari.

YOSHLARNI VATAN HIMOYASIGA SAFARBAR ETISHDA NOTIQLIKLIKNING AHAMIYATI

Inxonova A.A.
Toshkent Alfraganus universiteti

Annotatsiya*: Bu maqolada notiqlik orqali insonlarni boshqarish, nutq rivojida kitobning o’rni, notiqlik san’atidagi top uchta xato, notiqni nutqiga baho berish, hikoya va fakt, notiqlik madaniyati, borasidagi mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so’zlar: Notiqlik, hikoya, fakt, parazit so’zlar,time keper, I kontakt, audiotoriya, nutq rivojida kitobning o’rni.

Notiqlik bu - o’z fikr va g'oyalarni aniq, tushunarli va jozibali tarzda ifodalash san'ati. Bu, nafaqat auditoriya bilan aloqada bo'lish, balki odamlarni motivatsiya qilish, ularga ta'sir ko'rsatish va ularni biror maqsadga yo'naltirish qobiliyatidir. Notiqlikda quyidagi asosiy jihatlar muhim: Aniq va tushunarli ifoda: O'z fikrlaringizni aniq va sodda tarzda ifodalash. Emotsional ta'sir: Auditoriyaning hissiyotlariga ta'sir ko'rsatish orqali yanada kuchliroq aloqalar o'rnatish. Ishonch va ishtiyoq: O'zingizga va aytayotgan g'oyangizga ishonch hosil qilib, boshqalarga ham shu ishonchni berish.

Notiqlik o’zi aslida juda katta qurol. Eski davrlarda ya’ni sovet tizimi davrlarida notiqlikda ya’ni retorika deymiz, ya’ni chiroyli gapira olish san’ati taqib etilgan, taqiqlangan.Chunki ular juda yaxshi anglagan retorika bilan ommani boshqarish mumkin, retorika bilan ommaga ta’sir ko’rsatish mumkin. Tabiat bunday imkoniyatga ega bo’lgan insonlar ham deylik tug’ma estidodli odamlar ham o’sha siyosat,maanfatlariga hiuzmat qilgan. Bugungi kunda esa jamiyatlar rivojlanayapti, xatto chegaralar yo’q bo’lib ketyapdi ,va notiqlikka bugungi kunda har qachongidan ehtiyoj bor. Chunki inson o’zini qayergadir tashrif bo’yurib taqdim etmoqchimi, albatta tilga va nutqga murojaat qiladi. Siz o’ziningizni taqdim etmoqchisiz albatta nutqingiz

ravon bo’lishi lozim. Siz o’zingizga ishonmaysiz nimaga? Chunki sizda sof talaffuz yo’q, ravon nutq yo’q. Aslida nutq nimalarga asoslanadi? Birinchi navbatda ishonchga asoslanadi. Aslida hayotda bizni ishonch boshqaradi. Ya’ni biz ishonsakgina o’zimizga , bilimizga avvalo Alloh, lekin bilim va tajribasi bo’lmagan inson ko’pchilokni ishontirolmaydi. Ishontira olsa ham uzoqmuddat ergashtira olmaydi. Demak kishida ishonch bo’lsa, bilim, tajriba bo’lsa, sof talaffuz va ravon nutq bo’lsa u odam be’malol notiq bo’la oladi. Ya’ni agarda siz notiq bo’lmoqchi ekansiz agar gapira olsangiz bilingki siz notiq bo’lasiz faqat buning uchun sizga ishonch kerak bo’ladi.

Notiqlikning o’zining sirlari bor, tamoyillari, xatolari bor. Masalan auditoriya oldiga chiqdingizmi eng ko’p uchraydigan xatolardan biri bu – “I kontakt” ni ushlasdan omma bilan gaplashadiganlar bor. Bu xato ya’ni ko’z orqali omma bilan gaplashmaydi. Asosiy energetik oqimda tushum turadigan nuqta bu -ko’z. Omma bilan ko’z orqali muloqot qilasiz. To’g’ri gapirasiz lekin bu narsa sinab ko’rilgan. Agar notiq auditoriyaga qaramasdan yerga qarab, shiftga qarab, yonga qarab gapiradigan bo’lsa taxminan to’rt daqiqada audiotoriya zerikishni boshlaydi. Chunki u ko’z kontaktini joyiga qo’ygani yo’q. muloqot yo’q orasida, ko’z bilan muloqot qilmayapdi. Yana bir xató bor bu – qo’llarni yashirib olish holati. Ummuman qo’l harakarlaridan foydalanmaslik xatosi ko’p uchraydi. Yana bittasi bu – audiotoriya bilan hamkorlikda ishlamaslik. Masalan: keladi,o’zini tanishtiradi , mavzuni e’lon qiladi, gapiradi, xayrlashadi, ketadi. Ya’ni hamkorlikda ishlab audiotoriyani jonlantirib, boshqarish uchun imkoniyat sizga. Sizda o’sha keysni o’rtaga chiqarib qanaqa bo’lgan bu vaziyat? Siz bu haqida nima deb uylaysiz? Sizning fikringiz qanday? Bu haqida deb audiotoriyani jonlanishi u e’lon qilgan mavzuning ahamiyatini yanada oshiradi. Ammo ko’pchiki bu jihatga e’tibor bermaydi. Sanasak xatolar ko’p ammo asosiy keng tarqalgan xatolar.

Notiqni beshta inson baholaydi:

1. Parazit so’zlarni qidiruvchi inson. Ya’ni nutqi davomida kuzatilayotgan -i, -ha, -haligi, -boyagi, -him, -pauzalar, tanaffuslarni hisoblab o’tiradi oxide nutqingiz tuganidan keyin hisobot topshiradi. Falonchi falonchiyev siz shuncha -i qib quydiz deb.

2. Time keper – ya’ni vaqtga qaraydigan inson vaqtida tugatishingizni talab qiladi.

3. I kontakt – ya’ni audiotoriyaga qarayapsizmi? yoqmi? U o’zi qanday bo’ladi 15% o’ngga, 15% chapga, 70% o’rtaga qarash kerak. Jertukulyatsiya – jeslar qanday bo’ladi, qo’l harakatlariga qaraydi.

4. Kantentga qaraydi. Matnga, ma’noga ya’ni gapirayotgan gapimizni ma’nosi bo’lyapdimi? bir-biriga ulayapdimi? Bir bog’dan, bir tog’dan kelmayapdimi? bitta mavzuni ochib qo’yib keyin boshqa mavzuga o’tlab ketib bu ochiq qolib ketmaydimi? Yoki yopib qo’ydimi ? mohiyatiga qaraydigan inson.

5. Umumiy juriy. Butun boshly notiqga va uni nutqiga, baho beradigan umumiy juriy.

Insonga hikoya ko’proq ta’sir etadimi, yoki faktmi? Bitta savol tug’iladi ming yil oldin tug’ildingiz tasavvur qiling. Ishdan qaytib keldingiz, oilaviy o’tiribsiz. Nima ish qilasiz kechasi? Dasturxon atrofida o’tiribsiz nima qilasiz? Televizor yoq, svet yo’q, internet yo’q, hech narsa yo’q. Kimni buvisi yoki buvasi necha necha betlab dostonlarni yoddan bilgan. Qarang bu nechi yil necha yildan insoniyatni qon qoniga singib kelayotgan narsada. Ya’ni voqealar,hikoyalar va boshqalar. Fakt - aqlga ta'sir qiladi, badiiy buyoq hissiyotga ta'sir qiladi. Bizni aqlimizdan ham ko'ra hissiyotlarimiz qaror qabul qilishimizga ta'sir qiladi. Bu degani faqat hikoya aytishimiz kerak degani emas. Ikkalasini birdek olib borishni urganing. Faqat bitta manitoniyada faktda gapiradigan bo'lsangiz auditoriyani bor yo'g'i 5-10 foiz qismini yoki bitta odamni 5-10 foiz diqqatini jalb qilolasiz xolos. Boshqa narsa bilan chalg‘ib o'tiradi. Agar o'sha faktlar vizual effektga ya'ni prizetetsiya bilan bo‘ladigan bo‘lsa o‘shanda 25-30 foizga chiqish mumkin. Lekin badiiy buyoq bilan voqeliklar bilan boshlaydigan bo'lsangiz siz 65-70 foiz diqqatini tortasiz. Sizni qiladigan nutqingizda lirik chekinishlar bo'lishi kerak. Har 20 daqiqada hech bo'lmasa auditoriyani bir uyg‘otib olishingiz kerak bo'ladi. Bular bo'lishi mumkin latifalar, chiroyli hikoya, mavzuga oid ,mavzudan tashqarida bo'lishi mumkin, farq yo'q lekin qiling. Eng zo'r notiq bo'lgan taqdiringizda ham auditoriyani 20 daqiqa bitta narsani ustida ushlab turolmaysiz qiyin. Tarixda katta katta prezidentlar ham bu ishni qilolmagan. Nutqni rivojida asosiy o'rinlardan biri bu kitob. Kitobsiz men notiq bo'ldim deganlarni yuzdan biridir. Hamma mavzudagi kitoblar ham sizni notiqga aylantirolmaydi. Lekin notiq bo‘lmoqchimisiz kitoblardan qo'l uzmaslik kerak. Qaysi yo‘nalishdagi kitob deydigan bo'lsak so‘zsiz kitoblar. Marketing biznes shaxsiy rivojlanish kitoblar o'qilishi mumkin ular sizni bilim salohiyatingizni oshiradi. Nutqingizni emas. Chunki aynan badiiy uslubda ko‘p sinonimlar tasviri kuchli bo'ladi. Shu sababdan ham aynan badiiy kitoblar insonni

tafakkurini, imkon niyatlarini, tasvir imkoniyatlarini rivojlantiradi. Chunki u yerda shunday bir tasviriy ifodalardan foydalanilgan holda vaziyat,holat, muhit tasvirlanadi. Bevosita uni o'qiyotgan inson o'sha holatlarni tasavvur qiladi. Tasavvur qildingizmi demak tasavvur olami shakllanadi. Tasavvur olami shakllandimi sizda tasvir imkoniyati rivojlaniladi. Va o'sha tasvirlangan narsalarni yoki ularga kelib chiqqan holatlarni yoki ularga foydalanilgan hollarda siz nutqingizni boyita olish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Demak siz nutqingizni rivojlantirish imkoniyatlariga egasiz. Shu sababdan ham agar kim kitobdan qo‘lini uzsa bilsinki u maqsadiga yetolmaydi agar notiq bo'laman deysa yo'lga chiqqan bo'lsa yonida kitob bo'lmasa manziliga yetolmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A Karimov aytganlaridek, “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatinig ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har handay millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar”. Globallashuv asrining talabi ham aynan yosh yetishib kelayotgan har qanday kasb egasining jamoat oldida o‘zini tutish, liderlik mahorati, nutq ravonligi, omma oldida fikrini erkin va aniq bayon eta olish, shu jumladan, uni tinglayotganlarga o‘z mavzusini yetkazib berish kabi ko‘nikmalarni taqozo etadi. Ritorika ham ana shu ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda va bu yo‘lda uchraydigan muammolarni bartaraf etishda ko‘makchi bo‘ladi. Bugungi kunga kelib, ko‘pgina ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalar, xatto pedagoglar nutqida ham xato va kamchiliklar kuzatiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda ritorika fanining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ommani nutq salohiyatini oshirish;
- Ma’naviy va madaniy saviyasini yuksaltirish;
- Jamoat oldida o‘zini tutish;
- Etika va estetika qoidalariga amal qilish;
- Notiqni o‘ziga bo‘lgan ishonch va bilimini oshirish.

Shu bilan bir qatorda, ritorika tarixi haqida to‘liq ma’lumot berish va olimlar, adiblar hamda so‘z ustalarining nutqiy faoliyatidan tajriba orttirish singari maqsadlarni ilgari suradi. Bundan tashqari, ritorika – amaliy jihatdan chiroyli muomala qilish madaniyati va sahnada lider bo‘lish san’ati, chiroyli nutq qonun-qoidalari, sirlari, til me’yorlari hamda nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan nuqson va talaffuzga doir muammolarni hal etish yuzasidan bahs yuritadi. So‘z va nutq orqali inson ruhiyatiga ta’sir etish va uni davolash mumkin. Insonning muomalasi – xulq-atvorining ko‘zgusi demakdir. Bundan ko‘rinib turibdiki, har qanday insonni qanday xulq egasi ekanligini

bilish uchun, avallo, uning atrofidagilarga qilayotgan muomalasiga e’tibor berish lozim. Shuni hisobga olib aytish mumkinki, har bir insonning o‘ziga yarasha xarakteri bor va shunga qarab jamoat oldida o‘zini namoyon qiladi.

Xulosalar va takliflar. Bugungi kunga kelib, notiqlik san’ati sohasini o‘rganishga bo‘lgan talab kuchayib bormoqda. Sababi har qanday kasb egasi nutq davomida o‘ziga bo‘lgan ishonchi yuroqi bo‘lish, qisqa va aniq nutq so‘zlash hamda liderlik mahorati orqali boshqalarga ta’sir o‘tkazish mumkin. Ritorika sohasidagi izlanishlar shuni xulosa qiladiki, professional orator bo‘lish istagida bo‘lgan har qanday shaxs o‘z ustida ko‘proq ishlashi, tajriba qilib ko‘rishdan qo‘rqmasligi, eng muhimi auditoriyaga manfaatli bo‘ladigan ma’ruza tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://youtu.be/c6vQjAs6gWc?si=j9nxXgJ_b03rAle7
2. https://youtu.be/7psc8Yu1j80?si=IVqSzWgoGOeUTRGO
3. https://youtu.be/wvEiu3pXils?si=UcJxdKNMZofHZ17c
4. https://youtu.be/MgKR2Z91sE4?si=5AHJH3seGdnTxZvS
5. https://youtu.be/8lGj-reBRDs?si=Buuxa2wPOjKbxei7
6. Qosimov B., Ismoilbek G. -T.: “G‘afur G‘ulom” nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi, 1992. – B.34.
7. Muhammadjonova L.A. – Ritorika, T.: 2019. – B.3 – 4 – 5 – 6

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SAMARALI LIDERLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Z.M.Xusanbayeva Toshkent Amaliy fanlar universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Email:ziyodaxusanboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlarida liderlik fazilatlarini shakllantirishning psixologik asoslari yoritilgan. Xodimlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida liderlik ko‘nikmalari, mas’uliyat, tashabbuskorlik, jamoani boshqarish qobiliyati kabi fazilatlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Psixologik nazariyalar, yetakchilik uslublari hamda ularni amaliyotga tadbiq etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Liderlik, psixologik asoslar, ichki ishlar organlari, rahbarlik fazilatlari, kommunikatsiya, motivatsiya, tashabbuskorlik,jamoani boshqarish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ЭФФЕКТИВНЫХ ЛИДЕРСКИХ НАВЫКОВ У СОТРУДНИКОВ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ

Аннотация. В данной статье освещаются психологические основы формирования лидерских качеств у сотрудников органов внутренних дел. Анализируется значение таких качеств в личностном и профессиональном развитии сотрудников, как лидерские качества, ответственность, инициативность, умение управлять коллективом. Будут рассмотрены психологические теории, стили руководства, а также способы их применения на практике.

Ключевые слова: лидерство, психологические основы, органы внутренних дел, лидерские качества, коммуникация,мотивация, инициатива, управление коллективом.

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF EFFECTIVE LEADERSHIP SKILLS IN LAW ENFORCEMENT OFFICERSANNOTATION.

This article covers the psychological foundations of the formation of leadership qualities in employees of internal affairs bodies. The importance of such qualities as leadership skills, responsibility, initiative, ability to manage a team is analyzed in the personal and professional development of employees. Psychological theories, leadership styles and ways to introduce them into practice are considered.

Keywords: leadership, psychological foundations, internal affairs bodies, leadership qualities, communication, motivation, initiative,team management.

Kirish

Bugungi globallashuv va tezkor o‘zgarishlar davrida ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida liderlik fazilatlarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tashkilotning samarali ishlashi, ichki intizomning ta’minlanishi, jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratish va fuqarolarga sifatli xizmat ko‘rsatishda liderlik ko‘nikmalari yetakchi o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, murakkab va tahlikali vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, tashabbus ko‘rsatish va jamoani boshqarish qobiliyati zamonaviy ichki ishlar xodimidan yuqori psixologik tayyorgarlikni talab qiladi.

Bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, ichki ishlar tizimi xodimlaridan nafaqat yuqori kasbiy bilim va malaka, balki kuchli psixologik

tayyorgarlik, jamoani boshqara olish, muammoli vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi liderlik sifatlariga ega bo‘lish talab etiladi. Aholi xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolar bilan samarali muloqot o‘rnatishda liderlik fazilatlari asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Yangi islohotlar, ijtimoiy faollikning oshib borishi va ichki ishlar tizimidagi ochiqlik siyosati sharoitida har bir xodimning shaxsiy salohiyati va rahbarlik qobiliyati xizmat samaradorligini belgilovchi muhim mezonga aylanmoqda. Ayniqsa, zamonaviy psixologik yondashuvlar va diagnostika vositalari yordamida liderlik kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunga qadar ichki ishlar organlari xodimlarining liderlik fazilatlarini shakllantirishga doir psixologik tadqiqotlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu sababli mazkur maqola ichki ishlar tizimidagi mutaxassislar salohiyatini kuchaytirish, ularning ruhiy barqarorligini oshirish va jamoada sog‘lom muhit yaratishga hissa qo‘shadi. Maqolada ilgari surilgan g‘oyalar va ilmiy asoslangan takliflar amaliyotga joriy etilsa, ichki ishlar organlari faoliyatida sifat jihatidan yangi bosqich yuzaga keladi.

Shu bois, ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan xodimlarda liderlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishning psixologik asoslarini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu tadqiqotda liderlik tushunchasining psixologik talqini, uni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar, shuningdek, amaliyotda qo‘llanilayotgan usullar chuqur tahlil qilinadi. Maqsad – xodimlarda rahbarlik salohiyatini oshirish orqali ichki ishlar tizimining umumiy samaradorligini kuchaytirishga hissa qo‘shishdan iborat.

Kasbiy jihatdan muhim bo’lgan bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirish xodimlar faoliyatining samaradorligini ta’minlaydi. Ularga kasbiy ziyraklik, idrok, kuzatuvchanlik, xotira, tafakkur va tasavvur kiradi. Ushbu xislatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar xodimlarning kasbiy jihatdan muhim ma’lumotlarni esda

olib qolish, esda saqlash va qayta esga tushirish samaradorligini oshiradi, mantiqiy fikrlash va ijodiy tasavvurlarini rivojlantiradi.

Turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa o’rnatish uquv mahorati hamda ko’nikmalarini takomillashtirish va rivojlantirish. Psixologik tayyorgarlik davomida xodimlar psixologik aloqa o’rnatish usullari va yo’llari tizimini egallashlari kerak. Ularda notanish kishilar bilan tezda aloqa o’rnatish va ularni o’ziga moyil qilish, odamlarning fikrini eshita olish, muloqot jarayonida psixologik to’siqlarni enga olish mahorati shakllangan bo’lishi kerak. Psixologik tayyorgarlik xodimlarning psixologik aloqa o’rnatish jarayonini engillashtirishga imkon beruvchi muayyan qoidalarni o’zlashtirishlarini taqozo etadi.

Hamkasblar bilan muloqotga kirishishning murakkab, nizoli vaziyatlarida ta’sir etishning psixologik usullarini qo’llash mahoratini takomillashtirish. Xodimlarda nizoli vaziyatni bartaraf etish mahoratini shakllantirish, ularga nizolarni hal qilish usullarini o’rgatish juda muhim. Xodimlar faoliyatining samaradorligi ko’p jihatdan odamlarga psixologik ta’sir ko’rsatishning ishontirish, majburlash, rag’batlantirish singari muayyan usullaridan mohirlik bilan foydalanishlariga bog’liq. Xodimlarda nizoli vaziyatda o’zini tutish, turli taktik usullarini qo’llash hamda nizoli vaziyatdan operativ maqsadda foydalanish ko’nikmalari ham shakllangan bo’lishi kerak.

O’zini tuta olish, psixologik barqarorlikni shakllantirish. Xodimlar kundalik amaliy ishlarida kasbiy harakatlarini bajarish sifatiga ta’sir etishi mumkin bo’lgan ko’plab noqulay psixologik holatlar ta’siriga duch keladilar. Psixologik barqarorlik xodimlarning salbiy holatlar ta’siriga berilmaslik qobiliyatida namoyon bo’ladigan psixologik tayyorgarlikning muhim ko’rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. Bu o’rinda xizmat vazifalarini bajarish chog’ida mazkur qiyinchiliklarni oldindan ko’rish qobiliyatini shakllantirish muhim. Psixologik barqa- rorlikning shakllanganligi xodimlarga eng qiyin psixologik sharoitda o’z vazifalarini kamchiliksiz bajarishlariga

yordam beradi. Bunga mashqlar va amaliy mashg’ulotlar jarayonida og’ir vaziyatlarni modellashtirish yo’li bilan erishish mumkin.

Shaxsning ijobiy hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish, xodimlarga o’zini tutish va boshqarish usullarini o’rgatish. Xodimlarning psixologik barqarorlik va og’ir vaziyatlarda o’zini tuta bilish qobiliyati ularda mas’uliyat, muvaffaqiyat-sizlikka chidash, tavakkalga moyillik va barqarorlik, o’zini boshqara olish, sobitlik kabi muayyan hissiy-irodaviy xislatlarni shakllantirishni taqozo etadi. Xodimlar o’z xatti-harakatlari va his-tuyg’ularini nazorat qilish va boshqarish olishlari shart. Ular mashg’ulot va mashqlar jarayonida o’zlarini boshqarish, asabiy zo’riqishni yo’qotish, ichki imkoniyatlarni qo’yilgan vazifani bajarishga safarbar qilish usullarini egallashlari kerak.

Irodaviy faollik va irodaviy harakat ko’nikmalarini shakllantirish. Ish faoliyatida qiyinchiliklar va to’siqlarga duch keladilar. Bunday vaziyatlarda ular ushbu qiyinchilik va to’siqlarni engishga undovchi irodaviy faollikni namoyish etishlariga to’g’ri keladi. Irodaviy harakat ko’nikmalarini rivojlantirishga mashg’ulotlar jarayonida qo’yilgan vazifani bajarishga to’sqinlik qiluvchi muayyan elementlar, to’siqlar kiritish yordam beradi. Bunday mashqlar jarayonida to’plangan irodaviy faollik tajribasi shaxs irodasini, irodaviy xislatlarini rivojlantirishga ta’sir etadi.

Ishdagi ruhiy zo’riqishlarga tayyorlik. Muxandis xodimlar faoliyatiga xos xususiyatlardan biri shundaki, ta’sir etuvchi omillar ko’pincha stress holatini keltirib chiqaradi, asab tizimiga haddan tashqari katta og’irlik tushadi. Bu, o’z navbatida, ular amalga oshiradigan faoliyat samaradorligiga katta ta’sir ko’rsatadi. Shu bois xodimlar ushbu jarayonlar kechishining asosiy qonuniyatlari hamda qisqa vaqt ichida ish qobiliyatini tiklash va ortiqcha asabiy zo’riqishni bartaraf etishga yordam beradigan usullar (psixologik boshqaruv mashqlarini bajarish usullari) bilan tanish bo’lishlari lozim.

Turli kasblarning psixologik tuzilishida bilish faoliyati turli mazmunga ega bo’lishi mumkin. Bu bilish faoliyatining o’ziga xosligini belgilab beruvchi maqsad, ob’ekt, sharoit va usullarga bog’liq. Ichki ishlar organlari faoliyatdagi bilish jarayoni ham o’ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

Bularning hammasi xodimlarda kasbiy jihatdan muhim bo’lgan va bilishning samaradorligini ta’minlaydigan xislatlarni rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Muxandis xodimlarda bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirishda maxsus trening katta ahamiyat kasb etadi. Trening jarayonida mazkur xislatlar rivojlantiriladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarida liderlik fazilatlarini shakllantirish masalasiga doir psixologik, sotsiologik va boshqaruvga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu yo‘nalish bo‘yicha ko‘plab nazariy yondashuvlar mavjud, biroq ularning amaliyot bilan uyg‘unlashgan kompleks shakli yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Liderlik nazariyasining psixologik asoslari G. Mintsberg, D. Goulman, K. Levin, B. Bass, J. Kuper kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Jumladan, D. Goulman tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt konsepsiyasida rahbar shaxsida empatiya, o‘zini boshqarish, ijtimoiy ko‘nikmalar kabi fazilatlarning mavjudligi samarali liderlikning muhim omili sifatida ko‘rsatiladi. K. Levin esa liderlik uslublarini demokratik, avtoritar va liberal shakllarda tasniflab, har biri turli vaziyatlarda qanday samaradorlikka ega bo‘lishini tahlil qilgan.

Mahalliy tadqiqotchilardan T. Ibragimov, N. Yusupov, M. Rasulov, D. Nazarovlarning ishlarida O‘zbekiston sharoitida boshqaruv tizimida inson omilining o‘rni, xodimlarning shaxsiy fazilatlari va kasbiy motivatsiyasi muhimligi haqida so‘z yuritiladi. Ularning fikriga ko‘ra, ichki ishlar xodimlarining liderlik fazilatlari xizmat samaradorligining bevosita mezonidir.

So‘nggi yillarda ichki ishlar tizimi islohotlari doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi “Ichki ishlar organlari faoliyatini samarali tashkil etish va xodimlarning

kasbiy tayyorgarligini oshirish to‘g‘risida”gi qarori mazkur yo‘nalishda zamonaviy yondashuvlar joriy etish zarurligini ta’kidlaydi. Mazkur hujjatda xodimlarning ruhiy barqarorligi, muloqot madaniyati va tashabbuskorligini oshirish uchun psixologik treninglar va individual yondashuvlar muhim deb topilgan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud nazariy manbalar muayyan asos yaratib bergan bo‘lsa-da, ular ichki ishlar tizimidagi xodimlarning real xizmat sharoitlariga moslashtirilgan kompleks modelini taklif etmaydi. Shu bois ushbu maqolada ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga, ya’ni liderlik fazilatlarini shakllantirishning tizimli va psixologik asoslangan yondashuvini ishlab chiqishga e’tibor qaratildi.

Xulosa

Ichki ishlar organlari xodimlarida liderlik fazilatlarini shakllantirish ularning kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim omillardan biridir. Tahlillar asosida aniqlanishicha, rahbarlik salohiyatini belgilovchi asosiy psixologik komponentlar – tashabbuskorlik, emotsional barqarorlik, kommunikatsion ko‘nikmalar, ijtimoiy faollik va qaror qabul qilishdagi mustaqillikdir. Ushbu sifatlar xodimlarda turlicha darajada rivojlangan bo‘lib, ularni tizimli tarzda rivojlantirish zarur.

Liderlik fazilatlari ko‘p hollarda xizmat davomida tabiiy ravishda shakllanadi, biroq bu jarayonni tezlashtirish va samarali yo‘naltirish uchun psixologik treninglar, mentorlik (murabbiylik) tizimi, shaxsiy rivojlanish dasturlari, xizmat oldi va xizmat davomida psixodiagnostik baholashlarni yo‘lga qo‘yish lozim.

Foydalangan adabiyotlar

1. G‘ulomov S. S. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2019. – 284 b.

2. G‘aniyev B. T., Karimov B. B. Kasbiy psixologiya. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021. – 256 b.

3. Xusanbayeva Z. TASHKILOTDA MOBBING VA UNING XODIMLAR PSIXOEMOTSIONAL SALOMATLIGIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA’SIRI //MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 6.

4. Husanbayeva Ziyoda Mahmurdjon. (2025). The Effect of Adaptive Intellect to Student Reading Motivation. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 5(04), 126–127. https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume05Issue04-29

5. PSYCHOLOGICAL BASES OF FORMING LEADERSHIP IN LAW ENFORCEMENT OFFICERS. (2025). Web of Teachers: Inderscience Research , 3(9), 69-72. https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/5109